

"INSON QADRI: TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIKNING ILMIY-NAZARIY TALQINLARI“

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLAR TO'PLAMI

"HUMAN VALUES: SCIENTIFIC AND THEORETICAL INTERPRETATIONS OF HISTORICITY AND MODERNITY"

Republican scientific-practical conference on the subject

«ЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ ЦЕННОСТИ: НАУЧНЫЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИСТОРИИ И СОВРЕМЕННОСТИ»

Республиканская научно-практическая конференция

Namangan 2024-yil, 3-iyun

www.namspi.uz

***Bosh muharrir*:** **B. E. Xusanov**
Namangan davlat pedagogika instituti rektori

Mas’ul muharrir: **M. R. Qodirxonov**
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

***Mas’ul muharrir o‘rinbosari*:** **S. M. Botirova**
Gumanitar fanlar kafedrasi mudiri

TAHRIR HAY’ATI:

Xaydarov B. U. – Tarix fanlari nomzodi, dotsent;

Abdullayev A. N. – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;

Yuldashev J. A. – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;

Qambarov A. B. – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta o‘qituvchi;

Zaynobiddinova N. – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta o‘qituvchi;

Ataxanov B. T. – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori, katta o‘qituvchi;

Ismoilov T. I. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Texnik muharrirlar: R. M. Akbarov, M. M. Umarov, I. X. Ja’farov

Mazkur “Inson qadri: tarixiylik va zamonaviylikning ilmiy-nazariy talqinlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnik kengashining 2024-yil 11-iyundagi 6-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN – 2024

Kirish so‘zi

Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar, konferensiya ishtirokchilari! So‘nggi yillarda mamlakatimizda insonlarning munosib hayot kechirishlari, o‘z qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va yuksaltirish uchun shart-sharoitlar yaratish, xalqimizning amalga oshirilayotgan islohotlardan mamnun bo‘lishi hamda ular siymosida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, bir so‘z bilan aytganda inson qadrini ta’minlash masalalarida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohada avvalo, inson manfaatlarini birlamchi o‘ringa qo‘yish, jamiyatdagi o‘zgarishlar va taraqqiyotning asosiy maqsadini insonga yo‘naltirish, inson haq-huquqlari ustuvorligini ta’minlash sohasidagi islohotlarda o‘z aksini topmoqda. Inson manfaatlari inson ehtiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklarining ustuvorligi, uning eng katta boylik sifatida jamiyatdagi alohida o‘rni va ahamiyatini ta’minlash, jamiyat, davlat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni oqilona yo‘lga qo‘yish tamoyillariga tayanadi. **“Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”** deya ta’kidlagan edi davlatimiz rahbari.

Bugun Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi tomonidan o‘tkazilayotgan **“Inson qadri: tarixiylik va zamonaviylikning ilmiy-nazariy talqinlari”** mavzusidagi respublika ilmiy anjumanida biz insonparvarlik – umumhuquqiy tamoyili, inson qadrini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy omillari, tarixiy taraqqiyotda gumanizm g‘oyalarining rivojlanishi hamda Yangi O‘zbekiston sharoitida inson qadri fenomeni mavzulari va tegishli yo‘nalishlarda inson qadri tushunchasi va uning talqiniga ilmiy jihatdan yondashamiz. Mazkur talqin oddiy talqin emas, bu buyuk millat va munosib avlodning oldida turgan davrning dolzarb masalasi.

Namangan davlat pedagogika instituti rektori

B. E. Xusanov

INSONPARVARLIK – UMUMHUQUQIY TAMOYIL SIFATIDA

UMUMBASHARIY QADRIYAT SIFATIDA INSONPARVARLIK TAMOYILINING O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA HUQUQIY MUSTAHKAMLANISHI

J. A. Umarov
Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi.

Annotatsiya*: Ushbu maqolada umuminsoniy-umumbashariy qadriyat sifatida insonparvarlik tamoyili(prinsipi)ning mazmun-mohiyati**,** uning ham ma`naviy, ham axloqiy qadriyat sifatida ahamiyati, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida asosiy huquqiy tamoyil sifatida huquqiy mustahkamlanishi haqida ilmiy qarashlar ifodalangan.*

Abstract*: In this article, scientific views are expressed about the essence of the principle of humanitarianism as a universal human value, its importance as both a spiritual and moral value, and its legal consolidation as a basic legal principle in the Constitution of the Republic of Uzbekistan.*

Аннотация: *В данной статье выражены научные взгляды о сущности принципа гуманизма как общечеловеческой ценности, его значении как духовно-нравственной ценности, а также его правовом закреплении как основного правового принципа в Конституции Республики Беларусь. Узбекистан.*

***Kalit so`zlar:*** *Konstitutsiya, prinsip (tamoyil), norma, qadriyat, inson huquqlari, insonparvarlik, g`oyalar, axloq, ma`naviyat, yashash huquqi, ijtimoiy davlat, xalqchillik.*

Key words*: Constitution, principle, norm, value, human rights, humanitarianism, ideas, morality, spirituality, right to life, social state, nationalism.*

Ключевые слова*: Конституция, принцип, норма, ценность, права человека, гуманизм, идеи, мораль, духовность, право на жизнь, социальное государство, национализм.*

Ma’lumki, muqaddas O’zbekiston deb atalmish qadimiy zaminimizda dunyoviylik bilan diniylik o`zaro bog`liq holda rivojlanishi natijasida, garchi turli davrlarda bunga qarshi keskin kurash olib borilganiga qaramasdan, dinlararo bagrikenglik va millatlararo totuvlik ta’minlanibgina qolmay, milliy qadriyatlarimiz saqlanib qolgan. Ana shunday milliy hamda umumbashariy qadriyatlardan eng ulug`i, ta`bir joiz bo`lsa, birlamchi va yuksak cho`qqisi bu-insonparvarlikdir.

Odatda, insonparvarlik deganda, insonni e’zozlash, hurmat qilish, undagi ijtimoiy-axloqiy xislatlarni kamolga yetkazish, uning moddiy va ma’naviy farovonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish va qo‘llab-quvvatlash tushuniladi. Insonparvarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni o`zida ifodalovchi, hayotda eng qimmatli narsa insondir, butun borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilmogi darkorligini belgilovchi tushuncha hisoblanadi.

«Qadriyat» tushunchasi keng ma`noli. Ular milliy, ma’naviy, madaniy, diniy qadriyatlardir. Ularni bir-biridan ayro tushinish-anglash, hatto ajratish ham qiyin. Qadriyatlar bir-birini to`ldiradi va chambarchas bog`liqdir. «Milliy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Muayyan millat vakilllari uchun zarur va ahamiyatli, qadrli bo’lgan, uning manfaati va maqsad-maslaklariga xizmat qiluvchi urf-odatlar, ma’naviy-moddiy boyliklar,

amallar va tamoyillar, g`oyalar va e`tiqodlardir. Millatning xos tarixiy merosi, san’ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o’ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim o`rin tutadi.

Insonparvarlik goyalari fanda XIX asr boshlarida gumanizm nomi bilan fanda ishlatila boshlagan va jamiyatdagi adolatsizlik, tengsizlikka qarshi kurashni o`zida ifodalagan. II-jahon urushidan keyin Insonparvarlik tomon jiddiy qadamlar qo‘yilib, BMT, YUNESKO kabi xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo tashkilotlar deklaratsiya va hujjatlarida o`z aksini topdi. Insonparvarlik har bir huquqiy, demokratik davlatning asosiy tamoyillardan biriga, hayot tarziga aylanmoqda. Jumladan, O‘zbekiston o‘z siyosatini Insonparvarlik shartlari, talablari, qoidalariga, Sharq va G‘arb davlatlarining eng ilg‘or tajribalariga tayanib olib bormoqda.

“Gumanistik g‘oyalar, – deb ta’kidlaydi professor H. Aliqulov, – “sof holda” namoyon bo‘lmaydi. U davrning xususiyati, xarakteri, davlat boshqaruvining uslubi, hukmdorlarning faoliyati, madaniyat va ma’naviyatning ravnaq topishi, iqtisod va ishlab chiqarishning o‘sishi va hokazolar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarixga nazar tashlasak, insonparvarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bir tekisda rivojlanmagan, balki antigumanistik hatti-harakatlar, insonparvarlikka zid kuchlar va jamiyatdagi salbiy illatlar, axloqsizliklarga qarshi ayovsiz kurashda o‘ziga yo‘l ochib borgan. Lekin bu kurashda hamma vaqt insonparvarlik yovuz kuchlar, tuban va yaramas illatlar ustidan zafar qozongan, deyish xato bo‘ladi. Tarixda shunday davrlar bo‘lganki, jamiyatda qabihlik, zo‘ravonlik, o‘zboshimchalik va jabr-zulm ustuvorlik qilib, odamiylik va diyonat, mehr-shafqat orqaga surilgan”.

Insonparvarlikning ravnaq topgan bosqichi ma’rifatchilik va jadidchilik harakatiga to‘g‘ri keladi. Bu davrdagi insonparvarlik Turkiston xalqlarining mustaqillik, erkin va farovon hayot uchun kurashi, dunyoviy bilimlar, zamonaviy fan va texnikani egallash, yoshlar uchun yangi usuldagi maktablarni tashkil qilish, ular ongi va bilimini oshirish, jamiyatni insonparvarlashtirish g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. “XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida, – deb ta’kidlaydi akademik I. Mo‘minov, – O’zbekiston madaniyatining progressiv vakillari – Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy va shular kabi ilg‘or kishilar o‘rta asrchilik va jaholatparastlikka qarshi kurashib, Navoiyning eng yaxshi traditsiyalarini davom ettirdilar, uning ma’rifatparvarlik, xalqparvarlik chaqiriqlarini kuyladilar”.

Bilamizki, urf-odatlar, ma`naviy-axloqiy qoidalarning muayyan qismi vaqt-zamonlar o`tishi bilan huquq normalariga aylanadi. Umumbashariy qadriyat sifatida ming yillar davomida sayqallashgan insonparvarlik qadriyatining dunyo hamjamiyatida keng yoyilishida uning huquqiy qadriyat sifatida shakllanishi muhum ahamiyatga ega. Insonparvarlik huquqiy norma sifatida emas, balki huquq prinsipi (tamoyili) tarzida namoyon bo`ldi.

Zotan O`zbekiston Konstitutsiyasining Muqaddimasida “Biz, O’zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, **inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish** borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, . . . xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, . . . fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O’zbekistonimizning farovonligini va gullab-

yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz”, - deb huquqiy mustahkamlangan. Zero, insonparvarlik na faqat konstitutsiyaviy, balki umuminsoniy xalqaro tamoyillardan biridir.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O’zbekiston - . . . suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi belgilab qo`yilgan. Bu degani O`zbekiston insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qa’tiy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir. Konstitutsiyaga asosan O’zbekistonning asosiy maqsadi erkin fuqarolik jamiyati, ya’ni xalqning o‘zi bevosita boshqaradigan jamiyat va demokratik huquqiy, insonparvar davlat qurishdir. Unda jami dunyoviy ne’matlar orasida eng ulug‘i "inson" ekanligi yorqin mujassamlashtirilgan. Insonni ulug‘lash uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyaning asosiy g‘oyasiga aylantirilgan. Konstitutsiya inson huquqlari to‘g‘risida xalqaro huquqiy me’yorlar asosida ishlab chiqilgan va uni yanada to‘ldirgan.

Zero, Konstitutsiyaning 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”-deb huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Konstitutsiyaga asosan O’zbekiston – ijtimoiy davlat sifatida har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi ; hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi;kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlardan foydalanish; fuqarolarning oliygohlarga davlat granti hisobidan o‘qish huquqi; hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish huquqi; homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish; ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi; fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi; har kim ishsizlikda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga oid huquqiy meyorlar belgilangan.

Respublikamiz Asosiy qonunida inson huquqlariga oid normalarda qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo‘lishi shart va zarurligi; insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi lozimligi; qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga o‘z roziligisiz yuklatilishi mumkin emasligi kabi fundamental qoidalar o`z aksini topgan. Shuningdek, odil sudlov sohasida o‘lim jazosi taqiqlanganligi; sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi; huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq barcha harakatlarga, faqat va faqat sud qarori asosida yo‘l qo‘yilishi; ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik, ya’ni “sukut saqlash” huquqi berilganligi; har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi; shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda o‘z huquqlari va ushlab turilish asoslari tushuntirilishi kerakligi haqidagi konstitutsiyaviy meyorlarning belgilanishi ham davlatimizning xalqchil va insonparligidan dalolat beradi.

Bosh Qomusimizning 25-moddasida yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinishi, inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyat ekanligi, O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanligi ham inson huquqlari, demakki, insonparvarlik tamoyili davlat miqyosida yuksaklikka ko`tarilganining yaqqol misolidir.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga binoan insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim

qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.

Kelajagimiz poydevori hisoblangan Konstitutsiyamizda yosh avlodni har tomonlama kamol topishi, ayollarimizni e’zozlash, keksa avlod vakillarini hurmatini joyiga qo`yish, kam ta`minotli oilalar, qarovsoz qolgan bolalar va yolziz keksalar hamda nogironlarga g`amho`rlik qilishga oid normalarning mavjudligi unda insonparvarlik tamoyili mustahkamlangaligini bevosita guvohi bo`lamiz (Qarang. Konstitutsiyaning 46, 57, 77-79 - moddalari).

Yuqorida ifodalangan mulohazalarda shunday xulosa chiqarish mumkin: respublikamizda umuminsoniy-umumbashariy qadriyat sifatida insonparvarlik tamoyili har tomonlama, xalqaro andozalarga mos ravishda yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda o`z aksini topgan, yani bir so`z aytganda, mustahkam huquqiy poydevor yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T. : O’zbekiston, 2023. 80 b. ;

2. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T. : O’zbekiston, 1995; 3. O’zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. –T. : Falsafa va huquq nashriyoti, 2007.

4. O’zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. – T. : Falsafa va huquq, 2007. – 10 b.

5. Mo‘minov I. Tanlangan asarlar. T. 1. –Toshkent: Fan, 1969. – 197 b.

INSON IJTIMOIY HUQUQLARINING KONSTITUTSIYADAGI KAFOLATLARI

B. B. Ibraximov

NamDPI katta o’qituvchisi

M. Mahkamov

NamDPI Milliy g’oya, manaviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda asosiy urg‘u qaratilgan ijtimoiy huquqlarning har biriga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, moddalar boshqa fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan*

Kalit so‘zlar: *mexanizm, monarxiya, referendum, fiziologik, sindrom,*

Аннотация: *В данной статье рассматривается каждое из социальных прав, выделенных в новой редакции конституции, в отдельности. Кроме того, юридические статьи анализируются с точки зрения других дисциплин.*

Ключевые слова: *механизм, монархия, референдум, физиологический, синдром*

Annotation: *This article examines each of the social rights highlighted in the new version of the constitution separately. In addition, legal clauses are analyzed from the perspective of other disciplines.*

Key words: *mechanism, monarchy, referendum, physiological, syndrome*

Yer yuzida juda ham ko‘p davlatlar tuzilmasi mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos qonun-qoidalar negizida shakllangan hisoblanadi. Ayrim davlatlar demokratik boshqaruvni bosh

mezon sifatida qaror toptirgan bo‘lsa, yana boshqa bir mamlakat o‘z hukumatini monarxistik g‘oya va maqsadlar asosida boshqarishni afzal ko‘rgan. Albatta, ushbu boshqaruv usullari ham davlatning dinamik rivojlanish siklida munosib o‘ringa ega sanaladi. Bugungi jadal globallashuv davrida mamlakatning istiqbolli sohalarini maqsadli yo‘naltirishda ham tanlangan tuzum o‘z so‘zini aytmay qo‘ymaydi. Barchamizga ma’lumki, tartibga solingan hamda davlat hududida istiqomat qiluvchi jamiyki fuqarolarning amal qilishi shart hisoblangan qonunlar majmuasining bo‘lishi bu eng ahamiyatli jihat demakdir. Chunki bu ham bir siyosatning namunasi sifatida e’torof etiladi. Shunday qonunlar majmuasini biz umumlashtirgan holda konstitutsiya deb ataymiz.

Konstitutsiya (lotincha: *constitutio* — „tuzilish“, „tuzuk“) — bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. “Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq bor edi (imperator konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo‘lgan konstitutsiyalarning ikki guruhini vujudga keltirdi.

Birinchi guruh - hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski konstitutsiyalar. Bu xildagi konstitutsiyalarga 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasi, 1831-yilgi Belgiya konstitutsiyasi, 1874-yilgi Shveysariya konstitutsiyasi misol bo‘la oladi.

Ikkinchi guruhga XX asrning 2-yarmida qabul qilingan “Yangi avlod” konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining, konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat qilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko‘payishi bilan farq qiladi[1].

Endi bevosita yurtimiz hududidagi ilk qat’iy kuchiga ega “konstitutsiya” haqida to‘xtalib o‘tsak. Bu, shubhasiz, davlat va jamoat arbobi, salohiyatli sarkarda Amir Temurning “Temur tuzuklari” hisoblanadi. “Temur tuzuklari” Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda O‘rta Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Markazlashgan davlatni barpo etish hamda uni muntazam ravishda idora qilishda ham ushbu qonunlar tizimi dasturulamal bo‘lib xizmat qilgan. Dunyodagi ayrim yaratilgan konstitutsiyalar uchun ham aynan ushbu manba asos vazifasini o‘tagan deb aytsak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Ajdodimiz yaratgan siyosiy manbaga hamohang ravishda yurtimizda mustaqillikning dastlabki davridayoq, ya’ni 1992-yil 8-dekabr sanasida bosh qomus-Konstitutsiya qabul qiindi. Buni, o‘z navbatida, mustaqillikni tamin etuvchi yana bir tashlangan dadil qadam deb aytish mumkin. Hozirga qadar konstitutsiyamizga ko‘plab o‘zgartirishlar kitirildi. So‘nggi qo‘shimchalar kiritilish jarayoni bevosita umumxalq referendum asosida amalga oshirildi. 2023-yil 30-aprel sanasida yangi tahrirdagi bosh qomusimiz qabul qilindi. Albatta, bu tahrirda ham barcha haq-huquqlar va majburiyatlar yanada keng yoritib, qonunan mustahkamlab qo‘yildi. Keng tarzda o‘rin ajratilgan yo‘nalish esa doimgidek ijtimoiy soha hisoblanadi. Ularning har biriga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

45-modda.

Har kim dam olish huquqiga ega. Yollanib ishlovchilarga dam olish huquqiish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarini, haq to‘lanadigan har yilgi mhnat ta’tilinibelgilash orqali ta’minlanadi.

Darhaqiqat, inson mehnat jarayonida dam olib ishlashi uning ish berish koeffisientining yuqori bo‘lishini belgilab beradi. Dam olish orqali fiziologik jihatdan tana avvalgi holatini qayta

tiklaydi. Agar ishni to‘xtovsiz davom ettirilsa, bu charchoq holatiga olib keladi. Charchoq esa inson jismoniy holatiga ham salbiy ta’sir etishi mumkin. Amaliyot hamda fanda charchash ham o‘ta jiddiy kasallik sifatida ko‘rsatiladi va hatto bu holat surunkali charchoq sindromiga ham aylanishi mumkin. **Surunkali charchoq sindromi** rivojlangan mamlakatlarda eng ko’p uchraydi. Kasallik uzoq davom etadigan charchoq bilan ajralib turadi, u uzoq dam olgandan keyin ham yo’qolmaydi. Kasallikdan oldin odam ko’pincha stressli yoki g’ayrioddiy vaziyatni boshdan kechiradi, bu esa undan katta kuch talab qiladi. Vujudga kelishi avtonom asab tizimining markaziy tartibga solish markazlarining nevrozlari rivojlanishi bilan bog’liq. Surunkali charchoq 6 oy yoki undan ko’proq davom etishi mumkin. Kasallikni qo’zg’atadigan omillar jismoniy faoliyatga zarar etkazadigan muvozanatsiz hissiy va intellektual yukdir. Katta shaharlarning aholisi, tadbirkorlar va ishni bajarishda mas’uliyati yuqori bo’lgan odamlar xavf ostida[2].

Shifokorlar ham shuning uchun dam olishning foydalari haqida ko‘p ta’kidlab o‘tadilar. Bevosita madaniy hordiq chiqarish inson salomatligi uchun foydadan holi emas.

Shuningdek, qomusimizning 50-moddasida ham bugungi kunda katta e’tibor qaratilayotgan ta’lim sohasi haqida to‘xtalib o‘tildi. Moddada:

“ Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi” deya ta’kidlangan[3].

Bir so‘z bilan aytganda, konstitutsiyamizga inson qadrini ulug‘lash, uning huquqlarini taminlashga qaratilgan muhim manba sifatida qarash mumkin. Uning har bir bobi, har bir moddasida bugungi zamonning barcha jabhalari qamrab olingan. Har bir bandi esa aholi manfaatlariga qaratilgan bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti va rivojiga hissa qo‘shishi tayin, albatta. Insonni o‘z yurtida qadr topishi, unga shart-sharoitlar yaratilishi bevosita insonda hayotga bo‘lgan qiziqishlarining yanada ortishi va jamiyat va davlat ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shishiga muhim dasturiamal vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz. wikipedia. org/wiki/Konstitutsiya
2. https://dmclinic. uz/surunkali-charchoq-sindromi/
3. https://lex. uz/docs/-6445145

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЮРИСТ ФАОЛИЯТИДАГИ КАСБИЙ МАСЪУЛИЯТ ВА АХЛОҚИЙ МУНОСАБАТЛАР.

Луиза Джураевна Туганова
Чирчиқ давлат педагогика университети ўқитувчиси
E-mail: luizatuganova@mail. ru
Тел: +998917791986

Аннотация. *Бу мақолада, касбий фаолиятнинг инсон ҳаётида муҳимлик даражаси, унинг қизиқишлари, интилишлари, тараққиёт сари ҳаракат қилишига боғлиқ эканлиги, ҳамда ҳар бир мамлакатнинг тараққиёти ҳам ана шу кўникма ва малакалар йиғиндисидан*

ташкил топган кўникмалар билан чамбарчас боғлиқ ҳолда ривожлантира олиш, ижтимоий жараённинг тўғри ташкил этилганлигидан далолат беради. Ахлоқий меъйёрларнинг тарбия жараёнида тўғри сингдирилиши шу мамлакат жамиятининг ютуғи ҳисобланиши тўғрисида тушунтирилишга ҳаракат қилинган. Дунёвий талаблар, ахлоқий жиҳатларга эътиборни кучайтириш борасида олиб бораётган сиёсий, иқтисодий, ижтимоий жараёнлардан ташкил топган.

Калит сўзлар: *ахлоқ, қонун, касб, фаолият, жамият, ахлоқий категория, инсонпарварлик, тамаддун, этика.*

Аннотация. *В данной статье показано, что уровень значимости профессиональной деятельности в жизни человека зависит от его интересов, стремлений, стремлений к прогрессу, а также от умений и навыков, которые каждая страна может развивать в тесной связи с этой совокупностью умений и навыков, что свидетельствует о правильной организации социального процесса. Была предпринята попытка объяснить, что правильное усвоение нравственных норм в процессе воспитания считается достижением общества этой страны. Светские требования складываются из политических, экономических, социальных процессов, которые ведут к усилению внимания к моральным аспектам.*

Ключевые слова: *этика, право, профессия, деятельность, общество, нравственная категория, гуманность, тамаддун, этика.*

Annatation. *This article shows that the level of importance of professional activity in a person's life depends on his interests, aspirations, aspirations for progress, as well as on the skills and abilities that each country can develop in close connection with this set of skills, which indicates the correct organization of the social process. An attempt was made to explain that the correct assimilation of moral norms in the process of education is considered an achievement of the society of this country. Secular demands consist of political, economic, and social processes that lead to increased attention to moral aspects.*

Keywords: *ethics, law, profession, activity, society, moral category, humanity, tamaddun, ethics.*

Кириш. Қадимдан ахлоқий муносабатлар тўғри шаклланган жамиятда инсонларнинг муносабатлари ўзаро ҳурма, эътибор, инсонпарварлик тамойилларига асосланган бўлиб, инсонийликка бўлган ишонч, эътиборнинг юқори босқичлари тўғрисида кўп ёзма маълумотлар бизгача етиб келган. Инсонларнинг ўзаро муносабатлари аста-секин маълум қоидаларни, ундан кейин эса ҳуқуқий муносабатларнинг ташкил топишига сабаб бўлиб, касбий масъулият тушунчасини шакллантирган. Тамаддун жараёнига назар соладиган бўлсак, ижтимоий жараённинг ҳар қандай муносабатларини таркиб топишига сабабчи бўлган масъулиятли ёндашув фаолиятнинг асоси ҳисобланади.

Бугунги шароитда Янги Ўзбекистонни барпо этиш–бу шунчаки хоҳиш-истак, субъектив ҳодиса эмас, балки туб тарихий асосларга эга бўлган мамлакатимиздаги мавжуд сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий вазиятнинг ўзи тақозо этаётган, халқимизнинг асрий орзу-интилишларига мос, унинг миллий манфаатларига тўла жавоб берадиган объектив заруратдир.

Бизнинг дунёвий тараққиёт йўлимиз, ҳуқуқий давлат, адолатли фуқаролик жамиятини барпо этишга йўналтирилган бўлиб, жамият аъзоларининг ахлоқий ҳолатига, умумий маданият даражасининг шаклланганлигига узвий боғлиқ ҳолда мавжуд бўлади. Бу

эса, ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини фақат юксак ахлоқий фазилатли жамиятда қарор топтириш мумкинлигидан далолат беради, амал қилиш эса ижтимоий муҳитга узвий боғлиқлигини кўрсатади. Шу қаторда шуни белгилаб ўтиш мақсадга мувофиқ, давлат янгича дунёқарашни шакллантиришга қаратаётган ҳаракатларни албатта ўз саҳасида етук кадрларга ҳам боғлиқ десак муболаға бўлмайди. Ана шундай воситаси сифатида намоён бўладиган ахлоқий нормаларнинг мавжудлиги эса ўз касбига бўлган масъулиятнинг ривожланишига сабаб бўлади.

Файласуфлардан Арасту ўз даврида мавжуд фанларни таърифлар экан, уларни учта асосий гуруҳга ажратган: назарий фанларга фалсафа, математика, физикани; ижодий фанларга санъат, бадиий ҳунармандчиликни; амалий фанларга эса ахлоқшунослик ва сиёсатни киритган. Шу тариқа ахлоқшунослик фалсафа доирасида ажралиб чиқади ва мустақил фан сифатида шаклланади. Ҳозирда “Этика” ижтимоий-фалсафий фанлар тизимида ўзига хос ўринга эга бўлиб, ахлоқнинг келиб чиқиши, моҳияти, хусусиятлари, жамият тараққиётидаги ўрни тўғрисидаги фандир. У бошқа ижтимоий фанлар сингари ўз қонунлари ва категорияларига эга бўлиб, улар орқали ўз хулосаларини очиб беради.

Вақт ўтганлигига қарамай, бугунги кунда ҳам кузатилаётган эски тузум иллатларидан қутулиш, ходимлар фаолиятидаги ахлоқий нормаларнинг устуворлигини таъминлаш, турли ахлоқий оғишларнинг олдини олишга эҳтиёжнинг мавжудлигини кузатиб келмоқдамиз. Давлатимизда қабул қилинаётган қонун ва қонун ости ҳужжатларнинг ижросини таъминлаш асослари нафақат бошқарув тизимларига, балки шу органлар хизмат қилаётган халқимизга ҳам кўп аҳамиятли бўлиши, ҳокимият органлари ходимларининг одоб-ахлоқ қоидаларига риоя этишларини такомиллаштиради. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси томонидан “Давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ходимларининг одоб-ахлоқ намунавий қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2016 йил 2 март куни қабул қилинган 62-сонли қарори давлатимизда касб этикаси масалаларини ҳуқуқий жиҳатдан ривожланиш кўрсаткичидир. Янги Ўзбекистонда янгича дунёқараш ҳар томонлама жамиятимиз, унинг аъзоларига бевосита боғлиқдир. Бу дунёқарашни шакллантириш эса ахлоқий меъйёрлар ва профессионал стандартларга мувофиқ ҳаракат қилишдан иборат. Шундай қилиб юристлар фаолиятидаги касбий жавобгарлик ва ахлоқий тамойилларга риоя қилиш нафақат унинг обрўси ва мижозлар ишончини таъминлайди, балки жамиятда ҳуқуқ-тартибот ва адолатни тарғиб қилади.

Ахлоқ тўғрисида Шарқ мутафаккирлари ва давлат арбоблари кўплаб қимматли фикрларни билдирганлар. Улар қаторида Абу Наср Фаробий “Фозил одамлар шаҳри” асарида, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асарида, Кайковуснинг “Қобуснома” асарида, Амир Темурнинг “Темур тузуклари”да ва кўплаб бизга маълум тарихий асарларда давлат раҳбари, вазирлар, қозилар ахлоқи тўғрисида ибратли сўзлар келтирилган. Марказий Осиё Уйғониш даврининг буюк матаффакири Абу Наср Фаробий ўзининг “Фозил одамлар шаҳри” асарида, - “Бу шаҳарга ҳоким бўладиган инсон шу шаҳар аҳолисига имомлик қилувчи оқил киши бўлиб, у табиатан хислат-фазилатни ўзида бирлаштирган бўлиши зарур”, - деган эди.

Хулоса қилиб айтганда, касбий ахлоқий жиҳатлар ва муаммоларни ўрганиш зарур, айниқса замонавий шароитда асосий вазифа оммавий ёндашувда инсонпарварлик консепциясининг сақлаб қолишда, бу тушунчанинг ижтимоийлашиш жараёнида йўқолиб

кетишига йўл қўймасликдадир. Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришган кундан ахлоқ тушунчасини такомиллаштиришга, уни ривожлантиришга қаратилган хатти-ҳаракатлари ҳар бир босиб ўтилган меъйёрларда белгилаб ўтган. Биринчи беш асосий тамойил ундан кейин “Ҳаракатлар стратегияси”, бугунга келиб эса “Тараққиёт стратегия”лари таркибида асосий масала сифатида белгалаб қўйилган.

Юристларнинг касбий жавобгарлиги, шунингдек қонунчилик ва суд амалиётидаги ўзгаришлардан доимо хабардор бўлиш учун ўз билим ва кўникмаларини доимий равишда янгилаб туриш ва такомиллаштириш назарда тутади. Уларнинг, мумкин бўлган манфаатлар тўқнашуви ёки касбий ахлоқ қоидаларини бузмаслик учун ўз ҳаракатларининг хатарлари ва оқибатларини етарли даражада баҳолай олиш муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ш. Мирзиёев. “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси”. Ўзбекистон. Т- 2022. 3-бет.

2. Б. И. Исмаилов. Юристнинг касбий этикаси. Т. : 2019.

3. https://shahidhraja. medium. com/al-farabi-political-philosophy

4. Л. С. Лихачева. Этика: теория и практика. Екатеренбург. :2019

INSONPARVARLIK – INSON QADRINI BELGILOVCHI USTUVOR TAMOYIL

Baxromova Laylo Rayim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi

E-mail: laylorayimovna@gmail. com

Tel: +998 94-189-18-07

Annotatsiya: *Ushbu maqolada insonparvarlik tamoyilining o‘rni va ahamiyati tahlil qilindi. Unda xalqning tarixiy merosi va huquqiy an’analaridan kelib chiqqan insonparvarlik qadriyatlari O‘zbekiston huquqiy tizimining barcha sohalarida ustuvorlik kasb etishi tahlil qilindi. Xalqaro tajriba, olimlar fikri o‘rganilib maqolada yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *huquq prinsiplari, insonparvarlik, qadr-qimmat, qiynoq, Ombudsman, daxlsizlik, preventiv mexanizm.*

Abstract: *This article analyzed the role and importance of the humanitarian principle. It was analyzed that humanitarian values derived from the historical heritage and legal traditions of the people gain priority in all areas of the legal system of Uzbekistan. The international experience and opinions of scientists were studied and covered in the article.*

Key words: *legal principles, humanity, dignity, torture, Ombudsman, immunity, preventive mechanism.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы роль и значение гуманитарного принципа. Проанализировано, что гуманитарные ценности, вытекающие из исторического наследия и правовых традиций народа, приобретают приоритет во всех сферах правовой системы Узбекистана. В статье изучен и освещен международный опыт и мнения ученых.*

Ключевые слова: *правовые принципы, гуманность, достоинство, пытки, омбудсмен, иммунитет, превентивный механизм.*

O‘zbekistonda umumiy huquq tamoyillarining asoslari mintaqada turli etnik guruhlar istiqomat qilgan qadim zamonlarga borib taqaladi. Fors, arab va mo‘g‘ul sivilizatsiyalari kabi qo‘shni imperiyalarning ta’siri mamlakatning huquqiy amaliyotida o‘chmas iz qoldirdi.

Sovet Ittifoqi parchalanib, 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillik e’lon qilinganidan so‘ng, mamlakatimiz o‘zining madaniy merosini aks ettiruvchi va demokratik jamiyat ehtiyojlariga mos keladigan zamonaviy huquqiy tizimni barpo etishga qaratilgan huquqiy islohotlar yo‘liga o‘tdi. Bu davrda umumiy huquq tamoyillari qayta tiklandi, chunki siyosatchilar huquqiy plyuralizmni rivojlantirishga intilishdi.

Davlat va huquq nazariyasida, asosan, “huquq prinsiplari”ning vujudga kelishi masalasi: ularning paydo bo‘lishiga nima zamin yoki manba bo‘lib xizmat qilishi yoritiladi. Ushbu hollarda, “huquq prinsiplari” huquqning shakllanishi masalalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi, qanday hollarda ular huquqning yangi normalari paydo bo‘lishiga olib kelishi masalalari esa, amalda umuman o‘rganilmaydi. [1, B-84]

Milliy huquqiy tizimimiz muayyan huquqiy prinsiplarga amal qiladi. Huquqiy prinsiplar nafaqat huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi, balki fuqarolik jamiyatining ijtimoiy adolat, tenglik va erkinlik kabi munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Prinsip atamasi orqali faylasuflar, huquq- shunoslar va sotsiologlar o‘rganilayotgan hodisaning mavjudlik qonunini, ichki mantig‘ini ifoda etadilar. Prinsip kategoriyasi «qonuniyat», «mohiyat» kategori-yalari bilan uzviy bog‘liqdir. Shundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, huquqiy tizimning mohiyati uning asosiy prinsiplari mazmunida namoyon bo‘ladi. Huquqiy tizim prinsiplari huquqning butun ichki tuzilishini, mazmunini qamrab oladi hamda boshqa ijtimoiy tizimlar bilan aloqasi va o‘zaro munosabatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Huquq prinsiplari, hech mubolag‘asiz, uning mohiyatini ifodalovchi asosiy jihatlardan birini, asl o‘zagini tashkil etadi. Ular butun huquqiy materiyani g‘oyalar, normalar va munosabatlarni qamrab olib, jami huquqiy hayotga muayyan mantiq, mazmun, ma'no, sobitqadamlik, ichki mutanosiblik hamda uyg‘unlik baxsh etadi. Yanada aniqroq ta'riflaydigan bo‘lsak, huquq prinsiplarida bamisoli huquq rivojining butun dunyoviy tajribasi, insoniyat ma'rifiy taraqqiyotining hosilasi o‘zining mujassam ifodasini topadi. Prinsiplar huquq shakllanishida yo‘nalish beruvchi mo‘ljal, mezon vazifasini o‘taydi. [2, B-184]

A. A. Sokolovaning ilmiy faraz sifatida ilgari suryotgan nuqtai nazari, ya’ni huquq shakllanishining barcha bosqichlari ilg‘or huquqiy g‘oyalarni va qaror topgan huquqni shakllantiruvchi ilg‘or g‘oyalarni ifodalaydigan, ijtimoiy-huquqiy voqelikni tashkil etuvchi mantiqiy asoslarga tayanishi kerak, degan fikriga qo‘shilish kerak. Zamonaviy qonunchilikning ijtimoiy ta’siri samaradorligi huquqni shakllantiruvchi omillarning birligi bilan belgilanadi. Jumladan, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: g‘arb va sobiq sovet huquqiy madaniyatiga ega mamlakatlardagi huquqni shakllantirish jarayonini; Evropa Ittifoqi davlatlarida qonun loyihalarini tayyorlash bo‘yicha o‘rganilgan tajriba; bo‘lajak huquqiy hujjatga oid konsepsiyani ishlab chiqish va sobiq sovet mamlakatlarida uning keyingi ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni yagona tusda normativ tartibga solish. [3, B-102]

Umumiy huquqiy prinsiplar barcha huquq tizmida mavjud hisoblanadi. Bu prinsiplarni o‘rganish orqali o‘sha davlatning huquqiy tizimi mazmun mohiyati, tabiati va xususiyati, harakatlanish sifatlari haqida xulosa chiqarish mumkin. Bunday huquqiy prinsiplardan biri insoparvarlik prinsipi hisoblanadi. Insonparvarlik prinsipi inson, jamiyat va davlat munosababtlarini mustahkamlash va tartibga solishda adolat, insonni ulug‘lash, shaxsni qadrlash

va unng sha’nini hurmat qilish, hayot kechirish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratib berish nuqtai nazaridan kelib chiqiladi

Huquqning insonparvarligi qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan ijtimoiy tuzumning shaxs uchun qulay iqtisodiy shart-sharoitlar, imtiyozlar yaratishini nazarda tutadi. Bunda shaxsni tahqirlovchi, qiynoqqa soluvchi va unga nisbatan insonga xos bo‘lmagan munosabatni yoqlab chiquvchi qoidalar bo‘lishi mumkin emas. Davlat tomonidan yuzaga kelgan kafolatlar tizimi fuqarolarni g‘ayri huquqiy xatti-harakatlar hamda ularning oqibatlaridan himoya qilishi kerak. Qonunchiligimizdan insonparvarlik tamoyiliga bir qancha amaliy misollar keltirish mumkin.

Qolaversa, Konstitutsiyamizga ko‘ra, “Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas”.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizga ko‘ra hibsga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi va shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi bo‘yicha ham alohida norma kiritildi. Mazkur normaning bevosita Konstitutsiyada aks etishi mamlakatimizda inson qadri ustuvorligi va qiynoq holatlariga qarshi kurash borasida O‘zbekiston o‘z qat’iy pozitsiyasiga egaligini ko‘rsatadi. Bu jarayonda hukumat tizimni isloh qilish bilan birga, ular ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishini maqsad qilgan.

Aslini olganda qiynoqlarga qarshi kurashish masalasi dunyo miqyosidagi eng og‘riqli muammolardan. Shu sababli, dunyo hamjamiyati ushbu illatga qarshi kurashda kuchlarni birlashtirish, xalqaro miqyosda bajarilishi majburiy bo‘lgan normalarni ishlab chiqish yo‘lidan bormoqda.

Shuningdek, inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda aks etgan “Miranda qoidasi”da shaxsni ushlab turish chog‘ida unga huquqlari, ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi ko‘rsatilgan. BMT Bosh Assambleyasining 2002-yil 18-dekabrdagi tegishli rezolyutsiyasi bilan Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiyaga doir fakultativ protokolida milliy preventiv mexanizm (MPM) tashkil etilishi nazarda tutilgan. MPM har qanday qiynoq ko‘rinishlari oldini olish maqsadida mustaqil xalqaro va milliy organlarning ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar saqlanadigan joylarga muntazam tashriflari tizimini yaratishdir.

Undan tashqari, O‘zbekistonda Ombudman institute faoliyatining samarali ham isnonparvarlik prinsipi ustuvorligini anglatadi. ombudsman huzurida ilg‘or xalqaro tajribalarga asoslangan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizm yo‘lga qo‘yilganidan so‘ng penitensiar muassasalar ombudsman va jamoatchilik vakillarining doimiy nazoratida bo‘ladigan obyektlarga aylandi. “Ombudsman plyus” modeli asosida tashkil etilgan MPM harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarga ombudsman va jamoatchilik vakillari muntazam ravishda kirishi va u yerda saqlanayotgan fuqarolar sharoitlarini o‘rganishi, ular bilan muloqot qilishiga zamin yaratdi.

Xalqaro hamjamiyatda insonparvarlik tamoyili ahamiyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, insonparvarlik tamoyili Germaniya huquqining turli sohalariga, jumladan konstitutsiyaviy huquq, jinoyat huquqi, ma’muriy huquq va ijtimoiy huquq sohalariga singib ketgan. Konstitutsiyaviy huquqda inson qadr-qimmati prinsipi boshqa barcha konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni talqin

qilish va qo‘llashda rahbarlik qiluvchi asosiy qadriyat bo‘lib xizmat qiladi. Sudlar ko‘pincha inson huquqlarini himoya qilish va davlatning shaxsiy masalalarga aralashuvini cheklash uchun insonparvarlik tamoyilini qo‘llaydi.

Frantsiyada uzoq asrlarga borib taqaladigan insonparvarlikning boy tarixi bor. 1789-yilgi Fransiya inqilobi “Liberté, Égalité, Fraternité” (Ozodlik, Tenglik, Birodarlik) shiori bilan inson huquqlari va insonparvarlik qadriyatlari haqidagi zamonaviy tushunchalarga zamin yaratdi. Fransuz huquqiy va siyosiy tafakkurining tamal toshi bo‘lgan “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”da inson qadr-qimmati, qonun oldida tengligi, zulmdan himoyalanish tamoyillari mustahkamlangan.

Insonparvarlik tamoyillari Fransiya huquqida konstitutsiyaviy qoidalar, nizomlar va xalqaro shartnomalar orqali mustahkamlangan. Frantsiya Konstitutsiyasi, xususan, 1946 yilgi Konstitutsiyaning muqaddimasi va 1958 yilgi Konstitutsiyada inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillariga urg‘u berilgan. Bu tamoyillar boshqa barcha huquqiy normalarni talqin qilish va qo‘llashda yetakchi qadriyatlar bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi“2022 —2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni // (Qonunchilik ma’lumotlari milliybazasi, 29. 01. 2022 y. , 06/22/60/0082-son, 18. 03. 2022 y. , 06/22/89/0227-son, 21. 04. 2022 y. , 06/22/113/0330-son) https://lex. uz/en/docs/5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti BoshAssambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi// “Xalq so‘zi” 2017 yil 20 sentyabr.

3. Морозова Л. А. Являются ли принципы права источником права? // Принципы права: проблемы теории и практики: Материалы XI международной научно-практической конференции. В 2-х ч. Ч. 1. М. : РГУП, 2017. С. 84.

4. Odilqoriyev. X, Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - T. : Adolat. 2018. 184. B.

5. Соколова А. А. Принципы правообразования: проблемы правовой институционализации // Принципы права: проблемы теории и практики: Материалы XI международной научно-практической конференции. В 2х ч. Ч. 1. М. : РГУП, 2017. С. 102.

XOTIN-QIZLAR HUQUQBUZARLIGINI OLDINI OLISHDA GENDER OMILLAR

Xojaeva Adolat Abdulqayumovna

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ayollar huquqbuzarligining oldini olishda gender omillarining murakkab o'zaro ta'sirini ko'rib chiqadi. Ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlik ko‘p qirrali muammo bo‘lib, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va psixologik omillar ta’sirida namoyon bo‘ladi. Turli nazariy asoslarni va empirik dalillarni o'rganib, ushbu maqola ayollarning huquqbuzarlik xulq-atvori asosida yotgan murakkab dinamikani yoritib berishga va jinsga xos jihatlarni hisobga olgan holda oldini olish strategiyalarini taklif qilishga qaratilgan. Feministik qarashlar va ijtimoiy nazariyalarga tayanib, biz ayollar huquqbuzarligining asosiy sabablarini tushunishda genderning ahamiyatini o'rganamiz va ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish uchun moslashtirilgan aralashuvlar muhimligini ta'kidlaymiz.*

***Kalit so‘zlar**: Gender, ayollar huquqbuzarligi, oldini olish, ijtimoiy-falsafiy tahlil, feministik qarashlar*

***Abstract:** This article examines the complex interplay of gender factors in the prevention of female offending from a socio-philosophical perspective. Crime among women is a multifaceted problem, manifested under the influence of socio-cultural, economic and psychological factors. By examining various theoretical frameworks and empirical evidence, this article aims to illuminate the complex dynamics underlying women's offending behavior and to suggest gender-sensitive prevention strategies. Drawing on feminist perspectives and social theories, we explore the importance of gender in understanding the root causes of women's offending and emphasize the importance of tailored interventions to address social inequalities.*

***Key words**: Gender, women's crime, prevention, socio-philosophical analysis, feminist views*

***Абстракт:** В данной статье с социально-философской точки зрения рассматривается сложное взаимодействие гендерных факторов в профилактике женских правонарушений. Преступность среди женщин – многогранная проблема, проявляющаяся под влиянием социокультурных, экономических и психологических факторов. Цель этой статьи, исследуя различные теоретические основы и эмпирические данные, — осветить сложную динамику, лежащую в основе преступного поведения женщин, и предложить гендерно-чувствительные стратегии профилактики. Опираясь на феминистские взгляды и социальные теории, мы исследуем важность гендера в понимании коренных причин женских правонарушений и подчеркиваем важность индивидуальных мер по устранению социального неравенства.*

***Ключевые слова**: Гендер, женская преступность, профилактика, социально-философский анализ, феминистские взгляды.*

Kirish. Ayollar va qizlar o'rtasidagi jinoiy xatti-harakatlar, statistik ma'lumotlarga ko'ra, erkaklarnikiga qaraganda kamroq bo'lsa-da, maxsus oldini olish strategiyalarini talab qiladigan noyob va ko'p qirrali muammolarni keltirib chiqaradi. Bu hodisaning ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligiga sabab bo‘layotgan omillar jinsga xos ijtimoiy-madaniy me’yorlar, iqtisodiy nomutanosibliklar, psixologik sharoitlar va ta’lim imkoniyatlari bilan chuqur bog‘langan. Ushbu omillarni tushunish ayollar va qizlar o'rtasida jinoiy xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan samarali choralar va siyosatni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

An'anaviy gender rollari ko'pincha ayollar va qizlarga cheklovli umidlarni yuklaydi, ularning imkoniyatlarini cheklaydi va umidsizlik va isyon tuyg'ulariga hissa qo'shadi. Qashshoqlik va ishsizlik tufayli kuchayib borayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar ba'zi ayollarni omon qolish yoki moliyaviy mustaqillik vositasi sifatida jinoiy faoliyatga undash orqali bu muammolarni yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, psixologik muammolar, jumladan, ruhiy salomatlik muammolari, travma va zo'ravonlik tajribalari ayollarni jinoiy xatti-harakatlarga moyil qilishda muhim rol o'ynaydi. Ayollarning jinoyatchiligi bilan bog'liq stigma va reintegratsiyani qo'llab-quvvatlovchi dasturlarning yo'qligi ham ushbu muammoning oldini olish va hal qilish harakatlariga to'sqinlik qilmoqda.

Ta'lim jinoiy xatti-harakatlarning oldini olishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. Sifatli ta'lim, erta aralashuv dasturlari va kasbiy ta'limga ega bo'lish ayollar va qizlarni qonuniy va samarali hayot kechirish uchun zarur ko'nikma va imkoniyatlar bilan qurollantirishi mumkin. Ushbu o'zaro bog'liq omillarni yaxlit yondashuv orqali hal qilish orqali jamiyat ayollar va qizlar

o'rtasida jinoiy xatti-harakatlarning oldini olish, xavfsizroq va adolatli jamiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu maqola ayollar va qizlar o'rtasida jinoiy xulq-atvorni keltirib chiqaradigan gender omillarini o'rganadi, ijtimoiy-madaniy me'yorlar, iqtisodiy sharoitlar, psixologik omillar va ta'lim imkoniyatlari bu masalaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Keng qamrovli tahlil orqali biz profilaktikaning samarali strategiyalarini ajratib ko‘rsatish va jinoiy faoliyatga qo‘l urish xavfi ostida bo‘lgan ayollar va qizlar duch keladigan noyob muammolarni hal qilish uchun maqsadli tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha tushunchalar berishni maqsad qilganmiz.

Xulq-atvorni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy ta'sirlar muhim rol o'ynaydi. An'anaviy gender rollari va umidlari jinoiy xatti-harakatlarga turli yo'llar bilan yordam berishi mumkin. Masalan, ayollikning ma'lum me'yorlariga rioya qilish uchun jamiyat bosimi, ayniqsa, shaxsiy va professional o'sish imkoniyatlari cheklangan muhitda umidsizlik va isyonga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ayollar jinoyatchiligi bilan bog'liq stigma ko'pincha ta'sirlangan shaxslarni potentsial qo'llab-quvvatlash tizimlaridan ajratib qo'yish orqali muammoni yanada kuchaytiradi.

An'anaviy gender rollari ko'pincha ayollar va qizlarga cheklovli umidlarni yuklaydi, ularning imkoniyatlarini cheklaydi va ojizlik tuyg'usiga hissa qo'shadi. Bu jinoiy xatti-harakatlarda qarshilik ko'rsatish shakli yoki avtonomiyaga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Qolaversa, jamiyatning erkak va ayol jinoyatchiligiga munosabatidagi ikki tomonlama standart hukmlar qattiqroq va ayollar uchun reabilitatsiya imkoniyatlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

1. Korrupsiya o`rniga muqobil narsa berish kerak.

Mansabdor shaxslarning korrupsiya sodir etishiga sabablardan biri bu ularning pulga bo`lgan muhtojligidir. Ya`ni ular pulga bo`lgan muhtojligini korrupsiya orqali to`ldirmoqchi bo`ladi. Buning oldini olish uchun esa korrupsiya o`rniga muqobil narsa berishimiz kerak. Mansabdor shaxslarning oylik maoshlarni ko`tarish korrupsiya o`rniga muqobil narsa bo`lishi mumkin. Tog`ri inson bor ekanki qo`lida yuqori haq bo`lgani sayin ehtiyojlari ham ko`payib yanada ko`p pul topishga intilar, lekin oylik maoshlarni ko`tartilishi maoshi kamligi sababli sodir etiladigan korrupsiyaviy holatlarni oldini oladi.

2. Qonunning muqarrarligi ta`minlash orqali.

Bunda biz AQSH tajribasiga nazar solishimiz mumkin. AQShda korrupsiyaning darajasi boshqa davlatlarga qaraganda ancha past. Oxirgi 50 yillikda AQSh davlat xizmati tizimi korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatida qabul qilingan bir qator qonun va qonunosti hujjatlar bilan tartibga solingan. AQShning korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatining ijobiy xususiyatlaridan biri – mansabdor shaxslarning barchasiga birday taalluqli bo’lgan, hech qanday immunitetga ega emasligi, ya’ni har qanday rasmiy vakil, jumladan, davlat rahbari – prezidentdan to Kongress a’zolari, senator va sudyalar, qonunbuzarlik, jumladan korruptsiyaviy xususiyatga ega bo’lgan xatti-harakatlari uchun o’z lavozimidan chetlashtirilganidan so’ng jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Amerika Qo’shma Shtatlarida korruptsiyaga qarshi qonunlar haddan ziyod qat’iyligi bilan tavsiflanadi. Turli ko’rinishdagi korruptsiya – poraxo’rlik, kikbeking (bitim ishtirokchisiga noqonuniy pullarning bir qismini to’lash) va boshqalar uchun – pora miqdorining uch baravarida jarima yoki 15 yil qamoq jazosi yoki bir vaqtning o’zida har ikkala jazo chorasi, og’irlashtiriladigan holatlarda – 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [6]. Korrupsiyani oldini olish uchun biz ham qonunning muqarrarligini ta`minlab, jazoni kuchaytirishimiz kerak. Shunda mansabdor shaxs korrupsiya xolatini sodir etishdan avval, unga nisbatan qo`llanadigan jazo chorasini o`ylab, korrupsiyadan o`zini tiyishi mumkin. Masalan, xitoyda korrupsiya sodir etgan shaxsga nisbatan o`lim jazosi qo`llaniladi [7. Kun. uz yangiliklari]. O`lim jazosi belgilangan bo`lsada korrupsiyaviy xolatlar barham topganicha yo`q, lekin jazoning yuqoriligi korrupsiyani kamaytirgan albatta. Chunki korrupsiya sodir etmoqchi bo`lgan mansabdor shaxs, uni sodir etishdan avval korrupsiyani orqasidan o`lib ketishi mumkinligini o`ylab, ma`lum ma`noda bunday jinoyatdan o`zini tiyadi. Shu bois, O`zbekistonda ham korrupsiyaga nisbatan jazo chorasini kuchaytirib, uni muqarrarligi ta`minlashimiz zarur.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashishni tizimlashtirish orqali.

Korrupsiyani kamaytirish uchun shunday tizim yaratishimiz kerakki, bunda korrupsiya xolati sodir etish uchun inson omili aralasha olmasligi kerak. Masalan, Hukumatning 2023-yil 10-noyabrdagi qaroriga asosan, bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash tartibiga o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritildi [8. Daryo. uz yangiliklari]. Yangi kiritilayotgan tartibga ko‘ra, 2023-yil dekabrdan bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlangan oilaning iqtisodiy ahvoli har oyda o‘rganib boriladi. Agar oilaning iqtisodiy holatida yaxshilanish kuzatilsa, masalan, u mol-

mulk, yangi avtomobil xarid qilgani aniqlansa, dastur moddiy yordam berish mezonlarini qaytadan avtomatik o‘rganadi. Oila o‘sha mezonlarga mos kelmay qolgan taqdirda pul berish to‘xtatiladi. Amaldagi tartibda bolalar nafaqasi tayinlangan oilaning iqtisodiy holati bir yil ichida yaxshilansa-da, unga belgilangan muddat davomida pul berish to‘xtatilmas edi. Chunki buning huquqiy asosi bo‘lmagan. Yangi qaror bilan shu asos yaratildi. Endi dastur barchasini avtomatik tarzda aniqlaydi. Aytaylik, nafaqa tayinlangan fuqaro mashina sotib olsa, Ichki ishlar vazirligi axborot tizimi orqali dasturga ma’lumot kelib tushadi va o‘sha oilaga moddiy yordam berish to‘xtatiladi.

Bundan oldin mahalla fuqarolar yig‘inidagi komissiyalar tomonidan tayinlanardi. Natijada ayrim fuqarolar o‘zining mol-mulki yoki avtotransport vositasini qarindoshi nomiga o‘tkazib, kam ta’minlangan sifatida nafaqa olayotgani aniqlangan. Ba’zi nafaqa berilayotgan oilalarning mol-mulk, mashina, yuqori ish haqi olayotgani va iqtisodiy holati yaxshilangani ham kuzatildi. Oqibatda aholi orasida ijtimoiy adolat buzilyapti, degan tasavvur uyg‘ondi. Bunday holatlarning oldini olish, jarayonni yanada raqamlashtirish va inson omilini kamaytirish maqsadida hukumatning ushbu qarori qabul qilindi. Endi inson xoxlasa ham bu tizimga aralasholmaydi. Chunki hamma narsani tizimning o`zi avtomatik tayinlaydi. Bu esa, ushbu tizimdagi korrupsiyaviy xolatlarni oldini oladi deb qo`rqmay ayta olamiz. Korrupsiyaviy xolatlarni kamaytirish uchun, shu kabi inson omilini kamaytiruvchi samarali tizimlar yaratishda da`vom etishimiz kerak.

4. Inson mafkurasiga ta`sir etish orqali.

Korrupsiyani oldini olish uchun yuqoridagi choralar, tizimni o`zgartirish bilan birgalikda korrupsiyani xayotimizga olib kelishi mumkin bo`lgan salbiy oqibatlarini insonlarga, ayniqsa endi o`sib borayotgan yoshlarimiz ongiga singdirishimiz kerakki, barchaning ongida, mafkurasida korrupsiyaga qarshi murosasiz madaniyat singishi kerak. To`g`ri korrupsiyaga qarshi kurashishda mafkurani o`zgartirish yo`li ko`p yillar oladi, lekin bu yo`l, fikrimcha korrupsiyani kamaytirishdagi asosiy yo`llardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytishim mumkinki, korrupsiya bu jamiyatni orqaga tortuvchi, davlatni rivojlanishiga to`siq bo`luvchi illat bo`libgina qolmay, u insonlar hayotini ham izdan chiqaradi. Bu gapimni asoslaydigan bo`lsam, korrupsiya natijasida shifokorlik kasbiga erishgan shifokor qo`lida bemorlar jon beradi. Korrupsiyaviy yo`l orqali sudyalik kasbiga erishgan shaxs tomonidan insonlar nohaq jazoga tortiladi. Bulardan ko`rinib turibdiki korrupsiya xayotni izdan chiqaruvchi yomon illatdir. Buni oldini olish uchun esa, qilinishi kerak bo`1gan ishlarni faqat davlat, hukumat qilsin demay, fuqarolarning barchasi birgalikda harakat qilishi kerak. Ular o`z onglarida korrupsiyaning qanchalik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligini singdirishlari kerak. Men ushbu maqolamda korrupsiyani kamaytirish uchun bir necha tavsiyalarni taklif etdim. Umid qilamanki, kelajakda, fuqarolarimiz tomonidan korrupsiyani yomon oqibatlarini tushunib borib, korrupsiyaga nisbatan murosasiz shaklda turishlari, shu bilan birga davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasida korrupsiyaviy jinoyatlar kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A. Sh. Bekmurodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 344 b. © O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi

2. v Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar. // Manba: www. president. uz/uz/lists/view/3324

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni

5. https://uz. kursiv. media/uz/2024-01-30/ozbekiston-korrupsiya-boyicha-xalqaro-reytingida-121-oringa-kotarildi/

6. Зарубежный опыт противодействия коррупции – Научно-исследовательский центр проблем национальной безопасности (nic-pnb. ru)

7. https://kun. uz/news/2023/01/10/xitoy-amaldori-345-mln-dollar-pora-olgani-uchun-olim-jazosiga-hukm-qilindi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F01%2F10%2Fxitoy-amaldori-345-mln-dollar-pora-olgani-uchun-olim-jazosiga-hukm-qilindi

8. https://daryo. uz/2023/11/15/ozbekistonda-bolalar-nafaqasi-va-moddiy-yordam-tayinlash-tizimida-qator-ozgarishlar-qilinmoqda?utm=tg-uz

HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING DOLZARB VAZIFALARI

Komiljonov Hikmatillo Jahongir og`li

Namangan davlat universiteti, Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

komiljonovhikmatillo0@gmail. com

Annotatsiya: *Ushbu maqola huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish, hamda uning huquqiy asoslarini yaratish, jamiyatda fuqarolar ayniqsa yosh avlodning huquqiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ishlar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Huquq, madaniyat, huquqiy ong, jamiyat, guruh, shaxs, fuqarolik jamiyati, demokratiya, qonun, ijyimoiy-iqtisodiy, islohot, siyosat, shaxsiy mafaat, jamiyat mafaati, g‘oya, huquqiy ta’lim-tarbiya*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о развитии правосознания и правовой культуры, а также создании его правовых основ, формировании правовых знаний и умений граждан в обществе, особенно молодого поколения.*

Ключевые слова: *Право, культура, правосознание, общество, группа, личность, гражданское общество, демократия, право, социально экономическое, реформа, политика, личная выгода, общественная польза, идея, юридическое образование.*

Annotation: *this article cites information about the development of legal consciousness and legal culture, as well as the creation of its legal framework, work aimed at the formation of legal knowledge and skills of citizens in society, especially the younger generation.*

Keywords: *law, culture, legal consciousness, society, group, person, civil society, democracy, law, economic, reform, politics, personal mafaat, community mafaat, idea, legal education.*

Mamlakatimizda mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy sharti sifatida xalqimizning huquqiy bilimi va madaniyatini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash, qabul qilingan qonun va qarorlarning mazmun mohiyatini aholiga chuqur o‘rgatishga katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish, tom ma’noda huquqiy ongni yuksaltirish davr talabiga aylanib ulgurdi. Fuqarolarda yuksak huquqiy tafakkur shakllanmas ekan, turli xil nomutanosibliklar albatta kelib chiqaveradi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va shu orqali

qonun ustuvorligiga erishish nafaqat jamiyatning, balki o‘sib kelayotgan yoshlar uchun qimmatlidir. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zarur sharti qonunlarga so‘zsiz itoat etishdir.

Huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri bu— qonun ustuvorligini ta’minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong hamda madaniyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash mazkur islohotlarning bosh bo‘g‘inini tashkil etadi. Jamiyatdahuquqiyongvahuquqiy madaniyatni yuksaltirish, mamlakatimiz aholisi va yoshlari ongida qonunlarga hurmat ruhini singdirish masalalari juda muhimdir. Inson o‘zini huquqiy jihatdan yetuk, bilimli deb hisoblashi uchun birinchi navbatda unda jamiyatda o‘rnatilgan huquq normalariga nisbatan hurmat ruhi shakllangan bo‘lishi lozimdir. O‘tgan yillar mobaynida o‘tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamiri yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlandi. Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati juda ko‘p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda madaniyati darajasiga bog‘liq jarayondir. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. Huquqiy ong - bu qonunga, davlat organlari faoliyatiga, shu bilan birgalikda, shaxslarning huquqiy tartibga solish sohasida sodir etilgan harakatlariga munosabatni ifodalovchi g‘oyalar, his-tuyg‘ular yig‘indisidir. Huquqiy ongning ijtimoiy ong shakli sifatidagi o‘ziga xosligi uning odamlarning ijtimoiy va individual hayotining intellektual ifodasi ekanligida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e’tibor, sabr-toqat kabi ma’rifat va haqiqat tuyg`ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo`lida fidokorona mehnat qilishga yo`naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir.

Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg`usini, qonunlarni bilish va unga qat’iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo`lib kelmoqda. [1] Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti - bu qonunlarning so`zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so`zsiz bajarilishi har bir shaxsning o`z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas’uliyatni his qilishiga bog`liqdir. [2] Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiyiqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalardagi keng qamrovli islohotlar natijasi o‘laroq, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasiga davlat darajasida ulkan e’tibor qaratilmoqda. Mazkur sohada qo‘yilgan maqsadlarga erishish, avvalo, mavjud holatni chuqur o‘rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun tegishli yechim izlashni taqozo etadi. [3]

Huquqiy siyosat tadqiqot institutining “Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasidagi dolzarb vazifalar” mavzusidagi tadqiqoti oldiga shu masalalar qo‘yilgan edi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 25-maydagi 106-um-son buyrug‘i

bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamisining 2022-yil 16-maydagi 259-son “2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan. Tadqiqot mobaynida institut tomonidan ishlab chiqilgan savolnoma Adliya vazirligi rasmiy sahifalari, “Huquqiy axborot kanali” adliya organlari va muassasalari hamda hududiy boshqarmalarning telegram, facebook, instagram va twitter kabi ijtimoiy tarmoqlariga joylandi. So‘rovnomada respublika bo‘ylab jami 1000 nafarga yaqin respondent ishtirok etdi. Respondentlarning 68, 7 % erkaklar, 31, 5 % esaayollar tashkil etgan. Ularning 43, 4% 18-30 yoshdagilar, 35, 9% 31-40 yoshdagilar, 14, 4% 41-50 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qilsa, ma’lumotiga ko‘ra 65, 3% oliy, 25, 9%o‘rta maxsus, 8, 7% esa o‘rta ta’lim olgan fuqarolar ekanligi ma’lum bo’ldi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, jamiyatda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan yana quyidagi taklif va tavsiyalarni aytish mumkin:

– fuqarolarda huquqiy bilimlarini baholashga imkon beruvchi turli teledasturlarni

– davlat organlari va tashkilotlarida fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda yuqori turuvchi tashkilotga yoki takroran tashkilot rahbariyatiga murojaat qilish tartibini qayta ko‘rib chiqish, bu turdagi murojaatlarni hal qilish samaradorligini oshirish;

– respublikamiz aholisining huquqiy madaniyatini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, bunda jamoatchilik nazorati mexanizmlaridan keng foydalanish, jamiyat huquqiy madaniyati darajasining ijobiy natijalarini omma e’tiboriga yetkazish;

– amalga oshirilayotgan islohotlarni aholi kundalik turmush darajasi bilan bog‘lash, bu turdagi islohotlar natijalarini doimiy tahlilini yo‘lga qo‘yish;

– aholining huquqiy madaniyat darajasini oshirishda kichik guruhlar bilan ishlash, ta’lim muassasalarida tarbiya fani rolini oshirish;

– aholiga huquqiy axborotlarni, huquqiy sohadagi islohotlar mazmunini ko‘proq televideniye orqali yetkazish, shuningdek, huquqiy targ‘ibotni amalga oshirishda internet manbalari, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan keng foydalanish. [4]

Fuqarolarning o‘z huquqlarini himoya qilish imkonini beradigan qonun hujjatlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishlari va zarur holatlarda ularni amalda qo‘llay olishi, o‘z qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hayotda kelib chiqadigan turli nizoli masalalarni faqat qonun doirasida hal qilishga intilish jamiyatda huquqiy savodxonlik darajasini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Shunday ekan, olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar va bu borada qabul qilingan qonunlar mohiyatini aholi tomonidan chuqur anglab yetishiga har tomonlama ko‘maklashish davlat organlari, keng jamoatchilik va mamlakat taqdiriga befarq bo‘lmagan barchamizning burchimizdir.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, huquqiy ong va huquqiy madaniyat dinamik xarakterga ega bo‘lgan sohalar bo‘lib, har 3-4 yilda ma’lum darajada yangilanish xususiyatiga ega. Shu o‘rinda, bugungi kunda mazkur sohada mavjud ayrim kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab, bartaraf etib borilsa, nisbatan qisqa muddatlarda mamlakatimizda qonun ustuvorligining yanada mustahkamlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi. “ O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T. : Adolat 2011, 7-b

2. Islomov. Z. M. Davlat va huquq nazariyasi. -T. : Adolat, 2007. -537-b

3. Xudoyor Mamatov. ” Huquqiy ong, huquqiy madaniayt davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilaydi”. uza. uz

4. U. Tajixanov, A, Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom. - Toshkent. 1998, 11-b

5. Aholining huquq va erkiliklarini himoya qilish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yanada yuksaltirishning huquqiy asoslari. E. Qodirov //Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy ongni oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o`rni va roli mavzusida tashkil etilgan davra suhbati materiallari. - T. :Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2015, 20-b

6. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o`rganish Markazi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi” mavzusida jamoatchilik fikri so`rovi. Kun. uz 24. 11. 2017

7. Odilqoriyev X. T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T. : “Adolat”, 2018, 287-b

8. https://hsti. uz/?p=28328

INSON HUQUQI VA INSON QADRI

Oribjonova Saodat Isaqjon qizi

Namangan davlat pedagogika insituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo’nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: oribjanovasaodatoy@gmail. com

Tel: 95-836-11-23

Annotatsiya. *Ushbu maqola inson huquqi va inson qadr-qimmati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadi, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan Qonunchilik bazasi va shaxslarning o'ziga xos qiymati va qiymati o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni o'rganadi. Keng qamrovli adabiyot tahlilini asosiy tushunchalarni o'rganish bilan birlashtirib, ushbu maqola huquqiy tizimlarning inson qadr-qimmatini himoya qilish yoki ularga qarshi chiqish usullarini yoritishga qaratilgan. Metodlar bo'limida ushbu tadqiqotni o'tkazishda olingan yondashuv, so'ngra natijalar, munozaralar, xulosalar va kelajakdagi tadqiqotlar uchun takliflar ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Inson huquqi, inson qadr-qimmati, huquqiy asos, shaxs huquqlari, adolat, axloq, axloqiy mulohazalar, ijtimoiy shartnomalar.*

Inson qadr-qimmati tushunchasi butun dunyo jamiyatlarining axloqiy tuzilishi uchun asosdir. Bu adolatli va adolatli jamiyatni tarbiyalashga qaratilgan qonunlarni yaratish va amalga oshirishga asos bo'lgan etakchi tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqola mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, ushbu tadqiqotda qo'llanilgan usullarni o'rganish, natijalarni taqdim etish va kelajakdagi tadqiqotlar uchun xulosalar va takliflar bilan yakunlanadigan puxta muhokamaga kirish orqali inson qonuni va inson qadr-qimmati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochishga qaratilgan.

Ko'plab olimlar inson huquqi va inson qadr-qimmati bilan bog'liq bo'lib, huquqiy tizimlar shaxslarning o'ziga xos qiymatini himoya qilish yoki buzishda muhim rol o'ynashini ta'kidladilar. Asosiy mavzularga shaxs huquqlarini himoya qilish, adolatga intilish va huquqiy landshaftni shakllantiradigan axloqiy mulohazalar kiradi. [Muallif 1] kabi olimlar inson qadr-qimmati huquqiy

asoslarning asosi ekanligini ta'kidlaydilar, [Muallif 2] esa ba'zi huquqiy tuzilmalar beixtiyor shaxs qadr-qimmatini buzishi mumkin deb ta'kidlaydi.

Inson huquqi va inson qadr-qimmati o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun maqolalar, kitoblar va huquqiy hujjatlarni qamrab olgan keng qamrovli adabiyotlar sharhi o'tkazildi. Ushbu ikki tushunchaning o'zaro ta'sirini yoritadigan asosiy mavzular, nazariy asoslar va empirik tadqiqotlarni aniqlashga e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, huquqiy tizimlar inson qadr-qimmatiga qanday ta'sir qilishiga oid haqiqiy misollarni taqdim etish uchun amaliy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Inson huquqi va inson qadr-qimmati o'rtasidagi munosabatlar huquqiy, axloqiy va falsafiy mulohazalarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali mavzudir. Inson qadr-qimmati har bir shaxsning xususiyatlari, holati yoki qobiliyatidan qat'i nazar, uning ichki qiymati va qadr-qimmatini anglatadi. Bu ko'pincha munozaralarda asosiy printsip deb hisoblanadi inson huquqlari va axloq qoidalari.

Boshqa tomondan, inson huquqi jamiyatlar tomonidan xulq-atvorni tartibga solish, nizolarni hal qilish va tartibni saqlash uchun yaratilgan huquqiy asoslar va tizimlarni qamrab oladi. Inson huquqi va inson qadr-qimmatining kesishishi bir nechta muhim savollar va mulohazalarni keltirib chiqaradi:

Inson qadr-qimmatini huquqiy himoya qilish:

- Dunyo bo'ylab ko'plab huquqiy tizimlar inson qadr-qimmati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ba'zi asosiy inson huquqlarini tan oladi va himoya qiladi. Ushbu huquqlar yashash huquqi, erkinlik, shaxsiy hayot va qiynoqlar yoki shafqatsiz muomaladan ozodlikni o'z ichiga olishi mumkin.

Tenglik va kamsitmaslik:

- Inson qadr-qimmati ko'pincha tenglik va kamsitmaslik tamoyillari bilan bog'liq. Irqi, jinsi, dini va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha shaxslarga teng munosabatda bo'lish va himoya qilishni targ'ib qiluvchi qonunlar inson qadr-qimmatini himoya qilishga yordam beradi.

Avtonomiya va shaxsiy erkinlik:

- Shaxsiy avtonomiya va shaxsiy erkinlikni hurmat qilish inson qadr-qimmatini himoya qilish uchun juda muhimdir. So'z, so'z va vijdon erkinligini himoya qiluvchi qonunlar shaxslar munosib yashashi mumkin bo'lgan muhitni rivojlantirishga yordam beradi.

Jazo va Adolat:

- Huquqiy tizimlar adolat va jazoga bo'lgan ehtiyojni inson qadr-qimmatini hurmat qilish bilan muvozanatlashtirishi kerak. Shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi jazo, masalan, inson qadr-qimmati tamoyillarini va inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni buzishi mumkin.

Bioetika va inson qadr-qimmati:

- Texnologiya va tibbiyotdagi yutuqlar axloqiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Genetik muhandislik, reproduktiv texnologiyalar va umr bo'yi qarorlar kabi masalalar individual avtonomiyani inson qadr-qimmatini kengroq hisobga olish bilan qanday muvozanatlash haqida savollar tug'diradi.

Madaniy va Global istiqbollar:

- Turli madaniyatlarda inson qadr-qimmati turlicha talqin qilinishi mumkin va huquqiy tizimlar ushbu madaniy qadriyatlarni aks ettirishi mumkin. Inson huquqlari standartlarini o'rnatish bo'yicha Global sa'y-harakatlar inson qadr-qimmatini hurmat qiladigan va qo'llab-quvvatlaydigan umumiy zamin yaratishga qaratilgan.

Aslida, inson huquqi va inson qadr-qimmati o'rtasidagi munosabatlar huquqiy, axloqiy va falsafiy tamoyillar o'rtasidagi doimiy muloqotni o'z ichiga oladi. Inson qadr-qimmatini himoya qilishni birinchi o'ringa qo'yadigan huquqiy tizimlar har bir shaxsning o'ziga xos qadr-qimmatini tan olib, adolatli va insonparvar jamiyatga hissa qo'shadi. Huquqiy asoslar inson qadr-qimmatini himoya qiluvchi tamoyillarni izchil qo'llab-quvvatlagan holda o'zgaruvchan ijtimoiy qadriyatlarga moslashish va moslashish uchun muhimdir.

Muhokama bo'limi inson huquqi va inson qadr-qimmati o'rtasidagi munosabatlarning nuanslarini o'rganadi. Axloqiy mulohazalar, shaxs huquqlari va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanat va madaniy va tarixiy kontekstlarning ta'siri o'rganiladi. Bo'lim inson qadr-qimmatini saqlashda huquqiy asoslar tomonidan taqdim etilgan muammolar va imkoniyatlar to'g'risida yaxlit tushuncha berishga qaratilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada inson qonuni va inson qadr-qimmati o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik ta'kidlangan. Tadqiqot har bir shaxsning o'ziga xos qiymatini himoya qilish va targ'ib qilishga faol intilayotgan hushyor va axloqiy ma'lumotli huquqiy tizimning muhimligini ta'kidlaydi. Ko'pgina huquqiy asoslar inson qadr-qimmati tamoyillariga mos keladigan bo'lsa-da, qonunlarning ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlash uchun doimiy ravishda tekshirish va moslashishga ehtiyoj bor.

Ushbu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar tez rivojlanayotgan texnologiyalar, globallashuv va o'zgaruvchan madaniy me'yorlar sharoitida paydo bo'layotgan huquqiy muammolarni o'rganishi kerak. Bundan tashqari, inson qadr-qimmatini birinchi o'ringa qo'yadigan huquqiy tizimni rivojlantirishda ta'lim va advokatlikning rolini o'rganish siyosatchilar va yuridik amaliyotchilar uchun qimmatli tushunchalarni berishi mumkin.

Adabiyotlar.

1. Инсон ҳуқуқлари: Парламент аъзолари учун қўлланма. - Тошкент: Baktria press, 2019.

2. Новый Узбекистан и права человека. Информация о состоянии соблюдения международных обязательств Республики Узбекистан в области прав человека. – Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2020.

3. Абдуллаев, Д. Х. (2020). Экологическое воспитание молодежи. Вестник науки и образования, (15-2 (93)), 53-55.

4. Абдуллаев, Д. Х. (2019). Взаимоотношения личности и массовой культуры в современном обществе. Достижения науки и образования, (7 (48)), 112-114.

5. Абдуллаев, Д. Х. , Курбонбоева, А. У. К. , & Меркурьева, А. Ю. (2022). КУЛЬТУРНО-ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА ОСНОВА ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 540-544

ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИ – ЁШЛАРНИ “ВАТАН ТАЯНЧИ” ҲАРАКАТИ ОРҚАЛИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛАБЛАРИ

А. Н. Ярматов

Қорақалпоғистон Республикаси мудофаа ишлари бошқармаси бошлиғининг ўринбосари - “Ватан таянчи” ҳаракати бўлими бошлиғи, подполковник

Тел: +998 88 325 88 08

Аннотация. Мақолада ўқувчи ёшларни ватанпарварлик, миллий қадрият ва

қонунларга ҳурмат руҳида тарбиялашда “Ватан таянчи” болалар ва ўсмирлар ҳарбий ватанпарварлик ҳаракатининг ўрни ва ушбу ҳаракат ёшларнинг ватанпарварлик, миллий қадрият ва қонунларга ҳурмат руҳида тарбиялашда ўта долзарблиги, давлат сиёсати марказида турганлиги, бу борада олиб борилаётган ислоҳотларнинг муҳим жиҳатлари ҳамда глобаллашув жараёнида ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг анъанавий ва замонавий усуллари ёритилган.

Таянч иборалар: ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, давлат сиёсати, ёшлар, ислоҳот, тараққиёт стратегияси, ёшлар агентлиги, ёшлар иттифоқи, ҳарбий-маъмурий сектор, глобализация, ахлоқ, анъанавий ва замонавий усуллар, “Ватан таянчи” болалар ва ўсмирлар ҳарбий ватанпарварлик ҳаракати.

Аннотация. В статье рассмотрены актуальность воспитания молодежи в духе военного патриотизма, внимание к данному вопросу в государственной политике, важные аспекты проводимых в данной сфере реформ, а также традиционные и современные способы формирования у молодежи морали военного патриотизма с учетом современного процесса глобализации, Детско-юношеское военно-патриотическое движение “Ватан таянчи”.

Ключевые слова: воспитание в духе военного патриотизма, государственная политика, молодежь, реформа, стратегия действий, союз молодежи, военно-административный сектор, глобализация, мораль, традиционные и современные способы, Детско-юношеское военно-патриотическое движение “Ватан таянчи”.

Abstract. This article explores issues of educating youth in the spirit of patriotism and it is essence in the state policy, significance of reforms being conducted in the state as well as traditional and modern ways of forming youth’s military patriotic behavour. Children and youth military-patriotik movement “Vatan tayanchi”.

Key words: educating in the spirit of patriotism, state policy, youth, reforms, Strategy directions, Youth’s union, military-administrative sector, globalization, morale, traditional and modern methods, Children and youth military-patriotik movement “Vatan tayanchi”.

Кириш. Мамлакатимизда ёшларни ҳарбий – ватанпарварлик, юксак маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш бўйича тизимли ишларни амалга оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қуролли Кучлар олий бош қўмондони Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганлигининг 31 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига байрам табригида таъкидлаганларидек[1].:

“Бу борада ўтган йили мамлакатимиз бўйлаб “Ватан таянчи” болалар ва ўсмирлар ҳаракатини ташкил этганимиз ҳамда барча умумтаълим мактабларида мазкур ҳаракатнинг 20 мингдан зиёд ўқувчи ёшларни қамраб олган гуруҳлари тузилгани фарзандларимиз қалбида Ватанга муҳаббат ва садоқат туйғуларини юксалтиришга муносиб ҳисса қўшаётганини таъкидлаш лозим”.

“Ватан таянчи” болалар ва ўсмирлар ҳаракати ташкил этилишининг ҳуқуқий асослари ҳақида сўз борганда, аввало, Президентимиз томонидан 2021 йил 13 июлда қабул қилинган “Ёшларни ҳар томонлама қўллаб қувватлаш ва уларнинг ижтимоий фаоллигини янада оширишга оид қўшимча чора тадбирлар тўғрисида”ги фармонига [2]. алоҳида тўхталиш лозим.

Ушбу ҳужжатга мувофиқ “Ўзбекистон ёшлари ва талабалари форумида ёшларга оид давлат сиёсати соҳасида белгилаб берилган устувор вазифалар ижросини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар дастури” тасдиқланган.

Дастурнинг 3-қисмида ёшлар ўртасида маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, уларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва бўш вақтини мазмунли ташкил этишга қаратилган бир қанча бандлар белгиланган. Жумладан, Мудофаа вазирлиги ҳузурида болалар ва ўсмирлар ҳарбий-ватанпарварлик ҳаракатини ташкил этиш масаласи кўзда тутилган.

Бинобарин, мамлакатимизда Янги Ўзбекистонни барпо этишдек улуғ мақсадга эришиш йўлида асосий таянчимиз бўлган азму шижоатли ёшларга эътибор ва ғамхурлик кўрсатиш, уларга барча соҳаларда ўз иқтидори ва слоҳиятини тўлиқ намоён этиши учун зарур шароит ва имкониятлар яратиб бериш давлат сиёсатининг устувор йўналиши ҳисобланади.

Давлатимиз раҳбари таъбири билан айтганда, “Энг бебаҳо олий неъмат-тинчлигимиз ва осойишталигимизнинг қадрига етишимиз, оилаларимиз, фарзандларимиз, келгуси авлодларимизнинг бахту камоли учун бу улуғ бойликни асраб-авайлашимиз лозим. Шу мақсадда ёшларимизни ҳарбий – ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларнинг она юртга меҳри ва садоқатини оширига янада кўпроқ аҳамият беришимиз керак”.

Юқорида таъкидланганидек, Президентимизнинг 2022 йил 2 март кунидаги Қарорига[3]. кўра Мудофаа вазирлиги ҳузурида “Ватан таянчи” болалар ва ўсмирлар ҳарбий ватанпарварлик ҳаракати фаолияти ташкил этилган эди. Хўш, бу қандай ташкилот? Ўтган икки йил давомида қандай ишлар бажарилди? Келгусида бу ҳаракат аъзоларининг истиқболлари қандай? Шу саволларга жавоб бериб ўтамиз.

Ушбу ҳаракатни ташкил этишдан кўзланган мақсад мамлакатимизда амалга оширилаётган ёшлар сиёсатини изчил давом эттириш, ёш авлодни ватанпарварлик, миллий қадриятлар, анъаналаримизга ҳурмат руҳида тарбиялаш ҳамда маънан ва жисмонан етук қилиб, камол топтиришдан иборат. Ушбу ҳаракат фаолиятини самарали йўлга қўйиш, қисқа фурсатларда умумтаълим мактабларида “Ватан таянчи” отрядларини ташкил этиш, таъминот ҳамда масъул мутахассисларнинг малакасини ошириш масалалари доимий эътибор марказида турибди.

“Ватан таянчи” болалар ва ўсмирлар ҳарбий ватанпарварлик ҳаракатига давлат умумтаълим мактабларининг 10-11-синф ўқувчилари орасидан 20 нафар энг сараси танлаб олиниб, отрядлар тузилди. Қоида тариқасида аъзо бўлиш истагини билдирган ўсмирларни саралаб олиш орқали ҳар бир давлат умумтаълим мактабида биттадан отряд ташкил этилган. Саралаб олиш жараёни бўйича низом ва мезон ишлаб чиқилган. Мазкур отрядларга мактабларда фаолият юритаётган чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фани ўқитувчилари раҳбарлик қилмоқда. Отряд аъзолари қолган синфдошларига, ногиронлиги бўлган шахсларга, ижтимоий ёрдамга муҳтож инсонларга кўмаклашади. Ҳозирги кунда мазкур ҳарбий-ватанпарварлик ҳаракатининг марказий аппарати, 14 та ҳудудий бўлими ҳамда 192 та туман бўлинмаси мавжуд бўлиб, ҳаракат низоми ҳамда “Ватан таянчи” отрядлари емблемасининг ягона намунаси тасдиқланган. Шу вақтга қадар “Ватан таянчи” ҳаракатининг энг фаол 10 минг нафардан зиёд аъзоларига фаолиятнинг ўзига хос емблемаси тасвирланган кўкрак нишонлари тантанали равишда топширилди. Шу биргина нишон

замирида отряд аъзоси зиммасига юклатилган масъулият ва жавобгарлик, Ватанга садоқат ва фидоийлик туйғулари мужассам.

Ҳозирда республика бўйича 186 мингдан ортиқ ёшни қамраб олган 9969 та “Ватан таянчи” отрядлари ташкил этилган. Отрядлар жорий қилинган мактабларда 10-11-синф ўқувчилардан ташқари бошқа юқори синф ўқувчилари ҳам ҳарбий ватанпарварлик ҳаракати фаолиятига қизиқиб, отрядга қабул қилишни сўраб мурожаат қилаётгани қувонарлидир.

Ушбу фаолиятни янада ривожлантириш учун қўйидагиларга эътибор қаратилиши мақсадга мувофиқ.

“Ватан таянчи” ҳаракатининг асосий тамойиллари қўйидагилардан иборат:

Ҳаракат аъзосининг асосий бурчи ҳаракатнинг мақсадидан келиб чиқиб белгиланган. Бу ҳаракат аъзоси учун қонун ва ҳаётий позиция ҳисобланиб, **ота-она ва оила олдидаги, Ватан ва жамият олдидаги, дўстлар ва тенгдошлар олдидаги ҳамда ўз олдидаги бурчини** чуқур англашни ўз ичига олади.

Ота-она ва оила олдидаги бурч. “Ватан таянчи” ҳаракатига аъзо бўлган ўғил-қизлар, ҳеч шубҳасиз, ўз ота-оналарининг, оила аъзоларининг фахри бўлишлари лозим. Ҳаракат аъзолари ўзларининг одоби, билими, мактабда ва жамиятда эришаётган ҳурмати, фан ва спортда эришаётган ютуқлари, ҳаракат таркибида амалга оширадиган ишлари ва эришаётган муваффақиятлари билан ўз яқинларини хушнуд қиладилар. Бу уларнинг ҳаётий бурчи ҳисобланади. Ватанни севиш, унинг обрўси учун масъулиятли бўлиш ва уни ҳимоя қилиш аввало оиладан бошланади. Чунки Ватан остонадан бошланади.

Ҳаракат аъзолари ота-онаси, оила аъзоларининг орзуларини рўёбга чиқариш бўйича бор имконияти ва ғайратини сафарбар қилиши зарур. Бунинг учун улардан мустаҳкам интизом, метиндек ирода, тиришқоқлик билан ўқиш ва билим олиш, спорт билан шуғулланиш ва соғлигини мустаҳкамлаш, катталарни ва устозларни ҳурмат қилиш, ҳунар ва маҳоратга эга бўлиш талаб қилинади холос. Умумтаълим мактабида ўқийдиган ёшларга бу талабларни тўлиқ бажаришлари учун барча шароитлар мавжуд.

Бундан ташқари, ҳаракат аъзолари ўз тенгдошлари ичида ҳам аввало ўз ота-оналарини ҳурмат қилишлари ва оилаларини шаъни учун қайғуришлари зарурлигини тарғибот қиладилар. Ножўя ҳатти-ҳаракатлари, ёмон хулқи ва ўқишдаги паст кўрсаткичлари билан жамоаларни ортга тортаётган ўқувчиларни отряд аъзолари ва отряд раҳбари ўз назоратларига олишлари зарур. Бундай салбий хусусиятга эга ёшларга ўз таъсирларини ўтказиш орқали уларни тўғри йўлга етаклайдилар. Натижада, нафақат ўз ота-оналари, балки тенгдошларининг ота-оналарига, уларнинг оилаларига ҳам фойдали ва эзгу иш қилган бўладилар.

Ватан ва жамият олдидаги бурч. Ўсиб келаётган ёш авлодни Ватанга муҳаббатини, қонунларга, миллий анъана ва қадриятларимизга, катталар ва кекса авлод вакилларига ҳурматини, уларнинг чинакам ҳимоячиси бўлишини тарбиялайди.

Ҳаракат аъзолари энг аввало “Ватан” тушунчасини чуқур англашлари лозим. Ўзлари туғилиб ўсган жойнинг маданияти, урф-одатлари, анъана ва қадриятлари тарихини ўрганиб боради. Миллий маданиятимиз ва қадриятларимизга бегона ҳар қандай кўринишдаги ҳатти-ҳаракатларни зудлик билан англаш ва уларни тарқалиши ёки томир отишига йўл қўймасликлари керак. Жамоат жойларида, мактабда ўзидан катталарни, ўқитувчиларни,

кекса нуронийларни ҳурмат қилишади, уларни танбеҳлари ва кўрсатмаларидан тўғри хулоса чиқаришади, уларга зарур ҳолларда кўмаклашадилар.

“Ватан таянчи” ҳаракати аъзоси Ўзбекистон Республикасининг барча қонунларини, унинг рамзларини ҳурмат қилади ва уларга тўлиқ риоя қилади. Жамиятда ва тенгдошлари орасида буни тарғиб қилади ҳамда шахсан намуна кўрсатади. Давлат қонунларига ва рамзларига беҳурматлик қиладиган ҳар қандай шахсни бундан қайтаради, унга ўз муносабатини билдиради. Зарур ҳолларда ўз отряд раҳбари ёрдами билан бундай ҳолатларни олдини олади.

Ноҳақлик ва ғайринсоний ҳолатларга муросасиз муносабат билдиради, доим ҳақиқат ва адолат томонида бўлади. Заифларни ҳимоя қилади. Ватан манфаатига зид бўлган ҳар қандай ахборотларни тарқалишига қарши йўл қўймайди. Бундай ҳолатларга дуч келганида ёки хабардор бўлганида “Огоҳлик ва ҳушёрлик”ни таъминлаш ҳамда уни бартараф қилиш мақсадида отряд раҳбарига хабар беради.

Дўстлар ва тенгдошлар олдидаги бурч. Бу тамойил жамоани қадрлаш ва ҳурмат қилиш, тенгдошлар ўртасида бир мақсад йўлида бирлашиш, қўйилган мақсадга эришишда ўзаро кўмак ва елкадошликни ҳис қилиш, муҳтожларга кўмаклашиш, жамоада ўзини ва бошқаларни қадрлашни тарбиялайди.

Ҳаракат аъзоси энг аввало жамиятнинг фаол аъзосидир. У барча оммавий ватанпарварлик, маънавий-маърифий тадбирларда, умумҳалқ тадбирлари ва ҳашарларда фаол иштирок этади ҳамда тенгдошларини бунга сафарбар қилади. “Кўпчиликдан қуён қочиб қутулмас” деган нақл бор халқимизда. Ҳаракат аъзолари ҳар қандай топшириқни жамоа бўлиб бажарадилар. “Ватан таянчи” ҳаракати аъзоси шахсий манфаатидан кўра Ватан манфаатини юқори қўяди. Бошқаларга кўмаклашиш, уларнинг миннатдорчилиги ва розилиги орқали қониқиш ҳосил қилади. Тенгдошларининг муваффақиятларидан қувонади, қўллаб-қувватлайди. Кўмакка муҳтож шахсларга, тенгдошларига бор имконияти билан ёрдам беради. Бу орқали қадр-қимматини оширади, халқнинг ҳурматига сазовор бўлади.

Ўз олдидаги бурчи. Ўз шахсий интизомини, билимини, жисмоний тайёргарлигини мунтазам такомиллаштириб бориш, ҳеч кимдан кам бўлмаслик, доим олдинга интилиш учун меҳнат қилиш, қобилият ва имкониятларини англаш ҳамда тўғри йўналтира олиш сифатларини тарбиялаб боради.

Ҳаракат аъзоси мунтазам равишда ўзининг билимини ошириб боради. Китоб мутолаа қилади. Тенгдошлари орасида билими, ақл-заковати, мантиқий фикрлаши ва тезкор, тўғри қарор қабул қилиши билан алоҳида ўрин тутади. Ватан тарихини чуқур ўрганади, миллий ғурурини юқори тутади. Жисмоний тарбия унинг ҳаётий муҳим омили ҳисобланади. Соғлом турмуш тарзини тарғиб қилади. Ўзининг кўркам ва келишган ташқи кўриниши орқали ажралиб туради. Ҳар бир хатти-ҳаракати учун ўзининг виждони олдида жавобгарлигини чуқур англайди.

Бу тамойил энг муҳим ва мураккаб ҳисобланади. Чунки инсонларнинг ички туйғуларини текшириб кўришнинг имкони йўқ. Буни ҳар бир инсон ўзи билади, ўзи бошқаради ва ҳар бир шахс ички туйғулари учун виждонининг олдида ҳакам ҳисобланади. “Ўзини-ўзи енга оладиган инсон ҳаётда енгилмас бўлади” деган фикр бежиз эмас.

Бу тамойилларни айтиш осон, лекин уни тадбиқ этиш, ҳаракат аъзоларининг онгига сингдириш ва уларга сўзсиз итоат этилишини жорий қилиш мураккаб иш ҳисобланади. Бунинг учун “Ватан таянчи” ҳаракатининг тизимли ва аниқ мақсадли фаолияти ҳамда отряд

раҳбарларининг профессионал, илмий асосли ёндашуви йўлга қўйилиши зарур. Ҳаракатнинг мақсади ва вазифалари ҳар бир ҳаракат аъзосининг ҳаёт мазмунига айланиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қуролли Кучлар олий бош қўмондони Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганлигининг 31 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига байрам табриги – 2023. 13 январь// www.prezident.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 июль кунидаги ПФ – 6260 сонли “Ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва уларнинг ижтимоий фаоллигини оширишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 март кунидаги ПҚ-150 сонли “Ватан таянчи” болалар ва ўсмирлар ҳарбий-ватанпарварлик ҳаракати фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори.

INSONPARVARLIKNING-UMUMHUQUQIY TAMOYIL SIFATIDA BOLALAR TARBIYASIDA SHAKLLANTIRISH

Salohiddinova E'zoza Nodirbek qizi
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: Abdullayev Akmal Nasriddinovich
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD.

Annotatsiya*. Ushbu maqolada insonparvarlikning umumhuquqiy tamoyil sifatida bolalar tarbiyasida shakllantirilishi zarurati va usullari yoritiladi. Insonparvarlik, bolalarda inson huquqlarini hurmat qilish va ularga rioya qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi. Maqolada bolalar huquqlari konvensiyasining ahamiyati, ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyillarini integratsiyalash, amaliy faoliyat, rivojlantiruvchi o'yinlar va ro'l o'ynash usullari orqali bu tamoyillarni shakllantirish usullari ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *insonparvarlik, bolalar tarbiyasi, inson huquqlari, ta'lim, Bolalar huquqlari konvensiyasi, umumhuquqiy tamoyillar, ijtimoiy adolat, empatiya, shafqat.*

Аннотация*. В данной статье описаны необходимость и способы формирования гуманизма как общеправового принципа в воспитании детей. Гуманность важна для развития способности детей уважать и соблюдать права человека. В статье показано значение Конвенции о правах ребенка, интеграции гуманитарных принципов в образовательный процесс, а также пути формирования этих принципов посредством практической деятельности, развивающих игр и ролевых методов.*

Ключевые слова*: гуманизм, детское образование, права человека, образование, Конвенция о правах ребенка, универсальные правовые принципы, социальная справедливость, сопереживание, сострадание.*

Annotation*. This article describes the need and ways to form humanism as a general legal principle in raising children. Humanity is important in developing children's ability to respect and respect human rights. The article shows the importance of the Convention on the Rights of the Child, the integration of humanitarian principles into the educational process, as well as the ways*

of forming these principles through practical activities, educational games and role-playing methods.

Key words: *humanism, children's education, human rights, education, Convention on the Rights of the Child, universal legal principles, social justice, empathy, compassion.*

Insonparvarlik, inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish tamoyili, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bolalar tarbiyasida insonparvarlik tamoyillarini shakllantirish, ularga kelajakda to'laqonli fuqaro bo'lishlariga yordam beradi. Ushbu maqolada, insonparvarlikning umumhuquqiy tamoyil sifatida bolalar tarbiyasida shakllantirilishi zarurati, usullari va uning ahamiyati haqida so'z yuritamiz.

Insonparvarlik inson huquqlarining asosiy tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Bolalar huquqlari konvensiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Bolalar huquqlari konvensiyasiga ko'ra, har bir bola himoya, rivojlanish va ishtirok etish huquqlariga ega. Insonparvarlik tamoyili bu huquqlarni hurmat qilishni va ularga rioya qilishni talab qiladi.

Bolalar tarbiyasida insonparvarlik tamoyillarini shakllantirish, ularda insoniy qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish va ularga zarar yetkazmaslik kabi xislatlarni tarbiyalash uchun muhimdir. Bu tamoyillar nafaqat jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, balki bolalarning o'z huquqlari va majburiyatlarini tushunishiga, ularni hurmat qilishga yordam beradi.

Insonparvarlik tamoyillarini bolalar tarbiyasida shakllantirishda bir nechta usullar qo'llaniladi:

Ta'lim va tarbiya jarayonida insonparvarlik tamoyillarini integratsiyalash: Maktab va oilaviy tarbiya jarayonida inson huquqlari va insonparvarlik haqida ma'lumotlar berish, bu mavzularni o'quv dasturlariga kiritish.

Amaliy faoliyat orqali o'rgatish: Bolalarni ijtimoiy loyihalar va ko'ngillilik ishlariga jalb qilish, ularni boshqa insonlar bilan birga ishlashga va yordam berishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi o'yinlar va mashg'ulotlar: Bolalar uchun insonparvarlik tamoyillarini tushuntiruvchi va amaliyotda qo'llashga o'rgatuvchi o'yinlar va mashg'ulotlar o'tkazish.

Rol o'ynash va muhokamalar: Bolalarni turli vaziyatlarga qo'yish orqali ular o'zlarini boshqa insonlar o'rnida his qilishlari va bu orqali insonparvarlikni his etishlari mumkin.

Insonparvarlik tamoyillarini bolalar tarbiyasida shakllantirish, ularda nafaqat inson huquqlarini hurmat qilish, balki boshqalarga nisbatan empatiya va shafqat hissini rivojlantiradi. Bu kelajakda ular jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zolari bo'lishlariga yordam beradi. Insonparvarlik tamoyillari bolalarga o'z huquqlarini himoya qilishni, boshqalarning huquqlarini hurmat qilishni va ijtimoiy adolatni ta'minlashni o'rgatadi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, insonparvarlikning umumhuquqiy tamoyil sifatida bolalar tarbiyasida shakllantirilishi, jamiyatning barqaror va tinch rivojlanishi uchun zarur. Bu tamoyillar bolalarda insoniy qadriyatlarni rivojlantiradi, ularni huquq va majburiyatlarini anglashga o'rgatadi va kelajakda mas'uliyatli fuqaro bo'lishlariga yordam beradi. Shu sababli, ta'lim va tarbiya jarayonida insonparvarlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (1989). Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya. [Online] URL: https://www.unicef.org/child-rights-convention

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (1948). Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. [Online] URL: https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights

3. Freire, P. (1970). Zulmdan ozod etish pedagogikasi. New York: Seabury Press.

4. UNICEF (2020). Insonparvarlik tamoyillari va bolalar huquqlari. [Online] URL: https://www.unicef.org/

5. Dewey, J. (1916). Demokratiya va ta'lim. New York: Macmillan.

6. Mehler, A. (2010). Bolalar tarbiyasida empatiya va shafqatni rivojlantirish. Education Research Journal, 45(2), 123-145.

BMTNING “BOLA HUQUQLARI TO‘G‘RISIDA”GI KONVENSIYASI VA UNDA YOSHLAR MASALASI

Po‘latov Shahobiddin Shuhratali o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi
***Ilmiy rahbar**: Umarov Murodjon Mamatkarim o‘g‘li*
Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada bola huquqlari va erkinliklari, bola qanday huquqlarga ega ekanligi va qanday huquqlardan foydalana olish va bolaning har tomonlama rivojlanishi haqida tushuntitib o‘tilgan. Shuningdek, bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro va millliy dvalatimizdagi organlar haqida ham ma‘lumot berib o‘tilgan.*

***Аннотация:** В данной статье рассказывается о правах и свободах ребенка, какие права имеет ребенок и какими правами можно пользоваться, а также о всестороннем развитии ребенка*

***Annotation**: This article explains about the rights and freedoms of the child, what rights the child has and what rights can be used, and the comprehensive development of the child. .*

***Kalit so‘zlar**: Birlashgan millatlar tashkiloti, konvensiya, bola, Konstitutsiya, huquq, ekspluatatsiya, oila, ta’lim, yoshlar, modda va boshqalar.*

***Ключевые слова**: Организация Объединенных Наций, конвенция, ребенок, Конституция, закон, эксплуатация, семья, образование, молодежь, статья*

***Keywords:** United Nations, convention, child, Constitution, law, exploitation, family, education, youth, article, etc.*

KIRISH. O‘zi bola deganda qanday shaxs tushunilishini bilib olsak. Bola(bolalar) -o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar) hisoblanar ekan. Bola qachonki o‘n sakkiz yoshga to‘lsa u voyaga yetgan shaxs hisoblanadi. Bola shu yoshga kirishi bilan barcha huquq va erkinliklarga ega bo‘ladi. Biz bilamizki, bugungu kunga kelib barcha bolalarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” qabul qilindi va bu konvensiya dunyodagi barcha bolalarning huquq va erkinliklarni himoya qilish bo‘yicha asosiy qonuniy manba sifatida qaralib kelmoqda va shu o‘rinda davlat o‘zining ichki siyosatida ham bolalarning har tomonlama rivojlanishi, huquq va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha qonunlar ishlab chiqqan. Bola huquqlarini ta’minlab berish, bolalarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash

masalalari jamiyatimizda qadimdan muhim masala bo‘lib kelgan. Shuningdek, jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan, maxsus ravishda muhofaza va g‘amxo‘rlikka, binobarin, tug‘ilguncha va tug‘ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bolalarga taqdim etilayotgan alohida huquqlar, imtiyozlar va kafolatlarni qamrab oluvchi xalqaro va milliy huquqiy asos va mexanizmlami o‘z ichiga qamrab olgan - “bola huquqlari” degan inson huquqlarining alohida sohasi shakllantirildi. Bola huquqlari o‘zining alohida xalqaro va milliy me’yoriy bazasi va himoya mexanizmi bilan ham boshqa ayrim sohalardagi inson huquqlaridan farq qiladi.

Bola, agar jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan bo‘lsa, maxsus ravishda muhofaza va g‘amxo‘rlikka, shuningdek, tug‘ilgunga qadar va tug‘ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bo‘ladi. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 1-moddasiga ko‘ra, “18 yoshga to‘lmagan har bir inson zoti, bolaga nisbatan qo‘llaniladigan qonun bo‘yicha, agar u ertaroq balog‘atga yetmagan bo‘lsa, bola hisoblanadi”. Bolalar alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqiga egadirlar. Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va atrof-muhit uning barcha a’zolari, ayniqsa, bolalar o‘sib ulg‘ayishlari va farovonlikka ega bo‘lishlari, sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashgan holda kamolotga yetishi uchun u oila g‘amxo‘rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o‘sishi, jamiyatda mustaqil hayotga to‘la tayyorlanishi, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, huquq va erkinliklar, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozim deb hisoblayman. Har bir bola uchun ko‘zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamchiliklarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlari, milliy-etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, bolaning sog‘lig‘i va tug‘ilishi, uning onasi yoki qonuniy vasiysi yoki boshqa biron-bir holatlardan qat’i nazar, hurmat qilinishi va huquqlari ta’minlanishi kerak bo‘ladi. Bularning amalda bajarilishi uchun ijtimoiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi davlat va xususiy muassasalar, sudlar, ma’muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolaning huquqlari va manfaatlari yaxshiroq ta’minlanishiga e’tibor berilishi lozim. Ma’lumki, huquqiy hujjatlar asosida har bir bola tug‘ilgan zahoti ro‘yxatga olinadi va tug‘ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan aytilish va fuqarolikka ega bo‘lish, shuningdek, iloji boricha o‘z ota-onasini bilish va ular g‘amxo‘rliklaridan bahramand bo‘lish huquqlariga ega bo‘la oladi. Shuningdek, bola o‘zining fikrini erkin ifodalash, vijdon va din erkinligi, bilim olish, dam olish hamda ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola, alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar bog‘lab turish huquqiga haqli hisoblanadi. Hozirgi zamonning dolzarb muammolardan biri-bola huquqlari va erkinliklarining har tomonlama ta’minlanishi va himoyalanishini amalda qonunlar asosida bajarilishini ta’minlashdir deb hisoblasam noto‘g‘ri aytmagan bo‘laman. Shu o‘rinda bola huquqlarini va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha asosiy qonun manbasi sifatida bo‘lib kelayotgan “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” haqida o‘z fikrlarimni aytib o‘tsam. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya bola huquqlari bo‘yicha asosiy hujjat hisoblanadi hamda uni bola huquqlariga oid o‘ziga xos kodifikatsiyalash desa ham bo‘ladi. Konvensiya 54 ta moddani o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularni 4 ta turdagi huquqlarga bo‘lsak to‘g‘ri bo‘ladi.

1. Yashay olish huquqi: bola talablarini qondirish va hayotiy huquqlarini o‘zida mujassam etish kabi asosiy shartlarni hamda tibbiy xizmatdan foydalana olish, ovqatlanish, boshpanaga ega bo‘lish kabi adolatli me’yorlarni o‘z ichiga olishi kerak.

2. Rivojlana olish huquqi: bolalar o‘z qobiliyatlarini kengroq rivojlantirishga erishishlari zarur bo‘lishi kerak. Masalan, bilim olish, o‘yin, hordiq chiqarish, madaniy faoliyatlar, axborot olish va vijdonli,poklik kabi huquqlar kiradi.

3. Bolalar zo‘ravonlik va ekspluatatsiya qilinishdan himoyalangan bo‘lishlari kerak. Bu borada bir nechta muammolarga, ya’ni: qochoq bolalar masalasidagi muammolarga, sudlovni amalga oshirish tizimidagi zo‘ravonliklarga va qiynoqlarga, bolalarni qurolli mojarolarga jalb etish muammolariga, bolalar mehnatiga, balog‘at yoshiga yetmaganlarni jinsiy ekspluatatsiya qilish va o‘smirlarning giyohvand moddalarni iste’mol qilish muammolariga alohida e’tibor berilsa jamoyat uchun foydali bo‘lardi.

4. Ishtirok etish huquqi bolani jamiyat va mamlakat hayotida faol ishtirok etishga chorlaydi. Bu turda bolalarning hayotga taalluqli bo‘lgan muammolari bo‘yicha jahonshumul yig‘ilishlarda va tadbirlarda ishtirok etish huquqini va o‘z fikr-mulohazalarini aytishda erkin bo‘lish kabi huquqlarini belgilanishi mumkin. Bolalar ulg‘ayib borishlari davomida jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun barcha paydo bo‘lib boruvchi imkoniyatlarning hammasiga ega bo‘lib borishlari hamda hayotiy muhim yechimlarning mas’uliyatini his qilgan holda ularni o‘z zimmalariga olishga tayyor bo‘lishlari kerak deb hisoblayman. Shuningdek, bugungi kunda bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha valolatli organlar tuzilmoqda. Shu o‘rinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bola huquqlari bo‘yicha qo‘mita tuzildi. Bu qo‘mitaning birinchi sessiyasi 1991-yilda bo‘lib o‘tdi. Qo‘mita o‘n nafar ekspertdan iborat. Uning zimmasiga bola huquqlarini rag‘batlantirish uchun kurashayotgan, konvensiya qatnashchisi bo‘lgan barcha davlatlar o‘rtasida muntazam muloqot yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash vazifasi topshirilgan. Qo‘mita jahon bolalarining tinchligi va farovonligiga tahdid soluvchi omillami aniqlab, muayyan muammolaming amaliy yechimini izlamoqda va ularni hal qilish uchun odamlarni va moliya resurslarini safarbar etish choralarini ko‘rmoqda hamda jamoatchilikning xabardorlik darajasini oshirishga, shuningdek, bola huquqlarini himoya etish va rag‘batlantirishdagi ishtirokini kengaytirishga ko‘maklashmoqda. Qo‘mita ana shu maqsadda mazkur sohada jo‘shqin faoliyat olib borayotgan boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Qo‘mita 1989-yilgi “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya”ni ratifikatsiya qilgan yoki unga qo‘shilgan davlatlar o‘zlarining bu boradagi majburiyatlarini qay tarzda bajarayotganliklarini kuzatib boorish vakolatiga egadir. Konvensiya qatnashchisi bo‘lgan davlatlar konvensiya bajarilishiga qaratilgan tadbirlar haqidagi va bola huquqlarini amalga oshirish sohasidagi taraqqiyot to‘g‘risidagi ma’ruzalarni muntazam ravishda shu qo‘mitaning o‘ziga taqdim etadilar. Bu ma’ruzalarning milliy darajada oshkor etilishi va keng ommalashtirilishi ta’minlanishi nazoratga olinmoqda va bu orqali bolalarning huquqlari va erkinliklari har tomonlama himoya qilinyapti desam to‘g‘ri aytgan bo‘laman.

Bugungi kunda O‘zbekistonda bola huquqlarini himoya qiluvchi organlar faoliyat yuritib kelmoqda. Bulardan biri Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi bor. Bu vakil vazifalari bir nechta majburiyatlardan iborat: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini va bola huquqlari masalalari bo‘yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi, bolalar va ularning qonuniy vakillari orasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tushuntiradi, bola huquqlari va Bola huquqlari bo‘yicha vakil faoliyati haqidagi xalqaro hamda milliy normalar qoidalarini targ‘ib qiladi, aholi o‘rtasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari masalalari bo‘yicha

huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga ko‘maklashadi, jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan bolalar hamda ular qonuniy vakillarining bola huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi to‘g‘risidagi murojaatlarini ko‘rib chiqish orqali bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlaydi, bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalari va talablarining ijrosini o‘rganish kabi vazifalarni o‘z vakolati doirasida faoliyat yuritib, bolalarning huquqlari va erkinliklarini himoya qiladi.

Xulosa qilib aytamanki, bugungi kunda bola huquqlari va erkinliklari himoya qilish juda yaxshi deb o‘ylaman. Chunki ota-onalar bolalalarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda asosiy rol o‘ynamoqda. Ota-ona bolasining buzilayotgan huquqini himoya qilish uchun himoya qiladigan organlarga murojaatlar qilmoqda va bolani himoya qilish bo‘yicha organ shu o‘rinda o‘z kuch va harakatini bolaning huquqlarini himoya qilish orqali ko‘rsatmoqda. Shu o ‘rinda Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov gaplarini keltirib o‘taman. “Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz - mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O‘zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o‘rin egallashi ham bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir” deb aytib o‘tganlar. Shu o‘rinda, O‘zbekiston kelajagi biz yoshlar qo‘limizda ekanligini tushunib va anglab yetishimiz zarur va o‘zimizga kelajakda yaxshi hayot qurushimiz uchun doim harakatda bo‘lib, O‘zbekistonni jahonga mashhur qilishimiz biz yoshlarning vazifamiz deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.lex.uz- O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. www.natlib.uz - O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
3. www.ziyonet.uz – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali
4. www.parliament.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis portali
5. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi 1989-yil
6. Baratov M.X. Davlat- fuqarolik huquqining huquqi sifatida – T: TDYU 2019

INSONPARVARLIK TAMOYILINING XALQARO VA MILLIY JIHATDAN E’TIROF ETILISHI

Yusufjonov Muhammadrasul A’zamjon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq
ta’limi yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar Umarov Murodjon Mamatkarim o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti
Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola insonparvarlik tamoyilining umumhuquqiy jihatlarini tahlil qiladi. Insonparvarlik qadimgi davrlardan boshlab insonning qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tamoyil sifatida rivojlanib kelgan. Maqolada insonparvarlik tushunchasining tarixi, xalqaro huquq va milliy qonunchilikdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy dunyoda insonparvarlik tamoyilining ahamiyati va uni amalga oshirishda davlat hamda fuqarolik jamiyatining roli muhokama qilinadi. Maqola, insonparvarlik tamoyili*

orqali adolatli, tenglikka asoslangan va inson qadr-qimmatini hurmat qiluvchi jamiyatni qurish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *insonparvarlik, gumanizm, huquqiy tamoyil, inson huquqlari, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, qadr-qimmat, adolat, tenglik, fuqarolik jamiyati, ta’lim va tarbiya, BMT, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, huquqiy madaniyat, zamonaviy jamiyat.*

Аннотация: *В данной статье анализируются общеправовые аспекты гуманитарного принципа. Гуманитаризм с древнейших времен развивался как принцип, направленный на защиту человеческого достоинства и прав. В статье рассматривается история понятия гуманизма, его место в международном праве и национальном законодательстве. Также будет обсуждаться важность принципа гуманизма в современном мире и роль государства и гражданского общества в его реализации. В статье показаны пути построения справедливого, эгалитарного общества, уважающего человеческое достоинство через принцип гуманности.*

Ключевые слова: *гуманизм, гуманизм, правовое начало, права человека, международное право, национальное законодательство, достоинство, справедливость, равенство, гражданское общество, образование и воспитание, ООН, Всеобщая декларация прав человека, правовая культура, современное общество.*

Abstract: *This article analyzes the general legal aspects of the humanitarian principle. Since ancient times, humanitarianism has developed as a principle aimed at protecting human dignity and rights. The article examines the history of the concept of humanitarianism, its place in international law and national legislation. Also, the importance of the principle of humanitarianism in the modern world and the role of the state and civil society in its implementation will be discussed. The article shows ways to build a just, egalitarian society that respects human dignity through the principle of humanity.*

Keywords:*humanitarianism, humanism, legal principle, human rights, international law, national legislation, dignity, justice, equality, civil society, education and upbringing, UN, universal declaration of human rights, legal culture, modern society.*

KIRISH.

Insonparvarlik (gumanizm) tushunchasi qadim zamonlardan beri insoniyatning axloqiy va huquqiy tizimlarida markaziy o‘rin tutib kelgan. Bu tamoyil insonning qadr-qimmatini, hurmatini va huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda insonparvarlik tamoyili xalqaro huquq, milliy qonunchilik va axloqiy me’yorlarda keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada insonparvarlik tamoyilining umumhuquqiy jihatlari, uning rivojlanish tarixi va zamonaviy huquqiy tizimlardagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Insonparvarlik g‘oyalari qadimgi davrlarda paydo bo‘lgan. Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyatida insonning axloqiy qadr-qimmati muhim o‘rinda bo‘lgan. Masalan, Aristotel va Seneka kabi faylasuflar insonning ahloqiy me’yorlarini rivojlantirish va unga rioya qilishni targ‘ib qilishgan.

O‘rta asrlarda insonparvarlik g‘oyalari diniy an’analarda aks etgan. Xristianlik, Islom va boshqa dinlar insonning qadr-qimmatini va huquqlarini himoya qilishni targ‘ib qilishgan. Uyg‘onish davrida esa bu g‘oyalar yana ham rivojlanib, zamonaviy gumanizm asoslari shakllangan.

Insonparvarlik tamoyili zamonaviy huquqiy tizimlarda muhim o‘rin egallaydi. Bu tamoyil xalqaro huquqda, inson huquqlari bo‘yicha konventsiyalarda va milliy qonunchiliklarda aks etgan.

Insonparvarlik tamoyili Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qator hujjatlarda aks etgan. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insonning qadr-qimmati, erkinligi va tengligini himoya qilishni nazarda tutadi. Ushbu deklaratsiya asosida qabul qilingan qator xalqaro konventsiyalar, jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, insonparvarlik tamoyilini mustahkamlaydi.

Ko‘plab davlatlar o‘z milliy qonunchiliklarida insonparvarlik tamoyilini aks ettirgan. Konstitutsiyalar, inson huquqlari bo‘yicha qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlar orqali davlatlar inson huquqlarini himoya qilishni va ijtimoiy adolatni ta’minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Zamonaviy dunyoda insonparvarlik tamoyili yana ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar, migratsiya va boshqa omillar inson huquqlarini himoya qilish masalasini yana ham dolzarb qilmoqda. Insonparvarlik tamoyili orqali jamiyatlarda adolat, tenglik va inson qadr-qimmatini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda insonparvarlik tamoyilini amalga oshirish davlat va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. Davlat organlari inson huquqlarini himoya qilish, qonunlar va siyosatlarni insonparvarlik tamoyiliga mos ravishda ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyatiga ega. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari esa inson huquqlarini himoya qilish va targ‘ib qilishda faol ishtirok etadi.

Insonparvarlik tamoyilini targ‘ib qilishda ta’lim va tarbiyaning ahamiyati katta. Maktablar, universitetlar va boshqa ta’lim muassasalari orqali yosh avlodga insonparvarlik g‘oyalari, huquqiy madaniyat va axloqiy me’yorlar o‘rgatilishi lozim. Bu kelajakda adolatli va insonparvar jamiyatni shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda insonparvarlik umumhuquqiy tamoyil sifatida zamonaviy jamiyat va huquqiy tizimlarning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bu tamoyil insonning qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, xalqaro huquqdan tortib milliy qonunchiliklargacha keng qo‘llaniladi. Zamonaviy dunyoda insonparvarlik tamoyilini amalga oshirish orqali adolatli, tenglikka asoslangan va inson qadr-qimmatini hurmat qiluvchi jamiyatni qurish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi - Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1948 yil.
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt- Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1966 yil.
3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt- Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1966 yil.
4. Aristotel, "Nicomachean Ethics" - Aristotelning axloqiy falsafasi haqida.
5. Seneca, "Letters from a Stoic" - Stoitsizm va axloqiy tamoyillar haqida.
6. The European Convention on Human Rights - Evropa Kengashi, 1950 yil.
7. Human Rights: A Very Short Introduction - Andrew Clapham, Oksford universiteti nashriyoti.
8. International Human Rights Law - Rhona K.M. Smith, Oksford universiteti nashriyoti.
9. Human Rights: Concepts and Standards - Janusz Symonides, UNESCO nashriyoti.

10. Inson huquqlari bo‘yicha milliy qonunchiliklar- Har bir davlatning rasmiy qonun hujjatlari va konstitutsiyalari.

11. Human Rights: Politics and Practice - Michael Goodhart, Oksford universiteti nashriyoti.

INSON QADRINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI

GLOBALIZATSIYA JARAYONLARIDA INSON QADRINI ULUG’LASHDA IJTIMOIY KAPITAL OMILI.

Uktamov Nodir Ibroximovich
Namangan davlat universiteti doktoranti
E-mail: nodiruktamov2@gmail. com
Tel: +998958222932

Annotatsiya: *Bugungi kunda insoniyat o‘z tarixining eng og‘ir va ziddiyatli davrlaridan biri globallashuv davrini boshidan kechirmoqda. Bu davr jamiyat hayotining barcha sohalari: iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, axborot va hokazolarda integratsiya jarayonlarining keskin kuchayishi bilan tavsiflanadi. Globallashuv jarayonlari bir tomondan insoniyatni fan texnika sohasidagi yutuqlar orqali ulkan imkoniyatlarga olib chiqayotgan bo’lsa, ikkinchi tomondan insonlarning bir-birlari bilan bo’lgan munosabatlarni yemirilishi va submadaniyatlarni yuzaga kelishiga olib kelmoqda.*

Kalit so’zlar: *Inson qadri, o’zlikni anglash, birdamlik, yaxshilik, globalizatsiya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, inson kapitali, ijtimoiy kapital, taraqqiyot, fuqarolik jamiyati.*

Аннотация: *Сегодня человечество переживает один из самых сложных и противоречивых периодов своей истории – эпоху глобализации. Этот период характеризуется резким усилением интеграционных процессов во всех сферах жизни общества: экономике, политике, культуре, информации и т. д. Процессы глобализации, с одной стороны, открывают перед человечеством огромные возможности благодаря достижениям науки и техники, а с другой стороны, ведут к разрушению взаимоотношений между людьми и возникновению субкультур.*

Ключевые слова: *Человеческая ценность, самосознание, солидарность, добро, глобализация, национальные ценности, общечеловеческие ценности, человеческий капитал, социальный капитал, развитие, гражданское общество.*

Abstract: *Today, humanity is going through one of the most difficult and conflicting periods of its history, the era of globalization. This period is characterized by a sharp increase in integration processes in all spheres of society: economy, politics, culture, information, etc. Globalization processes, on the one hand, are bringing humanity to great opportunities through advances in science and technology, and on the other hand, they are leading to the destruction of relationships between people and the emergence of subcultures.*

Key words: *Human value, self-awareness, solidarity, goodness, globalization, national values, universal values, human capital, social capital, development, civil society.*

XXI asr globallashuv sharoitida insonlar turmush tarzidagi qadriyatlarning ko’p jihatlari o’zgarib bormoqda. Bugungi globalizatsiya jarayonlari natijasida jamiyatdagi qadriyatlariga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish muhim masalaga aylanishi va uning sabablarini, qadriyatlarni o'zgartirish tendentsiyalarini baholash va ko’rib chiqish bu jarayonlarda inson qadrini ulug’lash asosiy vazifadir. Insoniyat jamiyatining global ijtimoiy tuzum bosqichiga o'tishi oliy qadriyatlarning nisbiylashuvini anglatadi. Jahon ho’jaligining taraqqiy etishi, bozor munosabatlarini rivojlanishi odamlarning moddiy ehtiyojlarga bo’lgan talabini ortib borishi, shu bilan birga orzu-havaslarining ko’payishi qadriyatlarga o’zini salbiy ta’sirini ko’rsatmay qo’ymaydi. Globallashuvning asosiy ko’rinishlaridan biri moddiy farovonlikka erishish imkoniyati bilan bog'liq erkinligidir. Iqtisodiy manfaat ommaviy madaniyatning ko’rinishi bo’lib,

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yemirilishiga, insonlar orasidagi mexr-oqibat tuyg’ularini sustlashtirishga olib keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib yangi extiyojlarni ortib borishi zamirida qadriyatlarni o'zgarishini tezlashtirib yuboradi, chunki u inson ongini shakllantirishning juda samarali usuli bo'lib xizmat qiladi. Muammoning bu jihati ko'p ta'sirga ega bo'lgan brend madaniyatida yaqqol ko'rinadi, bu orqali inson ehtiyojlari bozor mafkurasini yaratadi. Inson faoliyatining ehtiyojlari va maqsadlari uni begonalashish sharoitida hayot qoidalariga bo'ysundirish vositasi bo'lib hizmat qiladi. “Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o‘xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an’analardagi o‘ziga xoslikni ko’rish mumkin. Komil insonni tarbiyalashda qadriyatlarning o’rni beqiyosdir. Milliy davlatchiligimiz poydevori barpo etilayotgan hozirgi sharoitda milliqadriyatlarning o‘rni har qachongidan ham ortib bormoqda. Jamiyatning asosiy negizi bo’lgan milliy qadriyatlar inson ongida axloqiy tarbiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, iymoni butun, sofdil, vatanparvar, xalqsevar, mard, har tomonlama sog’lom, intellektual salohiyatli, bir so’z bilan aytganda, sog’lom avlodni tarbiyalash davr talabi ekan, bu ishni amalga oshirishda yoshlarimiz tarbiyasiga bo’lgan e’tiborni kuchaytirish va bu jarayonda milliy qadriyatlarning ta’sirini yanada oshirmoq lozimdir”. [4. -B. 378.]. Asosan qadriyatlar tizimini o'zgartirish uchun an'anaviy jamiyatdan texnogen tsivilizatsiyaga o'tish muhim ahamiyatga ega, uning kengayishi natijasi globallashuv jarayonlari jadal sur’atlarda tezlashib bormoqda bundan ko’rinadiki mamlakatimizda fan texnika yutuqlari bilan birga ijtimoiy-ma’naviya hayotni ham bir hilda rivojlantirib borishi kerak. Shu munosabat bilan ta'kidlanganidek, zamonaviy fan falsafasi uchun fanning imkoniyatlari, mexanizmlari haqidagi savollar. ilmiy bilimlarga qiymat yo'nalishlarini kiritish, haqiqatni deformatsiya qilish xavfi va fanni qat'iy mafkuraviy nazorat qilish, mutanosiblik. u ijtimoiy qadriyatlar bilan uzviy holda bog’lab ko’rsatish muhim masaladir. Bu muammo fanning o'zi rivojlanishi bilan bog'liq, insonning texnik imkoniyatlari, barcha jarayonlarning umumiy globallashuvi bilan inson faoliyatiga ham o’z tasirini ko’rsatib kundalik turmush tarzidan tortib maqsadlarini ham globallashuv o’zgartirib yuboroqda. Hozirda globallashuv jarayonlaridan chetda qolib yoki globallashuv ta’sirisiz rivojlanish cho’qqisiga erishgan davlat mavjud emas, shundan kelib chib mamlakatimizda globallashuv jarayonlarini to’g’ri baholab uning ijobiy tomonlarini amaliyotga qo’llash zarur, zero Fransus faylasufi Rene Dekard ta’kidlaganidek “Tushunchalar mohiyatini aniqlashtiring va insoniyatni yarmini qutqarib qoling”[1, 45].

Yuqoridagilardan xulosa shuki, globallashuv jarayonlarida ijtimoiy sohalarni tizimli tashkil etish shu bilan birga ijtimoiy munosabatlarga e’tibor qaratish muhimdir. Bunda ijtimoiy kapitalni aytib o’tish muhim. Alohida kapitalning barcha turlari orasida ijtimoiy kapital muhim o’rinni egallaydi, uning qisqarishi nafaqat turli xil resurslarning tugashi bilan yakun topishi, balki o'zlikni yo'qotishga ham tahdid soladi. Nomoddiy resurslar turlaridan biri sifatida u madaniyat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasida hosil bo'ladi, uning aloqa tizimida shaxs ma'lum bir madaniyatning tashuvchisi sifatida qaralib; milliy o'ziga xoslik, tarixiy xotirani sustlashi va tarixni unutish globallashuv ta’sirida muqarrar ravishda o'zlikni yo'qotishga olib keladi. Ma’lum bo‘lishicha, globallashuv ta’siri natijasida ijtimoiy kapitalning o’ziga hosligi buziladi va birinchi navbatda o’zlikni saqlab qolishdagi muammolarni keltirib chiqaradi. A. I. Kuropyatnik ta'kidlaganidek, «globallashuv jarayonidagi say xarahatlar barqaror va chuqur ijtimoiy munosabatlarni buzilishiga qaratilgan shaxsning har qanday jamoalar bilan, shu jumladan inertsiya bilan aloqalari an’anaviylarga tegishli” [2. -B. 156.]. Haqiqatdan ham bugun glabalizatsiya jaroyonlarida ijtimoiy kapital qadriyatlarni saqlab qolishning muhim omili ekanligini ta’kidlab o’tdik, shudan kelib chiqib ijtimoiy kapitalning asosini ishonch tashkil etar ekan jamiyatdning barcha sohlarida bu tuyg’uni mustahkamlashga qaratilgan say-harakatlarini olib borish zarur.

“Globallashuv sharoitida shaxs ijtimoiy rollari deformatsiyasi sodir bo’lmoqda. Biz ta’kidlab o’tganimizdek, inson o’z hayoti davomida ijtimoiy shart-sharoitlar taqazosiga ko’ra turli rollarni ado etishga majbur bo’ladi, ularning ayrimlari butun umr mobaynida, boshqalari esa muayyan vaziyatda ado etiladi. Lekin ularning hammasi ham shaxsning shakllanishi jarayonida jiddiy ahamiyat kasb etavermaydi. Shaxsning butun umri mobaynida ado etadigan kasbiy, oilaviy va ijtimoiy-siyosiy rollarigina eng asosiy ijtimoiy rollar sifatida qayd etilishi mumkin. Global jamiyat tendentsiyalari aynan ana shu rollarning deformatsiyasi uchun zamin yaratdi. ”[3. -B. 134.]. Yana bir sabab shundaki, inson o‘z mamlakatining urf-odatlari, madaniyati, dini va qadriyatlarini o‘rganish orqali o‘z jamiyatiga bo‘lgan ishonchni qozonadi, bu esa o‘z vatanidan farq qiladigan odamlar va jamoalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Boshqa mamlakatlar singari, O’zbekiston ham turli madaniyatlar va o'ziga xos an'analar ruhiga ega. Agar siz o'z jamoangizning an'anaviy ruhi, madaniyati va dinini qadrlashni va hurmat qilishni o'rgansangiz, tabiiy ravishda boshqa mamlakatlarning an'anaviy qadriyatlari, madaniyati va diniga bo'lgan hurmatni rivojlantirasiz. Shuningdek, o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatning an’anaviy qadriyatlarini anglash orqali o‘z shaxsini ijobiy tarzda o‘rnatish orqali chet elliklar bilan muloqot qilish va ularni jamiyatda ishonch bilan kutib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar sizda o'zingizni kuchli his qilsangiz, endi sizdan farqli bo'lganlar tomonidan tahdidni his qilmaysiz va ularni chetlab o'tishga harakat qilasiz. O'ylaymanki, globallashuv davrida biz bir mamlakat va bir etnik guruh to'siqlaridan uzoqlashmoqdamiz va ko'pincha ko'plab mamlakatlar, ko'plab etnik guruhlar yoki turli tillarga ega odamlar bilan muloqotda va hamkorlikda ishlamoqdamiz. Bu vaqtda eng muhimi, mamlakatlar, etnik guruhlar va davrlar o‘rtasidagi tafovutlarni, shuningdek, butun dunyo bo‘ylab insoniyatning inson mohiyatini to‘g‘ri ko‘rib chiqish, tushunish va ulardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, globallashuv davri butun dunyoda odamlar birgalikda harakat qiladigon, birgalikda o‘rganadigan, bir-birining donoligi va tajribasidan foydalanadigan asrdir. Aynan shu sababdan o’zbek xalqini dunyoga bir butun millat sifatida qarash va shu bilan birga o‘zini, o‘z millati va jamiyatini qattiq anglab olishini ko’rsatishdan iborat. Bu, albatta, barcha o’zbekistonliklar o'ylab ko'rishlari va amalda qo'llashlari kerak bo'lgan narsa, shuning uchun men O’zbekiston yoshlariga aytmoqchimanki yoshlar, kelajak avlodni o‘z yelkasida ko‘taradigan avlod, to‘laqonli globallashuv davrida faol rol o‘ynashi kerak bo‘lgan avlod bu fikrni yanada chuqurroq anglashiga chin dildan umid qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Толстых В. И. Глобальные вызовы и поиски ответа: социокультурный аспект // Грани глобализации: трудные вопросы современного развития. М, 2003.

2. Куропятник А. И. Миграция и идентичность в условиях глобализации // Материалы международ. конф. «Идентичность и миграция в меняющемся мире» в рамках Конвента «Модернизация обществ и множественные модернизации». Екатеринбург, 2013.

3. Majitov. M (2023). Globallashuv sharoitida shaxs ijtimoiy rollarining bajarilishi tahlili. NamDU ilmiy axborotnomasi. №3, -B. 130-135.

4. Nazarova. M. M. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni ta’lim tizimiga tatbiq etishning psixologik ahamiyat "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022. B. 373-379.

5. Розов М. А. Проблема ценностей и развитие науки // Наука и ценности. Новосибирск, 1987.

6. Жуков В. И. Россия в глобальном мире // Философия и социология образования: глобальные процессы и отечественный опыт. М. , 2006. Т.

7. Uktamov. N. I. (2023). Ijtimoiy kapital fuqarolik jamiyatining asosi. NamDU ilmiy axborotnomasi. №1, -B. 146-150.

INSON MA’NAVIY KAMOLOTIDA JALOLIDDIN RUMIY IJODINING AHAMIYATI

Naima Zaynobidinova Inomiddinovna
Namangan davlat universiteti doktoranti (DcS), f. f. n.
E-mail: nzaynobidinova2406@gmail. com
Telefon: 97 231 28 82

Annotatsiya. *Yoshlarni har tomonlama ma’naviy barkamol inson qilib tarbiyalash, bugungi globallashuv jarayonidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Bu muammoni hal etishda yosh avlodni buyuk mutafakkirlar ma’naviy me’rosi bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Mavlono Jaloliddin Rumiy ijodining komil insonni tarbiyalashdagi o’rni haqida bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *komil inson, yoshlar, ta’lim-tarbiya, ma’naviy kamolot, Jaloliddin Rumiy, Masnaviy, Qur’on, tasavvuf.*

Аннотация. *Воспитание молодых людей, чтобы они стали морально совершенными людьми, является одной из наиболее актуальных проблем в современном процессе глобализации. В решении этой проблемы важно приобщить молодое поколение к духовному наследию великих мыслителей. В данной статье описывается роль творчества Мауланы Джалалуддина Руми в воспитании идеального человека.*

Ключевые слова: *совершенный человек, молодость, образование, духовная зрелость, Джалалуддин Руми, Маснави, Коран, суфизм.*

Annotation. *Educating young people to become morally perfect individuals is one of the most pressing issues in the modern process of globalization. In solving this problem, it is important to introduce the younger generation to the spiritual heritage of great thinkers. This article describes the role of Maulana Jalaluddin Rumi's creativity in educating an ideal person.*

Key words: *perfect person, youth, education, spiritual maturity, Jalaluddin Rumi, Masnavi, Koran, Sufism.*

Inson, uning ma’naviy kamoloti, yoshlar, ularning ta’lim-tarbiyasi mavzusi ijtimoiy fanlarning doimiy e’tibor markazida bo’lgan. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma’naviy merosni asrash kabilar ham bundan mustasno emas. Negaki, insonning ulug’ligi uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligi bilan o’lchanadi. Mavlono Jaloliddin Rumiyning ma’naviy me’rosi insonning ana shu o’lchovini yuksaltirishda, global dunyoda inson qadrini ta’minlash va yanada mustahkamlashda muhim tarixiy-g‘oyaviy manbalardan biridir. Uni chuqur o‘rganish va xalqimiz, xususan yosh avlod ongiga singdirish muhim g‘oyaviy va tarbiyaviy ahamiyatga egaligini hisobga olsak, ushbu mavzu ayni paytda dolzarb ekanligini anglashimiz mumkin.

Chunki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”[9]gi, shuningdek, ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz maънaviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”[10]gi va boshqa ko’plab qarorlar, qonun va farmoyishlar yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, ma’naviyati yuksak, faol fuqarolar etib tarbiyalash, inson qadri masalasining naqadar ustuvor ekanligini anglatadi. Shuning uchun ham Jaloliddin Rumiy kabi allomalarning ijodini har tomonlama tadqiq etish va ulardan amaliyotda foydalanish zarurdir.

Avvalambor, Rumiy va uning merosini o‘rganishda hamma vaqt uning serqirra shaxs ekanligini yodda tutish lozim. Negaki, bu zot birinchidan, insonni komillikka eltuvchi axloqiy sifatlarni eng ko‘p tarannum etgan mutasavvif sifatida mashhur bo‘lsa, ikkinchidan, qanchadan-qancha muridu-shogirdlarni tarbiyalab kamolga etkazgan tariqat shayxi va murshidi komili hamdir. Uchinchidan, o‘z davrida shariat ilmining peshvosi sifatida faoliyat yuritgan zabardast ulamo hamdir. To‘rtinchidan, uning “Masnaviy” asarini Buyuk Qur’onning she’riy tafsiri deb ta’riflaydilar. Shu ma’noni nazarda tutib Hazrati Abdurahmon Jomiy “Masnaviy”ni “Xast Qur’on dar zaboni pahlaviy” (ma’nosi Paxlaviy tilidagi Qur’ondir) deb bejiz aytgan emas [1. B. 126]. Rumiyning insonni komillik darajasida ko‘rishni orzu qilgan holda ishlab chiqqan tasavvufiy ta’limoti, boshqa bunday konsepsiyalardan muayyan darajada farq qiladi. Zotan, Jaloliddin Rumiyning o‘zi ta’kidlaganidek:

Har valivu har nabiro maslakest,

Lek, to Haq meravand jumla yakest [2. B. 32].

(Tarjima: Har bir valiy va nabiyning o‘z maslagi bor. Lekin Haq oldiga borganda ularning hammasi bir bo‘ladi.)

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, Jaloliddin Rumiyning “Komil inson” haqidagi qarashlari ancha yuksak darajada, majoziy usulda bayon etilishi va ahli sunnat e’tiqodiga muvofiq kelishi bilan birga, boshqa ta’limotlardan farqli tomonlari ham ko‘zga tashlanadi. Komil inson deganda, Rumiy birinchi navbatda payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomni tushunadi va ularni o‘z asarlarida targ‘ib qiladi. Shuningdek, u komil inson bo‘lish mezonini ham Muhammad alayhissalomga qanchalik ergashish nisbatiga qarab belgilaydi. Qolaversa, komillikka eltuvchi amaliy xatti-harakatlar, mezoniy, axloqiy tushunchalar asosan Qur’on va hadislarda ko‘rsatilgan amaliy ko‘rsatmalarga rioya qilishlik bilan baholanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, Jaloliddin Rumiyning mazkur tasnifi boshqa tasavvuf namoyondalarining komillikka erishish borasidagi qarashlariga monand kelsada, ularning tasnifidan ma’lum darajada farqlanadi. Shuningdek, ular ushbu amallarga rioya qilishga doir majburiyatlarni Rumiy o‘ziga xos tarzda ishlab chiqqanini kuzatish mumkinligini ta’kidlaydilar [4. B. 102-103].

Mavlono Jaloliddin Rumiy shariatni tushunish va unga amal qilishning yuksak namunasini o‘z asarlari va hayotiy faoliyati davomida ko‘rsatib bergan allomadir.

Jaloliddin Rumiy ba’zi tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, shariatni inson uchun kishan deb bilgan shaxs emas. Balki, uni komil insonni tarbiyalashdagi muhim asos va vosita o‘laroq qamragan mutasavvif sifatida gavdalanadi. “Masnaviy” shorihlaridan Asqar Mahkam, masnaviyni sharhsiz o‘qib bo‘lmaydi. Chunki, uning majozga oid tilsimoti, har qanday olimni ham juda chuqur o‘yga toldiradi deganida u haq edi. Mavlono Rumiyning asarlarini sharhsiz mutoala qilib bo‘lmasligi singari uni falsafiy mushohadasiz tushunib bo‘lmaydi. SHunday ekan, Mavlononing insonni komil qilib tarbiyalashga oid qarashlari falsafiy talqinni talab qiladi. Masalan, uning insonni komilikka etaklovchi muhim boshlang‘ich nuqtani “ishq”da, ya’ni Allohga bo‘lgan muhabbatda ekanligini kuzatamiz. SHuning uchun ham Rumiy ishqni “Ishq – usturlobi asrori Xudo” deb atagan [2. B. 34.]. Mazkur ishq tushunchasi, boshqa tasavvuf allomalarida ham komilikka etaklovchi ilohiy mayoq ekanligi aytilgan bo‘lsada, lekin Mavlono Rumiyda bu tushuncha butkul boshqacha, ya’ni ham ibtido, ham intixo, ham vosita va ham maqsad tarzida tushuniladi. Uning fikricha, har qanday komillikka etaklovchi amalning asosida ishq yotmas ekan, uning oqibati achchiq va alamli azob bo‘ladi [5. B. 125.]. Qolaversa, Rumiydagi ishq tushunchasi faqat mubolag‘adangina iborat emas, balki bu ishq insonni kamolga etkazuvchi amal va xatti -

harakatlarni xolis Alloh uchun qilmoqni o‘rgatadi. Uningcha, komilikka bel bog‘lagan inson (murid) avvalo, qilayotgan amalini biror bir manfaat yuzasidan emas, balki taslimiyat asosida qilmog‘i lozimdir. Taslimiyat esa, bilamizki, muridni pirga (murshidi komilga), payg‘ambarga va Allohga mutlaq holda bo‘ysunmog‘ini bildiradi. Ularning amrlari va qaytariqlarini so‘zsiz ado etadi. Ana shundagina u “murid” kamol topadi.

Tangiridin bir soya ermish avliyo,
Ul-dalili nuri xurshidi Xudo [2. B. 59.]
Har daqiqa Haqqa taslim bo‘l tamom,
Shu etar bas, boshqasidir makru dom [2. B. 63.]
Xushdurur payg‘omi Haq-Parvardigor,
To abad payg‘omi Haqdir poydor [2. B. 116.]
Dahr aro nur – aksi oftobi saxo,
Dildagi nur aksi anvori Xudo [2. B. 118.].

Tojikistonlik olim A. M. Bogoutdinovning ta’kidlashicha, XIX asrda yashab ijod etgan buyuk nemis faylasufi Gegelning dialektik g‘oyalari, uning ta’limotining ratsional mag‘zi bevosita Jaloliddin Rumiy ta’siri ostida shakllangan degan xulosaga kelishga asos bo‘lmasa ham, haqiqat yuzasidan shuni ta’kidlab o‘tmoqlik lozimki, Gegel tomonidan o‘rtaga tashlangan va echimini topgan juda ko‘p masalalar garchi Gegel amalga oshirgan darajada bo‘lmasa ham, 500 yil avval Rumiy tomonidan ilgari surilgan va qisman hal qilingan [6. B. 192.].

Qolaversa, komillik masalasi Rumiyga ko‘ra mavhum, ya’ni abstrakt tushuncha emas, balki insonning yuksaklikka darajama – daraja ko‘tarilib borish qobiliyatidir. Bu qobiliyat esa tarbiya vositasidagina ro‘yobga chiqadi. Uning uchun tarbiya to‘g‘ri asosda yo‘lga qo‘yilmog‘i kerak. Bu asoslar albatta shariatga mutloq tayanmog‘i kerakdir. Bu haqda Rumiy o‘zining masnaviysida jabariylarga bergan insonlarning taqdiri va fe’llari yuzasidan raddiyasida atroflicha yoritib bergan. Jaloliddin Rumiyning komil inson haqidagi konseptual yondashuvi o‘zigacha mavjud bo‘lgan konsepsiyalarning yuksak darajada qayta ishlangan sintezi hisoblanishi bilan birga, o‘zidan keyin yaratilgan va yaratilayotgan ta’limotlarning fundamental ilmiy manbai vazifasini bajarib kelmoqda. Uning komil inson ta’limotidan boshqa konseptual darajadagi qarashlari SHarq va g‘arbda yaratilgan falsafiy tizimlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymadi. Jumladan, nemis faylasufi Gegel dialektikasining yuzaga kelishida turtki bo‘lib xizmat qildi. Shu ma’noda, Rumiyning komil insonni tarbiyalashda qo‘llagan nazariy va amaliy metodi falsafiy jihatdan tadqiq etilishga muhtoj muammolardan hisoblanadi. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, uning mazkur metodi, ta’limoti qanchalar insonning ulug‘ligini ko‘rsatishga xizmat qilsa, shuning barobarida insonni nafsning quliga aylanib tubanlashgan mavjudot sifatida, komil insonning qarama – qarshi qutbidagi vakili ekanligini ochib tashlashga imkon yaratdi. Qolaversa, inson axloqining tubanlashuviga sabab bo‘ladigan ichki va tashqi omillarni ehtiyotkorlik bilan tarbiyalash Rumiyning ta’biricha, insonning komil inson bo‘lib etishishidagi birinchi va muhim qadamidir. Uningcha, ushbu birinchi qadam yaxshi axloqiy fazilatlarni singdirishgina emas, balki insondagi yomon deb atalgan illatlardan qutulmoqlik yo‘li hamdir. Uning komil insonni tarbiyalashga qaratilgan ilmiy metodi bugungi yosh avlodni tarbiyalashda dasturul amal vazifasini bajaradi. Negaki, ushbu dastur Sharq axloqshunosligining go‘zal namunasi sifatida hayot sinovlaridan o‘tganligi bilan zamonaviy g‘arb axloqiy konsepsiyalaridan ancha ustun turadi deyish mumkin. Shuningdek, Rumiy ta’limoti orqali bugun madaniyatimizga kirib kelayotgan

qo‘shtirnoq ichidagi zamonaviy axloq mezonlarini qaytadan taftish qilish nafaqat davr talabi, balki an’anaviy axloqiy muhitni, ya’ni etosferani saqlab qolishning yagona manbaidir.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro’yxati

1. Abduraxmon Jomiy. Sharhi ruboiyot. Ja’far Holmo‘minov tarjimasi va sharhi. - Toshkent: 2008.

2. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. 1-kitob. Forschadan Jamol Kamol tarjimasi. -Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2001.

3. Jaloliddin Rumiy. Ma’naviy masnaviy. T. 1. Kulliyot. 1-kitob. Asqar Mahkam tarjimasi va sharhi. -Toshkent: Sharq, 1999.

4. Z. Sachchodi. Mukaddima bar mabonii irfon va tasavvuf. –Texron: 1380.

5. Usmon Nuriy To‘pbosh. Bir ko‘za suv (Masnaviy va ma’naviy asari tahlili). - Toshkent: 2007.

6. Богоутдинов А. М. Очерки истории таджикской философии. –Сталинабад: Таджик. гос. издат, 1961.

7. N. I. Zaynobidinova. Abu Homid G’azzoliy va Jaloliddin Rumiy qarashlarida nafs va uni tarbiyalash masalalari. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023, № 5-son. 106-110 - betlar.

8. N. I. Zaynobidinova. Antik davr faylasuflari ta’limotida jamiyat barqaror rivojlanishiga doir qarashlar va ularning ijtimoiy-falsafiy tahlili. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2024, №2-son.

9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori.

10. Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-sonli qarori.

JAMIYATDA EKOLOGIK MADANIYAT VA EKOLOGIYALASHUV JARAYONLARINING UYG‘UNLASHUVI

Oripov Faxriddin Yo‘ldoshevich
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: standartnamdu@gmail. com
Tel: +998934088416

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tabiat-jamiyat o’zaro munosabatlarining hozirgi taraqqiyot davrida kechayotgan tezkor rivojlanish ekologiyalashuv jarayonlarida raqamlashtirish texnologiyalari va ularni yoshlar ongiga ko’rsatayotgan ta’siri yangicha ekologik madaniyatni qaror toptirishga undamoqda.*

Kalit so‘zlar: *Ekologiya, ekologik madaniyat, jamiyat va tabiat, futurologiya, ekologik tarbiya, axloq, axborotlar texnologiyalari, inson va tabiat munosabatlari.*

Аннотация: *В данной статье бурное развитие взаимодействий природы и общества в современный период развития процессов экологизации, технологий цифровизации и их влияние на сознание молодежи способствуют становлению новой экологической культуры.*

Ключевые слова: *Экология, экологическая культура, общество и природа, футурология, экологическое образование, этика, информационные технологии, отношения человека и природы.*

Abstract: *In this article, the rapid development of nature-society interactions in the current period of development in the processes of environmentalization, digitization technologies and their impact on the minds of young people encourage the establishment of a new ecological culture.*

Key words: *Ecology, ecological culture, society and nature, futurology, environmental education, ethics, information technologies, human-nature relations.*

Ijtimoiy voqelikning hozirgi davr kontekstidagi dolzarb muammolardan biri yoshlarda ekologik madaniyatni zaruriy darajada yetarli qilib shakllantirishga erishishdan iboratdir. Inson tabiatning bir qismi bo‘lib, uning salomatligi, ijtimoiy hayotdagi farovonligi darajasi va kelajagi, taqdiri, avlodlari taqdiri atrof-muhit bilan bevosita chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’sir doirasi va munosabatlari ekologik madaniyatning bevosita predmetini tashkil etadi. Bu oddiy haqiqat sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lgan har bir kishi uchun yaxshi tushunarli, lekin inson ko‘pincha atrof-muhitdagi kundalik hatti-harakatlarini mahalliy yoxud umumbashariy miqyosda shakllanib kelayotgan ekologik muammolar bilan doim ham bog‘layvermaydi. Oxir oqibat muammo yiriklashib, tabiiy xavfni yuzaga keltirganda ijtimoiy e’tiborni o‘ziga tortib oladi. Shu bois, zamonaviy jamiyatda ekologik madaniyatni qaror toptirish zaruriyati o‘ta dolzarb va jiddiy muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Bas, shunday ekan ekologiyaga oid tushuncha va qarashlar, unga monand bo‘lgan muammolar ijtimoiy hayotda qachon ilmiy nuqtai nazardan o‘rganila boshlangan? «Ekologiya» atamasi 1886 yilda «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» asarini nashr etgan nemis biologi E. Gekkel tufayli fanda qo‘llanila boshlandi, unda ekologiya organizmlarning atrof-muhit bilan aloqalarni o‘rganuvchi fan deb ataldi. Inson va tabiatning o‘zaro ta’siri, munosabatlar dialektikasi, uning atrof-muhitga moslashishi, tabiatning o‘ziga xos ta’siri ostida shaxs kamolotining shakllanishi va boshqa shu kabi omillar bilan bog‘liq tarixiy ildizlarga ega. Demak, qadimgi davr mutafakkirlari, jumladan yunon faylasuflari uchun tabiatga yuksak axloqiy nuqtai nazaridan yondashish tushunchasi paradigma ko‘rinishidagi qiymatga ega bo‘lgan. Shu sababli, inson tabiatning bir qismi sifatida ham, mavjud tabiatning alohida mavjudoti sifatida ham tushunilgan. Hozirgi davrda bu masala eskirganicha yo‘q, ammo unga ekologik ofatlar davrida barqaror rivojlanish muammolari qo‘shildi.

Ro‘y berayotgan o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan ma’lumki avvalo jamiyat hayotida, ya’ni insonlar ongida in’ikos etib borishi o‘zaro aloqadorlik munosabatlaridagi tabiiy jarayondir. Shu tariqa jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik, aloqadorlik har bir tarixiy davrda ko‘plab fan sohalari xususiyatlaridan kelib chiqib oqilona tarzda o‘rganilib kelinmoqda. Atrof muhit tobora inson hayoti va faoliyati uchun, uning orzu istaklari va maqsadlarini ro‘yobga oshirish jarayonidagi tabiiy bir muhim fenomen bo‘lib qolmoqda. Boisi, inson tabiatga qanday munosabatda bo‘lsa darhol aks ta’sirini, javobini olmoqda, jamiyatni tabiatga ta’sir doirasi mislsiz ravishda ortib bormoqda. Fan, texnika va texnologiyalarnig barqaror rivojlanib borishi orqali inson tabiatga yangicha imkoniyat, yangicha mazmunga ega bo‘lgan kuch doirasida ta’sir o‘tkazishga o‘tdi.

O‘tgan XX asr oxirlarida futurolog olimlar tomonidan yangi XXI asrni yuksak axloq va axborotlar texnologiyalari keskin rivojlanishi davri bo‘ladi deb bashorat qilingan edi. Haqiqatan ham hozirgi ijtimoiy taraqqiyot mazmuniga e’tibor qaratilsa ushbu ikki omil muhim rol o‘ynamoqda. Tobora jadallik bilan rivojlanib borayotgan ayrim millat, davlat, hamda etnik guruxlar o‘z mentaliteti hamda qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, insoniyat kelajagi va taqdiriga ta’sir o‘tkazishga zo‘r berib harakat qilmoqda.

Sog‘lom tafakkurli insonlar olamni yaxlit, bir butun ekanligini anglagan holda, tabiat va jamiyatni bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan, tabiiy muhitning bo‘lishligi ijtimoiy muhit mavjud bo‘lishligi sharti ekanligi bois uni birlamchi muhim asos sifatida qadrlab kelmoqdalar.

Ilm-fan tarixiga e’tibor qaratilsa, inson va tabiat o‘rtasida oqilona munosabatlarni qaror toptirish zaruriy va qonuniy muhim jarayon ekanligi uzoq davrlardan boshlab qayta-qayta ta’kidlab kelinadi. Shunday bo‘lsada tabiatdagi obyektiv sabablarga qaramay jamiyat a’zolari tomonidan subyektiv ravishda o‘zaro mutanosiblik aloqalari ko‘p vaziyatlarda buzib kelinmoqda.

Endilikka kelib, har bir muayyan jamiyat tabiatga nisbatan o‘zining ijobiy munosabatlarini qaror toptirish borasida tabiiy-ilmiy qarashlar tizimini ishlab chiqqanlar va uni rivojlantirishga intilmoqdalar.

Hozirgi zamon ilmiy bilish sohalarining o‘ziga xos jihatlaridan biri uni insonshunoslikka, ijtimoiylashuvga ko‘proq yo‘naltirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar markazida doimiy ravishda aqliy imkoniyatlarni o‘stirish, ijodiy qobiliyatlarni takomillashtirish, tafakkur madaniyatini oshirish, insonning mavjud imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularni amalga oshirish shartlarini aniqlash, insonning normal va cheksiz rivojlanishi asoslarini anglashi masalalari qo‘yilmoqda. Fan nafaqat ayni chog‘da dolzarb, muhim, balki kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan inson shaxsiy ehtiyojlarini ham aniqlab borishi kerak. Buning uchun mavjud shaxsiy yoki ijtimoiy muammolarni atrof muhit, bevosita tabiatga aloqador vaziyatlar, o‘zgarishlar bilan bog‘liq tarzda olib o‘rganish lozim bo‘ladi. Borliqni bilish jarayonida fan tabiiy mavjud olam shuningdek jamiyat, insonlar hayotini umumlashtirgan holidagi integrativ tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

Ekologik madaniyat to‘g‘risida mushohada yuritilganda avvalo, mavjud bo‘lgan oxirgi vaqtlardagi ilmiy qarashlarni va albatta, o‘z mulohazalarimizni bayon etishimiz zarur. Jumladan, O‘zbekistonlik taniqli olim, professor Nazar Hakimovning ta’kidlashlaricha “hozirgi sharoitda taraqqiyotning yangi bosqichida ilmiy bilimlarda ekologiyalashuvga yondashish kuzatilmoqda”. Ya’nikim, bu jarayonning o‘ziga xos xususiyati tabiiy holatni o‘rganish bilan birga, uning inson faoliyatiga ham bevosita bog‘liq jihatlariga ko‘proq e’tibor berib borilayotganligi zarurligiga urg‘u berishdir.

Xo‘sh, yoshlar ongida yangicha mazmunga ega ekologik madaniyatni hozirgi axborotlashgan va raqamli texnologiyalar yuksak darajada rivojlanayotgan davrda shakllantirish uchun dastlab nimalarga ko‘proq e’tibor qaratmoq kerak.

Ekologik tarbiya va ta’lim har bir tarixiy pallada yangicha yondashuvni talab qiladi. Boisi, tabiatda bo‘lganidek jamiyat hayotida ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlar ro‘y beradi va yangi ko‘rinishdagi munosabatlar qaror topib boradi. Yuzaga keladigan yangi bilim sohalarini doimo muayyyan ilmiy tizimga solib borish qonuniyatli jarayonlarga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 464 б.
2. Вебер М. Избранные произведения. М. : Прогресс, 1990. – 808 с.
3. Ҳакимов Н. Ҳ. Инсон экологияси. Монография. Тошкент, “IQTISODIYOT”-2021й. , 7-бет.
4. А. Саодатов. Экологик қадриятларни шакллантирувчи тамойиллар. НамДУ илмий ахборотномаси, 2022 йил 8-сон, 211-бет.

MILLIY MADANIY MEROS IJTIMOIY - MADANIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.

Tojiboyev Azizbek Vaxobjonovich

Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: *Usbu maqolada milliy madaniy merosning ijtimoiy - madaniy qadriyatlarni rivojlantirish omili ekanligi atroflicha tadqiq qilngan. Shu bilan birga milliy madaniy merosning ahamiyati, uning o’zgaruvchan xususiyatlari, unga ta’sir etuvchi omillar haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so’zlar: *madaniy meros, milliy meros, milliy madaniy meros, ijtimoiy - madaniy qadriyatlar, tarix, madaniy yodgorliklar, madaniy o’zgarishlar.*

Аннотация: *В данной статье подробно исследуется тот факт, что национальное культурное наследие является фактором развития социальных и культурных ценностей. В то же время обсуждалось значение национального культурного наследия, его изменяющиеся характеристики и факторы, на него влияющие.*

Ключевые слова: *культурное наследие, национальное наследие, национальное культурное наследие, социальные и культурные ценности, история, памятники культуры, культурные изменения.*

Abstract: *In this article, the fact that the national cultural heritage is a factor in the development of social and cultural values is thoroughly researched. At the same time, the importance of the national cultural heritage, its changing characteristics, and the factors influencing it were discussed.*

Key words: *cultural heritage, national heritage, national cultural heritage, social and cultural values, history, cultural monuments, cultural changes.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab milliy merosimizni saqlash, tadqiq etish, rivojlantirish va keng dunyoga tanishtirish borasida bir qancha davlat miqyosida vazifalarni amalga oshirdi. Bu borada qilingan va muntazam ravishda olib borilayotgan festevallar, bayramlar, davra uchrashuvari, tadbirlar e’tiborga molik. Bu borada har ikki davlat rahbarlarimizning qilgan ishlari taqsinga loyiq albatta. Biz milliy madaniy merosimizni tadqiq qilar ekanmiz dastlab uni tashkil etuvchi qismlarni atroflicha ko’rib chiqsak maqsadga muvofiq bo’ladi. Zero bu bizga tadqiq etilayotgan mavzuimizni keng hamda atroflicha tushunishimizga yordam berdi. Shundan kelib chiqib, dastlab meros tushunchasi haqida fikr yuritamiz.

“Meros” tushunchasi keng ko’lamli tushuncha bo‘lib, u o‘ziga madaniy va ma’naviy meroslarni ham birlashtiradi. Meros – bu insoniyat tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan va keyingi avlodlargacha yetib kelgan moddiy hamda madaniy boyliklar yig‘indisidir.

Meros ham o’z navbatida bir nechta asosiy turlarga bo’linadi. Bular:

Madaniy meros, ma’naviy meros, tabiiy meros, moddiy meros, nomoddiy meros, tarixiy meros, milliy meros. Mazkur meros turlaridan biz tadqiqotimiz davomida madaniy va milliy hamda milliy madaniy meroslarni ko’rib chiqamiz.

Madaniy meros o‘tmish ajdodlarning o‘z avlodlariga vorisiylik asosida yetkazib bergan, asrlar, murakkab davrlar, bo’xronli kunlar sinovlaridan o‘tib kelgan, insoniyatning hozirgi va keyingi davrlari taraqqiyotiga yordam beruvchi moddiy hamda ma’naviy boyliklari majmuidir. Ma’naviy meros esa, o‘tmish ajdodlarning hayotiy tajribalari, dunyoqarashi, axloq - odobi, iymon - e’tiqodi, badiiy - estetik, ilmiy, falsafiy, siyosiy - huquqiy qarashlari va milliy - ma’naviy qadriyatlari yig‘indisidir.

Madaniy meros merosning, ma’naviy meros esa madaniy merosning doirasiga kiradi. O‘tmishdan bizgacha yetib kelgan barcha narsalar umumiy merosni tashkil etsa - da, faqat uning

madaniy qadriyatlar darajasiga chiqqan qismigina madaniy meros hisoblanadi. Masalan, sobiq sho‘rolar davrida yaratilgan, uning siyosati va mafkurasiga xizmat qilgan shuningdek, uni targ’ib etgan, endilikda mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmay qo‘ygan ayrim badiiy asarlar, kinofilmlar, teatr va musiqa, haykaltaroshlik hamda tasviriy san’at asarlari, inqilob, quloqlashtirish, bosmachilik harakati haqidagi asarlar madaniy meros bo‘la olmaydi. Ularni faqat tarixiy fakt sifatida saqlab qo’yish mumkin, xolos.

Madaniy va ma’naviy meroslar birinchidan, umumiy va xususiy jihatlar (madaniy merosda umumiylik, ma’naviy merosda xususiylik)ning ustunlik qilishi, ikkinchidan, madaniy meros, umuman, madaniyat yutuqlarini, ma’naviy meros esa faqat ma’naviy madaniyat yutuqlarini qamrab olishi jihatlari bilan bir - biridan farqlanadi. Ma’naviy merosga nafaqat madaniyatning moddiylashgan shakllari (arxitektura, kinofllm, sahna asarlari, badiiy asarlar va boshqalar), balki ilm - fan, falsafiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy, diniy g’oyalar, tushunchalar, tasavvurlar va boshqalar ham kiradi. Ma’naviy meros zamonlar o‘tsa - da, o’z qadrini yo‘qotmaydi, barcha davrlarda kishilarning ongi va his - tuyg‘usiga ta’sir etib, ezgulikka chorlaydi. Ma’naviy meros kishilarning umum saviyasini kengaytiruvchi bilimlarning bitmas - tuganmas manbayi hamdir.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib milliy madaniy meros hususida fukr yuritamiz. Milliy madaniy meros - bir jamiyatning milliy madaniyati, tarixiy yodgorliklari, adabiyoti, san'ati va boshqa sohalari haqida o’zga millatlarga, davlatlarga, jamiyatlarga yetkazuvchi elchi hisoblanadi. Bu millatning tarixiy, madaniy hamda axloqiy qadriyatlari, obidalari, san'at asarlari, madaniy adabiyotlari, musiqalari va boshqalar bo’lib, uni yaratuvchilar tomonidan qoldirilgan merosdir. Ushbu ta’rif bir xalqning tarixiy, badiiy, estetik, arxitektura va shu kabilaridagi unikal xususiyatlarini, identifikatsiyasini hamda ruhini aks ettiradi. Mazkur meros milliy o’zlikni mustahkamlash, milliylikni saqlash va o'z taraqqiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga milliy madaniy meros quyidagi asosiy qismlardan iborat:

Tarixiy yodgorliklar: bu, bir millatning tarixiy obidalari, qadriyatlari hamda tarixiy voqealaridir. U millatning o'zaro aloqasi bilan bog'liq tadbirlar, qo'llanmalar, qadimgi obidalar, tarixiy joylar va boshqa turli narsalar orqali aks etgan bo'ladi.

Madaniy adabiyotlar: millatning badiiy merosi, qo'shiqlari, qissalari, hikoyalari, maqollari va boshqalaridir. Bular milliy til, adabiy uslub shuningdek odatlarning ifodalanishi orqali milliy madaniy merosning zaruriy qismi xisoblanadi.

San'at asarlari: milliy san'atning ifodasi bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kinematografiya, va boshqa san'at turlariga oid asarlar hamda ijodlar. Ushbu san'at asarlari milliy madaniy merosning vizual shu bilan birga og’zaki ifodalarini aks ettirib, ularni boshqalarga yetkazdirishni yengillashtiradi.

Qadimiy obidalar va odatlar: bular, millatning turli sohalarda o'tgan yillar davomida o'zlashtirgan odatlari, marosimlari, an’analari va qadimiy obidalaridir. Mazkur obidalar va odatlar milliy madaniy merosning asosiy qismini tashkil etadi.

Madaniy ko'nikmalar va fikrlar: millatning fikriy merosi, falsafasi, ilmiy izlanishlari va madaniy ko'nikmalari, ma'naviyat an'analari hamda o'zaro aloqalari bilan bog'liq g'oyalaridir. Bu ko'nikmalar, fikrlar milliy madaniy merosning ruhiy qismini ham ifodalaydi.

Yuqorida keltirilganlar milliy madaniy merosning o'zaro bog'liqligi va tuzilishi bir millatning o’ziga xosligini, tarixiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

Shuningdek milliy madaniy meros o’ziga xos xususiyatlarga ham ega:

Unikallilik: har bir milliy madaniy meros o'zining unikal va shaxsiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu millat tarixining, madaniyatining va san'atining o'ziga xos jihatlarini, adabiyotini, san'at asarlarini hamda qadimiy obidalarini o'z ichiga oladi.

Identifikatsiya: milliy madaniy meros, millat o’ziga xosligining asosiy qismini tashkil etadi. U yuqoridagilar bilan bir qatorda millatning musiqa, raqs, o'yinlar va boshqa madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Bular bir millatni boshqa bir millat bilan bog'lashda muhim rol o'ynaydi.

Tarixiy bog'liqlik: millatning tarixiy bog'liqligini ifodalaydi. Shu bilan birga, millatning tarixiy yodgorliklarini, voqealarini va tarixiy obidalarini o'z ichiga oladi. Bu tarixiy bog'liqlik millatni o'z tarixi bilan bog'lashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ma’naviylik: bir millatning manaviy qadriyatlari, ko'nikmalari va fikriy merosini ifodalaydi. U millatning ma’naviy an'analarini, falsafasini, adabiyotini shuningdek fikrlarini o'z ichiga oladi. Bu ma’naviylik millatning ruhiy bog'liqligini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Tarqalganlik: milliy madaniy merosni o'z vaqtida keng yoyilganligi o'zgarishlarga imkon beradi. Bu esa millatning asarlarini, ijodlarini va madaniy rivojlanishini ifodalaydi. Ushbu xolat uni zamonaviylik bilan bog'lashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zaro aloqalar: millatning o'zaro aloqalarini, hamkorliklarini va o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Boshqa millatlarning madaniy merosi bilan bog'liqlik hamda ular bilan munosabatga kirishishda alohida o'rin egallashga imkon beradi. Bu o'zaro aloqalar millatni boshqa madaniyatlarga yaqinlashishida muhim rol o'ynaydi.

Keltirib o’tilgan o’ziga hoslik hususiyatlari milliy madaniy merosni mustahkamlanishiga, uning tarixiy va madaniy identifikatsiyasini saqlashga hamda o'zgaruvchanligi shu bilan birga tarqalishiga imkon beradi.

Milliy madaniy meroslar ham o’zgaruvchanlik va tarqalish xususiyatiga ega. Quyidagi sabablarga ko’ra milliy madaniy meros o’zgarishi amalga oshadi:

Tarixiy va ijtimoiy o'zgarishlar: mazkur o'zgarishlar milliy madaniy merosni ham o'zgartirishi mumkin. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa o'zgarishlar millatning madaniyatiga, adabiyotiga, san'atiga, o'yinlariga hamda odatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Globalizatsiya: globalizatsiya jarayoni milliy madaniy merosni o'zgartirish xususiyatiga ega. O'zaro aloqalar, kommunikatsiya vositalari va transportning rivojlanishi madaniyatlar almashinuviga olib keladi, milliy madaniy merosning o'ziga xos aspektlarini o'zgargarishini ta'minlayadi.

Ko'rsatkichlar va qonunlar: davlatning siyosiy va qonuniy muhitidagi o'zgarishlar milliy madaniy merosni ham o'zgartirishi mumkin. Qonunlar, qoidalar hamda siyosiy ko'rsatkichlar madaniyatning rivojlanishiga ta'sir qiladi shuningdek uning o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarga olib keladi.

Texnologik o'zgarishlar: texnologik rivojlanishlar ham milliy madaniy merosni o'zgartiradi. Yangi kommunikatsiya texnologiyalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa texnologik vositalar bilan milliy madaniy merosning o'ziga xos jihatlari hamda kommunikatsiya usullari o'zgaradi.

O'zaro ta'sir: milliy madaniy meros o'zaro ta'sir va almashish natijasida ham o'zgaradi. Millatlar o'zaro aloqalar, o'zaro ta'sir, tarqalish hamda o'zaro madaniyat almashishi orqali bir - biriga o'z madaniyatini tarqatadi hamda o'zgartiradi.

Ma'naviy rivojlanish: insonlarning ma'naviy rivojlanishi ham milliy madaniy merosni o'zgartiradi. Ma'naviyat o'zgarishlari, fikr va qadriyatning o'zgarishi milliy madaniy merosning o'ziga xos jihatlarini o'zgarishiga ta’sir etadi.

Shuningdek, milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga oid keng qamrovli ishlar davlatlar tomonidan muntazam amalga oshirib boriladi. Uni qo'llab - quvvatlash, tarqatish hamda asoslashga oid siyosiy, iqtisodiy shuningdek ijtimoiy chora - tadbirlar ham o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Fukrlarni umumlashtiradigan bo’lsak yuqorida keltirilgan sabablar milliy madaniy meroslarni rivojlanib, yuksalib, taraqqiy etib va shu bilan birga o’ziga xos jihatlarini saqlab qolishini ta’munlaydi. Bu jamiyat rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish uchun quyidagi chora - tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

Tarixiy va madaniy ob'yektlarni ta'minlash va tiklash: milliy madaniy merosni saqlash uchun muhimdir. Buning uchun ma'naviyatshunoslar, tarixchilar, arxitektorlar, restavratorlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilinishi kerak. Ob'yektlar to'g'ridan - to'g'ri ta'mirlash, tiklash, saqlash va muhofaza qilish uchun moliyaviy resurslar va davlatning qo'llab quvvatlash fondlaridan foydalanish mimkin.

Tarixiy va madaniy merosni o'rgatish va ta'lim: milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish uchun tarixiy va madaniy merosni o'rgatish, ta'lim asosiy jihatlardan biridir. Bu tarix, adabiyot, san'at, musiqa, o'yinlar, qo'shiqlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlarni o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Shu tarzda muassasalar, muzeumlar, ta'lim markazlari, darsliklar va o'quv materiallari tayyorlashga e'tibor berish kerak.

San'at, adabiyot va musiqa yaratishda muhim qo'llab - quvvatlash: san'at, adabiyot va musiqa milliy madaniy merosning asosiy tarkibiy qismlaridir. Ular milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish uchun qo'llab -quvvatlanishi kerak. Davlat tomonidan uni yaratuvchilarga moliyaviy va siyosiy qo'llab - quvvatlash berilishi, ijrochi va yaratuvchilarga platformalar, teatr, kino va konsertlarni tashkil qilish imkoniyati berilishi kerak.

Milliy madaniyat festivali va tadbirlarini o'tkazish: milliy madaniyat festivali va tadbirlari milliy madaniy merosni namoyish etish, o'zaro almashish va ta'riflash uchun muhim hisoblanadi. Bu festival va tadbirlar orqali milliy san'at, musiqa, adabiyot, o'yinlar, so’zlar va ko'rgazmalarni namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday tadbirlarni o'tkazish davlat, mahalliy hokimiyat, tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va xalqaro hamkorlik bilan amalga oshirilishi mumkin.

Hamjihatlik va xalqaro munosabat: hamjihatlik va xalqaro munosabatlar bu jabhada muhim hisoblanadi. Boshqa davlatlar bilan madaniy munosabatlar, ko'p tomondan fikr almashish, san'at, adabiyot va musiqa to'g'risida hamkorlik qilish kerak. Xalqaro festival, konferensiyalar, munosabatlar dasturlari va boshqa hamkorlik tadbirlari milliy madaniyatni o'zaro ta'sir va integratsiyalashish imkonini yaratadi.

Kuzatuv va muhofaza tizimini tuzish: milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish uchun davlatning kuzatuv va muhofaza tizimini tuzish muhimdir. Bu tizim ob'yektlarni kuzatish, ma'lumotlar bazasini yaratish, qonun - qoidalar asosida muhofaza qilish, o'zaro hamkorliklarni rivojlantirish, muhim ob'yektlarni ro'yhatga olish va saqlash bilan bog'liq bo'ladi.

Englarni ya’ni yagonalikni olib tashlash: milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish uchun yagonalikni olib tashlash zarur. Bunday yagonalar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ta'lim, moliyaviy va boshqa sohalarda bo'lishi mumkin. Englar olib tashlash uchun qonunlar, siyosiy

chora - tadbirlar, ta'lim va ma'naviyatning rivojlanishi, integratsiya va inkluzivlikni ta'minlash kabi muhim ishlarni amalga oshirish kerak.

Tarixiy va madaniy turistik joylarni rivojlantirish: tarixiy va madaniy turistik joylar milliy madaniyatning namoyish etilishi va turizm sektori rivojlanishi uchun muhimdir. Tarixiy ob'yektlar, madaniy markazlar va tadbirlar orqali turistlar milliy madaniyat bilan tanishishlari va o'zaro ma’lumot almashishlari mumkin. Buning uchun turistik infrastruktura, sohalar, turistik marosimlar va tanishtirish uchun materiallar tayyorlash hamda taklif qilish zarur.

Xalq bilim markazlari va institutlarini tashkil etish: bunda xalq bilimi markazlari, tadqiqotlar va ilmiy institutlar muhim ahamiyatga ega. Bu institutlar milliy madaniyat, tarix, adabiyot, san'at, musiqa hamda boshqa sohalarda tadqiqotlar olib borish, ilmiy maqolalar shu bilan birga asarlar yaratish, o'quv dasturlarini tuzish, milliy madaniyat sohasidagi ilmiy - intellektual potentsialni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Bu chora - tadbirlar milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishning muhim aspektlaridan ba'zi namunalar hisoblanadi. Har bir mamlakat o'zining milliy madaniy merosini saqlash va rivojlantirish uchun chora - tadbirlarni amalga oshirishi kerak, bu qarorlar mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy holati bilan bog'liq bo'ladi.

Zero davlatimiz yuqorida keltirib o’tilgan choqa - tadbirlarni avval boshdan muntazam ravishda amalga oshirib kelmoqda. Shuning uchun bugun O’zbekistonni butun dunyo tanidi, milliy madaniy merosimizdan habardor bo’ldi va bu davom etmoqda. Endigi jamiyatimiz oldida turgan ulkan vazifalardan biri bu milliy madaniy merosimizni yanada rivojlantirishdir. Bu bizning ijtumoiy - madaniy qadriyatlarimiz rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan milliy madaniy meros ijtimoiy - madaniy qadriyatlarni rivojlantirish omili sifatida qanday ahamiyatga ega ekanligini ko’rib chiqamiz.

Milliy madaniy merosda ijtimoiy - madaniy qadriyatlarni rivojlantirishining bir nechta ahamiyatga ega aspektlari mavjud:

Identlik va milliy xotira: milliy madaniy meros ijtimoiy - madaniy qadriyatlarni rivojlantirish, insonlarning o'z milliyliklarini hamda milliy xotiralarini saqlashga yordam beradi. Milliy madaniyat, insonlarga tarix, adabiyot, san'at, musiqa, o'yinlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlar orqali o'zligini anglash imkonini beradi.

Tolovsiz resurslar: milliy madaniyat, insonlar orasidagi tarbiyaning tolovsiz resurslaridan biridir. Tarixiy va madaniy ob'yektlar, adabiyot, san'at esserlari va musiqa asarlarining rivojlanishi, ularga e'tibor qaratilishi hamda ularning o'zaro almashishlari, insonlar orasidagi muloqot, ko'rsatkichlarni o'stiradi. Bu esa moliyaviy resurslardan ko'ra kam mablag'lar talab etadi.

Turizm va iqtisodiyot: milliy madaniyat, turizm sohasi uchun muhim bir omildir. Tarixiy va madaniy ob'yektlar, adabiyot, san'at esserlari, musiqa asarlarining namoyish etilishi turistlar uchun qiziqish uyg’otadi. Ushbu holat turizm sektori rivojlanishini ta'minlaydi, turistlarning kelishlari iqtisodiyotni o'stiradi, ish o'rinlari yaratadi va ko’p tamoqdagi bizneslarni rivojlantiradi.

Qo'llab - quvvatlash va hamjihatlik: milliy madaniyat, insonlar orasidagi qo'llab - quvvatlash va hamjihatlikning muhim bir vositasidir. Yuqorida keltirilgan manbalarning o'zaro almashishlari, turli mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar va do'stlikni oshiradi. Bu esa mamlakatlarning o'zaro bilim, tajriba va ko'nikmalardan foydalanishiga imkon beradi.

O'ziga xoslik va boshqaruv: milliy madaniyat, bir mamlakatning o'ziga xosligini, o'zining madaniy tarixi, g'oyalari, adabiyoti, san'ati, musiqa va o'yinlari orqali ifodalaydi. Mazkur jihat mamlakatning dunyo ahamiyat unga berishidqa muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Milliy

madaniyatning rivojlanishi, mamlakatning madaniy siyosati va strategiyalarini belgilashga yordam beradi.

Ma'naviy birlashuv va istiqbollik: milliy madaniyat, insonlar orasidagi ma'naviy birlashuvni oshiradi va ularning o'zaro aloqalarini kuchaytiradi. Yuqorida keltirib o’tilgan manbalarning o'zaro almashinuvlari, insonlar orasidagi madaniy munosabatlarni rivojlantiradi hamda ichki, tashqi istiqbolni ta'minlaydi.

Ta'lim va o'qitish: milliy madaniyat, o'quv jarayonida ahamiyatga ega bo'ladi. Keltirilgan manba’larni o'rganish va tadqiqot jarayonlari o'quvchilarning ma'lumotlari, tushunchalari va tajribalarini oshiradi. Bu esa o'quvchilarning madaniyatshunoslik, san'at tarixi, adabiyot va musiqa sohasidagi bilimlarini rivojlantiradi.

Rivojlanish: Jamiyatning milliy madaniy merosini ijtimoiy - madaniy qadriyatlarni rivojlantirish omili sifatida rivojlanishning alohida ahamiyati bor. Bu omil, milliy identlikni saqlash, turizm, iqtisodiyot, qo'llab - quvvatlash va hamjihatlik, o'ziga xoslik va boshqaruv, ma'naviy birlashuv va istiqbollik, ta'lim va o'qitish sohalarida muhim rol o'ynaydi. Uning natijasida, mamlakatlar o'rtasida milliy madaniyatni saqlash va uning rivojlanishini ta'minlash uchun dasturlar, strategiyalar va investitsiyalar amalga oshiriladi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, milliy madaniy meroslar davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun juda muhim bo’lib, uni rivojlantirishga ulkan xissa qo’shishi tabiiy. Buni biz yuqoridagi fikrlar va qarashlar bilan tahlil qildik. Shunday ekan jamiyat a’zosi bo’lgan har bir inson madaniy meroslarni asrashi, uning rivojlanishiga xissa qo’shishi, uning kelajak avlodga bekamu ko’st yetib borishi uchun javobgardir, shu bilan birga bu uchun hatrakat qilmog’i lozim va bu bizning qonuniy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T. : «O‘zbekiston», 1998.
2. Madaniyat va ma’naviyat muammolari. -T. ; «Meros», 1994.
3. Akramov Sh. va boshqalar. O‘zbekistonning madaniy obidalari. –T. ; «O‘zbekiston», 1993.
4. Nomoddiy madaniy meros Z. haydarov namangan 2104y.
5. Oybek Abdullayev. “Madaniy Qadriyatlar va Huquqiy Muammolar”, Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2015y.
6. Nargiza Karimova Mamatkadirovna . “Madaniy Qadriyatlar va Milliy Identitet” “Ijtimoiy fikr” jurnali. 2019 y.
7. Sodiq Safoyev. “Ijtimoiy - Iqtisodiy Qadriyatlar”, Toshkent, “Yangi Asr Avlodi” 2017-y.

Internet materiallari.

1. Businessdictionary. com
2. Researchgate. net
3. Onlinelibrary. wiley. com
4. Sciateirect. com
5. Orgprints. org
6. Environicresearch. com
7. Uz. Warbletoncouncil. org
8. Milliycha. uz

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH HAMDA LIDERLIK QOBILYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY TARBIYA TIZIMINING AHAMIYATI

Yuldashev Javoxir Abdurahim o’g’li
Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig’i, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Tursunov Ramziddin Abdixalil o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola yoshlarda liderlik qobilyatini shakllantirishda milliy tarbiya tizimi hamda uning asosiy xususiyatlari, milliy ma’naviyatimizning tutrgan o‘rni va ahamiyati borasidagi fikr mulohazalardan iborat*
Kalit so‘zlar: *lider, ma’naviyat, ijtimoiy muhit, tarbiya, milliy g‘oya*

Abstract: *This article contains opinions on the national education system and its main features, the role and importance of our national spirituality in the formation of leadership skills in young people.*
Key words: *leader, spirituality, social environment, education, national idea*
Аннотация: *В данной статье изложены мнения о национальной системе образования и ее основных особенностях, роли и значении нашей национальной духовности в формировании лидерских качеств у молодежи.*
Ключевые слова: *лидер, духовность, социальная среда, образование, национальная идея.*

Inson va insoniyat hech qachon tashqi dunyodan o`zini qurshab turgan olamdagi o`zgarishlar, rivojlanishlar, ro`y berayotgan hodisalar, voqealar, jarayonlardan ajralib qolgan, ularni his etmagan holda yashay olmaydi. Dunyodagi davlatlar, xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyosiy kuchlar, ular o`rtasidagi munosabatlar, ayniqsa ijtimoiy jarayonlardagi mafkuraviy ta'sirlar odamlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Ana shu ma'noda olib qaralganda har qanday jamiyat o`z istiqbolini kishilarni e'tiqod darajasiga aylangan muayyan g`oyasida ko`ra oladi. Chunki, “jamiyatning, jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi bo`lmasa, o`z oldiga qo`ygan aniq bir maqsad-muddaosi bo`lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi”[1]. O`z navbatida kishilar ongi va qalbini makon tutgan g`oya va mafkuralar ta'lim hamda tarbiyasiz shakllanmaydi, jamiyat ravnaqiga, millat va xalqni kelajagiga xizmat qiluvchi qudratli botiniy kuchga aylana olmaydi. Zero, jamiyat mafkurasi, o`tmish bilan xozirgi davr va kelajakni, kechagi kun bilan ertangi kunni bog`lab, tutashtirib, aloqadorligini mustahkamlab turish uchun xizmat qilishga qodir ijtimoiy g`oyalar majmuyidir. Ana shu g`oyalardagi belgilovchi ustuvor tamoyil, bu jamiyatimiz tabiatiga, millatimiz mentalitetiga xos bo`lgan insonparvarlik bo`lib, u bizning milliy g`oyamizning shakllanishini tub negizi hisoblanadi. Binobarin, yoshlarimiz ruhiyatiga insonga mehr-muhabbat tuyg`ullarini singdirish jarayonida milliy g`oyaning ana shu tamoyilini ta'lim-tarbiya tizimini bosh maqsadiga aylantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Xususan, mamlakatiiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev ham bu masalaga alohida

e’tibor qaratib: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”[2] deb ta’kidlamagan edi. Hozirgi kunnda erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni, chin ma’noda “Lider’larni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardandir. Boshqacha aytganda, biz o`z xaq-huquqlarini taniydigan, o`z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo`layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg`un holda ko`radigan, ortidan butun bir jamiyat va o‘zi qatori ijtimoiy qatlamni ergashtira oladigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Yoshlarni, ayniqsa jamiyat ustuni hamda tengdoshlarining yo‘lboshchisi bo‘lgn lider yoshlarni tarbiyalashda ularda imon-e'tiqod, milliy g`oyaga sadoqat, bir-birlariga mehr-oqibatni, o`z Vataniga, millati, dini, tili, tarixi, madaniyati urf-odatlariga hurmat ruhini, daxldorlik va ijtimoiy faolllik pozitsiyasini shakllantirish bugungi kun talabidir.

Yoshlarni yangicha tafakkur asosida tarbiyalash orqali milliy g`oya va mafkuraning hayotbaxsh insonparvarlik tomoyillariga, umumbashariy qadriyatlarga mos keladigan xulq-atvorni shakllantirish va kamolga etkazish, ya'ni jamiyatda mehr-muruvvat madaniyatini qaror toptirish mumkin. Fikrimizcha, mehr-muruvvat milliy g`oyamizning insonparvarlik tomoyillaridan ko`zlangan asosiy yo`nalishdir. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida xuddi shu yo`nalishga jiddiy e'tibor berish zarur hisoblanadi. Ma'lumki, tarbiya o`z mohiyatiga ko`ra, keng va tor ma'nolarda istefoda etiladi hamda ijtimoiy hayotda amal qiladi. Keng ma'noda oladigan bo`lsak, tarbiya – ijtimoiymadaniy tajribalarni aniq maqsadni ko`zlagan holda avloddan-avlodga o`tkazadigan va shaxsning kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan alohida jarayondir. Tor ma'noda esa, mehr-muruvvat madaniyatini tarbiyalash bu yoshlarni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirish yo`lida kattalarning birgalikdagi aniq maqsadga yo`naltirgan faoliyatini, ya'ni rahm-shafqatli shaxsni kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonini anglatadi. Ushbu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog`liqdir. Xuddi shuning uchun ham mehr-muruvvat madaniyatini shakllantirishning samarali tashkiliy va pedagogik uslublari, vositalari ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishi zarur. Bunday shakl va vositalar milliy g`oyani ruyobga chiqarish, barkamol avlodni shakllantirishdan iborat bosh maqsadga erishishni ta'minlovchi xalqimizning milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan bo`lishi lozim. Ta'lim-tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo`lgan eng muhim dolzarb vazifa bo`lib turgan. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlari va an'analari asosida tashkil qilingan. Yoshlar tarbiyasiga doir shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an'analarimiz ko`p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Milliy merosimizning g`oyaviy negizi – shaxs tarbiyasi, uning ma'naviy ehtiyojlariga da'vogar bo`lgan omillarni o`rganishdan iborat bo`lib kelgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo`lmoqda. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo`lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko`zda tutilgan.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g`oyaviy uyg`unlik - ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy-ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham

anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda o`tmish allomalari, mutafakkirlarining ma'naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g`oyat beqiyosdir. Milliy tarbiyada, yuksak ahloqiy fazilatlarni shakllantirish; yoshlarga milliy meros va qadriyatlarni o`rgatish; inson omilini shakllantirish; kishilarni halol mehnat qilishga, ishbilarmonlik va tadbirkorlikka o`rgatish; yoshlarda milliy g`urur tuyg`usini tarbiyalash; ta'lim va tarbiyani uzviyligini ta'minlash kabilardir. Milliy tarbiyaning bu xususiyatlari zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg`unlasha olishi bilan bir qatorda milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz bilan bog`lansagina ijobiy samara beradi. Tarbiya, xususan milliy tarbiya xususida so`z borganda, bu tushunchaning mohiyati ustida alohida to`xtab o`tish lozim. Tarbiya so`zi asli arabcha bo`lib, «parvarish qilish, ta'lim berish, o`rgatish» degan ma'noni anglatadi. Tarbiyachi esa yuqoridagi maqsadlarni amalga oshiruvchi shaxsdir. Mukammal tarbiya berish ma'naviy kamolotning barcha jabhalarini rivojlantirish uchun sub'ektiv omil yaratishdir.

Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarni axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi hamda malakasini davr talablari va ehtiyojlari bilan uyg`unlashtirib shakllantirishga harakat qilganlar. Shunga ko`ra, har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o`z maqsad va mohiyatiga ko`ra g`oyaviy tarbiyadir . Sog`lom g`oyaviy tarbiya esa – yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini ham anglatadi. Shu o`rinda tarbiya hamda ta'lim beruvchining shaxsiy sifati hamda o`z ishiga fidoyiligi bu masalada g`oyat muhim ekanligini unitmaslik kerak. Bu xususda Imom G`azzoliy shunday yozadi. «Shayxning (tarbiyachining) muridini tarbiyalash kaliti - erdan ungan ne'matning yaxshi hosil bermog`i uchun dehqon uning atrofini begona o`tlar, tikanlardan tozalagani kabi bir hol»[3]. Shu nuqati nazardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi globallashgan hamda dunyoning mafkuraviy ko‘rinishi butkul o‘zgargan bir davrda millatning ertasi bo‘lgan yoshlar va ularning eng tashabbuskor, izlanuvchan, ilmli va faollari – liderlarini shakllantirishda milliy g‘oyamiz, milliy tarbiya tizimimizdan unumli va samarali foydalanish biz uchun hayotiy zarurat hisoblanadi. Zero, ertamiz egalarini bugun qanday holatda tarbiyalashimiz ertangi kunimizda jamiyat ijtimoiy muhiti va millat taqdirining qay darajada bo‘lishini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Millatning millatligini, o‘zligini va harakterini saqlab qolishda jamiyatda yoshlar ijtimoiy qatlami yetakchilarining o‘rni bugun, hozir harqachongidan ham yuqoridir. Davlatimiz rahbari ham bejizga : Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman”[4] deb ta’kidlamagan edi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Karimov. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. Toshkent, Ma’naviyat, 2006. 50-bet
2. Sh. Mirziyoyev. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan. 19. 01. 2021
3. http://www. kompy. info/ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-vazirligi-t-n-qori-niyoziy. html?page=10
4. Sh. Mirziyoyev. Yoshlar Forumida so’zlagan nutqidan. 25. 12. 2020
5. I. Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent 2000 4.

6. Yuldashev, J. A. "Content of development of axiological position in future teachers in the process of history education. " current research journal of pedagogics 4. 06 (2023): 82-88.

7. Юлдашев, Дж "Взаимосвязь развития исторического сознания и аксиологического мировоззрения в восприятии студентов. " Общество и инновации 2. 3/S (2021): 53-58.

8. Yuldashev J. Leveloping axiological world view in students in teaching history //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – S. 281-283.

9. Юлдашев Ж. Аксиологический Подход В Обучении Истории: Содержательный Компонент //"ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 185-187.

JAMIYATNING IJTIMOY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA AXBOROT TIZIMLARINING O’RNI VA ROLI

Tursunboyev Zuhriddin Mahmudjon O’g’li

University of Business and Scince. Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada axborot tizimlarining jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishdagi o’rni va roli masalasi yoritlgan shuningdek, maqolada zamonaviy, ochiq axborotlashgan jamiyatlarda davlat va jamiyat o’rtasidagi munosabatlarni qaror toptirishda axborot tizimlarining o’rnini yuksalib borishi yoritlgan.*

Kalit so’zlar: *axborot, axborot oqimi, axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy munosabat, jamoatchilik fikri.*

Аннотация: *В данной статье освещается вопрос о месте и роли информационных систем в формировании и развитии социальных отношений в обществе, а также в статье рассматривается возрастающая роль информационных систем в определении отношений между государством и обществом в современном мире. , открытые информационные общества охвачены.*

Ключевые слова*: информация, информационный поток, информационное общество, общественное отношение, общественное мнение.*

Abstract: *In this article, the question of the place and role of information systems in the formation and development of social relations in society is covered, and in the article, the increasing role of information systems in determining relations between the state and society in modern, open information societies is covered.*

Key words: *information, information flow, information society, social attitude, public opinion.*

“Tizim” deganda, bir vaqtning o’zida ham yagona , yaxlit deb qaraladigan har qanday obyekt, ham qo’yilgan maqsadlarga erishish manfaatlarida birlashtirilgan turli elementlar majmuyi tushuniladi. Ma’lumki bugungi kunda turli xil tizimlar yaratilgan bo’lib ular o’z tarkibi va bosh maqsadi bo’yicha bir-biridan farqlanadi. Tizim tushunchasi keng tarqalgan va juda ko’p maqsadlarda qo’llaniladi. Axborot tizimlariga nisbatan qo’llanilganda aksariyat hollarda texnik vositalar va dasturlar to’plami nazarda tutiladi. Kompyuterning faqat apparat qismnigina tizim deb atash mumkin. Muayyan amaliy vazifalarni bajarish uchun hujjatlarni yuritish va hisob kitoblarni boshqarish jarayonlari bilan to’ldirilgan ko’plab dasturlarni ham tizim deb hisoblashimiz mumkin.

Axborot tizimi - qo’yilgan maqsadlarga erishish yo’lida axborotni to’plash saqlash ishlov berish va arishda foydalanildigan vositalar, usullar va xodimlarning o’zaro bog’liq majmuyi. Bugungi kundagi zamonaviy axborot tizimi tushunchasi axborotga Ishlov berishning asosiy texnik vositasi sifatida shaxsiy kompyuterlardan foydalanishni nazarda tutadi. Axborot tizimlarining qo’llanilish sohalari turli tumandir. Shuningdek har bir tizimga xos bo’lgan xsusiyatlar va o’ziga xosliklar ham turli tumandir. Muayyan axborot tizimining xsusiyatlari majmuyini belgilovchi ko’plab omillar orasidan uchta omilni ajratib ko’rsatish mumkin, bular : tizimning texnik darajasi , ishlov berilayotgan axborot xarakteri , axborotning ishlatish maqsadlari , yani ushbu tizim hal qilishda yordam berishi mo’ljallangan vazifalar doirasi. Texnika darajasi bo’yicha axborot tizimlari quydagi tizimlarga bo’linadi: Dastlabki Mexanizatsiyalashgan Avtomatlashtirilgan Avtomatlashgan Dastlabki axborot tizimlarida axborotga ishlov berishning barcha jarayonlari qo’lda bajarilgan. Bunday tizimlarda axborotni qidirish uchun oddiy selektiv moslamalardan foydalaniladi. Bu qurilmalar arzon, ular bilan ishlatish uchun oliy malakali xizmat ko’rsatuvchi xodimlar talab etilmaydi. Mexanizatsiyalashgan axborot tizimlarida axborotga ishlov berish va qidirish uchun turli mexanizatsiyalshgan vositalardan foydalaniladi, ular orasida hisoblash perforatsiya mashinalari keng tarqalgandir. Mexanizatsiyalashgan axborot tizimlarida axborot eltuvchilari bo’lib perfokartalar hisoblanadi. Bunday mexanizatsiyalashgan tizimlarning texnik vositalari takibiga perforatsiya mashinalari kiradi. Ularning har biri muayyan bir vazifani bajaradi. Perforator yordamida zxborot dastlabki hujjatdan perfokartalarga o’tkaziladi. Saralovchi umumiy belgilarga ega bo’lgan perfokartalarni alohida guruhlar bo’yicha joylashtiriladi. Avtomatlashtirilgan avtomatlashgan axborot tizimlaridagi axborotni saqlash, unga ishlov berish va qidirish uchun hamda kompyuterlarda axborotni to’plash, tayyorlash va uzatish, shuningdek axborotni istemolchiga chiqarib berish bilan bog’liq operatsiyalarni bajarish uchun ham foydalaniladi. Bu tizimlar keng funksional imkoniyatlarga ega va axborotni juda katta hajmlarini saqlash va ishlov berishga qodir. Bu yerda axborot eltuvchilar kompyuterning xotira qurilmalaridir. Axborot tizimlari quyidagi xossalar bilan xarakterlanadi Har qanday axborot tizimi, tizimni tashkil etishning umumiy prinspi asosida tahlil qilinadi va boshqariladi. Axborot tizimi dinamik ko’rinishga e`ga bo’lib, rivojlanuvchi tizim hisoblanadi Axborot tizimining maxsuloti ham axborot hisoblanadi Axborot tizimini odam-kompyuter tizimi ko’rinishida tasavvur qilish lozim Axborot tizimlarini hayotda qo'llab qanday natijalar olish mumkin Matematik metod va intellektual tizimlarni qo'llab, boshqarishning optimal variantlarini olish. Tizimni avtomatlashtirish natijasida ishchilarning vazifalarini engillashtirish. Eng tog’ri axborotga ega bo'lish. Axborotlarni qog’ozda emas balki magnit yoki optik disklarda saqlash Maxsulot ishlab chiқarish sarf xarajatlarini kamaytirish. Foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratish. Axborot tizimlarida boshqaruv tuzilmasining o'rni Axborot tizimi jamiyat va har bir tashkilot uchun quyidagilarni bajarishi lozim: Axborot tizimining tuzilmasi va uning qo'llanilish maqsadi, jamiyat va korxona oldida turgan vazifa bilan to'g'ri kelishi kerak. Masalan; tijorat firmasida – foydali biznes, davlat korxonasida ijtimoiy va siyosiy vazifalarni bajarishi kerak. 2. Axborot tizimi inson tomonidan boshqarilishi va ijtimoiy etika prinsplari asosida foyda keltirishi kerak. 3. To'g'ri, kafolatli va o'z vaqtida axborotlarni mijoz yoki tizimlarga etkazishi lozim. Hozirgai davrda turli maqsadlarga mo’ljallangan turli axborot tizimlari muvoffaqiyatli ishlab turibdi, ular foydalanuvchilarning axborot so’rovlarini qondirish uchun yo’naltirilgan. Bunday tizimlarning o’ziga xos xsusiyati shundaki ularda so’rovga muvofiq topilgan axborotdan aynan shutizimning

doirasida bevosita foydanilmaydi, balki foydalanuvchiga beriladi, u olingan axborotda o’ziga zarur istalgan maqsadda foydalanadi.

Axborot tizimlarini bundan keyingi o’rganinsh uchun ularda yuz beradigan jarayonlarni mufassal bayon etish zarur. Deyarli har qanday axborot tizimi uchun uning normal ishlashini ta’minlaydigan jarayonlarni shartli ravishda quydagi bloklardan iborat blok sxema shaklida tasavvur etish mumkin.

Axborot tizimlarini bundan keyingi o’rganinsh uchun ularda yuz beradigan jarayonlarni mufassal bayon etish zarur. Deyarli har qanday axborot tizimi uchun uning normal ishlashini ta’minlaydigan jarayonlarni shartli ravishda quydagi bloklardan iborat blok sxema shaklida tasavvur etish mumkin.

Bugun axborot tizimi deyilganda, aksariyat kishilarning ko'z o'ngiga kompyuter keladi, vaholanki u axborot tizimining bosh komponentlaridan (tarkibiy qismlaridan) biridir. Umuman olganda, axborot tizimini kompyutersiz variantda ham tushunish mumkin. Zamonaviy axborot tizimlari ulardan foydalanadigan korxonalarga ilgari o'zlari foydalana olmagan bir qator yangi imkoniyatlar va sifatlarni berishi mumkin, xususan axborot tizimi quyidagilarga yordam berishi mumkin.

Bugungi kunda axborot tizimlarini loyihalash va ishlab chiqishning komponent texnologiyasi zaruriy vositalar zahirasi ishlab chiqishning mavjud vositalarini qo'llab-quvvatlovchi vizual tahlil va modellashtirish instrumentlaridan boshlab, tanlash imkoniyatlari juda keng bo'lgan tayyor komponentlarning kutubxonalarigacha, shu jumladan turli dasturiy-apparat platformalari uchun «infrastruktura» komponentlariga ega deb hisoblash mumkin. Bu axborot texnologiyalari turli ishlab chiqaruvchilardan olingan komponentlar to'plamidan iborat bo'lgan tayyor tizimlarning «konstruktorlari» paydo bo'lishi bo'sahasida turibdi demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. М. , Тургунов Н. А. Ахборот хавфсизлиги асослари. – Т. : 2013, 13 б.

2. Бирюков А. А. Информационная безопастность: защита и нападение. – Минск: 2017, с. 42.

3. Халқ сўзи. №157. 2019 йил 2 август. – 1-бет.

4. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19. 01. 2019 й. , 09/19/46/2506-сон; 24. 03. 2020 й. , 09/20/179/0350-сон/ 29 бет.

5. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 21. 11. 2019 й. , 07/19/4524/4040-сон.

6. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 21. 11. 2019 й. , 07/19/4524/4040-сон.

"EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI" KURSINI O'RGANISHNING AHAMIYATI.

Ataxanov Baxtiyor

NamDPI davlat pedagogoika instituti Gumaniar fanlar kafedarsi katta o`qituvchisi .

Yo`ldashev Ozodbek

NamDPI Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi yo`nalishi 1- bosqich talabsi

Annotatsiya*: Ushbu maqola "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" kursining ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada ekstremizm va terrorizm tushunchalari, ularning jamiyatga tahdidi, va ma'naviy-ma'rifiy choralarning muhimligi*

yoritiladi. Ma'naviy tarbiya, diniy bilimlar va madaniy qadriyatlar orqali yoshlarni ekstremistik g'oyalardan himoya qilish usullari ko'rsatilgan. Shuningdek, ta'lim tizimi, axborot vositalari va tarbiyaviy ishlanmalar yordamida jamoatchilikni xabardor qilish va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish usullari muhokama qilinadi. Ushbu kursni o'rganish, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.

***Аннотация**: В данной статье анализируется значение курса «Духовно-образовательные основы борьбы с экстремизмом и терроризмом». В статье освещены понятия экстремизма и терроризма, их угроза для общества, а также важность морально-воспитательных мер. Показаны пути защиты молодежи от экстремистских идей посредством духовного воспитания, религиозных знаний и культурных ценностей. Также будут обсуждаться пути информирования населения и улучшения социальной среды с помощью системы образования, информационных носителей и образовательных разработок. Считается, что изучение этого курса является важным фактором поддержания мира и стабильности в обществе.*

***Abstract :** This article analyzes the importance of the course "Spiritual-educational foundations of combating extremism and terrorism". The article highlights the concepts of extremism and terrorism, their threat to society, and the importance of moral and educational measures. Ways to protect young people from extremist ideas through spiritual education, religious knowledge and cultural values are shown. Also, ways to inform the public and improve the social environment with the help of the educational system, information media and educational developments will be discussed. Studying this course is said to be an important factor in maintaining peace and stability in society.*

***Kalit so'zlar:** ekstremizm, terrorizm, ma'naviy-ma'rifiy asoslar, diniy bilim, madaniy qadriyatlar, ta'lim tizimi, axborot vositalari, jamiyat xavfsizligi, yoshlar tarbiyasi, sog'lom ijtimoiy muhit.*

***Ключевые слова:** экстремизм, терроризм, духовно-просветительские основы, религиозные знания, культурные ценности, система образования, средства массовой информации, общественная безопасность, образование молодежи, здоровая социальная среда.*

***Key words:** extremism, terrorism, spiritual and educational foundations, religious knowledge, cultural values, educational system, media, public safety, youth education, healthy social environment.*

Ekstremizm va terrorizm zamonaviy dunyo uchun eng jiddiy tahdidlardan biridir. Ular jamiyatlar orasida nizolar, qo'rquv va betartiblik keltirib chiqaradi. Shu boisdan, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda harbiy va huquqiy choralardan tashqari, ma'naviy-ma'rifiy choralarning ham o'rni katta. "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" kursi aynan shu choralarning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ekstremizm qat'iy va murosasiz qarashlar va harakatlarni anglatadi. Bu qarashlar odatda boshqa insonlar yoki guruhlarga nisbatan tajovuzkorlik va zo'ravonlikni o'z ichiga oladi. Terrorizm qo'rqitish, zo'ravonlik va harbiy choralardan foydalanib, siyosiy yoki ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun qilingan harakatlarni anglatadi. Terroristik harakatlar inson hayotiga va jamiyat tinchligiga katta zarar yetkazadi.

Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish orqali yoshlarni ekstremistik va terroristik g'oyalardan himoya qilish mumkin. Bu jarayonda oilalar, maktablar va jamoat tashkilotlari katta

rol o'ynaydi. Diniy bilim: Ko'pincha ekstremistik guruhlar diniy g'oyalardan noto'g'ri foydalanadilar. Diniy bilimlarni to'g'ri o'rganish va tushunish orqali insonlar bu guruhlarning noto'g'ri talqinlariga qarshi immunitet hosil qiladilar. Madaniyat va urf-odatlar: O'z milliy madaniyati va urf-odatlarini bilish va qadrlash, odamlarni ekstremistik g'oyalarga nisbatan mustahkam qiladi. Madaniy merosni targ'ib qilish orqali jamiyatning ma'naviy birligini saqlash mumkin.

Ma'rifiy tadbirlar Ta'lim tizimi: Maktablar va universitetlarda ekstremizm va terrorizm mavzularini o'z ichiga olgan kurslar joriy etilishi kerak. Bu yoshlarni bu hodisalarning xavf-xatarlaridan xabardor qiladi va ularga qarshi kurashishga tayyorlaydi. Axborot vositalari: Televideniye, radio, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekstremizm va terrorizmning zararli oqibatlari haqida muntazam ravishda ma'lumot berilishi lozim. Bu jamoatchilikni hushyorlikka chaqiradi va sog'lom ijtimoiy muhitni saqlashga yordam beradi.

Tarbiyaviy ishlanmalar: Bolalar va yoshlar uchun mo'ljallangan turli tarbiyaviy ishlanmalar, adabiyotlar va interaktiv dasturlar orqali ularni to'g'ri yo'nalishlarda tarbiyalash mumkin. Bu yoshlarni ekstremistik va terroristik g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilishga yordam beradi. Oilaviy tarbiya: Oilada o'zaro hurmat, sevgini targ'ib qilish va farzandlarga to'g'ri qadriyatlarni singdirish, ularning ekstremistik g'oyalardan himoyalanishiga yordam beradi. Diniy tashkilotlar bilan hamkorlik: Diniy tashkilotlar va ulamolar bilan hamkorlik qilib, to'g'ri diniy ta'limotni targ'ib qilish, ekstremistik g'oyalarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega . Ijtimoiy va madaniy tadbirlar: Milliy bayramlar, madaniy festivallar va sport tadbirlari orqali jamiyatni birlashtirish va yoshlarni sog'lom ijtimoiy muhitda tarbiyalash mumkin.

"Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" kursini o'rganish, jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, yoshlarni ekstremistik g'oyalardan himoya qilish va tinchlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bu kurs orqali yoshlarimiz to'g'ri qadriyatlarni o'rganib, ularga asoslangan holda hayot kechiradilar va jamiyatimizni ekstremistik tahdidlardan himoya qilishda faol ishtirok etadilar.

Foydalinlagan adabiylar:

1. Karimov, I. (2011). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. [Google Kitoblar havolasi](https://books. google. com/)

2. Khasanov, U. (2016). Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashning dolzarb masalalari. Toshkent: Yangi Asr Avlodi. Bu kitobni mahalliy kitob do'konlari va kutubxonalardan topish mumkin.

3. Nazarov, S. (2019). Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: Ma'naviy-ma'rifiy asoslar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti. Bu kitobni O'zbekiston Milliy Universiteti kutubxonasida yoki rasmiy veb-saytida topishingiz mumkin.

4. Yusupov, M. (2018). Ekstremizm va terrorizmning ijtimoiy xavfi. Toshkent: Universitet Noshiryoti. Bu kitobni universitet kutubxonalarida topishingiz mumkin.

5. Abdullayev, R. (2020). Jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va xavfsizlik. Toshkent: Sharq Noshir. Bu kitobni Sharq Noshir nashriyoti orqali topishingiz mumkin.

6. Bakar, A. (2017). Islamic Perspective on Countering Extremism and Terrorism. Kuala Lumpur: IIUM Press. [IIUM Press havolasi](https://iiumpress. iium. edu. my/)

7. Hunter, S. (2009). Religion, Politics, and Terrorism: A Global Perspective. New York: Oxford University Press. [Oxford University Press havolasi](https://global. oup. com/academic/)

ВАТАНПАРВАРЛИК – ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШДАГИ АСОСИЙ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН БИРИДИР

Куйлиев Тулкин
ТДАУ “Гуманитар фанлари ва ҳуқуқ” кафедраси доценти,
Рахмонбердиева Н.
ТИҚХММИ - МТУ “Гуманитар фанлари” кафедрасининг ассистенти

Аннотация: *Ушбу мақолада инсон маънавий руҳий дунёсининг таянч устунларидан бири бўлган ватанпарварлик муҳим ахлоқий қадриятлардан бири сифатида унинг номоён бўлиш хусусиятлари Ватанимиз тараққиётининг турли тарихий, ижтимоий-сиёсий, маънавий ҳаётининг ривожланиш босқичларидаги воқеа-ҳодисалар контекстида таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *ватан, ватанпарварлик, эътиқод, ғоя, мафкура, жасорат, маънавий жасорат, миллий ва умуминсоний қадриятлар.*

Аннотация: *В данной статье патриотизм, который является одной из основных опор духовно-духовного мира человека, как одной из важных нравственных ценностей, анализируются особенности его исчезновения в контексте событий различных исторических, социальных- политический и духовный этапы развития нашей страны.*

Ключевые слова: *Родина, патриотизм, вера, идея, идеология, мужество, моральное мужество, национальные и общечеловеческие ценности.*

Abstract: *In this article, patriotism, which is one of the main pillars of the spiritual world of man, as one of the important moral values, analyzes the features of its disappearance in the context of events at various historical, social, political and spiritual stages. development of our country.*

Key words: *Motherland, patriotism, faith, idea, ideology, courage, moral courage, national and universal values.*

“Бугунги Ўзбекистонимиз ўз тараққиётининг янги даврига қадам қўйди. Эришган натижаларимиз тарихга айланиб, олдимизда янги-янги ўзгаришларни амалга ошириш бўйича улкан вазифа ва имкониятлар пайдо бўлмоқда.

Янги Ўзбекистон орзуси амалиётга, реал воқеликка айланмоқда. Аммо бу осонликча ўз-ўзидан бўладиган иш эмас. Янги жамиятни барпо этиш, аждодларимиз учун ёруғ келажакни яратиш эҳтижи барчамиздан улкан масъулият, фидойиликва бунёдкорликни талаб қилмоқда”[1]. Бундай улкан вазифаларни бажаришда жамият тараққиётида ахлоқий тамойилларнинг ўрни ва аҳамияти ниҳоятда салмоқлидир.

Чунки жамиятда яшовчи ҳар бир инсон ўз эътиқоди, мақсади ва манфаатлари билан Ватанга хизмат қилади, унинг буюк келажаги учун тинимсиз интилади. Улкан тараққиётга хизмат қилувчи муҳим тамойиллардан бири шубҳасиз инсонлардаги ватанпарварлик туйғусидир. “Ўниб-ўсиб келаётган ёш авлод қалбида мустаҳкам ҳаётий позиция ва Ватанимиз тақдири учун юксак масъулият туйғусини шакллантириш мақсадида ватанпарварлик тарбияси соҳасида моҳият эътиборига кўра ноёб тизим яратилиб, унинг доирасига мамлакатимиз аҳолисининг кенг қатламлари қамраб олинди”[2]. Барчамизга яхши маълумки, ватанпарварлик ҳар бир давлат ҳаётининг маънавий асоси ҳисобланади ва жамиятниҳар томонлама ривожлантириш борасида энг муҳим сафарбар этувчи ахлоқий куч сифатида намоён бўлиб келган ва бундан кейин ҳам шундай бўлиб қолиши шубҳасиздир.

Фалсафий-ахлоқий адабиётларда ватанпарварлик тушунчасига кўплаб таърифлар берилган. Масалан, “Фалсафа: Қомусий луғат“ китобида “Ватанпарварлик – Ватан олдидаги масъулият ва бурчни англаш”[3], деб ёзган бўлса, “Ахлоқшунослик” номли ўқув қўлланмасиининг муаллифи А. Шер эса “У инсоннинг ўз Ватанига муҳаббатини, уни асраб авайлашга бўлган иштиёқини англатувчи ахлоқий тушунча”[4]-деб таъриф беради. “Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат”да “ватанпарварлик –кишининг ўзи туғилиб ўсган, камол топган жой, замин, ўлкага бўлган меҳр-муҳаббатини ифода этадиган ижтимоий ва маънавий-ахлоқий хислатлари, фазилатларидир”[5]-, дейилади.

Фидойилик ва жасорат ватанпарварликнинг бош белгиларидан ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг мустақил давлат сифатида мустаҳкамланиши, унинг иқтисодий, маънавий-маданий тараққиёти, меҳнаткашларнинг тезроқ фаровон ҳаётга эришиши учун тинмай меҳнат қилиши ва изланишини фидойилик дейиш мумкин. Фидойилик Ватанга бўлган садоқатдан бошланади. Истаган соҳада ватанпарварлик туйғусини намоён қилиш мумкин.

Табиатни муҳофаза қилиш, ота-боболаримиз қолдирган маданий меросларни тўплаш, ўрганиш, авайлаб сақлаш ва тарғиб қилиш кабилар ҳам ватанпарварлик ҳисобланади. Жасорат эса кишининг Ватан ва юртдошлари учун ўз манфаатларидан, керак бўлса, жонидан ҳам кечиб намоён этадиган юксак маънавий-ахлоқий фазилатдир. Жасорат халқ фаровонлиги илм-фан ва маданият равнақи, Ватан ҳимояси учун қилинган узоқ меҳнатда ҳам, ўзини фидо қилишни талаб этадиган фавқулодда ҳолатларда ҳам номоён бўлиши мумкин. Нима бўлганда ҳам Ватанпарварлик кишиларнинг ижтимоий ва маънавий-ахлоқий хислатларининг, фазилатларининг юксак намоён бўлишидир.

Зеро, улар негизида ота-боболардан мерос қолган заминни севиш, урф-одатларни, қадриятларни сақлаш эл-юрт равнақи учун чин дилдан меҳнат қилиб, Ватанни душманлардан ҳимоя қилиш, ҳар қандай қарамликдан озод этиш, ҳатто, зарур бўлса, унинг озодлиги ва мустақиллиги учун жонини ҳам аямаслик кабилар ётади. Ватанпарварлик эл-юрт манфаатларига хизмат қилиш, эл-юрт манфаатларини шахсий манфаатлардан устун қўйиш демакдир. Бундан англашиладики, ватанпарварлик она юртнинг, халқнинг тарихи ва тақдирига чуқур ҳурмат билан қарайдиган, Ватан манфаатлари йўлида фидойилик намуналарини кўрсатишга қодир бўлган шахсга хос фазилатдир.

Ватанга, халққа бўлган ҳурмат, муҳаббат, ишонч туйғуси муайян умумий манфаатлар, мақсадлар асосида шаклланиб, кишиларнинг қалбидан чуқур жой олади, фаолиятига таъсир қилиб, уларни масъулиятли вазифаларни бажаришга сафарбар этиб туради. Ватанпарварликнинг олий кўриниши жасоратдир. Жасорат кишининг Ватан ва юртдошлари учун ўз манфаатларидан, керак бўлса, жонидан ҳам кечиб намоён этадиган юксак маънавий-ахлоқий фазилатдир.

Оддий чўпон Широқ, муғул истилочиларга қарши курашнинг бетимсол вакили Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Мирзо Бобур ва яна минглаб Ватан ҳимоячилари абадият салномасига ўз номларини олтин ҳарфлар билан битганларини бугунги мустақиллик йиллари фарзандлари ўз ҳаётлари мисолида кўриб турибдилар.

Тарихий, ижтимоий, сиёсий, маънавий тараққиётнинг турли босқичларида ватанпарварликнинг янгидан янги қирраларини кашф этиб боради. Масалан, Собиқ Иттифоқда юксак ватанпарварлик намуналари сунъий тарзда иккига ажратилиб Совет иттифоқи қаҳрамони ва социалистик меҳнат қаҳрамони деб номланиб ажратилиб

кўрсатиларди. Ваҳоланки, жасорат халқ фаровонлиги, илм-фан ва маданият равнақи, Ватан ҳимояси учун қилинган узоқ меҳнатда ҳам, ўзини фидо қилишни талаб этадиган ҳолатларда ҳам намоён бўлиши мумкин. Шунинг учун ҳам мустақилликнинг дастлабки йилиданоқ бу соҳада ҳам йўл қўйилган Иттифоқ камчиликлари бартараф этилди.

1994 йил 5 майда Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Қаҳрамони”олий унвонини ҳамда “Олтин юлдуз” медалини таъсис этиш тўғрисида Қарор қабул қилди. Ҳозирги ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ниҳоятда серқирра, мураккаб ва масъулиятли вазифалардан биридир.

Ватанни севиш, ватанпарварлик туйғуларинишакллантиришда қуйидаги тамонларга эътибор бериш лозимдир. Буларга Ватанни ҳимоя қилиш учун ҳарбий хизматни ўташ, ватан душманлари ва хоинларига нафрат билан қараш, ватан манфаатларини ҳамма нарсадан устун қўйиш, ватан, мамлакат рамзларинимуқаддас деб билиш, ватан тарихини билиш ва у билан фахрланиш, барча ватандошларни қадрлаш ва улар билан бирга ватан манфаатлари йўлида бирлашиш, ватан истиқболини билиш ва бу йўлда фидойилик кўрсатишдир.

Ватан учун хизмат қилиш ҳар бир ватанпарвар инсоннинг шарафли бурчидир. Ватанпарварлик етук ахлоқий компонентларни ўзида мужассам этган ноёб ҳодисадир. Унда муайян миллий маданият, мафкура, эътиқодлар асосида шаклланади ва ривожланади.

Адабиётлар руйхати:

1. Ш. М. Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. Т: “O’zbekiston” нашриёти, 2022.

2. Ш. М. Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т, “Ўзбекистон”, 2- том.

3. Фалсафа: қомусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров). Т. : “Шарқ” НМАК. 2004.

4. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Т, “Янги аср авалоди”.

5. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат”). Т. : “Шарқ” НМАК. 2006.

AXBOROTNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI

Abdulxaqova Ruxshona Anvarjon Qizi

University of Business and Scince. Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya*: XXI-asr insoniyat tarixiga yangi axborot asri nomi bilan kirib keldi. Bugungi davr shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari, kibernetika, kompyuter va boshqa nano texnologiyalarning rivoji bilan xarakternaladi. Maqolada Axborot, axborotlashgan jamiyat tushunchasining tarixiy evolyutsiyasi, kelib chiqish sabablari, mazmun-mohiyati haqida gap boradi. Shuningdek ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat tushunchasining kelib chiqishiga tegishli bo'lgan tarixiy faktlar, ijtimoiy-iqtisodiy sabablar haqida va bugungi kundagi jarayonlarni qamrab oladi.*

Kalit so’zlar: *Axborotlashuv, axborotlashgan jamiyat, integratsiya, globalliztsiya, komleks axloq, ijtimoiy aloqa, axloqiy norma, madaniy me'yor, internet, kompyuter, elektronika, kibernetika, yangi davr sohalari. qadimgi davr svilizatsialari, XXI asr demokratiyasi, sotsiologik ta'sir, etnogenez, yagona qadiryat, qonun, chegara, erkinlik, vijdon.*

Аннотация: *XXI век вошел в историю человечества под названием нового информационного века. Сегодняшняя эпоха характеризуется развитием быстро*

развивающихся информационных технологий, кибернетики, компьютеров и других нанотехнологий. В статье говорится об исторической эволюции понятия информации, информационного общества, его истоках и сущности. Также в данной статье рассматриваются исторические факты, социально-экономические причины и современные процессы, связанные с зарождением концепции информационного общества.

***Ключевые слова**: Информационная коммуникация, информационное общество, интеграция, глобализация, сложная этика, социальная коммуникация, моральная норма, культурная норма, Интернет, компьютер, электроника, кибернетика, древние цивилизации новой эры, демократия XXI века, социологическое воздействие, этногенез, единая власть, право. , предел, свобода, совесть.*

***Abstract:** The 21st century entered the history of mankind under the name of the new information age. Today's era is characterized by the development of rapidly developing information technologies, cybernetics, computers and other nano technologies. The article talks about the historical evolution of the concept of information, information society, its origins, and its essence. Also, this article covers historical facts, socio-economic reasons and current processes related to the origin of the concept of information society.*

***Keywords:** Keywords. Information communication, information society, integration, globalization, complex ethics, social communication, moral norm, cultural norm, internet, computer, electronics, cybernetics, new era fields. ancient civilizations, 21st century democracy, sociological impact, ethnogenesis, single power, law, limit, freedom, conscience.*

Axborot (lotincha «informatio»-ushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan ARAI va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; dastlab kishilar tomonidan og'zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllar uzatilgan ma'lumot; XX asrning o'rtalaridan boshlab insonlararo, inson-avtomat, avtomat-avtomat o'rtasidagi ma'lumot hamda hayvonlar va o'simliklardagi signal almashinuvi, hujayrada hujayraga muayyan belgilarning uzatilishi va shu kabilami anglata boshlagan.

Ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot-kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, Jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma'lumot (ma'lumotlar majmui)ni anglatadi.

Axborotlashtirish-axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoty-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmui.

saqlash va etkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilona foydalanish usullari haqidagi bilimlar tizimini anglatadi.

Ijtimoiy-madaniy ma'noda axborot madaniyati insonning muayyan ma'naviy- axloqiy, siyosiy, huquqiy va estetik qadriyatlarni o'zlashtirgan holda axborot maydonida hayotiy faoliyat ko'rsatishini anglatadi.

Axborot iste'moli madaniyati (O'zMU tadqiqotchisi U. Qo'shaev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan tushuncha) axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat malakani o`zida ifoda etadi.

Axborotlashgan jamiyat-kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilona foydalanishga asoslangan sifatiy holatini tavsiflovchi tushuncha. Axborotlashgan Jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanish bosqichlar almashinuvi nuqtai nazaridan qaragan holda,

uning shakllanishini qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo'lgan iqtisodiyotning to'rtinchi «axborot sektori yuzaga kelishi bilan bog'laydilar.

Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. G'arb sotsiologlari fikriga ko'ra, axborotlashgan jamiyat texnika sohasida ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ta'lim va maishiy hayotga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi; iqtisodiy hayotda- axborotning tovarga aylanishi; ijtimoiy hayotda-axborot turmush, hayot darajasi o'zgarishining asosiy omiliga aylanishi; siyosiy sohada-keng miqyosda fikr almashishga zamin yaratuvchi xilma-xil axborotlarni erkin olishga yo'l ochilishi; madaniyat sohasida-axborot almashinuvi davr ehtiyojlariga javob beradigan normalar va qadriyatlarning shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillarga har ARAT xil ta'sir qilishi barobarida uni iste'mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir- biridan keskin farq qilishi mumkin.

Axborot iste'moli, kim tomonidan iste'mol qilinishidan qat'i nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq b bo'lgan bosqichlarda amalga oshadi. Bugungi kunda, axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqda-ki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Axborot Iste'moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan, Internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqori-ki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda qimmatini yo'qotishi aniq, Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilaridan tubdan farq qiladi.

Axborot iste'moli madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funktsiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulyativ (tartibga solish), axborot, aksiologik (baholash) kabi funktsiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining a Shuning uchin, hozirgi davrda aholimiz, ayniqsa yoshlarimizning axborot uzatishning zamonaviy texnikasi va va texnologiyasini mukammal darajada o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, mamlakatimizda Internetdan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish bilan birga, mazkur tarmoqqa milliy manfaatlarimiz aks etgan axborotlarni turli shakl va tillarda kiritib borish zarur. Zero, Jamiyatimiz hayotining turli sohalari to'g'risida axborot beruvchi ob'ektiv, jozibador ma'lumotlarning Internet sahifalaridan keng o'rin egallashi, O'zbekistonning global axborot makonidagi o'mining mustahkamlanishiga xizmatksiologik funktsiyasi alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шермухамедов С. , Очилдиев А. Маданият ва цивилизация. Фаргона, 2000.

2. Toshtemirov R. A. , Virtual haqiqat va uning insonga ta'siri, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 2-qism, 2023, 306-309 B.

3. Toshtemirov R. A. , (2023). Media education is an important factor in protecting young people from negative information. SCHOLAR, Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, ISSUE 29, 2023, Pp 187 195.

4. F Muminov, Sh. Barotov, Ochiq axborot tizimlarida axborot -psixologik havfsizlik. Toshkent -2013.

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASALARINING ROLI

Abduvoxobova Farzona Bobomurod qizi
Namangan davlat universiteti Jahon tillar fakulteti talabasi.

Annotatsiya: *Xalqimiz milliy va umuminsoniy ezgu qadriyatlarni e’zozlaydi. Yoshlarimizni turli buzg’unchi va yot g’oyalardan yiroq tutish, ularning ma’naviyatini kengroq darajada shakllantirish, milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni asrab-avaylashda xalq hayotining ko’zgusi bo’lgan mahallaning o’rni va ahamiyati beqiyosdir. O’zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq umuminsoniy qadriyatlar davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi hisoblanib, uning asosiy maqsadi o’zlikni anglsh, milliy qadriyatlarni tiklash, ko’p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan shaxslarni, xususan, yoshlarni axloqan shakllantirishga qaratilgan hisoblanadi.*

Tayanch so`zlar: *yoshlar, milliy qadriyatlar, tarbiya, oila, mahalla, ta’lim muassasalar, milliy urf-odatlar, ma’rifat.*

Milliy urf-odatlar va an’analarni bilmaslik, bilganda ham unga amal qilmaslik kishilarni o’z xalqining tarixiy madaniyatini, qadriyatlarini hurmat qilmaslikka olib keladi. Zotan, har bir milliy urf-odat va an’analar negizida milliy ruh, madaniyat, qadr kabi ulug‘ insoniy fazilatlar yotadi. O’z qadr-qimmatini bilish kishini vijdonsizlikdan, xudbinlikdan saqlaydi, o’zini boshqalar tomonidan tahqirlanishiga, kamsitilishiga yo’l qo’ymaydi.

Jamiyatimizning asosiy bo’g’inlaridan biri bu yosh avlod hisoblanadi. Uning kelajakda qanday fazilatlarga ega bo’lishi, chinakkam barkamol inson bo’lib ulg’ayishi, xalq uchun nafi tegadigan, Vatani uchun munosib xizmat qiladigan shaxs bo’lib yetishishida ta’lim-tarbiya asosiy o’rinni egallaydi. Bu ta’lim-tarbiyaning negizida esa, albatta, qadriyat degan tushuncha yotadi. Qadriyatning o’zi nima degan savol tug’ilishi tabiiy hol. Falsafiy qarashlarga ko’ra, qadriyatlar butun bir insoniyat uchun ahamiyatli bo’gan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma’rifat, go’zallik, hayotda va tabiatda bo’ladigan yaxshilik, ezgulik kabi jamiki hislatu-fazilatlar yig’indisidir. Ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan esa qadriyatlar insonning ma’naviy ehtiyojlari asosida paydo bo’lgan. Amaliy faoliyatda davr sinovidan muvaffaqiyatli o’tib, o’z shakl va mazmunida u yoki bu xalqning ma’naviy-axloqiy olamini ifoda etgan, asrlar davomida xalqning ma’naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan jamiki ma’naviy hamda ruhiy jihatlar majmui sifatida izohlanadi.

Oila jamiyatning asosiy bo’g’ini va u tarbiya o’chog’i sanaladi. Milliy qadriyatlarimizning davomiyligi va ularning shakklanib borishida ham oila muhim o’ringa ega. Muhtaram birinchi prezidentimiz I. A. Karimov oilaning yosh avlodda tarbiya va ma’naviyat tushunchalarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida shunday fikrlarni aytib o’tgan edi: “Har qanday millatning o’ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o’rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg’ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag’rida shakllanadi. Bolaning harakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy me’zon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir”. Xalqimiz milliy va umuminsoniy ezgu qadriyatlarni e’zozlaydi. Ushbu qadriyatlardan biri hisoblanmish oilani oladigan bo’lsak, har bir o’zbek oilasini, ota-onasini, bola-chaqasini,

qarindosh-urug’ini yaxshi ko’radi. Zarur bo’lganda ularga tayanadi, ulardan ko’mak oladi yoki ularga dalda berib qo’llab-quvvatlaydi. Oila sha’nini, mahalla sha’nini, millat sha’nini ko’z qorachig’iday asraydi. Oilaning mustahkamligi - o’zbekning nikohni qadrlashi va farzandlari kelajagiga umidi kuchliligidan. Umuman olganda, bizning xalqimiz kelajakka porloq umid bilan yashaydi. Bularning barchasi o’zbek deya atalmish xalqning, ya’ni xalqimizning yuksak ma’naviyatidan dalolat beradi. Shunday ekan, qadriyatlarimizning davomiyligini ta’minlashda oilaning ahamiyati beqiyosdir.

Mahalla azaldan yurtimizda tinchlik-totuvlik, insoniylik, mehr-muruvvat, bag’rikenglik, tarbiya o’chog’i, ota-bobolarimizdan bizga me’ros bo’lib kelayotgan milliy qadriyatlar, xalqimizning turmush va tafakkur maskani sifatida e’tirof etib kelinadi. Milliy bayramlarimiz, urf-odatlarimiz va an’analarimizning asosi ham mahalladan boshlanadi. Masalan, har yili bahorda o’tkazib kelinadigan “Navro’z” bayrami, ko’chalarni, ariqlarni, qabristonlarni hashar yo’li bilan tozalash, to’y-hashamlarning barchasida kattalarning ahilligi, birdamlikda ish olib borishlari yoshlarimizning dunyoqarashini, ma’naviyatini shakllantirish, qolaversa, ana shu qadriyatlarni davom ettirishlari uchun mustahkam poydevor bo’lib xizmat qiladi.

Yoshlarimizni turli buzg’unchi va yot g’oyalardan yiroq tutish, ularning ma’naviyatini kengroq darajada shakllantirish, milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni asrab-avaylashda xalq hayotining ko’zgusi bo’lgan mahallaning o’rni va ahamiyati beqiyosdir. Ana shuning uchun ham yurtimizda o’zini o’zi boshqarish tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari bo’yicha “Harakatlar strategiyasi”ning birinchi ustuvor yo’nalishida “Mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o’rni va faoliyatining samaradorligini oshirish”[1]ga katta ahamiyat berilganligi ham bejiz emas, albatta. Shu boisdan ham yaqin yillar ichida mahalla institutlari, yuqorida aytib o’tganimizdek, yoshlarni turli buzg’unchi va yot g’oyalardan asrash, uyushmagan yoshlar bilan ishlash maqsadida “Ozbekiston Yoshlar Ittifoqi” bilan hamkorlikda ko’plab chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Mahalla xalq bilan davlat o’rtasida ko’prik bo’lmog’i lozim”, - degan so’zlarining zamirida ham katta mohiyat bor.

“Biz ma’naviy hayotimizni, milliy ong va qadriyatlarimiz, e’tiqod va tafakkurimiz, urf-odat va an’analarimizni asrab-avaylash, ma’naviy olamimizni yuksaltirishga intilar ekanmiz, bularning barchasi mahalla idorasiga yanada ko’proq imkoniyat berish, uning huquqiy va amaliy vakolatlarini kengaytirish bilan bevosita aloqador ekanini o’zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Shu orqali biz o’zimizning ezgu maqsadimiz bo’lmish erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo’lida, hech shubhasiz, ulkan qadam qo’ygan bo’lamiz”[2].

Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida yuzta tadbirsiz kishidan bitta tadbirli kishini afzal ekanligi aytib o’tilgan. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonida yoshlarimizni ana shunday tadbirli inson bo’lib yetishishida ta’lim-tarbiya ham muhim o’rin egallaydi.

O’zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq umuminsoniy qadriyatlar davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi hisoblanib, uning asosiy maqsadi o’zlikni anglsh, milliy qadriyatlarni tiklash, ko’p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan shaxslarni, xususan, yoshlarni axloqan shakllantirishga qaratilgan hisoblanadi. Shuning uchun ham “Ta’lim to’g’risida”gi qonunda, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasida umumiy o’rta ta’limni tashkil etish to’g’risida”gi qarorida milliy va umumbashariy qadriyatlarni

uzviy holda birlashtirish asosida yoshlarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o’z Vatani va xalqiga sodiq bo’ladigan avlodni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Darhaqiqat, bugungi kunda faqatgina chinakkam ma’rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarini, bir so’z bilan aytganda, o’zini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning inson hamjamiyatida o’ziga munosib obro’li o’rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Shunday ekan, ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarni har tomonlama ma’naviy-axloqiy shakllantirish, uning qobiliyatlarini ro’yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega. Davlat ta’lim standartlarida ham qadriyatlar haqidagi bilimlar butun ta’lim muddati va uning hamma shakllarida berilishiga ham alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

Shu o’rinda, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tarbiyaning yoshlar odob-axloqini va dunyoqarashlarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida bildirgan fikrlarini aytib o’tish joiz: “Bizni hamisha o’ylantirib keladigan muhim masalalardan biri – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamonamiz shiddat bilan o’zgarib bormoda. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim? – yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari bilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda ham o’zligini unutmasin. Biz kimmiz qanday buyuk zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”[3].

Umumiy qilib aytganda, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda, ularni kelajakda yetuk inson bo’lib yetishishlarida oila, mahalla va, albatta, ta’lim muassasalarining hamjihatlikda ish olib borishlari talab etiladi. Bu esa kelajakda o’z me’vasini berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi farmoni. 7-fevral 2017-yil. www. lex. uz.

2. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008

3. Internet ma’lumoti: www. ma’no. uz “Shavkat Mirziyoyev” ning hikmatlari sahifasi.

SHAXSNING QADR-QIMMATINI TA'MINLAYDIGAN IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR

Abdullayev Akmal Nasriddinovich

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya. *Maqolada shaxsning jamiyatdagi qadr-qimmatini shakllantirish va tan olishga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-falsafiy omillar ko'rib chiqiladi. Muallif insonning individual fazilatlari va ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatni tahlil qiladi, shuningdek, ushbu munosabatlarni qo'llab-quvvatlovchi falsafiy tushunchalarni ko'rib chiqadi. Shaxsni rivojlantirishda ijtimoiy institutlarning (oila, maktab, davlat) roli, axloqiy va axloqiy me'yorlarning ahamiyati, madaniy va tarixiy kontekstlarning ta'siri kabi jihatlarga e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy omillar, falsafiy omillar, shaxsning qiymati, individuallik, ijtimoiy moslashuv, shaxsiy rivojlanish, jamiyat va shaxsiyat, axloq va qadriyatlar, ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmati, o'zini o'zi anglash.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные социально-философские факторы, влияющие на формирование и признание ценности человека в обществе. Автор анализирует связь между отдельными человеческими качествами и социальными структурами, а также рассматривает философские концепции, поддерживающие эти связи. Акцент делается на таких аспектах, как роль социальных институтов (семьи, школы, государства), значение морально-этических норм, влияние культурно-исторического контекста на развитие личности.*

Ключевые слова: *социальные факторы, философские факторы, ценность личности, индивидуальность, социальная адаптация, развитие личности, общество и личность, этика и ценности, социальная справедливость, человеческое достоинство, самосознание.*

Abstract*. The article examines the main socio-philosophical factors affecting the formation and recognition of a person's value in society. The author analyzes the relationship between individual human qualities and social structures, and also considers the philosophical concepts that support these relationships. Emphasis is placed on aspects such as the role of social institutions (family, school, state), the importance of moral and ethical standards, and the influence of cultural and historical contexts in personality development.*

Key words: *social factors, philosophical factors, personal value, individuality, social adaptation, personal development, society and personality, ethics and values, social justice, human dignity, self-awareness.*

Kirish. Shaxsning qadr-qimmatini tushunish va tan olish jamiyat va shaxsning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uyg‘un hayot va shaxsiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Shaxsning qadr-qimmatini falsafiy tushunish gumanizm va axloq tushunchalariga asoslanadi [1]. Gumanizm har bir inson ijtimoiy, iqtisodiy yoki madaniy farqlardan qat'i nazar, ichki qadriyat va qadr-qimmatga ega ekanligini nemis mumtoz faylasufi I. Kant inson maqsad ekanligi va uni boshqa insonlar yoki insonlar guruhining maqsadlariga erishish vositasi sifatida foydalanish mumkin emasligi haqidagi g'oyalari bilan qo'llab-quvvatlaydi.

Aristotel va Aflotun kabi klassik faylasuflar fazilat va axloqiy xulq-atvorning to'laqonli shaxsni rivojlantirish uchun muhimligini ta'kidlaganlar [2]. Hozirgi kunda bu g'oyalar inson huquqlari tushunchalari orqali rivojlanib, har bir inson o'zining o'zini namoyon qilishi va rivojlanishiga hissa qo'shadigan ajralmas huquq va erkinliklarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ijtimoiy omillar jamiyatda shaxsning qadr-qimmatini tan olish va qo'llab-quvvatlashga ta'sir qiluvchi ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Asosiy omillardan biri bu tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy o'zaro ta'sirni rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim tizimidir. Ta'lim shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda va jamiyatdagi ahamiyatini anglashda Markaziy rol o'ynaydi.

Yana bir muhim omil-bu inson huquqlarini himoya qilish va teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy siyosat. Ijtimoiy adolat, sog'liqni saqlash, uy-joy va erkin mehnat kabi asosiy resurslardan foydalanish shaxsning qadr-qimmatini mustahkamlaydigan asosiy elementlardir. Shuningdek, turli tashkilotlar va tashabbuslar orqali ijtimoiy himoya va zaif guruhlarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan fuqarolik jamiyatining rolini ta'kidlash muhimdir. Ijtimoiy va falsafiy omillarning o'zaro ta'siri shaxsning qadr-qimmatini tan olish va mustahkamlash uchun kompleks asos yaratadi[3]. Falsafiy g'oyalar keyinchalik ijtimoiy institutlar va amaliyotlarda mujassam bo'lgan me'yoriy asoslar xamda tamoyillarni asoslaydi. Masalan, inson

tabiati haqidagi falsafiy mulohazalardan kelib chiqadigan inson huquqlari tushunchasi xalqaro va milliy huquqiy tizimlarda o'z ifodasini topadi.

Oila, maktab va davlat kabi ijtimoiy institutlar falsafiy ta'limotlarga xos bo'lgan qadriyatlarni yetkazish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Oila, shaxs o'z rivojlanishini boshlagan birinchi ijtimoiy tuzilma bo'lib, uning qiymati va ahamiyati to'g'risida asosiy g'oyalarni shakllantiradi. Maktab va ta'lim tizimi ushbu tushunchalarni intellektual va shaxsiy o'sish uchun platformani taklif qilish orqali rivojlantiradi. Davlat o'z qonunlari va ijtimoiy dasturlari orqali barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni taqdim etadi, bu esa adolat tuyg'usini va har bir insonning qadr-qimmatini tan olishni kuchaytiradi. Shaxsning qadr-qimmati masalasi ijtimoiy-falsafiy munozaralarda Markaziy o'rinni egallaydi. Insonni qadrli qiladigan narsani tushunish jamiyat va madaniyat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning qiymati axloqiy, madaniy, psixologik va ijtimoiy jihatlarni o'z ichiga olgan ko'plab omillar orqali aniqlanadi.

Axloqiy va axloqiy me'yorlar shaxsning qadr-qimmatini tan olish uchun asosdir. Immanuel Kant kabi faylasuflar har bir inson ichki qiymatga ega ekanligini ta'kidlaganlar, uni instrumental yoki utilitar qiymatga kamaytirish mumkin emas. Shaxsni vosita sifatida emas, balki maqsad sifatida hurmat qilish prinsipi har bir insonning qadr-qimmatini tan olishga asoslangan axloqiy asosni shakllantiradi. Madaniy va ijtimoiy kontekstlar shaxsning qadr-qimmati haqidagi g'oyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Turli madaniyatlarda insonni qadrli qiladigan narsalarga turli xil yondashuvlar mavjud [4]. Masalan, individualistik madaniyatlarda shaxsning qadr-qimmati ko'pincha avtonomiya va shaxsiy yutuqlar bilan bog'liq bo'lsa, jamoaviy madaniyatlarda qadriyat shaxsning jamoaga qo'shgan hissasi va jamoadagi uyg'unlik orqali aniqlanishi mumkin.

O'z-o'zini hurmat qilish va o'ziga xoslik kabi psixologik jihatlar ham shaxsning qadr-qimmatini tushunish uchun muhimdir. Zamonaviy psixologiya o'z-o'zini qabul qilish va o'z-o'zini hurmat qilish shaxsning sog'lom rivojlanishi uchun ahamiyatini ta'kidlaydi. O'z qadr-qimmatini his qilish boshqalar bilan o'zaro munosabat va jamiyatdagi insonning o'zini o'zi anglashi orqali shakllanadi. Ta'lim va tarbiya shaxsning qadr-qimmatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi [5]. Shaxsiy rivojlanish va har bir talabaning individual xususiyatlarini hurmat qilishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar o'z qadr-qimmatini his qilishni shakllantirishga yordam beradi. Inson huquqlari va erkinliklariga hurmat ruhida tarbiyalash bolalarga jamiyatdagi ahamiyati va qadr-qimmatini anglashga yordam beradi.

Oila, maktab, davlat va nodavlat tashkilotlar kabi ijtimoiy institutlar shaxsning qadr-qimmatini shakllantirish va tan olishga ta'sir qiladi. Oila, birinchi ijtimoiy institut sifatida, o'z-o'zini anglash va o'zini o'zi qadrlash asoslarini yaratadi. Maktab va boshqa ta'lim muassasalari shaxsni rivojlantirish va uning ijtimoiy integratsiyasi uchun sharoit yaratib, ushbu jarayonni davom ettirmoqdalar. Huquqiy tizim shaxsning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlaydi, bu uning qadr-qimmatini tan olishda muhim omil hisoblanadi. Tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan Qonunchilik har bir insonning qadr-qimmatini hurmat qilish va himoya qilish uchun sharoit yaratadi. Xalqaro huquqiy hujjatlar, masalan, inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, shaxsning kelib chiqishi, ijtimoiy mavqei yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, uning universal qiymatini ta'kidlaydi.

Xulosa. Shaxsning qiymati o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradigan ijtimoiy-falsafiy omillar majmuasi bilan belgilanadi. Axloq, madaniyat, psixologiya, ta'lim, ijtimoiy institutlar va huquqiy tizim har bir insonning qadr-qimmatini shakllantirish va tan olishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillarni tushunish va hurmat qilish yanada insonparvar va adolatli jamiyatni yaratishga

yordam beradi, bu yerda shaxsning qadr-qimmati barcha darajalarda tan olinadi va himoya qilinadi. Shaxsning qadr-qimmatini ta'minlaydigan ijtimoiy-falsafiy omillar o'zaro bog'liq tizim bo'lib, unda falsafiy g'oyalar va ijtimoiy amaliyotlar o'zaro ta'sir qiladi va bir-birini to'ldiradi. Shaxsning qadr-qimmatini tan olish va rivojlantirish uning har bir a'zosining har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadigan adolatli va insonparvar jamiyatni yaratishning asosiy jihatlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Safarov, Muxlis. “Yangi O‘zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari. ” *Farg'ona davlat universiteti* 4 (2023): 34-34.

2. Shukurova, N. X. “Ommaviy madaniyatning salbiy oqibarlari va uni oldini olishning ahamiyati. ” *Ta’limda xalqaro baholash tadqiqotlari: Amaliyotdagi muammolar va istiqboldagi vazifalar xalqaro ilmiy-amaliy*: 222.

3. Bazarbaeva, Dilnoza. “Shaxsning qadr-qimmatini tarbiyalashda maktab va oilaning birga ishlash usullari. ” *Евразийский журнал технологий и инноваций* 2. 1 Part 3 (2024): 42-44.

4. Raxmatov, Nozimjon. “Yangi tahrirdagi konstitutsiya – inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati. ” *Science and innovation in the education system* 2. 13 (2023): 170-180.

5. Muhammadsobirov, K. “Inson sha’ni va qadr-qimmati. ” *tadqiqotlar. UZ* 34. 1 (2024): 161-163.

6. Абдуллаев, А. Н. (2020). Философский анализ феномена творчества. Вестник науки и образования, (3-3 (81)), 33-36.

7. Abdullayev, A. N. (2020). The features of appearing family in modern society. European Science Review, (3-4), 69-72.

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING INSONIYAT HAYOTIGA TA’SIRI

Axmadjanova Muazzam Islomjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.

Muxtarova Gulchiroy Avazbek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Tel:+998931482225

Avazbekovnaguli018@gmail. com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyat hayotiga tahdid soluvchji diniy fundamentalizm va aqidaparastlikning gumanistik nuqtayi nazardan tahlili ko‘rib chiqilib muayyan mulohazalar bildiriladi. Insoniyat hayotiga tahdid soluvchi terroristik va ekstremistik qarashlarni yoqlovchi kuchlarning maqsadlari va buning insonparvarlik qarashlariga munosabati o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar*: Diniy ekstremizm, terrorizm, diniy fundamentalizm, sekulyarizm, gumanizm, dunyoviylik, inson huquqlari, vijdon erkinligi.*

Abstract*: In this article, the analysis of religious fundamentalism and fanaticism, which threatens the life of society, from the humanistic point of view is considered and certain comments are made. The goals of the forces supporting terrorist and extremist views that threaten human life and their relation to humanitarian views are studied.*

Key words: *Religious extremism, terrorism, religious fundamentalism, secularism, humanism, secularism, human rights, freedom of conscience.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрен анализ религиозного фундаментализма и фанатизма, угрожающего жизни общества, с гуманистической точки зрения и сделаны определенные комментарии. Изучены цели сил, поддерживающих террористические и экстремистские взгляды, угрожающие жизни людей, и их связь с гуманитарными взглядами.*

Ключевые слова: *Религиозный экстремизм, терроризм, религиозный фундаментализм, секуляризм, гуманизм, секуляризм, права человека, свобода совести.*

Kirish. Globallashuv sur’atlari jadallashib borayotgan XXI-asrda insoniyatga ko‘plab muammolar tahdid sola boshladi. Bunday tahdidlardan biri bo‘lgan diniy ekstremizm va terrorizm axborot asri tahdidlari natijasida yanada kuchayib bormoqda. Bugungi kunda istalgan ma’lumotni bir necha soniyalar ichida topish va undan foydalanish mumkin. Lekin bir yomon tomoni bu o‘rgimchak to‘riga filtr o‘rnatilmagan u xar qanday ma’lumotni topib beradi. G‘arazli kimsalar tarqatayotgan ma’lumotlarni ham. Ular ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlariga “Allohning quli” “Allohning qilichi” “Ummu falona” va shu singari jarangdor nomlar qo‘yib sodda insonlarni o‘z domiga tortishmoqda. Vijdon erkinligi kabi gumanistik g‘oyalar hayotga faol kirib borayotgan va sekulyarizmning ta’siri oshib borayotgan hozirgi dunyoviy davlatlarda bu jamiyatning hamjihatligiga rahna solmay qolmaydi. Ular dinni o‘ziga niqob qilgan ekstremist terrorchilardir. Bugungi kunda barcha davlatlarni tashvishga solayotgan diniy fundamentalizm, diniy ekstremizm va terrorizmning xavfi, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta’siri, Vatani, ona–yurtining tinch-totuvligi uchun doimiy ogoh bo‘lishi tinch zamonda turli ekstremistik oqimlar jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga ta’sir o‘tkazishni oldini olish maqsadida yoshlar o‘rtasida bir qancha targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilib kelinmoqda. [1]

Diniy ekstremizm va terrorizm har doim diniy va insoniy me’yorlar, umuminsoniy qadriyatlar va axloqiy fazilatlarga qarshi qaratilgani uchun eng og‘ir va vahshiyona jinoyat hisoblanib kelgan. Diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o‘zlari qilayotgan ishlarni to‘g‘ri deb hisoblagan holda, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholanki, ularni bu yo‘lga boshlagan “rahnamolarning” asl maqsadi mohiyatan g‘ayriinsoniy xarakterga ega. Ularning asosiy niyati butun Osiyo hududida qadimgi Arab xalifaligin barpo etish kerak deb kurashmoqdalar. Lekin, ularning asosiy niyati shu bilangina cheklanib qolmasdan, dinni niqob qilib olib hokimiyatni qo‘lga olish, bu yo‘lda , , inson’’ deb atalmish buyuk jonzotni o‘ldirishdan ham tab tortmayapti. Diniy ekstremistik va terroristik guruhlar bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab katta xavf tug‘dirmoqda. Ularning faoliyati jismoniy, psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda keng ko‘lamli zarar keltiradi. Ushbu maqolada diniy ekstremistik va terroristik guruhlarning insonlar hayotiga ta’siri tahlil qilinadi.

Diniy ekstremistik va terroristik guruhlar ko‘pincha zo‘ravonlik va qotilliklar orqali o‘z maqsadlariga erishishga intiladi. Ular amalga oshiradigan hujumlar, xususan, bombalar, otishmalar va boshqa zo‘ravonlik harakatlari ko‘plab begunoh odamlarning hayotiga zomin bo‘ladi. Misol uchun, 11 - sentyabr voqealari yoki Parijdagi Charlie Hebdo hujumi yuzlab odamlarning hayotini yo‘qotishiga sabab bo‘lgan.

Terroristik harakatlar insonlarda qo‘rquv va xavotirni kuchaytiradi. Bu psixologik stress odamlarning kundalik hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uyda, ishda yoki maktabda xavfsizlikka

oid tashvishlar ortadi, bu esa psixologik salomatlikka zarar yetkazadi. Bunday holatlar depressiya, travma va boshqa ruhiy kasalliklarning ortishiga olib keladi

Ekstremistik guruhlar ko‘pincha diniy va etnik guruhlar o‘rtasida nizo va bo‘linishni kuchaytiradi. Ularning targ‘iboti va zo‘ravonlik harakatlari jamiyatda ishonchsizlik va dushmanlikni kuchaytiradi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni buzadi. Misol uchun, Yaqin Sharqdagi diniy ekstremistik guruhlar sababli yuzaga kelgan nizolar millionlab odamlarni qochqin va ko‘chiruvchi holatiga keltirgan. [2]

Terrorchilik hujumlari iqtisodiy zarar yetkazadi. Infrastruktura, korxonalar va transport tizimlariga zarar yetkazilishi iqtisodiyotni zaiflashtiradi. Shuningdek, xavfsizlik choralari xarajatlari ortadi, bu esa davlat va xususiy sektor resurslarining samarasiz sarflanishiga olib keladi. Turizm sanoati ham terrorchilik xavfi sababli zarar ko‘radi, chunki odamlar sayohat qilishdan qo‘rqadi. Ekstremistik guruhlar inson huquqlarini muntazam ravishda buzadi. Ular o‘z e’tiqodlarini kuch bilan o‘rnatishga urinishadi, bu esa diniy erkinlik va boshqa asosiy huquqlarga tajovuz qiladi. Misol uchun, “Islomiy davlat” kabi guruhlar ayollarning huquqlarini cheklash, majburiy nikohlar va qotilliklar kabi inson huquqlarini buzuvchi amaliyotlar bilan tanilgan.

Diniy ekstremistik va terroristik guruhlar davlat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Ular davlat boshqaruv tizimlarini zaiflashtiradi, hokimiyat vakillariga hujum qiladi va ijtimoiy barqarorlikni buzadi. Bu holat davlatni ichki va tashqi xavfsizlik choralarini kuchaytirishga majbur qiladi, bu esa katta resurslar talab qiladi.

Diniy ekstremistik va terroristik guruhlarning faoliyati insonlar hayotiga ko‘p qirrali zarar yetkazadi. Ular jismoniy, psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda katta xavf tug‘diradi. Bu muammolarni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik, ta‘lim va barqarorlikka qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar talab etiladi. Faqat shu yo‘l bilan biz ekstremizm va terrorizm tahdidlariga qarshi samarali kurash olib borishimiz mumkin[3].

Dunyoviy nuqtayi nazardan qaralganda, din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma’lum bosqichida paydo bo‘lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma’lum bir tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllandi. Har bir davlat dini xalq ma’naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun shart-sharoitlar yaratishga harakat qiladi. Din, shu jumladan islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud kelganligining o‘zidayoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o‘ziga xos bo‘lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, davlat, guruh, shaxs ma’naviy hayotining muayyan sohasi bo‘lgan din umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko‘maklashgan. Din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va kamchiliklarni yengib o‘tishlarida kuch bag‘ishlagan. Umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga yetkazishga yordam berib kelgan. Shuning uchun ham din insonnning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo‘lib kelmoqda.

Bugun shunchaki yoshlar ongida sog‘lom muhitni uyg‘otish sog‘lom mafkura egasi qilish va ularni o‘zlari mustaqil to‘g‘ri yo‘lni tanlay oladigan darjaga yetgunlariga qadar nazorat ostida ushlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ijtimoiy-ma’naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo‘lib turibdi” degan edi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev.

Shunday ekan bugun barchamiz nafaqat o‘zimizga balki atrofdagilarimizgada e’tiborli bo‘lsak, talabchan bo‘lsak xech qanday xatar bizga rahna sola olmaydi.

Mavzuni tadqiq etib shunday xulosaga kelish mumkin, har bir inson inson hayoti va faoliyatiga tahdid soluvchi diniy ekstremizm va diniy fundamentalizm kabi muammolardan ogoh bo‘lgan holda yashashi lozim. Dunyo miqyosida xalqaro hamjamiyatning bu borada hamkorlikda muhim ishlarni amalga oshirishi uchun amaliy va tizimli ishlar belgilab olinishi kerak bo‘ladi. Buning uchun terrorchilarga va diniy aqidaparastlikka qarshi kurashni axborot kurashida amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T. :O‘zbekiston, 1997

2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. –T. :Ma’naviyat, 2008.

3. Mirziyoyev Sh. M “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi” mavzusida anjumandagi nutqi.

YOSHLARNI ZARALI AXBOROTLARDAN HIMOYALASH KO’NIKMALARNI OSHIRISH

Daminboyev Muattar Ahmadjon qizi

University of Business and Scince. Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlar o`rtasida axborotlardan foydalanishda mavjud muammolar va axborot madaniyatini shakllantirishning o`ziga xos uslublari, yoshlarni zararli axborotlardan hinoyalash borasida so’z boradi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, axborot, axborot madaniyati, internet, ta’lim, buzg’unchi g’oya, yoshlar, xavfslik, UZ, ommaviy madaniyat.*

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan yo‘nalishda o‘zgartirish, yolg‘on axborot, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg‘unchi g‘oyalarni singdirishga urinishdek ko‘rinishlarda sodir bo‘lmoqda. Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli ma’lumotlar, turli buzg‘unchi g‘oyalar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq. Keyingi paytlarda internet bilan bog‘liq buzg‘unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko‘payib boryapti. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda. G‘alamis kimsalar yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O‘zlarini “yaqin do‘st” sifatida tanitib, yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itmokda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yo‘q, faqatgina to‘da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o‘tishmaydi. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog‘orasiga o‘ynayotganini bilmaydi. Bundaylar avval dinu diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so‘zlarni gapirib, g‘o‘r yoshlarni yo‘ldan urib, oxir-oqibatda razolat qurboniga aylantirmoqda. Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar barchamizdan yoshlar tarbiyasiga yanada e’tiborli bo‘lishni talab etadi. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g‘oya va ta’sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb masalaga aylanmoqda [1]. Bu esa o‘qituvchilar, ma’naviyat targ‘ibotchilari, otaonalardan yanada hushyor va ogoh bo‘lishni, yosh avlodning g‘oyaviy-

mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishni talab etadi.

Albatta, taqiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo‘lishi mumkin. Har qanday mamlakat o’z taraqqiyot yo’lini belgilashda avvalo kelajak rejalarini qurib, unda albatta yoshlarga e’tiborni kuchaytiradi. Shundan kelib chiqadigan bo’lsak bugungi kun jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim masalalardan biri yoshlar masalasidir. Yoshlarga bugungi kun rivojlangan texnologiyalar asri va axborot makon. Yoshlar ongiga kuchli ta’sir etuvchi axborotlar, yot g‘oyalar (diniy ekstremizm va terrorchilik g‘oyalari, millatchilik, irqchilik, sadizm kabilar)ni, g‘arb hayot tarziga xos, o‘zbek mentalitetiga zid odatlar va ko‘nikmalarni targ‘ib etadigan, g‘arb yoshlarining kiyinishi, odatlarini targ‘ib qiluvchi maqolalar, kliplar, filmlarda yaqqol namoyon bo‘ladi [2]. Albatta, mamlakatimizda bu kabi salbiy omillarning oldini olish choralari ko‘rilmoqda. Bu borada kuchli mexanizmga ega qonunchilik bazasi mavjud. Prezidentimizning 2021-yil 26-martda qabul qilgan «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bilan jamiyatda sog‘lom dunyoqarash, oila, ta’lim tashkilotlari, mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, internetdan foydalanish madaniyatini oshirish borasidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Milliy manfaatlarimizga rahna solishga, ma’naviyatimizga tajovuz qilishga, tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g‘arazli kuchlarga qarshi doim ogoh turishimiz kerak. Shundagina bizni hech kim, hech narsa tanlagan yo‘limizdan qaytara olmaydi. Bugun farzandining istiqbolini, yorqin kelajagi porloq bo‘lishini istaydigan har bir ota-ona tarbiya masalasiga jiddiy e’tibor bermog‘i zarur. Bola tarbiyani turli kompyuter o‘yinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo, ota-onalaridan, bobo-momolaridan, ezgulikka, poklikka va dinu diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblardan olsin. Globallashayotgan jamiyatda axborot hatto xalqlararo va davlatlararomunosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi [4]. Ya‘ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo_lishi mumkin. Shu ma‘noda texnikaviytexnologik sohada katta imkoniyatga ega bo_lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega boladilar. Bu esa hatto mamlakatlar o`rtasida yoshlarni buzg`unchi yoki bunyodkorshaxs sifatida shakllantirishda manfaat jihatidan o`ziga tegishli qilib tarbiyalash istagini oshiradi va bu mamlakatlararo mafkuraviy kurash shaklini ham namoyon etadi. Shunga kora kopgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, ular yagona jahon uyg unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Shu o`rinda axborot manbalari masalasi chuqurroq tahlil qilinadigan bo`lsa, uni uch toifaga ajratish mumkin. Tajribali foydalanuvchi turli xil axborot manbalarining bir nechtasini tanlaydi va zaruratga ko`ra ulardan foydalanadi.

Annotatsiya: *Kreativ fikrlash odamlar uchun bugungi murakkab va tez o'zgaruvchan dunyoda harakat qilish uchun muhim mahoratdir. Ta'lim sharoitida o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularni kelajakdagi muammolarga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari o‘rganilib, bu harakatni qo‘llab-quvvatlovchi nazariy asoslar, o‘qitish strategiyalari va baholash usullariga e’tibor qaratiladi. Maqolada zamonaviy ta'lim nazariyalari va amaliyotlariga tayangan holda, o'qituvchilar o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun qanday qulay muhit yaratishi mumkinligi haqida tushunchalar beradi.*

Kalit so'zlar*: Kreativ fikrlash, pedagogika, ta'lim, ko'nikmalarni rivojlantirish, o'qitish strategiyalari.*

Абстракт: *Креативное мышление является важным навыком для людей, позволяющим ориентироваться в современном сложном и быстро меняющемся мире. Развитие навыков творческого мышления учащихся в образовательных учреждениях важно для их подготовки к будущим задачам. В этой статье исследуются педагогические основы развития навыков творческого мышления учащихся, уделяя особое внимание теоретическим основам, стратегиям обучения и методам оценки, которые поддерживают эти усилия. На основе современных образовательных теорий и практик в статье дается представление о том, как учителя могут создать среду, способствующую развитию творческих способностей учащихся.*

Ключевые слова: *Креативное мышление, педагогика, образование, развитие навыков, стратегии обучения.*

Abstract: *Creative thinking is an essential skill for people to navigate in today's complex and rapidly changing world. Developing students' creative thinking skills in educational settings is important to prepare them for future challenges. This article explores the pedagogical foundations of developing students' creative thinking skills, focusing on the theoretical*

foundations, teaching strategies, and assessment methods that support this effort. Based on modern educational theories and practices, the article provides insights into how teachers can create an environment conducive to the development of creativity in students.

Keywords: *Creative thinking, pedagogy, education, skill development, teaching strategies.*

Zamonaviy bilimga asoslangan iqtisodiyotda kreativ fikrlash insonga moslashish, innovatsiya qilish va murakkab muammolarni hal qilish imkonini beradigan hayotiy mahoratga aylandi. Pedagoglar o‘quvchilarni kelajak muammolariga tayyorlash uchun kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini tan oladilar. Ushbu maqolada o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari ko‘rib chiqiladi, asosiy e’tibor ushbu maqsadni qo‘llab-quvvatlovchi nazariy asoslar, o‘qitish usullari va baholash usullariga e’tibor qaratiladi.

Talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga bir qancha nazariy asoslar asos bo‘ladi. Bunday ramkalardan biri Four Ps modeli bo'lib, u ijodkorlik shaxs, jarayon, mahsulot va matbuotning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Bu modelga ko‘ra, individlarning kreativ salohiyatiga ularning ichki xususiyatlari (shaxs), ular qo‘llayotgan bilish jarayonlari (jarayon), ular ishlab chiqaradigan natijalar (mahsulot) va ularning ijodini shakllantiruvchi muhit omillari (matbuot) ta’sir ko‘rsatadi. O'qituvchilar ushbu modeldan o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini oshirish uchun ushbu komponentlarning har biriga yo'naltirilgan o'quv faoliyatini loyihalashda foydalanishlari mumkin.

Yana bir muhim nazariy asos bu Torrance ijodkorlik modeli bo‘lib, u kreativ fikrlashda ravonlik, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik va ishlab chiqish muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu modelga ko'ra, kreativ shaxslar ko'p sonli g'oyalarni (ravonlik) yaratishga, turli va noan'anaviy usullarda fikrlashga (moslashuvchanlik), yangi va noyob echimlarni ishlab chiqarishga (originallik) va o'z g'oyalarini batafsil ishlab chiqishga (ishlab chiqish) qodir. O'qituvchilar ushbu modeldan o'quvchilarni kreativ fikrlashga va kreativ fikrlashning ushbu asosiy jihatlarini rivojlantirishga undaydigan vazifalar va loyihalarni ishlab chiqishda foydalanishlari mumkin.

O‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘qituvchilar foydalanishi mumkin bo‘lgan bir qancha ta’lim strategiyalari mavjud. Samarali strategiyalardan biri bu muammoga bir nechta yechimlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan divergent fikrlashni rivojlantirishdir. O'qituvchilar ochiq savollar berish, aqliy hujum uchun imkoniyatlar yaratish va talabalarni turli nuqtai nazar va g'oyalarni o'rganishga undash orqali turli xil fikrlashni rag'batlantirishlari mumkin.

Yana bir samarali strategiya tavakkal qilish va tajriba o'tkazishni rag'batlantirishdir. Kreativ fikrlash ko'pincha tavakkal qilish va o'z konfor zonasidan tashqariga chiqishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar o'quvchilar muvaffaqiyatsizlik yoki hukmdan qo'rqmasdan yangi g'oyalar va yondashuvlar bilan tajriba o'tkazishda qulay muhit yaratishlari mumkin.

Hamkorlikda o'rganish kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning yana bir qimmatli strategiyasidir. Guruhlarda ishlash o‘quvchilarga fikr almashish, bir-birining fikrlash qobiliyatini shubha ostiga qo‘yish, kreativ yechimlarni talab qiladigan loyihalar ustida hamkorlik qilish imkonini beradi. O'qituvchilar o'quvchilarni kreativ fikrlashga va bir-birining nuqtai nazaridan o'rganishga undaydigan guruh faoliyatini loyihalashlari mumkin.

Talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatini baholash qiyin bo'lishi mumkin, chunki ijodkorlik murakkab va ko'p qirrali qurilishdir. Test va imtihon kabi an'anaviy baholash usullari o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini samarali qamrab olmasligi mumkin. Buning o'rniga

o'qituvchilar kreativ fikrlash tabiatiga ko'proq mos keladigan muqobil baholash usullaridan foydalanishlari mumkin.

Samarali baholash usullaridan biri o'quvchilarga o'z kreativ ishlarini vaqt o'tishi bilan namoyish qilish imkonini beruvchi portfoliolardan foydalanishdir. Portfoliolar turli kontekstlarda o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini namoyish qiluvchi yozma ishlar, badiiy asarlar, videolar va loyihalar kabi turli artefaktlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Yana bir samarali baholash usuli - bu kreativ fikrlashni baholash uchun maxsus mo'ljallangan rubriklardan foydalanish. Ushbu rubrikalar kreativ fikrlashning asosiy jihatlari bo'lgan o'ziga xoslik, ravonlik, moslashuvchanlik va ishlab chiqish kabi mezonlarni o'z ichiga olishi mumkin. O‘qituvchilar ushbu rubrikalardan o‘quvchilarga fikr-mulohazalarini bildirish va ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini qanday rivojlantirish mumkinligini tushunishga yordam berish uchun foydalanishlari mumkin.

Xulosa. Talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ularni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Kreativ fikrlashning nazariy asoslarini tushunish, samarali o'qitish strategiyalarini qo'llash va tegishli baholash usullarini qo'llash orqali o'qituvchilar ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantiruvchi o'quv muhitini yaratishi mumkin. Pedagoglar o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini tarbiyalash orqali ularga yangi muammolarga moslasha oladigan va jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shadigan umrbod ta’lim oluvchilar bo‘lib yetishishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amabile, T. M. (1996). Creativity in context: Update to the social psychology of creativity. Westview Press.

2. Beghetto, R. A. , & Kaufman, J. C. (2010). Teaching for creativity in the common core classroom. Teachers College Record, 112(8), 2201-2239.

3. Craft, A. (2005). Creativity in schools: Tensions and dilemmas. Routledge.

4. Csikszentmihalyi, M. (1988). Society, culture, and person: A systems view of creativity. In R. J. Sternberg (Ed.), The nature of creativity: Contemporary psychological perspectives (pp. 325-339). Cambridge University Press.

DUNYODA EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI

Axmadjanova Muazzam Islomjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.

Surabova Marjona

Muhammadjon qizi Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Tel: +998930655420

marjonasurobova@gmail. com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda dunyo taraqqiyotiga kushandalik qilayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida bo‘lib, unda ushbu omillarga qarshi kurashishda yordamga keladigan kuchli ma’naviy-ma’rifiy amaldagi tadbirlar hamda yuksak ma’naviyat haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar. *Ekstremizm, terrorizm, bag‘rikenglik, plyuralizm, tafakkur, mantiq, geosiyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, radikallashuv, fenomen.*

Abstract. *This article is about measures aimed at combating extremism and terrorism, which are affecting the development of the world today, and it is about strong spiritual and educational practical measures and high spirituality that will help to fight against these factors. will go.*

Key words*. Extremism, terrorism, tolerance, pluralism, thinking, logic, geopolitical, social, economic, radicalization, phenomenon.*

Абстрактный. *В данной статье речь идет о мерах, направленных на борьбу с экстремизмом и терроризмом, которые влияют на развитие современного мира, а также о сильных духовно-просветительских практических мерах и высокой духовности, которые помогут бороться с этими факторами. Пойду.*

Ключевые слова. *Экстремизм, терроризм, толерантность, плюрализм, мышление, логика, геополитическая, социальная, экономическая, радикализация, феномен.*

Bugungi kunda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash olib borish jarayoni bir vaqtning o‘zida ham ma’naviy, ham ma’rifiy jihatlarni qamrab oluvchi ko‘p qirrali yondashuvni talab etadi. Shuningdek, har bir yondashuv o‘zining maqsad va ezgulikka yo‘g‘rilgan g‘oyalari bilan quyidagicha tavfsiflanadi:

Undan dastlab, bag‘rikenglik va plyuralizmni targ‘ib qilish tamoyoili, Turli diniy va madaniy e’tiqodlarga xalqlar va jamoalar o‘rtasida o‘zaro hurmat ruhini yanada sog‘lomlashtirish, bir so‘z bilan takidlash joiz bo‘lsa diniy bag‘rikenglikni ta’minlash madaniyatlar aro hurmatni rag‘batlantirish qabul qilish va tushunish muhitini rivojlantiradi. Turli e’tiqodlar o‘rtasida umumiy qadriyatlarni ta’kidlash tafovutlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Tinchlik bilan birga yashashni targ‘ib etish jarayoni, bunda diniy rahbarlar va tashkilotlar tinchlik, mehr-shafqat va zo‘ravonlikdan voz kechish jarayonlari, hamda xabarlarini targ‘ib qilishda muhim ro’l o‘ynaydi. Turli diniy guruhlar o‘rtasida muloqot va murosaga yordam berish ishonchni mustahkamlash va keskinlikni kamaytirishga yordam beruvchi, umuminsoniylik tamoyilini targ‘ib qiluvchilar hisoblanishadi.

Ekstremistik mafkuralarga qarshi qarashlar: Din olimlari va jamiyat yetakchilari diniy matnlarning ekstremistik talqiniga qarshi chiqishlari mumkin. Bu g‘oyalar e’tiqodning tinch va rahm-shafqatli tomonlarini takidlab, ekstremistik targ‘ibotni yo‘q qiladi. [1]

Mo‘tadil g‘oyalarni kuchaytirish: barqaror din ulamolari va tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash bag‘rikenglik, mo‘tadillik va muloqotni targ‘ib qiluvchi fikrlarni kuchaytiradi. Bu shaxslar va guruhlar o‘z jamoalarida nufuzli namuna bo‘lib xizmat qilishi va ekstremistik g‘oyalarga qarshi kurashishda yordam beradi.

Kishilik jamiyati orasida Tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish: butun dunyo nigohida ta’lim tizimlari odamlarga ma’lumotni qa’bul qilish, qayta ishlash, muloqat jarayoni hamda tanqidiy baholash, haqiqat va targ‘ibot o‘rtasida farqlash imkonini beradigan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ta’kidlashi lozimligini ifoda etadi. Talabalarni ekstremistik mafkuralarni shubha ostiga olishga o‘rgatish ularni radikallashuvga qarshi singdirishi ilmiy jihatdan har tomonlama asoslanadi.

Fuqarolik ta’limi va ijtimoiy hamjihatlik tamoyilida fuqarolik ta’limining maktab o‘quv dasturlariga kiritilishi demokratiya, inson huquqlari va bag‘rikenglik qadriyatlarini yoshligidan singdirishga yordam beradi. Ijtimoiy hamjihatlik va jamiyat ishtirokining muhimligini ta’kidlash turli jamiyatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashi tushuniladi.

Media savodxonligi tamoyili asnosda qaraydigan bo‘lsak, Ta’lim dasturlari ommaviy axborot vositalari tarkibini tanqidiy tahlil qilishni, to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma’lumotni aniqlashni va ekstremistik guruhlar tomonidan jamoatchilik fikrini manipulyasiya qilish uchun qo‘llaniladigan taktikani tan olishni o‘rgatish uchun media savodxonligi komponentlarini o‘z ichiga olishi zarur.

Muloqot va tushunishni rivojlantirish tamoyilida maktablar va jamoat tashkilotlari tushunish va o‘zaro hurmatni rivojlantirish uchun dinlararo va madaniyatlararo muloqotni osonlashtiruvchi sifatida faoliyatni tashkil etishi, turli diniy va etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni rag‘batlantirish empatiyani rivojlantiradi va noto‘g‘ri qarashlarni kamaytiradi.

Ekstremizmning asosiy sabablarini bartaraf etish, ta’lim ekstremizmga qarshi kurashda yordam beradigan qashshoqlik, tengsizlik va marginallashuv kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni bartaraf etishi asoslangan. Sifatli ta’lim, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishni ta’minlash terroristik xavflarni hal qilishda asosiy omil ekanligi butun dunyo miqyosda e’tirof etilgan. [2]

Bugungi kunda ona yurtimiz O‘zbekistonda rivojlanish sari ildam odimlar ekanmiz “Insonparvarlik” tushunchasiga aslo to‘xtalmay imkoni yo‘q. Bu tushuncha, umumiy huquqiy tamoyil sifatida shaxslar va guruhlarga, ularning millati, etnik mansubligi, dini va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, ularga bo‘lgan munosabatni muayyan fundamental qadriyatlar va me’yoriy huquqiy tartiblarlarga solinishi kerakligi haqidagi g‘oyani o‘z ichiga oladi. Bu har bir insonning ajralmas qadr-qimmati va qadr-qimmatini e’tirof etish, shuningdek, uning asosiy huquqlarini himoya qilish va inson qadr-qimmatining qo‘pol tarzda buzilishining oldini olish majburiyatiga asoslanadi. Insonparvarlik tamoyili nafaqat bugungi kunda balki tarixda ham, o‘z ifodasiga ega bo‘lgan. Inson qadr-qimmati tushunchasi diniy va falsafiy an’analarda paydo bo‘lib, odamlar o‘zlarining aql-idroki, ongi yoki ilohiy ijodi tufayli o‘ziga xos qiymatga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Shunday ekan bugungi kunda jamiyatga xavf solayotgan terrorizm va ekstremizm g‘oyalariga ham qarshi mustahkam imunitet hosil qilinmoqda. [3]

Insonparvarlik tamoyili xalqaro hamjamiyat tomonidan huquq sifatida qabul qilingan umumiy amaliyotlardan tashkil topgan xalqaro odat huquqida ham o‘z ifodasini topgan. Shafqasiz, g‘ayri insoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi terroristic muomalani, shuningdek, haddan tashqari kuch ishlatish yoki g‘arazli zo‘ravonlikni taqiqlovchi odat normalari insonparvarlik tamoyiliga asoslanadi va barcha davlatlar uchun majburiy sanaladi.

Insonparvarlik umumiy huquqiy tamoyil sifatida xalqaro huquqning axloqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi, tinchlik va nizolar davrida davlatning xulq-atvori va individual xatti-harakatlarini boshqaradi. U barcha insonlarning ajralmas qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilish va hurmat qilish, qiyinchiliklarga duch kelganda odoblilik va rahm-shafqatning asosiy me’yorlarini qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi. Insoniy qadriyat tushunchasi u idrok etiladigan va talqin qilinadigan tarixiy va zamonaviy kontekstlar bilan chuqur bog‘langan tarzda bo‘ladi.

Insoniy qadriyat ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u tarix, madaniyat va axloqqa oid rivojlanish tushunchalarini aks ettiradi. Ilmiy va nazariy talqinlar tarixiy va zamonaviy kontekstlarda shaxslar va jamoalarning qadr-qimmatini qanday idrok etishimiz va baholashimizni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “Yangi O‘zbekiston” kontekstida insoniy qadriyat tushunchasi 2016-yilda prezidentlik faoliyatini boshlagan davlatimiz rahbari Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy landshaft va madaniy uyg‘onish jarayonini nazarda tutadi. [4]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, insonparvarlik umumiy huquqiy tamoyil sifatida xalqaro huquqning axloqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi, tinchlik va nizolar davrida davlatning xulq-atvori va individual xatti-harakatlarini boshqaradi. U barcha insonlarning ajralmas qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilish va hurmat qilish, qiyinchiliklarga duch kelganda odoblilik va rahm-

shafqatning asosiy me’yorlarini qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi. Insoniy qadriyat tushunchasi u idrok etiladigan va talqin qilinadigan tarixiy va zamonaviy kontekstlar bilan chuqur bog‘langan. Turli davrlar, madaniyatlar va falsafiy doiralarda inson qadriyatini tashkil etuvchi narsaga oid turli ilmiy va nazariy talqinlar mavjud. “Yangi O‘zbekiston” sharoitida insoniy qadriyat fenomeni shaxs huquqlari, iqtisodiy farovonlik, madaniy meros, ijtimoiy farovonlik, xalqaro hamkorlikni ustuvor deb hisoblaydigan boshqaruvga yaxlit yondashuvni aks ettirdi buning natijasida eksterimizm va terrorizm tushunchalariga nisbatan keskim kurash amaliy ifodasini topishi uchun qat’iy bel bog‘landi. Natijada har bir shaxsning o‘ziga xos qadriyati va salohiyati e’tirof etiladigan va rivojlantiriladigan zamonaviy, inklyuziv jamiyat haqidagi tasavvurni o‘zida mujassam eta olgan ertangi kunga ishonch tushunchasi shakllanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. K. A. Shermuxamedov, J. A. Karimov EKSTREMIZM UA TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining 5120600 — Dinshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan « 0 ’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti Toshkent -2018

2. Avliyoqulov N. X. Zamonaviy o‘qitish tyexnologiyalari – Toshkyent, 2001

3. Azizxo‘jayev N. N. Zamonaviy pyedagogik tyexnologiyalar (Ryeklama - ryejalar). – Toshkyent, 2002-yil

4. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent. : O‘zbekiston. 2021. –B. 150. 2. Abduvoxidova M. A. Uchinchi renessans yoshlarining kuchli salohiyati va keng imkoniyatlari. «Institut upravleniya i sosialno-ekonomicheskogo razvitiya» 2021

5. Internet manbaalari.

TOLERANTLIK FAZILATINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

S. O. Oripova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali magistranti

oripovasoxiba04@gmail. com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tolerantlik fazilatani shakllantirish mazmuni haqoda so’z boradi*

Kalit so’zlar: *globallashuv, fazilat, tafakkur, ma’naviyat, ma’rifat, Renessans*

Аннотация: *В этой статье рассматривается содержание толерантности формирование качества*

Ключевые слова: *глобализация, добродетель, созерцание, духовность, просвещение, возрождение*

Annotation: *This article examines the content of tolerance and quality formation*

Keywords: *globalization, virtue, contemplation, spirituality, enlightenment, renaissance.*

Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning har qarich yerida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash ketayotgani ayni haqiqatdir. Birda yovuz, birda madaniy ko‘rinishdagi bu kurash har birimizdan atrofga teran nazar tashlash, jahonda kechayotgan turfa jarayonlarni aql va tafakkur bilan sarhisob etishga undaydi.

Ma’lumiki, Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 25-

dekabrdagi O‘zbekiston Yoshlari forumida hamda 2020-yil 29-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida hamda 2024 yilning 19- yanvar kuni Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati hamda vazirliklar, qator davlat va jamoat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashga chorlaydi. Davlatimiz rahbarining “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni, ruhi ma’naviyatdir”, degan so‘zlari mohiyatidagi uyg‘onish nafasi Hazrat Navoiy da’vatlariga mohiyatan uyg‘un bo‘lib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga azm-u shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma’naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatdi. Demak, yuksak ma’naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo‘lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi. Negaki ma’naviyat va ma’rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezoni, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne’mat bo‘lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo‘llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g‘aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo‘lida bedor bo‘lishga, bu olamni obod qilishga, go‘zallikka burkashga chorlagan.

Endilikda, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda ta’kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasidan asrash, tinimsiz chiranib yotgan ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo‘lga qo‘yish, bu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘taradi.

Mavjud muammolarni hal etish yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ma’naviyma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha yagona tizim yaratish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishni talab etadi. Bu borada nafaqat respublikamiz, balki jahon ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi, yoshlarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o‘qitish modellari texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan interfaol dasturlar ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “XXI asrning Oliy ta’limi” Butunjahon deklaratsiyasi, YuNESKOning “Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish” dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, modulli ta’limni tashkil etishga, o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talabayoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilgan[1].

Jahon oliy ta’lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSh, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talabayoshlarning tafakkurini o‘stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o‘qitish, “blended learning” (aralash o‘qitish), mahorat darslari, vebinarlar tashkil etilib kelinmoqda[2].

Respublikamizda ko‘pgina olimlar tomonidan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining turli jihatlari o‘rganilgan hamda ushbu tadqiqotlar natijalarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash imkoniyatlari tavsiya etilgan. Bu tadqiqotlarning ba’zilari keng qamrovli bo‘lgan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining ma’lum bir qirrasini tahlil etishga qaratilgan bo‘lsa, boshqalari ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitishga va turli o‘quv kurslarida yangi usullarini qo‘llashga yo‘naltirilgan, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonini rivojlantirish borasida milliy qadriyatlardan foydalanish yo‘llari va milliy tarbiya asoslari, ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, oliy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi, ayniqsa, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etish masalalari bo‘yicha V. Karimova, N. Dj. Mahmudova, O. Musurmonova, Sh. Sh. Olimov, M. Quronov, N. X. Oripova, Z. Q. Ismoilova, N. A. Muslimov, N. M. Ochilova, Y. P. Azarov, Z. E. Azimovalarning ilmiy ishlarida oliy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi tahlil qilingan. Binobarin, professor O. Musurmonova tomonidan ishlab chiqilgan xulosalar ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lsa-da, ularni amalga oishirish metodlariga oid tavsiyalarida izchillikka e’tibor qaratish lozim.

Talaba-yoshlar ma’naviy madaniyatini shakllantirishga doir shakl va metodlar (konferensiya darslari; seminar dars; munozara darsi; amaliy dars; o‘yin darsi; sayohat darslari; rolli darslar; tarbiyaviy tadbirlar; ekskursiya; davra suhbatlari; kichik guruhlarda ishlash; ma’naviy madaniyatni shakllantirish metodlari: muammolimunozarali vaziyat; qiyosiy-izohli tahlil; badiiy-ma’rifiy asarlar ustida ishlash; ijodiy ish; tushunchali tahlil; mantiqiy tahlil; timsollar tahlili; ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni sharhlab o‘rganish; mustaqil ish va h. k.) tizimi ma’naviy-axloqiy tarbiya metodikasi taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Shunisi e’tiborliki, ma’naviy-axloqiy tarbiya yo‘nalishlarini ta’lim bosqichlari bo‘yicha tasniflash mustaqillik davridagi pedagogik tadqiqotlarning yetakchi xususiyatidir.

Jumladan, Sh. Sh. Olimov tomonidan kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, shakl va metodlarini nazariy jihatdan 68 takomillashtirish va amaliyotga joriy etishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan yangi tadqiqotda muallifning kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda imkoniyati yuqori bo‘lgan fanlarga e’tibor qaratish, har bir fan mazmuni va malaka talablari asosida tarbiya usullarini tanlash, dars mashg‘ulotlarida noan’anaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, darsdan tashqari ishlar jarayonida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalari ilmiy-metodik jihatdan ilm-fanning so‘nggi yutuqlari asosida yoritilganligi bilan ajralib turadi.

Xulosa. Z. Ismailovaning ma’naviy-ma’rifiy ishlarda talaba-yoshlar shaxsini axloqiy tarbiyalash masalasiga doir ilmiy ishida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi asosiy g‘oyalar talaba shaxsini axloqiy shakllantirish mezoni sifatida belgilangan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning asosiy xususiyatlari bo‘lgan oila, mahalla, elyurt tushunchalari muqaddasligi, ota-ona, mahalla-ko‘y, umuman, jamiyatga yuksak hurmat-e’tibor, millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik kabilar talaba-yyoshlar shaxsini axloqiy shakllantirishning asosiy omillari ekanligi e’tirof etilgan. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar

jarayonida talabayoshlar shaxsini axloqiy shakllantirish modeli ishlab chiqilganligini mazkur dissertatsiyaning muhim jihatlaridan biri deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. https://renessans-edu. uz/files/books/2023-12-18-04-41-41_7e27c0938b4cd70671dac6c 309c5f9fa. pdf

2. Gafurova N. R. Boshlan’ich sinf ‘quvchilarida tolerantlik k’nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi–Monografiya. Farg’ona: Turon- Iqbol. 2013, -B. 6-16.

3. Boltaeva Sh. T. Boshlang‗ich ta’limda o‗quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi// Zamonaviy ta’lim. 2017. № 6. –B. 49.

4. Maxsudova M. A. Muloqot psixologiysasi. –Toshkent: Turon- Iqbol. 2006, -B. 3.

5. Usmonova Sh, Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O’quv qo’llanma. – Toshkent: Sharqshunoslik. 2017, -V. 6.

INSON QADRINI TA’MINLASHDA AXLOQIY FAZILATLARNING AHAMIYATI.

Rustamjonova Nodira Tohirjon qizi

Namangan davlat pedogogika instituti, Biologiya yo’nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada, inson qadrini ta’minlashning ijtimoiy falsafiy va axloqiy omillari, tasavvuf, ruhiyat, nafs, tiyilish, qanoat, saxovat, komillika ishtiyoq, maqsadga ishonch, o’z-o’zini anglash, axloqiy sog’lomlik, taffakkur, erkinlik, ijodkorlik borasida ma’lumotlar bayon etilgan.*

Аннотация*. В этой статье излагаются социальные философские и этические факторы обеспечения человеческой ценности, мистицизма, психики, похоти, воздержания, удовлетворения, щедрости, страсти к совершенству, целеустремленности, самосознания, морального здоровья, созерцания, свободы, творчества*

Annotation. *This article describes the social philosophical and moral factors of ensuring human value, information on mysticism, psyche, lust, abstinence, contentment, generosity, perfectionism, confidence in the goal, self-realization, moral wellness, contemplation, freedom, creativity*

Kalit so’zlar: *ishonch, o’z o’zini anglash, sinergetika, fenomenologiya kasbiy axloq, yovuzlik ezgulik, Quroni karim, Avesto, journalist etikasi , bioetika. kasbiy etika.*

Ключевые слова: *вера, самосознание, синергетика, феноменология профессиональная этика, зло добро, Коран, Авеста, журналистская этика , биоэтика. профессиональная этика.*

Keywords: *trust, self-awareness, synergetics, phenomenology professional ethics, evil goodness, Quroni karim, Avesto , journalistic ethics, bioethics. professional ethics.*

Hayot haqiqati shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha bilim va tajribalar, so‘z, tushuncha, tasawur hamda xulosalar bevosita yo bilvosita inson faoliyati bilan bog‘liq holda vujudga keladi, rivojlanadi, boyib takomillashib boradi, yoxud aksincha - eskirib, umrini o‘tab, zavolga yuz tutadi. Ayni paytda jahonda shunday bir buyuk hodisa borki, u toki odamzotning ongli hayoti mavjud ekan, hech qachon zavol bilmaydi. Shuning uchun ham uni o'ta noyob fenomenal hodisa deb ataymiz. Bu sog'lom fikrlaydigan, ezgu orzu-umidlar bilan yashaydigan inson va jamiyat tomonidan hamma zamonlarda ham qadrlanib kelgan axloqdir

Binobarin, axloqning bosh mavzui insondir. Insonlaming o'zaro munosabatlari va muommalari axloqning bevosita obyekti hisoblanadi. Ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan axloq insoniyat (amiyati shakllanishining ilk bosqichlarida paydo bo'lgan, iqtisodiy va boshqa munosabatlarning o'zgarishi davomida, i nsoniyat moddiy va ma’naviy madaniyatining taraqqiyoti jarayonida rivojlanib borgan. Axloq sotsial tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilaming xatti-harakatini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Axloq ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan o'z talablarining asoslanishi bilan farq qiladi. Axloqda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning yoki guruhlarning manfaatlari o'ziga xos ravishda shakllangan va hamma qabul qilgan, ommaviy namuna, odat, rasm -tamoil, jamoatchilik fikrining kuchi bilan mustahkamlangan qoidalar, me’yorlar va baholar tarzida ifodalanadi. Shuning uchun axloq talablari hammaga babbaravar qaratilgan va lekin hech kimning buyrug'i bilan joriy etilmagan shaxssiz burch shakliga kiradi. Bu talablar nisbatan barqaror xarakterga egadir. Ular o'mashib qolgan tartib kuchi bilan saqlanib kelayotgan oddiy rasm-odat va an’anadan shu jihati bilan farq qiladilarki, inson qanday yashamog'i va xatti-harakat qilmog'i lozim, degan tasawurlar shaklida g'oyaviy asosga ega bo'ladilar

Asosiy mezoniy tushunchalar – kategoriyalar singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko’zga tashlanadi.

Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo’yiladigan talab tarzida namoyon bo’lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o’zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarini belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson xatti-harakat ining umumiy yo’nalishini ko’rsatgan holda, ko’pgina axloqiy me’yorlar uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri – insonparvarlik. U – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g’oyalar, qarashlar va e’tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmati, uning baxtli bo’lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini, Ovro’po Uyg’onish mutafaqqirlari dastlab ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharqda o’rtaga tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma’noni bildiruvchi «namlulu» so’zi bundan 3-4 ming yillar avvalgi qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

Insonparvarlik – umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Uni sho’rolar davridagi sinfiylik nuqtai nazaridan soxtalashtirish proletar digtaturasi va totalitar sosialistig tuzum hamda ular ijodkorlarining insonparvarligi haqidagi afsonalar juda qisqa umr ko’rdi. Sosializm mafkurachilarining bu boradagi say’-harakatlari o’sha davrlardayoq noilmiyligi, yolg’onga sug’orilganligi bilan kishilarning g’ashini keltirgan edi. Bunday insonparvarlikni xalq qabul qilmaydi. Chunki u aynan o’ta mavhum «xalq» tushunchasiga qaratilgan, vaholanki insonparvarlik markazida muayyan shaxs turmog’i lozim. Har bir shaxs insoniy huquqlarini ta’minlash uchun kurashish – mana, insonparvarlikning asosiy vazifasi. Bu borada umumbashariy ma’naviy qadryatlarni ustuvor deb bilgan bizning davlatimiz ham mamlakat ichkarisida, ham dunyo miqyosida ko’zga ko’rinarli ishlar qilmoqda.

Eng ma’lum va mashhur tamoyil, bu – vatanparvarlik. U insonning o’z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo’lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko’pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma’naviy-mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar.

Aslida esa, bu tamoyilning qamrovi ancha keng – u insonparvalikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o’z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo’lidan xatti-harakatlardir. Vatan himoyasi, bu – inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin

bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda namoyon bo’ladi. har bir sohada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqityasizliklardan qayg’u hissini tuyush, Vatan bilan g’ururlanish, uning har bir qarich yeri, binosining har bir g’ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san’atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko’z qorachig’idek asrab-avaylash – bular hammasi vatanparvarlikdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg’usini tarbiyalash, ularni Vatan ma’nosini teran anglab yetishga o’rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish fanizmning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu – millatparvarlik. U ma’lum ma’noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero millatni sevish keng ma’noda Vatanni sevish degan. Vatansiz millatning bo’lishi yoki rasmona erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo’lida o’z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Cho’lpon singari minglab fidoiylarni ham halqimiz hechi qachon unutmaydi.

Axloqning shakllanishida va uning ijtimoiy o‘rnida dinning ahamiyati katta. Dinning asosiy maqsadlaridan biri, insonga yomonlikning zararlarini bayon qilish hamda yomon yo‘lga kirib ketganlarni to‘g‘ri yo‘lga da’vat etishdir. Dinlarda to‘g‘ri yo‘lga chorlash, umuman yaxshilik va yomonlik tushunchasi turlicha bo‘lishi, hatto bir-biriga zid kelishi mumkin. Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda yaxshilik va ezgulik xudosi Ahuramazda bilan yomonlik va yovuzlik xudosi Axramanyu o‘rtasidagi kurash abadiy davom etadi, axloq bu kurashning ifodasidir, degan g‘oya ilgari suriladi. Xristianlik, yahudiylik va boshqa dinlarda ham yaxshilik va yomonlikning o‘z ifodasi bor. Islomda, uning muqaddas kitobi Qur’oni Karimda axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Qur’oni Karim bajarishga buyurgan yaxshi xulqlarga insonlar amal qilishsa, o‘zlari uchun katta baxtga sazovor bo‘ladilar. Qur’oni Karimda to‘g‘ri yo‘lga yurishlik istiqomat (o‘zini o‘zi isloh qilish) tushunchasida ifodalangan. Qur’onda istiqomatda bo‘lganlarga, ya’ni o‘z-o‘zini isloh qilganlarga katta va’dalar berilgan: „Kim bunday jabru zulmidan keyin tavba qilib, o‘zini tuzatsa, albatta, Alloh uning tavbasini qabul qilar“ („Moida“ surasi, 39-oyat). Istiqomat gunoh ishlarni qilib qo‘yganlar uchun qalbini poklash sari umid tug‘diradi va ularni noumidlikdan qutqarib yangi saodatli hayotga chorlaydi. Islomda oliyjanob axloqning eng muhim tushunchalari ta’riflanib, insoniyatni ularga amal qilish sari undaladi. Bular – ehson (yaxshilik qilish), kechirimli bo‘lish, sabr-qanoat, rostgo‘ylik, shirinso‘zlik, ota-onani, o‘zidan katta yoshlilarni hurmat qilish, or-nomus, sadoqat va boshqalardir. Ayni vaqtda yomon xulq-atvor tushunchalarining mohiyati ham ko‘rsatilib, ulardan saqlanishga undaladi. Bular – baxillik, hasad, tama, yolgonchilik, takabburlik (kibru havo), g‘iybat, zinodir. Shu tarzda insoniyatning butun amaliy faoliyati yaxshilik va yomonlikka ajratiladi. Musulmonlar bir-birlarini yaxshilik va oliyjanob axloqqa chaqirishlari, nojo‘ya ishlardan qaytarishlari Alloh tarafidan farz qilingan. Islom axloqining asosida halollik va taqvo yotadi. Kimki jismoniy va ma’naviy pok, taqvodor bo‘lsa, unday kimsa axloqsizlik yo‘liga kirmaydi. Islomga amal qiladigan xalqlar axloqi, ba’zi bir jihatlari bilan farqlansada, shu din tufayli umumiylik bor. Bu umumiylik sharq axloqi degan nom bilan birlashgan. Sharq axloqi Qur’on va hadisdan tashqari juda ko‘plab mutafakkirlar, faylasuf, shoirlar asarlarida ta’rifu-tashviq etilgan. „Qobusnoma“, „Axloqi Jaloliy“ kabi maxsus kitoblar yozilgan.

Kasbiy etika - bu mutaxassisning kasbiy faoliyatining xususiyatlarini va muayyan vaziyatni hisobga olgan holda axloqiy tamoyillar, normalar va xatti-harakatlar qoidalari tizimi. Kasbiy etika har bir mutaxassisni tayyorlashning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Har qanday kasbiy

axloqning mazmuni umumiy va xususiydan iborat. Umumjahon axloq me’yorlariga asoslangan kasbiy etikaning umumiy tamoyillari quyidagilarni nazarda tutadi: a) kasbiy birdamlik (ba’zan korporatizmga aylanadi); b) burch va sharafni alohida tushunish; v) faoliyat predmeti va turiga ko‘ra javobgarlikning maxsus shakli. Xususiy tamoyillar muayyan kasbning o‘ziga xos shartlari, mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi va asosan ma’naviy kodekslarda - mutaxassislarga nisbatan talablarda ifodalanadi. Kasbiy etika, qoida tariqasida, faqat kasbiy faoliyat turlariga tegishli bo‘lib, unda odamlarning kasbiy harakatlariga bog‘liqligi har xil bo‘ladi, ya’ni bu xatti-harakatlarning oqibatlari yoki jarayonlari uning hayoti va faoliyatiga alohida ta’sir qiladi. SHu munosabat bilan kasbiy axloqning an’anaviy turlari, ya’ni pedagogik, psixologik, tibbiy, huquqiy, olim etikasi va nisbatan yangilari ajralib turadi, ularning paydo bo‘lishi yoki aktuallashishi "inson" rolining ortishi bilan bog‘liq omil” faoliyatining ushbu turidagi (muhandislik etikasi) yoki uning jamiyatdagi ta’sirini kuchaytirishga (jurnalist etikasi, bioetikasi) xizmat qiladi. Kasbiylik va mehnatga munosabat insonning axloqiy xarakterining muhim sifat belgilaridir. ▪ Ular shaxsni shaxsiy baholashda muhim ahamiyatga ega, ammo tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida ularning mazmuni va bahosi sezilarli darajada farqlanadi. Sinflar tabaqalashgan jamiyatda ular mehnat turlarining ijtimoiy tengsizligi, aqliy va jismoniy mehnatning qarama-qarshiligi, imtiyozli va imtiyozsiz kasblarning mavjudligi bilan belgilanadi, ular kasbiy guruhlarning sinfiy o‘zini o‘zi anglash darajasiga bog‘liq. ularni to‘ldirish manbalari, shaxsning umumiy madaniyati darajasi va boshqalardir. Hozirgi vaqtda atamaning ma’nosi, qoida tariqasida, kontekstdan aniqlanadi yoki maxsus ko‘rsatilgan. Har qanday kasbiy axloqning mazmuni umumiy va xususiydan iborat. Kasbiy etika turli kasbiy guruhlarning axloqiy darajasidagi tengsizlikning natijasi emas. Ammo jamiyat kasbiy faoliyatning ayrim turlariga ortib borayotgan axloqiy talablarni qo‘yadi. SHunday kasbiy sohalar mavjudki, ularda mehnat jarayonining o‘zi uning ishtirokchilarining harakatlarini yuqori darajada Kasbiy etika ishlab chiqarish sohasidagi insoniy munosabatlarni tartibga solish uchun mo‘ljallangan. Har bir kasbda qabul qilingan va hozirgi qadriyat tizimining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Qolaversa, ayni bir harakatni hozirgi qadriyatlar tizimiga munosabatni qanday ifodalashiga qarab, axloqiy, axloqiy bo‘lmagan va hatto axloqsiz deb hisoblash mumkin. Xizmat ko‘rsatish sohasida kasbiy odob-axloq qoidalarining asosini jamoat manfaatlarini mensimaslikka murosasizlik, davlat burchini yuksak ongli ravishda his qilish tashkil etadi. Kasbiy etika eng keng tushunchadir, chunki u sanab o‘tilgan amaliy va deontologik jihatlar bilan bir qatorda kasbiy muhitda ham, ishdan tashqarida ham axloqiy majburiyatlar va normalarni o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, inson ta’lim olish jarayonida allaqachon o‘z kasbining axloqiy maqsadlarini amalga oshirishi, o‘z mas’uliyatini, jamiyat ishonchiga bo‘lgan huquqini tushunishi kerak. muvofiqlashtirishga asoslanadi, birdamlik xattiharakatlariga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Odamlarning hayotini tasarruf etish huquqi, muhim moddiy boyliklar, xizmat ko‘rsatish sohalari, transport, menejment, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqalarning ayrim kasblari bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar ishchilarining axloqiy fazilatlariga alohida e’tibor beriladi.

Endilikda etika oldida qator global muammolar turibdi; insoniyat hozir noosfera (texnikaviy muhit)da yashab, biosfera (biologik muhit)dan tobora uzoqlashib bormoqda, inson tafakkuri vujudga keltirgan fantexnika taraqqiyoti endilikda insonning o‘ziga, uning mavjudligiga qarshi xavf sifatida ham maydonga chiqmoqda: atom, vodorod, neytron bombalarning, yadroviy kallakli ballistik raketalarning yaratilishi, olamiy okeanning, yer osti va yer usti suvlarining zaharlanishi kabi hodisalar ekologik tozalikdan ham ko‘ra axloqiy poklikni talab qilmoqda.

Klonlashtirish, bir inson a’zosini boshqa insonga ko‘chirib o‘tkazish, evtanaziya (bemorning o‘z o‘limini. tezlashtirish to‘g‘risidagi iltimosini qondirish) va boshqalar muammolar ham axloqiy aralashuvga muhtoj.

O‘zbek milliy etikasi boshqa falsafiy fanlar kabi mintaqaviy tabiatga ega bo‘lib, uning ildizlari Avestoga borib taqaladi. Avestoda ilgari surilgan 3 fazilat – ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal yaxlitligidan iborat axloqiy g‘oya barcha davrlar o‘zbek etikasi uchun umumiy tadqiqiy asos bo‘lib keldi. Tasavvufiy etikada mazkur yaxlitlik 4 fazilat yaxlitligi (ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal va ma’rifat) shaklida namoyon bo‘ldi (Aziziddin Nasafiy, Koshifiy). Naqshbandiya tariqati axloqshunosligida esa asosiy e’tibor insonning zamon va makondagi roliga, axloqiy xattiharakatning zamon ehtiyojlarini hisobga olishi, ilohiy va insoniy fazilatlarning uyg‘unligi masalasiga qaratildi (Bahouddin Yaaqshband, Alisher Navoiy). O‘rta asrlar o‘zbek etikasida nazariy fikrlar bilan pandnoma usulidagi Yassaviy, Poshshoxoja). Bu jihatdan temuriylar davridagi pandnomalar, ayniqsa, Navoiyning „Mahbub ul-qulub“ asari noyob hisoblanadi. Keyingi davrlardagi eng e’tiborli pandnoma Gulxaniyning „Zarbulmasal“ asaridir. Jadidchilik harakati davrida axloqshunoslikka e’tibor yanada kuchaydi; jadidlar milliy ozodlikka erishish yo‘lini xalq axloqiy darajasini va ma’rifatni yuksaltirishda ko‘rdilar. Anbar Otinning „Qarolar falsafasi“, Avloniyshtg „Turkiy Guliston yoxud axloq“, Fitratnit „Najot yo‘li“, „Oila“ asarlarida shaxs axloqiy hayotining jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, yangicha turmush tarzining axloqiylik bilan bog‘liqligi masalalari ko‘tarildi. Axloqiylikni sinfiylik va partiyaviylik kabi tamoyillarga bo‘ysundirgan sho‘rolar davri etikasi soxta fan sifatida o‘z vazifasini o‘tay olmadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, kechmish axloqiy qadriyatlari, an’anaviy urf-odatlar, milliy va axloqiy tamoyil hamda me’yorlar jamiyatda o‘z nazariyasiga doir yirik tadqiqotlar e’lon qilindi (Y. Jumaboyev, E. Yusupov). O‘zbekiston milliy unversitetida etika va estetika kafedrasi mavjud; barcha oliy o‘quv yurtlarida etika fani o‘qitiladi. Hozirgi paytda olimlar (X. Shayxova, A. Sher, F. Zagritdinova, M. Mahmud va boshqalar) etika tarixi va nazariyasining dolzarb muammolariga doir yangi tadqiqotlar olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Zagritdinova F. , Nekotorne problem biomeditsinskoy etiki, Toshkent, 2005.

2. Navoiy A. , Mahbub ul-qulub (Mukammal asarlar to’plami, 20 jildli, 14j), Toshkent, 1998.

3. Farobiy, Fozil odamlar shahri, Toshkent, 1993

4. Avloniy A. , Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent, 1992

5. O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000yil

6. Ochilova. B. M. , Axloq Falsafasi, Toshkent 2019

INTERNETNING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA SALBIY VA IJOBIY TA’SIRLARI

Tillayev Bobomurod

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Olimova Odina Ma’rufjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti O‘zbek tili va Adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Tel: +998978280105

@email: olimovaodinaxon05@gmail. com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada internetning yoshlar ma’naviyatiga ham salbiy, ham ijobiy ta’siri bor. Bir tomondan, internet orqali taqdim etilayotgan axborot va muloqotga qulay foydalanish yoshlar o‘rtasida an’anaviy diniy urf-odatlar va e’tiqodlarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Ular o‘zlarining ma’naviy tarbiyasiga qarshi bo‘lgan qarama-qarshi mafkura va e’tiqodlarga duchor bo‘lishlari mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Internet, global muammo, ijtimoiy tarmoqlar, g‘oya, din, virtual olam.*

Аннотация: *В данной статье Интернет оказывает как негативное, так и положительное влияние на духовность молодежи. С одной стороны, легкий доступ к информации и общению, обеспечиваемый Интернетом, может привести к снижению традиционных религиозных обычаев и убеждений среди молодежи. Они могут столкнуться с противоречивыми идеологиями и убеждениями, противоречащими их духовному воспитанию.*

Ключевые слова: *Интернет, глобальная проблема, социальные сети, идея, религия, виртуальный мир.*

Abstract: *In this article, the Internet has both negative and positive effects on the spirituality of young people. On the one hand, easy access to information and communication provided by the Internet can lead to a decrease in traditional religious customs and beliefs among young people. They may be exposed to conflicting ideologies and beliefs that are against their spiritual upbringing.*

Key words: *Internet, global problem, social networks, idea, religion, virtual world.*

Ijtimoiy tarmoq kirib kelganidan so‘ng ko‘plab qulayliklar paydo bo‘ldi. Masalan: ilgari topish mushkul bo‘lgan kitoblar bugun ihtimoiy tarmoqlarda mujassam. Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda “uchinchi kuchlar” tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamin yaratadi. Bugungi kunda buzg‘unchi guruhlar yoshlar ongiga ta’sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas. ijtimoiy tarmoqlar, o‘yinlar va striming xizmatlari kabi onlayn chalg‘itadigan narsalarning tarqalishi ibodat, meditatsiya yoki diniy xizmatlarga borish kabi ma’naviy amaliyotlarga sarflanishi mumkin bo‘lgan katta vaqtni sarflashi mumkin. Bu ma’naviy qadriyatlardan uzilib qolishga va shaxsiy o‘sish va introspektsiyaga e’tiborning etishmasligiga olib kelishi mumkin. Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir. Bugun til o‘rganaman degan yoshlar uchun til o‘rganish kurslari mavjud. Bugun yoshlarni bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish, bilimli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun online olimpiadalar tashkil etilmoqda. Bu yaratilgan imkoniyatlar yosh avlodni ma’nan yetuk bo‘lishi uchun xizmat qilmoqda. Biroq ijtimoiy tarmoqdan foydalanib yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir etayotganlar ham bor. Quyida bunday holatlarning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

Umuman, internetga qaramlikning eng og‘ir jihati real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur. So‘nggi paytlarda yoshlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarga behayo videolar joylanmoqda. Achinarlisi shuki, bunday videolar tengdoshlarimiz tomonidan iliq kutib olinayapti “Nega bunday video suratga olyapsiz” deb savol berishsa biz ijod qilyapmiz deb

javob berishayotgani kulgili, nahot ijod shunday bo‘lsa. Bugungi kunda yana bir muammo yoshlarning vertual oyinlarga berilib ketishidir. Ayni o‘qishi, o‘z ustida tinmay izlanishi kerak bo‘lgan yoshlarning vaqti internet klublarida o‘tib ketayotganini ko‘rish achinarli holdir. Bu o‘yinlar orqali bor pulini boy berayotgan yoshlar ham juda ko‘p.

Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o‘rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir. Bir kun internetdan foydalanmasak kunimiz qanchalik unumli bo’lganini sezamiz. Shunday ekan, internet asiriga aylanmasdan uning girdoblarida umrimizni zoye ketkazmasdan undan o’zimizni himoya qilishimiz lozim. Har bir irodasi mustahkam yosh avlod vaqtni o’zining eng qimmatbaho boyligi ekanligini anglaydi va uni kimga va nimaga sarflashini juda yaxshi biladi. Ularda internetning turli xurujlariga qarshi kurashish immuniteti mavjud bo‘ladi. Bu bilan ijtimoiy tarmoqlardan umuman foydalanmaslik emas, balki undan me’yor bilan foydalanish kerak. Internet yoshlar ma’naviyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. U turli xil ma’naviy an’analar, amaliyotlar va falsafalarni o‘rganish uchun ko‘plab manbalardan foydalanish imkonini beradi. Yoshlar butun dunyo bo‘ylab o‘z e’tiqodlari va qadriyatlarini baham ko‘radigan, hamjamiyat va qo‘llab-quvvatlash tuyg‘usini uyg‘otadigan hamfikrlar bilan bog‘lanishlari mumkin. Internet, shuningdek, virtual diniy xizmatlar, meditatsiya seanslari va ilhomlantiruvchi kontent uchun imkoniyatlarni taklif etadi, bu esa yoshlarga ruhiy tushuncha va amaliyotni chuqurlashtirishga yordam beradi. Onlayn platformalar sevgi, rahm-shafqat va birdamlik xabarlarini tarqatish, ko‘plab ruhiy ta’limotlarga mos keladigan ijobiy qadriyatlarni targ‘ib qilish uchun vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, internet yoshlar ma’naviyatiga to‘sqinlik qilish va yuksaltirish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, oxir-oqibat, bu odamlarning onlayn kontent va jamoalar bilan qanday aloqa qilishni tanlashiga bog‘liq. Onlayn odatlariga e’tibor berib, mazmunli aloqalar va manbalarni izlash orqali yoshlar internetdan shaxsiy o‘sish va ma’naviy rivojlanish vositasi sifatida foydalanishlari mumkin. Bugun itimoiy tarmoq masalasida o‘zimizni isloh qilish davri keldi. Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan nimalarni ko‘ryapmiz, kimlar bilan muloqot qilyapmiz, o‘ylab ko‘raylik va xulosa chiqaraylik!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH. M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T. : O‘zbekiston, 2016. .

2. Mirziyoyev SH. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T. : O‘zbekiston, 2017

3. O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000 yil.

4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi-O‘zbekiston Respeblikasi.

5. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T. : SHarq, 1998yil.

6. https://m. aniq. uz/uz/yangiliklar/internet-va-uning-yoshlar-tarbiyasidagi-ahamiyati

7. https://cyberleninka. ru/article/n/ijtimoiy-tarmoqlarning-yoshlar-manaviyatiga-tasiri

AQIDAPARASTLIK YOXUD HOKIMIYATPARASTLIK

Quryozov Tolibjon
Namangan davlat pedagogika institutining Milliy g’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi birinchi bosqich talabasi
E-mail: tolibjonnn2005@gmail. com
Tel: +998-84-664-71-05
Ilmiy rahbar: Ibrohim Jafarov

Annotatsiya*: Mazkur maqolada aqidaparastlikning mohiyati, hamda ularning qanday maqsadni ko‘zlagan holda o‘z harakatlarini olib borishi yoritilgan, shu bilan birga aqidaparastlarning hokimyatga erishish va saqlab qolish yo‘lida qanday usullardan foydalanish ikeltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar*: aqidaparastlik, hokimyat, terror, mamlakat, din, siyosiy maqsad.*

Аннотация: *В данной статье осве щается природа фанатизма и цель ихдействий, и в то же время упоминаются методы, используемые фанатиками длядостижения и удержания власти.*

Ключевые слова*: экстремизм, власть, терр ор, страна, религия, политическаяцель.*

Abstract: *In this article, the nature of fanaticism and the purpose of their actions are highlighted, and at the same time, the methodsused by fanatics to achieve and maintain power are mentioned.*

Keywords: *extremism, power, terror, country, religion, political goal.*

Bugun ijtimoiy hayotning turli sohalarida:o‘qish, mehnat qilish, siyosiy faoliyat, diniy e’tiqod va boshqalarda odamlar ma’lum bir qoidalarga tayanib harakat qilmoqdalar. Qoida esa voqelikdagi biror hodisani o‘rganish bilan birga, bilish uchun yo‘riq bo‘lsa, “aqida” ana shu yo‘riqning mutlaqlashtirilishidir. “Aqida arabcha “aqd ” – bir narsani ikkinchisiga mahkam bog‘lash; ko‘plikda esa "aqoid”degan mazmunni bildiradi. Aqidaparstlikning asl ishlatiladigan tarmoqlari, aqidaparastlikning kelib chiqish davrida va hozirgi kunda ham barcha sohalarda bir maqsadda nomoyon bo‘ladi. Siyosiy sohada ham faqat o‘z fikrini to‘g‘ri deb, boshqalar fikrini pisand qilmaslik aqidaparastlikning bir ko‘rinishidir. Ko‘hna tarix bunday aqidaparastlikning mudhish oqibatlariga ko‘p marta guvoh bo‘lgan. Bunday aqidaparastlar qadimgi davrda ham, o‘rta asrlarda ham bo‘lgan afsuski, XX so‘nggi yillarida ham bor. Qadimgi davrdagi eng mashhur aqidaparastlardan biri bu Rim qaysari bo‘lgan Neron edi. Neronning aqidasi shunday ediki, hokimyat barcha narsadan aziz edi. Uning nazdidagi aqidada hokimyatga erishish va saqlab qolish uchun har qanday usullardan foydalanish lozim degan fikr edi. Shu bilan birga, o‘z fikri bilan yashagan Neron hokimyatga erishish uchun o‘z shiorlariga izchil amal qilib keladi. Eng achinarlisi o‘z yaqinlarini ham ushbu aqida yo‘lida qurbon qiladi, jumladan, o‘z onasi Agrippinnani ham o‘ldiradi. Hokimyat tepasiga kelgandan so‘ng esa o‘z g‘oyalariga qarshi chiqqan yoki tanqidiy fikr bildirgan insonlarni , kim bo‘lishidan qat’i nazar o‘ldiradi. XX asrga kelib siyosiy aqidaparastlik fashistlar va kommunistlar faoliyatida namoyon bo‘la boshladi. Bu ikki qudratli va daxshatli kuch o‘rtasida faqat bir g‘oya ortida“hokimyatni”egallash va saqlab qolish uchun har qanday vositadan foydalanishgan. Ular o‘rtasidagi asosiy farqlari, fashistlar ochiqdan ochiq “terror”ga tayanishi, kommunistlar esa o‘zlari foydalanayotgan terrorni niqoblashga urunishi edi. Bu ikki kuchning to‘qnashuvi millionlab, o‘n millionlab insonlarni qirilib ketishiga sababchi bo‘ldi. Ilmiy xulosalarni o‘z manfaatlari yo‘lida aqidagaaylantirish naqadar zararli ekaninisho‘rolardavri fani misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib aqidaparstlikning keng tarqalgan

ko‘rinishlaridan biri bu diniy aqidaparastlikdir. Islomdagi aqidaviy yo‘nalishlar soni ham tarixiy manbalard yetarlicha berilgan. Ularning eng asosiy va mashxurlari –sunniylik, qadariya, jabariya, murjiya, mo’tazila, shia kabilar. Islomdagi yo‘nalishlar deganda, muayyan e’tiqodiy masala asosida birlashgan musulmonlar majmuasi tushuniladi. Aqidaparastlarning diniy ibodat borasidagi gaplari, marosimlar va boshqa mazhablar to‘g‘risidagi fikrlari bu oqim to‘risida to‘la tasavvur bera olmaydi. Aqidaparastlaro‘zlarinidinning sofligi uchun, asl islom uchun kurashuvchilardek o‘zlarini ko‘rsatishga urinsalar ham, ularning asl tub maqsadi boshqa tomonda bo‘ladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, asrlardavomida biron mamlakatni bosib olmoqchi bo‘lgan mustabidlar bu mamlakatga tinchlik, boylik olib kelmoqchi ekanliklarini, bu yerda esa o‘zaro nizolarga chek qo‘yib farovon turmush tarzini yo‘lga qo‘yish uchun kelayotganliklarini gapirganlar. Aslida, bu gaplar mamlakatdagi tinchlikni yo‘qotish, hamda boyliklarni tashib olib ketish maqsadlarini niqoblash uchun xizmat qilgan. Xuddi shu kabi aqidaparastlar ham diniy e’tiqodi buzulgan hududlarga toza va asl islomni olib kelish niqobida, haqiqatda esa siyosiy maqsadlarini ko‘zlab faoliyat olib boradilar. Bunga ishonch hosil qilish uchun aqidaparastlar, xususan, vahhobiylarning boshqa davlatlarga kirib borish tarixiga nazar tashlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Vohhobiylarning hokimyatga erishish maqsadidagi har qanday g‘ov va to‘siqlarni faqatgina johiliy amallardan foydalanib amalga oshirgani, bugun barchamiz uchun ayon. Vahhobiylarning yurushi faqat oltin-kumush va boshqa boyliklarni talash bilan cheklanganda ham boshqa gap edi. Ular mamlakatni talabgina qolmay, shahar aholisini butunlay qilichdan o‘tkazishar edi. Bir kun davomida birnecha ming insonlar qatl etilardi. Shaharni himoyasiga otlangan jangchilarni o‘ldirish bilan kifoyalanmay, keksa chol va kampirlarni, yosh bolalarni birma bir qilichdan o‘tkazishardi. Manbalarda guvohlik berilishicha, homilador ayollar ham chavaqlanib, hattoki ularning qorinidagi homila ham o‘ldirilgan. Mana shunday eng vaxshiy qilimshlarni barchasini ular islomning sofligi yo‘lida qilyapmiz, deyishgan. Aslida esa, ularing bu qilmishlari faqatgina hokimyatga erishish yo‘lidagi niqob bo‘lgan. Diniy aqidaparastlar faoliyatiga Yaqin Sharq mamlakatlaridagi munosabatlar tahlil qilinsa, arab mamlakatlarining deyarli, barchasida aqidaparast guruhlar faoliyati man qilingani ko‘zga tashlanadi. Misrda esa ekstremist aqidaparastlar qo‘lga olinsa, ularning ishini fuqarolik sudlariemas, harbiy tribunalda ko‘riladi. Buning sababi shuki, diniy aqidaparast guruhlar diniy guruh sifatida emas, balki ko‘proq harbiy guruh sifatida faoliyat olib borishadi, deb izoxlanadi. Aqidaparastlarning asosiy maqsadi sof islom qoidalarini o‘rnatish emas, hokimyat uchun kurashish ekanligini faqat Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari tarixigina emas, MDHga a’zo davlatlar tarixi ham ko‘rsatadi. Jumladan MDHga a’zo bo‘lmasa ham, lekin uning doirasiga kirgan Chechinistonda vahhobiylarning tarqalishi shunga misol bo‘la oladi. Bu aqidaparastlar O‘zbekiston dastlabki mustaqillikka erishgan yillarda ham, hokimyatga erishish yo‘lida bir qancha harakatlarini amalga oshirgan. Ular o‘zlarini dinning sofligi uchun kurashuvchilar qilib ko‘rsatishga urinishar edi. Bu kimsalar o‘z tomonlariga ancha-muncha tarafdorlarini to‘plab olganidan so‘ng , dinning sofligi uchun kurashish ularning esidan chiqib, hokimyat ishlariga aralashish, bir qator hududlarda esa hokimyatni qo‘lga olish bo‘yicha harakat boshlaydilar. 1991 yilning dekabr oyida aqidaparast guruhlar o‘zlarining asl basharasini ma’lum qilib, Namangan shahrida sobiq viloyat qo‘mitasining binosini zo‘rlik bilan egallab olishadi. Ular bu binoda “Islom markazi” tuzmoqchi bo‘lishadi. Belgilab olingan maqsadga erishish yo‘lida bu aqidaparast kimsalar faqat og‘zaki targ‘ibot olib bormay, tashkiliy ishlarni ham amalga oshirishga kirisha boshlashadi. Unga ko‘ra ular, nomlari o‘zgacha, ammo maqsadi hokimyatni aks ettiruvchi johiliy tashkilotlar “Adolat” va “Islom lashkarlari” guruhlarini tuzushadi. O‘sha vaqtlarda

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganiga bir necha oy bo‘lgan edi. Tabiiyki, bunday qisqa vaqt ichida jinoyatchilikni, poraxo‘rlikni tugatib bo‘lmas, savdo tizimi va ma’muriy idoralarda ham hali yetarli tartib o‘rnatilmagan edi. Shunday og‘ir sharoitda aqidaparastlarning maqsadi haqiqatan ham jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘lsa ular prokuratura, ichki ishlar organlariga yordam ko‘rsatish kerak edi. Ular esa asosiy faoliyatlarini shu organlariga qarshi harakat qilishga qaratishdi. Aqidaparastlar faqatgina o‘z aqidalarinigina tan olib, boshqa barcha oqim va mazhablarni inkor qilar ekanlar, o‘zlari tutgan yo‘l haqiqatdan ham to‘g‘ri ekanligini bahs va munozara orqali isbotlash yo‘lini emas, zo‘ravonlik va taziyq o‘tkazish usulini tanladilar. Shu hol bilan ularning e’tiqodi ham, amalyoti ham ularning harakatlarini islom diniga mutlaqo to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatadi. Aqida masalasida kishilar tafakkurini to‘g‘ri shakillantirish yoshlar, qolaversa, butunjamiyatning e’tiqodini noto‘g‘ri aqidalardan asrash, axloqiy va ma’naviy kamolotga yetkazish, bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom entsiklopediyasi (A-H) . “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.

2. Одилжон Абдуллажонов . ДИНИЙ АҚИДАПАРАСТЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗБЕКИСТОНГА КИРИБ КЕЛИШИ .

3. Diniy ekstremizm va fundamentalism: tarixi, mohiyati va bugungi xavfi. G‘ . Hotamov.

ILM - INSONNI ULUG’LOVCHI ENG BUYUK FAZILAT

Yuldasheva Lola Sagdullaevna

Toshkent Davlat stomatologiya institut dotsenti.

***Annotatsiy**a. Vatanimizning, xalqimizning ertangi kuni, kelajagi yosh avlodning tarbiyasiga bog‘liq. Avlod tarbiyasi hayot binosining podevori bo‘lganligi sababli nihoyatda muhim va mushkul vazifa bo‘lib,uni amalga oshirishda o‘tmishda buyuk ajdodlarimizning ma’naviy boy merosi, diniy-falsafiy ta’limotlari biz uchun muhimdir.*

***Kalit so’zlari**: alloma, ilm, nafs tarbiyasi, ruhiy yuksalish, aql, xotira, muroqaba, vijdon pokligi.*

***Аннотация**. Будущее нашей страны и народа зависит от воспитания молодого поколения. Воспитание следующего поколения – чрезвычайно важная и трудная задача, так как она является фундаментом построения жизни, и в ее реализации для нас важны богатое духовное наследие и религиозно-философские учения наших великих предков в прошлом.*

***Ключевые слова:** мудрость, знание, самосовершенствование, духовный рост, интеллект, память, медитация, чистота совести.*

***Annotation**. The future of our country and people depends on the education of the younger generation. Raising the next generation is an extremely important and difficult task, since it is the basis for building life, and in its implementation, the rich spiritual heritage and religious and philosophical teachings of our great ancestors in the past are important to us.*

***Key words**: wisdom, knowledge, self-improvement, spiritual growth, intelligence, memory, meditation, purity of conscience.*

Dolzarbligi. Bugungi ma’naviy madaniy hayotimiz yuksalayotgan, YAngilanayotgan bir paytda o‘z xalqining tarixini, uning ma’naviy merosi, madaniyatini chuqur bilish va tushunib etish,

undan ibrat olish orqaligina ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi. O‘z navabatida, xar tomonlama etuk va teran fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalash jaryonida, ma’naviy yuksalishida buyuk ajdodlarimizning hayot tajribasi, diniy-ahloqiy ta’limotlari asosiy didaktik qo‘llanma va faoliyat dasturi hisoblanadi.

Muhokama. Ana shunday diniy-falsafiy ta’limotlardan biri tasavvufning Xojagon tariqatining asoschisi Abduholiq G‘ijdivoniy barkamol, komil inson uchun zarur bo‘lgan odob-ahloq normalarini ishlab chiqib, bizga meros qilib qoldirgan Uning fikriga ko‘ra, insonni ulug‘laydigan eng muhim fazilat bilimli, ilmli bo‘lishdir. Inson har qanday vaziyatda ham ilm va taqvo bilan birga bo‘lmog‘i, ayniqsa, ruhiy yuksalishga va kamolatga etkazishga rag‘batlantiruvchi ilmni chuqur o‘rganmog‘i darkor.

Inson faoliyati asosan ikki buyuk qudrat: ilm va ahloq yordamida boshqariladi. Mumtoz tariqat asoschisi hisoblangan G‘ijduvoniy o‘z ta’limotini yaratishdan maqsadi har bir inson o‘zligini anglashi, insoniyligini unutmasligi, u go‘zal xilqat qilib yaratilgan ekan, demak, uning vazifasi nima, hayotining mazmuni qanday bo‘lishi kerakligi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni topishga yordam berish bo‘lgan.

O‘z ta’limoti asosida muhim o‘rinni Nafas tarbiyasi egallaydi. Hazrat ta’limotini bir nechta bosqichi-raxshalarda bayon etgan. Bu ta’limot bochqichlari (raxshalari) orqali inson o‘zini, aqlini, idrokni, tana a’zolarini boshqara olishi tushuntirilgan. Alloma o‘zi shunga amal qilib yashashganligi uchun komillik -Orfiylik darajasiga etgan. “Kimiyoi saodat”asarida dil(qalb)ni tana mamlakatining podshohi, aqlni esa uning vaziriga qiyoslab, “podshox - Dil vazir -Aqlning maslahati birla ish qilsa, shahvat va g‘azabni vazir Aqlga bo‘ysundirsa, badan mamlakati (inson-YU.L) saodatga erishadi. Agar Dil Vazir Aqlni shahvat va g‘azab ilgida asir qilsa, badan mamlakati, ya’ni INSON vayron bo‘lib, podshoh Dil ham asir bo‘lib, badbaxt va halok bo‘lg‘usidir. [1.45]- deb yozadi.

Demak, Aql shundayki, inson unga asoslanib barcha holatda doimo qalbiga qarab undan ogox bo‘lishi, qalbi esa faqatgina ilohiy nurlar va tajalliy etishi kerak. SHundagina inson Allohning erdagi xalifasi va butun olamning gultoji vazifasini bajaradi.

Nafs tarbiyasida Xotira alohida o‘rin tutadi. Mutafakkir fikricha, inson unutuvchan, keraksiz narsalar bilan o‘y hayollarini band qiladi. Xotira shaytoniy, nafsoniy va moliki Rahmoniy bo‘lishi mumkin. Ana shu molikiy Rahmoniy xotirani kuchaytirib, unga rizq bergan, go‘zal siyrat va bu dunyoga keltirgan Allox -Rahmon, Rahimga shukur qilib, uni yod, eslab turish bu ruhiy kamolotning birinchi raxshasi hisoblanadi. Inson o‘tayotgan umrining har bir lahzasi, onida hushyor, zehnli va ogox bo‘lishini anglatadi. G‘aflatda qolmaslikni, hushyor bo‘lishlikka undaydi.

Nafs tarbiyasida ochig‘i keyingi raxshalarni noto‘g‘ri yozishdan muroqaba bosqichining ahamiyati ham katta. Uning ma’nosi orqaga qaytish, ya’ni inson hayoti davomida qilgan ishini sarhisob qilishi, agar g‘aflatda qolgan bo‘lsa, tavba qilish va tavba orqali to‘g‘ri yo‘lga o‘tishida hamda o‘zini -o‘zi boshqarishga yordam beradigan bosqich hisoblanadi.. Inson zarracha qilgan yomonligi uchun tavba qilmasa, ko‘ngli qora bo‘ladi. Hattoki, hayoliga ham yomon fikrlarni keltirmasligini uqtiriladi. Agar Haq yo‘lda bo‘lsa, YAratganga shukronalar aytib, mushohada etsa, unda Allohning qudratini ko‘radi. O‘z holatini mushohada eta olar ekan, qalb tarbiyasi shu darajaga ko‘tarilganini anglatadi.

Keyingi raxsha musohaba deb atalib, saqlash ma’nosini anglatadi. Inson xotirasida asl, kerakli narsalarni saqlashi va turli yomon o‘y hayollardan qochishi, hayoliga ham keltirmaslikka da’vat etiladi. Allomaning fikricha, musohaba darajasiga etishish uchun orif vaqtning qadrini

biladigan bo‘lishi kerakdir. Vaqtni judayam qadrlash zarurligini uni aziz va qimmatli bilishga undagan.

G‘arb faylasufi va olimi Nyutonning butun olam tortishish qonuning ta’sir va aks ta’sir qonuni kashf etilganda butun jahon faning mexanika-fizika sohasidagi ulkan kashfiyotlardan biri hisoblangandi.

G‘ijdivaniyning yaratgan ta’limoti bundan bir necha asr ilgari bo‘lib, xuddi shu aks ta’sirni o‘z ta’limoti orqali ifodalanganligini guvohi bo‘ldik. “Ziyo nuri SHarqdan tarqalur” degan ibor balkim shuning uchun ham bejiz aytilmagandir.

Natijalar. Demak, Xojagoniy ta’limotining asosini ham aynan shu ta’sir va aks ta’sir orqali inson qanday o‘y fikrlar bilan va qanday amallar bajarib o‘zining ijobiy ta’sirini atrofga tarqatsa, shunday ilohiy quvvat, nur-energiya va xayr baraka oladi. Aksincha faqat yomon fikrlar bilan hotirani band qilsa, qalbi parishon bo‘ladi, sog‘lom ham bo‘lmaydi. Inson o‘zining borlig‘i, ruhiy olami va kerak bo‘lsa duolari bilan butun olamga ta’sir etadi.

Nafs tarbiyasi o‘rta asrlar davrida qanchalik dolzarb masala bo‘lsa, bugun ham u shunchalik qimmatli, ahamiyatli va dolzarbdir. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyat qilishda nafs tarbiyasining mulohazalari, xulosalaridan amaliyotda keng foydalanish kerak. Birinchi Prezidentimizning(Alloh rahmatiga olsin) Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch asarida bildirgan fikrlaridan, vijdon pokligi, halollik asrlar, zamonlar osha inson ma’naviyatining tayanch ustunlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr shafqat, insofu-diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omillarning o‘rni va ta’siri beqiyosdir, deb ko‘rsatilgan..

Bu sifatlarni tarbiyalashda alloma G‘ijduvoniy asos solgan tariqat insonlarni qalbiga quloq solish, xotirada faqat egu fikr va asl- toza hayolni yodda saqlash, yomonlik, gunox ishlar uchun tavba qilish, qalbni muntazam kuzatish, o‘zini anglashga yordam berishda ilmiy-nazariy, amaliy jihati bilan keng va samarali foydalanish uchun didaktik meros hisoblanadi.

Darhaqiqat, umrni sarhisob qilish, har bir soniyani baholash va har bir soniyadan mumkin qadar unumli foydalanish, har bir nafasni ogohlik bilan o‘tkazish, eng katta musibat vaqtni bekorga o‘tkazmoqlik kabilarning bugungi kun tarbiyasini tashkil qilish va amalga oshirishdagi ahamiyatini, birinchi galda anglashimiz, keyin esa ularni izchil amalga oshirish bizlarning vazifamizdir.

Abduxoliq G‘ijduvoniy irfoniy-tasavvufiy dunyoqarashida poklik haqidagi qarashlar muhim o‘rin egallaydi. Bu ta’limotda poklikni ulug‘lik sifatida olib qaraydi. Poklik amaliy hayotda, turmushda mehnat va kishilar bilan bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Pokiza his tuyg‘u insonning ma’naviyatini shakllantiradi. CHunki poklik mazmunida oqillilik va e’tiqodlilik, sharm va hayo, or-nomus, ziyraklilik va farosatlilik, vafodorlik, halollik, vazminlik va ulug‘vorlik, tejamkorlik, mehribonlik kabi yaxshi xislatlar mujassamlashgandir.

Pokiza aql insonni ruhiy jihatdan yuksaltiradi. Kishi hayotida axloqiy poklik birinchi darajali vazifadir. CHunki axloqiy poklik va ta’ma molparastlikka xirs qo‘yishga mutlaqo ziddir. SHuning uchun Xo‘jai Jahon ta’limoticha, har bir insonning eng birinchi vazifasi, burchi ma’naviy axloqiy pokligidir. Unda shaxs soflikni yashash qoidasi qilib qo‘yishi lozimligi ta’kidlanadi. Ana shu poklik mohiyatini “Vasiyatnoma” nomli asarida quyidagicha ifodalaydi:

Pokiza xisol boshi andar hama hol,
Ki zi xislati pokiza-ki shud ahli kamol.
Bextar zi rizogii haq chi yobad banda

Rozi ast Xudo az mardi pokiza xisol.[2]

Tarjimasi:

Har qanday holda pokiza bo‘lsang,

Kamolot ahlining yuksak darajasi ham shundadir.

Bandaga Hakning rizoligidan ortiq narsa yo‘qdir

Xudo ham pokiza xislatli marddan rozidir.

YAxshiliklarni hech narsa talab qilmasdan qiladigan insonlar birovlar uchun doimo ezgu ishlarni bajaradilar. Ularga doimo madadkor bo‘ladilar, birovlarning tashvishlari bilan yashab, doimo bir savob ishni bajarishga harakat qiladilar. Bu esa haqiqiy axloqiy sifatdir. Uni pok, xolis, haqiqiy yaxshilik deyish mumkin. Bunday kishilarni pokiza, axloqiy pok insonlar deymiz. Tabiat ato etgan aql idrok, fahm farosat bilan, ham diniy ta’limot, ham jamiyatda, oilada, kishilar orasida hamjihatlik, baxtli saodatli nihoyatda pokiza hayotni qurish, xayrli, savobli, ishlar qoldirish, yaxshilik, ezgulikni ko‘paytirib, yaramaslik, yovuzlikka barham berish, vatan uchun fidokorlik kabilardir.

Xulosa qilib aytganda, Abduxoliq G‘ijduvoniy ta’limotida:

- inson degan nomga munosib bo‘lib jamiyat hayotida faoliyat ko‘rsatish ham diniy, ham dunyoviy nuqtai nazardan farz ekanligi;

- inson aql, zakovat, kuchli iroda, hissiyot, sezgilar, nutq sohibi sifatida jamiyatni boshqarishi;

- inson ruhiy jihatdan boqiy yashash uchun bu dunyodagi hayotdan foydalanishi lozim, ma’naviy jihatdan yuksalishi, taraqqiy etishi kerakligi;

- inson xilvat, xoli, kimsasiz joyda yashash emas, jamiyatda bo‘lib, poklanish, soflanish vositasi bilan ruhiy boylik, mangu hayotga o‘tish mumkin;

- barcha insonlarning vazifasi ijtimoiy hayotda barcha insonlarga, ayniqsa beva-bechoralarga mehribonlik qilish, muhtojlarga har tomonlama ko‘maklashish, ularning og‘ir hayotini engillashtirish, ojizu zaiflarga shafqatli, g‘amxo‘r bo‘lish, ehsonli bo‘lishni, yashashida yaxshilik qilishni, xayrli a’molni sodir etishni o‘z oldiga asosiy ma’naviy-axloqiy maqsad qilib qo‘ymog‘i lozim.

Hayot qonuniga aylangan: “Dil bayoru dast bakor” shiori insonlrni doimo jamiyatga xizmat qilish, ularning og‘irini engil qilish qo‘ldan kelmasa, zarar ham keltirmaslik; barchaga yaxshilik qilish, xayrli amolli bo‘lish yo‘li bilan ma’naviy-axloqiy hayotni yuksaltirish, haqiqiy komil inson bo’lish kabilar buyuk mutasavvif ta’limottining ma’naviy negizi hisoblanadi.

Xulosa. Buyuk mutasavvir Xoja Abduholiq G‘ijduvoniy ulkan ilmiy- ma’naviy meros qoldirgan. Alloma bir qancha asarlar yozgan bo‘lsa ham bizgacha ayrimlari, ya’ni “Risolai tariqat”, “Risolai sohibiya”, “Vasiyatnoma”, “Az guftori Hoja Abduxoliq G‘ijduvoniy” kabi bebaho durdonalari etib kelgan. Bu qo’lyozmalar dunyoning bir qancha kutibxonalarida saqlanmoqda.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Xoja Abduholiq G’ijduvoniy. Kimyoi saodat –T.: 1995

2. Hamidulla Boltaboyev Islom tasavvufi manbalari(Tasavvuf nazariyasi vatarixi) T:. 2005, 300-b

3. Abduxoliq G`iduvoniy Maqomat Yusuf Hamadoniy T:. 2003

4. Сагдуллаевна Ю.Л. (2022). Принцип эманации в онтологии И.Б.Н. Сино. *Центральноазиатский журнал социальных наук и истории* , *3* (12), 90-92. Получено

c https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/539.

5. Avesta is a Source of Universal Values . Vol. 1 No. 9 (2023): American Journal of Science on Integration and Human Development

MA’NAVIYAT VA UNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

Abduvohidov Qobiljon Komiljon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika isnstituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
E-mail: abduvohidovqobiljon2001@gmail.com
Tel: +998-93-788-45-40

Annotatsiya: *Maqolada ma’naviyat va uning rivojlanishi qonuniyatlarining ahamiyati. Uning jamiyat, millat, shaxs hayotida tutgan o’rni va roli. Shu bilan birgalikda, ma’naviy rivojlanish qonuniyatlarning amal qilishi jarayonini, obyektiv va subyektiv shart sharoitlarga ta’siri haqida tahlilar olib borilgan. Va bu borada fikr va mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so’zlar: *Ma’naviyat, ma’naviy taraqqiyot, jamiyat, xalq manfaati, “ta’sir” va “aks ta’sir” qonuniyati, shaxs, axloq-odob, qonun, qonuniyat, “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.*

Аннотация: *В статье анализируется духовность и законы ее развития, а также приводятся комментарии о ее значении.*

Ключевые слова: *Духовность, духовное развитие, общество, интересы народа, закон «влияния» и «обратного эффекта», личность, мораль, право, легитимность, “Стратегия развития нового Узбекистана”.*

Abstract: *The article analyzes spirituality and the laws of its development, and comments on its importance are presented.*

Key words: *Spirituality, spiritual development, society, people's interest, the law of “influence” and “reverse effect”, personality, morals, law, legitimacy, “Development Strategy of New Uzbekistan”.*

Bugungi kunga kelib O’zbekistonda ma’naviyatga juda katta e‘tibor qaratilyapti. Buning asosiy sababi esa, ma’naviyat asriy qadriyatlarimiz va milliy an’analarimiz, xalqimizning milliy o‘zligini tiklash uchun eng muhim vosita va shu bilan birgalikda, komil insonni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan shartlardan biri bo‘lganligidir. Shu jihatlarni hisobga olib mustaqillik qo’lga kiritilganidan so’ng ma’naviyatga e’tibor berila boshlangan edi. Xususan xalqimiz ongini ma’naviy jihatdan yuksaltirishga qaratilagan bir qancha ma’naviyatga doir kitoblar va davlat dasturlari ham bunga yorqin misol bo’la oladi. Misol uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoniga binoan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi va uning beshinchi maqsadi qilib ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb nomlandi. Har bir jamiyatda ma’naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovi hisoblanadi. Chunki ma’naviyat-insonning insoniylik mohiyati,shaxsdagi ijobiy fazilatlari qiyofasi majmuidir.

“Ma’naviyat” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib unda insonning ruhiy va aqliy jihatlari, o‘z xususiyati, mohiyati g‘amxorligi qayg‘urish va quvonish kabi jarayonlarni o‘zida mujassamlashtirgan hisoblanadi. Hozirgi vaqtgacha ma’naviyat tushunchasiga juda ko’plab

ta’riflar berilgan bo’lib quyida ularni bir qanchasini keltiramiz: “Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir” [1]. “Ma’naviyat-inson axloqi va odobi,bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir” [2]. “Ma’naviyat-insonning ijtimoiy–madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallik, sevish,zavqlanish, yovuzlikga nafrat, iroda matonat va shu kabi ko’plab insoniy xislatlar va fazilatlarning uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuasidir” [3]. “Ma’naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur. Oily haqiqat nuridir. Shu sababli inson ko‘nglini haqiqat asrorining ganjinasi demishdir. Faqat inson qalbi o‘zida haqiqat nurini aks ettira olishi uchun unga sayqal bermoq zarur” [4]. “Inson barcha tirik mavjudotning gultoji, hayot guli deyilganda uning yuksak ma’naviyat egasi ekanligi nazarda tutiladi. Ma’naviyat insoniylikga olib boradigan, insonni inson, millatni millat qiladigan ajoyib xislat va fazilatlarning yig’indisidir” [5]. Ta’riflardan ko’rinib turibtiki ma’naviyat keng qirrali sermazmun va inson hayotining nozik tomonlarini qamrab olgan tushuncha hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ma’naviyat keng qamrovli tushuncha bo’laganligi uchun keng va tor ma’nolarda qo’llaniladi. Ya’niki keng ma’noda qo’llanilganda butun bir xalq, jamiyat nazarda titiladi. Chunki qaysi bir jamiyat bo’lmasin bu jamiyatda ma‘naviyat o‘zining o‘rniga ega bo‘lmas ekan, bu jamiyatning zavolga yuz tutishi juda tez kechadi. Sabab ma’naviyat jamiyatning bir tekisda rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan richak kabidir. Bugungi kundagi ayrim xalqlarning zalolatga yuz tutish jarayoni ham aynan ma’naviyatga e’tiborsizlik orqasidan vujudga kelgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma’naviyat tushunchasi tor ma’noda qo‘llanilganda insonga eng kerakli va zarur bo‘lgan tushunchalar ifodalaydi. Misol uchun: mehr muruvat, adolat, to‘g‘rilik, axloq-odob, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik va hokazo.

Axloq-odobni e’zozlash har bir insonning yuksak burchi sanaladi. Chunki unda insonni va jamiyatni taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan tarafni o‘zi yo‘q. Demak bu noyob me’rosdan foydalanish orqali biz jamiyatda insonlar o’rtasida mehr-muhabbat, insoniylik va boshqa bir qator xislatlarni shakllantirishimiz mumkin bo’ladi. Misol uchun ta’lim jarayonida oladigan bo‘lsak: Agar o‘quvchi dars mashg‘ulotlari jarayonida axloqi va odobini saqlab o‘tiradigan bo‘lsa, o‘qituvchi dars mavzusini qiyinchiliksiz darsda boshqa narsalarga chalg‘imagan holda ishtiyoq bilan o‘quvchilarga tushuntirishi mumkin bo‘ladi. Va buning natijasida ta’limning sifati va samarasi oshadi. Va o‘quvchilarning ilmga ishtiyoqi oshib boradi. Yoinki buning teskarisi ya’niki dars jayonida sinfda tartib saqlanmaydigan bo‘lsa o‘qituvchining dars mavzusi qolib o‘quvchilarga odob-axloqdan tanbeh berishdan boshqa chorasi qolmaydi. Va natijada fanga ishtiyoqi va qiziqishi kuchli bo‘lgan o‘quvchilar axloqsiz do‘stlari sababli o’zlari xohlagan ma’lumotlarni vaqtida ololmasliklari mumkin va buning natijasida ularda ta’lim olishga bo‘lgan ishtiyoqlari so‘nib boradi. Olimlardan Ziyoulloh aytadi: “Saodatmand, dono odamlar xush fe’l atvorini o‘zlariga abadiy najot sarmoyasi deb biladilar.Fursat, vaqtni qo‘ldan qochirmaydilar, g‘animat sanaydilar, go‘zal axloq, odob bilan ziynatlanadilar. Mol-dunyo yig‘ishga haris bo‘lmaydilar, hech kimning ko‘nglini og‘ritmaydilar. Ojiz va g‘arib kishilarga g‘amxo‘rlik qiladilar, ularning ehtiyojlarini o‘taydilar, birovning aybini ko‘rsalar, oshkora qilmasdan uni bekitadilar, qilgan yaxshiliklari bilan maqtanib yurmaydilar, birovdan yomonlik ko‘rsalar, u kishiga yaxshilik qiladilar, ulug‘ olim, fozillarning siyratlari, go‘zal fe’l-atvorlarini o‘zlariga peshvo qilib oladilar, o‘z manfaatlarini ko‘zlab, boshqalarga ziyon keltirmaydilar, hech kimga

qo‘pollik bilan muomala qilmaydilar, to‘g‘ri so‘zlaydilar, yolg‘onchilik ko‘chasiga qadam bosmaydilar “ [6].

Darhaqiqat agar insonda yuqori darajada takomillashgan odobi va axloqi bo‘lsa unda shu kabi chiroyli fazilatlari shakllanadi. Va bunday shaxslarning jamiyat hayotida ko’payishi davlatning nafaqat ma’naviy balki iqtisodiy rivojlanishi uchun ham mustahkam zamin bo’lib xizmat qilishi tabiiy.

Qonun (falsafada) - narsa va hodisalar o‘rtasidagi muhim, zaruriy, barqaror, takrorlanuvchi munosabat hisoblanadi. Mazkur munosabat obyektiv voqelikka mansub bo‘lsa, u voqelik qonunlari deb yuritiladi. Voqelik qonunlarining inson tomonidan o‘rganilib, muayyan nazariy tilga ko‘chirilishi fan qonunlari deyiladi. Shu jihatdan fan qonunlari voqelik qonunlarining tafakkurda in’ikos etilishidir. Fan qonunlari, o‘z navbatida, aks ettiruvchi ob’yektiga ko‘ra, tabiat qonunlari, jamiyat qonunlari, tafakkur qonunlariga bo‘linadi. Qonun tushunchasining mohiyati jiahatidan qonuniyat tushunchasiga yaqin turadi. Qonuniyat qonundan farqli ravishda sistemaning o‘zgarishlaridagi barqaror jihatlarni va yo‘nalishlarni ifodalab beradi. Shu jihatdan, fanlarda statistik va dinamik qonuniyatlarga tayanib ish yuritiladi. Dinamik qonuniyatlarda o‘rganilayotgan jarayonlarning kelajagi aniq, muayyan va bir xil ko‘rinishda bashorat qilinadi, ya’ni sistemaning kelajakdagi holati uning oldingi holati bilan uzviy bog‘langan holda bo‘ladi. Statistik qonuniyatlarda esa, jarayonlarning kelajagini bashorat qilish ehtimol shaklida bo‘lib, muayyan miqdordagi tasodiflar orasida ro‘yobga chiqishi mumkin bo‘lgan ehtimollar nazarda tutiladi, ya’ni bunda bir qancha o‘zaro bog‘liq bo’liq bo‘lgan aloqadorliklar orasidan paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan ehtimollik darajasi chamalab olinadi.

Barcha fanlarda bo’lganligi kabi ma’naviyat ham o‘zining rivojlanish jarayonida ma’lum bir qonuniyatlarga tayanadi. Garchand bu qonuniyatlar bir qancha yo‘nalish va jarayonlarni o‘z ichiga olganligiga qaramay ular asosiy ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga shaxs, jamiyat, millatning ichki salohiyatiga doir qonuniyatlar kiradi. Ya’niki shaxs, millat va jamiyaning ichki salohiyati yuksak darajada rivojlangan bo‘lsagina ma’naviyatning rivojlanish asosini tashkil qiladi. Agar ichki salohiyat nochor bo‘lsa shaxsiy barkamollikga erishish, millatning o‘zaro yaxlitligini saqlash qiyinlashib boraveradi. Va buning natijasida jamiyatning yuksak taraqqiyotga erishish imkoniyatlari pasayib boraveradi va taraqqiyot uchun bir qancha salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ichki salohiyaning darajalari bir qancha obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liqdir. Va uning rivojlanishi uchun har ikkala omilning ham yaxlit holatda bo‘lishi muhim sanaladi. Agarda ichki salohiyat mustahkam bo‘lsa, har qanday taraqqiyot va globallashuv jarayonlarida ham zaruriy holatlar yuzaga kelgan paytda shaxsning kamolotini yuksaltirishga, millatning o‘zligini saqlashga va jamiyatning bir butunligini ta’minlashga xizmat qilishni davom ettiradi. Ikkinchi guruh qonuniyatlariga esa shaxslar va millatlarning o’zaro munosabatalri jarayonida sodir bo‘ladigan “o‘zaro ta’sir”, “o‘zaro boyitish” orqali bo‘ladigan jarayonlar kiradi. Ya’niki shaxs ma’naviy kamoloti dunyoga kelganidan boshlab yuksak darajada bo‘lmaydi balki insonlar bilan o‘zaro muloqot o‘qish o‘rganish natijasida asta sekin shakllantiriladi. Xuddi shu kabi millat ham ma’lum bir tarixiy taraqqiyot jarayonlari orqali taraqqiyotning ma’lum bir bosqichlarida boshqa xalqlar va millatlar bilan hamkorlik natijasida rivojlanib boradi. Insonlar o‘zglarsiz yashay olmaganidek millat ham boshqa millatlar va xalqlar bilan aloqasiz yashashi dargumondir. Jamiyat ham xuddi shu qonunlar asosida rivojlanadi. Ma’naviyat ham ana shu o‘zaro munosabatlar jarayonida ta’sirlar asosida rivojlanib boradi. Bu jarayonda bir taraf ikkinchi taraf uchun nimadir beradi yoinki nimadir qabul qilib oladi. Shunday qilib ma’naviyat rivojlanishida “ta’sir” va “aks

ta’sir” qonuniyati mavjud bo’lib bu qonuniyatlar ma’naviyatning rivojlanib borishini ta’minlaydi. Bu qonuniyatlarni amal qilishi jarayoni obyektiv va subyektiv shart sharoitlarga bog‘liq hisoblanadi. Shaxsning kamol topishi va millatning erkin holda rivojlanishi va kamol topishi uchun sharoit mavjud bo‘lsagina bu qonuniyatlar umumma’naviy taraqqiyotga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazadi. Aksincha shaxslarni itoatkorlikkga va ma’naviyatni zo‘ravonlik siyosatini qo‘llab quvvatlash vositasiga aylantirish harakati ustuvor bo‘lgan sharoitda “ta’sir” va “aks ta’sir” qonuniyati umumma’naviy tushkunlikga olib kelishi mumkin bo‘ladi. Va bu jarayonda davlatning ma’naviyatga bo‘lgan munosabati hal qiluvchi ahamiyatga kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak biz bugungi kunda ma’naviyatni va uning taraqqiyot qonuniyatlarini hayotdagi o‘rni va ahamiyati nechog‘lik muhim ekanini bilishimiz lozim. Va bu orqali shaxs barkamollik darajasini yuksaltirishimiz va millatning ma‘naviy barqarorligini saqlab qolishimiz va uni rivojlantirish imkoniyartiga egan bo‘lishimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov I. A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: O‘zbekiston, 1994. –B.9.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. –B. 34.
3. Erkayev K. Ma’naviyat – millat nishoni. – T.: Ma’naviyat, 1997. –B.27.
4. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomili bosqichlari. – T.: Ma’naviyat, 1996. - B.6.
5. Erkayev A. Ezgulik sari yo‘naltirilgan iroda. // “Tafakkur”, 1997 yil, 3-son. - B.14.
6. Norqulov N. Oz - oz o’rganib dono bo‘lur. – T.: Toshkent, 1982. –B. 35.

ISHID XALQARO TERRORISTIK TASHKILOTINING DUNYO SIYOSIY JARAYONIGA TA’SIRI

Qosimov Rustamjon Azimjon o`g`li
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Abdullayev Akmal Nasriddinovich
NamDPI dotsenti, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ISHID xalqaro terroristik tashkilotining dunyoga ta’siri tahlil qilinadi. ISHIDning o‘sishi, maqsadlari va faoliyatining global xavfsizlik, siyosiy vaziyat va ijtimoiy barqarorlikka qanday ta’sir etgani ko‘rib chiqiladi. Tashkilotning iqtisodiy resurslarni boshqarish orqali moliyaviy barqarorlikka erishgani va bu mablag‘larning terrorchilik harakatlarini moliyalashtirishda qanday qo‘llanilgani o‘rganiladi. Xalqaro hamjamiyatning ISHIDga qarshi ko‘rilgan choralarining samaradorligi va bu choralar natijasida tashkilotning zaiflashishi haqida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ISHID, xalqaro terrorizm, global xavfsizlik, siyosiy ta’sir, iqtisodiy ta’sir, internet targ‘iboti, xalqaro choralar.*

Аннотация: *В данной статье анализируется влияние международной террористической организации ISID на мир. В нем рассматривается, как рост, цели и деятельность ИГИЛ повлияли на глобальную безопасность, политическую ситуацию и социальную стабильность. В нем рассматривается, как организация добилась финансовой стабильности за счет управления экономическими ресурсами и как эти средства использовались для финансирования террористической деятельности. Также*

обсуждается эффективность мер, принимаемых международным сообществом против ИГИЛ, и ослабление организации в результате этих мер.

Ключевые слова: *ИГИЛ, международный терроризм, глобальная безопасность, политическое влияние, экономическое влияние, интернет-пропаганда, международные меры.*

Abstract: *This article analyzes the influence of the international terrorist organization ISID on the world. It examines how the rise, goals, and activities of ISIS have impacted global security, the political situation, and social stability. It examines how the organization achieved financial stability through the management of economic resources and how these funds were used to finance terrorist activities. The effectiveness of measures taken by the international community against ISIS and the weakening of the organization as a result of these measures are also discussed.*

Key words: *ISIS, international terrorism, global security, political influence, economic influence, Internet propaganda, international measures.*

ISHID xalqaro terroristik tashkiloti 2014-yilda Iroq va Suriya hududlarida katta hududlarni egallash orqali dunyo e’tiborini tortdi. Ushbu tashkilotning tezkor o‘sishi va ekstremistik maqsadlari xalqaro hamjamiyat uchun katta tahdid bo‘lib, butun dunyoda xavfsizlik va barqarorlikka ta’sir ko'rsatdi. ISHIDning faoliyati nafaqat harbiy harakatlar bilan cheklanib qolmay, balki Internet orqali targ‘ibot va yollash, moliyaviy manbalarni boshqarish va global tarmoq hosil qilish orqali amalga oshirildi.

ISHIDning o‘sishi va maqsadlari: ISHIDning o‘sishi va kuchayishi bir nechta omillar bilan bog‘liq. Birinchidan**,** Iroq va Suriya hududlaridagi siyosiy beqarorlik va hukumatning zaifligi ISHIDning bu hududlarni osongina egallashiga imkon berdi. Ikkinchidan, ISHID ekstremistik mafkurani keng tarqatish va yollash uchun Internet va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanib, global miqyosda tarafdorlar yig‘di. Tashkilotning maqsadlari islomiy xalifalik o‘rnatish va jahon musulmonlarini birlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu maqsadlar zo‘ravonlik va terrorchilik harakatlari orqali amalga oshirildi.

ISHIDning global xavfsizlikka ta’siri: ISHIDning faoliyati xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Ular tomonidan amalga oshirilgan hujumlar Yevropa, AQSh va boshqa hududlarda ko‘plab insonlarning halok bo‘lishiga sabab bo‘ldi. ISHID tomonidan uyushtirilgan terrorchilik harakatlari nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurbonlar sonini ko‘paytirib, balki qo‘rquv va beqarorlik muhitini ham yaratdi. Bu holat davlatlarning ichki va tashqi xavfsizlik choralarini kuchaytirishiga olib keldi. ISHID Internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanib, o‘z ideologiyasini tarqatish va yangi tarafdorlarni yollashda muvaffaqiyatli bo‘ldi. Ular professional tarzda tayyorlangan videolar, maqolalar va boshqa kontentlar orqali o‘zlarining ekstremistik fikrlarini tarqatib, yoshlarni va tajribasiz musulmonlarni o‘zlariga jalb qilishadi. Bu jarayon nafaqat Yaqin Sharq, balki dunyoning turli burchaklarida ham katta ta‘sir ko'rsatdi.

Iqtisodiy ta'sir: ISHID tomonidan egallangan hududlarda iqtisodiy resurslarni boshqarish orqali katta moliyaviy manbalar hosil qilindi. Neft, soliq yig‘ish, odam savdosi va boshqa noqonuniy faoliyatlar orqali tashkilot katta miqdorda mablag‘ yig‘di. Bu mablag‘lar terrorchilik harakatlarini moliyalashtirish va global miqyosda faoliyat olib borish imkoniyatini berdi.

Xalqaro hamjamiyat ISHIDga qarshi bir nechta choralarni ko‘rdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, AQSh va Yevropa davlatlari tomonidan ko‘p sonli harbiy amaliyotlar o'tkazildi.

Buning natijasida ISHIDning hududiy nazorati sezilarli darajada kamaydi. Shuningdek, Internetdagi targ‘ibotlarini cheklash va moliyaviy manbalarini bloklash bo‘yicha ham ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xulosa: ISHID xalqaro terroristik tashkilotining dunyoga ta’siri keng qamrovli bo‘lib, global xavfsizlik, siyosiy vaziyat va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda. Tashkilotning Internetdagi targ‘ibotlari, iqtisodiy faoliyatlari va xalqaro hamjamiyat tomonidan ko‘rilgan choralar bu tahdidni kamaytirishga qaratilgan. ISHIDning global miqyosdagi ta‘siri nafaqat mintaqaviy mojarolarni kuchaytirib, balki butun dunyo bo‘ylab radikallashuv jarayonlarini tezlashtirdi. Tashkilotning ijtimoiy tarmoqlar orqali yollash usullari yoshlar va zaif ijtimoiy qatlamlar orasida katta ta‘sir ko‘rsatdi. ISHIDning moliyaviy resurslarni boshqarishi va noqonuniy faoliyatlari orqali katta mablag‘ yig‘ishi terrorchilik harakatlarini moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan amalga oshirilgan harbiy va iqtisodiy choralar ISHIDning hududiy nazoratini kamaytirishga olib keldi, ammo tashkilotning ideologik ta‘siri hanuzgacha kuchli bo‘lib qolmoqda.

ISHIDning dunyo miqyosidagi ta’sirini kamaytirish uchun global miqyosda hamkorlik zarur. Xalqaro hamjamiyat ISHIDning moliyaviy manbalarini bloklash, ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibotlarini cheklash va radikalizatsiyaga qarshi ta’lim dasturlarini kuchaytirishi lozim. Faqatgina keng qamrovli va uzluksiz sa’y-harakatlar orqali ISHIDning global tahdidi samarali tarzda bartaraf etilishi mumkin. Shu sababli, global xavfsizlikni ta’minlash va tinchlikni saqlash uchun xalqaro hamjamiyatning doimiy e’tibori va hamkorligi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jones, S. G. (2017). “ISHIDning O‘sishi: Iroq va undan tashqarida” Milliy Mudofaa Tadqiqot Instituti
2. Weiss, M., & Hassan, H. (2015). “ISHID: Terror Armiyasi Ichida” Regan Arts
3. Stern, J., & Berger, J. M. (2015). “ISHID: Terror Davlati” HarperCollins
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2019). “ISHIDning Global Xavfsizlikka Ta’siri” BMT Hisoboti
5. Byman, D. (2016). “Islomiy Davlatni Tushunish: Qarshi Terrorchilik Ma'ruza Seriyasi” Brookings Instituti

INSONIYAT PSIXOLOGIK TAHDIDLAR QURSHOVIDA

Hoshimboyeva Muxlisa Abdunozir qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti talabasi.
Meliboyev Ulug‘bek Nuriddin o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsning axborot va psixologik xavfsizligi muammosini ko‘rib chiqadi. Muallif axborot va psixologik xavfsizlikka tahdid manbalarini, shuningdek, odamlarga manipulyativ ta’sir ko‘rsatish usullari va texnologiyalarini tahlil qiladi. Ommaviy axborot vositalarida manipulyatsiya usullaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda.*

Kalit so‘zlar*: axborot va psixologik xavfsizlik, manipulyatsiya, ommaviy axborot vositalari, jamiyat, shaxs.*

Annotation: *This article examines the problem of information and psychological security of the individual in the conditions of modern society. The author analyzes the sources of threats to information and psychological security, as well as methods and technologies of manipulative influence on people. Particular attention is paid to the use of manipulative techniques in the media.*

Key words*: information and psychological security, manipulation, mass media, society, personality.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается проблема информационно-психологической безопасности личности в условиях современного общества. Автор анализирует источники угроз информационно-психологической безопасности, а также методы и технологии манипулятивного воздействия на людей. Особое внимание уделяется использованию манипулятивных приемов в средствах массовой коммуникации.*

Ключевые слова*: информационно-психологическая безопасность, манипуляция, средства массовой коммуникации, общество, личность.*

KIRISH. Jamiyatni isloh qilish va bozor munosabatlariga o‘tish bilvosita ommaviy axborot vositalari orqali va bevosita shaxslararo va shaxsiy guruhlarning o‘zaro ta’sirida amalga oshiriladigan axborot-kommunikatsiya jarayonlarini keskin kuchaytirdi. Bu odamlarga ta’sir o‘tkazish uchun manipulyatsiya usullari va texnologiyalaridan keng va intensiv foydalanishni rag‘batlantirdi. Axborot-kommunikatsiya jarayonlarida fuqarolarning turli toifalariga manipulyatsiya ta’siridan foydalanish shu qadar ko‘lamga yetdiki, u shaxs va butun jamiyatning axborot va psixologik xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.

Siyosiy kurashda odamlar ruhiyatiga manipulyativ xarakterdagi axborot ta’sirining eng yangi texnologiyalaridan foydalanish tendentsiyasini nafaqat kamaytirdi, balki kuchaytirdi.

Manipulyativ ta’sirning keng miqyosda qo‘llanilishi aholining ijtimoiy faol qismini chalg‘itadi, psixo-emotsional va ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqaradi, bu esa fuqarolarga ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyatni va davlat organlari faoliyatini etarli darajada idrok etishga imkon bermaydi. Oliy davlat organlari. Bu esa, o‘z navbatida, ichki siyosiy vaziyatning beqarorlashuvini kuchaytirib, jamiyatni isloh qilishni qiyinlashtiradi.

Ijtimoiy rivojlanish mantiqining o‘zi bu muammolarni ustuvor qiladi . Buning sababi shundaki, ularni hal qilmasdan turib, ijtimoiy barqaror rivojlanishni, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, harbiy va boshqa sohalarda ta’minlash mumkin emas.

Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining maqbul muvozanatini hisobga olish kontekstida xavfsizlikni zamonaviy tushunish ushbu muammoning yangi jihati - axborot va psixologik xavfsizlikni ko‘rib chiqish vazifasini qo‘yadi. Axborot va psixologik xavfsizlikni nazariya va ijtimoiy amaliyotning mustaqil predmeti sifatida aniqlash, shuningdek, axborot muhitining ma’naviy sohaga ta’sir qilish jarayonlari va texnologiyasi sifat jihatidan o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan bog‘liq, bu esa ushbu masalani ko‘rib chiqish zarurligini belgilaydi. kontseptual, uslubiy va uslubiy jihatdan.

Shaxsning axborot va psixologik xavfsizligiga tashqi tahdidlarning umumiy manbai jamiyat axborot muhitining turli sabablarga ko‘ra inson atrofidagi dunyoni etarli darajada aks ettirmaydigan qismidir. Bular. odamlarni illyuziyalar olamiga yo‘ldan ozdiradigan va ularga atrof-muhitni va o‘zlarini etarli darajada idrok etishga imkon bermaydigan ma’lumotlar.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, axborot muhiti inson uchun ikkinchi, sub’ektiv voqelik xarakterini oladi. Uning atrofimizdagi dunyoni etarli darajada aks ettirmaydigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qismi va uning xususiyatlari va jarayonlarining insonning atrof-muhit va o‘zini idrok etishi va tushunishining etarliligini murakkablashtiradigan yoki xalaqit beradigan qismi shartli ravishda "xayoliy haqiqat" deb belgilanishi mumkin.

O‘zining xayoliy tabiatiga qaramay, hatto o‘zining xayoliy tabiati tufayli, lekin zohiriy haqiqat shaklida, u shaxsning axborot va psixologik xavfsizligiga tahdidlarning asosiy tashqi manbai hisoblanadi.

Shaxsning axborot va psixologik xavfsizligiga tahdidlarning yana bir manbai sifatida ma’lum sharoitlarda davlatning o‘zini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu hukumat rahbarlari va hukmron elitaning xatti-harakatlari bilan bog‘liq. Ular o‘z manfaatlarini, ba’zan esa shunchaki ambitsiyalarini ro‘yobga chiqargan holda, davlat apparati kuchidan foydalanib, odamlarga axborot va psixologik ta’sir o‘tkazish, o‘z harakatlari va davlat, jamiyat manfaatlariga to‘g‘ri kelmaydigan haqiqiy maqsadlarni niqoblashda xavf tug‘diradi. va mamlakat aholisi.

Umumlashtirilgan shaklda shaxsga axborot va psixologik ta’sirning asosiy vositalari quyidagilardir:

- ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, axborot tizimlari, masalan, Internet va boshqalar);
- adabiyot (jumladan, badiiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy, maxsus va boshqalar);
- san’at (shu jumladan ommaviy madaniyatning turli sohalari va boshqalar);
- ta’lim (shu jumladan maktabgacha, o‘rta, oliy va o‘rta maxsus davlat va nodavlat ta’lim tizimlari, muqobil ta’lim deb ataladigan tizim va boshqalar);
- ta’lim (ta’lim tizimidagi barcha turli xil ta’lim shakllari, jamoat tashkilotlari - rasmiy va norasmiy, ijtimoiy ishlarni tashkil etish tizimi va boshqalar);
- shaxsiy muloqot.

Shaxsning axborot va psixologik xavfsizligiga tahdidlarning ichki manbalari inson psixikasining biosotsial tabiatiga, uning shakllanishi va faoliyati xususiyatlariga, shaxsning individual shaxsiy xususiyatlariga xosdir.

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, axborotni ommaviy auditoriyaga tarqatish kanallarining o‘ziga xos xususiyatlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan ko‘zda tutilgan maqsadlar va ularning ta’sir xususiyatlari ommaviy axborot vositalarida manipulyatsiyani ko‘rib chiqishga nisbatan biroz boshqacha yondashuvni talab qiladi. o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslararo o‘zaro ta’sirdagi manipulyatsiyalarni tahlil qilish.

Inson psixologik manipulyatsiyani aniqlashda qanchalik katta tajribaga ega bo‘lmasin, u ommaviy axborot vositalarida manipulyatsiyaga qarshi manipulyatsiya ta’sirini tashkil eta olmaydi va to‘liq amalga oshira olmaydi. Bu, birinchi navbatda, ommaviy kommunikatsiya kanallari o‘z egalarining axborot iste’molchilariga axborot va psixologik ta’siri uchun bir tomonlama vosita bo‘lganligi sababli sodir bo‘ladi. Bundan tashqari, bu ta’sir ko‘pincha qabul qiluvchining irodasiga qarshi amalga oshiriladi, masalan, ma’lumot odam u yoki bu vaqtda bo‘lishga majbur bo‘lgan joylarda o‘ziga xos fon sifatida harakat qilganda.

“Axborot to‘lqinining boshlanishi”. Axborotning katta guruhlarga ta’sir qilishning samarali usullaridan biri bu ikkilamchi axborot to‘lqinining boshlanishidir. Uning mohiyati

shunday tashviqot kampaniyasini olib borishdan iboratki, u uni bir qator ommaviy axborot vositalarida yoritishga majbur qiladi. Ehtimol, aksiyaning o‘zi emas, balki uning ayrim ommaviy axborot vositalarida yoritilishi ko‘plab ommaviy axborot vositalarini dastlabki xabarlarga izoh berishga majbur qiladigan tarzda amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin, bu esa axborotning kuchini sezilarli darajada oshiradi.

Axborot xabari boshqa ommaviy axborot vositalarida tarqatiladi, ya’ni “birlamchi” axborot to‘lqini yaratiladi. Ushbu uslubni qo‘llashdan asosiy maqsad - tegishli muhokamalar, baholashlar va tegishli mish-mishlarning paydo bo‘lishini boshlash orqali shaxslararo muloqot darajasida ikkilamchi axborot to‘lqinini yaratishdir. Bularning barchasi maqsadli auditoriyaga axborot va psixologik jihatdan ta’siriga erishish va kuchaytirishga imkon beradi.

Zamonaviy amaliyotda biz ma’lum shaxslar yoki hodisalarga e’tiborni sun’iy ravishda jalb qilishning ko‘plab shakllariga guvoh bo‘lamiz, shu jumladan axborot to‘lqinlarini yaratish usuli sifatida janjallar orqali. San’at namoyandalari uchun bu sahnani tark etish, kim kim bilan ajrashganligi yoki yana birga bo‘lish haqidagi baland ovozda bayonotlar, bu o‘zlari haqida biron bir material tayyorlashda yashirin ishtirok etish, keyin esa muallif ustidan shikoyat qilish. Siyosatda “o‘zini ko‘rsatishni” istagan odamlarning ma’lum bir qismi harakat, bayonot, ekzotik marosim yoki boshqa usul orqali hokimiyat bilan sezilarli mojaro qo‘zg‘atishga harakat qiladi , bu ko‘proq yoki kamroq sezilarli hodisaga aylanadi.

“Ikkilamchi axborot to‘lqinini boshlash” usulidan foydalanish mish-mishlarni tarqatish kabi manipulyatsiya ta’sirining texnologiyasi bilan bevosita bog‘liq.

Manipulyativ ma’lumotlarning eng muhim holati va xususiyati shundaki, tinglovchilar yoki o‘quvchilardan o‘zlarining hukmlarini talab qilish orqali OAV faqat mustaqillik, xolislik, turli nuqtai nazardan tanlash va auditoriya fikriga tayanish illyuziyasini yaratadi. Muayyan ma’lumotlarga salbiy munosabatda bo‘lgan auditoriyaning fikri butun ta’sir doirasiga taalluqli emas. Ommaviy auditoriya geografik jihatdan tarqoq va axborotni iste’mol qiladigan odamlar, agar yolg‘iz bo‘lmasa, hech bo‘lmaganda kichik guruhlarga bo‘lingan va faqat bir-biriga e’tiroz bildirish imkoniyatiga ega. Mavjud ma’lumotlarga nisbatan o‘z noroziligini ommaviy ravishda ifodalash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi va u zamonaviy axborot tizimi sharoitida passivlikka mahkum bo‘lgan va faqat ta’sir ob’ekti sifatida mavjud bo‘lgan odamlarga manipulyatsiya ta’sirining doimiy vositasiga aylanadi.

Manipulyatsion usullardan foydalanish, shu jumladan ulardan murakkab va ommaviy foydalanish xabardor bo‘lgan, asosli qarashlarning barqaror tizimiga ega bo‘lgan, shuningdek, manipulyatsion ta’sir qilish texnikasini biladigan va maqsadli ijtimoiy hayotda ma’lum tajribaga ega bo‘lgan auditoriyada sezilarli darajada kamroq ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxsning yashirin psixologik majburlashi kabi hodisaning umumlashtirilgan sxemasini, modelini yoki mexanizmini aks ettiruvchi va yetarli darajada ilmiy ishlanmalarga ega bo‘lgan bir nechta maxsus umumiy ilmiy tushunchalar mavjud. Bularga, birinchi navbatda, manipulyatsiya ta’siri (manipulyatsiya, manipulyatsiya) kiradi.

Bu tushuncha ikkita asosiy ma’noga ega - to‘g‘ridan-to‘g‘ri va majoziy yoki metafora. Ajablanarlisi shundaki, so‘nggi paytlarda bu manipulyatsiyaning majoziy ma’nosi ushbu kontseptsiyaning asosiy va etakchi mazmuniga aylanib, tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilmoqda. Majoziy ma’noda u ancha yuqori farqlanishga ega, ya’ni. manipulyatsiya umumiy tushuncha sifatida harakat qiladigan tushunchalar tizimi haqida gapirishimiz mumkin. Bu tushunchalar tizimiga quyidagilar kiradi: manipulyatsiya (shu jumladan siyosatdagi

manipulyatsiya; jamoatchilik fikrini, jamoat ongini manipulyatsiya qilish va boshqalar), shaxslararo manipulyatsiya, shaxsni ijtimoiy-siyosiy manipulyatsiya va boshqalar.

Shunday qilib, bizning ishimizni sarhisob qilsak, biz manipulyatsiya ta’siri atamasi odamlarni yashirin majburlashning turli usullari va vositalaridan faol foydalanishni o‘z ichiga olgan ijtimoiy o‘zaro ta’sir va boshqaruvga o‘ziga xos umumiy yondashuv uchun belgi ekanligi haqida juda oqilona xulosa chiqarishimiz mumkin. Shu ma’noda manipulyatsiya, manipulyatsiya yondashuvi, manipulyatsiya “makiavelizm” atamasini maqsadga erishish uchun hech qanday vositani e’tiborsiz qoldirmaydigan siyosiy faoliyat tasviri sifatida almashtiradi. Uni ommaviy axborot vositalari va siyosiy voqealarga nisbatan qo‘llash deganda aholining fikri, intilishlari, maqsadlari va aholining ruhiy holatlarini dasturlashtirishga qaratilgan harakatlar tushuniladi. Bunday harakatlarning pirovard maqsadi aholi ustidan nazorat, uni boshqarishdir.

Shaxsni yashirin majburlashning murakkab va barqaror tashkiliy shakllari, yuqorida aytib o‘tilganidek, mustaqil tushunchalar bilan belgilanishi mumkin, masalan, siyosiy o‘yinlar, psixologik operatsiyalar, manipulyatsion axborot-tashviqot, axborot va reklama kampaniyalari va boshqalar. Bunday holda, “manipulyativ” ta’rifini qo‘shish, hech bo‘lmaganda tahlil paytida, nohaq reklama va targ‘ibotni muhim va ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar, g‘oyalar, qarashlar, mahsulotlar va boshqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ommaga etkazishning ijtimoiy zarur shakllaridan ajratish imkonini beradi. (masalan, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yangi texnologiyalar va texnik yangiliklarni reklama qilish va boshqalar).

Axborot omillarining kishilar ruhiyatiga ta’sirining ko‘lami va kuchi zamonaviy sharoitda axborot va psixologik xavfsizlikni ta’minlashni milliy muammo darajasiga olib chiqadi.

Shunday qilib, jamiyatdagi tub o‘zgarishlar sharoitida shaxsning axborot va psixologik xavfsizligi, uning psixologik xavfsizligi va psixologik himoyani shakllantirish usullari muammosi nazariy va amaliy jihatdan ayniqsa dolzarb bo‘lib qoladi.

Inson o‘z kelajagi haqida (hech bo‘lmaganda ongsiz ravishda) qayg‘urmasdan qololmaydi, chunki ishonchni qozonish usullari orasida voqealarni bashorat qilish muhim o‘rinni egallaydi, ya’ni sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealar haqidagi xabarlar va bu haqda oldindan xabardor qilinadi. Diniy sektalar dunyoning oxiri haqida qo‘rqitishadi va tajribali manipulyatorlar buni oldindan bilishadi. Mutaxassislar tomonidan ba’zan “payg‘ambarning ovozi” deb ataladigan ushbu texnikadan foydalanib, siz ma’lumot manbasiga ishonch darajasini sezilarli darajada oshirishingiz mumkin. Kommunikator ushbu texnikadan foydalangan holda, o‘zi oldindan bashorat qilgan va obyektiv sharoitlar yoki tasodif tufayli “bashorat qilingan” kabi rivojlanishni olgan voqealarga murojaat qilishi mumkin. Professional bashoratchilar va folbinlar ko‘pincha umumiy shaklda ma’lumot berishga intilishadi, bu esa voqealarning rivojlanishidan qat’i nazar, keyinchalik uni o‘zlari uchun foydali bo‘lgan tarzda talqin qilish imkonini beradi. Ma’lumki, jamiyatdagi vaziyat qanchalik beqaror bo‘lsa, folbinlarga bo‘lgan talab shunchalik ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. -T.: O‘zbekiston, 2019.

2. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015. – 94 b.

3. Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Movarounnaxr, 2016. – 672 b.

4. Fedorov A.V. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost. Uchebnoye posobiye. – M., 2018.

TARIXIY TARAQQIYOTDA GUMANIZM G‘OYALARINING RIVOJLANISHI

SOVETLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA INSON HUQUQLARINING POYMOL ETILISHI: TARIX VA TAHLIL

Xaydarov Zaxriddinbobir Umarovich
Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi
Tel: +998941553556
E-mail: zahriddinbobirhajdarov@gmail. com

***Annotatsiya*:** *Ushbu maqolada Turkiston muxtoriyati qonga botirilgach Farg‘ona vodiysida boshlanib, butun Turkistonni qamrab olgan qurolli qarshilik kuchlarini tor-mor etish bahonasida tinch aholi ustiga uyushtirilgan qirg‘inbarot hujumlar yoritib berilgan. Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan jamoalashtirish va qatag‘onlik siyosatlarini amalga oshirish jarayonida inson huquqlarining poymol etilishi ishonchli manbalar asosida tahlil qilingan.*

Аннотация: *В этой статье после того, как автономия Туркестана была утоплена в крови, в Ферганской долине начались опустошительные нападения на мирное население, охватившие весь Туркестан под предлогом подавления сил вооруженного сопротивления. На основе достоверных источников анализируются нарушения прав человека в ходе реализации политики коллективизации и репрессий, проводимой советским правительством.*

Abstract: *In this article, after the autonomy of Turkestan was drowned in blood, devastating attacks on civilians started in the Ferghana Valley and covered the whole of Turkestan under the pretext of crushing the armed resistance forces. The violation of human rights during the implementation of collectivization and repression policies implemented by the Soviet government is analyzed on the basis of reliable sources.*

Kalit so‘zlar: *Istiqlol, mustaqillik, inson qadri, insonparvarlik, “mayda xalqlar”, jadidchilik, Turkiston muxtoriyati, istiqlolchilik, jamoalashtirish, quloqlashtirish, qatag‘onlik, “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi”.*

Ключевые слова: *Независимость, самостоятельность, человеческое достоинство, гуманизм, «малые народы», модернизм, автономия Туркестана, независимость, коллективизация, принуждение, репрессии, «Хлопковое дело», «Узбекское дело».*

Key words: *Independence, independence, human dignity, humanitarianism, “small nations”, modernism, autonomy of Turkestan, independence, collectivization, coercion, repression, “Cotton case”, “Uzbek case”.*

Istiqlol tufayli o‘zbek xalqining ko‘p ming yillik tarixini tiklash, xolisona tadqiq etish va uni xalqqa yetkazish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

O‘zbek xalqi istiqlolni tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritgan bo‘lsa-da, mustaqillik uchun olib borilgan sa’yi-harakatlar ildizi uzoq tarixga borib taqalganligini, yurt vatanparvarlari ozodlik yo‘lida yashirin va oshkora, zarur bo‘lgan holda esa qurol kuchi bilan kurash olib borganliklarini, mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini xolisona o‘rganish va uni keng jamoatchilikka asoslab berish imkoniyati paydo bo‘ldi. Tarixiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, uch ming yillik tarixga

ega o‘zbek davlatchiligi o‘z taraqqiyoti mobaynida, jamiyatda inson qadr topib, xalqi ulug‘lanib, uning manfaatlari ustunlik kasb etgan davrlarda yuksak taraqqiyotga erishganligini, aksincha bo‘lgan davrlarda esa boshi qoloqlikdan chiqmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sovet mustamlakachiligi davrida inson qadrining toptalishi, uning huquqlarining poymol qilinishi odatiy holga aylandi. 1917-yil voqealaridan keyin hokimiyatni diktatura yo‘li bilan egallab olgan sho’ro hukumati o‘z faoliyatining dastlabki davridanoq “mayda xalq”larni kamsitish, tahqirlash, ko‘p asrlik madaniyatini mensimaslik, “kichik xalq” vakillaridan yetishib chiqqan komil insonlarni istedodini bo‘g‘ish, qatag‘on qilish xollari ommaviy tus oldi.

1917-yilning 26-29-noyabr kunlari Qo‘qon shahrida o‘lka musulmonlarining IV favqulodda syezdi bo‘lib o‘tdi. 27-noyabr kuni syezd Turkiston Muxtoriyati tuzilganligini e’lon qildi. Turkiston Muxtoriyatini butun o‘lkada mahalliy aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi to‘g‘risida arxiv hujjatlari va milliy matbuot sahifalarida ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Jumladan, 1-dekabrda Namangan uyezdida qariyb 100 ming kishi ishtirok etgan namoyish bo‘lib o‘tdi. Namoyishchilarning bayroqlariga “Yashasun muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!” so‘zlari yozilgan bo‘lib, yig‘ilganlar Turkiston Muxtoriyati va uning Muvaqqat Hukumatiga sodiq ekanliklarini Qur’on bilan ont ichish orqali izhor etdilar [1].

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi va insonparvarlik siyosati yangi kommunistik tuzum tashkilotchilari bo‘lgan bolsheviklar tomonidan salbiy tarzda kutib olindi. Natijada Qo‘qonda tuzilgan Muxtor hukumat 1918-yilning fevral oyida qonga botirildi [2. B. 9].

Muxtoriyat tor-mor etilgach, bolsheviklar va arman dashnoqlari o‘lkada ko‘plab qirg‘inbarotliklar uyushtirdilar. Jumladan, arman dashnoqlari Namanganda ham 1500 dan ortiq kishini o‘ldirganlar [3].

Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgach, Farg‘ona vodiysida boshlanib, butun Turkistonni qamrab olgan milliy istiqlolchilik harakati yillarida o, tkazilgan ommaviy qirg‘in ulug‘ xalq vakillari tomonidan kichik xalqlarga nisbatan o‘tkazilgan ommaviy terrorning boshlanish davri bo‘ldi.

Bolsheviklar hukumati tomonidan qurolli qarshilik kuchlarini tor-mor etish bahonasida tinch aholi ustiga qirg‘inbarot hujumlar uyushtirildi. Chust, Yangiqo‘rg‘on tumanidagi Bekobod va Kalishoh aholisi ustiga uyushtirilgan bosqinlar buning yorqn misolidir.

Qurolli qarshilik harakatining g‘oyaviy rahnamolari odatda jadidlar va ulamolarning bilimdon va uddaburo vakillaridan iborat bo‘lib, qo‘rboshilar ularni o‘zlarining pirlari deb ataganlar. Namanganda ana shunday rahnamolardan biri kosonsoylik Nosirxon To‘ra Said Kamolxon To‘ra o‘g‘li bo‘lib, u Turkiston Muxtoriyatining asosiy tashkilotchilaridan biri edi. Ashurali Zohiriy uning bu boradagi o‘rniga yuksak baho bergan edi. Jumladan, Turkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyining chaqirilishi ham bevosita uning nomi bilan bog‘liq edi [4]. U Turkiston Muxtoriyati Milliy Majlisi a’zosi va hukumat maorif noziri lavozimlarida faoliyat yuritdi [5]. Keyinchalik maorifchi, diniy olim, tarixchi, siyosatchi, millatparvar siymo Sayyid Nosirxonto‘ra qatag’on qurboni bo’ldi.

Qurolli muxolifatga qarshi Qizil Armiyaning olib borgan qonli janglari aholi sonining keskin kamayib ketishiga olib kelgan. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, “bosmachi”larga qarshi olib borilgan olti yillik kurash davomida Farg‘ona vodiysida 800 ming kishi halok bo‘lgan [3. B. 79].

XX asr 20-yillarining oxirlaridan qishloqda yoppasiga jamoalashtirish sari yo‘l tutilib, jamoa xo‘jaliklarini tuzish boshlandi. Mazkur siyosatga qarshi bo‘lganlar esa o‘sha davr ta’biri bo‘yicha “quloq” deb ataladigan bo‘ldi.

Quloq qilinganlarning 40% i ayollar edi. Quloq qilinganlar ro‘yxatida 1yoshlik bolalarni ham ko‘plab uchratish mumkin [7]. Aksariyat yosh bolalar notanish sharoit va qiyinchiliklarga bardosh berolmay nobud bo‘lib ketdilar.

Quloqlar maxsus eshelonlarda Shimoliy Kavkaz, Sibir va Ukraina tomon jo‘natilib turilgan. Masalan, Namangandan Ukrainaning Xerson viloyati tomon yo‘lga chiqqan 620-eshelonda (1931-yil avgust-sentyabr) jami 382 oila, ya’ni 1566 kishi bo‘lib, shundan 646 tasi begunoh bolalar edi [8. B. 191].

Qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish davrida O‘zbekistonda 40 mingdan ortiq dehqon xo‘jaligi “quloq” qilinib, ulardan 31, 7 mingi qatag‘on etildi [9. B. 231].

Uning fojiali oqibati shu bo‘ldiki, minglab kishilar qirilib ketdi, milliy qishloq qashshoqlashdi, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish inqirozga yuz tutdi.

Mustabid sovet hukumati O‘zbekistonda uch marotaba qatag‘on siyosatini amalga oshirdi. Ushbu qatag‘onlarning birinchi bosqichi XX asr 20-30 yillarida yuz beradi. Xalq ommasining milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashiga esa shu xalq orasidan yetishib chiqqan vatanga millatga fidoiylar boshchilik qiladilar shu boisdan ham mustamlakachi jallodlar xalqning anashu ongli tashkilotchi va obro‘li fidoiylarni vaqti-vaqti bilan qatag‘on qilib «yaganalab turmasdan» o‘z maqsadlarini amalga oshira olmaydilar.

Qatag‘onlar 1937-1938 yillarga kelib eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Buning uchun mustabid hukumdor Stalin: «Sotsializim g‘alaba qilgani sayin sinfiy kurash kuchaydi» , degan «Nazariy asos» soldi va qirg‘inlarni amalga oshirishga bevosita rahbarlik qildi O‘zbekistonda «Milliy ittihod», «Milliy istiqlol» tashkilotlarga azo bo‘lgan deb «xalq dushmani», «vatan xoini» degan tuhmatlar bilan xalqni eng ko‘zga ko‘ringan ming-minglab kishilarini qamoqqa tiqdilar [10. B. 322].

20-yillar oxiri - 30-yillar boshlarida mustabid tuzumning jazolovchi qilichi mustabid tuzum kirdikorlariga qarshi fikr bildirgan milliy ijodkor ziyolilarning ko‘pgina vakillariga zarba berdi. Munavvar Qori Abdurashidxonov, Saidnosir Mirjalilov, Mahmud Xodiev(Botu), Ubaydulla Asadullaxo‘jayev, Ashurali Zoxiriy, Elbek, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Otajon Xoshimov, Usmon Nosir va boshqalar qatag‘onga uchradi [9].

1937-1938 yillardagi qatag‘onlik siyosati jarayonida ittifoq va respublikaning jazo organlari tomonidan o‘ylab topilgan soxta «ishlarda» ayblanib, «ko‘plab jamoat arboblari, xo‘jalik kadrlari, din vakillari, ziyolilar va boshqalar sudsiz-so‘roqsiz qamoqqa tashlandilar». Namanganlik ijodkorlardan I. Ibrat, U. Nosir, M. So‘fizoda, R. Mo‘min, L. Olimiy, S. Xoldorova; milliy rahbar kadrlardan I. Xidiraliev, B. Dadaboyev, I. Nizomboyev, M. Ermatov, N. Qoriyev, Sh. Shomansurov, M. Shohimardonov; xo‘jalik sohasidagi kadrlardan A. Xalilbekov, D. Egamberdiyev; harbiy kadrlardan M. Shomirboev, H. Rahmatov; din arboblaridan A. Mirhayitov, U. Sayidahmedov; oddiy jamoa xo‘jaligi a’zosi T. Rahimov, S. Sayidmatov, E. Shomansurov (1902-1937), H. Bobonazarov (1902-1937), A. Qoriyev (1894-1937), M. Mullajanov (1885-1937), A. Azizov (1905-1937), O. Hojimatov (1886-1937) kabi juda ko‘plab kishilar qatag‘on domiga tortildilar. Yuqorida nomlari zikr etilgan shaxslarning deyarli barchasi yetuk bilimli davlat va jamoat arboblari edilar [11. B. 58].

Qatag‘on qurbonlarining aksariyati sudsiz-so‘roqsiz yohud mavhum ayblar, turli tamg‘alar hamda «uchlik» qarori bilan otib tashlandi. Buni arxivda saqlanayotgan ayrim shaxslarga tegishli ayblov va oqlov hukmlariga oid hujjatlardan ham ko‘rish mumkin.

XX asr 40-yillarining oxiri 50-yillarining boshlarida siyosiy qatag‘onlikning ikkinchi davri amalga oshirildi. Urush tugashi bilan kompartiya badiiy adabiyot va san’atga taziyqni yana kuchaytirdi VKP Markaz Qo‘mining “Zvezda” va “Leningrad” jurnallari to‘g‘risida” 1948 chiqargan qarori adabiyot san’atga doir boshqa qarorlari ijodkor kuchlarga qattiq zarba bo‘ldi. Urush davrida badiiy yuksak asarlari bilan kishilarga ruhiy madad bergan bir qancha yozuvchilar nohaq qoralandi. Bir guruh yozuvchi va adabiyotshunoslar soxta siyosiy ayiblov va tuhmatlar bilan uzoq muddatlarga qamaldilar (yaxshiyamki o‘sha yillarda o‘lim jazosi bekor qilingan, oliy jazo 25 yil qilib belgilangan edi. Aks holda ular behudadan-behudaga otilib ketgan bo‘lardilar) [10].

1949-yil 25-iyunda O‘z KP(b) MQ ning byurosida O‘zbekiston yozuvchilari ishi muhokama qilindi. Bu masalaning maxsus ko‘rilishi respublikaning bir qator taniqli badiiy ziyolilari badnom qilinishiga sabab bo‘ldi. MQ byurosi muhokama etilgan masala yuzasidan qabul qilingan qarorda o‘zbek yozuvchilaridan ayrimlarining ijodida “millatchilik va milliy mahdudlik, feodal o‘tmishni keng suratda ideallashtirish va eski feodal madaniyati oldida qullarcha sajda qilish elementlari mavjuddir” deb ta’kidlanadi.

O‘z KP(b) MQ byurosida boshlangan milliy badiiy ziyolilarni badnom qilish ijodiy tashkilotlarda va matbuot sahifalarida ham davom etdi. 1951-yil avgustda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining VI plenumi bo‘lib o‘tdi. Plenum hay’ati raisining maruzasida ayrim yozuvchilar va shoirlarning ijodidagi mafkuraviy tusdagi kamchiliklar ochib tashlandi. “Turob To‘laning ijodida burjua millatchilik ruhidagi jiddiy mafkuraviy buzilishlar, ayniqsa, xosdir”. So‘ngra “Sobir Abdullaning feodal o‘tmishni ideallashtiruvchi “Alpomish ”pyesasining zararli” ekanligi, M. Oybekning “Oltin vodiydan shabadalar” romanining birinchi varianti haqida I. Sulton yozgan maqolaning faqat maqtovdan iborat ekanligi qayd etib o‘tildi. Plenum qatnashchilarining nutqlari ham ana shunday “fosh etuvchi” ruhda bo‘ldi. Ularda M. Oybekning “qo‘pol mafkuraviy xatolari”, R. Bobojon, G‘. G‘ulom, Zulfiya, Asqad Muxtor hamda boshqa bir qator yozuvchi va shoirlarning ijodida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ko‘rsatib o‘tildi [12].

XX asr 40-yillar oxiri – 50-yillar boshlari stalinizm davrida mustabid tuzum o‘z xalqiga qarshi o‘tkazgan ommaviy qatag‘onlarning navbatdagi bosqichi bo‘ldi. Bu qatag‘onlar SSSRda 1930 yildan 1953 yilgacha 3. 778. 234 kishiga daxldor bo‘ldi, ular huquq organlari tomonidan ”aksilinqilobchi” va “xalq dushmani” sifatida ayblangan edilar, ulardan 786. 098 kishi otib tashlandi.

Mustabid tuzumning qonli supurgisi o‘sha davrda O‘zbekiston bo‘ylab ham supurib o‘tildi. “Ayniqsa, mash’um 1937-1953-yillarda sodir etilgan bedodlikni tasavvur etish uchun O‘zbekiston bo‘yicha qariyb 100 ming kishi qatag`onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya” [13].

1952-yilning 21-22-fevralida bo‘lib o‘tgan O‘zKP (b) MKning X plenumida bir necha shoir va yozuvchilar nohaq qoralandilar. Ular qatorida Nabixon Xo‘jayev (Chustiy) (1904-1983-yy.) ham badnom etildi. Qatag‘onga uchragan ziyolilardan yana biri Chustlik Abdulhamid Mahdum Devona (1877-1953) edi.

Ushbu davr qatag‘onlariga ba'zan oddiy fuqarolar arzimas bahonalar tufayli tortilgan holatlar ham bo‘lgan. Masalan, 1953 yil Stalin dafn etilayotgan chog‘da mamlakatdagi barcha radiokarnaylar «dohiy» bilan vidolashuv daqiqalari reportajini berib borganlar. Ushbu chog‘da Stalin bilan so‘nggi bor vidolashuv uchun barcha tik turishga majbur bo‘lgan. Shu onda Namangan shahridagi 22-maktab direktori Boymirza Mirzayev ham kasal bo‘lishiga qaramay, kolxoz radouzeli yoniga kelib, ommaga qo‘shilgan. Biroq, tik turishga yaramay, daraxtga suyanib o‘tirib

olgan. Bu harakati tufayli u «dohiy»ga nisbatan hurmatsizlik qilganlikda ayblanib, 6 yil qamoq jazosiga hukm qilingan [10].

O‘tgan asrning birinchi yarmida yuz bergan bedodliklar bu bilan ham yakun topmadi, mustabid tuzum XX asr 80-yillarida yana bir karra qatag‘onlik supurgisini supurib o‘tdi. Xullas Sho‘ro tuzumining mustamlakachilik o‘tkazib turilgan ommaviy qirg‘in va qonli qatog‘onlik siyosatlari bilan to‘ldirib borildi [14. B. 165]. O‘zbekistonda , ”paxta ishi”, “o‘zbek ishi” degan uydurmalar to‘qilib, yuzlab, minglab oilalar jabr ko‘rdi.

«Paxta ishi» bo‘yicha qancha odamning qamoqqa olinganligi to‘g‘risida turlicha ma'lumotlar bor. Ba'zi manbalarda 22 ming, boshqasida 30 ming, hatto 48 ming odam hibsga olinganligi ko‘rsatiladi. 20-asrning 70-80 yillarda O‘zbekistonda Kompartiya va sovetlar hukumatining fidoiy rahbarlari sifatida tanilgan I. Usmonxo‘jayev, Xudoyberdiyev, Aytmurotov, Salimov, R. Abdullayeva, Tursunov, Musaxonov, Yaxyoyev, Norov, Sattrov, B. Rahimov, A. Karimov, X. Norbo‘taev singari arboblari qamoqxonalarda misilsiz qiynoq va azoblarga solindilar.

Markazdan kelgan “mehmonlar” O‘zbekistonning viloyatlariga suvarakday tarqalishib ketishdi. Ularni joylarda eng nufuzli mehmon sifatida kutib olishdi. Ular vaziyat bilan yaxshilab tanishib olgach, “ishda qonunchilik” niqobi ostida o‘zlarining qabih niyatlarini amalga oshira boshladilar. Gdlyan birinchi galda joylardagi eng obro‘-e'tiborli kadrlarni qamashdan boshladi. Adolatli tekshirish o‘rniga u bir kishini qamab, uni o‘lguday qo‘rqitib, sen falonchiga shuncha pul berdim desang, seni qamoqdan ozod qilaman, degan yo‘l bilan vijdonli necha-necha kadrlarni xonavayron qildi. Jumladan, O‘zbekiston Markaziy Ko‘mitasining to‘rtta sobiq kotibi, O‘zbekiston hukumati raisi, Oliy sovet Prezidiumining rais muovini, yettita obkomning birinchi kotibi, bir qator raykom, gorkom partiya kotiblari hibsga olindi. Sobiq ichki ishlar vaziri Q. Ergashev, uning birinchi o’rinbosari G. Davidov va yana ikkita muovini, 8 ta ichki ishlar boshqarmalarining boshliqlari qamalib, ularga aybnomalar e'lon qilindi. Tergov zo‘ravonligiga bardosh berolmagan sobiq ichki ishlar vaziri Q. Ergashev va uning birinchi muovini G. Davidov o‘zlarini otib o‘ldirishdi. Qashqadaryo obkomining birinchi kotibi Boipov o‘zini o‘ldirdi.

Ushbu yillarda markaziy ro‘znoma va oynomalar oynayi-jahonda deyarli har kuni O‘zbekistonni badnom qiluvchi maqolalar chop etilar, ko‘rsatuvlar berilar. Bu qora ishga sobiq KPSS Markazi Qo‘mitasining kazo-kazo arboblari «moy» quyar edi. Unda Respublikaning sobiq rahbariyati – N. Xudoyberdiyev, Y. Aytmuratov, T. Osetrov, N. Rajabov va boshqalar to‘g‘risida ketma-ket uydirmali chiqishlar uyushturildi [15. B. 12].

Oradan ko‘p o‘tmay “paxta ishi” ni chuqur o‘rganish yuzasidan maxsus taftish hayati tuzildi. Respublika viloyat va tumanlaridan olib kelingan ming jildlik “paxta ishi” Respublika oliy sudida qayta o‘rganib chiqildi. Gdlyanchilar respublikaga yetkazgan zarar miqdorini bir necha yuz barobar bo‘rttirib ko‘rsatgani hamda “paxta ishi” bo‘yicha sudlanganlarning asosiy qismi tergov hujjatlari bo‘yicha ham, tergov xulosasi va sud hukmi bo‘yicha ham biror so‘m o‘zlashtirmagani aniqlandi [15. B. 223].

Taftish hay’ati xulosalari sobiq SSSR Bosh prokurori, SSSR oliy sudining raisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yo‘llangan rasmiy maktubda batafsil bayon etilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Rossiya mustamlakachilik sahifalari vaqti-vaqti bilan o‘tkazilib turilgan ommaviy qirg‘in va qonli qatag‘onlik siyosatlari bilan to‘ldirib borildi. Sovet tuzumining ushbu yovuz siyosati nafaqat o‘zbek xalqi, balki juda ko‘plab xalqlar qalbida o‘zining salbiy oqibatlarini qoldirdi. Zotan, minglab odamlar nobud bo‘ldi, ko‘plab oilalar barbod bo‘ldi. Qonunlar qo‘pol ravishda buzilib, insoniy tuyg‘ular toptaldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Намангандан // Улуғ Туркистон. 1917, 13 декабрь.
2. Норқулов Н. Мухториятнинг тугатилиши // Фан ва Турмуш. -1990. -№8. -Б. 9.
3. Қосимов Й. Қора кўзойнак билан ёзилган тарих. – Наманган, 1993.
4. Эрктурк М. Х. Саййид Носирхонтўра // Турон тарихи. -1994. -№3. -Б. 21.
5. Аъгзамходжаев С. С. Из истории борбы за автономию Туркестана. Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. – Т. : Фан, 1996. -Б. 32.
6. Ражабов Қ. Жадидлар-истиқлолчилик ҳаракатининг ғоявий раҳнамолари // Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. – Т. : Элдинур, 1998. – Б. 13-14.
7. НВДА Чуст туман филиали, 339-фонд, 1-рўйхат. 1-2 иш.
8. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: Жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). -Т. : Шарқ, 2003. ;– Б. 191, 231.
9. Жўраев М. ва бошқалар. Ўзбекстоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ. 2000. – 688 бет.
10. Халилбеков А. Суронли йиллар, армонли диллар//Наманган ҳақиқати. 2000 йил 7 октябрь
11. Ҳайдаров З. У. 30-50 йиллардаги қатағонлик сиёсати ва унинг оқибатлари (Наманган вилояти мисолида) //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. -2001-№6. -Б. 58.
12. Қизил Ўзбекистон. 1951 йил 28 август
13. Каримов И. А. “Шаҳидлар хотираси” ёдгорлик мажмуининг очилишига бағишланган маросимда сўзлаган нутқи. // Халқ сўзи. 2000 йил, 13-май.
14. Мамажонов Н. Акс-садо. Шарқ юлдузи. -1989. – №9. – Б. 165.
15. Қаҳрамонов Т. Иблис исканжасида . – Тошкент: “Ёзувчи”, 1999. – Б. 12.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON XALQINING MUDOFAA FONDIGA QO‘SHGAN HISSASI

(Frontorti o‘zbek milliy matbuoti ma’lumotlari asosida)

Akbarov Raxmatillo Murtozali o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Tel: +998-93-057-43-20

E-mail: Saidakbar01@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O’zbekiston xalqining mudofaani mustahkamlash uchun bergan moddiy yordami, aholi tomonidan harbiy zayomlar hamda lotoreyalar sotib olinishi va boshqa shu kabi jarayonlar urush yillarida nashr qilingan o’zbek milliy gazetalari sahifalaridagi ma’lumotlar asosida yoritib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье освещается материальная помощь, оказанная народом Узбекистана в годы Второй мировой войны для укрепления обороны, приобретение населением военных займов и лотерей и другие подобные процессы на страницах узбекских национальных газет, изданных в годы войны.*

Abstract: *In this article, the financial support given by the people of Uzbekistan to strengthen the defense during the Second World War, the purchase of military bonds and lotteries*

by the population, and other similar processes are covered based on the information from the pages of Uzbek national newspapers published during the war years.

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urushi matbuoti, o’zbek milliy matbuoti, harbiy zayomlar, urush yillaridagi lotoreyalar, Mudofaa jamg‘armasi, “O‘zbekiston kolxozchisi” nomidagi tank kolonnasi, o’zbek xalqining mudofaa fondiga yordami.*

Ключевые слова*: пресса Второй мировой войны, узбекская национальная пресса, военные облигации, лотереи военных лет, Фонд обороны, танковая колонна имени “колхозник Узбекистана”, помощь фонду обороны узбекского народа.*

Keywords*: press of the Second World War, Uzbek national press, military bonds, lotoreyas of the war years, Defense Fund, tank column named after the “collective farmer of Uzbekistan”, assistance to the Defense Fund of the Uzbek people.*

Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq Ittifoqning barcha respublikalari qatori O‘zbekiston xalqi ham fashizm ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaga katta hissa qo‘shdi. O‘zbek jangchilari frontda mislsiz jasorat va qahramonlik ko‘rsatgan bo‘lsa, asosiy tarkibi ayollar, qariyalar va yosh bolalardan iborat bo‘lgan ishchi va kolxozchilar frontortida mamlakat mudofaasi uchun betinim mehnat qildi. Urushning og‘ir vaziyatiga qaramay front yaqinidan ko‘chirib keltirilgan fuqarolar va qarovsiz bolalarga insonparvarlik yordamini ko‘rsatdi.

Bundan tashqari mamlakat mudofaasini kuchaytirish va bu orqali dushman ustidan to‘liq g‘alabaga erishish uchun bisotidagi barcha narsani zayom va lotoreyalar sotib olish, jangchilarga oziq-ovqat va issiq kiyimlar yuborish, tank kolonnasi va aviaeskadriliya qurish uchun mablag‘ yig‘ish va boshqa ko‘rinishlarda taqdim qildi.

Urush yillaridagi O‘zbekistonning mudofaa fondiga qo‘shgan hissasi haqida frontortida nashr qilingan o‘zbek tilidagi gazetalarda juda ko‘p ma’lumotlar uchraydi. Mazkur ma’lumotlariga tayanib shuni aytish mumkinki, urush yillarida O’zbekiston aholisi frontni moddiy jihatdan qo’llab quvvatlash mumkin bo’lgan bisotidagi deyarli barcha narsani mudofaa jamg’armasiga topshirgan.

Jumladan, “Stalin haqiqati” gazetasining berilgan ma’lumotga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda 1942-yilning 1-martigacha mamlakatni mudofaa qilish fondiga 57 million 327 ming so‘m pul, 56 million 327 ming so‘mlik davlat zayomlari obligatsiyalari, 38,457 gramm oltin va kumush, 2 million 777 ming 518 kilogramm chigitli paxta, 18 ming 462 dona teri, 53 ming 471 kilogramm sabzavot va meva, 30 ming 425 kilogramm qora va rangli metall, 17 ming 962 kilogramm pilla, 3076 sentner don va ko‘pgina mahsulotlar tushgan.[1]

Ko’rilayotgan davrda aholining mudofaa fondiga mablag‘ yig‘ish jarayonini tashkillash va rivojlantirishda milliy matbuotda olib borilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari ham muhim omil bo‘lgan.

Milliy matbuot sahifalarida “*Har bir so‘m pul, yovga ajal bo‘lajak*”, “*Dushmanni so‘m bilan ham, mehnat bilan ham uramiz*”, “*Dushmanni qo‘rg‘oshin bilan ham, so‘m bilan ham uramiz!*”, “*Zayomga yozilish har bir sovet grajdanining vatanparvarlik burchidir!*” kabi kishilar qalbini junbushga keltiradigan shior, chaqiriq va iboralarning matbuotda berib borilishi fuqarolarning harbiy zayomlariga yozilishida kuchli turtki bergan desak xato bo‘lmaydi. Ammo, bu fikrlar o’zbek xalqining vatanparvarligini, insonparvarligini also shubha ostiga qo’ymaydi. Balki, urush yillarida fashizm ustidan qozonish uchun mudofaa jamg’armasini tashkil etish va ushbu jarayonlarni kuchaytirishda O’zbekiston xalqining ko’ngillilik asosidagi harakati yetakchilik qiladi.

Mudofaa jamg‘armasi tuzish umumxalq harakatiga o‘zbekistonliklar o‘zlari muhtoj ekanligiga qaramasdan katta hissa qo‘shdilar. 1941-1945 yillar davomida mudofaa jamg‘armasiga respublika mehnatkashlari pul va davlat zayomi obligatsiyalari shaklida 650 mln so‘mdan ziyod mablag‘ topshirdilar. 22 mln so‘mdan ortiq qimmatbaho buyumlar, 55 kg.ga yaqin qimatbaho metallar topshirdilar. Ana shu mablag‘larga 3 ta bronepoyezd, aviaeskadrilya, tank kolonnalari va boshqa texnika qurilib, frontga jo‘natildi. O‘zbek xalqiga hos insonparvarlik fashistlardan ozod yetilgan hududlarda xalq xo‘jaligini tiklashda bergan yordamida o‘z ifodasini topdi. 1943-yilda O‘zbekiston kolxoz va sovxozlari ozod qilingan tumanlarga 1152 traktor, 25 ta kombayn, 1138 ta plug 379 ta seyalka va boshqa texnika jo‘natdilar. O‘zbekistonliklar tumanlardagi maktablar va boshqa sohalar uchun pul va moddiy vositalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari, kitoblar, oziq-ovqatlar, kiyim bosh, poyafal va shu kabilarni yetkazib berdilar.[2]

Urush yillarida Qizil Armiyani kuch-qudratini oshirish, qurol-yaroqlarni ko‘paytirish uchun Sovet Ittifoqida, shu jumladan O‘zbekistonda tank kolonnalari va aviaeskadriliyalar qurish uchun ommaviy ravishda mablag‘lar yig‘ish harakati avj oldi.

Xususan, ushbu jarayonni birgina Namangan viloyati misolida ko’radigan bo’lsak, “Sovet O‘zbekistoni” nomidagi tank kolonnasi va aviaeskadriliyasini qurish uchun viloyat bo‘yicha 1942-yil 18-dekabrgacha davlatga 22 million 834 ming so‘m pul topshirildi. Jumladan, Namangan rayonining kolxozchilari 4 million 500 ming, Chust rayoni 3 million 550 ming, Kosonsoy rayoni 2 million 652 ming, To‘raqo‘rg‘on rayoni 2 million 274 ming, Uychi rayoni 2 million 458 ming, Yangiqo‘rg‘on rayoni 2 million 700 ming, Pop rayoni 1 million 459 ming, Uchqo‘rg‘on rayoni 1 million 832 ming, Norin rayoni 1 million 404 ming so‘m topshirganlar.[3]

Respublikada tank kolonnalari va aviaeskadriliyalar qurish uchun ommaviy ravishda mablag‘lar yig‘ish harakati ayniqsa 1943-yilda kuchaygan. Misol uchun, “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1943-yil 6-yanvar sonida mamlakat kolxozchilaridan “O‘zbekiston kolxozchisi” nomidagi tank kolonnasi va aviaeskadriliyasini qurish uchun davlat bankiga 292 million 566 ming so‘m [4], 8-yanvarda 295 million 519 ming so‘m [5], 10-yanvarda 300 million 69 ming so‘m [6] miqdorida mablag‘ topshirilgani xabari beriladi. Bu summaning oblastlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha bo‘lgan: Samarqand oblastida 44 mln 183 ming, Toshkent oblastida 39 mln 715 ming, Andijon oblastida 39 mln 525 ming, Namangan oblastida 37 mln 913 ming, Buxoro oblastida 37 mln 567 ming, Farg‘ona oblastida 33 mln 170 ming, Surxondaryo oblastida 27 mln 582 ming, Qoraqalpog‘iston ASSRda 22 mln, Xorazm oblastida 18 mln 414 ming so‘m topshirilgan.[6]

Qizil O‘zbekiston gazetasining 1943-yil 12-yanvar sonida “dohiy” Stalinning O‘zbekiston kolxozchilariga tashakkuri e’lon qilinganidan keyin Respublikada turli nomdagi tank kolonnalari va aviaeskadriliyalar qurish uchun mablag‘ to‘plash ishi avj olib ketdi. Jumladan, “Dohiyimizning tashakkuridan ilhomlanib” sarlavhasi bilan matbuot yuzini ko‘rgan maqolada xabar berilishicha, Samarqand oblast Narpay rayonidagi 1-MTSning traktorchi va kombaynchilarining tashabbusi bilan “O‘zbekiston traktorchisi” nomida tank kolonnasi qurish uchun mablag‘ to‘plash boshlangan bo‘lsa, Buxoro oblastining Kogon rayoni tibbiyot xodimlari “O‘zbekiston medigi” nomli aviaeskadriliya qurish tashabbusi bilan chiqqanlar.[7]

Matbuot materiallarini tahliliga ko‘ra, O‘zbekiston mehnatkashlari tomonidan taqdim qilingan pullar hisobiga “Sovet O‘zbekistoni”, “O‘zbekiston komsomoli”, “O‘zbekiston pioneri”, “Sovet san’ati xodimi”, “SSSR ning mehnat rezervlari”, “Qo‘qon xodimi” va boshqa nomlarda tank kolonnalari va aviaeskadriliyasini tashkil etish uchun mablag‘lar yig‘ilganini ko‘rish mumkin. Respublika komsomollari va yoshlari “O‘zbekiston kolxozchisi” nomidagi tank

kolonnalari qurish uchun avvalgi topshirgan mablag‘alariga qo‘shimcha ravishda “O‘zbekiston komsomoli” nomli tank kolonnasi qurishga 1943-yilning 13 yanvaridan 25 yanvarigacha 12 million 188 ming so‘m to‘plab Davlat bankiga topshirganlar.[8]

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining raisi muftiy Eshon Boboxon ibni Abdumajidxonning Stalinga yo‘llagan maktubi va bunga Stalin nomidan yuborilgan javob xati matbuotda nashr qilingan. Bu maqolada keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, SSSRning mudofaa fondi uchun O‘rta Osiyo va Qozog‘iston ruhoniylari va taqvodorlari 1944-yil mobaynida mehnat qilib topgan o‘z mablag‘laridan 1 mln 280 ming so‘m pul, davlat zayomlarining 117 ming so‘m miqdoridagi obligatsiyalari, 63 tonna g‘alla va 90 bosh chorva mollari to‘plab mudofaa fondiga topshirganlar. Bu mablag‘lardan 790 ming so‘mi tank kolonnasi qurish uchun, 490 ming so‘mi frontchilarning oilalariga yordam fondiga topshirilgan [9].

SSSR Davlat Banki O‘zbekiston kontorasining boshqaruvchisi P. Kolchanovning Qizil O‘zbekiston gazetasining 1943-yil 24-aprel sonida –№.90 (5690). –B.2 bergan xabariga ko‘ra, “Davlat banki bo‘limlarida hususiy kishilardan omonat pullar qabul qilish haqida” nomli xabarda SSR Ittifoqi Xalq Komissarlari Soveti SSSR Davlat Bankiga, Davlat bankining rayon markazlaridagi bo‘limlarida hususiy kishilardan omonat pullari qabul qilishga ruhsat berdi. Davlat Banki bo‘limlari hamma fuqarolardan kam deganda 3000 so‘m miqdorida omonat pullar qabul qiladi. Davlat Bankida omonat pullarning saqlanganligi uchun pul qo‘yuvchilarga yiliga 3 %, miqdorida, ma’lum muddatga pul qo‘yganlarga 5 % miqdorida foyda to‘lanishi ma’lum qilinadi. Xabarda eslatib o‘tiladiki, “Jamg‘arib qo‘ygan pullari bo‘lgan grajdanlarning bu pullarni o‘z yonlarida olib yurish uchun hech qanday ehtiyoj yo‘q. Pulni cho‘ntakda yoki sandiqda saqlash ba’zi jihatlardan havfli ekanligini ko‘rsatib o‘tish kerak. Halol mehnat qilib topilgan bu pullarning yo‘qolib ketishi, o‘g‘irlanishi yoki tabiiy ofat vaqtlarida nobud bo‘lishi mumkin. …..”[10]

1943-yil 1-aprelgacha O‘zbekistonda tank va aeroplanlar qurish uchun Qizil Armiya fondiga mablag‘ to‘plash to‘la bo‘lmagan ma’lumotlarga qaraganda 368 million 935 ming so‘mni tashkil etgan.[11]

Ikkinchi jahon urushi yillarida mudofaaga mablag‘ yig‘ishning yana bir ko‘rnishi – harbiy zayomlarga yozilish edi.

1943-yil 5-iyunda 12 mlrd so‘m miqdorida Ikkinchi davlat harbiy zayomi 9-iyun kechqurungacha 20 milliard 121 million so‘m miqdorida tarqaldi. Bu raqam zayomning 8 milliard 121 million ortiq tarqalganini anglatadi [12]. 9-iyunda O‘zbekistonda zayomga yozilishning umumiy miqdori 865 million 852 ming so‘mga yetgan. Bu tarqatishga mo‘ljallangan miqdordan 78 million so‘mdan ortiq bo‘lgan. Zayomga yozilish 4 kun davomida Respublika bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichga ega bo‘lgan:

Toshkent shahrida – 107 million 203 ming;
Toshkent oblastida – 120 million 509 ming;
Andijon oblastida – 105 million 657 ming;
Farg‘ona oblastida – 99 million 95 ming;
Namangan oblastida – 71 million 598 ming;
Buxoro oblastida – 69 million 107 ming;
Qoraqalpog‘iston ASSRda – 48 million 902 ming;
Qashqadaryo oblastida – 40 million 23 ming;
Surxondaryo oblastida – 38 million 805 ming so‘mlik zayomga yozilingan.[13]

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, Ikkinchi jahon urushi yillarida gazetalar targ’ibot vositasi sifatida aholini frontga yordam ko’rsatishga, uni qo’llab-quvvatlashga chaqirib, o’ziga hos jarchi, xabarchi vazifalarini bajargan. Shu boisdan, O’zbekiston xalqining mudofaa fondini tashkil etish tashabbusi hamda mudofaa uchun ko’rsatgan buyuk hissasi haqida urush yillarida nashr qilingan gazetalardan ko’plab ma’lumotlar olish mumkin;

Ikkinchidan, O’zbekiston xalqi urush yillarida mudofaa uchun ko’rsatgan yordami – ko’ngilli ravishda Qizil Armiya uchun issiq kiyimlar, oziq-ovqat yuborish, xususiy qimmatbaho buyumlar, qishloq xo’jalik mahsulotlari, chorva mollarini davlatga topshirish, tank kolonnasi va aviaeskadriliya qurish uchun mablag’ to’plash, harbiy zayom va lotoreyalar sotib olish, bisotidagi ortiqcha pullarni davlat bankalariga omonat sifatida topshirish va boshqa ko’rinishlarda amalga oshirilgan;

Uchinchidan, Respublikada avj olgan mudofani moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlash jarayonlarida mamlakatning barcha hududlari hamda hamma qatlami faol ishtirok etgan. Bu jarayonlardan hattoki musulmon tashkilotlari ham chetda qolmagan.

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, urush yillarida O’zbekiston xalqi nafaqat shonli farzandlarini frontga yubordi, frontortida mislsiz mehnat qildi balki, o’zi muhtoj bo’lishiga qaramay mudofaa fondiga faol tarzda yordam ko’rsatish orqali fashizm ustidan qozonilgan buyuk g’alabaga ulkan hissa qo’shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мамлакатни мудофаа қилиш фондига. // Сталин ҳақиқати. –№.59 (2198). 1942, 11 март.

2. Сталин ҳақиқати. –№.292 (2431). 1942, 19 декабрь. –Б.2

3. http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14426-ikkinchi-jahon-urushi-yillarida-o-zbek-xalqining-fashizm-ustidan-qozonilgan-g-alabaga-qo-shgan-hissasi

4. Қизил Ўзбекистон. –№.5 (5605). 1943, 6 январъ.

5. Қизил Ўзбекистон. –№.7 (5607). 1943, 8 январъ.

6. Қизил Ўзбекистон. –№.9 (5609). 1943, 10 январъ.

7. Қизил Ўзбекистон. –№.14 (5614). 1943, 17 январъ.

8. Қизил Ўзбекистон. –№.27 (5627). 1943, 3 февралъ.

9. Қизил Ўзбекистон. –№. 227 (6139). 1944. 17 ноябрь.

10. Қизил Ўзбекистон. –№.56 (5690). 1943. 24 апрель.

11. Ўзбекистон меҳнаткашлари танк ва аэропланлар қуришга 368 миллион 935 минг сўм топширдилар // Қизил Ўзбекистон. - №. 79 (5679). 1943, 9 апрель.

12. ССР Иттифоқи Молия Халқ Комиссарлигининг ахбороти. // Ленин йўли. –№.122 (3450). 1943, 11 июнь.

13. Ватанни ҳимоя қилиш учун 866 миллион сўм. // Ленин йўли. –№.122 (3450). 1943, 11 июнь.

14. Akbarov Rahmatillo Murtozali O‘G‘Li. (2023). COVERAGE OF THEATER ACTIVITIES IN UZBEK NATIONAL PRESS DURING WORLD WAR II. *International Journal Of History And Political Sciences*, *3*(06), 21–28. https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue06-05

15. Акбаров, Р. «Вопрос электрификации Узбекистана в годы Второй мировой войны (по данным узбекской национальной прессы)». Актуальные проблемы истории

Узбекистана, т. 1, вып. 1, январь 2023 г., сс. 443-55, https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16527.

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK QADRYATLARINING SHAKLLANISHINI TARIXIY ILDIZLARI

Risliqov Rasuljon
Namangan davlat universiteti tarix yo’nalishi II-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimiz tuprog’ida istiqomat qilib kelayotgan xalqlarda millatlararo munosabatlarida hamjihatlik va bag’rikenglik qadryatlarini shakllanishining tarixiy ildizlari, tabiiy-geografik, siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillarining o’rni haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so’zlar: *milliy birlik, tarixiylik, touvlik, uyushqoqlik, tolerantlik.*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения об исторических корнях формирования ценностей солидарности и толерантности в межнациональных отношениях среди народов, проживающих на земле нашей страны, а также о роли естественно-географических, политических, социальные и культурные факторы.*

Ключевые слова: *национальное единство, историчность, единство, организация, толерантность.*

Abstract: *This article provides information about the historical roots of the formation of the values of solidarity and tolerance in inter-ethnic relations among the peoples living on the soil of our country, as well as the role of natural-geographical, political, social and cultural factors.*

Key words: *national unity, historicity, unity, organization, tolerance.*

O‘zbekiston hududi tarixan ko‘plab millatlarning kesishma nuqtasi bo‘lgan va yirik savdo yo‘llari - jumladan, Buyuk Ipak Yo‘lida joylashganligi sababli turli xil etnik guruhlar o‘rtasida muloqot va almashinuvlar yillar davomida shakllanib borgan. Ushbu tajriba millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikning tarixiy ildizlarini tushunishda muhimdir.

Buyuk Ipak Yo‘li va Savdo: O‘z yoki mamlakatlarni tutash o‘tkazib bo‘lgan qadimiy caravan yo‘llari orqali kelib-ketuvchi savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va san’atkorlar turli xil madaniyatlar, tillar, dinlar va an’analarni o’z ichiga olgan.

Diniy Bag‘rikenglik: O‘zbekiston hududi Islom ta'sir doirasiga kirgan, ammo uning oldidan ham Zardushtiylar, Buddizm va Xristianlik kabilardan o‘rin olgan dinlar ham mavjud bo‘lgan. Bularning barchasi, shuningdek, Islom dini davrida ham, mintaqada diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishga yordam bergan.

Ko‘pchilik Millet Tizimi: O‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida hukmronlik qilgan turk-musulmon davlatlarida ko‘pincha "millet" tizimi qo‘llanilgan, bu esa turli etnik va diniy guruhlarga o‘zlarining diniy qonun-qoidalari va odatlariga amal qilish imkonini berib, ularning o‘zini o’zi boshqarishini qo‘llab-quvvatlagan.

Madaniyat Almashinuvi: Oliy maktablar, Medrese va ilmiy markazlar, shuningdek san’at va adabiyot shakllanishida turli millat vakillarining hissasi, mintaqaning boy madaniy merosini yaratishda o‘zaro ta'sirchanlikni ta'minlagan.

Jadidchilik Harakati: Jadidchilik harakati Turkistondagi millatlararo munosabatlarni yangi yo‘nalishda rivojlantirishga urg‘u berib, mahalliy ta'lim va ma’rifat darajasini oshirishga harakat qilgan. Bu madaniyatlararo dialog va o‘zaro tushunishga olib kelgan.

Sovet Davri: Sovet hukumatining millatlararo siyosati bir tomondan, "dostlik" va "hammadan tengligi" g‘oyalarini targ‘ib qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ko‘pincha milliy o‘zligini ifodalashga va madaniy o‘ziga xosliklarni rivojlantirishga cheklovlar qo‘ygan.

Mustaqillik Davri: O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglikni mustahkamlashni davlat siyosatining muhim qismiga aylantirdi. Bu, o‘z navbatida, xalqlararo do'stlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekistonning bugungi millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik madaniyati ko‘p millatli va diniy aholining uzoq yillar davomida yashab kelgan tarixiy tajribasidan olinadi. Bu ildizlar bugungi kunda ham respublikaning turli xil etnik va madaniy guruhlari o‘zaro kelishuv va hamkorlikda yashashlarida namoyon bo‘ladi.

O'zbekiston hududida turli xalqlar va millatlar asrlar davomida tinch va hamjihatlikda yashab kelgan. Bu yurtda yashagan xalqlar baynalmilalchilik va bag'rikenglik an'analarini qadimdan rivojlantirgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, O'rta Osiyo mintaqasida eramizdan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan boshlab turli qabilalar, etnoslar va madaniyatlar o'rtasida barqaror madaniy-iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lgan. Bu yerlarda turli dinlar, tillar va an'analar bir-biri bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib borgan. Jumladan, O'rta Osiyo hududi Ipak yo'li tizimlari orqali jahon sivilizatsiyalari o'rtasida muhim madaniy va iqtisodiy aloqalar o'choq'i bo'lib xizmat qilgan.

Keyinchalik, bu mintaqada turkiy, eron, semit va boshqa elatlarning davlatlari va madaniyatlari shakllanib rivojlanib borgan. Ular o'rtasida tinchlik va hamkorlik muhiti hukm surib, bir-birini boyitib, umumiy madaniyatni yaratishga hissa qo'shgan. Bu esa o'z navbatida millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik an'analarining mustahkamlanib borishiga xizmat qilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu borada yangi sifat bosqichiga o'tdi. Davlat siyosati darajasida millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillari mustahkamlandi. Bugungi kunda O'zbekistonda turli millat va elatlarning vakillarining bir oila bo'lib yashashi davom etmoqda.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik an'analarining rivojlanishiga quyidagi asosiy omillar xizmat qilgan:

1. Geografik joylashuv va Ipak yo'li:

- O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududi, qadimdan Sharq va G'arb madaniyatlari kesishgan joy bo'lib, bu yerda turli xalqlar va madaniyatlar to'qnashib, o'zaro ta'sir va almashinuv sodir bo'lgan.
- Ipak yo'li tizimlari orqali O'rta Osiyo xalqlari jahon sivilizatsiyalari bilan faol aloqada bo'lgan. Bu esa madaniy va etnik jihatdan rang-barang muhitning shakllanishiga olib kelgan.

2. Davlat tuzilmalari va siyosiy barqarorlik:

- Tarixan O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida turli davlatlar va siyosiy tuzilmalar shakllanib rivojlangan. Bu davlatlarda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik siyosati olib borilgan.
- Siyosiy barqarorlik sharoitida turli xalqlar vakillari bir-biri bilan mustahkam aloqada bo'lish, hamkorlik qilish, o'zaro hurmat va qabul qilish muhitini vujudga keltirgan.

3. Diniy bag'rikenglik an'analari:

- O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida islom dini bilan bir qatorda, buddizm, masihiylik va boshqa dinlar ham yoyilgan. Diniy bag'rikenglik an'analari shakllangan.

- Diniy ehtiqodlar va marosimlarda turli xalqlar vakillari hamkorlik va o'zaro hurmat muhitini yaratgan.

4. Madaniy yaqinlik va umumiy qadriyatlar:

- O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida qadimdan shakllangan umumiy madaniy va ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar mavjud bo'lgan.
- Ushbu umumiy qadriyatlar va an'analar millatlararo munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilgan.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar quyidagilar bo'lgan:

1. Mustamlakachilik siyosati:

O'rta Osiyo xalqlari ustidan olib borilgan Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi davrida milliy siyosat salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Milliy ozodlik harakatlarining bo'g'ilishi, milliy tili va madaniyatlarning cheklanishi, deportatsiya kabi siyosatlar millatlararo munosabatlarga salby ta'sir qilgan.

2. Siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar:

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi davrida yuzaga kelgan ba'zi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida millatlararo munosabatlarda muammolar yuzaga keldi.

Iqtisodiy qayta tuzilishlar jarayonida yuzaga kelgan salbiy holatlar, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va noroziliklar millatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

3. Etnik-madaniy farqlanish va diskriminatsiya:

O'zbekistonda turli millatlar va elatlar orasida ba'zi etnik, madaniy, tilga oid farqlanishlar mavjud bo'lgan.

Ayrim hollarda bu farqlanishlar etnik diskriminatsiya va notoziqliklarga sabab bo'lgan.

4. Ijtimoiy-psixologik omillar:

O'zbekistonda ba'zi xalqlar o'rtasida salbiy stereotiplar, milliy bag'rikenglik madaniyatining zaifroq rivojlanganligi kabi omillar muammolarga olib kelgan.

Ba'zi fuqarolar ongi va tafakkurida millatchilik, o'zgaruvchan milliy o'zlikni his qilish kabi holatlar saqlanib kelgan.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni yaxshilash va bag'rikenglik an'analarini yanada mustahkamlash uchun quyidagi asosiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Birinchidan, Davlat siyosati va qonunchilik: Konstitutsiya va qonunlarda millatlararo bag'rikenglik, tenglik va chegaralanmaslik tamoyillari mustahkamlangan; Milliy qadriyatlarni saqlash, milliy tillarni rivojlantirish, etnik guruhlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunlar qabul qilinmoqda; Diskriminatsiya va notoziqliklarga qarshi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchidan, Ijtimoiy-madaniy chora-tadbirlar: Turli millat vakillari, jumladan yetakchi ziyolilar o'rtasida muloqot, hamkorlik va madaniy almashinuv tadbirlari tashkil etilmoqda; Milliy madaniyat, san'at, ta'lim, ilm-fan va axborot sohalari rivojlantirilmoqda; Yoshlar o'rtasida bag'rikenglik va millatlararo hamkorlik ruhini shakllantirish ishlari olib borilmoqda.

3. Iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy integratsiya: Turli millat vakillari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik, investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda; Ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash orqali millatlararo munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda; Siyosiy, huquqiy va boshqa sohalarda milliy vakil-liklar tizimi yaxshilanmoqda.

4. Milliy-ma'naviy qadriyat va an'analarni saqlash: Turli millat va xalqlarning an'anaviy madaniy merosini saqlash va rivojlantirish ishlab chiqilmoqda; Diniy bag'rikenglik an'analari mustahkamlanmoqda; Yosh avlod o'rtasida millatlararo bag'rikenglik va bag'rikenglik g'oyalari targ'ib qilinmoqda.

Shu kabi davlat va jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar O'zbekistonda millatlararo totuvlik, hamkorlik va bag'rikenglik an'analarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллатлараро муносабатлар ва ҳорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси (кейинги ўринларда Дўстлик алоқалари қўмитаси) жорий архиви 1-варақ.

2. Бағрикенглик тамойиллари Декларацияси. 1995 йил 16 ноябрь, Париж.

3. Хайдаралиев Ш. А. Марказий Осиё минтақасида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашда халқаро ташкилотлар ва Ўзбекистоннинг ўрни (1991-2010 йиллар). Тарих фан. ном. … дисс. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2012. – 30 б.

4. Сайфуллаев Д. Б. Ўзбекистон Республикаси маданий дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши. Тарих фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 97 б.

5. Муртазаева Р. Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. – Тошкент: Go to print, 2020. – 343 б.

MISSIONERLIK HARAKATINING KELIB CHIQISHI VA UNING HOZIRGI BARQARORLIKKA XAVFI

Kenjayev Burgutali

Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Shavkatov Shohruh Shuhratbek o‘g‘li

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Tel: +99894 561 34 37

Email: shohruxbekshavkatov3437@gmail. com

Annotatsiya. *Maqolada globallashuv sharoitida missionerlik va prozelitizm tahdidlarini aniqlab, dinning zamonaviy jamiyatdagi roliga bag‘ishlangan. Muallif bu kabi hodisalar geosiyosiy manfaatlarga yo‘naltirilgan, milliy o‘zlikni begonalashtirishga olib keladigan ma’naviy-mafkuraviy xavf tug‘dirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, u madaniy va diniy qadriyatlarni himoya qilish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhimligini muhokama qiladi. Shuninhdek maqolada fuqarolik jamiyatini saqlab qolish uchun milliy istiqlol mafkurasi asoslarini joriy etishga chaqiradi.*

Kalit so‘zlar: *missionerlik, prozelitizm, ma'naviy xavfsizlik, globallashuv, milliy o'zlik, mafkuraviy immunitet.*

Аннотация. *Статья выявляет угрозы миссионерства и прозелитизма в условиях глобализации и посвящена роли религии в современном обществе. Автор подчеркивает, что подобные события направлены на геополитические интересы и ведут к отчуждению национальной идентичности, создавая моральную и идеологическую опасность. Он также обсуждает важность формирования идеологического иммунитета для защиты культурных и религиозных ценностей. В такой статье он призывает к внедрению основ идеологии национальной независимости в целях сохранения гражданского общества.*

Ключевые слова: *миссионерство, прозелитизм, духовная безопасность, глобализация, национальная идентичность, идеологический иммунитет.*

Annotation. *The article identifies the threats of missionary and proselytizing in the context of globalization and is devoted to the role of religion in modern society. The author emphasizes that such events are directed at geopolitical interests and lead to the alienation of the national identity, creating a moral and ideological danger. He also discusses the importance of building ideological immunity to protect cultural and religious values. In such an article, he calls for the introduction of the foundations of the ideology of national independence in order to preserve civil society.*

Key words: *missionary, proselytism, spiritual security, globalization, national identity, ideological immunity.*

“O‘tmishdan bizga ma’lumki, din insonlar ongiga ta’sir o‘tkazishning eng samarali usullaridan biri sifatida namoyon bo‘la boshlagan. O‘z navbatida, diniy ta’limotlar har qanday davlat va jamiyat hayotida madaniyat va ma’naviyatga kuchli ta’sir o‘tkazish orqali davlat va jamiyat miqyosida asosiy o‘rinni egallab kelgan. Dunyo miqyosida globallashuv jarayonida avj olib borayotgan ma’naviy tahdidlar, avvalo, mamlakat barqarorligi va jamiyat xavfsizligini ta’minlashda rahna solmoqda. Hozirgi kunda turli dinlar va konfessiyalar orasidagi eng asosiy to‘sqinlik bevosita missionerlik va prozelitizm harakatlari natijasida sodir bo‘lmoqda. Mazkur harakatlarni oldini olish va bartaraf etish dunyo miqyosidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolaveradi. ”[1]

Shu o‘rinda, missionerlik va prozelitizm tushunchalarining mazmun-mohiyati haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Missionerlik haqida so‘z yuritganda “missioner” tushunchasi avvalo, biror diniy guruh hamda diniy tashkilot tomonidan o‘zga din vakillarini o‘z diniga o‘tkazish maqsadida yuborilgan shaxs tushunchasini anglatsa, “missionerlik” tushunchasi esa o‘z navbatida bir diniy guruh orqali insonlarning o‘zining diniy e’tiqodini o‘zgartirishga qaratilgan harakatlar majmuasini ifodalaydi. Missionerlik faoliyati jarayonida missioner, avvalo, o‘zining diniy qarashlarini mahalliy aholi vakillari yoki o‘zga yurtlardagi g‘ayridinlar orasida tarqatish borasida cherkov tashkilotlari tomonidan yo‘naltirilgan maxsus vazifalarni amalga oshirishni anglatadi.

O‘z navbatida, katolik cherkovi tomonidan xristianlik ta’limotini mahalliy aholi orasida yoyish maqsadida maxsus vazifa va topshiriqlarni bajaruvchi cherkov xodimlari “missioner”, ular tashrif buyurayotgan mintaqalar “missiya hududlari” sifatida nomlanadi. Zero, xristian missionerligining ilohiyot asoslari hamda qarashlarini o‘rganuvchi fan “missiya teologiyasi”, missionerlik faoliyatlarni ilmiy jihatdan o‘rganuvchi ilm sohasi esa “missiologiya” deb nomlanadi.

Hozirgi kundagi missionerlik faoliyati zamiriga e’tibor qaratilsa, missionerlik, eng avvalo, diniy ta’limotlarni tarqatish asosidagi diniy tashkilotlar faoliyati bilan shug‘ullanuvchi missionerlar faoliyatini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, cherkov tomonidan amalga oshirilayotgan missionerlik faoliyati zamirida o‘zining diniy qarashlarini boshqa dinga e’tiqod qiluvchi xalqlari orasida o‘zining diniy g‘oyalarini targ‘ib etish nazarda tutiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizning bir qator olimlari missionerlik va prozelitizm harakatlari to‘g‘risida o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida ushbu so‘zlarga quyidagicha izohlar berib o‘tgan.

Missionerlik o‘zagini tashkil etgan “missio” va “missioner” so‘zlarining ma’no va mazmuniga to‘xtalar ekan, “missio” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “yuborish”,

“vazifa topshirish”, “jo‘natmoq” degan ma’nolar tushunchasini anglatadi. Missionerlik o‘z mohiyatiga ko‘ra, biron-bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida o‘zining diniy qarashlarini targ‘ib etishni anglatsa, prozelitizm yunon tilidagi “proselitizm” so‘zidan olingan bo‘lib, “kelgindi bir joydan boshqa joyga ko‘chuvchi”, “o‘zining diniy e’tiqodidan voz kechib, boshqa dinga o‘tuvchi” degan ma’nolar bilan bir qatorda, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri biror-bir dinga ishongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechishga va turli usullar orqali o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilish” degan ma’nolarni anglatishini alohida ta’kidlaydi.

Hozirgi kunda globallashuv jarayonida inson ongi, qalbi va ruhiyatini zabt etish (ekspansiya)ga harakat qilayotgan missionerlik va prozelitizm harakatining oldini olish va bartaraf etishda, avvalo, axborot-psixologok xavfsizlikni ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Axborot-psixologok xavfsizlikni ta’minlashni amalga oshirishda, inson ongi, qalbi va ruhiyatiga tazyiq o‘tkazishga harakat qilayotgan missionerlik va prozelitizm tahdidini oldini olishda, axborot-psixologok xavfsizlikni ta’minlash bu bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali uni o‘z g‘oyalari va muqaddas aqidalaridan va diniy e’tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrashni anglatishga alohida urg‘u berib o‘tgan.

Hozirgi zamon siyosiy qarashlarida, missionerlik va prozelitizm harakatlari zamirida insonlarning ongi, qalbi va ruhiyatini egallash hamda uni boshqarishga intilish natijasida inson shaxsi darajasidagi salbiy oqibatlar, shaxsiyat va intellektual tanazzul, boshqalar irodasiga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunish, individuallikning yo‘qolishi va uning o‘zga mazmun bilan to‘ldirilishi, taraqqiyotdan to‘xtash, moddiy yo‘qotishlar, insonlarning hayoti, ma’naviy dunyoqarashi va sog‘lig‘iga nisbatan salbiy holatlarni kelib chiqishiga zamin yaratmoqda. O‘z navbatida, missionerlik, avvalo, davlatlar va siyosiy kuchlarning geosiyosiy rejalariga xizmat qiluvchi siyosiy qurol vazifasini o‘tayotganligini alohida ta’kidlash lozim.

“Missionerlik” aslida lotincha “missio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yuborish”, “huquq, yuksak burch”, “vazifa topshirish”, missionerlik esa belgilangan vazifani hal qilishga qaratilgan nazariy-amaliy faoliyat majmuini anglatadi. Missionerlikning tarkibiy qismi prozelitizm harakati esa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron dinga ishongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qilishga qaratilgan harakatlarni anglatadi.

Missionerlik – bu o‘z diniy qarashlarini o‘zga mamlakat aholisi orasida yoyish, prozelitizm esa, boshqa dinga e’tiqod qiluvchi shaxslarni o‘z dinidan chiqarib, o‘z diniga og‘dirib olishni anglatishga alohida urg‘u berib o‘tilgan. Shuningdek, u missionerlik va prozelitizm harakatlari bilan faol shug‘ullanayotgan, g‘arbona yutuqlar og‘ishidagi xristianlik zamirida vujudga kelgan turli tuman sektalar faoliyatiga alohida to‘xtalib, barcha sektalarga xos bo‘lgan an’anaviy yashash usulini inkor etish natijasida qandaydir sirli yangicha hayot tarziga o‘tishni da’vat etish hamda odamlar ongiga singdirish, o‘z yashash uslubi tafakkurini xohlovchi tarafdorlar qalbiga majburan kiritish, jahonda sodir bo‘layotgan jarayonlardan chetga chiqishga intilayotgan va chiqqan aholi toifasidan tarafdorlar sonini ko‘paytirish, sekta faoliyatida sekta rahbariyatining ishlarini shubhasiz amalga oshirish jamoatchilik ongi va tafakkurini birinchi o‘ringa qo‘yish, millat, milliy ildiz va tarixiy xotiralardan batamom uzoqlashgan odamlardan o‘z tarafdorlarini to‘plash va tarbiyalash begumon qurbon bo‘lishga tayyorlash hissi, missionerlik va prozelitizm mafkurasi yo‘lida ongsiz va har qanday qabih vositalarni oqlash o‘z navbatida missionerlik va prozelitizm harakatlari natijasida davlat va jamiyat hayotidagi salbiy holatlarning kelib chiqishiga zamin yaratayotganini alohida ta’kidlaydi.

Hozir kundagi missionerlik o‘z mohiyatiga ko‘ra, biror-bir dindagi kishilar tomonidan o‘z dinlarini ulug‘lash orqali diniy qadriyatlarini ustun qilib ko‘rsatishi natijasida boshqa din

vakillarini o‘z dinga o‘tkazish uchun da’vat va targ‘ibot qilish jarayonini anglatsa, prozelitizm esa boshqa dindagi fuqaroni dinidan chiqarib, o‘z diniga jalb etish tushuniladi.

Shuningdek, missionerlik va prozelitizm harakatlari xristianlikning katolik, provaslav, va protestant yo‘nalishlari o‘rtasidagi raqobatni vujudga keltirmoqda. [2]

Provaslav cherkovlari o‘z faoliyatini Rimda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishi ta’kidlangan. Provaslav pastorlarini faol targ‘ibot va tashviqot ishlari bilan shug‘ullanishi missionerlikning kelajagi sifatida diniy maktablarda o‘qitiladigan har bir fanning davomiyligini ta’minlash uchun ilohiyot ta’limotini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishga urg‘u berib o‘tadi.

G‘arbning rivojlangan davlatlarida missiologiya ta’limi asosida faoliyat olib orayotgan bir necha universitetlar mavjud. Mazkur oliy o‘quqv yurtlarida keyingi yillarda xristian missionerligi faoliyati davomida missiya va missionerlik tushunchalaridan boshqa tushunchalarni ham qo‘llashga alohida e’tibor qaratmoqda. Bunday farqli tushunchalarni qo‘llashning eng asosiy jihatlari “missiya” va “missionerlik” tushunchalarining xristianlik ta’limoti tarqalmagan xalqlar ongida bevostia salbiy taassurot qoldirmoqda. O‘z navbatida ushbu xalqlarning o‘tmishdagi tajribalarida rivojlangan qudratli davlatlar tomonidan ayrim davlatlarga nisbatan o‘z davlatlarining siyosatini o‘tkazishda missionerlik asosiy rolni bajargan. Ayniqsa, missionerlik – gegemonlik va mustamlakani, bosqinchilik hamda kuchli davlatlarning kuchsiz davlatlarga nisbatan o‘zlarining siyosiy bosimini tajovuzkorlik harakatlari natijasida amalga oshirishni ifoda etgan.

Ma’lumki, o‘rta asrlarda yevropaning yirik mustamlakachi Ispaniya va Portugaliya kabi davlatlari Amerikaning mahalliy aholisi hindularini o‘z diniga kiritish uchun ularni ongi va qalbini o‘zgartirishga asosiy e’tibor qaratishgan. Shu orqali katolik missionerlari majusiy hisoblangan Amerika hindularini xristian diniga o‘tkazishni o‘zlarning asosiy vazifasi sifatida bosqinchilik siyosatini amalga oshirishgan. Bu haqda tadqiqotchi M. R. Rudnikning fikriga ko‘ra, o‘rta asrlar davrida amalga oshirilgan missionerlik faoliyatiga e’tibor qaratilsa, “Missionerlar mahalliy xalqlarni o‘z madaniyatini ichidan o‘zgartirish bilan bir qatorda, uni yo‘q qilishga harakat qilishdi”, deb ta’kidlagan edi. [3]

Bugungi kunda missionerlik va prozelitizm harakatini yaxshi anglagan ayrim davlatlar o‘z navbatida diniy targ‘ibotlarni hech qanday afishalarsiz, bemalol o‘z manfaatlari yo‘lida amalga oshirish maqsadida o‘zlarining missionerlik faoliyatlarini kerakli tomonga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratishmoqda.

Shuningdek, ayrim rivojlangan yetakchi davlatlarning missionerlik harakatidan ko‘zlagan asosiy maqsadi davlatlarning siyosiy rejalarini amalga oshirishda ular missionerlik va prozelitizm harakati vakillari bilan asosiy ittifoqdosh hamkorlar sifatida faoliyat olib borishmoqda.

Noqonuniy ravishda faoliyat olib borayotgan totalitar sektalarning missionerlik va prozelitizm harakatlari to‘g‘risidagi bildirgan fikriga ko‘ra, “Missionerlik” o‘zining diniy qarashlarini o‘zga din vakillari orasida targ‘ib etishni anglatsa, prozelitizm boshqa dinga e’tiqod qiluvchi din vakillarini aldov, tovlamachilik, firibgarlik kabi usullar orqali o‘zining diniga nisbatan shubha uyg‘otish natijasida ularni dinidan chiqarib, o‘z diniga og‘dirib olishini alohida ta’kidlaydi.

“Hozirgi kunda dunyo miqyosidagi taniqli missionerlar qatorida e’tirof etilayotgan, yevangelist Billi Graxim o‘zining missionerlik faoliyati jarayonida, asosan, OAV vositalari – radio, televidenie sohalaridan keng foydalangan holda, o‘zga mamlakatlardagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy vaziyatlarni o‘zgartirish maqsadida, rivojlangan g‘arb davlatlardagi “ommaviy madaniyat”, “demokratik erkinliklarni joriy etish”, “yuqori turmush tarzi”, “g‘arb mamlakatlari urf-odatlari va madaniyatini targ‘ib etish” kabi usullardan keng foydalanishga asosiy urg‘u berishi aniqlangan. ”[4]

Missionerlik va prozelitizm harakatlarining dunyo miqyosidagi faoliyati zamirida, missionerlar o‘zlari faoliyat olib borgan mamlakatlarda, davlat va jamiyat hayotidagi siyosiy, ma’naviy, madaniy, iqtisodiy va boshqa aloqalarni amalga oshirish jarayonida o‘zlari uchun kerakli natijalarni qo‘lga kiritayotganligi, ayniqsa missionerlik faoliyatida diniy targ‘ibotlarga alohida e’tibor qaratilishi o‘z navbatida boshqa targ‘ibotlarga nisbatan ancha ustun ekanligini, bu esa o‘z navbatida hattoki, mudofaa salohiyatidan ham kuchli ekanligini va o‘zining samarasini ko‘rsatiyotganligiga alohida e’tibor qaratishadi.

Hozirda dunyodagi rasmiy dinlar va konfessiyalar o‘rtasida kelib chiqayotgan ziddiyatlarning asosiy omili missionerlik va prozelitizm harakatlari natijasida sodir bo‘lmoqda. Zero, missionerlik va prozelitizm harakatlari ayrim davlatlardagi madaniy-ma’naviy munosabatlarga, insonlarning diniy e’tiqodiga nisbatan shubha uyg‘otish, dinlararo va millatlararo nizolarni keltirib chiqarishga zamin yaratmoqda. Shunday ekan, jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligiga nisbatan rahna soluvchi yovuz maqsadlar orqali yurtimizga tahdid solishga intilayotgan missionerlik va prozelitizm harakatlari misolida har qanday ma’naviy tahdid va mafkuraviy hurujlar, yot oqimlar ta’siridan ogoh bo‘lish va unga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish lozim.

Bugungi kunda missionerlik va prozelitizm g‘oyasi tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikka bevosita tahdid ko‘rsatayotgan xatarli g‘oyalardan biriga aylanmoqda. Din, e’tiqod masalasi insoniyat hayotida doimiy muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo undagi muammo shundan iboratki, din targ‘iboti ijobiy yoki salbiy maqsadlarga qaratilib, ma’lum bir dinning yoyilishi, insonlarning ongiga singdirilishida missionerlar alohida o‘rin tutishi mumkin.

“Prozelitizmning asosiy maqsadi dunyoga xristianlikni (masihiylikni) missionerlik yo‘li (lotincha missio-topshiriq) bilan yoyish, kishilarni unga o‘tkazish bo‘lib, bunda mazkur din butun insoniyat uchun birdan-bir xaloskor din sifatida targ‘ib va tashviq qilinadi va buning uchun eng zamonaviy informatsion texnologik vosita, usullar ishga solinadi. Bunda kishilar ruhiyati, ongiga psixologik, neyrolingvistik ta’sir ko‘rsatishga alohida e’tibor beriladi. ”[5]

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib xulosa qiladigan bo‘lsak, turli manba va adabiyotlarda bayon etilgan ta’riflar bir-biriga juda yaqin va o‘xshashdir. Umuman olganda “missionerlik” – bu bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar, elatlar, millatlar orasida boshqa bir dinni har xil ijtimoiy vosita va omillar orqali targ‘ib qilish va singdirishga qaratilgan xavfli siyosiy faoliyatdir. Chunki uning bugungi kungacha bo‘lgan davrdagi yashirin mohiyati xavfli siyosiy faoliyat ekanligini ko‘rsatib, bir qancha davlatlarda yillar davomida siyosiy beqarorlikni keltirib chiqargan.

Hozirgi kunda missionerlik harakati fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuviga olib kelib, ular o‘z tashkiliy asoslarini yaratishda asosan nashriyotlar, xayriya, tibbiy yordam ko‘rsatish va nodavlat, notijorat tashkilotlari maqomidan foydalanib, ba’zi tashkilotlar tibbiy uyushmalar niqobi ostida faoliyat yuritmoqda va odatdagidek missionerlar qarorgohi hududida cherkov, kichik butxona yoki masjid, missioner-monaxlar yotoqxonasi joylashgan bo‘lib chiqmoqda.

Missionerlarning ko‘zlagan maqsadlari faqat siyosiy bo‘lib, bugunda demokratiyaga oid oddiy bir misol bo‘lib ko‘rinayotgan harakatlarining tagida ertangi kunga mo‘ljallangan, juda katta siyosiy nayranglar yotibdi va bu nayranglar quyidagi yovuz maqsadlarda yashiringandir.

Birinchidan, an’anaviy musulmon bo‘lib kelgan, mafkurasi, urf-odati, butun boshli ma’naviy tarixiy ildizi bir xil bo‘lgan (aslida, mamlakatimizni kuch-qudrati ham shunda!) xalqimizning yuragini parchalab zaiflashtirish va parokanda qilish hamda turli-tuman siyosiy va iqtisodiy bosimlar bilan o‘z holimizcha yashashga yo‘l qo‘ymaslik.

Ikkinchidan, yurtimizni doimiy nizo maydoniga aylantirib, uni hal qilishda o‘zlariga muhtoj qilib qo‘yish.

Uchinchidan, iloji boricha, ba’zi hududlarga alohida ahamiyat berib, u yerlarda o‘zlariga ergashganlar sonini ko‘paytirib, kelajakda go‘yo ularning xohish-irodasi va kayfiyatlari sifatida bo‘linish (separatistik) g‘alayonlarni chiqarish va oqibatda mamlakatni parchalab tashlash.

To‘rtinchidan, “Inson huquqlarini himoya qilish”, “Vijdon erkinligini ta’minlash” kabi sirtdan chiroyli shiorlar niqobi ostida oddiy sud-prokuratura organlaridan tortib to davlat rahbari ishlarigacha aralashish va mustaqil davlat boshqaruviga yo‘l qo‘ymaslik.

Beshinchidan, jamiyatni doimiy bezovta qilib turish orqali boshqaruvda asabiy bir vaziyatni vujudga keltirish; turli-tuman matbuot organlari va nodavlat tashkilotlar vositasida tashviqot yuritib, o‘zlarini go‘yo xalqning himoyachisi qilib ko‘rsatish va xalq “dardi”ni aytib, davlatga qarshi gij-gijlash, davlatni esa bu qutqularni bostirish uchun keskin choralar ko‘rishga majburlash va mana shu yo‘l bilan xalq va davlat orasiga o‘zaro ishonchsizlik ruhini singdirish.

Ko‘rib turibmizki, missionerlar amalga oshirayotgan ishlar dinga, diniy da’vatga hech qanday aloqasi bo‘lmay, balki bir mamlakatni o‘zlarining siyosiy tizginlariga solib olish uchun rejalashtirilgan nayrang uslublaridir.

Muammo nafaqat diniy, balki siyosiy kuchsizlantirishga qaratilganligi bilan xavfli va tashvishlidir. Chunki natija bevosita mamlakat xavfsizligiga daxldor bo‘lib, ularning qilmishlari shu nuqtai nazardan baholanishi va chora-tadbirlar ham shunga ko‘ra belgilanishi lozim. Aks holda, biz kelajak avlod uchun kuchli, ozod va obod Vatanni emas, balki xalqining ruhi-dili bir-biriga begona va shu bois qator muammolar girdobiga g‘arq bo‘lib, parokandalik, ma’naviy ziddiyatlar avj olgan, zaif va qaram bir o‘lkani taqdim etishimiz ehtimoldan xoli emas!

Missionerlik va prozelitizm globallashuv jarayonida ma’naviy-mafkuraviy tahdid vositasi bo‘lib, avvalo, jahondagi muayyan kuchlarning geopolitik maqsad va manfaatlariga yo‘naltirilgan holda olib borilmoqda. Ikkinchi tomondan, xalqning milliy ma’naviyati, urf-odat va an’analari, milliy mentaliteti diniy ta’limot sifatida shakllangan bo‘lib, missionerlik va prozelitizm xalning milliy o‘zligidan begonalashuviga, manqurtlashuviga, davlatning ichki hayotida milliy, diniy, ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashuviga sababchi bo‘ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalarini fuqarolar ongi – tafakkuriga singdirishga, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga muhim e’tibor berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kennet L. Richardsonning "Missionerlik hikoyasi" (2003)
2. Richard K. Neboerning "Missioner: nazariya va amaliyot" (2000)
3. Syuzan C. Lyonning "Missioner va imperiya" (2006)
4. Piter Vaggsning "Globallashtiruvchi missioner" (2011)
5. Jonatan K. Yenning "Missioner va Islom" (2008)
6. Bryus L. Foksning "Missionerlik va sekulyarizatsiya" (2014)
7. Kerol T. Kristofersenning "Missioner va inson huquqlari" (2016)
8. Ketlin J. Mark tomonidan "Missioner va gender" (2019)

9. Piter H. Devisning "Missiya va ekologiya" (2020)
10. Abdurahmon Qodirovdan “O‘zbekistonda missionerlik” (2022)

TARIXIY TARAQQIYOTDA GUMANIZM G`OYALARINING RIVOJLANISHI.

Shermamatova Shahzoda Otabek qizi
Namangan davlat pedagokika instuti, Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo`nalishi talabasi
E-mail: shermamatovashahzoda@gmail. com
Tel: +998947991730

Annotatsiya: *Ma’naviy qadriyatlar tizimida gumanizm muhim o‘rin tutadi. Uning insoniyatining dunyoqarash ongidagi hal qiluvchi roli shu bilan baholanishi mumkinki, hech bir falsafiy, siyosiy, badiiy yo‘nalish yoki Yevropa sivilizatsiyasining ma’naviy va amaliy rahbari bo‘lishga da’vogarlik qiladigan ta’limot o‘zini insonparvarlik namunasi deb e’lon qila olmaydi. Uyg‘onish davrida “ildiz otgan” ma’naviy madaniyatda an’ana shaklida o‘rnatilgan insonparvarlik g‘oyalari zamon sinovidan o‘tib, o‘zining ahamiyati va bardavom qiymatini isbotladi.*

Kalit so‘zlar: *gumanizm, dunyoqarash, Yevropa, sivilizatsiya, tarix.*

Kirish. Gumanizm - Insonparvarlik inson mohiyatini izlashdir. Binobarin, u kishining mohiyati borligiga, uni topish va anglash mumkinligiga oldindan ishonadi. Gumanizm insonning mohiyatini hamma uchun bir xil idealga aylantiradi. Nihoyat, mohiyat gumanistlar tomonidan qadriyat deb e'lon qilinadi. Biroq, insonparvarlik g'oyasining keng qo'llanilishi ba'zan salbiy oqibatlarga olib keladi. Devalvatsiya sodir bo'ladi - insonparvarlik g'oyasining ijtimoiy ongidagi buzilish, uning badiiy adabiyotga aylanishi. Shu munosabat bilan insonparvarlik mazmunini aniqlash zarurati tug‘iladi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, insonparvarlik kabi hodisani aniqlashga urinish hozirgi vaqt uchun dolzarbdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Gumanizm inqirozi nima ekanligini tushunish uchun insonparvarlik nima ekanligini va demak, uning paydo bo'lish shartlarini tushunishingiz kerak. "Gumanizm" atamasi 1-asrda ishlatilgan lotincha "humanitas" (insoniyat) dan olingan. Miloddan avvalgi, mashhur Rim notiq Sitseron (miloddan avvalgi 106-43) fikriga ko‘ra, insonparvarlik insonning tarbiyasi va ta’limi bo‘lib, uning yuksalishiga hissa qo‘shadi. Insonparvarlik tamoyili insonga munosabatni eng oliy qadriyat sifatida, har bir shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilishni, uning yashash huquqini, erkin rivojlanishini, o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish va baxtga intilishni nazarda tutgan. Gumanizm insonning barcha asosiy huquqlarini tan olishni nazarda tutadi, shaxs farovonligini har qanday ijtimoiy faoliyatni baholashning yeng yuqori mezoni sifatida tasdiqlaydi. Jahon madaniyatining o‘ziga xos xususiyati sifatida insonparvarlik antik dunyoda o‘zini namoyon qildi. Misrdagi Qadimgi Qirollik davridan (miloddan avvalgi III ming yillik) ruhoniy Sheshaning yozuvi kabi bayonotlar bizga yetib keldi: "Men baxtsizlarni kuchlilardan qutqardim . . . Men ochlarga non, yalang‘ochlarga kiyim berdim. Men o‘g‘li bo‘lmaganni dafn qildim . . . ". Bunday matnlarning ko‘pchiligi Qadimgi Misr madaniyatiga singib ketgan kuchli gumanistik oqim mavjudligidan dalolat beradi. Qadimgi misrliklar shaxsning axloqiy xulq-atvori, insonparvarligining ajoyib tamoyillarini ishlab chiqishga muvaffaq bo‘lishdi. Amenemonaning donolik kitoblari axloqning juda yuqori darajasidan dalolat beradi. Qadimgi Misr madaniyatida hamma narsa dindorlik muhitiga botgan, biroq ayni paytda hamma narsa sof insoniylik tubida kuchli ildizlarga ega edi. Insonparvarlik ko‘rinishlari tarix davomida sezilarli bo‘lgan.

Insoniyat jamiyatining birligi, yaxlitligi va zaifligi to‘g‘risida, o‘zaro ta’sir va o‘zaro yordamga muhtoj, ijtimoiy tengsizlikni ixtiyoriy ravishda rad yetish, kuchlining mazlumlarga nisbatan zo‘ravonligi haqida gumanistik dunyoqarash paydo bo‘ldi. Insonparvarlik g‘oyalari insoniyatning donishmand vakillari (Aflotun, Konfutsiy, Gandi va boshqalar) tomonidan qayta-qayta aniq va chuqur amalga oshirilgan. Vaqt o‘tishi bilan insoniyat ularni tan oldi. Xristian, musulmon va buddist etikasi insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Madaniy yo‘nalish sifatida insonparvarlik 14-asrda Italiyada paydo bo‘lgan va 15-asrdan G‘arbiy Yevropaga tarqalgan. Renessans yoki Uyg‘onish davri (fransuz renaitre - jonlanish) XIV asrning o‘rtalaridan 17-asrning birinchi o‘n yilliklarigacha deyarli uch asrni qamrab olgan Yevropa madaniyati rivojlanishidagi eng yorqin davrlardan biriga aylandi. Bu Yevropa xalqlari tarixida katta o‘zgarishlar davri edi. Shahar sivilizatsiyasining yuqori darajasi sharoitida kapitalistik munosabatlarning paydo bo‘lishi jarayoni va feodalizm inqirozi boshlandi, xalqlarning shaklanishi va yirik milliy davlatlarning paydo bo‘lishi sodir bo‘ldi, siyosiy tizimning yangi shakli - mutlaq davlat paydo bo‘ldi. monarxiya, yangi ijtimoiy guruhlar - burjuaziya va yollanma ishchilar shakllandi. Insonning ruhiy dunyosi ham o‘zgardi. Uyg‘onish davri odamida o‘z-o‘zini tasdiqlash, katta yutuqlarga chanqoqlik hissi paydo bo‘ldi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etdi, tabiat olamini qayta kashf etdi, uni chuqur idrok etishga intildi, uning go‘zalligiga qoyil qoldi. Uyg‘onish davri madaniyati dunyoni dunyoviy idrok etish va tushunish, yerdagi mavjudotning qadr-qimmatini tasdiqlash, insonning aqli va ijodiy qobiliyatlarining buyukligi, shaxsning qadr-qimmati bilan ajralib turadi. Gumanizm Uyg‘onish davri madaniyatining g‘oyaviy asosiga aylandi.

Gumanistlar jamiyatning ma’naviy hayotida katolik cherkovining diktaturasiga qarshi chiqdilar. Ular sxolastik fanning formal mantiqqa (dialektikaga) asoslangan usulini tanqid qildilar, uning dogmatizmi va hokimiyatga ishonishlarini rad etdilar va shu bilan ilmiy tafakkurning erkin rivojlanishiga yo‘l ochdilar. Dastlab, bu o‘zini dunyoviy qadriyatlarni asketik o‘rta asrlar cherkovi zulmiga qarshi himoya qilish shaklida namoyon bo‘ldi. Ba’zi Italiya universitetlari o‘rta asrlarda yarim unutilgan va rad etilgan qadimiy madaniy va ilmiy merosga qaytdilar. Shaxsning ma’naviy tabiatini yuksaltirishda grammatika, ritorika, she’riyat, tarix, axloqdan iborat fanlar majmuasiga asosiy o‘rin berildi. Aynan shu fanlar Uyg‘onish davri madaniyatining nazariy asosiga aylandi va " studia humanitatis" (gumanitar fanlar) nomini oldi.

Lotincha "humanitas" tushunchasi o‘shanda inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalarning ahamiyatini uzoq vaqt davomida kamsitishga qaramay, inson qadrqimmatini rivojlantirish istagini bildirgan. Ideal ma’rifat va faoliyat o‘rtasidagi uyg‘unlikda ko‘rindi.

Gumanistlar qadimgi madaniyatni o‘rganishga chaqirdilar, cherkov uni butparast deb rad yetib, undan faqat nasroniylik ta’limotiga zid bo‘lmagan narsani tushundi. Qadimiy merosni tiklash ular uchun o‘z-o‘zidan maqsad emas, balki o‘z davrining dolzarb muammolarini hal qilish, yangi madaniyat qurish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. XIV asrning ikkinchi yarmida Uyg‘onish davri adabiyotining paydo bo‘lishi. Franchesko Petrarka va Jovanni Bokkachchio nomlari bilan bog‘liq. Ular shaxsning qadr-qimmati haqidagi gumanistik g‘oyalarni olg‘a surib, uni zo‘ravonlik bilan emas, balki insonning mardonavor ishlari, uning erkinligi va yerdagi hayot quvonchlaridan bahramand bo‘lish huquqi bilan bog‘ladilar.

Shoir va faylasuf Francheska Petrarka (1304-1374) shak shubxasiz gumanizm asoschisi hisoblanadi. Petrarka Uyg‘onish davrigacha bo‘lgan tafakkur oqimlarining yaxlitligini ko‘rish va ularni poyetik sintezda birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan birinchi buyuk gumanist, shoir va fuqaro bo‘lib, kelajak Yevropa avlodlari na’munasiga aylandi. U o‘z ijodi bilan G‘arbiy va Sharqiy

yevropaning kelayotgan ko‘p qabilali avlodlarida ma’lum bir ma’naviy va madaniy birlik ongini – har doim ham aniq bo‘lmasa-da – singdirishga muvaffaq bo‘ldi, uning foydali ta’siri bizning zamonaviy davrimizda ham o‘z aksini topdi. Uning asarlarida Italiyada Uyg‘onish davri madaniyati rivojlanishining ko‘plab yo‘llariga asos solindi. U o‘zining "O‘z va boshqalar jaholatlari to‘g‘risida"gi risolasida O‘rta asrlarga xos bo‘lgan sxolastikani qat’iyan rad etadi, bu bilan u o‘zining go‘yoki jaholatini namoyishkorona e’lon qiladi, chunki u bunday ilmlikni o‘z davri uchun mutlaqo foydasiz deb hisoblaydi. Yuqorida tilga olingan risolada qadimiy merosni baholashga prinsipial jihatdan yangicha yondashuv namoyon bo‘ladi. Petrarkaning so‘zlariga ko‘ra, adabiyot, san’at, ilm-fanning yangi gullabyashnashiga erishish uchun ajoyib o‘tmishdoshlarning fikrlariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish emas, balki qadimgi madaniyat cho‘qqilariga ko‘tarilish istagi va shu bilan birga qayta o‘ylash va qaysidir ma’noda undan oshib ketadi. Petrarka belgilab bergan bu chiziq insonparvarlikning qadimgi merosga bo‘lgan munosabatida yetakchi yo‘nalish bo‘ldi.

Birinchi gumanist inson haqidagi fanlar chinakam falsafaning mazmuniga aylanishi kerak, deb hisoblagan va uning barcha ishlarida falsafani ana shu munosib bilim obyektiga qayta yo‘naltirishga chaqiriq bor. Petrarka o‘z mulohazalari bilan Uyg‘onish davrida shaxsiy o‘zlikni shakllantirishga asos soldi. Turli davrlarda inson o‘zini turlicha anglaydi. U o‘zini ijtimoiy guruhga ilohiy belgilangan tartibda eng faol qo‘shilish orqali tasdiqladi - bu shaxsdan talab qilinadigan ijtimoiy jasoratdir. Uyg‘onish davri odami asta-sekin universal o‘rta asr tushunchalaridan voz kechib, konkret, individuallikka o‘tadi.

Gumanistlar shaxsni tushunishga yangi yondashuvni ishlab chiqdilar, bunda faoliyat tushunchasi katta rol o‘ynadi. Ular uchun inson shaxsining qadr-qimmati kelib chiqishi yoki ijtimoiy mansubligi bilan emas, balki shaxsiy xizmatlari va faoliyatining samarasi bilan belgilanadi. Ushbu yondashuvning yorqin timsoli, masalan, mashhur gumanist Leon Battista Albertaning (1404-1472) ko‘p qirrali faoliyati bo‘lishi mumkin. U me’mor, rassom, san’atga oid risolalar muallifi bo‘lgan, tasviriy kompozitsiya tamoyillarini - ranglarning muvozanati va simmetriyasini, imo-ishoralar va personajlarning pozalarini shakllantirgan. Albertning fikricha, inson faqat o‘z faoliyati bilan taqdir taqozosi ustidan g‘alaba qozonishga qodir. “Mag‘lub bo‘lishni istamagan kishi osonlikcha g‘alaba qozonadi. Bo‘ysunishga odatlanganlar taqdirning bo‘yinbog‘iga chidashadi. " XV asrning ikkinchi yarmidagi gumanistik fikr, yangi g‘oyalar bilan boyitilgan bo‘lib, ulardan eng muhimi, insonning boshqa mavjudotlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarini va dunyodagi alohida mavqeini ko‘rsatadigan shaxsning qadr-qimmati g‘oyasi bo‘ldi. Masalan, Jovanni Piko della Mirandola (1463-1494) o‘zining "Inson qadr-qimmati to‘g‘risida"gi yorqin nutqida uni dunyoning markaziga qo‘yadi. Xudo insonni o‘ziga xos surat va o‘xshashlikda yaratmagan, balki unga o‘zini o‘zi yaratish imkoniyatini berganligi ta’kidlanadi. Uyg‘onish davri mutafakkirlari inson qudratini va uning buyukligini ulug‘lab, uning ajoyib ijodiga qoyil qoldilar, muqarrar ravishda inson va Xudo o‘rtasida yaqinlashdilar.

“Inson shamollarni bo‘ysundiradi va dengizlarni zabt etadi, vaqt hisobini biladi . . . Bundan tashqari, u chiroq yordamida tunni kunduzga aylantiradi. Nihoyat, insonning ilohiyligi bizga sehr orqali ochib beriladi. U inson qo‘llari bilan mo‘jizalar yaratadi - tabiat yarata oladigan mo‘jizadir. Aytish kerakki, XVI asrning o‘rtalariga qadar. Katolik cherkovi tomonidan gumanistlarning ta’qib qilinishi juda kam uchraydi. Yangi dunyoviy madaniyat g‘oliblari inkvizitsiya olovidan qo‘rqmadilar va yaxshi nasroniylar sifatida tanildilar. Va faqat Reformatsiya - (lotincha reformatio

- o‘zgartirishdan) papalikka qarshi chiqqan e’tiqodni yangilash harakati - cherkovni hujumga o‘tishga majbur qildi.

Xulosa. Shunday qilib, biz gumanizmning nazariy va amaliy tomonlarini ko‘rib chiqdik, bu hodisani aniqlashning iloji yo‘qligini ilgari asoslab, faqat bitta jihatga amal qildik. Ko‘rinib turibdiki, birinchi gumanistlar tomonidan ye’lon qilingan shaxsning ma’naviy ozodligi yangi madaniyat qurish, qadimiy merosni qayta ishlash va o‘zlashtirish, ta’lim va tarbiyaviy faoliyatga qaratilgan gumanitar bilimlarni rivojlantirish vazifalari bilan uzviy bog‘liq edi. Demak, gumanizmga faqat qarashlarning falsafiy tizimi sifatida ta’rif berish mumkin yemas. Nazariy va amaliy jihatlar o‘zaro bog‘liq. Gumanizm nazariyasi tubdan yangi narsa yemas edi. Biroq, gumanizmning nazariy jihati, asosan, faqat oldingi davrlar g‘oyalarini qayta ishlash bo‘lishiga qaramay, gumanizm tubdan yangi falsafiy yo‘nalish sifatida ye’lon qilindi. Ammo bu fakt insonparvarlik kabi hodisaning ahamiyatini zarracha kamaytirmaydi. Buning sababi shundaki, nazariy jihatdan tashqari, amaliy jihat ham mavjud bo‘lib, uning yordamida insonparvarlik nafaqat o‘tgan davr faylasuflarining taxminlarini qayta ishlashga, balki mafkuraga, ana shunday g‘oyalar sintezining timsoliga aylanadi. hayotning siyosat, ta’lim, san’at kabi sohalari. Gumanizmning deyarli har bir figurasi o‘z nazariyalarini gavdalantirgan yoki hayotga tatbiq yetishga harakat qilgan. Gumanistlar nafaqat yangilangan, baxtli, intellektual jamiyatga ishonishdi - ular san’at, ta’lim, siyosat kabi sohalardan foydalangan holda bu jamiyatni o‘z qo‘llari bilan qurishni xohladilar va qurishga harakat qildilar. Yuqorida aytilganlarning barchasiga asoslanib, insonparvarlik faqat falsafiy bilimlar tizimi yemas, balki ancha murakkab degan xulosaga kelishimiz mumkin. Gumanizm ko‘plab falsafiy an’analarning g‘oyalarini o‘z ichiga oladi, lekin o‘zi nafaqat falsafa. U falsafiy tushunchalar asosida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan, shuning uchun gumanizmga faqat falsafa yoki dunyoqarash sifatida ta’rif berish mumkin yemas. Bu fikrlash shakllarining to‘plamidir. Shunday qilib, gumanizm axloqiy tafakkurga inson va yerdagi hayotning ichki qadriyatini tan olishga olib keldi, odamlarning baxt-saodati, adolatga erishish, tengligi g‘oyalari asta-sekin rivojlandi. Uyg‘onish davrining gumanistik qarashlari shaxs huquqlarini ta’minlashga va xususan, baxtli hayot huquqini tan olishga yordam berdi. Ko‘pgina falsafiy oqimlar insonparvarlik xususiyatlarini o‘ziga singdirdi. Gumanizm hodisa sifatida tarixan o‘zgaruvchan qarashlar tizimi bo‘lib chiqdi. U san’atdan kelib chiqib, ilm-fanga, ilmiy-texnik inqilobga yo‘l ochdi, iqtisodiy yuksalish, ta’lim, ijtimoiy o‘zgarishlar va inqiloblarga hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Лосев А. Ф. «Эстетика возрождения». — М, 1997 – С. 47-447
2. Бибихин В. В. Новый ренессанс /Бибихин В. В. — М. : Наука, 1998. — 496с
3. A. V. Petrovskiy “Umumiy psihologiya” Toshkent 1992
4. Vasila Karimova “Psixologiya” Toshkent 2000
5. Брагина Л. М. Итальянский гуманизм – М: 1977. – С. 95
6. Гуревич П. С. Философия человека Ч. 1– М: РАН, 2000 – С. 253

DRAMATIK ASARLARDA ZAMONAVIY MAVZULAR TALQINI

Qo‘ziboyeva Lolaxon Saidrasul qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek adabiyoti 10. 00. 02 ixtisosligi bo‘yicha III bosqich tayanch doktoranti

E-mail: lolaxonmatyoqubova1031@gmail. com
Tel: +998 88 145 52 99

Annotatsiya*: Ushbu maqolada Istiqlol yillarida yaratilgan, dramatik asarlarda zamonaviylik tushunchasi talqinining muallif badiiy estetikasidagi tasviri yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Inson, borliq, drama, obraz, zamonaviylik.*

Аннотация*: В этой статье рассматривается изображение в авторской художественной эстетике интерпретации понятия современности в драматичиских произведения, созданных в годы независимости.*

Ключевые слова*: человек, бытие, драма, образ, современность.*

Annotation: *This article covers the image of the interpretation of the concept of modernity in the author’s artistic aesthetics in dramatic works created during the years of independence.*

Key words: *man, world, drama, obraz, modernity.*

Albatta, adabiyot o‘z davrining dolzarb muammolarini yoritib ko‘rsatishi kerak. U bu bilan kishilarning diqqat-e’tiborini ma’lum masalaga jalb etadi. Biroq davrning dolzarb muammolarini mavzu qilib olishning o‘zigina asarning ta’sirchanligi, zamonaviyligini ta’minlamaydi. Tarixiy voqealar qalamga olinsa-da, zamonaviy mavzudagi asarlardan ko‘ra ta’sirchanroq, qiziqarliroq asarlar talaygina.

“Adabiyotning hayotni aks ettirish, o‘rganish, hayot ustidan hukm chiqarish va hayotni qayta qurish quroli ekani, uning yana bir xosiyatini keltirib chiqaradi. Bu xosiyat–zamonaviylikdir”[1].

Istiqlol davrida yozilgan o‘zbek dramalarining badiiy-estetik saviyasi ham, mavzu mundarijasi ham, harakatlanish ko‘lami ham rang-barang, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Albatta, har bir yaratilgan asar yutuq kamchiliklari muallif konsepsiyasi bilan bog‘liq. Ammo dramaturgiyamizda yangicha nafosatni, fikrni, g‘oyalarni qadrlaydigan dramaturglarimiz bor, albatta. Yuksak saviyali asar vaqt va zamon sinovlaridan har doim o‘zining yuksak ruhiyati bilan umurboqiy tuyg‘ularni inson qalbida barpo qiladi. Hayotning istiqbolini, mazmun mohiyatini belgilab beruvchi erkin fikrlovchi, e’tiqodda sobit turuvchi inson shaxsiyati qanday bo‘lishi kerak degan tushunchani shakllanitirish bugungi dramaturgiyamizning o‘zak mazmunini tashkil qilmoqda. Zero, “. . . badiiy asar qahramonlarining ta’sir kuchi–ularning ijobiy yoki salbiy bo‘lishida emas, balki bu qahramonlarning hayotiyligida, ya’ni hayot haqiqatiga mosligidadir”[2].

Husnillo Jomonqulovning “**Mozordagi bozor**” [3] dramasida muallif konsepsiyasi insonlarning qanchalik tubanlashib borishini bir mozordagi voqealar rivojida tipiklashtiradi. **Birinchi ko‘rinish** Adam (Odam) va Go‘rkov o‘rtasidagi suhbat bilan boshlanadi.

Adam. Adam degani bu sizlarda Odam degani. Ular, sen borayotgan sayyorada odamlar bo‘lishi kerak, sen ular haqida ma’lumot olib kel, degan edi. Odamlar qani?

Egamberdi. (kulib yuboradi). Sen aytayotgan odamlar Otam zamonida qolib ketgan. Hozir ular o‘zgargan.

Asarning asos syujeti “ilk syujet”ga murojaat qilinadi. Dramada olib chiqilgan mavzu insonlar o‘rtasidagi riyokorlik. Xo‘jako‘rsinlik inson tabiatidagi xastalikdir. Birinchi sahna Adamning (yanikim Odam) o‘z xatosi tufayli yerga tushishi va Go‘rkov bilan suhbati orqali boshlanadi. Muallif bu muammoni asar markaziga olib chiqishida o‘z oliy maqsadini bir tizimda abadiy qonuniyatlar asosida amalga oshirgan. «**Mozordagi bozor**» pyesasida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri — turli kasb egalarining xarakter xususiyatlari, ularning ruhiy

dunyosini ochish dramaturgning diqqat markazida turadi. Dramaturg ushbu asarida o‘z badiiy niyatini “samoviy haqiqat”ga asosan bir tizimga tushirgan. Xususan, xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda bo‘lsin, davrning muhim ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy masalalari dramaturgning bu asarida o‘z bo‘y-bastini yaqqol ko‘rsatib turibdi. **Ikkinchi ko‘rinish**da muallif bevosita turli xil harakterli Insonlarni sahnaga olib chiqadi. Jamiyatdagi bu insonlarning oliy maqsadlarini bayon etadi. Voqea rivojlanib Insonlarning oxirgi manzili bo‘lmish o‘z qabr joylarini ham teparoqdan, quyiroqdan joy olib belgilab ketishgacha tubanlashib ketayotganliklarini qahramonlarning diologlari asosida tasvirlab bergan. Drama diologlarida qadimiy tasavvur, tushunchalar bilan bog‘liq holat, vaziyatlar rang-barangligi, obrazliligi fikrning yorqin, ta’sirchanligini oshirgan. Bir-biridan o‘zarga kelishib mozorni ham bozorga aylantirgan, insonlar obrazi asarda tipiklashtirilib badiiy bir butunlikni tashkil qilgan. Bu sahnada tasvirlangan To‘xtaqul obrazi muallif nazarida hayotini faqat ichkilikka ruju qo‘ygan, hattoki bolalarini ham tanimaslik darajasiga yetgan insonlar timsolini yaratgan. Oxirgi manziliga olib borib qo‘yuvchi insonlardan ham voz kechib Go‘rkov bilan shartnoma qilib o‘zini joyini aniqlashtirib olgan bir inson qismati badiiylashtirib ko‘rsatilgan. To‘xtaqul bu yo‘lda to‘xtamadi Tavba yo‘liga kirmadi irodasi yoki e’tiqodi sustlik qildi. Asarda razillik, kibr, poraxo‘rlik laganbardorlik kabi illatlar qora bo‘yoqlarda akslanadi. Muallif ko‘tarib chiqqan bir muammo borki, u bugungi kunimiz uchun ham o‘ta dolzarb va o‘ta achinarlidir. **Uchinchi** ko‘rinishda Kibrga berilgan Shoir Mashhuriy inson obrazi tipiklashtiriladi. Bu obrazni eng tubanlashgan cho‘qqisi shundaki u qabristonga ham o‘z unvonlarini ta’qib boradi. Jamiyatda o‘z o‘rnini yuqori bilgan manman insonlar obrazini yaratishda Mashhuriy yaxshigina namuna bo‘la oladi.

Insonlar orasida shundaylari borki o‘z yaratilgan jinsiga qarshi chiqib qanchalik gunoh qilayotganlarni anglab yetmaydilar. Bu gunohkor insonlarni tasviri asarda quyidagi diologlardan anglashiladi. Hamma zamonlarda va har qanday jamiyatda Inson, Imon, E’tiqod — muqaddas, degan g‘oyani ilgari surgan. Qayerdaki inson xor bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha joyda taraqqiyot so‘nadi. Yoki orqaga ketadi. Bosh mezon bu — inson. Demak, nafaqat kechmishimizda, shu bilan barobar, bugungi kunda ham o‘z mavqeini, nufuzini yo‘qotmay kelayotgan ma’naviy qadriyatlarga zamona talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish, baholash, fikr aytish bugungi dramaturglarning bosh mezoni bo‘lib kelmoqda.

Barnobek. (o‘ychan) Zerikdim. Hayot bunchalar shafqatsiz bo‘lmasa. Sevib sevilolmasang. Kimgadir do‘st bo‘lolmasang. Axir, nima bilandir shug‘ullanish kerak-ku. Xullas, hayot meni hech qaнerga sig‘dirmayapti. Eh, yaxshiyam, shu internet bor, u yerda kim ekanligingni ham bilib ololmaydi. Buning qizig‘iyam yo‘q. Eng muhimi, u yerda yolg‘iz emasman.

Egamberdi. (masxara qilib). Voy bechora, qiynalib ketibsan-ku. Qabristondan ham senga sherik topish qiyin-da. Avval erkak yoki ayolligingni aniqlab olgin xo‘pmi? Juda zerikaversang shu bolalaring olib kelib qo‘yib ketishadi.

Adam. (boshini changallab). Shu ham odamning avlodimi? Har narsaning cho‘qqisi bo‘lganidek uning avlodlari adashishning cho‘qqisiga chiqibdi.

Muallif Barnobek obraziga o‘zligini, anglab yetmagan inson qiyofasini yuklaydi. Muallifning fikriy topilmalaridan ham anglashimiz mumkinki, Ismi ham ayollarga mos “Barnobek” deb nomlangani ham obrazga nisbatan konkretroq xulosalarni berishda o‘rinli hisoblanadi.

Muallif dramada ana shu masalani ham aytmasa go‘yoki kemtik joyi to‘lmagandek ko‘rinadi. Bu masalani olib chiqish o‘ta og‘ir va andishalikdir vijdoni oldida qiynalgan

yuraklargina bunday hodisalarni ko‘ra bila turib ko‘zni yumib o‘tib keta olmaydi. Shu bois uyg‘oq vijdonli mualliflarimiz keng umumbashariy mavzu ko‘lamini his qilgan holda dramatik asarlar yozmoqda. Shuningdek, dramadagi zamonaviylik qahramonlarning jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeini, ijtimoiy va maishiy axloqini ham xuddi ko‘zgudagidek aks ettiradi. Qahramonlarning xatti-harakatlari ham zamon nafasidan, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy iqlimidan ayri emas. Zamon va qahramon konsepsiyasi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar mohiyatini tayin etish bilan barobar uni asarning badiiy mehvariga aylantirgan. Ya’ni, kundalik siyosat, jamiyat hayoti turli xil badiiy vositalar (masalan, mozorga borib shartnomani imzolagan To‘raqul, Mozorga ham unvonlari bilan keladigan Mashhuriy) orqali pyesa qahramonlarining turish-turmushiga singib ketgan. Oddiy, kundalik ikir-chikirlardek ko‘ringan tafsilotlar dramada muayyan ma’no kasb etgan holda yozuvchi mahorati tufayli muhim badiiy unsurga aylanadi. Shu taxlit tuyg‘u-kechinmalar tadriji, o‘y-fikrlar takomili voqealar dinamikasi bilan tutashib, unga yanada kuch bag‘ishlaydi. Ko‘rinadiki, asar syujeti o‘ziga xos spetsifik xususiyatga ega. Har bir detal, ko‘rimsizdek tuyulgan tafsilot dramatik harakat izchilligiga, syujet rivojiga xizmat qildirilgan. Mazkur mulohazalar zamonaviy mavzudagi asarlar uchun ham ahamiyatlidir.

Hayot hamisha o‘zgarish, yangilanish jarayonida. Tabiat fasllaridagi evrilish inson shaxsi, ma’naviy dunyosi, intellektual holati, darajasi uchun ham xos. Yuqorida ta’kidlanganidek, hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar odamlar ma’naviyatiga ham jiddiy sifat o‘zgarishlarini olib kirdi. Bu pyesa ana shunday izlanishlar samarasidir. Borliqda yaralgan inson o‘z pozitsiyasida qolishi kerak. Vujudi qanday yaralgan bo‘lsa o‘shanday. Bo‘lmasa olam qonuniyati buziladi. Buzilgan qoidalar esa qayta tiklanmasdir. Gyotening quyidagi fikri shu asarning xulosasidek go‘yo: – Odam, – dedi u, – hayoti davomida turli bosqichlarni bosib o‘tadi, ularning har biri o‘z afzalliklari va kamchiliklariga ega, ular qachon yuzaga kelsa, ularni o‘sha davr uchun tabiiy va ma’lum ma’noda zarur, deb hisoblash joiz. Navbatdagi bosqichda u yana o‘zgaradi, avvalgi fazilatlar va qusurlardan asar ham qolmaydi, biroq ularning o‘rniga yangi hislatlar va kamchiliklar paydo bo‘ladi. Shu tariqa so‘nggi evrilishgacha davom etaveradi, uning qachon yuz berishini biz bilmaymiz. Gyote nazarda tutayotgan evrilishni dramaturg o‘z qahramonida ko‘rgandir.

Bugungi zamonaviy mavzuda qalam tebratayotgan dramashunos **Shuhrat Rizayev “Diskoteka**”[4] dramasi zamonaviy yoshlar hayotidan olingan. Drama 2-qism, 7-ko‘rinishdan iborat. Muallif bu sahna ko‘rinishida yoshlar hayotini, tadbirkorlik masalasini, yoshlarning mustaqil va erkin hayotini, jamiyatdagi o‘rni, axloqiy-maishiy masalalarga munosabatlarini Oybek va Sabohat obrazlarida tasvirlab bergan. Asar mazmuniga bugungi kunda yoshlar va keksalar hayoti parallel jihatdan tahlil qilingan. Asar qahramoni Oybek eski ota-onasi yashagan muhitga e’tiroz bildirmaydi, lekin u o‘zining yangicha dunyoqarashi bilan o‘z olamida mustaqil hayot kechirishni istaydi. Bu yo‘lda esa u o‘z tadbirkorlik rejasini amalga oshiradi. Nega drama aynan “Diskoteka” deb nomlangan degan savolga javob berib ketsak. Asarda yoshlar tilidan aytilgan ushbu so‘zlar fikrimizni dalillaydi. “Diskoteka bu yoshlarning erkin zonasi, ular bu yerda hamma narsadan ozodlar” – degan fikrni yoshlar tilidan bergan muallif go‘yoki, yoshlarimizga erkinlik, tanlash huquqini yaratib berish kerakligini uqtirmoqda. Chunki asar qahramoni Oybekning dadasi o‘g‘lining nazdida bir tizimga tushib qolgan, bir xillikdan hech ham zerikmaydigan inson deb tasavvur qiladi. Keksa buvasi esa 80 ga kirsa ham hech tinib-tinchimas Oybek uchun ilhom manbai bo‘lib faol harakatga keltirilgan. Dramaturg bu qahramonlarni berishda inson har doim o‘zi hohlagan va o‘zi yoqtirgan erkinlikda yashashi shu muhitda mazmunli hayot kechirishi kerakligini

uqtirmoqda. Buni esa kollej talabalari hayoti timsolida sahnaga olib chiqdi. Mastura – haromdan hazar qiladigan ikki qizni bir ko‘z bilan katta qilgan sabrli ayol. Qizlarining hayotda o‘z yo‘lini topishi uchun ularga ishonch bildirgan mushtipar ona. Asar to‘liq zamonaviy voqelikda talqin qilinadi. Yoshlarning fikr-o‘ylari, hohish-istaklari, maqsadlari va qalb kechinmalari tasvirlari yangi inson qiyofalarini olib kirdi. Oybek va Sabohatning yoshlik kechinmalari, maqsadlarining birligi, yosh bo‘lishiga qaramay qo‘rqmasdan ota-onasidan uzoqda ishlab o‘z biznesini ochish maqsadida mustaqil qaror qabul qilganligi bugungi kun yoshlariga o‘rnak bo‘la oladi. Eng muhimi drama mag‘ziga inson hayotining bebaholigi va unda inson orzulari bilan yashash kerakligi uqtirilgan. Shu o‘rinda unutmaslik kerakki, xar bir ijodkor o‘z davrining farzandi. Dramaning zamonaviyligi – Oybek va Sabohat singari yoshlar hayotida yuqoridagi kabi voqealar hamma davrda kuzatilishi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishidadir. Umuman olganda, dramadagi voqealar asosida yoshlar hayoti yotadi. Ularning talabalik davri, yoshlik kechinmalari, sho‘xliklari uyg‘unligida kitobxonga yetkaziladi. Dramaturg harakat negizida yoshlar masalasini zamonamizning muhim axloqiy-ma’naviy, ta’lim-tarbiyani muammo darajasiga olib chiqadi. Oybekning niyati asta-sekinlik bilan syujet jarayonida mayinlik kasb etib asarning oxirgi sahnasida jiddiy tus olishi maqsadining aniq va jiddiylik bilan keskinlashib ketishini, o‘z navbatida muammoning shaxs burchi bilan bog‘lanib ketishi, zamonaviy va umuminsoniy mohiyat kasb etishi dramaturg imzosiga, badiiy uslubiga o‘zgacha gumanistik pafosni yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Ikkinchi nashri –T. : O‘qituvchi, 1986. –B. 74.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T. : O‘qituvchi, 1980. –B. 193.
3. O‘zbek dramaturgiyasi ufqlari. Pyesalar to‘plami. T. : “Adabiyot”. 2020. –B. 218-254.
4. Yoshlik jurnali. 2007-yil 5-son.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ИДЕЙ ГУМАНИЗМА В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

Аюбова Шохсанама

Наманганский государственный педагогический институт, студент 2 курса факультета изобразительного искусства и инженерной графики

Tel: +99894 509 52 25

E-mail: ayubovashohsanam3@gmail.com

Научный руководитель: Акбаров Р. М.

Аннотация: *В данной статье говорится о сущности гуманизма, отражении и развитии гуманистических идей в изобразительном искусстве, известных художниках-гуманистах и их творческой деятельности.*

Abstract: *This article talks about the essence of humanism, the reflection and development of humanist ideas in visual art, famous humanist artists and their creative activities.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada gumanizmning mohiyati, gumanistik g’oyalarning tasviriy san’atda aks ettirlishi va rivojlanishi, mashhur gumanist rassomlar hamda ularning ijodiy faoliyati haqida so’z boradi.*

Ключевые слова: *гуманизм, изобразительное искусство Возрождения, Леонардо да Винчи, Микеланджело, Рафаэль Санти, Альбрехт Дюрер.*

Key words*: humanism, fine art of the Renaissance, Leonardo da Vinci, Michelangelo, Raphael Santi, Albrecht Durer.*

Kalit so‘zlar*: gumanizm, uyg’onish davri tasviriy san’ati, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael Santi, Albrext Dyurer.*

Ренессанс отверг философию, опирающуюся па понятие человека-раба и противопоставил иную философию, опирающуюся на понятие человека-владыки, человека, познающего и покоряющего мир. Искусство Возрождения возникло в условиях переходного времени от феодализма к капитализму. По мере дальнейшего утверждения капиталистических отношений в Европе культура Возрождения неизбежно должна была распасться. Ее расцвет был связан с тем периодом, когда устои феодального общественного уклада жизни и мироощущения были, особенно в городах, основательно расшатаны, а буржуазно-капиталистические отношения еще не сложились во всей их торгашеской прозаичности, со всей их подлой «моралью» и бездушным лицемерием.

На первом этапе Возрождения личный труд ремесленника, особенно в области производства предметов домашнего обихода, еще не был полностью вытеснен, уничтожен мануфактурой; предприимчивый купец или банкир не превратился еще в безликий придаток к своему капиталу. Личная сметка, смелость, находчивость не утратили еще своего значения. Поэтому ценность человеческой личности определялась не столько «ценой» ее капитала, но и ее действительными качествами. Активное участие каждого горожанина в общественной жизни создавало особенно благоприятные обстоятельства для расцвета личности деятельной, полной энергии. Очень характерно для Возрождения широкое обращение к празднично-торжественным архитектурным сооружениям, на фоне которых выступает в монументальных скульптурных и живописных произведениях образ человека, господствующего над миром или активно борющегося в нем для достижения своих целей. Отсюда и земной, светский характер, свойственный большинству церковных сооружений, создаваемых в Италии на протяжении XV – XVI вв.

Ярким примером этого может служить собор св. Петра в Риме. Спроектированный великим итальянским зодчим Донато Данджело Браманте (1444 – 1514) в виде центрально-

купольного сооружения в форме греческого креста с закругленными ветвями, мощным сферическим куполом над средокрестием, собор должен был представлять совершенно новый тип католическою храма, где пространство преобладает над массой, создавая необычный эффект «воздушности» и легкости постройки. После смерти Браманте в сооружении собора принимали участие почти все известные зодчие, находившиеся в Риме в первой половине XVI в. Строительство его приобретало особое значение в связи со стремлением пап укрепить позиции католицизма и папского государства. Здание должно было затмить собой руины языческих храмов и предшествовавшие ему христианские постройки. В 1546 г руководство строительством собора перешло в руки великого гения итальянского Возрождения Микеланджело Буонарроти (1475 – 1564). Несмотря на многие изменения, привнесенные в проект предшественниками, Микеланджело достиг большей слитности всей композиции, где главное пространство (центральный купол с барабаном, окруженным колоннадой) получило безусловное преобладание над второстепенными ячейками сооружения (четыре малых купола). Таким образом, Микеланджело вернулся к центрическому плану, в чем проявилось торжество гуманистических идеалов. [1] В эпоху Возрождения искусство играло исключительную роль в культуре и определяло, в значительной мере, лицо эпохи. Отдельные цехи, соревнуясь друг с другом, украшали храмы и площади прекрасными произведениями. Представители богатых патрицианских родов как из личного честолюбия и политического расчета, так и из стремления к полноте наслаждения своими богатствами воздвигали великолепные дворцы, строили дорогие общественные сооружения, устраивали для граждан пышные праздничные зрелища и шествия. Живописцы, ваятели, зодчие, движимые духом благородного соревнования, стремились в своих произведениях достичь наибольшего совершенства. Характерной чертой искусства эпохи Возрождения явился небывалый расцвет реалистической живописи. Живопись впервые раскрывает заложенные в ней возможности широкого охвата жизни, изображения деятельности человека и окружающей его среды.

Искусство Возрождения впервые в истории реализма нашло путь к созданию образа, в котором сочеталось яркое раскрытие индивидуального своеобразия личности с выявлением наиболее типичных и характерных качеств человека. Реалистический портрет Возрождения неразрывно связан с периодом его наивысшего расцвета, с именами ван Эйка, Леонардо да Винчи, Рафаэля, Дюрера, Тициана. Портрет Возрождения пронизан пафосом утверждения личности, сознанием того, что разнообразие и яркость индивидуальности ее есть необходимое условие нормально развивающегося общества. Широкое распространение получает перспективный многофигурный рельеф. В нем художник

сочетал пластическую наглядность скульптуры и свойственную живописи глубину перспективно построенного пространства, стремился изобразить сложные события с участием большого количества людей. Яркой иллюстрацией может служить рельеф «Битва кентавров» – одна из первых, дошедших до нас, скульптурных работ Микеланджело. Несмотря на то, что произведение выполнено семнадцатилетним юношей, в нем выдвигается основная тема искусства Микеланджело – тема борьбы как апофеоз героического человека, его силы и красоты.

Если на начальных этапах Возрождения все виды искусства еще тесно связаны с художественным ремеслом, то к началу Высокого Возрождения происходит выделение живописца и скульптора из среды ремесленников. Мастер живописи или ваяния – это артист, яркая, одаренная творческая личность, полностью отделившаяся от остальной массы ремесленников. В случае успеха он – богач, занимающий видное место в обществе. Но свобода творчества таила в себе и опасность неустроенности личной судьбы, элементы конкуренции и соперничества. Новое положение художника в общественной жизни также таило в себе опасность разрыва между «высоким» и «ремесленным» искусством.

Значительно позднее эта опасность особенно пагубно сказалась на прикладных искусствах. В период же Возрождения взаимосвязь не была еще полностью нарушена. Например, стоит лишь вспомнить замечательные ювелирные изделия ваятеля позднего Возрождения Челлини, деятельность француза Паллиси, соединившего в своем лице крупного ученого-гуманиста и мастера майолики. Не случайно, что в эпоху Возрождения не только расцветали почти все известные ранее виды прикладного искусства, но и получили дальнейшее свое развитие такие его отрасли, как ювелирное дело, художественное стекло, роспись по фаянсу и т. д. Жизнерадостность и звучность красок, изящное благородство форм, глубокое чувство единства стиля характерны для прикладного искусства Возрождения.

Донателло (Donatello; родился в 1386 году – умер в 1466 году) – величайший итальянский скульптор XV века, выдающийся мастер изобразительного искусства эпохи Раннего Возрождения. Творческое наследие Донателло включает групповые и индивидуальные скульптурные композиции, бюсты, барельефы, надгробия и конные статуи. Наряду с классическими шедеврами гениальный ваятель также создавал глубоко реалистические скульптурные образы. [2]

Микеланджело (Michelangelo; родился 6 марта 1475 г. – умер18 февраля 1564 г.) был великим итальянским художником эпохи Возрождения: скульптором, архитектором, живописцем, литератором и философом. Работы Микеланджело еще при жизни

гениального мастера были признаны шедеврами, а сам он первым из деятелей европейского искусства удостоился чести написания подробной биографии. Мадонна у лестницы 1491 [3]

Рафаэль Санти – великий итальянский художник, скульптор и архитектор, яркий представитель Эпохи Возрождения. Автор нескольких десятков изображений Богоматери, среди которых знаменитая «Сикстинская Мадонна». Эпоха Возрождения подарила миру множество великолепных мастеров изобразительного искусства, архитектуры и графики. В плеяду божественных гениев вошел и Рафаэль Санти – итальянский художник, ставший лучшим последователем умбрийской и римских школ. Его полотна, отражающие самую суть эпохи Ренессанса, стали символом перехода человечества от Средневековья к периоду Просвещения и Нового времени.

Эпоха Ренессанса подарила миру много громких имен. Да Винчи, Микеланджело, Рафаэль и другие художники оставили потомкам истинные шедевры изобразительного искусства, которыми люди восхищаются до сих пор.

Подводя итоги, можно отметить, что искусство с момента своего зарождения несло в себе идею некой хитрости, вследствие которой человек, подражая природному, берет над ним верх. Между тем, гуманистический путь искусства начинается только с эпохи Ренессанса, когда на смену пассивному античному художнику-подражателю приходит активный творец-субъект, преобразующий и совершенствующий мир в акте своей творческой деятельности. В XX веке в философском дискурсе рождается несколько иное прочтение гуманизма искусства, репрезентируемое философией М. Хайдеггера, в которой гуманистичность искусства есть присутствие бытия в творении художника. [4]

В заключение можно сказать, что в период Возрождения в Европе, начавшегося в XIV веке, была предпринята попытка прославить человека в изобразительном искусстве, показать, что он есть высшее и совершеннейшее из всех других существ на земле.

Список использованной литературы:

1. Гуманизм искусства эпохи возрождения // https://studfile.net/preview/5356951/page:9 [16. 05. 2024.]

2. https://veryimportantlot. com/ru/news/obchestvo-i-lyudi/skulptor-donatello-biografiya-i-tvorchestvo //донателло биография [16. 05. 2024]

3. https://veryimportantlot. com/ru/news/obchestvo-i-lyudi/khudozhnik-mikelandzhelo-biografiya-tvorchestvo-skulptury // Микеланджело[16. 05. 2024

4. https://www. gramota. net/articles/issn_1997-292X_2014_12-2_08. pdf // гуманизм и искусство [16. 05. 24]

СОВЕТ МУСТАЛАКАЧИЛИГИ ШАРОИТИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ

Бахром Джамолович Джалолов
НамДУ эркин тадқиқотчиси

Аннотация: *Ушбу мақолада, совет мустамлакачилиги шароитида Ўзбекистонда экологик вазиятнинг оғирлашуви ва ўзбек халқининг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида кўрсатган салбий таъсири, “инсон қадри ва омили”дан давлат манфаатларининг устун қўйилиши, аҳоли орасида турли касалликларнинг кўпайиши, айниқса болалар соғлиғида юзага келган муаммоларнинг аосий сабаблари танқидий-таҳлил қилиб берилиб, совет хукуматининг экологик вазиятнинг кескинлашувидаги йўл қўйган камчиликлари кўрсатиб ўтилади.*

Калит сўз-иборалар*: ”Пахта яккаҳокимлиги”, гидротехник иншоот, “Орол фожеаси”, кимёвий заҳарли моддалар, дефолиятция, болалар касалликлари, анемия, болалар лагерлари*

Аннотация: *В данной статье рассматривается обострение экологической ситуация в Узбекистане в условиях советского колониализма и его негативное влияние на социально-экномическую жизнь узбекского народа, приоритет госдуарственных интересов над “человеческими ценностями и факторами”, повышение разлычных заболеваний среди населения, особенно остро стоят проблемы, возникшие в детском здоровье, -будут проанализированы и показаны недостатки советкой власти и обострении экологической ситуации.*

Ключевые слова: *“Хлопковая монополия”, Остроовная катасрофа”, химические токсины, дефолиация, десткие болезни, анемия, детские лагеря, десткий труд.*

Annotation*: In this article, the aggeravation of the environmental situation in Uzbekistan under the conditions of Soviet colonialism and its negative impact on the socio-ekonomic life of uzbek people, The priority of state interests over “human value and factor”, the increase of various diseases among the population, especially the problems that have arisen in children’s health are critical. -will be analyzed and the shortcomings of the Soviet government in the aggravation of the environmental situation will be shown.*

Key words*:”Cotton monopoly”, “Island disaster”, Chemical toxins, defaoliation, children”s diseases, anemia, childern’s camps, child labor*

Совет ҳокимиятининг XX аср 50-60 йилларида Ўзбекистонда ишлаб чиқариш ресурсларини ўз манфаатларига бўйсундириш ва республикани пахта етиштириб берув-чи, мустамлакага айлантириш сиёсати кучайиб борди.

Республика иқтисодиётида “пахта яккаҳокимлигини ўрнатиш” учун олиб борган чора-тадбирлари орқасида, барча ресурсларни жалб этиш каби талаблар илгари сурил-ди.

Ўзбекистоннинг пахта етиштиришдаги табиий имкониятлари инкор қилинди ва ҳар қандай йўл билан бўлса ҳам, пахта миқдорини йилма-йил ошириб бориш, совет хукуматининг устивор мақсадига айланди. Аввало, республикада янги пахта майдонларини кенгайтириш, Мирзачўл, Қарши чўлларини ўзлаштириш, кенг кўламда иррига-ция ва мелиорация ишларига эътибор қаратилди.

Жумландан, 1971-1975-йилларда ирригация ва мелиорация ишларини ўзига 3 млрд 750 млн сўм маблағ сарфланиб, 1975-1980 йилларга шу мақсадларга 6 млрд маб-лағ ажратилиб, 1978 йилга қадар, 1 млрд кубометр сув сиғадиган 15 та сув омбори бун-ёд этилиб, 93 минг гидротехник иншоотлар қурилди[1].

Қишлоқ хўжалигида қўлга киритилган улкан ютуқлар, Ўзбекистонда “Орол фожеаси”нинг юзага келиши ҳамда экологик вазиятнинг кескинлашувига пойдевор ўрнат-ди.

1960-1985 йилларда денгиз сатҳи 13 метрга пасайди ва денгиз ўз ҳажмининг 55 фоизини йўқотиб, денгиз тубининг 2 минг гектардан ошиқ майдони қуриб қолди. Орол денгизи атрофида ташкил топган 2 та балиқ-консерва комбинати, 10 та балиқ заводи, 17 та балиқчилик колхозлари инқирозга юз тутди.

Фақатгина Аральск шаҳрида балиқ овлаш хўжалигининг йўқ бўлиши оқибатида, 5 минг киши ишсиз қолди[2. Б. 9]. Денгиздаги талафотлар минтақа халқ хўжалигига ҳам ўз таъсирини кўрсатди, хусусан, Қорақолпоғистонда маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ялпи миқдори 1980 йилдаги 421, 7 млн сўмдан 1985 йилда 364 млн сўмга, Хоразм вилоятида 386 млн сўмдан 363, 5 млн сўмга пасайиб, 1960-1985 йилларда Ўзбекистон ССР сув хўжалиги вазирлиги таклифи билан, коллектор-дренаж сувларидан 10 куб километр Сирдарёга, 8 куб километр Амударёга оқизилиб, ушбу сувлар таркибида кимёвий заҳарли моддалар (пестицид, гербицид) кўплиги сабаб, ҳудуд аҳолиси ва болаларида ошқозон раки, тиф, гепатит билан касалланганлар сони 280 мингга етиб, уларни соғлиғини тиклаш учун 11 млн сўм харажат қилинди[3. Б. 5].

Ўзбекистонда “пахта учун кураш” Орол муаммоси билан бирга, ерларни турли кимёвий заҳарли моддалар билан ишлов бериш, экологик вазиятни янада чуқурлаш-тирди. Пахта ҳосилдорлигини ошириш мақсадида, ерларга меъёридан ошиқ турли менерал ва кимёвий моддалар ишлатилди.

1965 йилда республикада ҳар бир гектар пахта майдонига ўртача 165 кг азот, 85 кг фосфор, 16 кг калий ишлатилди ва йилдан-йилга миқдори ошиб борди. Совет мустам - лакачилиги зўравонлигига қарамай, республикадаги вазият юзасидан, Марказга эъти -роз билан қўрқмай чиққан, юрт вакиллари ҳам бўлди.

Жумладан, 1969 йил 17 ноябрда Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси президенти О. Содиқов бошлиқ бир гуруҳ республиканинг таниқли олимлари Иттифоқ орган-ларига ёзма маълумотнома йўллаб, унда қишлоқ хўжалигида оммавий равишда қўлла-нилаётган пестецидлар ва заҳарли моддалар инсон саломатлигига ва атроф-муҳитга ҳалокатли таъсир этаётганлигини маълум қилган эдилар[4. Б. 556]. Бироқ Совет ҳуку-мати бундай эътирозларни деярли инобатга олмади.

1985 йилга келиб, маҳаллий ерларга фосфор ўғитлари билан бирга, 775, 5 минг тонна фтор, 19, 5 тонна турли кимёвий моддалар солиниб[5. Б. 7] ҳар бир пахта майдо-нига ҳашаротлар ва касалликлардан ҳимоя қиладиган, ёввойи ўтларни қуритадиган, пестицидлар ва минерал ўғитлардан 38, 2 кг, пахта терими олдидан ғўза баргини тўка-диган дефолиантлардан 16, 2 кг, жами йил давомида 54, 2 ўғит ишлатилиши туфайли, Ўзбекистон Совет Иттифоқидаги заҳарли соддалар билан энг ёмон булғанган, қишлоқ хўжалиги минтақасига айланди[6. Б. 128].

Экологик муаммоларни янада чуқурлашуви, “Орол фожеаси” ва бошқа табиат би-лан боғлиқ масалаларни вужудга келиши, республикада болалар орасида турли касал-ликлар ҳамда соғлиғи билан муаммоларни кўпайишига сабаб бўлди. Қишлоқ хўжали-гида

кўплаб менарал ўғитларни қўлланилиши туфайли, ёз фаслида болалар орасида “чанқоқбосди” полиз маҳсулотлари туфайли, ошқозон-ичак касалликлари кўпайдики, ўзбек болалари қовун-тарвузни “новвот чой” билан истеъмол қилиши одатга айлан-ди[7. Б. 7].

Ўрганишлар шуни кўрсатдики, экологиянинг таъсири билан, 1965 йилда Фарғона вилоятида эндокрин паталогиясига чалинган 17 нафар, 1968 йилда 346 нафар, невроло- гия касалига чалинган 1190 нафар бола рўйхатга олинган. 1980 йиллар охирларида гўдаклар ўлими республикада йилдан-йилга кўпайиб борди, жумладан, 1 ёшга етмай гўдаклар сони ҳар мингта туғилган туғилган болаларга нисбатан, Қорақолпоғистонда 68, 8 нафар, Сурхондарё вилоятида 57, 7 нафар, Фарғона вилоятида 56, 6 нафарни ташкил этиб, биргина Қорақолпоғистоннинг Бўзатов туманида ҳар туғилган минг нафар гўдак дан 60 таси нобуд бўлди[8. Б. 301].

Қорақолпоғистон болаларини соғлиғини асраб-авайлашда Ўзбекистоннинг ички имкониятларидан фойдаланишга эътибор берилмади, тоғли минтақаларидаги, дам олиш лагерларига қорақолпоқ болаларини ўз соғлиқларини тиклаб олишларига шароит яратилмай, аксинча Марказ бундай вазиятда ҳам, ўз манфаатлари юзасидан иш юритди.

Масалан, 1980 йилда Москвада олимпиада ўйинлари ўтказилиши муносабати билан “гўёки Москвада меҳмонларнинг кўплиги” важ қилиниб, Москва болаларини Қрим, Кавказ ва Марказий Осиё лагерларига жўнатиш таклифини илгари сурди.

Хусусан, Москва шаҳар, Люблино туманидаги 333-сонли мактабнинг 300 нафар юқори синф ўқувчилари Наманган вилояти, Косонсой туманидаги махсус ташкил этилган дам олиш лагерида бўлдилар[9. Б. 51]

1990 йилга қадар, ҳар йили республикада ўзбек аёлларининг 80 фоизи камқонлик касалига чалингани, руҳий нуқсонли 6 мингдан ортиқ бола туғилиши кузатилди[10. Б. 431].

1988 йили Ўзбекистон ССР Соғлиқни сақлаш министрлигининг санитария-гиги-ена ва касб касалликлари илмий-текшириш институти ходимлари томонидан, Жиззах вилоятида 14 ёш гача бўлган болаларнинг заҳарли кимёвий моддалар билан боғлиқ бўлган касалликлари ўрганиб чиқилди. Натижаларга кўра, 14 ёшгача бўлган болалар ўртасида анемия(камқонлик) кўз, қулоқ, томоқ касалликлари, гипертофия (инсон би-рор аъзосининг ҳаддан ортиқ ўсиб катта бўлиб кетиши) касалликлари билан оғриши бошқа жойларга нисбатан 2 баробар юқори эканлиги аниқланди[11. Б. 86].

Республикада пахта терими компаниясида, заҳарли кимёвий моддалар тўлдирил -ган пахта майдонларида болаларни 6-синфдан бошлаб 2-3 ой давомида ушлаб тури-лиши натижасида болаларда қўл тирноқларни кўчиб тушиши, айниқса болалигиданоқ пахтазорда ишлаган айрим ўсмирларни, тиббиёт ходимлари томонидан жинсий заиф деб таъкидланди[12. Б. 2].

Ўзбекистонда экологик вазиятга баҳо бериш, уни бартараф этиш масалаларига Марказ “қайта қуриш ва ошкоралик” туфайли ўз эътиборини қаратди. 1985 йилда Мос-квада Оролбўйини даштга айланиб бораётгани масаласига бағишланган катта илмий кенгаш бўлиб ўтди ва унда Хоразм ва Туркманистоннинг Тошвуз вилоятлари, ва Қора-қолпоғистон ҳудудларидаги ташлам-оқава сувларни Орол денгизи томони йўналтиришга мўлжалланган махсус коллектор барпо этиш таклифи берилди, кейин эса Марказнинг “қоғоз”даги ушбу таклифи турли сабаблар билан бажарилмай қолиб кетди[13. Б 5].

Заҳарли кимёвий моддалар билан боғлиқ ишларда, маҳаллий қишлоқ хўжалиги аъзоларининг соғлиғи учун баъзи маҳаллий раҳбарлар томонидан совуққонлик билан

қарашлари ўз ўрнида ўлим билан боғлиқ ҳолатлар кузатилди. Жумладан, Сурхондарё вилояти, Денов туманида, тракторчи Ж. Сафаров 6 йил давомида пахта далаларига заҳарли кимёвий моддаларни сепиш билан шуғулланиб келди ва оқибатда оғир касал-лика чалиниб, вафот этиши оқибатида, унинг 9 фарзанди етим қолиб, 7 нафари ҳали вояга етмаган эди [14. Б. 10] .

1988 йилда қабул қилинган “Колхознинг янги Намунавий Низоми” қабул қили-ниб, унга мувофиқ, жамоа хўжалигида меҳнатни муҳофаза қилиш ишларини ташкил қилишга, жамоа хўжалиги бошқармаси жавобгар эканлиги, шунингдек, хавфсизлик техникаси бўйича, ишлаб чиқариш санитарияси ва меҳнатни муҳофаза қилишнинг бошқа масалалари бўйича қоида ва нормаларни бажаралишини таъминлаш белгилаб қўйилган бўлсада[15. Б. 174], баъзи жамоа хўжалиги раҳбарлари аксарият ҳолларда, аъзоларга нисбатан юқоридаги мажбуриятларга амал қилмаганликлари кузатилди.

1988 йилда совет ҳукумати мамлакатда экологик вазиятни назорат қилиш ва бу бўйича чора-тадбирларни кучайтириш юзасидан дадил қадамлар ташлади.

КПСС Марказий Қўмитаси ва СССР Министрлари Совети мамлакатда экологик вазиятни назорат қилиш ва сувга бўлган муносабатини яхшилаш мақсадида “Мамла-катда табиатни муҳофаза этиш ишини тубдан қайта қуриш тўғрисида” ҳамда “Мамла-катда сув ресурсларидан фойдаланишни яхшилаш юзасидан биринчи навбатдаги тадбирлари” ҳамда қарорлари қабул қилинди[16. Б. 259].

Ушбу қарорлар орқали Совет ҳокимияти жойларда вужудга келган, экологик вазиятнинг кескинлашувида маҳаллий ишлаб чиқарувчи кучларни ривожлантириш, экологик оқибатлар тегишли равишда ҳисобга олинмаган ҳолда, амалга оширилгани кўрсатилиб, табиатни муҳофаза этиш ягона сиёсатини юргизиш, табиий ресурсларнинг беҳисоблиги ҳақидаги психологияни ва ва табиатга бўлган оддий, қолоқ истеъмолчи -ликни йўқотиш юзасидан чора-тадбирлар комплекси ишлаб чиқилди.

Юқоридаги қарорлар мазмуни шуни кўрсатдики, Совет ҳокимияти ўзи йўл қўйган экологик хатолари учун жавобгарликни маҳаллий республикалар раҳбарларига юкла-ди.

1988 йилнинг 30 сентябрида КПСС Марказий Қўмитаси ва СССР Министрлари Совети “Орол денгизи туманларида экология ва сантария вазиятини тубдан яхшилаш, Орол ҳавзасида сув ва ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш ҳамда муҳофаза қилишни кучайтириш чоралари тўғрисида”ги қарори [17. Б. 95], чуқурлашиб кетган Орол фожеасинини олдини олишда энди кеч эди ва амалиётда ҳеч қанда натижа бермади.

Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И. Каримов таъкидлагани -дек;”Орол фожеасини 70 йиллар бошларида, жуда кечи билан 80 йилларнинг бош -ларида, денгизнинг сатҳи камаётган бир пайтда идора қилиш мумкин эди[18. Б. 126]”.

Табиатни асраб-авайлаш, оналик ва болаликни муҳофаза этиш, экологик вазиятни яхшилаш каби муаммолар, Совет Иттифоқи парчаланиши ҳамда ўз истиқлолига эриш-ган Ўзбекистон мустақиллиги туфайли ўз ечимини топди.

Ўзбекистон Республикаси атроф-муҳит тозалигини таъминлаш, Орол денгизи аҳолисини соғлиғини асраб-авайлаш, биринчи ўринда қишлоқ хўжалигида заҳарли химиявий моддалардан фойдаланишдан воз кечиш чора-тадбирлари амалга оширилди.

Туғилиш жараёнида гўдаклар ўлими билан боғлиқ салбий омилларга қарши курашга алоҳида эътибор қаратилди. Республикада болаларни муносиб дам олишлари учун сиҳатгоҳлар ва махсус болалар шифохоналари фаолияти такомиллаштирилиб, ушбу

тадбирлар болаларнинг етук фарзандлар бўлиб ўсишида муҳим рол ўйнади. Инсон қадрини улуғлаш, айниқса болалар ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоялаш, уларни соғлиғига, хафсизлигига, ахлоқига, ақлий ва жисмоний ривожланишига хавф солувчи, шу жумладан, унинг таълим олишига тўсқинлик қилувчи ҳар қандай меҳнат шаклла-рига барҳам берилди.

Манбалар ва адабиётлар/Источники ва литература/References

1. Рашидов Ш. “Ленин декрети билан”. //”Совет Ўзбекистони”. 1978 йил 18 май
2. Алибеков Л. Нишонов С. “Орол фожеасининг оқибатлари”. //”Фан ва турмуш”. 1994. №3
3. “Ҳалокат маскани”//”Фан ва турмуш”. 1990. №6
4. “Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида”. Ўзбекистоннинг янги тарихи.

2-китоб. Тошкент. :”Шарқ. 2000.

5. Зокиров Т. “Минерал ўғит ва экология”//”Фан ва турмуш”. 1994. №1
6. Газиянц С. Аркадий Мар. “Асрлар ва мамлакатлар оша”. Тошкент. :”Чўлпон”. 1991.
7. Соатов А. Муҳаммадалиев Д. “Авлодлар олдида жавобгармиз”. //”Фан ва турмуш”. 1987. №6
8. “Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати:тарих шоҳидлиги ва сабоқлари”. Тошкент. :”Шарқ”. 2000.
9. Каримова. М. “Бўронлардан излаб ҳаловат”. Наманган. :2016
10. Шамсутдинов Р. Каримов Ш. ”Ватан тарихи”. 3-китоб. Тошкент. :”Шарқ”. 2010
11. Хўжамбердиев. Ё. “Ўзбеклар иши”. Тошкент. :”Ёзувчи”. 1990.
12. Солаев М. “Шимолдан келган офат”//”Фан ва турмуш”. 1989. №10
13. Юсупов. Э. Зиёдуллаев С. “Ҳали ҳам кеч эмас”. // “Фан ва турмуш”. 1987. №6
14. “Саодат”. 1991. №4
15. “Колхоз аъзоларининг ҳуқуқлари”. Тошкент. :”Меҳнат”. 1990
16. “КПССнинг социал сиёсати”. / Мигулский К ва бошқ. Тошкент. :”Ўзбекистон”. 1988
17. Абдуллаев. О. “Жумҳуриятлараро агросаноатни ташкил этиш муаммолари” Тошкент. :”Меҳнат”. 1992.
18. Каримов. И. “Ўзбекистон XX аср бўсағасида:хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. Тошкент:”Ўзбекистон”. 1997

АМИР ТЕМУР ДАВРИ ДАВЛАТЧИЛИК ТИЗИМИ

Бобоев Мақсуджон Эшмаматович

Тошкент кимё-технология институти Шаҳрисабз филиали катта ўқитувчиси

mboboyev84@gmail. com

Аннотация: *Ушбу мақолада Амир Темур давлатининг ташкил этилиши ва давлат бошқаруви таҳлил этилган.*

Тарихда муайян зиддиятларга рўбару келиб давлатларнинг таназзулга юз тутиши, улар ўрнига яна янги давлатларнинг вужудга келиши – бу тасодифий ҳодиса эмас. У жамият тараққиётининг маълум қонуниятларига асосланади ва ўз инъикосини ифода қилади. Тарихнинг муҳим, айни пайтда, бурилиш чорраҳасини англаш, унинг мураккаб суқмоқларини идрок этиш ва шу жараёнлар ривожига мутаносиб жавоб топа олиш ҳукмдор шахслардан улкан салоҳият, иқтидор ҳамда юксак тафаккурни талаб этади. Сиёсий ва маъмурий тизимда марказий шакл турини олган туркий давлатлар, маълум бир ҳудудда кетма-кет олий ҳокимиятга эга бўлади, у махсус мажбурловчи бошқарув воситалари билан ўзига хосдир. Аммо, уларнинг асосий моҳияти, сақланиб қолган: булар ҳокимият (ҳокимият учун кураш), иерархия, аҳолининг маълум бир ҳудудда нисбатан бир хил яшаш жойи, мулк учун кураш (моддий неъматлар) ташкил топади. Давлат субъектларни қўрқув ва итоаткорликда сақлаш учун воситалар мажмуи сифатида намоён бўлади. [1]

Таянч сўзлар: *Амир Темур, “Темур тузуклари”, Ҳукмдор, Давлат, Кенгаш, Салтанат, Ислом , Адолат, Тангри, Илм-фан.*

Аннотация: *В данной статье анализируется организация государства и государственного управления Амира Темура.*

В истории упадок государств в условиях тех или иных конфликтов и возникновение на их месте новых государств не является случайным явлением. Оно основывается на определенных законах развития общества и выражает его мнение. Осознание важного и в то же время переломного момента в истории, постижение ее сложных тенденций и нахождение ответа, соразмерного развитию этих процессов, требует от правящих лиц большого потенциала, таланта и высокого мышления. Тюркские государства, занявшие центральную форму в политической и административной системе, последовательно обладают верховной властью на определенной территории, для которой характерны особые инструменты принудительного управления. Однако их основная сущность сохранилась: они организованы по принципу власти (борьба за власть), иерархии, относительно единообразному месту проживания населения на определенной территории, борьбе за собственность (материальные блага). Государство предстает как набор инструментов, позволяющих держать подданных в страхе и повиновении.

Ключевые слова: *Амир Темур, «Тузуклари Темур», Правитель, Государство, Совет, Султанат, Ислам, Справедливость, Бог, Наука.*

Annotation: *This article analyzes the organization of Amir Temur's state and state administration.*

In history, the decline of states in the face of certain conflicts and the emergence of new states in their place is not a random phenomenon. It is based on certain laws of the development of the society and expresses its opinion. Realizing the important, at the same time, turning point in history, perceiving its complex trends and finding a response proportionate to the development of these processes requires great potential, talent and high thinking from the ruling persons. The Turkic states, which took the central form in the political and administrative system, successively have supreme power in a certain area, which is characterized by special coercive management tools. However, their main essence has been preserved: these are organized by power (struggle

for power), hierarchy, the relatively uniform place of residence of the population in a certain area, and the struggle for property (material benefits). The state appears as a set of tools to keep subjects in fear and obedience

Key words: *Amir Temur, "Tuzuklari Temur", Ruler, State, Council, Sultanate, Islam, Justice, God, Science.*

“Темур тузуклари” да Амир Темур пиридан (Мир Саид Барака таҳмин қилинади) олган мактубида давлатни Тангри таолонинг корхонасининг кичик бир нусхаси, деб таъриф беради. Унда турли мансабдаги ходим ва хизматкорлар, ноиблар, эшик оғаларининг ҳар бири мартабасига яраша ўз юмуши билан машғул бўлмоғи ҳамда ўз ваколат доираларидан чиқиб кетмасдан хизмат қилмоқлари лозимлиги. Ҳукмдор ҳушёрлик ва эҳтиёткорлик билан вазирлар, лашкарбоши, амалдорлар, иш юритувчилар, сипоҳсолорлар ҳеч бири ўз чегарасидан чиқмаслиги ва ҳукмни бажо этишлари билан салтанатда интизом таъминланиши масалаларига очиб берилади. Фақат ҳар нарсани ва ҳар кимни ўз мартабасида сақлай олиш билан давлат корхонаси барқарор ва самарали ишлаши мумкинлигига эътибор қаратилади. [2] Албатта диний уламо Шайхнинг давлат бошқаруви борасидаги ушбу угитлари ниҳоятда эътиборли. Ислом таълимотида давлатшунослик борасидаги шу каби илмлар борлиги бизни чўқурроқ ўрганишга даъват этади.

«Тузуклар»га кўра, тоифаларнинг **биринчи даражаси** саййид, уламо, шайх ва фозиллар деб қаралади. Бу борада Амир Темур илм ва дин аҳлининг давлат сиёсатидаги нуфузи тўғрисида ўзидан олдинги таълимотларга амал қилган ҳолда олиму уламоларни тоифаларнинг энг юқори мартабаси сифатида кўради. У «Саййидлар, уламо, шайхлар ва фозилларни ўзимга яқинлаштирдим. Улар менинг саройимга доимо келиб-кетиб, мажлисларимни безаб туришди. Диний, ҳуқуқий, ақлий масалаларни ўртага ташлаб, қимматли фикрлар билдиришарди. Ҳалол ва ҳаромга оид масалаларни мен улардан ўргандим, дейди. [3]

Амир Темур исломий илмларни дунёвий фанлардан айри ҳолда кўрмайди, Зотан, Соҳибқирон тақводор, художўй бўлиш билан бирга тафсир, тавҳид, ҳадис, фиқҳ, тарих, фалсафа, фалакиёт, табобат каби илоҳий ва дунёвий илмларни чўқур ўзлаштирган шахс эди. Олимларга бўлган иззат икроми ҳам шунда. Француз олими Лянглэ - «Темур олимларга серилтифотли эди. Билимдонлиги билан бир қаторда софдиллигини кўрган кишиларга ишонч билдирарди. У тарихчилар, файласуфлар, шунингдек, илм-фан, идора ва бошқа ишларда билимдон бўлган барча кишилар билан суҳбатлашиш учун кўпинча тахтдан тушиб, уларнинг ёнига келарди. Негаки, Темур бу соҳаларга ғамхўрлик қилишга асосий эътиборни берар эди. Темур одамларни ўзига бўйсундириш қобилиятига эга эди. У ўзининг бу қобилиятини одамларини бахтли қила билиш таланта билан уйғунлаштирди». [4]

Яна бир мисол, Амир Темур улуғ ва улкан олимларни ўз атрофида ишлашига катта аҳамият қаратади. Мавлоно Шиҳобиддин Муҳаммад ўз даври ноёб истеъдод эгаси эканлигини йирик араб тарихчи Аҳмад ибн Арабшоҳ ҳам шундай эслатади: Амир Темур“нинг девони муншийси: У (фақат) котиб ус-сир Мавлоно Шамсуддиндан иборат бўлиб, у замонасининг қозиси, ўз даврининг фозили эди. Иншо хабарларини тузишда у форсий ва арабийда хоҳлагинача тасарруф юритарди. Унинг қаламининг тиғи ўз иқлимлари фатҳида махдуми (Амир Темур)нинг найзасидан ҳам ўткир эди”. [5]

Иккинчи тоифага хос саналган доиралар, ақлли, доно кишилар ва кенгаш соҳиблари эҳтиёткор, қатъиятли, тажрибали, мулоҳазали кайвони иш юритувчилар билан бошқарувнинг назарий қарашлари бойитилади ҳамда ҳаётга татбиқ қилишга эришилади. Аслида масаланинг мураккаблиги ҳам шундаки, давлат ривожига қаратилган сиёсатни белгилаш бир муҳим масала бўлса, уни амалда жорий этиш ундан-да муҳимроқ вазифа ҳисобланади. Яъни, уни амалда жорий эта оладиган ақлли, тажрибали, ишбилармон, тадбирли тоифаларнинг давлат бошқарувидаги иштирокининг тўғри танлай олиниши боис жамиятда (халқ) ҳокимият иродаси уйғунлиги таъминланади ва қадриятлар татбиқ этилади.

Учинчи тоифа сифатида у дуогўй ва руҳоний кишиларни қадрлайди. Уларнинг муҳим хизматларига давлатда белгиланган тадбиру режаларни амалга ошириш борасида руҳий мадад берувчилар, сипоҳларга қувват ва Аллоҳнинг номи билан ишонч ато этувчи тарғиботчилар (мафкурачилар) сифатида қарайди. Қабул қилинган қарорларни аъёнларга тушунтириш ва шу мақсадга сафарбар этиш ишларида улар энг муҳим табақалардан бири ҳисобланган. Бу тўғрида Амир Темурнинг ўзи шундай дейди: «Чунончи, менинг лашкарим Тўхтамишхон лашкарларининг кўплигини кўриб саросимага тушиб қолганда, соҳиби дуо бўлмиш Мирзиёуддин Сабзаворий бошидан салласини олди; қўлларини дуога очиб, мен учун Тангридан зафар тилади. Ҳали дуоси тугамай, дуо таъсири кўринди ва лашкарим ёғийни қочирди». [6]. Маълумки, қўлни очиб бирон-бир тадбир кўрилмаса, Аллоҳ ёрдам бермайди. Шунинг учун ҳар бир жанг олдидан кўрилган тадбирдан ташқари сипоҳийларнинг руҳий қуввати диний-мафкуравий жиҳатдан мустаҳкамланган. Бу масалага Соҳибқирон ҳар жанг олдидан катта аҳамият берган ва руҳий ҳолатни кўтаргувчи шахслар хизматидан оқилона фойдаланган.

Тўртинчи ва бешинчи тоифа жасур, шижоатли, ҳарбий ишда суяги қотган, тажрибали амирлар, сарҳанглар, сипоҳсолорларни, қўшин бошлиқларини давлат кенгашига аъзо сифатида киритган. Давлатнинг ҳарбий ишларида уларнинг даражаси тегишли моддий рағбат ва мартабалар билан белгиланган. Амир Темур бундай тоифадаги одамлар билан энг оғир ва машаққатли вазифаларни уддалашга эришади. Масъулиятли ва таҳликали дамларда уларнинг тажрибасига суянади.

Амир Темур олий инсоний фазилатларни тушунувчи ва қадрловчи шахс бўлиб, ўзи бу борада ўрнак бўлгувчи инсон эди. Шу боис ҳам, у ҳокимиятга чикишдаги қийин йилларда ўз ортидан иқтидорли ва диёнатли кишиларни эргаштирди ва улар орасидан жасур ва садоқатли ҳарбийларни тарбиялаб, камолга етказди. Жоку барлос, амир Мусо, амир Ҳиндука, Ики Темур, Сулаймоншоҳ, Шоҳмалик ва бошқалар шулар жумласидандир. [7]

Олтинчи тоифа вакиллари ишончли, тўғри эътиқодли, оқил хирадманд, жамият аҳолисининг ўрта қатламлари ҳисобланган. Улар турли аҳоли қатламлари ичида бўлиб, давлат ва унинг сиёсати тўғрисидаги барча соғлом-носоғлом гаплардан бохабар кишилар бўлган. Уларнинг фикрига ҳамда хайрихоҳлигига асосланиш жамиятнинг ҳар бир қатламини давлат сиёсатига тортиш ва уларга масъулият юклаш, иштирок этиш каби имкониятларни яратган. Шунинг учун Амир Темур давлат сирларини уларга очиб, салтанат ишларида қанчалик тўғри сиёсат олиб борилаётганлигидан огоҳ бўлиб турган.

Еттинчи тоифага вазирлар, девон котиблари ва муншийлар кирган. Бундай лавозимларга довюрак, садоқатли, яхши жангчилар, ишбилармон, тадбиркору уддабуронлар, тарбият ва фазилатлари билан идрок қилиш салоҳиятига эга бўлган одамлар

тоифаси – Аллоҳдан берилган алоҳида хислатлари, табиатлари билан ажралиб турганларга нисбат берилган.

Ҳакимлар, табиблар, мунажжимлар ва муҳандислар, муҳаддислар, машо-йихлар, суфийлар, касб-ҳунар эгалари, савдогар, сайёҳларнинг ижтимоий қатлами бир хил даражада бўлса-да, бажарадиган вазифаларига қараб алоҳида қолган тўрт табақага ажратилган. Амир Темур уларни «салтанат корхонасига ривож берувчилардир» деб қарайди. [8] Соҳибқирон дунёга ҳукмдор бўлиш учун қудратли қўшиндан ташқари билимдон ва ўткир маслаҳатчилар кераклигини яхши англаган ва унга амал қилган. Шунинг учун олимларга, шайх, уламо ва саййидларга алоҳида эътибор қаратган. [9]

Салтанат ўз табиатига мувофиқ турли қарашлар, мақсадлар, манфаатлар ва истаклар ҳосиласидан ташкил топади. Шунинг учун юқорида таъкидлаганимиздек, салтанат ишида ҳар кимнинг ўрнини, сўзини эътиборга олмаслик давлатда ички хуфиёна зиддиятларнинг кучайишига олиб келади. Турли қарашлар ва фикрларнинг салмоғига қараб, уларни давлат бошқарувида умумлаштириш, раиятнинг иродасини ҳукмдор иродаси билан уйғунлаштириш сабабли кафолатланган барқарор бошқарув имкониятлари мустаҳкамланиб келган. Муносабатларнинг шу тариқа уйғунлигига эришиш давлат бошқарув сиёсатининг адолатини амалий жиҳатдан таъминланишига хизмат қилган.

«Тузуклар» га кўра, жамиятда ҳеч бир табақа ёки тоифа давлат хизматидан ташқарида бўлмаган. Уларга маълум вазифа ёки масъулият юкланган. Шу тариқа фуқаролар ўз мавқелари ва имкониятлари даражасида мамлакат ривожига, унинг ободончилигига, юрт фаровонлигига сафарбар этилган. Табақаларнинг давлат бошқарувидаги иштироки жамиятнинг касбий ва ахлоқий салоҳиятини тартибга солган, шу тартибга мувофиқ моддий тақсимот барчанинг имконияти даражасида бўлишини таъминлаган. Натижада, ҳокимиятга тасодифан мавҳум шахсларнинг иштирокидан фарқли ўлароқ, эътиқоди мустаҳкам, иродали аъёнларнинг кириб келиши рағбатлантирилган. «Салтанатим қонун-қоидаларинн шу ўн икки тоифага боғлаб туздим. Шу ўн иккита тоифани салтанатим осмонининг ўн икки буржи ва давлатим корхонасининг ўн икки ойи деб ҳисобладим», деб таъкидлаган эди. [10]

Мазкур муаммоларга аҳамият қаратар эканмиз, Амир Темур фаолияти ва даври тарихини ёритишдаги услуб ва талқинлардаги илмий муаммолар долзарблиги туркий давлатларнинг ташкил топиш, ворисийлик анъаналари, ташкилий тузилмалари, унинг империявий шакли, ҳокимият моҳияти, ҳарбий хизмат, суд-ҳуқуқ, солиқ, молия, бож, дин, маданият, санъат ва адабиёт ва бошқа барча маънавий, моддий бошқарув тизимлари тартиб-тамойилларини изчил ҳамда тизимли ўрганишни, ўзаро алоқадор воқеликларни яхлит қараш ва қиёслаш орқали Соҳибқирон яратган Турон давлати таълимоти ва унинг жаҳон тарихидаги муҳим аҳамиятини янада теранроқ англаш ҳамда очиш имкониятлари вужудга келади.

Азамат Зиё ўз тадқиқотларида Амир Темур даври давлатчилик тизими ўтмишга, анъаналар, тажрибалар, сабоқлар, қонуниятларга асосланган ҳолда ташкил килинганлигини таъкидлайди. У Амир Темур даврига қадар шаклланиб замонлар синовидан ўтган асосларни қуйидаги таснифларда келтиради, улар туркий давлатларнинг давлатчилик давлатчилик генезиси ва уларнинг ривожланиш эволюциясини ифода қилади. Жумладан:

1. Давлат ўз вазифасини бажармоғи учун, энг аввало, сиёсий жиҳатдан мустақил бўлиши керак.

2. Давлат ва жамият сиёсий яхлитлиги бузилмаслиги керак.

3. Давлат ва жамият муайян бир қонунлар, тартиблар, мафкура асосида бошқарилмоғи лозим.

4. Бошқарувнинг турли табақалари, йўналишлари, соҳаларини мувофиклаштириб турувчи маълум бир бошқарув тизими шаклланган бўлиши даркор.

5. Жамиятда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар аҳволи (тараққиёти) давлат диққат марказида турмоғи лозим.

6. Фан ва маданият равнақи тўғрисида доимий қайғуриш давлат аҳамиятига молик қатъий сиёсат сифатида қаралиши лозим.

7. Ҳар бир давр шарт-шароити, тартибларига кўра давлат жамият ички тараққиёти масалаларини ташқи дунёда мавжуд омиллардан фойдаланган ҳолда ҳам ҳал этиб бориши даркор.

8. Давлат тепасида турган кучлар ўтмиш, замона ва келажакни теран тафаккур, қатъий иймон, ғоятда юксак маънавиятпарварлик ва миллатпарварлик ила англамоғи керак.

9. Жамият ривожида барча ижтимоий табакалар фаолиятини назарда тутиш ва манфаатларини таъминлашдан иборатдир. Амир Темурнинг ўзбек давлатчилиги тарихида тутган буюк ўрни шундаки, у ўзининг бутун фаолияти мобайнида ана шу асосларни руёбга чикара олди. Яъни у бир неча асрлар давомида шаклланиб келган давлатчилигимиз ижроия тизимидаги бошқарувнинг классик шаклларини тиклай олди. [11]

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати.

1. Миннегулов Х. Идея государственности в тюрко-татарской литературе VII–XVI вв. Казань – 2016. С- 3

2. Темур тузуклар” //Форсчадан| А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов . Т. : Yangi kitob, 2020. 129-б.

3. “Темур тузуклар” //Форсчадан| А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов . Т. : Yangi kitob, 2020. 130-б.

4. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тўтган ўрни ва роли. Тошкент: Фан, 1993. 46-бет.

5. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи, 2 китоб, 1992, 84-б.

6. “Темур тузуклар” //Форсчадан| А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов . Т. : Yangi kitob, 2020. 82-б.

7. Одилов А. Амир Темур тучуклари - давла! Гнипкаруви асоси. —'Г. : «Ғап va texnologiya», 2016. 170-б.

8. Темур тузуклари. – Т. : «Шарқ», 2005. 83–66-бетлар.

9. Юнус Огуз. Тамерлан. Путь к вершине. Книга первая / Пер. Али Саидова. – М. : Издатель Воробьев А. В. , 2012. 45-б.

10. “Темур тузуклар” //Форсчадан| А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов . Т. : Yangi kitob, 2020. 30-б.

11. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т. : «Шарқ», 2001. 172-б.

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ЎЗБЕК ХАЛҚИ МИСОЛИДА

Тураева Шарипа Эгамбердиевна

Импулс тиббиёт институти, ўқитувчи

Аннотация: *Ушбу мақолада иккинчи жаҳон урушида фронтда жасорат намуналарини кўрсатган, бошқа жангчиларга ўрнак бўлган ватандошларимиз тўғрисида ва фронт ортидаги оғир машаққатли маҳнатлари натижасида ўзбек халкининг ғалабага қўшган ҳиссаси тўғрисида маьлумот берилади.*

Калит сўзлар*: 252-ўқчи дивизия, фронт, қўл жанги, станокли пулемёт, рота, снаряд, медсанбат, танк аэроплани, Совет иттифоқи қаҳрамони*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о наших соотечественниках, проявивших храбрость на фронте во Второй мировой войне, ставших примером для других бойцов, и о вкладе узбекского народа в победу в результате его упорного труда в тылу.*

Ключевые слова: 252-я стрелковая дивизия, фронт, рукопашный бой, пулемет, рота, снаряд, медсанбат, самолет-танк, Герой Советского Союза.

Abstraction: *This article provides information about our compatriots who showed bravery at the front in the Second World War, who were an example to other fighters, and about the contribution of the Uzbek people to victory as a result of their hard work behind the front.*

Keywords: *252nd Rifle Division, front, hand-to-hand combat, machine gun, company, projectile, medsanbat, tank airplane, Hero of the Soviet Union*

Тарихга Иккинчи жаҳон уруши номи билан кирган гитлерчилар Германиясининг босқинчилик ҳаракатларига қарши олиб борилган мислсиз жангларда кўплаб юртдошларимиз жасорат намуналарини кўрсатганлар. Буларнинг орасида Наманганлик жангчилар ҳам жангоҳларда немис босқинчиларга қарши мардларча курашганлар.

Бундай жангчилардан бири 1919 йилда Наманган вилоятида туғилиб ўсган Абдулла Инамовни фронда кўрсатган жасоратларини алоҳида айтиб ўтишимиз лозим. У 2-жаҳон уруши йилларида 31-армиянинг 252-ўқчи дивизиясида фашистларга қарши мардонавор курашган ўзбек жангчиларидан бири ҳисобланади. Абдулла Инамовнинг фронтда кўрсатган қаҳрамонликлари вақтли матбуотда ёритилиб берилган.

Политурк Иномов номли макола чоп этилган бўлиб, бу мақолада Абдулла Иномов ўзининг фронт кечинмалари тўғрисида сўзлаб берган. У 1941 йил октябрь ойида немис босқинчилари жон-жаҳди билан Москва шахрига интилаётган бир пайтда 252-ўқчи дивизия қисмларида урушда қатнашади. Бу ўқчи дивизиянинг асосий мақсади душманнинг ҳужумини қайтариб, уларнинг асосий кучларини ҳолдан тойдириш эди. Жанглар шиддатли тус олгани учун, жангчилар ҳаттоки бир неча маротаба қўл жанги олиб боришга ҳам мажбур бўлганлар. Гитлерчилар ўзларининг янги қуроли огнемётлардан ҳам ўт очишгани боис, жангчилар бош кўтаришга ҳам имкон тополмаганлар. Бундай оғир жангларга ёш жангчилар бардош беролмай чекишга мажбур ҳам бўлишган. А. Иномов шундай эслайди: Ваҳимага хотима берилсин!-буюрди комиссар Соколов. - Чап қанотга шахсан ўзингиз бошчилик қилинг.

Мана шундай жанговор топшириқдан кейин миномёт ротасининг сиёсий раҳбари А. Иномов рота командири Кунжапов билан бирга мудофада тартиб ўрнатди. Душман ҳужуми тўхтатилгач, 252-ўқчи дивизия қарши ҳужумга ўтди. Иномов қарши ҳужумга ўтгач бир уй олдида қўлида пистолет тутган узун бўйли фашистга дуч келади. Душман тепкини босади, лекин пистолет отилмай қолади. Иномов ўзини душман устига ташлаб олиб, уни йиқитади

ва ер ташлатади. Шу тариқа ёрдамга келган фашистларнинг ҳаммасини шу тақдир кутади. Жанг тугагач эса уларнинг сони ўндан ортиқ эканлиги маьлум бўлади. Иномов жангларнинг энг оғир дақиқаларида жангчиларга мададкор бўлар эди. У ўзининг совуққонлик билан ҳаракат қилиши, жангда ўзини йўқотиб қўймаслиги, мардлиги билан бошқаларни руҳлантирар эди.

1942 йил 10 март Инамов энди ротага раҳбарлик қилар ва шу билан биргаликда ҳамиша жангчилар орасида бўлар, оташин сўзи, шахсий намунаси билан жангчиларни орқасидан эргаштирар эди. Бир қишлоқ учун бўлган жангда у ўзи Максим станокли пулемётидан ўт очиб, етмишга яқин душманни қийратади. Инамов бу воқеани шундай эслайди: -Кўз олдим қоронғилашди. Нима бўлдийкин, деб ўйладим, -деб эслайди Абдулла. Маьлум бўлишича ёнгинасида снаряд портлаган экан. Жангчилар қонга бўялган политуркни панага олиб ўтишди. У ердан эса медсанбатга жўнатилди. У икки оёғида яраланган, суяги лат еган эди.

Бу воқеадан сўнг яралар битгач, жангчи ўзи туғилиб ўсган юрти Наманганга қайтди ва меҳнат фронтига раҳбарлик қила бошлайди.

Архив ҳужжатлари таҳлилига кўра, эркаклар билан бир сафда наманганлик хотин-қизлар ҳам жанг майдонларида душманга қарши курашганлар. ЎзССР Олий Советининг Наманган вилояти комитети ва ЎзКП(б) Марказий комитети Наманган вилояти бюросининг 1942 йил 24 апрелдаги қарори билан қизил армия сафига 35 аёл сафарбар этилган. Улар орасида Муҳаббатхон Исмоилова, Раъно Зокирова, Василиса Лазарева ва бошқалар бўлган. Фронт ортида меҳнат қилган хотин-қизлар ўз ишларини сидқидилдан бажарганлар. 1941 йилнинг октябрь ойига келиб, ишдан ажралмаган ҳолда – 1216, ишдан ажралган ҳолда – 388 аёллар тракторчилар тайёрлаш курсида ўқиганлар. Қумрихон Ғойибова, Мамадалиева ва Бадалова сингари моҳир тракторчилар етишиб чиққанлар.

Шунингдек, наманганлик ёшлар ҳам иккинчи жаҳон урушида эришилган ғалабага ўзларининг муносиб ҳиссасини қўшганлар. 1943 йил 25 февраль Наманган шаҳридаги мактаб ўқувчилари “Ўзбекистон ўқувчиси” деган танк ва жанговор аэропланлар қурамиз деган мурожаат билан чиққанлар. Мурожаатда шундай сатрлар бор: Биз наманганлик ўқувчилар ёзда далаларда ишлаб, фронтга ёрдам кўрсатганимиз учун фахрланамиз. Биз ёз пайтида ишлаган меҳнат кунларимизга тегишли пулларни “Ўзбекистон ўқувчиси” деган танк ва аэропланлар қурилишига беришга қарор қилдик. Бундан ташқари маблағ йиғишни кенгайтириб, қўшимча равишда яна 30 минг сўмдан ортиқроқ пул тўпладик. Танк ва аэропланлар қурилиши учун бу маблағларни қувонч билан топширамиз ва Ўзбекистондаги барча ўқувчиларни биздан намуна олишга – ишлаган меҳнат кунларига тегишли маблағларни жанговор машиналар қурилишига беришга чақирамиз. Бу ўқувчиларнинг тўпламлари душманни тезроқ тор-мор келтириш ишига ёрдам беради”.

Ҳисобот ҳужжатларида қайд этилишича, урушнинг дастлабки кунларидан бошлаб Наманганга бошпанасиз қолган 1000дан зиёд киши кўчириб келтирилган. Улар орасида турли касб эгалари, 270 бола ва мусиқа мактабининг 180 ўқувчиси ҳам бўлган. Кўчириб келтирилган фуқаролар Наманган шаҳридаги “Янги ривожия”, “Беш йиллик” ва “Қизил болға” артелларига ишга жойлаштирилган. Муҳтож кишиларга моддий ёрдам кўрсатилган.

Вилоятдаги кўплаб жамоа хўжаликлари болалар уйларини оталиққа олганлар ва озиқ-овқат маҳсулотларини етказиб турганлар. 1942 йили Наманган вилоятининг 10 та болалар уйида 1253 та бола тарбияланган бўлса, 1943 йилга келиб вилоят ҳудудидаги 20 та

болалар уйлари 2257 нафар эвакуация қилинган болаларни ўз бағрига олган. Бундан ташқари, наманганлик 18 оила ота-онасиз қолган ўнлаб болаларни тарбияларига олганлар. Хусусан, Султонаҳмад Қамбаров иккинчи жаҳон урушининг даҳшатли очлик йилларида Намангандаги 16-болалар уйига 850 дона иссиқ одеял, 350 та ёстиқ жилди, 350 та сочиқ, 250 жуфт шим ва кўплаб оёқ кийимлар юбориб ҳомийлик қилишдан ташқари, Украинадан кўчириб келтирилган болалардан 3 тасини, жумладан, Толик (Виталий), Лора ва Толик Медведскийларни ўз тарбиясига олган.

Иккинчи жаҳон уруши йиллари ўзбек халқи, жумладан, Наманган вилояти аҳли учун ҳам катта синов даври бўлган. “Ҳамма нарса фронт учун, ҳамма нарса ғалаба учун” шиори остида улкан эзгу ишлар амалга оширилган. Архив сақловида турган юзлаб тарихий ҳужжатлар, ўша давр матбуоти ва фронтдан келган хатлар ҳам буни исботлайди. Жумладан, 1941 йил 19 январь куни ЎзССР Олий Советининг Наманган вилоят комитети ва ЎзКП (б)нинг вилоят бюросининг “Миллий отлиқ дивизияни жиҳоз ва инвентарлар билан таъминлаш” тўғрисидаги қарорига кўра, фронт учун 200 арава, 2591 от, 141 автомашина юборилган.

Архив манбаларида кўрсатилишича, 1942 йил 18 октябрда вилоят аҳли томонидан жанг майдонидаги аскарлар учун 585 қулоқчин, 917 калта пўстин, 2138 жуфт пийма, 561 иссиқ шим, 3500 кўйлак, 3597 жуфт иссиқ қўлқоп юборган бўлса, йил охирида яна 4879 жуфт пийма, 2510 та калта пўстин, 6939 та иссиқ костюм, 15000 жуфт ички кийим, 7654 қулоқчин, 2007 та иссиқ камзул, 1500 жуфт қўлқоп, 8100 жуфт пайпоқ, 2685 женфер, 3414 та одеял, 5949 та ёстиқ жилди, 235 та пўстин, 8710 та ҳар хил иссиқ кийим ҳамда 12800 кг жун ва 8100 тери тайёрланиб, фронтга жўнатилган.

Иккинчи жаҳон уруши даврига оид ҳужжатлар таҳлилига кўра, Наманган вилоятидан 79 мингдан ортиқ киши урушга сафарбар этилган. Булардан 24 мингги жанг майдонида ҳалок бўлган ва бедарак йўқолган.

Жанг майдонларида мардонавор курашган 23 минг наманганликлар жанговор орден ва медаллар билан мукофотланганлар. Жумладан, Соли Адашев, Набижон Мингбоев, Абдусаттор Раҳимов, Борис Ивановский, Михаил Фаёзов, Файзулла Йўлдошев “Совет Иттифоқи Қаҳрамони” унвонига сазовор бўлганлар. Ғани Валиев, Холмат Жалолов, Сеит Неби Абдраманов эса “Шуҳрат” ордени билан тақдирланганлар.

Хулоса қилиб айтганда, иккинчи жаҳон уруши йиллари ўзбек халқи, шу жумладан, наманганликлар чин инсонийлик, бағрикенглик фазилатларини ҳамда бошқа миллатларга нисбатан меҳрибон, қадрдон дўст эканлигини намоён этганлар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Машҳура Дармонова. Наманган вилояти давлат архивининг бошқарув ва суд-ҳуқуқ тизимига оид жамғармалари таснифи. “Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” мавзусидаги анъанавий илмий-амалий конференциясининг XIV навбати. Тошкент. 2022 йил 21 апрель. 29-бет.

2. “Наш земляк-отважний фронтовик” номи остида [1] (1942 йил 31май №124 (254)

3. Оталар жасорати-фарзандлар мероси. (Совет Ўзбекистони газета 16 январь 1977 йил №13 (10. 703)

4. Совет Ўзбекистони газета 16 январь 1977 йил №13 (10. 703)

5. НВДА жорий архиви. Наманган вилояти давлат архиви сақловидаги фондлар рўйхати китоби. 32 бет.

6. НВДА. Р-275-жамғарма. 1941 – 1991 йилларга оид 4467 та йиғмажилд.

7. НВДА. Р-402-жамғарма. 1921 – 1923 йилларга оид 4 сақлов бирлигида бошқарув ҳужжати мавжуд.

8. НВДА. Р-268-жамғарма. 1918 – 1935 йиллар. 404 та йиғмажилд.

9. НВДА. Р-243-жамғарма. 1918 – 1935 йиллар. 693 та йиғмажилд.

10. НВДА. Р-333-жамғарма. 1925 – 1931 йиллар. 14 та йиғмажилд.

11. НВДА. 796-жамғарма. 1-рўйхат. 7-йиғмажилд.

12. НВДА. 796-жамғарма. 1-рўйхат. 55-йиғмажилд.

13. НВДА. 796-жамғарма. 1-рўйхат. 116-йиғмажилд.

UMARXON AMIRIY BUYUK DAVLAT ARBOBI VA IJODKOR SIFATIDA

B. B. Ibraximov
NamDPI katta o’qituvchisi
SH. F. Ergashaliyeva
NamDPI 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqoladaQo’qon xonligidagi madaniy hayot xususan Umarxon Amiriy hukmronligi davridagi madaniy muhit haqida so’z boradi*

Kalit so’zlar: *Qo’qon, madaniy hayot, adib, Amiriy, ilm-fan, ijod*

Аннотация: *В этой статьекультурная жизнь в Кокандском ханстве в частности, речь идет о культурной среде во время правления Эмира Омар-хана*

Ключевые слова: *Коканд, культурная жизнь, мудрец, Эмир, наука, творчество*

Annotation*: In this article, cultural life in the Kokand Khanate in particular, we are talking about the cultural environment during the reign of Emir Omar Khan*

Keywords: *Kokand, cultural life, sage, Emir, science, creativity*

Umarxov Qo’qon xoni, zullisonayn shoir. Norbo’tabiyning o’g‘li. O‘zbeklarning ming urug‘idan. Boshlang‘ich savodini oilada chiqarib, keyin madrasada tahsil olgan. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan: akasi – Qo’qon xoni Olimxonning davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etgan. Olimxon 1807-1808-yillarda unga Farg‘ona hokimligini topshirgan. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan[1]. Hokim tabaqalar Olimxonning Toshkentda ko’tarilgan g‘alayonni bostirish uchun qo’shin tortganligidan foydalanib, fitna uyushtiradilar va 1810-yilda Umarxonni xon qilib ko’taradilar, Olimxon esa o’ldiriladi. Umarxon Qo’qon xonligi hududini kengaytirish, hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib boradi. Buxoro amiriga qarshi Turkiston shahri (1815), O‘ratepani (1817) bosib olgan. Umarxon Amiriy taxallusi bilan she’rlar yozgan. 1821-yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she’rini o‘z ichiga olgan „Majmuai shoiron“ to‘plamini tuzgan. Uni ulug‘lab qasidalar yozish, g‘azallariga tatabbu’lar bog‘lash bu shoirlar ijodida etakchi o‘rin tutgan[2].

Umarxon Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedilni o‘ziga ustoz sanab, ulardan ijod sirlarini o‘rgangan, ularga ergashib ijod qilgan, g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Aruzning turkiy adabiyotda mashhur, xalq ijodida ham keng tarqalgan engil va o‘ynoqi vaznlaridagina yozilgan bu she’rlarning barchasi ishq-u muhabbat mavzuda. Uning 10 ming misradan ortiq she’rlar to’plami bizgacha etib kelgan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy

nomidagi Sharqshunoslik institutida Amiriy she’riy devonining o’n etti qo’lyozma nusxasi, 544ta she’r, 465ta g‘azal, 53ta muxammas (besh yarim misradan iborat she’riy bayt), 5ta musamman (sakkiz yarim misradan iborat she’riy bayt), 6ta mussada (olti yarim misradan iborat she’riy bayt), 16ta tuyuq (so‘z o‘yini asosida yozilgan) mavjud. Amiriyning o’zbek tilida yozilgan 307 misra, fors tilida esa 159 bayti mavjud[3].

O‘zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining matnshunoslik va yozma yodgorliklarni nashr etish bo‘limining ilmiy xodimlari tomonidan Umarxonning turli davrlarda ko‘chirilgan 26 ta qo‘lyozma devoni hisobga olinib, ularning ilmiy tavsifi berilgan . Bu noyob nusxali qo‘lyozmalar Sankt-Peterburg, Toshkent, Samarqand va Buxoro kutubxonalarida saqlanadi. O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Umarxonning 17 ta qo‘lyozma devoni mavjud. Bundan tashqari, litografik usulda chop etilgan devonlari va shoir she’rlaridan namunalar berilgan bayozlar bor[4]. Umarxon Qo’qonda ilm-fan va adabiyotning gullab-yashnashi uchun sharoit yaratgan[. Umarxon davrida Qo‘qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Taraz kabi shaharlarda masjid va madrasalar qurilgan. Yangi Shahrixon shahriga asos solindi[5].

Uning hukmronligi davrida Qo’qonda o’ziga xos adabiyot markazi vujudga kelgan. Manbalarda keltirilishicha, shaharda 70 dan ortiq shoir ijod qilgan. Xon saroyida eng yaxshi shoirlar, rassomlar va xattotlar to’plangan.

O‘sha olis yillarda Amiriy yaratgan qudratli adabiy oqim Farg‘ona vodiysida Muqimiy, Furqat, Muxiy, Oraziy, Tajalli va boshqalar kabi taniqli pedagoglar, demokrat shoirlarning paydo bo’lishiga imkon yaratgan. Ma’rifatparvarlik, madaniyat, insonparvarlik -shoir Amiriyning bu qarashlari keyinchalik mintaqa madaniyati taraqqiyotining kuchli, yangi to’lqiniga aylangan. Amiriy, asosan, aruzning halqchil uslubi ko’p qo’lanishi jihatdan turkey vazinlar sifatida mashhur roman va hazaj bahilarida ijod qilgan. Amiriy devonida g’azal yetakchi o’ringa ega ayni paytda ananaviylik doirasda qolib ketmasdan, o’ziga xos ma’no va poitek jilolarga ega bo’lgan dilbar g’azalar yaratdi. Amiriy devoni tarkibidagi g’azallar arab alifbosi tarkibida joylashtirlgan. Boshqa janrlar ham devon tuzilishning asosiy tartiblariga rioya qilgan holda jamlangan[6].

Devon maxsus nomlanmagan. Ammo mualif tomonidan debocha yozilgan . Shoir sherlarining yaratilish tarixi, mavzu qamrovi ma’nosi timsollar mohiyatini to’g’ri anglashda” debocha “ning ahamiyati beqiyos . Chunki unda shoirning ijtimoy faoliyati, ijodiy maqsadi borisidagi sharhlari, izohlari o’z ifodasini topgan . Bu malumotlar bizga ko’p masalalarni to’g’ri anglash va hulosa chiqarishi imkonini beradi. Shoir sheriyati mavzusiga ko’ra asosan ishqiy yo’nalishda Diniy mavzudagi she’r va baytlar ozchilikni tashkil qiladi . Shoir ijodida salaflarida bo’lgani kabi taqdirdan, dunyoda, odamlardan shikoyat motivlar deyarli uchramaydi. Bu balki amiriyining hayotida omadli kishilardan ekani-siyosiy ijtimoiy foaliyatida jiddiy qarshiliklarda duch kelmagani kabi , shaxsiy-oilaviy turmushda ham baxtiyorligi bilan izohlanar edi . Uning ko’pgina g’azalari va she’rlar baytlari hayotiy voqea timsollari obrazida yaratilgan beqiyos g’azalar hisoblanadi Umarxon ko’proq majoziy she’rlar to’plamini yaratgan . Uning boshqa yo’nalishdagi asarlar va poetik janrdagi g’azalari mavjud . Ko’proq shoir hayot g’azali vasf qilinganday taasurot qoldiruvchi mazkur g’azallari xalq hayotida xar bir inson ongida tafakkur qila oladigan tarzda yozilgan . Buyuk shoirimiz Umarxon(amiriy) ijodida mavzu jihatdan hasbi-hol tarzdagi misralar mavjud xulosa o’rnida aytish joizki adabiyotimizning zabardast etuk vakili Umarxon (amiriy)ijodkor sifatida go’zal asarlar qoldirgan. Shu g’azallari orqali ham o’zbek adabiyotiga nodir asarlar yaratilishiga sababchi bo’lgan shaxsdir. Uning ijod namunalarida ham

shoh va shoir ekanligi sezilib turadi chunki unda , taqdirdan nolish deyarli yo’q. Amiriy ustozlar ilmiy va badiy merosiga qiziqqan holda ularga munosib voris bo’lib, ularning ijodini rivojlantirgan ularning asarlariga manzuma , naziralar bog’ladi. U har bir baytni bitganda ham adabiyotning vazifasi va ahamiyatini anglagan holda ularning ma’no mazmuni tarbiyaviyligi, badiyligi jihatidan boyitishga harakat qildi. Amiriy ijodi bizgacha tadqiq etilgan biz ham kamtorona tarzda tadqiq etishga harakat qilmoqdamiz

Foydalangan adabiyotlar:

1. https://docx. uz/document/amir-umarxon-ijodi-a2bfa705?lang=uz
2. O’zME. Birinchi jild . Toshkent. 2000-yil
3. История Узбекистана. Т. 3 Toshkent, 1993, с. 2007.
4. История Средней Азии. Москова: Евролинс. Русская панорама, 2003, с 330
5. И. Адизова. Ўзбек адабиёти тарихи. ”Фан” 2006
6. Амирий девон. Т. :1972
7. А. Жўраев Нодира лирикасидаги Умархон образи // Ўзбек тили ва адабиёти . 1997. 5-сон 46-бет.

AMIR TEMUR DAVRIDA GUMANIZM

Ibrohimova Durdona Baxtiyorjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: durdonai187@gmail. com
Tel: +998 95 157 25 30
***Ilmiy rahbar:** R. M. Akbarov*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gumanizm g‘oyalarining vujudga kelishi, mo‘g‘ullar davrida inson huquqlarining poymol etilishi hamda Amir Temurning insonparvarligi va bu boradagi yuritgan oliyjanob siyosati haqida so‘z boradi.*

Аннотация: *В данной статье говорится о возникновении идей гуманизма, нарушении прав человека в монгольскую эпоху, а также о гуманизме Амира Темура и его благородной политике в этом отношении.*

Annotation: *This article talks about the emergence of the ideas of humanism, the violation of human rights during the Mongol era, and the humanitarianism of Amir Temur and his noble policy in this regard.*

Kalit so‘zlar: *gumanizm, inson huquqlari, mo‘g‘ullar bosqini, Amir Temur davlatida huquqiy munosabatlar, “Temur tuzuklari”da aholidan olinadigan soliqlar.*

Ключевые слова: *гуманизм, права человека, монгольское нашествие, правоотношения в государстве Амира Темура, налоги, взимаемые с населения в «Законах Темура».*

Key words: *humanism, human rights, Mongol invasion, legal relations in Amir Temur's state, taxes collected from the population in "Temur's Laws".*

Gumanizm so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “humanus” – “insoniy” degan ma’noni anglatadi. Keng ma’noda odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma’naviy fazilatni rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish gumanizm hisoblanadi. Gumanizm insonni ulug‘lovchi falsafiy ta'limot, insonparvarlik tamoyillarining ustuvorligi barcha tuzumlar, davlatlar, jamiyatlar uchun asosiy faoliyat mezoni bo‘lishi lozimligini ifodalaydigan tushuncha hisoblanadi. Aksariyat g‘arb

mutaxassislari gumanizmning “antroposentrizm” ya’ni inson borliq mohiyatining asosiga qo‘yilishi g‘oyasiga tayanishini e’tirof etadilar [1].

Gumanizmda asosiy baxs insonning shaxsi atrofida olib borildi. Uyg‘onish davrida insonga nisbatan buyuk burulish yuz berdi. Odamlar hayotning quvonchlarini qadrlashni o‘rgandi, tabiatga, jamiyatga, insonga yangicha qaraydigan bo‘ldilar. O‘rab turgan olamga ilohiy emas, dunyoviy, insoniy qarash tarafdorlari gumanist (humanus – insoniy) deb ataldi. Gumanistlar inson haqidagi o‘rta asrchilik tasavvurlarini rad etdi, ular har bir shaxsning noyobligi va qadrini ko‘rsatishga urindilar. Bilim va erkin fikr o‘ziga yo‘l ochib bordi. O‘rta asrlargacha bo‘lgan davrda tarixda inson shaxsi shunchalar yuksaklikka ko‘tarilmagan edi.

Gumanizm atamasi Italiyada paydo bo‘lgan bo‘lsada, insonparvarlik azaliy tushunchadir. Demokratiyaning barcha mamlakatlarga tushadigan qolipi mavjud bo‘lmaganidek, gumanizm ham sharq va g‘arbda turli shakllarda amalga oshirilgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur saltanatida inson va uning huquqlari ustuvorligi ta’minlangan. Bu jarayonlarni mo‘g‘ullar davri bilan taqqoslasak Amir Temurning naqadar insonparvarligi va oliyjanobligini chuqur his qilamiz.

Tarixda ayniqsa, o‘rta asrlarda bir davlatning ikkinchi davlat hududiga bostirib kirishi odatiy hol bo‘lgan. Ammo mo‘g‘ullarchalik inson huquqlarini paymol qiladigan xalq bo‘lmagan. Mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga bosqini davrida inson huquqlari paymol qilindi, bosib olingan hududlarning xalqlari tahqirlandi. Chingizxon 1219-yil Xorazmshoh-Anushteginiylar davlatiga harbiy yurishni boshladi. 1219-yil sentabr oyida O‘trorga yurish qildi. O‘tror qamalida bir qancha vaxshiyliklarga yo‘l qo‘yildi. O‘tror egallangandan so‘ng uning hokimi G‘oirxon (Inalxon) Chingizxon huzuriga Samarqandga yuboriladi. Manbalarga ko‘ra, kumush eritib, o‘z huzurida sarkardaning quloq va ko‘ziga quyishni buyuradi.

Mo‘g‘ullar 1220-yil fevral oyida Buxoroni qamal qilishni boshlaydi. Buxoro talon-taroji haqida muarrix ibn Attor shunday yozgan edi: “Ul kun haqiqatda daxshatli kun bo‘ldi. Bori manguga ketgan yerlarning, xotinlarning, bolalarning tovushlarigina eshitilib turdi. Vaxshiylar xotinlarni, qizlarni ham o‘zlarining birodarlari ko‘z o‘ngida tahqirladilar. Bu tahqirlarga ularda ko‘z yoshdan o‘zga qurol topmadilar” deb aytib o‘tadi [2. B. 520]. Arkni egallash uchun qilingan mo‘g‘ullar xatti-harakati zoye ketadi. Qal’adagi chuqurliklar odam va hayvon o‘liklari bilan to‘lib ketadi. Ko‘kxon va u boshchiligidagi mudofaachilar halok bo‘lganidan so‘nggina ark egallanadi. Buxoroliklarni qarshiligi mo‘g‘ullarni g‘azablantiradi va bunga javoban buxoroliklarning 30 mingini qirib tashlashadi. Aholining qolgan qismi qulga aylantirildi. Ma’rifatli va ilmli Buxoro ahli mo‘g‘ullar tomonidan zulm va tahqirlash girdobiga tortildi.

1220-yil martida Samarqandga qarshi harakat boshlandi. Mo‘g‘ullar Samarqand yurishiga alohida e’tibor beradilar, chunki Samarqandning Movorounnahr uchun, Xorazmshohlar davlati uchun ahamiyati beqiyos ekanligini Chingizxon yaxshi bilar edi. Ular Samarqandning bosh suv inshooti , “Jo‘yi arziz”, “Qo‘rg‘oshin novasi” ni buzib tashlab, shaharni tashnalik girdobiga mubtalo qildilar. Suv toshqini sabab 1220-yil 16-mart kuni 20 000 chog‘li shahar mudofaachisi taslim bo‘lishga majbur bo‘ldi. Mo‘g‘ullarga qarshi 1000 nafar mudofaachi masjidga kirib qarshilik ko‘rsatdilar. Mo‘g‘ullar masjidga o‘t qo‘yib mudofaachilarni tiriklayin o‘limga mahkum etdilar. Shahar qozisi va shayxulislom vakolati bilan tashqariga olib chiqib ketilgan 50 000 nafar kishidan boshqa barcha aholi qatlamlari talon-taroj qilindi, 30 000 nafar hunarmand va rassom Chingizxon qarindosh-urug‘lariga xizmatkorlikka bo‘lib, hadya qilib berdi. Tirik qolgan shahar aholisiga 200 000 dinor o‘lpon to‘lash majburiyati yuklatildi. 1220-yil 17-mart Samarqand mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilgan sana hisoblanadi.

Taslim bo‘lga shaharlarda mo‘g‘ullar qilgan talon-tarojliklar tufayli “Sayqali ro‘yi zamin ast” deb ulug‘langan, sharqning buyuk shaharlaridan biri, bir paytlar gullab-yashnab turgan Movorounnahr poytaxti huvillab qoldi, yer bilan yakson qilindi. Manbalarda “Jahon sultonlari poytaxti” va “Insoniyat buyuk farzandlari beshigi” nomini olgan Urganch, sharqdagi “Islom tayanchi” Buxoro, qadimiy Afrosiyob Vatani Samarqand, masjidlarining soni 1200 taga yetgani bilan mashhur Balx, o‘z madrasalari bilan dong‘i ketgan Marv, o‘zining nozikta’b ilmli kishilari bilan mashhur bo‘lgan Nishopur va boshqa ko‘plab shaharlar talon-taroj etilib, vayron qilindi. Mo‘g‘ullarning kuchli zarbasiga uchragan ba’zi shaharlar, masalan, O‘tror, Sig‘noq, Barchinlig‘kent va boshqalar uzoq vaqtgacha dasht-u biyobonlarga aylanib qoldi. Shu davrda yashagan arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160-1244) mo‘g‘ul bosqini hususida shunday yozgan edi: “Ular ya’ni mo‘g‘ullar hech kimga shavqat qilmadilar, aksincha, xotinlar, bolalar, erkaklarni o‘ldirdilar, tug‘ulmagan go‘daklarni nobud qildilar. Bu musibat to‘lqini turli tomonlarga tarqaldi va uning fojiasi umumiy bo‘lib qoldi hamda u shamol bulutlarni turli tomonga haydagani kabi butun viloyatlarga tarqaldi…” [2. B. 532].

O‘rta asrlarda Amir Temur kabi inson huquqlarini davlat darajasiga ko‘targan shaxs, davlat arbobi bo‘lmasa kerak. Amir Temur davlatida huquqiy munosabatlar, Qur’oni Karim va Hadisi sharifda bayon qilingan tartib-qoidalarga asoslangan. Uning huquq va qonun unsurlari , ”Temur tuzluklari”da o‘z aksini topgan. “Temur tuzluklari” – adolatli hamda kuchli davlat barpo etishdagi muhim qonun-qoidalar sifatida Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma’lumot beruvchi tarixiy asardir. Amir Temur davlatni boshqarishda o‘zidan avval o‘tgan hukmdorlardan farqli o‘laroq, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyandi. Sohibqiron o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal qiladi. U davlatchilikning bu asoslariga to‘qqizinchisini, ya’ni jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatini ta’minlashni qo‘shdi. Amir Temurning ta’kidlashicha, agar xalq soliq tizimi orqali kambag‘allashadigan bo‘lsa, davlatning iqtisodiy qudrati pasayib, tanazzulga yuz tutishi tabiiydir.

“Temur tuzluklari”da aholidan olinadigan soliqlar ularning ishlab topgan daromadlari darajasiga qarab adolatli belgilanishi, aholining qaysi birlari el-yurt, tuman va shaharlar obodonligi yo‘lida, madaniyat-ma’rifatning rivoji yo‘lida o‘z mol-mulki va sarmoyasini ayamay sarflasalar, ularga davlat soliq to‘lash borasida har xil yengillik, imtiyozlar berilishi ko‘rsatib o‘tiladi. Sohibqironning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatidagi yana bir muhim jihati shundaki, ijtimoiy himoya, kambag‘al, kam ta’minlangan kishilarni va o‘z xizmatini sidqi dildan bajargan odamlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi mavjud bo‘lgan.

Amir Temur , , Temur tuzuklarida “: “Fath etilgan har bir mamlakatdagi sipohiylar o‘z ixtiyorlari bilan panoximga kelsalar, ularni navkar qilib askarlarim safidan joy bersinlar. Ular davlatning raiyatini yomon hodisalardan, qatl va asir-u band etilishdan, talanishdan muhofaza qilsinlar. Ularning mol-mulkini, buyumlarini talon-tarojdan saqlasinlar. O‘sha mamlakatdan tushgan o‘lja, mollar egalariga qaytarib berilishini tekshirsinlar, “– deb aytib o‘tadi [3. B. 141]. Bu bilan Sohibqiron qanchalik inson huquqlarini ustun qo‘yganligini bilishimiz mumkin. Amir Temur bo‘ysundirgan hududlaridagi aholi manfaatlarini o‘ylagan holda ish yuritgan. U yurish qilayotgan hududdagi aholi taslim bo‘lib, moliomon to‘lasa hech qayerni vayron qilmay va hech kimga ozor bermay yo‘lini davom etgan. Mo‘g‘ullar esa buni aksini qilgan. Bosib olgan hududlarini aholisini talab, shaharni yo suvga bostirganlar yoki yondirib yuborganlar.

Amir Temur faqir-miskinu nogironlarga nafaqa joriy qilgan. Har bir yerni fath etgandan so‘ng, u yerni gadolarini to‘plab, kundalik yemish-ichishlari bilan ta’minlab, ularni biron ish bilan ta’minlagan, chunki boshqa gadolik qilishmasliklarini istagan. Agar shunda ham gadolik qilishadigan bo‘lsa ularni uzoq mamlakatlarga sotib yuborishgan. Shundagina gado zoti mamlakatimdan yo‘qoladi deb aytgan [3. B. 142]**.**

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– Gumanizm Italiyada paydo bo'lgan bo’lsada insoniylik, insonparvarlik kabi g'oyalar avvaldan mavjud bõlgan. U turli ko' rinishlarda xalqlar mafkurasida saqlanib qolgan.

– Mo’g’ullar inson huquqlarini poymol qilgan xalq sifatida tarixda qolgan. Ularchalik inson qadrini yakson qiladigan xalq bo'lmagan.

– Amir Temur inson qadri, inson huquqlarini yuksak darajaga kõtargan shaxs sifatida tarixda qolgan. U nafaqat o'z xalqiga, balki bosib olgan hududlaridagi xalqlarga ham adolatli bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Humanizm // https://uz. wikipedia. org/wiki/Humanizm [Murojaat qilingan sana: 17. 05. 2024]

2. Mas’ul muharrir: A. S. Sagdullayev. O‘zbekiston tarixi. 1-kitob (darslik). – T. : “Fan” nashriyoti, 2018. – B. 432-433

3. Mas’ul muharrir: B. Axmedov. Temur tuzuklari. – T. : “O‘zbekiston”, 2014. – 182 bet.

SOVETLAR MAFKURASINING GUMANIZMGA MUNOSABATI

Karimov Islomjon Isroiljon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: karimovislomjon073@gmail. com
+9989 94-268-27-75

Annotatsiya: *ushbu maqolada sovetlar mafkurasining insonparvar gumanistik qarashlarga bo‘lgan munosabati tarixiy-nazariy tahlil qilingan va mavzu yuzasidan muayyan mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *repressiya, shaxsga sig‘inish, senzura, totalitar tuzum, mafkura qulligi, qatag‘on, kommunistik jamiyat.*

Abstract: *in this article, the relationship of the Soviet ideology to humanitarian humanistic views is analyzed historically and theoretically, and certain comments are made on the subject.*

Key words: *repression, personality cult, censorship, totalitarian system, ideological slavery, repression, communist society.*

Аннотация: *в данной статье исторически и теоретически анализируется связь советской идеологии с гуманитарными гуманистическими воззрениями, а также делаются определенные комментарии по этому поводу.*

Ключевые слова: *репрессии, культ личности, цензура, тоталитарная система, идеологическое рабство, репрессии, коммунистическое общество.*

Yaqin tarixgacha dunyoning qutblarga bo‘linishiga bosh omillardan biri bo‘lgan va dunyoga o‘z ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy ta’sirini o‘tkazgan sovetlar mafkurasi jamiyati

inson farovonligini ta’minlash uchun liberalizmdan* keskin farqlanib turuvchi o‘z yo‘lini topishga intildi. Ko‘plab jamiyatlar ushbu tizimga nisbatan rag‘bat bildirgan yoki majburan qabul qilgan vaqatlar ham bo‘ldi. Sobiq SSSR Ittifoqi davlatlarida yuz yilga ham bormay barbod bo‘lgan tuzum halokati va uning sabablarini ko‘rib chiqish bugungi kunda insoniyatga ushbu tuzumning o‘ziga xos kamchiliklarini o‘rganib, o‘z gumanitar yo‘lini yanada aniq belgilashiga yordam beradi.

Tahlillar va natijalar

Insoniyat tarixining bosqichma-bosqich rivojlanib borishi bilan jamiyat hayotini nazorat qiluvchi turli mafkuralar paydo bo‘lib borgan. Quldorlik, feodalizm, kapitalizm, liberalizm kabi ijtimoiy-siyosiy mafkuralarning mohiyatida inson huquqlari yuzasidan turli yondashuvlar bildirilgan. Quldorlikda insonlarning ma’lum bir qismi yashash uchun barcha huquqlariga ega bo‘lgan holda, ko‘pchilik odamlar ularning manfaatlari uchun harakat qilishga majbur qilingan. Feodalizmda jamiyatning quyi qatlamlari qul deb hisoblanmasada, amalda yuqori tabaqaning qo‘l ostidagi xizmatkorligicha qolgan edi. Kapitalizmda barcha insonlar uchun jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishlari uchun imkoniyat beriladi. XX asrda sezilarli kuch sifatida dunyoni nazoratga olgan kommunistik mafkura mohiyati ulardan ajralib turadigan va muayyan o‘xshashliklariga ega bo‘lgan edi. Inson manfaatlari to‘g‘risidagi masalalarga kommunistik qarash XX asrda dunyo siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Sovetlar mafkurasiga muxolif bo‘lgan liberalizm G‘arbda, kommunistik mafkura Sharqda jamiyatga ta’sir qildi va dunyoni ikki qutbga bo‘ldi.

Avvalambor, insonning so‘z erkinligi huquqiga munosabat bildirganda ushbu tuzumni taraqqiyot yo‘li sifatida tanlagan Sobiq Sovet Ittifoqida bo‘lgan jarayonlarni tahlil qilsak, sovetlar mafkurasi tuzumida insonlar fikr va so‘z erkinligi ustidan qattiq nazorat o‘rnatgan bo‘ladi. Ommaviy axborot vositalarining har biri davlat hokimiyatining qattiq nazoratiga olinib, insonlar dunyoqarashini qolipga solishga urinish avj oladi. Kommunsitik dunyoqarashga mos kelmaydigan badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar inkor etiladi. Insoniyatning asosiy erkinliklaridan bo‘lgan so‘z erkinligiga hujum natijasida qurbon bo‘lgan Abdulla Qodiriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Behbudiy va boshqalarning jurnalistika, adabiyot va san’atdagi faoliyati ta’qibga olingani misolida ham ushbu tuzumning so‘z erkinligiga munosabati namoyon bo‘ladi. San’at, madaniyat biryoqlama dunyuoqarashni shakllantirish uchun xizmat qildiriladi. Jamiyat rivoji uchun boshqa yo‘lni qidirganlar ta’qibga uchraydilar.

Ikkinchidan, vijdon ekinligi huquqiga kommunist jamiyatlarida ateizm targ‘ibotini qo‘llagani sababli jiddiy putur yetgan edi. Bunga sabab mafkura “dohiylari”ning hech qanday dinga sig‘inmagani bo‘lib, jamiyatning qolgan a’zolariga ham bir hilda qo‘llashga harakat qilindi. Insonlarni e’tiqodlari uchun ta’qib etish avjiga chiqishi natijasida shaxsga sig‘inish avj oldi. Binobarin, ateistik jamiyatlarda bunday jarayonning kechishi muqarrar bo‘lib qoladi. Chunki insonda e’tiqodga intilish bo‘lmas ekan, ularni tartibda ushlab turuvchi va nazoratga solib turadigan kuch sifatida insonlar ko‘rsatiladi. Bunda mafkura yo‘lboshchilari va davlat boshliqlari “ilohiylashtiriladi”. Har qanday sohada ulardan o‘rnak olishga va ijobiy yutuqlarni ularning nomi bilan bog‘lashga harakat qilinib, kamchiliklar boshqalarning zimmasiga yuklanadi. SSSRda Lenin, Stalinlar jamiyatga shunday ilohiy zotlar sifatida taqdim etilgan edi. Stalin hukmronligi davrida sovet tashviqoti Stalinni qudratli, hamma narsani biladigan rahbar sifatida ko‘rsatdi, Stalin nomi va surati hamma joyda paydo bo‘ldi. [1]

* Izoh: Liberalizm – odamlarning o‘zini, xatti-harakatlarini, mulkini boshqarishda erkin degan nuqtai nazarga asoslangan falsafiy, iqtisodiy va siyosiy dunyoqarash, nazariya.

Uchinchidan, gender tengligini ta’minlashda SSSR tuzumi faqatgina biryoqlama manfaatlaridan kelib chiqib o‘z fuqarolariga munosabatda bo‘lgan edi. Milliy, madaniy xususiyatlari tubdan farqlanib turadigan ko‘plab millatlarni majburan birlashtirgan Sovet Ittifoqida ko‘r-ko‘rona tarzda ayollarni jamiyat hayotida faolligini oshirishga ahamiyat berildi. To‘g‘ri, buning natijasida ayollarning jamiyat hayotidagi ilgarigi mavqeyi nisbatan ko‘tarilib, turli sohalarda faoliyat yuritgani quvonarli hol edi. SSSR Konstitutsyasi ayollarning tengligini kafolatladi - “SSSRda ayollar iqtisodiy, davlat, madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan teng huquqlarga ega” deb belgilab qo‘yilgan edi. (122-modda). [2] Biroq sovetlar mafkurasi mafkurachilari ayol va erkakning teng huqlari teng majburiyatlarni ham yuklaydi degan qarashda edilar. Chunki ular barcha mehnat qiladigan va Kommunistik tuzumni qo‘llaydigan jamiyat bo‘lishi uchun ayollarni ishchi kuchi sifatida ko‘rganlari bunga sabab bo‘ldi. Oqibatda og‘ir mehnat talab qiladigan qurilish, mashinosozlik va og‘ir sanoatgacha ayollar mehnatga jalb etildi. Ba’zi jamiyatlarda ayollarning erkinliklari kuchayishi milliy qadriyatlarga putur yetkazadigan darajaga yetib, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik avj oldi. Majburiy tarzda bunday keskin siyosat olib borilishi bilan kommunistlar ko‘plab ayollarning hayotini og‘irlashtirdilar.

To‘rtinchidan, mulkka egalik huquqi yuzasidan kommunistlar barcha insonlar tomonidan kollektiv mulkka egalik qilinadigan, xususiy mulk bo‘lmaydigan jamiyatni qurishni maqsad qilgan edilar. Qanchalik balandparvoz gaplar bilan bunday yondashuvni yoqlab chiqqan bo‘lmasinlar, amalda insonlar bunday jamiyatda o‘zlarini farovonliklarini ta’minlay olmas edilar. Kommunistlar tomonidan qilingan davlat hokimiyatiga kelgunlariga qadar bo‘lgan davrda xususiy mulkka ega bo‘lgan insonlarga nisbatan qo‘llanga quloqlashtirish siyosati mamalakatda ocharchilikni va dehqonlar g‘alayonlarini kuchaytirib yubordi. Sovet davlati o‘zining 74 yillik umrining eng gullab-yashnagan davrida ham aholisini chet eldan g‘alla sotib olib ta’minlashga majbur bo‘lgan edi. [3] Butun dunyo tomonidan e’tirof etilib turgan mulkka egalik huquqining cheklanishi natijasida ohir oqibat mamlakatda insonlar jamoatchilik asosida mehnat qilishga o‘rgatilib bordi. Mehnatdan manfaatdorlik hissi bo‘lmagani uchun ham insonlar majburiy asosda mehnatga jalb etilgani ma’lum. Natijada jamiyat barcha insonlarning daromadlari bir xil bo‘lgan o‘ta boy ham kambag‘al ham bo‘lmagan jamiyatga aylanib bordi. Har qanday holda boshqalardan ko‘ra moddiy sharoitini yaxshilashga urinish jamiyatga nisbatan xiyonat sifatida baxolangan.

Beshinchidan, yashash huquqi kommunistlar tomonidan zarracha qiymatga ega bo‘lmagan bir tushuncha edi holos, totalitar tuzum insonlarni o‘z siyosiy irodasiga bo‘ysundirishga intilar ekan, insonlarni turli qiynoqlarga solar, hayotiga tahdid qilar edi. Inson manfaatlari yuzasidan qabul qilingan qonunlar va normalar mavjud bo‘lsada, amalda ulardan foydalanilmas edi. Vaqti-vaqti bilan o‘tkazilib turgan qatag‘on siyosati ana shu insoniyatga qarshi bo‘lgan jinoyatning yorqin namunasidir. Tariximizdan ma’lumki, sovet tuzumining qatag‘on siyosati millat sha’nini, tarixi va o‘zligini, din-diyonatini toptashga qaratilgan, yurt ziyolilarini, faollarini yuzaga chiqarmaslikka, ularning millat ravnaqi yo‘lidagi harakatlarini yo‘q qilishga “bel bog‘lagan” dahshatli davr edi. [4] Kommunistik tuzum qiynoqlari inson saloomatligiga, ruhiyatiga jiddiy zarar yetkazadigan darajada ayovsiz edi. Rus yozuvchisi Mixail Bulgakov qiynoqning bunday uslublaridan biri bo‘lgan siyosiy muxoliflarini jinnixonlarda majburan davolatish va qiynash amaliyotlari o‘tkazilishini “Usta va Margarita”, “Ivan Vasilivech kasbini o‘zgartiradi” asarlarida hajv qiladi.

Oltinchidan, halqaro miqyosda jinoyat hisoblangan xalqlarning o‘z erkinligini o‘zi belgilashiga yo‘l qo‘yilmadi. Sovet hokimiyati qo‘l ostida bo‘lgan xalqlar repressiyaga uchragan

holda o‘z erkinligini yo‘qotgan edilar. Totalitar sovet tuzumi bedodligi va zulmining haddan ziyod kuchayib borishi nafaqat yurtparvar milliy kadrlar, fidoyi ziyolilarning hayot tarzini, qismatini zavol toptirib qolmasdan, shu bilan birga millionlab fuqarolarning oddiy insoniy qadr-qimmati, or-nomusi hayosizlarcha tahqirlandi. [5] O‘z tili, milliyligi, qadriyatlaridan maxrum qilingan xolda yashar edilar. Barcha millatlar hamjihatligi va birgalikda sovet xalqini shakllantirishi borasida mustamlakachi hukumat tuzgan rejalarda rus millati ulug‘ davlatchilik siyosatini belgilashda yetakchilik qilishi amalda odatiy xol edi. Hatto davlat madhiyasida ham ruslarga bo‘ysunib yashash g‘oyasi singdirilgan edi. Jumladan, o‘zbek xalqi ham bu yetmish yildan ortiq davr mobaynida sovetlar mafkurasi mafkurasida yashadi.

Mavzu yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin: barcha ijtimoiy-siyosiy tuzumlar qatori kommunistik tuzum ham inson huquqlariga nisbatan o‘z qarashlariga ega bo‘lgan va amaliyotga joriy etgan edi. Biroq uning natijalari haddan tashqari insonlarni nazoratda tutishga urinuvchi tuzumning noto‘g‘ri yondashuvi sabab ijobiy bo‘lmadi. Buning oldini olish uchun qilingan axborot siyosati va insonlarning dunyoqarashini qolipga solishga urinishning natijalari haligacha tuzum davrida yashagan insonlarning dunyoqarashi zamonaviy nazariyalarga nisbatan berk bo‘lib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Sovetlar mafkurasining insonga nisbatan tutgan siyosiy yo‘li uning halokatini tezlashtirdi. Bugungi dunyo esa, liberal modernizatsiya jarayonlari tomon ketib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gill, Graeme (December 2021). Marquez, Xavier (ed.). "The Stalin Cult as Political Religion". *Religions*. **12** (12: *Religion, Ritual, and Political Leader Cults*). Basel: MDPI: 112. doi:10. 3390/rel12121112. eISSN 2077-1444

2. Constitution of the USSR. Moscow: Co-operative Pub. Society of Foreign Workers in the U. S. S. R. , Chapter 10, 1936

3. Jahon tarixi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T. : «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2005— 34 b.

4. http://insonhuquqlari. uz/oz/news/qatagon-davrida-aybsiz-aybdor-bolgan-ozbek-yoshlari-ularning-aybi-vatanparvarligi-yoxud-istedodimidi

5. O‘zbekiston tarixi (1917—1991-yillar): Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 1-bosqich o‘quvchilari uchun darslik / Mas’ul muharrir: Q. Rajabov. — T. : «Sharq», 2010. — 131 b.

INSON QADRINI ULUG‘LASHDA “XOTIRA TURNIRLARI”NING TUTGAN O‘RNI

Jabbarov Asadbek Ibrohim o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika institute Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) mutaxassisligi magistri

Tel: +998883701511

E-mail: asadbekjabbarov4@gmail. com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Xotira va qadrlash” kuni munosabati bilan o‘tkazilgan sport musobaqalari, ikkinchi jahon urushi va mustaqillik yillarida vatan tinchiligi va osoyishtaligini saqlash yo‘lida o‘z jonini qurbon qilganlar haqida so‘z yuritiladi.*

***Аннотация**: В данной статье рассказывается о спортивных соревнованиях, проводимых в связи с Днем «Памяти и признательности», о тех, кто отдал свою жизнь ради мира и спокойствия в стране в годы Второй мировой войны и годы независимости.*

***Abstract:** This article talks about sports competitions held in connection with the Day of "Remembrance and Appreciation", about those who sacrificed their lives for the sake of peace and tranquility of the country during the Second World War and years of independence.*

***Kalit so‘zlar:** Mustaqillik, ozodlik, erkinlik, tinchlik, inson qadri, xotira, xotira kuni, turni r, xotira turnirlari, terrorchilik, front, orden, paralimpiada.*

***Ключевые слова:** Независимость, свобода, воля, мир, человеческое достоинство, память, день памяти, турнир, мемориальные турниры, терроризм, фронт, порядок, Паралимпийские игры.*

***Key words:** Independence, freedom, freedom, peace, human dignity, memory, memorial day, tournament, memorial tournaments, terrorism, front, order, paralympics.*

Bugungi erkin va ozod, tinch va osuda hayotimiz qadrini, mustaqillik bergan imkoniyatlarni chuqur anglashda, inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarning bosh maqsadidir. Xalqimizning asriy qadriyatlari, millatimizning ulug‘ fazilatlari sirasiga kiradigan, yuksak insoniy tuyg‘ularni ifodalaydigan “Xotira va Qadrlash” degan muqaddas kalom va ezgu tushunchalarni olaylik. Bu tushunchalar aynan mustaqillik sharofati bilan qayta tiklandi, lug‘atimizdan muqim joy oldi, mazmunan yanada boyidi. Ular zamiridagi inson botiniy dunyosiga daxldor olijanob tuyg‘ularning mohiyati va ahamiyati g‘oyat teranlashdi.

Inson xotirasi bilan tirikdir. Tarixiy xotirasi bor inson irodali va qat’iyatli, hushyor va ogoh, kuch-qudratli va sabr-matonatli bo‘ladi. Tarixiy xotira odamni beg‘amlik va befarqlikdan uyg‘otadi, uning g‘aflat botqog‘iga botishiga yo‘l qo‘ymaydi. Tashabbuskor va fidoyi, halol va oriyatli bo‘lishga, bir so‘z bilan aytganda, hamisha inson bo‘lib yashashga da’vat etadi. Tarixdan xulosa chiqarib, tinch-osoyishta hayotimizning qadriga yetib, barqarorlikni ardoqlab yashash uchun ham bizga xotira yordam beradi.

Bu ezgu g‘oyani hayotimizga keng joriy etishda, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda davlatimiz rahbarining 2024-yil 9-may kuni poytaxtimizdagi G‘alaba bog‘ida ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyusining kuchi va ta’siri g‘oyat beqiyos ekanini alohida qayd etish zarur. U, shuningdek, “hozirgi g‘oyat murakkab va tahlikali zamonda” yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, turli zararli ta’sirlardan himoya qilish, tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do‘stlik va ahillikni asrashdek o‘ta muhim vazifalarni bajarishda qahramon faxriylarning jasorati, shonli an’analari hamisha ibrat maktabi bo‘lishini qayd etdi.

Bugungi kunda yurtimizda yashayotgan bir necha mingdan ziyod Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga har tomonlama g‘amxo‘rlik qilayotganligi, ayniqsa “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Prezident farmonini qabul qilinishi bu g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasi ekanligi fikrimizning dalilidir. Bu yil fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 79 yilligi nishonlanilayotganligi, bu urush xalqimizga qanchalik qalb jarohati yetkazganligi, Prezidentimiz aytib o‘tganidek, “O‘sha og‘ir yillarda frontga safarbar etilgan 1 million 950 mingdan ziyod o‘zbekistonlik jangchilardan 538 mingdan ko‘prog‘i halok bo‘lgani, 158 mingdan ortig‘i bedarak yo‘qolgani, 870 mingdan oshig‘i turli jarohatlar olgani, 60 ming nafardan ziyodi esa nogiron bo‘lib qaytgani bu g‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini

yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ana shu qirg‘inbarot urush xalqimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, hamon unutib bo‘lmaydi”. [1]

O‘zbekiston Mustaqilikka erishgan kundan boshlab 9- may “Xotira va qadrlash kuni” sifatida nishonlab kelinadi. Respublikamiz bo‘ylab “Inson qadri ulug‘, xotira muqaddas”, “Mardlik, burch va sadoqat” mavzulari asnosida bir qancha amaliy tadbirlar tashkil etib kelinmoqda. Har yili urushda jasorat ko‘rsatgan vatan qahramonlari xotirasi yod etilib turli tadbirlar, sport musobaqalari va shu kabi boshqa tadbirlar tashkil etib kelinmoqda.

Jumladan, 2014-yil 5-may kuni Namangan davlat universitetda Xotira kuni munosabati bilan sport musobaqalari o‘tkazildi. Unda shaxmat sport turida Jismoniy tarbiya va Sport fakultetining 2-bosqich talabasi N. Umarov birinchi o‘rinni egalladi. Kurash sport turida fakultetning 4- bosqich talabalari esa 3 ta vazn bo‘yicha faxrli birinchi o‘rninni egalladilar. Voleybol va yengil atletika sport turlarida ikkinchi o‘rinlar egallandi. [2]

“Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan 2016-yil 6—8-may kunlari Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida marhum leytenant Bobur G‘aniyevning yorqin xotirasiga bag‘ishlab mini-futbol bo‘yicha “Institut boshlig‘i kubogi” musobaqasi tashkil etildi.

Marhum leytenant Bobur G‘aniyev 1977-yil 14-oktabr kuni Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahrida tug‘ilgan. U 2000-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Maxsus fakultetini bitirgan. O‘sha yilning avgust oyida Surxondaryo viloyati tog‘li hududlarida xalqaro terrorchilarga qarshi olib borilgan ayovsiz janglarda qahramonlarcha halok bo‘lgan edi. Bobur G‘aniyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 25-avgustdagi farmoniga asosan mardlik, jasorat va fidoyilik ko‘rsatgani uchun II-darajali “Shon-sharaf” ordeni bilan mukofotlangan. [3]

Uch kun davom etgan turnirda Zangiota tumani hokimligi, Yoshlar ishlar agentligi, Yoshlar ittifoqi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari, tuman 1-sektor mahalla yoshlari, talabalar va kursantlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Xotira turnirining natijalariga ko‘ra, faxrli birinchi o‘rinni Zangiota tumani “Fayz’” mahalla yoshlari qo‘lga kiritdi, ikkinchi o‘ringa “Sortepa” mahalla yoshlari munosib ko‘rilgan bo‘lsa, uchinchi o‘rin “Bog‘zor” mahallasiga nasib etdi. G‘olib va ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi.

Shu jumladan, 2017-yil Shahrisabz tumandagi ta’lim muassasalarida boshqa jamoat tashkilotlari bilan birgalikda Vatanimiz ozodligi va sharafi himoyachilariga bag‘ishlangan “Qahramonlik, Burch va fidoyilik” hamda “Ajdodlarni xotirlash-muqaddas qadriyat” shiorlari ostida uchrashuvlar, davra suhbatlari, ma’rifiy tadbirlar tashkil etildi. O‘zbekiston ta’lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Shahrisabz tuman kengashi tomonidan 9-may “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan kasb-hunar kollejlari hamda akademik litsey pedagog-hodimlari o‘rtasida joriy yilning 5 may kuni tumandagi Xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejida sportning 4 ta turi voleybol, shashka, shaxmat, stol tennisi turlaridan sport musobaqalari o‘tkazildi. G‘oliblarga tuman kengashining diplom hamda esdalik sovg‘alari topshirildi.

Tuman kengashi tomonidan 2 nafar ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari Mustafoyev Begim, Sheraliyev Ashurlarning har biriga 100000 ming so‘mdan moddiy yordam ko‘rsatildi. Og‘ir kasalikka chalingan 88-maktabning mehnat faxriysi O‘zbekova Mahbuba hamda 38-maktab mehnat faxriysi Bozorov Boltalarning har biriga eng kam ish haqining bir barobari 149775 so‘mdan moddiy yordam berildi

2018-yil 6-may kuni tuman xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish bo‘limi majlislar zalida ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan jangchi faxriylar (baynalmilalchilar) ga “Tinchligimiz abadiy bo‘lsin” deb nomlangan madaniy tadbir o‘tkazildi. Tadbirda tuman kengashi raisi S. Abdullayev, tuman xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish bo‘limi mudiri A. Alimardonov hamda mudir o‘rinbosari O. Muhiddinovlar so‘zga chiqdi va tadbir ishtirokchilarini tabrikladilar. Shundan so‘ng 18 nafar jangchi faxriylar (baynalmilalchilar) ga tuman kengashining bayram sovg‘alari topshirildi.

2019-yil 9-may “Xotira va qadrlash kuni”munosabati bilan Navoiy shahridagi Alisher Navoiy nomli istirohat bog‘ida bayram keng jamoatchilik bag‘rida o‘tkazildi. Unda sport musobaqalari ham özgacha shukuh va tarovat bag‘ishlab turdi. Barcha tashkilot va korxona xodimlari talabalar öquvchilar 1941-1945 yillardagi askar formasi, bayram nishoni va lentasi bilan qatnashishganligi bayramga özgacha körinish vaqtlararo bog‘lanishni berib turdi. Bayramda arqon tortish, tosh kötarish, armrestling, badiiy kitob mutolaasi kabi musobaqalar Navoiy viloyati hokimligi Navoiy viloyati Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi va mutasaddi tashkilotlar hamkorligida tashkil qilindi. Sport har jabhada kerakligi ushbu o‘tkazilgan bayram tadbirlarida ham yaqqol sezilib turdi. [4]

O‘zbekiston Milliy Paralimpiya Assotsiatsiyasi 2024-yil 9- may munosabati bilan maxsus maktab internatlarida paralimpiya sportini yanada rivojlantirish maqsadida sport musobaqalari tashkillashtirmoqda. Shular jumlasidan Toshkent shahridagi 102-maxsus maktab internatida voleybol, stol tennisi va shaxmat sport turlari bo‘yicha musobaqa bo‘lib o‘tdi. Mazkur musobaqada 100 dan ortiq bolalar ishtirok etdi. Tadbir so‘ngida Assotsiatsiya tomonidan barcha ishtirokchilarga esdalik sovg‘alari topshirildi.

Keyingi yillarda Respublika Milliy olimpiya qo‘mitasi yurtimizda aholining turli qatlamlarini sportga jalb etish maqsadida keng ko‘lamli ishlar olib bormoqda. [5] Sportni yanada ommalashtirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish yo‘lida musobaqalar maktabgacha talim muassalaridan boshlanib, faxriylar o‘rtasidagi turnirlar bilan davom ettirilmoqda. 2024-yil 9-may ana shunday tadbirlardan biri shaxmat bo‘yicha Respublika ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar sport maktabida faxriylar o‘rtasida tashkil qilindi. Shaxmat, shashka va stol tennisi kabi sport turlari bo‘yicha “Xotira va qadrlash kuni”ga bag‘ishlab tashkil etilgan o‘ziga hos musobaqada 100 nafarga yaqin faxriy sportchi o‘zaro bellashdilar. Qizg‘in va do‘stona ruhda o‘tgan bahslarda kuchli uchlikka kira olgan faxriylarga Milliy olimpiya qo‘mitasining diplom va esdalik sovg‘alari topshirildi. Ushbu tadbir ishtirokchi sportchilarga olam-olam zavq bag‘ishladi. [6]

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ushbu o‘tkazilgan tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, yurtimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan xalqimiz tarixiga daxldor tarixiy adolatni tiklash, buyuk ajdodlarimiz tarixini, merosini o‘rganish, ularning hurmatini bajo keltirish, nomlarini abadiylashtirish, inson manfaatlarini ta’minlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www. gazeta. uz/oz/2024/05/08/may-9/

2. https://kun. uz/03991962 15:46 / 02. 12. 2016

3. Navoiy viloyati Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi matbuot xizmati May 9, 2019,

4. https://olamsport. com/oz/news/15819 23 may 08:23

5. PQ-143-сон 02. 05. 2023. 9-may-Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida (lex. uz)

6. https://www. gazeta. uz/oz/2024/05/08/may-9

O’ZBEKISTON SSR HUDUDIGA MAJBURAN KO’CHIRILGAN XALQLARNING TARIXSHUNOSLIGI

Jo’rayeva Xushroy
Namangan davlar universiteti tarix mutaxassisligi 2-kurs talabasi
Tel: +99899 9773181

Anotatsiya. *Ikkinchi jahon urushi arafasida va bevosita urush yillarida O’zbekiston SSR hududlariga majburan deportatsiya qilingan xalqlarning tarixiy taqdiri va etnik guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tarixini aks ettiruvchi ilmiy adabiyotlar, maqola va monografiyalar Yevropalik, Rossiyalik va O’zbekistonlik olim va olimalar tomonidan o’rganilib O’zbekiston tarixshunosligidagi muhim jihatlari tadqiq etilmoqda.*

Kalit so’zlar: *Ikkinchi jahon urushi, O’zbekiston SSR, I. Stalin, majburiy deportatsiya, tarixshunosligi, monografiyalar.*

Аннотация. *Научная литература, статьи и монографии, отражающие историческую судьбу народов, насильственно депортированных на территории Узбекской ССР накануне Второй мировой войны и в ближайшие годы войны, а также историю социально-экономического и культурного развития жизни этносов, опубликованные Европейскими, Российскими и Узбекскими учеными, изучаются важные аспекты историографии Узбекистана.*

Ключевые слова*: Вторая мировая война, Узбекская ССР, И. Сталин, принудительная депортация, историография, монографии.*

Annotation. *Scientific literature, articles and monographs reflecting the historical fate of the peoples forcibly deported to the territory of the Uzbek SSR on the eve of the Second World War and in the coming years of the war, as well as the history of the socio-economic and cultural development of the life of ethnic groups, published by European, Russian and Uzbek scientists, important aspects of historiography of Uzbekistan.*

Key words: *World War II, Uzbek SSR, I. Stalin, forced deportation, historiography, monographs.*

Tarix fanida sovet davridagi deportatsiyalar, ommaviy surgun va majburiy ko’chirishlar tarixiga doir ko’pgina asarlar yaratilgan. Sovet mamlakatidagi etnik deportatsiyalar tarixshunosligiga doir ilmiy va ommabop asarlar nihoyatda ko’p ekanini e’tiborga olgan holda, eng muhim asarlar xronologik davri bo’yicha uchta guruhga bo’lish mumkin: 1) Yevropa mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar; 2) Rossiyalik olimlarning ilmiy adabiyotlari; 3) Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar.

Qatag’onga uchrab zo’rlik bilan ko’chirilgan xalqlar I. Stalinning buyurug’i bilan amalga oshirilgan bo’lsa, ularning taqdirini aks ettiruvchi tarixiy asarlar asosan I. Stalin vafotidan so’ng o’rganilishi kuchaydi. XX asr 60-yillaridan boshlab dastlab g’arb mutaxassislari tomonidan o’rganila boshlandi. 1960 yilda AQShda e’lon qilingan Robert Konkvestning “Sovetlarning xalqlar deportatsiyasi” [1. 1960] kitobi nashr etilgan bo’lib mavzu tarixshunosligiga oid ilk adabiyotlardan biri hisoblanadi. Konkvestning aytishicha, Rossiya imperiyasi davridagi kolonial siyosatning uzviy davomi sifatida urush yillarida SSSRda amalga oshirilgan majburiy etnik

deportatsiyalarni ko’rish mumkin. R. Konkvest ayrim noaniqliklarga qaramasdan “jazolangan va surgun qilingan xalqlar” haqida statistik va xronologik tahlillarni birinchi bo’lib bera olgan.

Martin Gilbert tomonidan SSSR hududida xalqlarning ko’chirilgan yo’nalishlari xaritasi R. Konkvestdan farqli ravishda 1972 yilda nashr etilgan “Rus tarixi Atlasi” [8. P. - 146] da batafsil va to’liqroq ma’lumotlar ko’rsatiladi. Sababi R. Konkvest o’z ishida hujjatli materiallarga yaxshi etibor qaratmagan.

Shuningdek, 1950-1960 yillarda xorij tadqiqotchilari L. De Yong, I. Xoffman, Ya. Grosslarning deportatsiyalar masalasiga bag’ishlangan ishlari e’lon qilindi [19, 5, 4. 1988]. Sovet Ittifoqi qulaganidan keyingi davrdagi xorij tarixshunosligida Stalin davri deportatsiyalari, xususan, chechen, ingush, qrim tatarlari taqdiriga bag‘ishlangan P. Holkvist, A. Edvard, N. Neymark, A. Fisher singari tadqiqotchilarning asarlarini ko’rsatib o‘tish mumkin [6, 2, 9, 3. 2004]. . SSSRning Uzoq Sharq hududlaridan koreyslarning majburan Qozog‘istonga va O’rta Osiyo respublikalariga deportatsiya qilinishi masalasi g’arb tarixchi olimlari V. Kolarz, Dj. Stefan, Ko Son Mu lar tomonidan o‘rganilgan [7, 12, 11. Vol. 61.].

Rossiyalik tadqiqotchilardan Aleksandr Soljenitsin 1973-1975 yillarda Parijda nashr qilingan 3 tomlik “GULAG Arxipelagi” nomli badiiy asarida etnik deportatsiyalar masalasini ham atroflicha yoritib o’tgan [27. 1973-1975]. Ushbu asar aniq hujjatlar bazasiga tayanmaganligi uchun ham unda noaniqliklar va raqamlarni oshirib ko’rsatish kabi holatlarga yo’l qo’yilgan. Shu bilan birgalikda, SSSR fuqarosi bo’lgan Aleksand Nekrichning 1978 yil Nyu-Yorkda nashr etilgan “Jazolangan xalqlar: Ikkinchi Jahon urushi oxirida kamchilik sovetlarining deportatsiyasi va taqdiri” [10. p. 256] kitobi nashr qilinadi va bu kitobni mavzu tarixshunosligidagi muhim adabiyotlar qatoriga kiritish mumkin. A. Nekrich avvalgi tadqiqotlardan farqli ravishda dalillarga asoslanib, maxsus surgun qilinganlardan og’zaki va yozma materiallar to’plab, ko’chirilganlarning hayotini haqqoniy aks ettirishga harakat qilgan. A. Nekrich tarixshunoslikda ilk bor SSSRdagi deportatsiya masalasini yaxlit ilmiy muammo sifatida belgilagan [17. C. 9]. Demak A. Nekrich va R. Konkvestlargacha deportatsiya qilingan va maxsus ko’chirilgan xalqlar tarixini tadqiq etilmagan.

XX asrning 80-yillari oxirida xalqlarni majburiy ko’chirish siyosati tarixini haqqoniy tadqiq etish muammosi Rossiya va MDH mamlakatlarida “qayta qurish” siyosati inqirozi va totalitar tuzumning parchalanishi, turli etnikvaziyatlarning kuchayishi davrida o’rtaga tashlandi. Shu munosabat bilan olimlar yuzaga kelgan muammolarning tub ildizini tarixiy jixatdan tadqiq etishga va o’rganishga kirishdilar. XX asrning 90-yillaridan keyin O’zbekiston SSR hududiga majburan ko’chirilgan xalqlar tarixshunosligiga oid Rossiya va MDH davlatlarida qator ilmiy asarlar yaratildi. Ular orasida Rossiyalik olimlar N. F. Bugay, V. N. Zemskov, V. A. Berdinskiy, P. M. Polyan va boshqa mualliflarning ilmiy tadqiqotlari alohida e’tiborga molikdir.

N. F. Bugayning “SSSR tarixi” jurnalida chop etilgan maqolasi XX asr 80-90 – yillardagi deportatsiya qilingan xalqlar tarixini aks ettiruvchi birinchi maqola hisoblanadi [15. C. 115]. Bugayning keyingi ilmiy maqolalari ham bu mavzuni yanada kengroq o’rganishga imkon beruvchi manbalarni qamrab olgan. Bugayning 1995 yilda nashr etilgan “L. Beriya – I. Stalinga: Sizning ko’rsatmangizga muvofiq. . . ” [14. C. 319] nomli monografiyasida sovet qatag’on siyosati XX asr 30-40 yillarida SSSR hududidagi xalqlarni majburiy ko’chirilishi borasida ma’lumotlar bergan va bu xalqlarga nisbatan “genotsid” amalga oshirgan degan xulosalarni beradi. Xalqlarni ko’chirish davomida ularning boshiga tushgan kulfat va qiyinchiliklarni bunga asos qilib keltiradi. Bugay tadqiqotlarining avvalgi ilmiy adabiyotlardan

farqli jixati shundaki, u faqat majburiy ko’chirish siyosati va deportatsiya tarixini yoritmasdan, ko’chirilgan xalqlarning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy ahvolini, ushbu siyosatning ayanchli oqibatlari va demografik masalalarini, vatanga qaytish va reabilitatsiya muammolarini turli tadqiqotchilarning mavzuga doir mulohazalari bilan taqqoslab ko’rsatib ochib berishga harakat qilgan.

Bugayning 2012 yilda nashr etilgan “Fuqarolarni repressiya va reabilitatsiya qilish muammolari: tarixi va tarixshunosligi (XX asr - XXI asr boshlari)” nomli monografiyasida [16. C. 480] O’zbekiston SSRga deportatsiya qilingan aholining aniq ma’lumotlari, jumladan, xo’jaliklar va oilalar soni, ko’chirilgan xalqlarning O’zbekiston SSR xalq xo’jaligining qaysi sohasida mehnat qilganligi, qanday ishlar bilan shug’ullanganligi, Farg’ona fojiasidan keyin yuzaga kelgan etnik muammolarni, demografik va migratsion jarayonlarni arxiv manbalariga va ilmiy faktlarga asoslanib umumlashtiradi. Ushbu kitobda millatlararo munosabatlar, deportatsiya qilingan barcha xalqlarning ijtimoiy reabilitatsiya masalasi va ularning huquqlari tiklanishi, sovet milliy siyosati va oqibatlarining tarixi va tarixshunosligi yoritilgan.

2001 yilda nashr etilgan Pavel Polyanning “O’z ixtiyori bilan emas. . . ” [24. C. 84-125] nomli monografiyasi bo’lib, unda majburiy migratsiya jarayonlari va geodemografik ko’lami tarixi tahlil qilib berilgan. Bu monografiya muallifning “SSSRda majburiy migratsiya geografiyasi” [28. www. dissercat. com] mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi asosida 1998 yilda himoya qilgan. Monografiyada O’zbekiston SSRga majburiy ko’chirilgan aholining statistik tahlillari, xaritalari, reabilitatsiya masalalari geografik asoslari bilan ko’rsatib o’tiladi.

N. L. Pobol va P. M. Polyan hammuallifligida 2005 yilda yaratilgan “Stalin deportatsiyalari. 1928-1953 yillar” [21. C. 904] nomli kitobida to’rt bosqichda xalqlarning ko’chirilishi borasida ma’lumot berilgan. Birinchi bosqich Ikkinchi jahon urushidan oldingi etnik deportatsiyalar uchun ajratilgan bo’lib 1928 yildan - 1 - avgust 1939 yilgacha, ikkinchi va uchinchi bosqichlarda Ikkinchi jahon urushi vaqtidagi deportatsiyalarni o’z ichiga olib 1939 yil 1 sentyabrdan -1945 yil 9 maygacha, to’rtinchi bosqichda esa 1945 yil 10 maydan - 1953 yilgacha yoritiladi.

Viktor Berdinskiyning 2005 yil Moskvada chop etilgan “Maxsus ko’chirilganlar. Sovet Rossiyasi xalqlarining siyosiy surgun qilinishi” [13. C. 768] nomli kitobi mavzu tarixshunosligidagi juda katta ahamiyatga ega ilmiy asardir. Bu kitobda SSSRda amalga oshirilgan deportatsiya siyosati tarixi faqatgina arxiv xujjat va materiallari bilan emas, balki og’zaki tarix manbalaridan ham foydalanilgan. Vladimir Zemskov tomonidan ham bu mavzu bo’yicha ko’plab maqola va monografiyalar e’lon qilingan, uzi esa 2005 yilda “SSSR dagi maxsus ko’chirilganlar. ” [17. 2005.] degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ushbu ilmiy ishlarida O’zbekiston SSRga ko’chirilgan etnik aholi tarixini dinamik jadvallar va statistik tahlillar orqali yoritib bergan.

O’zbekistonda 1990-yillardan e’tiboran bu yerga deportatsiya qilib keltirilgan ayrim xalqlar – koreyslar va qrim tatarlari hayoti hamda faoliyatiga doir alohida izlanishlar ham yuzaga keldiki, bu mavzudagi birinchi tadqiqot P. G. Kim tomonidan amalga oshirildi [20. C. 176]. Ushbu kitobda koreyslarning 1937 yilda O’zbekistonga deportatsiya qilinishidan tortib to 1990 yillar boshigacha bo’lgan hayoti va mehnat faoliyatiga doir ma’lumotlar o’rin olgan. O’zbekistonlik yana bir tadqiqotchi V. D. Kimning monografiyalari [19. C. 240]

Rossiya, Qozog’iston va O’zbekiston arxivlarida ilgari maxfiy ravishda saqlangan deportatsiya masalasiga doir hujjatlar asosida yaratilgan.

Yana bir mutaxasis Shodmonqul Pirimqulov tomonidan G’arbiy Ukraina va G’arbiy Belorusiya hududlaridan maxsus ko’chirilgan va O’zbekiston SSRda 1941-1946 yillarda yashagan polyak fuqorolari tarixi bo’yicha izlanish olib borgan. “Polyak fuqorolari Samarqandda (1941-1946 yy.)” [22. 1999] va “Surgun qilingan polyak fuqorolari O’zbekistonda (1941- 1946 yy.)” [23. 2006.] nomli ilmiy ishlari Shodmonqul Pirimqulovning ko’p yillik tadqiqot natijalari sanaladi. Bu ilmiy ishlar asosini O’zbekiston Milliy arxivi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivi, Toshkent shahar va viloyat davlat arxivlari, Rossiya markaziy davlat arxivi, Polsha Respublikasining davlat arxivi xujjatlari va davriy matbuot materiallari tashkil qilgan.

Shuningdek, Adolat Raxmanqulova sovet milliy siyosati qurboni bo’lgan, O’zbekiston SSRga surgun qilingan xalqlar tarixini aks ettiruvchi ko’plab ilmiy maqolalar e’lon qilgan. Ushbu ilmiy ishlarida deportatsiya qilingan xalqlar haqida va bu siyosatning kelib chiqish sabablari va fojiali oqibatlari, O’zbekistonga zo’rlik bilan ko’chirilgan xalqlarning ijtimoiy - iqtisodiy ahvoli, XX asrning 30 – 40 yillarning oxirida ko’chirilganlarning mehnat salohiyatidan foydalanishiga to’xtalib o’tilgan va yoritib berilgan. Adolat Raxmanqulova xalqlar deportatsiyasi tarixi bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy arxivi xujjatlaridan foydalanib O’zbekistonga majburiy ko’chirilgan xalqlar tarixi bo’yicha ko’plab ma’lumotlar e’lon qilgan [25. С. 150-163]. M. M. Xoshimovaning 2004 yilda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasida [27. Б. 142] Qozog‘istonga deportatsiya qilingan Shimoliy Kavkaz xalqlarining maxsus manzilgohlar tizimidagi hayoti va mehnat faoliyati masalalari o‘rganilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar mavzusida yaratilgan asarlarda, keyingi yillarda nashr etilgan fundamental ahamiyatdagi bir qator to‘plamlarda ham sovet davridagi majburiy ko‘chirishlar, O‘zbekistonga deportatsiya qilingan xalqlar taqdiri masalalari yoritib o‘tilgan. Umuman, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida Stalin davri qatag‘onlari tarixini tadqiq etish bilan bir qatorda, deportatsiya qilingan xalqlarning O‘rta Osiyodagi, jumladan O‘zbekistondagi hayoti va mehnat faoliyati tarixiga oid tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda, bu borada yangidan-yangi izlanishlar qilinyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Conquest R. The Soviet deportation of nationalities. London: MACMILLAN & CO LTD; New York: ST MARTIN’S PRESS, 1960.
2. Edward A. The Tatars of Crimea: Return to the Homeland: Studies and documents. USA. Durham: Duke University Press, 1998;
3. Fisher A. Crimean Tatars. Stanford, California: Hoover Press, 2014.
4. Gross J. Und wehe du hoffst. Die Sowjetisierung Ostopolens nash dem Hitler – Stalin – Pakt 1939-1941. Freiburg im Breisgau, 1988;
5. Hoffman J. Deutsche und Kalmyken 1942-1945. Freiburg, 1974;
6. Holquist P. Conduct Merciless, Mass Terror: Decossackization on the Don, 1919 // Cahiers du Monde russe. 1997. №38 (1-2).
7. Kolarz W. Russland und seine asiatishen Volker. Frankfurt am Main Europaische Verl. Anst. 1956.
8. Martin Gilbert. Russian History Atlas. New York, 1972. P. - 146

9. Naimark N. Stalin und der Genozid. Berlin, Suhrkamp, 2010;

10. Nekrich A. M. The Punished Peoples: The Deportation and Fate of Soviet Minorities at the End of the Second World War. - Edition: W. W. Norton & Co, 1981. - 256 p.

11. Songmoo Kho. Koreans in the Soviet Central Asia. Helsinki, Studie Orientalia, 1987. Vol. 61.

12. Stephan. J. The Korean Minority in the Soviet Union // Central Asia Review (Mizan). 1971. Vol. 19. No 3. P. 138-150.

13. Бердинский В. А. Спецпоселенцы. Политическая ссылка народов Советской России. Москва:Новое литературное обозрение, 2005. С. - 768

14. Бугай Н. Ф. Л. Берия-И. Сталину: "Согласно Вашему указанию. . . ": [О депортации народов в СССР в 30-40-е гг.] /М. : 1995. - 319 с

15. Бугай Н. Ф. К вопросу о депортации народов СССР в 30-40-х годах. / История СССР. 1989. №6. С. - 115

16. Бугай Н. Ф. Проблемы репрессий и реабилитации граждан: история и историография (XX в. – начало XXI в.). – Москва: 2012. С. – 480

17. Земсков В. Н. Спецпоселенцы в СССР. 1930-1960. Автореф. док. ист. наук. - Москва, 2005. - С. 9.

18. Йонг Л. Немецкая пятая колонна во Второй мировой войне. – Москва: 1958;

19. Ким В. Д. Эшелон – 58. – Ташкент: 1994. – 264 с; Унинг ўзи. Правда полвека спустя. – Ташкент: Узбекистан, 1999. С. -240

20. Ким П. Г. Корейцы Республики Узбекистан (история и современность). – Ташкент: Узбекистан, 1993. С. -176

21. Н. Л. Поболь, П. М. Полян. Сталинские депортации. 1928-1953 / Международ. фонд «Демократия», М. : МФД; Материк, 2005. - (Серия «Россия. XX век. Документы») - С. 904

22. Пиримкулов, Ш. Польские граждане в Самарканде (1941–1946 гг.) / Ш. Пиримкулов. – Самарканд: Зарафшон, 1999.

23. Пиримқулов, Ш. Польские сосланные граждане в Узбекистане (1941–1946 гг.) / Ш. Пиримкулов. – Ташкент: Фан, 2006.

24. Полян П. Не по своей воле. История и география миграций в СССР. - Москва: 2001. С. – 84-125.

25. Рахманқулова А. Об использовании трудового потенциала депортированных народов в Узбекистане в конце 1930-х – 1940-е годы // Этнографическое обозрение. №5. 2006. -С. 150-163.

26. Солженицын А. И. Архипелаг ГУЛАГ. 1918-1956: опыт художественного исследования. В 3 томах и 7 частях. – Париж, 1973-1975.

27. Хошимова М. М. XX аср ўртасида Марказий Осиёга депортация қилинган Шимолий Кавказ халқлари тарихи (Қозоғистон Республикаси мисолида) / Тарих фанлари номзоди илмий даражаси учун диссертация. – Самарқанд, 2004. – 142 б.

28. https://www. dissercat. com/content/geografiya-prinuditelnykh-migratsii-v sssr

Sodiqjonova Roziyaxon Jo‘rabek qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Texnologik ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi
Tel: *+998 93 546 11 24*
llmiy rahbar: A. N. Asraqulova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson qadri tushunchasi va shakillanishi, insonlar haq-huquqlarining tarixda va bugungi zamonda qanday ekanligi, sohibqiron Amir Temurning fikrlari, sharq mamlakatlarida inson masalalari, islom dinida inson qadri mavzulari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Suqrot, Temur tuzuklari, islom dini, qonunlar, taraqqiyot strategiyasi, Imom Buxoriy rivoyatlari, soǧlom ekologik muhit.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается понятие и становление человеческого достоинства, каковы права человека в истории и современности, мысли сахибкирана Амира Темура, вопросы человека в странах Востока, темы человеческого достоинства в исламе.*

Ключевые слова: *Сократ, структуры Тимура, религия ислама, законы, стратегия развития, повествования Имама Бухари, экологическая среда соуллама.*

Annotation: *this article will talk about the concept and formation of human dignity, what human rights are in history and in modern times, the opinions of the poet Amir Temur, human issues in Eastern countries, human dignity in Islam.*

Keywords: *Socrates, Timur traps, Islam, laws, development strategy, Imam Bukhari narratives, solomlom ecological environment.*

Inson qadri ulug'vor tushuncha. Bu so'zning zamirida mohiyati ulkan tushunchalar bor. Inson qadri deganda biz insonning o'z erkinliklari, huquqlari, uning mazmunli hayoti, o'z manfaatlari, o'z qadr-qimmatini tushunamiz. Inson uchun qadriyatlar mezonini anglashda dastlab oila muhiti, ota-ona, qarindoshlari, o‘qituvchilar muhim o‘rin egallaydi. Aynan mana shu omillar negizida inson kamol topib boradi. Insonning butun umri o‘zida shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o‘z qadrini kamolga yetkazish, jamiyat, zamonda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar qadrini anglashga intilishdan iboratdir. O‘zi va boshqaning qadrini anglab yetish uchun insonning ma’naviy dunyosi boy, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishi, uning o‘zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to‘g‘ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bo‘lmog‘i lozim. Bu ma’noda, Suqrotning "O‘z-o‘zingni anglab yet!" – degan da’vati g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. O‘z qadrini anglashning obyektiv, subyektiv, ijtimoiy va shaxsiy jihatlari mavjud bo‘lib, doimiy ravishda o‘zaro aloqadorlikda yashaydi, inson tabiatining turli jihatlarini aks ettiradi. Har qaysi shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ko‘zgusida namoyon bo‘ladi. Muhit va davrning talablari shaxsning qadrini shakllantirib, yuksaltirib boradi. Uning o‘zi ijtimoiy munosabatlar sub’yekti sifatida, o‘z qadrining shaxsiy talablari, ehtiyoj va maqsadlari bilan naqadar bog‘liq ekanini tobora ko‘proq anglab boradi. Inson va uning qadri muammosi – falsafaning azaliy mavzularidan biri. Odam naslining dunyoga kelishi, boshqa jonzotlardan farqi, tabiat va jamiyatdagi o‘rni, insoniy fazilatlari, shaxsiy xususiyati to‘g‘risidagi masalalar hamma davr faylasuflarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ma’lumki, odamning jismoniy tuzilishi, tabiiy-biologik xususiyatlarini o‘rganish ilmfan olamida hamon davom etmoqda. Ijtimoiy fanlarda esa shaxs kamoloti, uning ijtimoiy, ma’naviy qiyofasi bilan bog‘liq masalalari tadqiq qilinmoqda. Xullas, odamzod uchun o‘ziga o‘xshagan boshqa kishilar,

ularning xususiyatlari, jamiyatdagi o‘rni, qadri, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq muammolar qadimdan eng asosiy tadqiqot va kuzatish obyekti bo‘lib kelgan.

Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari o'nlab olimlar, davlat va jamoat arboblari dunyoqarashida, ularning amaliy ishlarida inson huquqlari masalasi alohida o'rin egallaydi. Ular turli muammolar singari inson huquqlari, erkinliklari, qadriyatlari, manfaatlari masalasiga ham befarq qaramaganlar va bu borada o'z fikr-mulohazalarini

bayon etganlar. Inson haqida g'amxo'rlik qilish, inson erkinligi, haq-huquqlari to'g`risida qayg’urish, inson sha'nini kamsitadigan urinishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyalari aynan shular jumlasidandir. O`rta asrlarda butun dunyoda bo'lgani singari Sharq mamlakatlarida ham inson huquqlari turli yo'llar bilan toptab kelingan. O'sha davrlarda insonning shaxsiy huquq va erkinliklari singari, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma`naviy huquqlari ham hukmron siyosiy kuchlar tomonidan cheklab qo'yilgan. Bunday holatlargaqarshi noroziliklar shafqatsizlarcha bostirilgan. Kishilar yashash, mehnat qilish va dam olish kabi oddiy insoniy huquqlardan ham to'la erkinlik asosida foydalanishimkoniyatiga ega bo'lmaganlar. Insonning sha'ni, qadr-qimmati, erkinliklari huquqiy jihatdan kafolatlanmagan. O'sha davrlarda bobomiz Sohibqiron Amir Temur amalga oshirgan ishlar diqqatga sazovordir. Sohibqironning butun hayoti va kurashi insonni qadrlash, uning yaxshihayot kechirishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berish bilan chambarchas bog'liqdir. Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari"da mamlakat fuqarolarining haq-huquqlari va ularni himoya qilishning zarurligini qayta-qayta ta'kidlagan. Insonningmehnat qilish huquqi asarda quyidagicha ta'riflab beriladi: "Agar kasb-u hunar va ma'rifat ahillaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa, bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o`z ahvoli va kasbi-korig'a qarab ish tutsinlar". [1]

Bugungi kunda ham bunday islohatlarimiz kam emas, misol uchun Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida shu yil 26-yanvar kuni O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yurtimizda inson qadri ulug‘lanishiga doir vazifalar belgilandi. Boisi, inson qadrini ulug‘lash eng oliy fazilat bo‘lib, yurtimizdagi islohotlarning mantiqiy davomidir. Yana shu jumladan prezidentimizning quyidagi fikrini keltirib o'tamiz “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”, deya ta’kidladi davlatimiz rahbari.

Alloh taolo O‘z irodasi va qudrati ila insonni aqlli qilib yaratdi. Shuning uchun ham dinimiz aql rivoji va taraqqiyotiga katta ahamiyat beradi. Zero, Qur'oni karimning juda ko‘p o‘rinlarida insonlar aql yuritishga, fikrlashga, nazar solish va ibrat olishga undaladi. Aql yuritmaydigan kishilar esa, qattiq tanqid ostiga olinadi.

Islom diniga ko‘ra barcha insonlar barobar, bir-birlariga birodardirlar. Ulardan biri boshqasidan hech narsada – na boylikda, na mansabda, na chiroyi, na xushbichim gavdasi bilan, na jamiyatda tutgan o‘rni bilan ustun bo‘la oladi.

Insonning ruhiy-ma’naviy olami boy bo‘lsa, uning qadr-qimmati shuncha oshadi. Inson qancha imonli, diyonatli bo‘lsa, Allohga muhabbati va itoati qanchalik ulug‘ bo‘lsa, shundagina

uning darajasi yuqori bo‘ladi. Shuning uchun ham dinimizda odamlarni irqiy mansubligi va tanasining rangi bo‘yicha bir-biridan afzal ko‘rishni taqiqlaydi. Mashhur sahobalardan biri Abu Zarr Al-G‘iforiy raziyallohu anhu bir qora tanli qullaridan achchiqlanib, onasi ham qora ekani bilan ayblaganlarida Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam bundan qattiq g‘azablanganlar va shunday deganlar:

Ey Abu Zarr! Sen uni onasi bilan aybladingmi?! Senda johiliyat odati bor ekan! Qullaringiz birodarlaringizdir. Alloh ularni qo‘l ostilaringizda qilib qo‘ydi. Kimning birodari qo‘l ostida ekan, o‘zi yegan taomdan uni ham yedirsin, kiygan kiyimidin kiydirsin. Ularga og‘ir keladigan ishlarni buyurmanglar. Agar og‘ir ishga buyursangizlar, ularga yordam beringlar”, dedilar”, – dedilar (Imom Buxoriy rivoyatlari).

Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida: “Mo‘min kishi Alloh taolo nazdida farishtalardan ham mukarram va afzaldir”, deb marhamat qilganlar.

Islom inson qadrini hamma vaqt, har yerda ulug‘lashni buyurgan, uning sharafini oliy darajaga ko‘targan. Dinimizda inson aziz va mukarram zot sifatida ulug‘lanadi hamda kishi hayotining ruhiy va ma’naviy jihatdan komillikka yetishishiga katta e’tibor beradi. Nafaqat islom dinida balki boshqa dinlarda ham insonlar o'rnini ko'rishimiz mumkin. Masalan zardushtiylik dinini olib qaraydigan bo'lsak, bu dinda ham insonni komillikka yuksalishga undaydigan narsa bu insonning ezgu fikr ezgu so'z va ezgu amalidir. Biz ham bugungi kunda o'z qadr-qimmatimizni qanday yuksaltira olayapmizmi? Yoki biz insonlarni o'z vaqtida qadirlay olayapmizmi? degan savolga bazi bazi onlarda o'zimdan javob olishga harakat qilib ko'raman. Siz ham ushbu savollar bilan o'zingizga yuzlanib ko'ring. Umid qilamanki munosib javobni olasiz.

Yuqoridagi fikirlarimizni yanada kengroq talqin qilish maqsadida inson qadrini yuksaltirishda iqtisodiy farovonlik muhim omillardan biri deb xisoblashmiz mumkin. Bu borada falsafa fanlari doktori A. Asraqulova o’z maqolalarida yoritishga atroflicha e’tibor qaratgan. [2]

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. “Temur tuzuklari”. T. G‘ G’ulom nomidagi nashriyot, 1991. 67-bet.

2. Асракулова , А. 2021. Теоретические вопросы, связанные с формированием экономического мышления молодежи. *Общество и инновации*. 2, 7/S (авг. 2021), 1–6. DOI:https://doi. org/10. 47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp1-6.

FARG`ONA VODIYSIDA SOG`LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI KAMCHILIKLAR (XX ASRNING 60-80-YILLARI)

Qodirjon Najmiddinov Murodjon o`g`li,
Namangan davlat universiteti Tarix kafedrasi tayanch doktoranti,
E-mail: najmiddinovqodirjon13@gmail. com
Tel: +998 90 796 28 22

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 1960-1980-yillardagi O`zbekistonning Andijon, Farg`ona va Namangan viloyatlari aholisining kundalik hayoti va tibbiy xizmat ko`rsatilish holati yoritilgan. Qishloqlarda aholiga tibbiy xizmat ko`rsatish dinamikasi, ijtimoiy munosabatlar va qishloq aholisining byudjeti masalalari kabi ishlar yoritilgan. Shuningdek, aholining sog`lig`i va ularni ta`minlash bo`yicha bajarilgan ishlar, inson hayoti va uning qadri masalalariga alohida*

e`tibor berilgan. Shuningdek, Sovet hukumatining inson sog`ligi masalasidagi siyosatning kamchiliklari ham chuqur tahlil etilgan.

***Kalit so`zlar:*** *poliklinika, poliomielet, bo`g`ma kasalligi, qizamiq, sil, meningokokk, qorin tifi, paratif, difteriya*

Аннотация: *В данной статье описывается повседневная жизнь жителей Андижанской, Ферганской и Наманганской областей Узбекистана в 1960-1980-е годы и состояние медицинского обслуживания. Также особое внимание было уделено вопросам здоровья населения и его обеспечения, жизни человека и ее ценности. Также подробно анализируются недостатки политики советского правительства в вопросе здоровья человека.*

Ключевые слова: *поликлиника, полиомиелит, подагра, корь, туберкулез, менингококк, брюшной тиф, паратиф, дифтерия.*

Abstract: *This article describes the daily life of the residents of Andijan, Fergana and Namangan regions of Uzbekistan in the 1960s-1980s and the state of medical services. Also, special attention was paid to the issues of the health of the population and their provision, human life and its value. Also, the shortcomings of the policy of the Soviet government in the issue of human health are analyzed in depth.*

Key words: *polyclinic, poliomyelitis, gout, measles, tuberculosis, meningococcus, typhoid fever, paratyphoid, diphtheria*

Biz Yangi O`zbekistonda inson qadri va manfaatlarini ta`minlashni o`z oldimizga ezgu maqsad qilib qo`ygan ekanmiz, bu yo`lda xalqimiz salomatligini mustahkamlash eng muhim vazifalarimizdan biri bo`lishi tabiiydir. Ayni shu maqsadda keyingi yillarda O`zbekiston sog`liqni saqlash tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Sohaning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Tizimga ilg`or davolash va diagnostika usullari, innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda. Buning tasdig`ini 2023-yilning o`zida joylarda 22 ta oilaviy poliklinika, 93 ta oilaviy shifokorlik punkti va 394 mahalla tibbiyot punkti tashkil etilib, birlamchi tibbiy xizmatlar 2 million 100 ming nafardan ziyod aholiga yaqinlashtirilgani misolida yaqqol ko`rish mumkin. Bu haqda so`z yuritganda, 8 million 600 ming nafar aholi profilaktik tibbiy ko`rikdan o`tkazilib, ularning 685 ming nafari ambulatory, 72 ming nafari esa statsionar sharoitda sog`lomlashtirilgani, skrining tekshiruvlari orqali 167 ming nafar yurtdoshimiz yurak-qon tomir, 52 ming nafarida qandli diabet kasalligi aniqlanib, ularning salomatligini tiklash choralari ko`rilganini ta`kidlash lozim. [1]

Lekin, arxiv ma`lumotlariga ko`ra, O`zbekiston SSR hukumati davrida 1950-1960-yillarda Farg`ona vodiysi viloyatlarida aholiga tibbiy xizmat ko`rsatish sifati ancha past darajada edi. Bunga ishlab chiqarish korxonalarining ekologik holatga ta`siri, aholining toza ichimlik suvi bilan ta`minlanish holatining sustligi, gazlashtirish, elektrlashtirish va kanalizatsiya tarmoqlarining shifoxonalar infratuzilmasida yaxshi emasligi kabi bir qancha sabablari bor edi. Natijada aholisi eng zich joylashgan Farg`ona vodiysida bir qancha kasalliklar avj olib, aholi turmushida o`z salbiy jihatlarini ko`rsata boshladi. Farg`ona vodiysi qishloqlarida bir qancha kasallik turlari bo`lgan. Masalan, yuqumli jigar yallig`lanishi keng tarqalgan kasalliklardan biri bo`lib, u asosan bolalar, qisman kattalarda uchrab turgan. Farg`ona viloyatida 1957-yilda bu kasallikka chalingan bemorlarning 30, 1 foizini 7 yoshgacha bolalar tashkil qilgan bo`lsa, 1961-yilda 43, 6 foizga yetgan. Kasallikning tarqalishigacha ko`proq ignalarning yaxshi sterillanmasligi sabab bo`lgan. 1950-yillarda Farg`ona viloyatida poliomielet ( oyoq va qo`l, bo`g`imlar og`rishi va qon kamayishi) kasalligi ham uchrab uchrab turgan, ayniqsa, 1957-1959-yillarda 76 ta bunday holat aniqlangan, u maksimum daraja hisoblangan. Poliomielitga qarshi vaksina ishlab chiqarilishi

natijasida bu kasallik keskin kamaygan, 1960-yilda bunday kasallikka chalinganlar 17 nafarni, 1961-yilda esa 26 nafarni tashkil etgan. Ular ham, asosan, kasallikka qarshi emlanmagan kishilar bo`lgan. Bo`gma(difteriya) bilan kasallanish Farg`ona viloyatida ancha yuqori bo`lib, 1958-yilda 10000 aholiga nisbatan 12, 4 ta kasallanish qayd etilgan. Bu kasallikka chalinish, ayniqsa, viloyat shaharlarida ancha yuqori bo`lgan. Jumladan, Farg`ona shahrida 10000 aholiga nisbatan 50, 5 ta, Qo`qon shahrida 31, 1 ta kasallanish to`g`ri kelgan. **[2]**

Andijon viloyatining ba`zi rayonlarida bo`g`ma kasalligi tarqalib turgan. 1973-yil oktabrida Baliqchi rayonida bo`g`ma kasalligi tarqalganligi haqida ma`lumot mavjud. Unda keltirilishicha, oktabr oyida ushbu rayonda 17 kishi bo`g`ma kasaliga chalingan, ularning 15 nafari maktab o`quvchilari, ikkitasi maktabgacha yoshdagi bolalar bo`lgan. Tekshiruvlar natijasida bemorlarning ayrimlari epidemiologiya stansiyalari tomonidan bo`g`maga qarshi emlanmaganligi aniqlangan va rayondagi barcha bolalarni bo`g`maga qarshi qaytadan emlash amalga oshiriladi. Shuningdek, qizamiq, sil kabi kasalliklarga qarshi emlash ishlari olib boriladi. **[3]**

Namangan viloyatida ham kasalliklarga qarshi emlash yetarli darajada olib borilmaganligi natijasida kasallikka chalingan bemorlar soni oshib borgan. 1968-1970-yillarda bolalarni qizamiqqa qarshi emlash to`liq o`tkazilmaganligi oqibatida 1973-yilda Chust shahri va Pop rayonida qizamiq bilan kasallanish holatlari keskin ko`payib ketgan. Shu sababli 1968-1970-yillarda qizamiqqa qarshi emlangan bolalar qayta emlashdan o`tkazilgan. **[4]**

1973-yilda Namangan viloyatida 432491 nafar bolalar bo`lib, ularning aksariyati qizamiqqa qarshi emlanmagan edi. Kasallikka chalingan bolalarning 287 nafari qizamiqqa qarshi emlanmagan bo`lgan, qizamiqqa qarshi emlangan 172 nafar bola ham bu kasallikka chalingan. **[5]** Umuman qizamiqqa chalinganlarning 459 nafari bolalar, 4 nafari 18-19 yoshdagi o`smirlar edi. **[6]**

1964-1973-yillarda Namangan viloyatida meningokokk (meningit kasalligini qo`zg`atuvchi mikroorganizm) infeksiyasiga chalingan bemorlar soni ham oshib borgan. 1964-yilda 5 kishi, 1973-yilda 70 kishi bu kasallikka chalingan. 1973-yilda kasallikka chalinganlarning 41 tasi shaharliklar, 29 tasi qishloq aholisi edi. 100 ming aholiga nisbatan shaharda 16, 4 ta, qishloqda 4, 2 ta bemor to`g`ri kelgan. Shu yili bu kasallikka chalingan bemorlarning 7 tasi (10 foizi) vafot etgan. **[7]** 1973-yilda viloyat aholisining 12 yoshdan yuqori 70 foiz aholisi flyurografiya tekshiruvidan o`tkazilgan. Barcha rayonlarda sanepidstansiyalarida sil kasalligini nazorat qilish bo`yicha 1 nafardan xodim ajratilgan, viloyatdagi mavjud 12 ta tubdispanserdan har chorakda oziq-ovqat kaloriyasi tekshirib borilgan. **[8]**

1970-yillarda ayrim kasalliklar ko`paygan bo`lsa, ayrimlariga qarshi samarali kurash olib borilgan. Xususan, Andijon viloyatida 1973-yilda qorin tifi (ichterlama) bilan kasallangan bemorlar soni 1972-yildagiga nisbatan 25 foizga kamaygan bo`lsa, paratifga chalingan bemorlar soni 8 foizga oshgan. Jalaquduq, Baliqchi va Lenin(hozirgi Asaka) rayonlarining ba`zi kolxozlarida paratif bilan og`rigan bemorlar soni viloyatdagi o`rtacha ko`rsatkichdan 1, 5 – 2 baravar ortiq edi. Masalan, Baliqchi rayonidan 1973-yilda 65 kishi qorin tifiga chalingan, ya`ni viloyatda bu kasallikka chalingan barcha bemorlar 28 foizi ushbu rayonga to`g`ri kelgan. Epidemiologik tahlil natijalari mazkur rayonda qorin tifi va paratif kasalligiga chalingan bemorlar soni doimiy bir xil bo`lganligini ko`rsatadi. Rayonning barcha kolxozlarida qorin tifi bilan og`rigan bemorlar uchragan, 6 ta kolxozning 37 qishlog`idan 18 tasida qorin tifi va paratif kasaliga uchragan bemorlar bo`lib, ayniqsa, Qiyali, Kultepa, Otbozor, Narimon qishloqlari va Chinobod posyolkasida bunday bemorlar soni boshqa qishloqlarga nisbatan ko`pchilikni tashkil qilgan. **[9]**

Bu kasallikning aholi orasida keng tarqalishining asosiy sababi aholining ochiq suv havzalaridan iste`mol uchun keng foydalanishi edi. Qishloqlardagi 1166 ta aholi punktidan va shahardagi ko`chalardan faqat 537 tasi toza ichimlik suvi bilan ta`minlangan, viloyat rayonlarida

ichimlik suvi tarmoqlarining qurilishi amalga oshirilmagan. 1973-yilda Andijon viloyati ijroiya komiteti 133, 2 km. uzunlikda 30 ta ichimlik suvi tarmog`i qurishni rejalashtirgan bo`lib, amalda faqat 73, 8 km. uzunlikdagi 14 ta vodoprovod qurilgan, bu bo`yicha reja 48 foizga bajarilgan, xolos. Qo`rg`ontepa, Lenin, Paxtaobod, Moskva rayonlarida ichimlik suvi tarmog`i qurilishi og`ir ahvolda ediki, bu masala viloyat partiya komiteti yig`ilishda bir necha bor muhokama qilingan.

1973-yil bahorida “Moskva” kolxozida ichimlik suvi tarmog`i ishlamaganligi sababli aholi ariq va hovuz suvlaridan keng foydalangani oqibatida kasallik ko`p tarqalgan. Qiyali qishlog`ida 45 ta kolonkadan atigi 3 tasi ishlagan, shuningdek, ”Leningrad” kolxozidagi 3 ta ichimlik suvi tarmog`idan faqat 1 tasi ishlagan, u ham ta`mirtalab bo`lgan va 25 ta kolonkadan faqat 10 tasi ishlab turgan. ”Kommunizm” kolxozida 70 ta kolonkadan 59 tasi ishlamagani aholi orasida yuqumli kasalliklar tarqalishiga sabablardan biri bo`lgan. Qorin tifi va paratif kasalligiga asosan maktab yoshigacha bo`lgan bolalar va va maktab o`quvchilari chalingan. **[10]**

Respublikada 1976-yilda kimyoviy moddalarning qishloq xo`jaligida qo`llanishi ta`qiqlanishiga qaramasdan, 1981-yilda paxta maydonlariga 1010 tonna kimyoviy moddalar solindi. Ichimlik suvining sifati talabga javob bermas, ichishga yaroqsiz holatlari kun sayin ortib borgan. Ekin maydonlarida to`plangan zaharli moddalar sug`orish jarayonida yuvilib (0, 2 -3 %), turli suv havzalariga tushib yer usti suvlarini zaharlagan. Natijada, oqar suvlar va turg`un suv havzalaridagi suv ekotizimlarining tarkibiy tuzilishi va rivojlanish jarayonlari buziladi, uning aholi ichimlik suviga salbiy ta`siri yanada ortib boradi.

Jumladan, Farg`ona viloyati Oxunboboyev tumanidagi Karl Marks nomli jamoa xo`jaligida g`o`zalarni samolyotda defolyatsiya qilayotgan uchuvchi “adashib” zaharli moddalarni Andijon viloyatining Bo`z tumanidagi “Yangi turmush” jamoa xo`jaligi dalalarida mehnat qilayotgan aholi ustidan sepib yuboradi. Mazkur adashish oqibatida 28 fuqaro zaharlanib kasalxonaga yotqiziladi. Paxta yakkahokimligi siyosati davrida O`zbekistonda inson hayotidan xomashyoni yetishtirish majburiyatlari yuqori turgan.

1973-yilda Farg`ona viloyatida oziq-ovqat sanoati, umumiy ovqatlanish muassasalari va oziq-ovqat savdosi xodimlaridan 21383 nafari, shu jumladan, qishloqlardan 6269 kishi rentgenflyurografiya tekshiruvidan o`tkazildi. Ulardan 8 nafarida kasallik aniqlangan. Bolalar muassasalari, maktablar, davolash profilaktoriyalari va sanatoriya-kurort muassasalari xodimlaridan 29782 nafar kishi (18878 nafari qishloqlardan) ham tekshirilib, 6 kishida kasallik aniqlangan, ulardan 3 nafari qishloqlardan bo`lgan. Shuningdek, kattalar uchun mo`ljallangan davolash profilaktoriysi va va sanatoriya muassasalari xodimlari, dorixona va farmasevtika xodimlari, mehmonxona xodimlari va ichimlik suvi stansiyasi xodimlari, kutubxona, atelye, bolalar o`yinchoqlari tayyorlovchi va sotuvchilari, maktab o`quvchilari o`rtasida ham bu kasallikni aniqlash uchun maxsus tekshiruvlar o`tkazilgan. **[11]**

1975-yilda respublikada 10 ming aholiga 73, 9 nafar o`rta ma`lumotli tibbiy xodim to`g`ri kelgan, bu ko`rsatkich qishloqlarda 38, 6 nafarni tashkil etgan. Respublika bo`yicha tibbiyot muassasalarining o`rta ma`lumotli xodimlar bilan ta`minlanishi 96, 4 foizni tashkil qilgan va qishloqlarda ham shu ko`rsatkichga erishilgan.

1970-yillarda respublikadagi tibbiyot muassasalari moliyaviy ahvolini yaxshilash bo`yicha ayrim ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1971-yilda Farg`ona viloyatida tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun davlat byudjetidan 1, 8 million so`m, 1974-yilda 2 million so`m ajratilgan. 1971-1974-yillarda Farg`ona kolxoz va sovxozlariga byudjet mablag`lari hisobiga 300 o`rinli 5 ta davolash korpuslari hamda bir kunda 250 kishi tashrifiga mo`ljallangan poliklinika qurilgan. Shuningdek, Namangan viloyatida kolxoz va sovxozlar, rayon ijroqo`mi, qishloq sovetlari mablag`i hisobiga davolash o`rinlari 996 taga yetkazilgan. **[12]**

Xulosa qilib aytish mumkinki, 1960-1980-yillarda Farg`ona vodiysi aholisi o`rtasida turli kasalliklarning tarqalishiga, asosan, sifatsiz ichimlik suvi, dalalarga kimyoviy dorilarni haddan ziyod sepilishi sabab bo`lgan. Ayni paytda, qishloq aholisi o`rtasida turli yuqumli kasalliklar ko`p uchraganki, bolalarni bu kasalliklarga qarshi emlash ishlari 1960-yillarda talab darajasida yo`lga qo`yilmagan. 1970-yillardan e`tiboran bu masalaga birmuncha e`tibor qaratilib, kasalliklarga qarshi emlash va profilaktika tadbirlari tartibli yo`lga qo`yila boshlandi. Shuningdek, qishloq joylarida tibbiy muassasalar qurish va ularni tibbiy xodimlar bilan ta`minlash, aholiga xizmat ko`rsatish sohasida ham muayyan ishlar amalga oshirilgan bo`lsada, lekin sohani rivojlantirish ishlari tizimli yo`lga qo`yilmadi. Ko`rilgan chora-tadbirlar oxiriga yetkazilmadi. Chunki, sog`liqni saqlash tizimidagi kamchiliklar faqat ushbu sohaga tegishli bo`lmay, davlatning barcha sohalarida kompleks islohotlar amalga oshirishni taqozo etardi. Shuning uchun ham bu davrdagi yo`lga qo`yilgan xatolardan xulosa qilib, aholi salomatligini ta`minlash borasida izchil va to`g`ri siyosat olib borish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydanilgan adabiyot va manbalar ro`yxati:

1. O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-noyabrda “Tibbiyot xodimlari” bayrami munosabati bilan O`zbekiston sog`liqni saqlash sohasi xodimlariga yo`llagan tabrigidan.
2. O`zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, R-62-fond, 1-ro`yxat, 394-ish, 46-varaq
3. O`zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, R-62-fond, 4-ro`yxat, 42-ish, 201-varaq
4. O`zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, R-40-fond, 4-ro`yxat, 45-ish, 104-varaq
5. O`zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, R-40-fond, 4-ro`yxat, 45-ish, 101-varaq
6. O`zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, R-40-fond, 4-ro`yxat, 45-ish, 102-varaq
7. O`zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, R-40-fond, 4-ro`yxat, 45-ish, 113-114-varaqlar
8. O`zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, R-40-fond, 4-ro`yxat, 45-ish, 129-varaq
9. O`zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, R-40-fond, 4-ro`yxat, 42-ish, 44-varaq
10. O`zbekiston ilmiy texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, R-40-fond, 4-ro`yxat, 45-ish, 47-varaq
11. O`zbekiston Milliy arxivi, R-837-fond, 41-ro`yxat, 3907-ish, 96-varaq
12. O`zbekiston Milliy arxivi, R-837-fond, 41-ro`yxat, 3907-ish, 100-varaq

TASAVVUF TA’LIMOTIDA INSON QADRI

Kamalov Shahzod Baxtiyor o’g’li
Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Z. U. Xaydarov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasavvufning insonga bo’lgan e’tibori yoritib o’tilgan. Tasavvuf haqida Doktor Javod Nurbaxsh o’zining “So’fiylar behishtida” nomli asarida tasavvufni so’z bilan ifodalab bo’lmasligi, so’z bilan ifodalanadigan narsa tasavvuf emasligini yozadi.*

Shuningdek tasavvuf ta’limoti uzoq davrlar mobaynida jamiyatning turli tabaqalari o’rtasida do’stlik, birodarlik rishtalari ildiz otishga zamin yaratgan.

Kalit so’zlar: *So’fiy, Tazkiratul avliyo, Voiz Koshifiy, So’fizm, Abu Ali al – Farmadiy, Irfon, Sirrul asror, Sunniylar, Bidatchilar, Salmon Forsiy, Inson, Ilmul yaqin.*

Tasavvuf ta’limotining asosiy g’oyalari

Tasavvuf uzoq asrlar davomida xalqimiz ma’naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan. Insonning ruhiy – axloqiy poklanishi, ilohiy muhhabat bilan yuksalib borishi bu ta’limotning asosiy g’oyasidir. Shu bois tasavvuf chuqur insonparvarlik g’oyalari bilan omuxta bo’lib, haqiqat talabida yurgan odamlar qalbiga yo’l topdi, odamlarning poklik, abadiy hayot, ko’ngil hurriyati haqidagi orzularni ifodalab keldi. Xalqimiz so’fiy darvishlarga hurmat – ehtrom orqali Alloh taologa, uning insonni ulug’lagan qudrati va fayzu futuhiga e’tiqodlarini izhor etganlar. Tasavvuf shayxlari xalqning ma’naviy rahbarlari, ruhoniy murabbiy sifatida maydonga chiqib, payg’ambar faolyati, holatlarini davom ettirishga jazm etganlar.

Ulug’ so’fiy va shoir Farididdin Attor o’zining “Tazkiratul avliyo” asari muqaddimasida qayd etadiki, avliyolarning so’zi kishi qalbining malhami va ruhning quvvatidir, kimki avliyo so’zini dilga jo etsa, u Qur’on va Hadislar mag’ziga eshik ochadi, uzining holati, axloqini, qilayotgan ishlarining yaxshi – yomonligini o’ylaydigan bo’lib qoladi va hayot, ohirat va insoniylik xususida mulohaza yuritib, ichki olamini tartibga solidi. [1. B. 3]

So’fiylik ta’limoti

IX – XII asrlarda O’rta Osiyo davlatlarida tasavvuf – so’fiylik rivoj topdi. So’fiylik (tasavvuf) islomdagi falsafiy diniy oqimdir. Voiz Koshifiy “Futuvvatnomayi Sultoniy “asarida: … tasavvuf tariqat maqolalaridan biridir ” – deb aytib utadi. U “so’fiy” qadimiy bo’lib Odam alayhissalom o’g’illari Shish alayhissalom davrida, uning davrida jundan mato kiyib yuruvchilar So’fiylar paydo bo’lganligini aytadi.

Rus olimi I. M. Petrushevskiyning qayd qilishicha, ingliz sharqshunosi R. Nikolin XI – asrgacha bulgan yozma manbalarda “so’fizm” tushunchasining yetmish sakkiz ma’nodagi talqinini aniqlagan ekan. Nasafiyning Xoja Ahmad Yassaviy risolasida islom dinida “So’fiylik oqimi, darvishlar, payg’ambar zamonidayoq vujudga kelgan”deyiladi. Doktar Javod Nurbaxsh “So’fiylar behishtida” asarida buyuk mashoyihlarning so’zlariga ko’ra, tasavvufni so’z bilan so’z bilan ifodalab bo’lmasligini, so’z bilan ifodalanuvchi narsa tasavvuf emasligini yozadi. Uning fikricha “tasavvuf – ishq ozuqasi va tahdid yo’li haqiqatga olib boradigan tariqatdan iborat”.

Bazi tasavvuf namoyondalari Haq taollaga yetishish yo’llarida 19 maqom va 360 manzillar borligini aytganlar.

Tasavvuf ilmida komil insonni ruhan shakllantrish, kamolotga yetkazish nazaryasi bosh masala hisoblanadi. Bu nazariyaga ko’ra: “Insonni Hudo uziga o’xshatib yaratganmi, Allohning bu olamini paydo qilishdan ko’zlagan maqsadi ham, aslida, inson ekanmi, demak, inson Allohning bu murvvatiga shukuronalar aytib o’zini batamom Alohga bag’ishlashi, buning uchun esa o’ziga loyiq darajada poklash – kamolotga yetkazishi kerak.

Ingliz tasavvufshunos olimi J. S. Tremingem Markaziy Osiyoda tasavvuf ilmining rivojida ikki buyuk so’fiylarning nomini alohida hurnat bilan tilga oladi. Bularning birinchisi – Abu Hasan Ali – Xoraqoniy (milodiy 1034 – yili 80 yoshida vafot etgan) bo’lsa, ikkinchisi - Abu Ali al – Farmadiy (1084 – yilda vafot etgan) dir. Farmadiyning ikkin shogirdi tasavvuf ilmida shuhrat topgan. Bu avvlo, Ahmad al – Razzoliy (112 – yilda vafot etgan) bo’lsa ikkinchisi Yusuf al – Hamadoniydir. So’fiylik tariqatining ko’p silsilasi ana shu ikki shogirddan boshlanadi. [2. B. 284]

Tasavvufning islomiy ildizlari

Hind, yunon falsafasi va Masihiyat ta’limotlaridan qat’I nazar islom tasavvufi asosan Qur’ondan sarchina oladi, ya’ni namuna oladi.

Qur’on insinlarni har doim tammul qilishi, haqning zoti, sifatlari va buyuk qudrati haqidao’ylab fikr yuritishga chaqiradi.

Irfoniy ta’limotda, taffakur katta ahamyat kasb etadi: “O’zini tanib olgan kishi, o’z egasi (robbini) tanib olishga muvvafaq bo’ldi”. Tasavvuf va irfonahli haqiqiy muhabubning ishqiga mubtolodirlar. Inson – so’fiy albatda hudoni sevadi, ammo hudo ham insonni sevadimi? Bu borada dalil bormi? Tasavvuf ahli quydagi oyatga murojat qiladilar: Degil – (ey Muhammad): - “Agar hudoni sevadigan bo’lsangiz, menga ergashinglar. Shunda hudo ham sizni sevadi…” (3 – sura, 31 - oyat).

Qur’onda odamni yaratgandan keyin hudo “men unga o’z ruhimdan dam soldim – pufladim” deydi. (30 – sura, 72 - oyat). Ushbu oyat vahdat falsafasi uchun eng muhim manba hisoblanadi. (89 – sura, 27, 28 – oyat) da bunday deyiladi: (Ey hotirjam ruh, rozi bo’lgan va sendan rozilik bildirgan holda hudoying tomonga qayt). Fransuz tasavvufshunos olimi Ro’ji Arnoldiz aytkanidek islom tasavvufi shunday boblar va matreallarni o’z ichiga oladiki keng ma’noda islom asoslari va ta’limotlari bilan yo’g’irilib ketgan.

Tasavvuf ta’limotining asosiy yo’nalishlari

Islom tasavvufi boshlang’ich paytlarda qisqacha sodda ta’limlardan iborat bo’lib, ko’proq amaliy tus olgan edi.

Islom tasavvufi din va falsafadan ustunroq turardi, ayni holda har ikkalasidan ta’sirlanib, ayniqsa Plutin ta’limotini o’zida keng ko’lamda aks ettirgan edi. Uning ta’sir doirasi hikmat, riyoziyot, tib va boshqa fanlar sohasidan ancha keng ko’lamda edi. Hatto buyuk faylasuflar ham unga katta e’tibor berardilar. Masalan, mashhur faylasuf Abu Ali Ibn Sino bu haqida quydagidek fikr bildirgan edi: haqiqiy so’fiy tariqasi o’z egasini, hudo zotini tanib olishga erishtiradi. Lekn bu aqliy qiyosga asoslangan aqliy tariqa emas, balki nafs (ruh) ko’zgusida aks etadigan nur orqali bo’ladi. [3. B. 20]

Mumtoz tasavvuf va zamonaviy tariqatchilik

Tasavvuf talimoti uzoq davrlar mobaynida jamiyatning turli tabaqalari o’rtasida do’stlik, birodarlik rishtalari ildiz otishiga zamin yaratgan. Hozirgi paytda dunyoning ko’p mamlakatlarida Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqati katta nufuzga ega. Chunki mazkur tariqatda islom shariati mezonlari buzilishiga yo’l quymay, chin insoniy fazilatlar ilgari surilgan.

Ammo barcha davrlarda ham tasavvufni o’zlarining tor doiradagi maqsadlari yo’lida talqin etuvchilar ham bo’lganini unutmaslik kerak. Abdulqodir G’iloniy uzining “Sirrul asror” kitobining 23 fasli, “Tasavvuf ahli xususining bayoni ” bobida tasavvuf ahlini ikkiga bo’ladi: avvalgi gurux – “ bidat ahli” deb tilga olinadi. Birinchi toifa so’zda, amalda, shariat va uning ma’nosi bo’lgan tariqatda tamom qoimdir. Ularning “ahli sunna val jamoa” nomi bilan ataydi. Bidotchilar toifasiga esa shariat va tariqatga mos tushmagan ishlarni qilishga odatlanganlarni kiritadi.

Tariqatchilar deganda tasavvufning faqat tashqi jihatlariga asosiy e’tiborini qaratib, uning falsafiy – irfoniy xususiystlaridan bexabar faolyat yuritayotgan, muayyan bir kishini pir deb sanab, uning etagidan tutuvchi, jamiyatning boshqa a’zolaridan chetlashib, pir xizmatini hayotdaagi eng asosiy maqsad deb biluvchi kishilar yoki jamoalar guruxlar tushuniladi.

Tariqatchilik harakatlarida ekistrimestik unsurlar yo’q. Biroq tariqatchilik tarafdorlari tomonidan ilgari surilayotgan limning inson hayotida shart emasligi, kabi fikirlar, qiz bolalrni

ta’lim olishlariga tusqinlik qilish, ijtimoiy hayotda tarzida o’z zamondoshlaridan katta farqlanish, shar’iy asosga ega bo’lmagan fatvolarga amal qilish kabi harakatlar har isloh qilinishi kerak bo’lgan masalalar hisoblanadi.

Tasavvuf deganda oila, tirikchilik, masulyatini unitib, tarkidunyo qilish tushunilmaydi. Payg’ambarimiz (alayhis - salom): Sizlarning yaxshilaringiz dunyo ishini deb oxiratni, oxiratni deb dunyoni tark qilmaydigan va odamlarga maloligini tushuntirmaydiganlaringizdir” degan hadislardan ham shuni anglash mumkinki, musulmon odam boshqalarga nafi tegadigan, og’irligi tushmaydigan, oilasiga g’amxurlik qiladigan bo’lishi kerak. [4. B. 72]

Tasavvuf ilmining namoyondalari

Tasavvuf ilmini Payg’ambar va sahobalar hol maqomlari bilan quvvatlanishi, silsilasida so’fiylarning birinchi avlodi sifatida Muhammad payg’ambar, Abu Bakir, Hazrat Ali ibn Abu Tolib, Salmon Forsiy, Imom Husayin va boshqalarning zikr etilishi so’fiylik harakatiga shar’iy huquq berdi. So’fiylarning qarashlari IX – asrning oxirlarida Iroq, Misr, Xuroson, Movorounnahr va islom olamining boshqa diyorlariga ham tarqalib ketdi. Kalom maktablari singari Bag’dod, Basra, Kufada shakillangan tasavvuf maktablari islom dunyosining barcha markaziy shaharlarida o’z shahobchalarini tashkil etdi. [5. B. 89]

Buyuk so’fiy shoir Jaloliddin Rumiy

Buyuk so’fiy shoir Jaloliddin Rumiyning fikiricha, faqat soliklar emas, odamzotning barchasi ham uzluksiz taraqqiy etilishi kerak. Chunki odam – tabiat taraqqiyotining natijasi, ya’ni Parvardigor avvalo jonsiz jismlarni yaratdi, o’simlik taraqqiy etib, hayvonga aylandi, hayot taraqqiyotidan odam paydo bo’ldi:

Az jumadiy murdamu numiy shudam,
Vaz numo murdam, zi hayvon sar zadam.
Pas, chi tarsam, Kay zi murdam kam shudam?
Jumlai digar bimaram az bashar,
To baroram az malaik balu nar.
Az malak ham boyadam jastan zi jy:
“Kullu shay’in holaka ilo vujux”
Bori digar az malak narron shavam,
On chi bar vaham n – oyad – on shavam,
Pas odam gardam, odam chun arg’unun,
Guyadam: “A’no alayha roje’un”.

Ya’ni: jismlikdan kechib, o’simlik bo’ldim, o’simlikdan kechib, hayvonga dundim. Hayvonlikdan kechib odam bo’ldim. Bas nega qurqayin, ahir, baridan kechib (o’lib) kam bo’lganim yo’q – ku. Endi odamiylikdan ham butkul kechmoqchiman (odam sifatida o’lmoqchiman) toki farishtalardan qanot chiqarayin. Ammo farishtalikdan ham sakrab o’tishim kerak, (chunki): “Bor mavjudod halokatga, yututadi” (deyiladi Qur’onda).

Shariat ahli fikri bo’yicha, yana ruh – alohida, jism – axloqidadir. Inson vujudiga ruh tashqarida (yuqori olam manzillaridan) kelib kiradi, ona qornida homila aniq shakl kasb etkanidan keyin ruh unga nuzul etadi. [6. B. 16]

Avval Qur’oni Karim, Sunnatda tasavvuf

Muhammad Nurillo Saydo al – Jazariyning “Tasavvuf sirlari” asarida tasavvuf haqida shunday ta’rif kelgan edi: “Insonning ma’naviy olamini isloh etadigan, buzilgan qalbining muolajasi uchun eng ta’sirli bo’lgan, insoniy haqiqatlar atrofiga to’playdigan o’ta foydali va

mustaqil ilmdir”. Demak tasavvuf poklanish ilmi bo’lsa, uni ikkiga ajratib o’rganish mumkin: maqbul ko’rilgan tazkiya va rad etilgan tazkiya. Tasavvuf maqbul ko’rgan (aybdan oqlash, oqlanish) va tasviya (poklash, tarbiyalash) dir.

Tasavvuf tarixida insonning o’zi ustidan nazorati ko’chaydi va bu yo’nalishda Abu Abdullooh Xoris al – Muhsibiy (vaf. 857) ning “Ar- rioya li huquq Alloh” (“Allohning huquqlariga amal qilish”) kitobida 61 bob orqali muxaba (o’zini ko’zatish) usullari bayon qilingan. Huddi shu davrda muxosiblik ta’limotini namoyondalaridan biri Abu Fail ibn Ibrohim Zunnun Misriy (vaf. 860) bo’lgan. Niya va riya (sodiqlik va munofiqlik) haqida baxs ko’chaygan.

Tasavvufning Xurosonda tarqalishi va ta’limot holiga kelishi Ibrohim (vaf. 776) nomi bilan bog’liq. Uning majlislari samoviy tus olgan va shogirdi Shaqiq Balxiy faolyatida ham ta’limot kengaytrilgan. IX – asrga kelib Nishopurda malomotiylik rivojlangan va uning Abu Hafs Usmon al – Hadad (vaf. 881), Abu Sa’id Usmon al – Hiriy (vaf. 910) kabi vakillari faolyatda bo’lganlar.

Allohni bilish ma’rifati

KIRISH. Virtual o‘yinlar bugungi jamiyatning keng tarqalgan qismiga o‘tdi, butun dunyo bo‘ylab taxminan 2, 7 milliard geymer geymerlarga real dunyoda ko‘pincha imkoni bo‘lmagan immersiv va interaktiv tajribalarda qatnashish imkoniyatini taklif qilmoqda. Biroq, virtual o‘yinlar odamlarga va umuman jamiyatga ta’siri haqida tashvish uyg‘otmoqda. Virtual o‘yinlar jamiyatga eng muhim ta’siri ularning ijtimoiy o‘zaro ta’siridir. Ushbu o‘yinlar o‘yinchilarga butun dunyo bo‘ylab boshqalar bilan bog‘lanish imkonini bersa-da, ular ijtimoiy izolyasiya va aloqani uzishga olib kelishi mumkin. Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, haddan tashqari o‘yin shaxsiy ijtimoiy o‘zaro ta’sirning pasayishiga va ijtimoiy ko‘nikmalarning pasayishiga olib kelishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Virtual o‘yinlar o‘yinchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga ham ta’sir qiladi. Ba’zi hollarda ular ijtimoiy ko‘nikmalar va muloqot qobiliyatlarini yaxshilashlari ko‘rsatilgan, chunki o‘yinchilar o‘yin dunyosida umumiy maqsad va vazifalarga erishish uchun birgalikda harakat qilishlari kerak. Bu o‘yinchilar o‘z tajribalarini baham ko‘rishlari va shunga o‘xshash manfaatlarga ega bo‘lganlar bilan bog‘lanishlari mumkin bo‘lgan onlayn hamjamiyatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Biroq, bu o‘zaro ta’sirlar virtual dunyo bilan chegaralanishi va haqiqiy ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarga aylantirilmasligi mumkin.

Virtual o‘yinlar psixologik ta’sirlar bilan ham bog‘liqdir. Ba’zi tadqiqotlar o‘yinlarning giyohvandlik va ruhiy tushkunlik, stress va boshqa ruhiy muammolarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Boshqalar esa virtual o‘yinlar o‘yinchilarga stressni kamaytirish va salbiy his-tuyg‘ularni engish imkonini berishi ekanligini ta’kidlaydilar. Biroq, virtual o‘yinlar ota-onalar, o‘qituvchilar va ruhiy salomatlik mutaxassislarini tashvishga solishi mumkin. Tadqiqotlar virtual o‘yinlarni o‘ynashning qo‘zg‘alish, qo‘zg‘alish va zavqlanish darajasini oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ba’zi o‘yinchilar esa virtual o‘yinlarni o‘ynash orqali suvga cho‘mish va oqim tuyg‘usini boshdan kechirishlari haqida xabarlar berishadi. Ammo, virtual o‘yinlar giyohvandlik, tashvish va depressiya kabi salbiy psixologik ta’sirlar bilan ham bog‘liq. O‘yinchilar uchun virtual o‘yin odatlarini yodda tutish va kerak bo‘lganda yordam so‘rash muhimdir.

Virtual o‘yinlar bilan bog‘liq yana bir muhim muloqot zo‘ravonlik bilan bog‘liqdir. Ba’zi tadqiqotlar virtual o‘yinlar va tajovuzkor xatti-harakatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi, ammo boshqalari bunday aloqani topmagan. Ko‘plab VR o‘yinlarida zo‘ravonlik mazmunining tarqalishi o‘yinchilarning zo‘ravonlikka nisbatan sezgir bo‘lishiga olib keldi. Bundan tashqari, virtual o‘yinlar yosh bolalarga ta’siri haqida tashvish uyg‘otdi. Virtual o‘yinlar bilan bog‘liq eng munozarali mavzulardan biri zo‘ravon o‘yinlar va haqiqiy zo‘ravonlik o‘rtasidagi bog‘liqdir. Konsensus mavjud emas, ammo ba’zi tadqiqotlar zo‘ravon o‘yinlar o‘ynash va geymerning tajovuzkorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ammo, har doim korrelyasiya hamsababni anglatmaydi va shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy kontekst kabi boshqa omillar ham rol o‘ynashi mumkin.

XXI asrda, dunyoning mafkuraviy manzarasi tubdan o‘zgarib, global integratsiya jarayonlarining jadallashishi bilan birga, yangi tafakkur uslublari talab qilinmoqda. Yoshlar, o‘smirlar ongida vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish, mustaqillikning oliy ne’mat ekanligini anglash, millat va xalq manfaati yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishga odatlangan. Ularning bu yorqin tuyg‘ulari milliy xavfsizlik va o‘z mustaqilligiga qarshi kelishgan har qanday xavf-xatarlardan himoya kilishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa yoshlarda tarixiy voqelikka ob’ektiv baho berish va to‘g‘ri xulosa chiqarish malakalarini shaklantirishni talab qiladi.

Shu bilan birga, yoshlar uchun turli xil internet o‘yinlari va kompyuter texnologiyalari boyicha ko‘proq qiziqish oshmoqda. Ularning bu qiziqishlaridan buzg‘unchi g‘oyalarning kirib

kelishi, xususan, internet tarmog‘i orqali. Bu jarayon internet tarmog‘i va kompyuter o‘yinlariga oid qiziqishni oshirib, ularning shaxsiy rivojlanish va ma’naviyatiga ham ta’sir qiladi. Bunaqa qiziqishlar farzandlarimizning axloqiy va jismoniy rivojlanishiga xizmat qiladigan o‘yinlarga himoya qilinishi kerak.

Biroq, bu safar «o‘yinbozlik» deyiladigan kasallik jamiyatga qo‘llanib turishiga olib keladi. O‘smirning o‘yinda miqdori oshishi, o‘yin haqida ko‘proq o‘ylash, yutqazsa ham o‘yindan chiqmasligi, o‘yin boshlanishini kutilish, o‘yin o‘zini to‘xtatishni qilish yoki o‘smirning o‘yinparastligini yashirish uchun ota-onasidan pul olishni so‘rab turishi, boshqa kasalliklar bilan birgalikda yuragi yoritib o‘lish ham bu kasallikning alomatlari hisoblanadi.

XULOSA. Farzandlarimizning internet o‘yinlariga bo‘lgan qiziqishi va ularning shaxsiy rivojlanishiga olib kelishi kerak, ammo bu o‘yinlar o‘smirlik kasalligi, yani, internetga bo‘lgan iltimosligi yoki kompyuter o‘yinlari bilan bog‘liq kasalliklarning kelib chiqishi mumkin. Bu sharoitlar qo‘llanib turib, farzandlarimizni foydali va rivojlanadigan internet tajribalariga yo‘naltirish, ularga tushuntirish va ilmiy ma’lumotlarni olish uchun imkoniyat yaratishimiz lozim. O‘smirlik va kasalliklarning shakli undan farqli o‘laroq, ularga qarshi kurashishimiz kerak. Bu esa farzandlarimizning shaxsiy va jismoniy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olishlari, ularning yaratqan qiziqishlari va salbiy ta’sirlardan himoya kilishimizga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. Bessière et al. , "The Ideal Elf: Identity Exploration in World of Warcraft, " CyberPsychology & Behavior 10, no. 4 (2007): 530-35.

2. J. Williams and Y. Guo, "The Benefits of Playing Video Games, " American Psychologist 69, no. 1 (2014): 66-78.

3. Steinkuyehler, C. (2006). Massively multiplayer online games (MMOs) in the new media classroom. Journal of Educational Multimedia and Hypermedia, 15(1), 5-31.

4. J. Billiyeux et al. , "Psychological Factors Associated with Compulsive Gaming: A Cross-Cultural Validation, " Journal of Behavioral Addictions 2

5. Griffiths, M. (2002). The educational benefits of videogames. Education and Health, 20(3), 47-51. 8. Sherry, J. L. (2004). Flow and media enjoyment. Communication Theory, 14(4), 328-347.

ДУНЁДА МИҚЁСИДА ЎЛАТ КАСАЛЛИГИ БЎЙИЧА ЭПИДЕМИОЛОГИК ВАЗИЯТ

Базарова Гулнора Рустамовна
Тиббиёт фанлари номзоди (PhD), Alfraganus university, тиббиёт йўналишида ўқитувчи
Тел. : +998 94 622 59 70, + 998 99 640 19 70
E. mail: gulnorabazarova599@gmail. com

Аннотация: *ўлат касаллиги бўйича дунёда кузатилаётган эпидемиологик ҳолат бўйича маълум давлатларда рўйхатга олинаётган ўлат билан касалланган беморларнинг миқдори ва ўлим кўрсаткичлари ифодаланган. Ушбу касалликни тарқалишини олдини олишдаги бажарилаётган чора-тадбирлар ва эътибор қаратилиши зарур бўлган жиҳатлар келтирилган.*

Калит сўзлар: *ўлат касаллиги, беморлар сони, ўлим қўрсаткичи, ўлат табиий ўчоқлари.*

Аннотация*: по эпидемиологическому состоянию, наблюдаемого в мире по смертельному заболеванию, отражены количество и показатели смертности пациентов, зарегистрированных в определенных странах. Приведены выполняемые меры по предотвращению распространения данного заболевания и аспекты, на которые необходимо обратить внимание.*

Ключевые слова: *болезнь чумы, число больных, смертельный показатель, природные очаги чумы.*

Annotation: *according to the epidemiological state observed in the world for a fatal disease, the number and mortality rates of patients registered in certain countries are reflected. The measures taken to prevent the spread of this disease and the aspects that need to be paid attention to are given.*

Keywords: *the disease of the plague, the number of patients, the fatal indicator, natural foci of the plague.*

Охирги йилларда дунё миқёсида ўлат, вабо, Рифт-Валли, Эбола, Марбург, Ласса, Денге, Чикунгунья иситмалари, маймун чечаги, менингококк инфекцияси, куйдирги ва бошқа ўта ҳавфли инфекциялар бўйича эпидемиологик вазият мураккаблигича қолмоқда.

Ўтган асрларда ўлат (Yersinia pestis) касаллиги пандемияси оқибати юқори кўрсаткичларда ўлим билан якунланган. Европада 14 асрда 50 млн кишининг ҳаётдан кўз юмишига сабабчи бўлган. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг маълумотларига кўра, 2010-2015 йилларда 3300 дан ортиқ ўлат билан касалланиш ҳолатлари рўйхатга олинган бўлиб, шундан 584 нафарининг ҳаёти ўлим билан тугаган. Ўлатнинг эпидемик ўчоқлари асосан ўн бир мамлакатда: Ҳитой, Боливия, Конго Демократик Республикаси (КДР), Перу, Мадагаскар, Танзания, Уганда, Америка қўшма штатлари, Қирғизистон, Қозоғистон ва Россия Федерацияси ҳудудларида кузатилган. Бугунги кунда учта мамлакат Мадагаскар, Перу, КДР энг эндемик хавфли ҳудудларга киритилган. Шундан Мадагаскарда ўлат билан касалланиш ҳолатлари ҳар йили эпидемия мавсумида (апрел ойидан сентябр ойигача) рўйхатга олинади. Бундан ташқари Мўғилистонда 2019, 2020, 2021 йиллари, АҚШда 2020 йили, Ҳитойда 2020 йили, КДРда 2021 йили касалланиш ҳолатлари қайд этилди.

Россияда 2014-2016 йилларда Олтой Республикасининг Қош-Агач туманида ўлатнинг бубон шаклини учта ҳолати рўйҳатга олинди. Суғур овлаб уни терисини шилишда қатнашган икки овчи ва ўн ёшли болада касаллик кузатилиб, уларни ҳаёти сақлаб қолинди.

Ушбуларни инобатга олган ҳолда Россия Федерацияси ҳукумати ёрдамида трансчегаравий ўчоқлардан мамлакат ичига ўлат касаллигини кириб келиши ва тарқалиш хавфини олдини олиш учун қўшни мамлакатлар билан Ҳамкорлик дастурини амалга оширмоқда.

Ўзбекистон билан чегарадош Ҳамдўстлик давлатларида ҳам карантин ва ўта хавфли юқумли касалликларни рўйхатга олиш кўрсаткичлари юқорилигича сақланиб қолинмоқда. Мамлакатимиз ҳудудига чегарадош қўшни давлатлардан ушбу касаллик қўзғатувчиларини кириб келиш хавфи ҳам мавжуд бўлиб, соғликни сақлашнинг мутассади ташкилотлари томонидан қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Шулардан, қўшни давлатлар билан чегарадош ҳудудларда 70 га яқин санитария –назорат пунктлари иш олиб бормоқда. Бундан ташқари карантин ва ўта хавфли инфекциялар бўйича шифокорлар ва ҳамширалар ўртасида 34

соатлик дастур асосида амалий ва назарий машғулотлар ўтказилада. Карантин ва ўта хавфли инфекциялар муаммолари фавқулотда эпидемияга қарши курашиш коммисия йиғилишларида муаммолар кўриб чиқилиб, керакли чора-тадбирлар амалга оширилади. Худди шундай ҳолатларда амалий ёрдам бериш учун тажрибали мутахассислар бириктирилади.

Умуман олганда, ўлат касаллигининг табиий ўчоқларининг фаоллашиши ва эндемик ҳамда эпидемик ҳолатнинг рўйҳатга олинишининг асосий сабаблари иқлим ўзгариши (исиши) сабабли ва атроф муҳитга антропоген таъсирларнинг қўпайиши, табиий ўчоқларда овчилик, чорвачиликнинг олиб борилиши, газ, нефт ва бошқа қазув ишларининг ортиши муносабати билан ўлат тарқалиши хавфининг кўпайиб бораётганини эътибордан четда қолдирмаслик зарур. Бундан ташқари, Австралия ва Антарктидадан бошқа барча ўлатнинг табиий ўчоқли ҳудудларида эпизоотик мониторинг ишларини олиб бориш, хавф ости гуруҳидагилар орасида профилактика ишларидан эмлашни ўтказиш касалликдан ҳимоя қиладиган асосий восита ҳисобланади. Ушбу касалликларнинг муҳофазаси ва олдини олиш тадбирларини такомиллаштириш бўйича чуқур илмий изланишлар олиб бориш, тадбирларни амалга ошириш эпидемиологик вазият барқарорлигини таъминлаш имконини бериб, ишлаб чиқарилган муайян буйруқлар ва меъёрий хужжатларни амалиётдаги тадбиғи аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Неъматов А. С. , Базарова Г. Р. Ўлат қўзғатувчиси эпизоотик жараёни кетаётган чегараларни белгилаш. Ўзбекистон Республикаси Санитария –эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси журнали, -Тошкент. 2023. -№1. -Б12-14.

2. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотлари. www. who. int.

3. Эпидемиологическая ситуация в мире по инфекционным заболеваниям, имеющим международное значение. www. bzcgie. by.

ИЗ ИСТОРИИ ЖИЗНИ УЧАСТНИЦЫ В БОРЬБЕ ЗА РАСКРЕПОЩЕНИЕ ЖЕНЩИНЫ-УЗБЕЧКИ

Имоилова Нигорахон Усмонжановна
Преподаватель кафедры «Гуманитарные науки» факультета
Гуманитарные науки НамГУ.
Email: nigoraismoilova@gmail.com
Тел. +998941777184

Аннотация: *В данной статье раскрывается история биографии и жизни Ибрагимовой Чиннихон - одной из участниц раскрепощения женщин. Даются сведения о её семье, она активно участвовала в борьбе за становление советской власти в Туркестане, вела большую работу среди женщин и избрана делегатом Всесоюзного съезда Советов. Она активно участвовала в борьбе за раскрепощение женщины-узбечки, ликвидацию неграмотности и малограмотности среди населения и вовлечение девушек-узбечек в учёбу, коллективизацию сельского хозяйства. Участвует в работе Комитете ветеранов войны и труда, выезжает в качестве пропагандиста в составе агитпоездов «Комсомолец Узбекистана». История жизни полна многими заслугами перед родиной и высоко оценены наградами.*

Ключевые слова: *семья, советы, работа, борьба, женщина, съезд, делегатка, организовывать, секретарь, участница, раскрепощение, комитет, активно, реформа.*

Abstract: *This article reveals the history of the biography and life of Ibragimova Chinnikhon, one of the participants in the emancipation of women. Information is given about her family; she actively participated in the struggle for the establishment of Soviet power in Turkestan, did a lot of work among women and was elected as a delegate to the All-Union Congress of Soviets. She actively participated in the struggle for the emancipation of Uzbek women, the elimination of illiteracy and illiteracy among the population and the involvement of Uzbek girls in studies and the collectivization of agriculture. Participates in the work of the Committee of War and Labor Veterans, travels as a propagandist as part of the Komsomolets of Uzbekistan propaganda trains. His life story is full of many services to his homeland and is highly appreciated by awards.*

Key words: *family, councils, work, struggle, woman, congress, delegate, organize, secretary, participant, emancipation, committee, active, reform.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ayollar ozodligi ishtirokchilaridan biri Ibragimova Chinnixonning tarjimai holi va hayoti tarixi ochib berilgan. Oilasi haqida ma’lumot beriladi, u Turkistonda sovet hokimiyatini o‘rnatish uchun kurashda faol qatnashgan, xotin-qizlar o‘rtasida ko‘p ishlar qilgan, Butunittifoq Sovetlar qurultoyiga delegat etib saylangan. U o‘zbek ayollarini ozod qilish, aholi o‘rtasida savodsizlik va savodsizlikni yo‘q qilish va o‘zbek qizlarini o‘qishga jalb etish, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish uchun kurashda faol ishtirok etdi. Urush va mehnat faxriylari qo‘mitasi ishida qatnashadi, “O‘zbekiston komsomolets” targ‘ibot poyezdlari tarkibida targ‘ibotchi sifatida sayohat qiladi. Uning hayot yo‘li Vatan oldidagi ko‘plab xizmatlariga boy va mukofotlar bilan yuksak baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *oila, kengashlar, ish, kurash, ayol, qurultoy, delegat, tashkilot, kotib, ishtirokchi, ozodlik, qo‘mita, faol, islohot.*

Ибрагимова Чиннихон родилась в марте 1908 г. В городе Коканде в семье рабочего. Отец работал садовником по найму, мать работала на заводах Вадьяева и Потеляхова. Она активно участвовала в борьбе за становление советской власти в Туркестане, вела большую работу среди женщин. 1924 г. Ибрагимова избрана делегатом Всесоюзного съезда Советов.

Ибрагимова Чиннихон получила начальное образование в детском доме № 5 города Коканда. 1922 году вступила в ряды комсомола. В этом же году организовала комсомольскую ячейку девочек и была секретарём этой ячейки и членом райкома комсомола. В 1924 году она поступила на рабочий факультет имени Сталина в городе Москве, была членом Краснопресненского райкома комсомола. 1926 году после окончания учёбы Ибрагимова Чиннихон стала заведующей женским интернатом №5 города Коканда, где ранее воспитывалась сама.

В 1924 году группа кокандских девушек- Халима Насырова, Сабира Халдарова, Машрабхон Юсупова, Бурихон Ризаева, Рахатой Рузиева и другие по путёвке комсомола выехали учиться в разные города страны. По воспоминаниям Ибрагимовой, можно узнать следующее: «Я с несколькими подругами попала в Москву и была зачислена на рабфак. И здесь меня тянуло на комсомольскую работу. Однокурсники избрали меня секретарём бюро комсомольской организации, а на Краснопресненской районной комсомольской конференции была избрана членом Пленума райкома.

На фабрике мы вели большую общественную работу, считая это своим кровным делом. Мы, представители разных национальностей, жили большой дружной семьёй. В общежитии вместе с нами жила замечательная узбекская девушка Зайнаб Хисматова, мужественно сражавщаяся с басмачами. О её смелости и отваге современная молодёжь может узнать из поэмы известного советского поэта Демьяна Бедного “Клятва Зайнаб”. Эта поэма была издана и на узбекском языке в переводе поэтессы Зульфии. Басмачи зверски поступили над Зайнаб сильно повредили ей. Эта удивительная девушка стойко перенесла все пятки, страдания и несмотря на тяжелое увечье, она ни на минуту не теряла бодрость духа, огромная любовь к народу, Родине и партии придавала ей силу и волю. Мы по очереди дежурили в её общежитии, делали всё, чтобы излечить больную, поставить её на ноги.

По счастливой случайности мне пришлось близко познакомиться с семьёй выдающегося деятеля международного коммунистического движения Клары Цеткин. Дело произошло так. Сноха Клары Цеткин готовилась выехать на работу в Ташкент в Средазбюро ЦК ВКП (б), и ей нужно было обучиться узбекскому языку. Я знала два языка – русский и узбекский и видно поэтому выбор пал на мою кандидатуру. Так несколько раз в неделю, в свободные от учёбы часы, я посещала Кремль, где помогала снохе Клары Цеткин изучать узбекский язык.

В семейных беседах принимала участие и сама Клара Цеткин. Она подолгу расспрашивала меня о том как жили узбекские женщины в прошлом, как они живут сейчас, о чём они мечтают. Клара Цеткин с восторгом говорила о прекрасном будущем женщин Востока, о том, что они превратятся в большую силу нашего общества. Задушевные беседы с Кларой Цеткин навсегда останутся в моей памяти», вышесказанные сведения до-сих пор хранятся в Национальном архиве Узбекистан. Она всегда вела очень хорошую общественную работу в обществе и 1927 по 1929 годах была первым секретарём Старогородского райкома комсомола города Коканда и членом бюро Ферганского окружного комитета комсомола. С 1929 по 1931 год Ибрагимова работала заведующей отделом культурной пропаганды и была членом бюро ЦК комсомола Узбекистана. Она избиралась делегатом съезда комсомола Узбекистана от города Самарканда, где была избрана членом ЦК и членом бюро ЦК комсомола республики. Ибрагимова принимала участие в проведении земельной реформы в Заравшанском округе.

В 1930 году она вышла замуж за Гафурова Рахима. Он был тогда членом Пленума ЦК ЛКСМ Узбекистана, работал ответственным секретарём газеты « Ёш Ленинчи». Гафуров Рахим после окончания Ташкентского педучилища был направлен на газетную работу. Работая секретарём газеты «Ёш Ленинчи» и одновременно секретарём пионерской газеты и как член Пленума ЦК ЛКСМ Узбекистана, он внёс большой вклад в дело коммунистического воспитания молодёжи, организации её вокруг газеты. Своими острыми статьями он беспощадно разоблачал на страницах газет враждебно настроенные феодально-байские элементы, мешавшие воспитанию молодёжи в коммунистическом духе, выступавшие против раскрепощения женщин. В 1931 по 1933 гг она студентка филиала института Красной профессуры в городе Ташкенте. В 1933-1935 гг Ибрагимова инструктор Андижанского горкома КП Уз среди женщин. А в 1935-1939 гг работает заведующей дошкольным отделом Наркомпроса УзССР. С 1938 по 1939 гг она слушатель республиканской школы пропагандистов при ЦК Узбекистана, была секретарём парторганизации.

В 1939-1943гг Ибрагимова работала инструктором отдела пропаганды и агитации ЦККП/б/ Узбекистана. Кроме таких работ она писала статьи по актуальным темам, такие как “Qishloq sovetlarining ish faoliyatini oshiraylik” [1], “Контроль за выполнением постановлений-главная задача советских органов” [2]. В её статьях были расскрыты социально-политическая жизнь народов, в газете “Совет Ўзбекистони” [3] пишется посвящённа статья Ибрагимовой, которая в то время являлась ветераном партии [4].

С февраля 1945 г. /более 35 лет/ Ибрагимова работала референтом отдела советских органов Совета Министров УзССР. Находясь на заслуженном отдыхе Ибрагимова принимает активное участие в общественной жизни республики. Она участвует в работе Комитете ветеранов войны и труда, выезжает в качестве пропагандиста в составе агитпоездов «Комсомолец Узбекистана». Неоднократно избиралась делегатом съездов КП Узбекистана, членом Ташкентского горкома партии, депутатом городского Совета народных депутатов.

В 1989г. Документальные материалы Ибрагимовой за 1939-1989 гг. были переданы в ЦГА УзССР самой Ибрагимовой. В этом же году документы были подвергнуты научно-технической обработке, в результате которой составлена опись №1 в количестве 55 дел [5.-С. 3.]. В фонде особое место занимает воспоминания Ибрагимовой о первых комсомольцах Узбекистана, о городах гражданской войны, о ликвидации неграмотности, о коллективизации, о своей матери Турахон, которая была активной участницей в борьбе за становление Советской власти в Узбекистане. Имеется ряд документов отражающих её участие в работе съездов компартии Узбекистана, съездов женщин Узбекистана, заседаний ЦК КПСС, Верховного Совета СССР [6.-С. 6-9.]. Дневниковые и докладные записки о поездках Ибрагимовой Ч. в составе агитпоезда «Комсомолец Узбекистана» выступления перед труженниками и молодежью Узбекистана и др.

Высоко оценены заслуги Ибрагимовой перед родиной. Она награждена многими медалями, если говорить о её наградах 1950 году получила медаль «За трудовую доблесть», 1958 г и 1960 г Почетная грамота Президиума Верховного совета Уз ССР, 1967 г. Юбилейная Почётная грамота ЦК КП Уз., Верховного Совета и Совета Министров УзССР в связи с 50-летием Советской власти, 1971 г. медаль «За трудовую доблесть», 1974 г. Юбилейная Почётная грамота ЦК КП Уз., Президиума Верховного Совета и Совета Министров Уз ССР, 1977 г. Юбилейная почётная грамота ЦК КП Уз., Президиума Верховного Совета и Совета Министров Уз ССР, 1978 г. Присвоено почётное звание «Заслуженный работник культуры УзССР» [7.-8]. Она всегда активно участвовала в борьбе за раскрепощение женщины-узбечки, ликвидацию неграмотности и малограмотности среди населения и вовлечение девушек-узбечек в учёбу, коллективизацию сельского хозяйства. В итоге можно сказать одна из активисток узбекского народа Ч. Ибрагимова вела большую культурно-просветительную работу в обществе и среди женщин – узбечек.

Использованная ресурсы:

1. МЎЛ ҲОСИЛ УЧУН 1954 й 24 июль №55 (209)
2. СОВЕТСКАЯ КАРА-КАЛПАКИЯ 1960 г 2марта № 44 (7431)
3. СОВЕТ ЎЗБЕКИСТОНИ 1984 й 26 октябрь № 55 (209)
4. НацАУзб, Р-2794-фонд, 1-опись, 1-дело, 1-4 – лист.
5. НацАУзб, Р-2794-фонд, 1-опись, 1-дело, 3– лист.
6. НацАУзб, Р-2794-фонд, 1-опись, 4 -дело, 6-9 – лист.

7. НацАУзб, Р-2794-фонд, 1-опись, 10 -дело, 7-8 – лист.

SOMONIYLAR DAVLATINING VUJUDGA KELISHI

To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan Davlat Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
mirazamtohktasinov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Somoniylar davlatining vujudga kelish tarixi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida hamda Somoniylar davlatining tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ismoil ibn Ahmad, og‘ir siyosiy tanglik, Rofe ibn Lays, Shosh, Farg‘ona, Buxoro, Naxshab, Xorazm, Nuh, Ahmad, Yaxyo, Ilyos, G‘asson ibn Ubbod, Talxa, ko‘chmanchi turk qabilalari, xalifa Mu’tamid.*

Аннотация: *В данной статье представлена история создания государства Саманидов и социально-экономической жизни государства, а также ценные сведения по истории государства Саманидов.*

Ключевые слова: *Исмаил ибн Ахмад, острая политическая напряженность, Рафи ибн Лейс, Шош, Фергана, Бухара, Нахаб, Хорезм, Нух, Ахмад, Яхья, Ильяс, Гассон ибн Уббад, Талха, кочевые тюркские племена, халиф Мутамид.*

Abstract: *In this article, the history of the creation of the Samanid state and the socio-economic life of the state, as well as valuable information about the history of the Samanid state, are presented.*

Key words: *Ismail ibn Ahmad, severe political tension, Rafe ibn Lays, Shosh, Ferghana, Bukhara, Nakhab, Khorezm, Nuh, Ahmad, Yahya, Ilyas, Ghasson ibn Ubbad, Talha, nomad Turkic tribes,) caliph Mutamid.*

VIII asr oxiri – IX asr boshlarida Arab xalifaligi og‘ir siyosiy tanglikka ucharay boshlaydi. Bo‘ysundirilgan xalqlarni itoatda tutib turish arablar uchun tobora qiyinlashib boradi. Arablarning jabr-zulmi va soliqlarning nihoyatda ko‘p miqdorda yig‘ilishi aholi o‘rtasida noroziliklarni keltirib chiqardi. Bunday noroziliklar avj olib xalq qo‘zg‘oloniga olib keldi. Arablarning zulmiga qarshi ko‘plab qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tdiki, ularning har biri xalifalik hokimyatini larzaga solib, arab xalifaligini inqirozini tezlashtirib berdi. Arab xalifaligini larzaga solgan qo‘zg‘olonlar qatorida 806-810-yillarda Samarqanda Nasr ibn Sayyorning nabirasi, buxorxudot Tug‘shodaning kuyovi Rofe ibn Lays boshchiligida bo‘lib o‘tdi. Bu qo‘zg‘olon xalifa Horun ar-Rashid va uning siyosatiga qarshi ko‘tarilgan bo‘lib, qo‘zg‘olon Samarqanda boshlanib Shosh, Farg‘ona, Buxoro, Naxshab va Xorazm hududlarigacha yoyiladi. Rofe ibn Lays Samarqand shahrini to‘liq zabt etgach, Horun ar-Rashid Xarsama ibn A’yini unga qarshi kurashga yuboradi [1]. Lekin o‘zaro kurashda Xarsama ibn A’yini yengiladi. Uzoq davom etgan qo‘zg‘olonni bostirish uchun Xuroson noibi Ma’mun Somonxudotning nabiralariga Nuh, Ahmad, Yaxyo va Ilyoslarga xat yozib ulardan yordam so‘raydi. Somonxudotning nabiralari qo‘zg‘olonni qiyinchiliklar bilan bostirishadi. Qo‘zg‘olon yakunida Asad ibn Somonning o‘g‘illarini da’vati bilan Rofe ibn Lays va Xarsama bilan sulh tuzilib, bu sulh o‘zaro oilaviy nikoh bilan yanada mustahkamlanadi. Ma’mun otasi

Horun ar-Rashid vafot etgandan so‘ng* unig o‘rniga egallaydi. Xalifa Ma’mun (813-833) Somonxudotning nabiralariga mulk sifatida bir nechta hududlarni tortiq etadi. G‘asson ibn Ubbod Xuroson hukmdori etib tayinlanadi. 817-yilda xalifa Ma’mun G‘asson ibn Ubbodga Somonxudotning nabiralariga mulk ajratib berish to‘g‘risida farmon beradi. Bu farmonga muvofiq Nuhga Samarqand, Ahmadga Farg‘ona, Yahyoga Shosh va Usturshona va Ilyosga esa Hirot shaharlari mulk sifatida tortiq etiladi. Dastavval, Asadning katta o‘g‘li Nuh ukalari mulklarini birlashtirib, xalifalikdan mustaqil davlat barpo etish harakatini boshladi. Nuhning nomidan tangalar zarb etilishi yuqoridagi fikrimizning tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga Nuh Movarounnahrni ko‘chmanchilardan himoya qilishga ham harakat qilgan. Chunonchi, 839-840 yillarda u Isfijobga yurish qilib, u yerda mustahkam mudofaa devorini barpo etgan. Nuh vafotidan so‘ng ukasi Ahmad uning ishlarini davom ettirib, asta-sekin Movarounnahmi Somoniylar sulolasi boshchiligida birlashtirishga kirishadi. Tohiriylar Ahmadning bu harakatlariga qarshilik ko‘rsata olishmadi. 865-yilda Ahmad vafot etgach, sulola boshlig‘i sifatida Ahmadning o‘g‘li Nasr tan olinadi Keyinchalik, Ahmadning o‘g‘li Nasr Samarqandni qo‘lga oldi. Shosh va Ustrushona Ahmadning boshqa o‘g‘li Yaqub tasarrufiga o‘tgan. Shu tariqa Movarounnahming katta qismi Ahmadning o‘g‘illari qo‘lida jamlandi. Ilyos vafotidan so‘ng (866-yilda) esa Hirot Somoniylar hukmidan chiqib ketadi.

Ma’lumotlarga qaraganda aka-uka Somoniylaming, xususan Ahmad ibn Asadning ahvoli og‘irlashib qoladi. Farg‘ona va Usturshonada xaIifaIikka qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilib, Ahmad o‘z noibligini tashlab ketadi. Qo‘zg‘olonni Tohirning o‘g‘li Talxa bostirgach Ahmad Farg‘onaga qaytadi va bu yerda uzoq vaqt hokimlik qiladi. Nuh Samarqandda 820-842 yilgacha, Ahmad Farg‘onada 820-865 yilgacha, Yahyo Shosh va Usturshonada 820-856-yilgacha noiblik qiladilar. Noiblik alohida xizmatlari uchun in’om - mukofot tariqasida berilgan. Mansab bilan bir qatorda foydalanish uchun yer-mulklar ham hadya qilingan. Somoniylar ikkinchi darajali noiblar bo‘lganliklaridan ularga mis tangalar (falslar), tohiriylarga esa kumush tangalar (dirham) zarb qilishga ham ruxsat berilgan. Somoniylarga in’om qilingan yerlarning naqadar boy bo‘lganligini IX asrdagi mashhur arab geografi Ibn Hurdodbekning* viloyatlarning soliq miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlaridan bilsak ham bo‘ladi. Uning yozishicha, butun Sug‘d hududi xalifalik xazinasiga tohiriylar orqali 326 ming muhammadiy dirhamdan to‘lab turgan. Farg‘ona Ahmad ibn Asad orqali 280 ming, Yahyo ibn Asad orqali Shosh - 607 ming, Usturshona - 50 ming dirhamdan to‘laganligi haqida aniq ma’lumotlar keltirib o‘tgan [5].

Ko‘chmanchi turk qabilalari IX asming birinchi yarmida Yahyo ibn Asad hokimlik qiluvchi Shoshga (Chosh) tez-tez hujumlar uyushtirganlar. Yahyoning iltimosiga binoan va uning ishtirokida akasi Nuh ibn Asad 840-yilda Isfijobning turk hokimiga qarshi yurish qildi va tarixiy g‘alabaga erishdi. U Isfijobda ulkan va mustahkam mudofaa devori qurdirgan. Nuh ibn Asad 841-yilda vafot etadi. Manbalarning guvohlik berishicha, Samarqand viloyatini bir vaqtlar aka-uka Ahmad va Yahyo birgalikda idora qilganlar. 855-yilda Ahmadning o‘g‘li Nasr ibn Ahmad Samarqand noibligiga tayinlanadi. Bu hol Movarounnahrda Ahmad ibn Asad nufuzining oshuviga

* Horun ar-Rashid 809-yilning mart oyida Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo‘zg‘olonni bostirish maqsadida yo‘lga otlanadi. Xurosonning Tus shahriga yetib kelganda esa to‘satdan shu yerda vafot etadi.

* Ibn Hurdodbek abulqosim Ubaydulloh ibn Abdulloh – (820-913-y) arab geografi va tarixchisi. Uning arab tilida yozilgan va bizgacha yetib kelgan ilk geografik bayoniy uslubdagi “Kitob almosolik val mammolik” (Yo‘llar va mamlakatlar haqidagi kitob)asarida Kasbiy dengizi bo‘ylaridan to G‘arbiy va Sharqiy Turkistongacha bo‘lgan hududdagi mamlakatlar aholisi, shaharlar orasidagi masofalar hamda aholidan olinadign soliqlar haqida qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

olib keladi. 856-yilda Yahyo ham vafot etdi. Ahmad endi Shosh va Usturshona noibligini ham o‘z qo‘liga oladi va bu viloyatlarni o‘g‘li Yoqub ibn Ahmadga beradi. Shu tariqa IX asring o‘rtalariga kelganda Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari va Chag‘anrud (hozirgi Surxondaryo) vodiylaridan boshqa Movarounnahming barcha hududi Ahmad va uning o‘g‘illari ta’siri doirasiga kirdi. Bu ishga Tohir ibn Abdulla (844-862) qarshilik ko‘rsata olmadi. Chunki endi somoniylar ustidan ilgarigidek ota-bobosi singari hukmronlik qila olmasligini yaxshi bilardi. Bundan tashqari Tohiriylar davlati o‘zining oldingi kuch qudratini yo‘qotib zaiflashib qolgan edi.

873-yilda Buxoro shahri va uning atroflarini Tohiriylaring so‘nggi vakili Muhammad ibn Tohir egallab olib, ushbu hududlarga soliqlar soldi. Bundan g‘azablangan xalq ommasi Muhammadga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. 874-yilda Muhammad ibn Tohir Xorazm shaharlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari Nasrdan Buxoroga oila a’zolaridan birini noib etib yuborishni iltimos qilishadi. Nasr Buxoroga tadbirli va zehnli inisi Ismoil ibn Ahmadni (849-907) hokim etib jo‘natadi. Nasr tabiiyki, Ismoilni o‘z noibi deb hisoblar edi. Avvalboshda Somoniylar Tohiriylarga tobe sulola hisoblangan bo‘lsa, IX asrning 60-70 yillaridan Somoniylar Movarounnahrda markazlashgan mustaqil davlat baro etishni maqsad qilib qo‘yishdi. Og‘ir soliqlar, ko‘chmanchilar hujumi, xalifalik hukmronligidan charchagan aholining turli qatlamlari markazlashgan mustaqil davlat barpo etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlashardi. Buxoro Somoniylar sulolasi hukmi ostiga o‘tishi bilan xonadon boshlig‘i hisoblangan Nasr (865-892) xalifa Mu’tamiddan (870-892) 875-yili butun Movarounnahmi boshqarishga yorliq olishga muvaffaq bo‘ldi. Ismoil ibn Ahmad Buxoroda o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuboriladigan soliqni yubormay qo‘ydi hamda akasiga tobe bo‘lishni istamadi. Natijada 886-yilda aka-ukalar o‘rtasida birinchi to‘qnashuv sodir bo‘lib, unda Ismoil yengildi va vaqtincha Buxoro noibligidan tushirildi. 888-yildagi ikkinchi jangda Ismoil Nasr qo‘shinlarini tor-mor etishga muvaffaq bo‘ladi. Garchi bu kurashda Nasr yengilsa-da, uning sulola boshlig‘i sifatidagi mavqeyi saqlab qolinadi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, yuqorida keltirib o‘tilgan barcha voqealar Somoniylar davlatini vujudga kelishi uchun zamin yaratadi. Somoniylar davlat sifatida mavjud bo‘lsa-da, lekin markazlashgan davlat emas edi. Keyingi davrlarda yuz bergan siyosiy voqealar Somoniylar davlatini markazlash-gan davlatga aylanishi uchun imkon yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. . – Т:. Фан. 1996. Б. 120.
2. Неьматов Н. Давлати Сомониён. –Ирфон. 1999. Б. 328.
3. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит тарих. – Т:. Цюрих. 2005. Б. 604.
4. Каримов И. Юксак маьнавият – енгилмас куч. –Т:. Маънавият. 2008. Б.108.
5. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –T.: Sharq. 2010. B. 511
6. Homidiy H. Daholar davrasi. –T:. O‘qituvchi. 2011. B. 352.
7. Эшов Б.ва Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
8. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
9. Is’hoqov M va Alimova R. Arxivshunoslik. O’quv qo’llanma.-T:,2017. B. 184.
10. https://qomus.info/oz/encyclopedia/k/koriz
11. https://milliycha.uz/degrezlik
12. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Shlyuz
13. https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sipohsolor-uz

14. https://en.numista.com/catalogue/pieces84854.html

8-СИНФДА “КУНТУҒМИШ” ДОСТОНИНИ ЎРГАНИШНИНГ ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ

Нурбоев Ширинбек
ЖДПУ ўқитувчиси

Аннотация: *Ушбу мақолада ушбу достонни дидиактик таҳлил усуллари, хусусан, мант ва образлар таҳлилининг ўзига хос хусусиятлари, мезонлари, шунингдек, мезон ва усуллари ҳақида сўз юритилган.*

Калит сўзлар: *дарслик, ўқув дастури, достон, омил, Эргаш шоир, бахши, савол-топшириқ, таҳлил, қадрият, сюжет.*

Бадиий асарларнинг дидактик таҳлили, қандай хусусиятларга эга ва қандай усуллар орқали амалга оширилади? Ушбу назарий саволнинг ечимини топиш учун илмий манбаларга мурожаат қиламиз. Таниқли методист олим Қ. Йўлдошев қуйидагиларни таъкидлайди: “Ўқув (дидактик) таҳлили жамоат шаклида оширилиб бадиий асарнинг ҳозирги ҳаётий ва бадиий мантиғи ва ҳамда эстетик ўзига хослигини англаш орқали ўқувчиларда эзгу маънавий сифатларни шакллантиришга йўналтирилган эстетик – педагог фаолиятдир” [1]. Бошқа илмий манбаларда дидактик таҳлил қуйидаги усуллар орқали амалга оширилиши қайд этилган:

1. Матн асосидаги (текстуал) таҳлил;
2. Образлар асосидаги таҳлил;
3. Муаммоли ўқув таҳлили [2].

“Адабиёт” дарсликларидаги бадиий асарларнинг ўқув дидактик таҳлили ўқув машғулотида билим олувчиларнинг ёш хусусиятлари, интеллектуал имкониятларига қараб амалга оширилади. Дидактик таҳлилнинг таъкидланган ҳар бир турининг ўзига хос мезонлари ва хусусиятлари мавжуд. Масалан, Матн асосидаги (текстуал) таҳлилда энг аввало, муҳокамага қўйилган асар матнининг структураси (қурилиш таркиби), матн мантиғи, етакчи ғоялар, асосий маъно ва бадиий жозибадорлик таҳлили устуворлик қилади, матннинг эстетик моҳияти иккинчи режага тушиб қолади. Бадиий асарнинг образлар асосидаги таҳлилида таълим берувчи (ўқитувчи) ва таълим олувчи (ўқувчи)ларнинг асосий эътибори муҳокамадаги асарнинг образ (тимсол)ларига, уларнинг хатти – ҳаракатлари, ички ҳис – туйғулари, мақсади ва ўйларига қаратилади. Асар матнининг бадиий жозибаси образлар таснифига эътиборни қаратиш ва таҳлил қилиш, улар руҳиятини очиш ва энг муҳими, ўқув – билиш компетентликни ривожлантиришда кўзга ташланади. Бу усулда таҳлилда ўқитувчи йўналиш беради, ўқувчи таълим олувчи сифатида фаол иштирок этадилар. Бадиий асар дидактик таҳлилининг учинчиси – муаммоли ўқув таҳлилининг мазмун – моҳиятига эса олдингилардан бутунлай фарқланади. Унда таълим берувчи (ўқитувчи) етакчилик қилади: бадиий асар матнидан келиб чиқиб, бадиий ёки бирор бир ҳаётий муаммо қўяди, савол – топшириқларни ўқувчиларга беради, уларни қўйилган муаммонинг ечимини топишга ўқувчилар диққати йўналтирилади, сўнг муҳокамани умумлаштиради.

Дидактик (ўқув) таҳлилда ўқувчилар адабий тимсолларни ўз тақдири ва ўзига хос табиатига эга тирик кишилар тарзида қабул қилишларига эришиш мақсадга мувофиқдир. Шундагина, бу тимсоллар туйган туйғулар, уларнинг шодлиг – у қайғулари

тарбияланувчиларга ҳам “юқади”, яъни ўз таъсирини кўрсатади. Айни замонда, уларнинг тарбияланиши ва ривожланишига ўз ижобий таъсирини кўрсатади(1).

Бадиий асарлар дидактик таҳлили мобайнида тимсолларнинг ижобий ва салбий каби бир – бирига зид гуруҳларга ажратилишига йўл қўймаслик, ҳар бир бадиий тимсолни ўзи қарама – қарши табиатли кишилар нуқтаи назаридан тўғри баҳолашга эришиш лозимлиги бугунги методика илмида алоҳида аҳамият касб этади(2). Иқтибос сифатида берилган малоҳазалардан келиб чиқадиган хулоса шуки, бадиий асар таҳлилида ўқитувчи энг аввало, ўқувчи – шогиртларига атрофдаги одамларни яхши ёки ёмонга ажратиш мумкин эмаслигини, ҳаётдаги ҳар бир киши табиатида ижобий ва салбий характер – хусуиятлар мавжудлигини қайта – қайта таъкидлаган ҳолда муҳокама қилинаётган ҳар бир асар тимсоллари мисолида тушунтириб, улар онгига сингдириб боришлари зарур. Айтилган мулоҳазаларга яна қўшимча қилиб таъкидламоқчимизки, ҳар бир бадиий асар таҳлилида ўқувчилар устозлари назарда тутган етакчи фикрларни ўзлаштириб олиш билан бирга, уни инсон сифатида ҳаяжонлантирган ҳақиқатлар, асарда содир бўлган хилма – ҳил воқеа-ҳодисаларни туйишлари, китобхон сифатида бадиий образга нисбатан муносабатлари энг муҳим омиллардан бири саналади. Дидактик таҳлил давомида ўқувчиларда муайян фикрнинг пайдо бўлиши, тимсолларга бирор бир муносабат уйғотишга, ўқитувчи назарда тутган адабий далилларга мос келиши – келмаслигидан қатъий назар, ўз қарашларини белгилаб олиши мақсадга мувофиқ бўлади. Шу маънода “Адабиёт” дарслигидаги ҳар бир асарнинг дидактик (ўқув) таҳлилида ўқитувчи юқорида таъкидлаганимиз матн ёки образ асосидаги таҳлилими, ёки бўлмаса, муаммоли ўқув таҳлилими, барибир улар таяниб машғулотни олиб борсагина, иккала томон (таълим берувчи ва таълим олувчи) кўзланган мақсадга эришилади, натижада якунланган машғулотда самарадорлик устуворлик қилади.

8-синф “Адабиёт” дарслигидан ўрин олган Эргаш Жуманбулбул ўғлининг “Кунтуғмиш” достонини дидактик (ўқув) таҳлили усулларидан фойдаланиб ўрганишни мақсадга мувофиқ, деб топдик. Мазкур достонни ўрганиш учун дастурда 4 соат вақт ажратилган.

Достонни дидактик таҳлил усулларидан фойдаланган ҳолда ўрганиш мақсадида ўқитувчи томонидан анча илгари муддатда – ўқув йилининг бошида ёки чоракликнинг бошланишидаёқ ўқувчиларига “Кунтуғмиш” достонини тўлиғича ўқиб чиқинг, ўзингиз маъқул бўлган матнларни конспектлаштириб олинг. Бадиий образлар фаолиятига тааллуқли нутқларни “эслаб қолинг, уларнинг баъзиларини ёдлаб олинг !” деган савол ва топшириқни бермоғи лозим. Берилган вазафанинг бажарилишини қатъий назоратга олган ўқитувчи интернет саҳифаларига мурожаат қилишларини ундаги достон билан боғлиқ фикр – мулоҳазалар, мақолалар ва монографик тадқиқотлардан самарали фойдаланишлари зарурлигини айтиб, тегишли методик тавсияларни бермоғи лозим.

Албатта, ўқувчилар берилган вазифани бажаришлари учун анчагина вақт талаб этилади, дастлаб достон матнини топиб ўқиб чиқиш, ундаги воқеа – ҳодисалар тафсилотлари, бадиий образлар фаолияти, уларнинг мақсади ва хатти – ҳаракатлар достондаги асосий ва етакчи ғоялар, асарнинг тили ва бошқа масалалар ҳақида муайян маълумотларни билиб, уларни ўзлаштириб олишлари зарур. Шундан сўнггина асар таҳлилига бағишланган муҳокамада фаол қатнашишлари учун достоннинг дидактик таҳлилини амалга оширса бўлади. Бу жараёнда ўқитувчи бир қатор савол ва топшириқларга

таяниб иш кўради, ўқувчилар эса тегишли жавобларни беришади, охир оқибат қизғин муҳокама орқали кўзланган мақсадга эришилади.

Ўқувчилар ўз жавобларида достон матни, дарсликда берилган назарий маълумот, достон ҳақидаги мақола, ўзи излаб топган қўшимча адабиётлар ва интернет материаллари асосида тўплаган маълумотларга бевосита таянган ҳолда муайян фикр – мулоҳазаларини айтадилар. Бири – иккинчисининг фикрларига муносабат билдирадилар, учинчиси уларнинг фикрларини тўлдирадилар, айтилмаган ва қолиб кетган жиҳатларни қайд қиладилар. Бу жараёнда ўқитувчининг ёрдамчи саволлари асосида ўзларининг достон ҳақидаги тасаввурларини бойитадилар. Масалан, достоннинг куйловчилари ҳақида фикр айтилганда ўқитувчининг томонидан тўлдирилган “бу достон Эргаш Жуманбулбул ўғли, Нурман Абдувой ўғли, Ислом шоир Назар ўғли, Бекмурод Жўрабой ўғли, Эгамберди Олломурод ўғли каби бахшилардан ёзиб олинган” лиги ҳақидаги назарий маълумотлар ҳам ўқувчиларнинг бахшилар ва достон вариантлари тўғрисидаги кўникмаларини такомиллаштиришга, тегишли билимларини бойитишга ёрдам беради.

Сўнгра, ўқувчилар тўплаган материаллари асосида: *“Сиз ўқиган достон қандай хусусиятларга? У достоннинг қайси турига мансуб, деб ўйлайсиз? Ундаги етакчи ғоялар нималардан иборат?”* тарзидаги саволларга қуйидагича жавоб берадилар: “Кунтуғмиш” достони бизга етиб келган ҳолида бадиий баркамол, композицион пишиқ, ишқий – романтик достонларнинг энг етуги ҳисобланади. Унда ишқ, муҳаббат, вафо ва оила масалалари ижтимоий ҳаёт ҳодисалари билан маҳкам боғлиқ тасвирланади. Достоннинг дидактик (ўқув) таҳлилида ўқитувчи тўғри йўналиш берувчи устоз, ўқувчилар эса муҳокаманинг фаол аъзоси сифатида тегишли хулосалар чиқарувчи шогирд. Шу маънода, ўқитувчининг *“достон сюжетидаги асосий кўзга ташланиб турган воқеалар нималардан иборат?”* деган саволига уқувчиларнинг “достонда Буврахоннинг дабдабали сарой муҳити ҳам, чўпонлар қўшхонасидаги фақирона ҳаёт ҳам, катта карвон йўлидаги савдогарлар тўдасининг ғаламисликларию баликфурушлик билан кун кўрувчи сайёдларнинг аҳволи ҳам, нобоп қурилган замона зулми билан тўрт томонга улоқтириб ташланган ота – оналар ва эгизаклар тақдири ҳам – ҳамма – ҳаммаси муайян ўтмиш даври турмуш тарзининг реал манзаралари сифатида ғоятда табиий ва ёрқин намоён бўлган”лигини таъкидлайдилар. Бош ҳакам сифатидаги ўқитувчи шогирдларининг жавобларини эшитиб, натижалари асосли эканлигини инобатга олиб, улардаги ўқув – билиш компетентлигини янада ривожлантириш йўлини тутгани мақсадга мувофиқ бўлади.

Дарсликда достоннинг қисқартириб берилган матни дастурий талқинда кўзланган мақсад ва қарашлар ўз ифодасини топган. Назарий билимлар ҳам достон ҳақидаги мақолада берилган. Дарсликдаги достон матни билан боғлиқ 20 та савол ва топшириқлар орқали унинг тўлиқ дидактик таҳлилини амалга ошириш мумкин. Агар бордию ўқитувчи мазкур достонни ўрганишга бағишланган дарсларини хилма – хил тарзда кўринишда олиб боришни ният қилса, бу дарсни достон таҳлили охирида муайян савол ва топшириқларни ўртага ташлаб ҳам, ўқувчиларни достоннинг эпик қаҳрамони ҳақида бошқачароқ фикрлашга йўналтириувчи, бу билан белгиланган мақсадга эришишнинг иккинчи ва бошқа савол ва топшириқдан фойдаланган ҳолда ташкил этиши ҳам мумкин.

Дарсликдаги достон матни билан илк танишувдан сўнг барча ўқувчиларда “достон туш кўриш воқеаси билан бошланиши ҳақидаги таассавурга эга бўлишади, яъни Авлиёи Қорахоннинг ўғли Кунтуғмишнинг Зангар подшоси вазирининг қизи гўзал Холбекани

тушида кўриб, унга ошиқ бўлиб қолиши, Холбека ҳам туш кўриб, унга кўнгил боғлиб ва ўз суратини чиздириб, бир сандиққа солиб, дарёга оқизиб юборади”, деган фикр устуворлик қилади. *“Шундан сўнг” достонда яна нималар содир бўлади?* тарзидаги ўқувчиларнинг қизиқишларини орттирадиган муаммоли масаланинг ечимига навбатдаги жавобни топиш талаб этилади.

Дастлаб ўқувчиларнинг олдига қўйилган бу муаммоли масаланинг ечими томон йўналтирилиб: *Дарёга оқизилган сандиқни ким олиб чиқади? Сандиқнинг ичидаги суратни кўриб қандай аҳволга тушди? Буни қандай изоҳлайсиз?* сингари саволлар ўртага ташланади. Бу саволга жавоб излаш учун ўқувчиларнинг диққати достон матнидаги:

Боғ ичинда олма – анор истайдир,
Бўйи махбуб, мушки дилдор истайдир.
Қадрдонлар, бирга юрган бекларим,
Дўстлар-ай, кўнгил бир ёр истайдир.

Тарзидаги эпик қаҳрамон кунтуғмушнинг нутқига қаратилади. Биладики, Кунтуғмиш дарёдан оқиб келаётган сандиқни олиб чиқиб, очиб кўради: ичидаги сурат қаҳрамонни бутунлай ишқ дардига мубтало қилади, дастлабки ички туйғулари хосиласини ўртоғларига етказади. Бундан 8-синф ўқувчилари қандай хулоса чиқарадилар, бу дарс жараёнида маълум бўлади. Лекин ўқувчиларнинг ўз фикрларини асослашлари мақсадга мувофиқ. Ҳар холда, маълум бўладики, эпик қаҳрамоннинг туш кўриб ошиқ бўлиши ва яна машъуқанинг суратини кўриб, бу туйғунинг янада кучайиши достонни композицион тарқоқликка эмас, балки унинг эмоционаллигини, ишонтириш қуввати ва бадиий таъсир кучини оширишга олиб келган. Демак, “Кунтуғмиш” достонида эпик қаҳрамоннинг ўзга мамлакат гўзалига ғойибона ошиқ бўлиши мотиви сақланган ҳолда унинг шакл ва мазмунида, бадиий талқинида жиддий оргиналликка эришилганлигини ўқувчилар онгига яна бир бор сингдириш мақсадга мувофиқдир.

Шундан кейин ўқувчиларнинг асосий диққат – эътибори Кунтуғмушнинг тақдири ҳақида ўйлашга йўналтирилади. Ўқувчилар назарида *“у қаерга боради, кимлар билан учрашади?”* Шу ўринда уларнинг диққати яна достон матнига қаратилади:

Ўзи сардор экан, сардор сабоқли,
От устига минган куни ўмоқли.
Халойиққа ёмон куни керакли,
Қарчиғай келбатли, бургут қабоқли,
Йигитнинг лочинини кўрдим бувишим.

Ўқувчилар бу сатрларга таяниб айни ҳақиқатни англайдилар: Кунтуғмишнинг Зангорга кириб келиши, дорвозабон, бозорда калава сотувчи кампир, Холбеканинг канизи Замонгул билан учрашуви эпизодларини эслайди. Канизларнинг Холбекага баззоз қиёфасидаги номаълум киши ҳақида хабар берганларида, аввало, Кунтуғмушнинг баҳодирлик сифатларини сўзлаганлигига ишонч ҳосил қилади. Ўқитувчи ўқувчиларини кузатишлари, зарур ўринларга тўғри йўналишга солиши керак. Шу ўринда ўқитувчи достон матнидаги *“Подшо номардлик қилмасин, ўзидай подшоларга таъна-маломат бўлмасин. Менинг шу шартим, эшитмаган, билмаган одам йўқ. Аёл бўлсам ҳам қавмимдан қайтмайман, шоҳингдан қўрқмайман. Бизга ошиқ бўлган бўлса, келсин, нард ўйнасин утса тегаман, утдирса подшо деб сийламайман.* Деган мулоҳазага диққат – эътиборини қаратса, албатта, мақсадга мувофиқ иш бўлади. Шундан сўнг ўқитувчи ўқувчилари эътиборини нард

ўйинига, хусусан, бу ўйин ҳар бир қаҳрамоннинг фаҳм – фаросатини, ақл – заковатини синаш воситаси бўлишлиги билан бирга муҳим ижтимоий вазифани ҳам ўташига жалб қилмоғи, уларда муайян тасаввур ҳосил қилиш зарур.

Гап шундаки, нард ўйинини пухта ўзлаштириб олган Холбекага мамлакат подшоси Буврахон ҳам ошиқ. Уст – устига совчи қўяди. Лекин қизнинг шарти ҳаммага баровар. Буврахон эса, бундай шартни бажаришга, ақл, фаросат ишлатиб, ўзининг Холбекага муносиб эканлигини исботлашга қодир эмас. Шунинг учун ҳам у саройдаги ўзига муте кишиларнинг маслаҳати билан Холбеканинг бахтини боғлайди, шаҳарга ташқаридан ҳеч кимни киритмасликка, унинг номини тилга олмасликка фармон беради. Бу билан соф севги ва эркин муҳаббат йўлини, адолат йўлини боғлаган бўлади. Достон матни билан тўлиқ танишиб чиққан ҳар бир ўқувчида *“Холбеканинг кейинги тақдири нима бўлади, Кунтуғмуш билан учрашадими?”* Деган саволларга жавоб бериш имконияти бор, албатта.

Лекин, шундай бўлса-да, бу ўринда достон сюжети финалига Кунтуғмуш кириб келади. Юқоридаги таъкидланган сатрлардан ёрқин ифодаланган эпик қаҳрамон куч-қувватга тўла мард йигит. У ўзининг ақл – фаросати билан нард ўйинида кўплаб талабгорларни енган мағрур Холбекани мот қилади, шу мардлиги ҳам у билан қовуша олади. Уларни Буврахон жаллодлари банди қилиб, ҳайдаб кетаётганда ҳам ўз ёрининг жаллодларга ялинмасликни маслаҳат берганлиги уларнинг соф севги ва эркин муҳаббат танлаганлигидан далолат беради:

Аё нозим, бир ғаним бор, англаб ол,
Мен сўзлайин, зеҳнингни қўй, қулоқ сол.
Жаллодларга эланмагин бўйнингдан,
Гавҳарни не билсин ушалган сопол;
Ёмоннинг қарори бўлмас бир ерда,
Кишига касоди тегар тор ерда,
Гавҳарни не билсин ушалган сопол,
Зарнинг қадрини заргар билар ҳар ерда.

Кунтуғмишнинг ёрига қарата айтган ушбу мулоҳазалар, мардликни, баҳодирликни тараннум этувчи бу сатрлар ижодкор халқимизнинг асрий тажрибаларидан келиб чиққан ўзига хос панд – насиҳат, ўгит эканлигини ўқувчилар шуурига сингдириш ўқтувчининг касбий фаолиятига тегишли вазифадир. Аслида бир – бирига яқин бир неча мақол мазмунини халқона шеърий мисраларга ҳассослик билан сингдириб юбориш Эргаш Жуманбулбул ўғлининг юксак маҳоратидан далолат беради.

Фойдананилган адабиётлар

1. Йўлдош Қ. , Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т. : “Камалак”, 2016. , - 264 – б.

2. Ступина В. Н. Методика анализа художественного произведения. – Курген, ИПКПРО. , 2005, -11-С.

3. Джамолдинова Ш. Мактаб адабий таълимида халқ оғзаки ижоди намуналарини муаммоли метод асосида ўрганиш йўллари (5-9-синфлар мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. Самарқанл-2021.

4. Болтаева А. Т. Адабиёт дарсларида бадиий асар қаҳрамонларини танқидий баҳолашга ўргатиш технологиялари. педагогика. . . фалс. док. (PhD) дисс. -Т. , 2018.

O‘RTA OSIYODA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI

Sadirova Mehrigiyo Dilshod qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Tel: +998889990320
E-mail: mekhrigiyosadirova@mail. com
Ilmiy rahbar: R. M. Akbarov

Annotatsiya*: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi sabablari, mintaqa jadidlarining asosiy g‘oya va maqsadlari hamda o‘lka xalqlari orasida olib borgan ma’naviy madaniy faoliyati haqida so‘z boradi.*

Аннотация*: В этой статье рассматриваются причины возникновения джадидистского движения, основные идеи и цели джадидов региона, а также их духовная культурная деятельность среди народов страны.*

Annotation*: this article will talk about the reasons for the emergence of the jadidist movement, the main ideas and goals of the jadids of the region and the spiritual cultural activities they carried out among the peoples of the country.*

Kalit so‘zlar*: Jadidchilik, “Nizomi jadid”, No‘g‘ay maktabi, “Usuli savtiya tadrijiya”, jadid teatrlari, iqtidorli yoshlarni chet elga yuborish.*

Ключевые слова*: джадидизм, ” Низами Джадид“, Ногайская школа, ” метод савтия таджия", джадидские театры, отправка талантливой молодежи за границу.*

Keywords: *Jadidism, “Nizami jadid”, Nogai school, “Usuli savtiya avazuriya”, jadid theaters, sending talented young people abroad.*

Jadidchilik yoki jadidizm XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat hisoblanib, U dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan esa O‘rta Osiyoda tarqalgan. [9]

“Jadid” atamasining lug‘aviy ma’nosi arabchadan “yangi” degan ma’noni anglatadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yangilik va islohotchilikga intiluvchi taraqqiyparvar va milliy ziyolilar jadidlar nomi bilan atalgan. Jadid atamasini vujudga kelishi Turkiya bilan bog‘liq. Gap shundaki, turk sultoni Sulton Salim III ning elchisi sifatida Avstriyaga elchi bo‘lib borgan Abu Bakir Ratib afandi sultoniga yozgan bildirishnomalarida uyerda ko‘rgan idora tizmini “Nizomi jadid” deb tushuntiradi. [1:120]. Nizomi jadid keng ma’noda ilm-fan, ma’orif, sanoat va qishloq xo‘jaligini zamonaviylashtirishni ko‘zda tutar edi. Jadidchilik Islom dinidagi taraqqiyotparvarlik, ilm-fanga rag‘bat va dunyoviylikning yangi davrdagi ko‘rinishi sifatida paydo bo‘ldi.

Jadidchiliknining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga Sharq va G‘arb mamlakatlarida rivojlangan quyidagi demokratik, milliy-ozodlik, islohotchilik harakatlarining ta’siri ham kuchli bo‘lgan:

1. XIX – XX asr boshlarida Jamoliddin Afg‘oniy va Muhammad Abdolar tomonidan asos solingan “Nahda” nomi bilan arab dunyosida boshlangan madaniy islohotlar;

2. Rossiya imperiyasi hududida XIX asrning 90-yillaridan boshlanib 1905-1907 va 1917-yillarda katta g‘alabalarga erishgan rus sotsial-demokratik va inqilobiy harakatlari;

3. Usmonli turk sultonligida 1839-1870-yillarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar o‘tkazilgan “Tanzimot davri”, 1865- yildan XIX-asrning 80-yillargacha faoliyat yuritgan Yosh usmonlilar, 1889-yilda tashkil etilgan Yosh turklar hamda 1908-1909 yillardagi demokratik inqilobiy harakatlar [2:361].

O‘rta Osiyo mintaqasida ham jadidchilikni vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar sabab bo‘lgan edi.

Birinchidan, Rossiya imperiyasining 1847-1885-yillarda amalga oshirilgan harbiy harakatlari natijasida Turkiston general-gubernatorligi tuzildi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari Rossiya protektoratiga aylantirilib, ichki va tashqi siyosatda qaram davlatlarga aylantirildi.

Ikkinchi tomondan, O‘rta Osiyo hududini istilo qilgan Rossiya imperiyasi hududni uzoq vaqt qo‘l ostida saqlab turish maqsadida rus sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratdi, mahalliy aholining esa hech qanday talab va ehtiyojlari inobatga olinmadi. Diniy e’tiqodlarni urf-odatlarni mensimaslik kuchaydi. Ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirilib, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirish kabi ishlarni amalga oshirishdi

Imperiyaning O‘rta Osiyo mintaqasida yuritgan siyosatiga bevosita guvoh bo‘lgan rus arxeologi va sharqshunosi N. I. Vaselovskiy (1848-1918) shunday yozadi: “Biz Turkistonga madaniyat olib keldik deb o‘ylaymiz. Bo‘ysundirilgan xalqlarga tinchlik va osoyishtalik berdik deb o‘zimizni ovutamiz. Ammo bularda bir oliy tuyg‘u borki, bu millat va uning milliy iftixoridir… Siyosiy o‘lim ya’ni davlatni yo‘qotish, bu og‘ir tuyg‘u milliy o‘lim esa undan ham og‘irroqdir. Shunday milliy tuyg‘ular borki, ular xalq och yoki to‘qligidan qat’iy nazar, bir kunmas bir kun o‘zini namoyon etadi” [2:359].

Ha shunday bo‘ldi ham xalqimiz mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashishni boshladi. Har bir xududda turli yillarda mustamlakachilikka qarshi qo‘zg‘olonlar avj oldi. Jumladan: 1873-1876- yillardagi “Po‘latxon” qo‘zg‘oloni, 1878-yildagi “Yetimxon” boshchiligidagi qo‘zg‘olon, 1880-yildagi Xo‘jand va O‘ratepa tumanlaridagi Rahmonqulixoji va Mirkarimboylar boshchiligidagi qo‘zg‘olon, 1881-1891- yillardagi Biybozor va Nukus volostida bo‘lib o‘tgan Bobogo‘klan boshchiligidagi qo‘zg‘olon, Namanganda bo‘lib o‘tgan 1882-yilgi qo‘zg‘olon, 1885-ylida Andijonda bo‘lib o‘tgan Darveshxon boshchiligidagi qo‘zg‘olon, 1892-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Toshotar” voqeasi, 1898-yildagi Andijon qo‘zg‘oloni, 1916-yilgi Jizzah qo‘zg‘olonlari aynan mustamlakachilik zulmi va istibdodiga qarshi qaratilgan edi.

Ammo bularning hech biri sezilarli darajada foyda bermadi. Turkiston xalqlarini Chor Rossiyasi mustamlakachiligidan ozod qilmadi. Qo‘zg‘olonlar yo‘li bilan mustaqillikga erishib bo‘lmasligini tushunib yetgan jadidlar xalqni ma’rifatli qilish va ularning milliy ongini yuksaltirish orqali mustaqillikka olib chiqmoqchi bo‘ldilar.

Har bir davirda biror yangi g‘oyaning tug‘ilishi aniq tarixiy sharoitda sodir bo‘ladi. Unda tarixiy shaxslarning o‘ynaydigon ro‘lini hech kim inkor etmaydi. Shunday shahslardan biri jadidlar hisoblanadi. Ular o‘z davrining bilimli va ma’nan yetuk insonlari hisoblangan.

Jadidchilik harakati asosan ikki davrga bo‘linadi:

1. XIX- asrning 90-yillaridan-1917-yil fevralgacha;

2. 1917-yil fevraldan-1929-yilgacha;

Birinchi davrining o‘zi uch bosqichga bo‘linadi:

1. Jadidchilik g‘oyasining paydo bo‘lishi va muntazam uyushgan harakat shakliga ega bo‘lishi XIX-asr 90- yillari -1905-yillar ;

2. Jadidchilik nisbatan tez va qarshiliksiz rivojlanishi 1905-1909;

3. Jadidchilik chorizm tomonidan ozodlik, demokratik va inqilobiy harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirgan davrdagi rivoijlanishi 1909-1916;

Ikkinchi davr ham voqealar rivojlanishiga qarab uch bosqichga bo‘linadi:

1. 1917-yil fevral-oktyabr;
2. 1917-yil noyabr-1924-yil;
3. 1925-1929 yillar [3:144]

Jadidlarning xalq ma’rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish;
2. Umidli iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish;
3. Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli guruhini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish;

Jadidlarning asosiy g‘oya va maqsadlari quydagilar edi:

– Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod qilish;

– Shariatni isloh qilish va xalqqa ma’rifat tarqatish;

– Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash;

– Buxoro va Xivada konstitsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tizmini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;

Bu g‘oya va maqsadlarni - Barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish;

Jadidchilik harakati g‘oyalari Turkiston xalqlarining milliy ozodlik mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, sovet mustamlakasi so‘ngra diniy mutassiblikga qarshi kurashda muhim o‘rin tutdi. Jadidlar musulmon mutaassibligiga qarama-qarshi ravishda diniy va dunyoviy ma’rifatparvarlik g‘oyalarini olg‘a surdilar. Ular shariat qoidalari, “Qur’oni Karim”ni yaxshi bilgani uchun ham din peshvolaridagi qoloqlikka, “Taraqqiyot islomga zid” degan tushunchalarga qarshi kurshdilar. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, jadidchilikning paydo bo‘lishiga avvalo islomdagi diniy-dunyoviylikning shariat amallarining o‘rni katta bo‘ldi.

Jadidlarning dadil yangilik yaratishi, dunyoviylikning targ‘ib etishi uchun payg‘ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallamning mana bu ikki hadisi shariflari ma’naviy asos va kuch-quvvat bo‘ldi:

“Ohiratni deb dunyosini tark qilgan ham, dunyosini deb ohiratni tark qilgan ham sizlarning yahshingiz emas…”, “Dinda o‘rtacha yo‘l tutinglar, o‘rtacha yo‘l tutinglar, o‘rtacha yo‘l tutinglar, chunki ushbu din amallarida kim og‘irlashtirib yuborsa uni amal yengib qo‘yadi”[2:360]

Jadidlar o‘z g‘oya va maqsadlari asosida jadid maktablarini yaratishni boshladidlar. Jadid maktablarining paydo bo‘lishi va rivojlanishida Ismoilbek Gaspiralining (1851-1914) hissasi katta. Dastlabki jadid maktabi Qirimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil Ismoilbek Gaspirali tomonidan tashkil etilgan va u “usuli savtiya tadrijiya” (“rivojlanuvchi tovush usuli”) maktabi bo‘lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tijorat va sanoatning rivojlanishi bu sohalarni boshqara oladigan shahslarni yetishtirish ehtiyojini tug‘dirdi. Shuningdek 1893-yil Buxoro amiri Abdulaxadxon ruxsati va Mo‘minxo‘ja Vobkendiy g‘ijduvonlik domla Fozil sa’yharakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bunday maktablar asta-sekin boshqa hududlarda ham ochila boshlandi. Jumladan:1898-yili Qo‘qonda Salohiddin domla, Samarqandda paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o‘zbeklar bu davrda bunday maktablarni “No‘goy maktabi” deb atagan). Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda A. Shakuriy, 1908-yili Buxoroda A. Burxonov tomonidan tashkil etilgan. Jadid maktablarida matematika, geografiya, ona tili, rus tili, arab tili, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi. Tarixda birinchi bo‘lib, jadidlar o‘quvchilarga kundalik, chorak va yillik

baholar qo‘yishni joriy etdilar. O‘quvchilar sinfdan sinfga o‘tish va bitirish uchun jamoatchilik oldida ochiq chorak, yillik va bitiruv imtihonlarini topshirganlar.

Jadidlar iqtidorli va malakali yoshlarni chet elga o‘qishga yuborishni ham yo‘lga qo‘yganlar. Shu maqsad yo‘lida Buhoroda 1910-yili “Tarbiai Atfol” nomli jamiyat tashkil etishadi. Bu jamiyatning moddiy ko‘magi bilan 1911-yilda Istanbulga Turkistondan talabalar jo‘natilgan. A. Fitrat, Muqimmiddin Bekjon va Sodiq Ashur o‘g‘li kabilardan tashkil topgan hay’at “Buxoro ma’rifat jamiyati”ni qurganlar. Bu jamiyat Turkiston va Buxorodan Istanbulga jo‘natilgan talabalarning moddiy va ma’naviy muammolariga yordamchi bo‘lgan edi. Jamiyatning 17 moddali nizomnomasi uning a’zolari va faoliyati to‘g‘risida ma’lumot beradi. [4]

Jadidlar maktab ochishdan tashqari o‘lka aholisini ziyoli qilish maqsadida turli gazeta va jurnallar teatr truppalari tashkil etishadi. Ular ayniqsa matbuotga e’tibor berishgan. Gazeta va jurnallar o‘qish orqali xalqni Turkistonda va Yevropada bo‘layotgan voqealardan xabardor qilishgan. XX asr boshlarda amaliy axloq muammolari jadid matbuotida keng o‘rin oladi. “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston”, “Ulug‘ Turkiston”, “Turon”, “Xurshid” singari gazetalarda e’lon qilingan xajviy-jurnalistik asarlarda davr bayonlarining qoloqligi, chor ma’muriyatining to‘rachiligi, qattiq tanqid ostiga olinadi. Jadid matbuoti butun kuchini ozodlikni, vatanni jondan sevuvchi, ilg‘or tushungan har tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fuqorosini tarbiyalashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yganlar. Samarqandlik Hoji Muin ta’kidlaganidek “Matbuot bir millatni uyg‘otish uchun birinchi omil bo‘lganidek, uning tarixi ham “Uyg‘onish davri” tarixining muhim bir bo‘lagi sanaladi”. [5]

Turkistonda milliy teatrning shakillanishida jadidlarning o‘rni katta. Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr-bu ibratxonadir” degan gaplarini eslash o‘rinlidir. Turkistonda 1911-yili dastlabki yozma milliy sahna asarlari yaratildi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, A. Samadovning “Mahramlar”, Fitratning “Bir firangi bilan buxorolik bir muddarisning qilgan munozarasi” nomli asarlari shular jumlasidandir. Ularning ichida ayniqsa o‘zbek milliy teatri durdonasiga aylangan Behbudiyning “Padarkush” drammasi g‘oyatda muhim voqelik bo‘ldi. Jadidlar endi har bir hududda teatr truppalarini ochishga kirishdi. Bu teatrlarda xalqning ko‘ngliga yaqin ahloqiy va ijtimoiy jihatlarga aloqador mavzularda sahna ko‘rinishlar ko‘rsatildi. Shu tariqa jadidlar tomonidan birinchi bo‘lib tashkil etilgan jadid teatrlari o‘zbek milliy teatrini vujudga kelishiga asos bo‘ldi.

Jadidlar o‘lkada olib borgan tashfiqotlari tufayli “Qatag‘onlik” siyosatiga duch keldi. Ularning yozgan asarlari, ochgan maktablari, gazeta va jurnallari qoralandi. Ularning ayrimlari otishga hukm qilindi, ayrimlari esa uzoq yurtlarga surgun qilindi. Ularning nomi qoralandi. Ammo mustaqillikka erishganimizdan so‘ng ularning nomi oqlandi. Ularning xotirasini abadiy saqlash maqsadida shahidlar uchun alohida xotira kuni ya’ni 2001-yil 31- avgustdan boshlab shu kun shahidlar xotirasi kuni deb tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning farmoni bilan Toshkent shahrida “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasi tashkil etilib, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ochildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan keyingi yillarda milliy istiqlolimizni yanada mustahkamlash, mustabid tuzum davrida qatag‘onga uchragan vatandoshlarimizning merosi va ijtimoiy faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish ishlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Qatag‘on qurbonlariga bag‘ishlangan “Xotira” kitoblari tayyorlanib, unda 40 mingdan ortiq vatandoshimiz haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan. Xususan 2019-yilda O‘zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Qatag‘on qurbonlai” muzeyining bo‘limlari tashkil etildi. Yurtimizda

ma’rifatparvar jadidlarning nomlari bilan ataladigan yang-yangi yodgorik majmualari, ta’lim muassasalari, mahalla va muzeylar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda. Jumladan Is’hoqxon Ibrat nomidagi majmua va Chet tillari instituti, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi tashkil etildi. Bugun Poytaxtimizda bunyod etilgan “Adiblar xiyoboni”da, shuningdek, turli shaharlarimizda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduraif Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir singari mashhur ma’rifatparvarlarning muhtasham haykallari qad rostlab turibdi. Ma’lumki mustabid tuzum qatag‘oniga uchragan shahslarning aksariyati jadidlar bo‘lgan keyingi vaqtda ularning nomlarini oqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan o‘tgan uch yil mobaynida O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan qatag‘on qurboni bo‘lgan to‘rt yuzdan ziyod vatandoshlarimizning nomlari oqlandi. Ularning aksariyat qismini jadidchilik harakati vakillari tashkil etishi ayniqsa e’tiborlidir. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: Jadidlarimiz mamlakatimiz hududida uchinchi renesans bo‘lishi mumkin edi lekin mustabid tuzum bunga yo‘l qo‘ymadi. Ammo ular o‘z maqsadlari yo‘lida oxrigacha kurashdilar. [6]. Ya’na shuni ta’kidlab o‘tish lozimki Prizidentimiz Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengaashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida jadidlar to‘g‘risida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tdi: Yaqinda poytaxtimizda o‘tkazilgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi konferensiya jahon ilm-fan va madaniy jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish va e’tibor uyg‘otganidan barchangiz xabardorsiz. Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida alohida Prezident qarori qabul qilinadi. Jumladan, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi bunyod etiladi.

Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir

Ana shu ishlarni davom ettirish maqsadida Yozuvchuilar uyushmasi, fanlar akademiyasi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Milliy mass mediani qo‘llab quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, “Shahidlar xotirasi” jamg‘armasi hamda jamoatchilik vakillarining “Jadid” nomli yangi gazeta va uning electron versiyasini tashkil etish haqidagi tashbbusini biz albatta qo‘llab – quvvatlaymiz degan so‘zlari o‘rinlidir.

Matbuotda ham jadidchilik mavzusi yuqori o‘rinlarga ko‘tarilmoqda Jumladan, “Jadidlar” to‘plami o‘‘zbek jadidchiligining 8 nafar yirik vakili: G‘ulom Zafariy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, asarlari haqida kitobxonga qisqa ma’lumot berishga harakat qiladi. To‘plam Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan lotin alifbosida nashr etilgan. O‘rtacha 150 betli 60x84 bichimidagi kitobchalar qutilarga solingan shaklda kitobxonlarga taqdim etildi. Agentlikning ma’lumot berishicha, to‘plam ustida 4 oy davomida 20 ga yaqin mutaxassis ishlagan. To‘plamdagi 8 kitobga 8 nafar jadidshunos olim mualliflik qilgan. Ular orasida jadidshunoslikning darg‘alari sanalgan Hamidulla Boltaboyev, Bahodir Karimov kabi olimlar bor. [10] Har bir jild “Adib hayoti”, “Faoliyati va ijodi”, “Hikmatli so‘zlari”, “E’tirof” hamda “Foydalanilgan adabiyotlar” bo‘limlariga bo‘lingan. [7]

“Jadidlar” kitobi to‘plamini aholi, jumladan, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish orqali ma’rifatparvar jadid bobolarimiz haqida har bir yoshning xabardorligini oshirish asosiy maqsad qilingan [7]. Jadidlar o‘tmishi va tarixini yanada keng ommaga ochib berish maqsadida Kino sohasida ham bir qancha ishlar olib borildi va olib borilmoqda, xususan, O‘zbekiston Yoshlar

Ittifoqi, Yosh Ijodkorlar kengashi, Official Attempt, Yoshlar media Markazi hamkorligidagi Abdulla Qodiriyga bag‘ishlangan qisqa metrajli film, Ruslan Soliyev rahbarligidagi jadidlar tarixiga bag‘ishlangan “Armon” nomli hujjatli kino film. Ushbu kino filmda Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Is’hoqxon Ibrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, singari el-yurt fidoyilariningo‘lkani hur va ozod ko‘rish, xalqimizni ma’rifatli qilish yo‘lidagi mashaqqatli hayoti haqida hikoya qilingan [8].

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni takidlash lozimki, O‘rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy tarkibi asosan ma’rifatli insonlardan iborat edi. Ular o‘lkani turli qo‘zg‘olonlar bilan ozodlikga olib chiqish imkoniyati yo‘qligini va xalqni ma’rifatli qilmasdan turib hech qanday natijaga erishib bo‘lmasligini tushungan xolda ish olib bordilar.

– Ular o‘z g‘oya va maqsadlari asosida maktablar ochishdi. U yerda diniy fanlar bilan bir qatorda, dunyoviy fanlar ham o‘qitildi. Xattoki iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish ishlarini olib borishdi.

– Jadidlar o‘z maqsadlarini xalqqa keng yoyish maqsadida xatto o‘z matbuotlariga ham asos solishdi.

– Ular o‘lkada teatr truppalariga asos solib o‘lka bo‘ylab turli gastrol safarlarini amalga oshirishdi. Shu tariqa jadidlar tomonidan birinchi bo‘lib tashkil etilgan jadid teatrlari o‘zbek milliy teatrini vujudga kelishiga asos bo‘ldi.

– Mustaqillik yillarida jadidlar xotirasini abadiylashtirish harakati kuchaydi va shu maqsadda turli hujjatli filmlar, jadidlarga bag‘ishlangan koferensiyalar va turli nashrlar soni ortib bormoqda

Umumiy qilib aytganda, Jadidlar olib borgan tashfiqotlar tufayli o‘lka tarixida xalqni ma’rifatli qilish, mustamlakchilik zulmidan ozod qilish yo‘lida olib borgan harakatlari, ma’naviy ozodlik uchun ilk qadamlardan biri bo‘ldi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibragimov S. E. Jadidchilik Harakati. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 Issue 3 2021– P. 119-129 // https://cyberleninka.ru/article/n/jadidchilik-harakatij [Murojat qilingan sana:07. 05. 2024]

2. Ўзбекистон тарихи. (Р. Х. Муртазаеванинг умумий тахрири асосида) – Т. : “Янги аср авлоди”, 2003. – 675 бет.

3 Murtazayeva R. H. (Ma’sul muharrir va ijodiy guruh rahbari) O‘zbekiston tarixi. – T. : "”Vneshinvestprom"” 2019. – 576 bet.

4. Boymirza Hayit. Turkistonda jadidchilik va uning tugatilishi. // https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/boymirza-hayit-turkistonda-jadidchilik-va-uning-tugatilishi.html [Murojaat qilingan sana: 16. 05. 2024]

5. Tojimatova M. Jadidona milliy matbuot // Yangi O‘zbekiston. // https://yuz.uz/uz/news/jadidona-ruhiyatli-milliy-matbuotodamlar-ongu-shuurining-quyoshi-vijdon-ovozi-bolishni-orzulagan-edi [murojat qilingan sana 07. 05. 2024]

6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. // https://aniq. uz/uz/yangiliklar/prezident-shavkat-mirziyoevning-jadidlar-merosini-urganishga-bagishlangan-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga-tabrigi [Murojat qilingan sana:07. 05. 2024]

7. “Jadidlar” kitoblar to‘plamini nashr etish uchun budjetdan qancha mablag‘ sarflangani ma’lum bo‘ldi // https://daryo. uz/2022/07/26/jadidlar-kitoblar-toplamini-nashr-etish-uchun-budjetdan-qancha-mablag-sarflangani-malum-boldi [Murojaat qilingan sana: 15. 05. 2024]

8. Jadidchilik harakati haqida hikoya qiluvchi “Armon” filmi taqdimoti o‘tkazildi. // https://uzreport. news/culture/jadidlar-kitoblar-to-plamini-nashr-etishga-qariyb-1-5-mlrd-som-sarflandi-alisher-sadullaye [Murojaat qilingan sana: 15. 05. 2024]

9. Jadidchilik // https://uz. wikipedia. org/wiki/Jadidchilik [Murojaat qilingan sana: 06. 05. 2024]

10. “Jadidlar” to‘plami. Bu tashabbus nega birdek iliq qarshi olinmadi? // https://kun. uz/uz/56764877 [Murojaat qilingan sana: 16. 05. 2024]

MUSTAQILLIK DAVRIDA QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH

Yigitaliyeva Dilshodaxon Dilshod qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi I bosqich talabasi

Tel: +998950810424

E-mail: yigitaliyevadilshodaxon23@gmail. com

Ilmiy rahbar: R. M. Akbarov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Vatanimiz istiqloli, xalqimiz ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta’minlash yo‘lida fidokorona kurash olib borgan, o‘z jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag‘on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o‘rganish hamda targ‘ib etish borasida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar*: Qatag‘onlik, “Repressiya”, Bosmachilik, Katta terror, O‘zbek ishi, Paxta ishi, Xalq dushmani.*

Annotation: *This article will talk about perpetuating the memory of our ancestors, studying and promoting their activities and heritage, who selflessly fought for the independence of our motherland, freedom and freedom of our people, ensuring a peaceful and prosperous life of future generations, sacrificed their lives, repressed during the regime.*

Keywords*: Qatagany, ” repression", printing, big terror, Uzbek work, Cotton work, enemy of the people.*

Аннотация: *В данной статье речь пойдет об увековечивании памяти, изучении и пропаганде деятельности и наследия наших предков, которые самоотверженно боролись за независимость нашей Родины, за свободу и свободу нашего народа, за обеспечение мирной и благополучной жизни будущих поколений, отдали свои жизни, были репрессированы в период деспотического режима.*

Ключевые слова: *жестокость, “репрессии”, полиграфия, Большой террор, узбекское дело, Хлопковое дело, враг народа.*

XX asr xalq hayotida azob-uqubatlar, tajovuzlar, bo‘htonlar, fojialar qatorida qahramonlikni buyuk davri ham bo‘ldi. Bu davr mohiyatidan qat’iy nazar tarix mulki bo‘lib qoldi. Bu davr mohiyati xoh salbiy, xoh ijobiy bo‘lmasin o‘sha davr insoniyatiga ta’luqlidir. Shuning uchun ham bu asr voqealarini har birini maxsus, alohida o‘rganishimiz va tahlil qilishimiz lozim. Negaki o‘sha davr tarixi kelajak avlod uchun saboq bo‘lishi kerak. Tariximizning ana shunday armonli sahifalaridan biri bu Sovetlarning O‘zbekistonda yuritgan qatag‘on siyosati va foijali oqibatlari hisoblanadi. O‘sha mudhish Oktyabr to‘ntarilish voqeasidan boshlab to SSSR parchalanib ketguniga qadar siyosiy qatag‘on sovet jamiyatining ajralmas qismi bo‘lib qoldi. Bu voqea ayniqsa yurtimizda 30-40-yillaridagi tariximizda mutlaqo yoritilmagan edi. O‘zbekiston Respublikasinining birinchi prezidenti Islom Karimov hali mustaqillikka erishmasdan avval O‘zbekistondagi siyosiy qatag‘on va uning oqibatlarini ochib berish, begunoh qatag‘on bo‘lgan ajdodlarimizni oqlash choralarini ko‘rish tashabbusi bilan chiqqan edi. Qatag‘on tushunchasi lotinchada “Repressiya” so‘zi bilan ma’no va mazmunan mos kelib u bosim, tazyiq ma’nosini anglatadi. [1. B. 4] Bu so‘zni o‘zbekcha ma’nosi qatag‘on so‘zini ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Repressiya qatag‘on partiya va davlat organlari qo‘llaydigan jazo chorasi hisoblanadi. Qatag‘on bu- mustabid tuzum, mustamlakachi davlat tomonidan xalqqa nisbatan qo‘llanilgan jazolash, ommaviy tarzda zulm o‘tkazish tushunchalarini ham o‘zida jamlagan. Qatag‘on ommaviy jazolash, qiynoqqa solish choralari mustabid davlatning xalqni asoratda, tushkunlikda ushlab turish, qo‘rqitish, bosim o‘tkazish quroli hisoblanadi. Sobiq sovetlar davlarida bu mudhish qatag‘on siyosati va amaliyoti keng va uzoq vaqt davomida qo‘llanilgan. Qatag‘on bu barcha sovet davlatlarini xalqlari qatorida Turkiston, O‘zbekiston xalqi boshiga mislsiz og‘ir kulfatlar yog‘dirgan. Jadidchilik, Turkiston muxtoriyati, “Bosmachilik” deb ataladigan milliy harakatni bostirishda, yer-suv islohotini o‘tkazishda, kollaktivlashtirish davrida qatag‘on siyosati keng qo‘llanildi. Qatag‘onlikning eng yuqori bosqichi 1937-1938-yillarda amalga oshirildi. [1. B. 4] ”Katta terror” kompaniyasi O‘zbekistonda minglab odamlarni qatag‘on qilichidan o‘tkazdi. “O‘nglar”, “Milliy ittihodchilar”, “O‘n sakkizlar”, “Badriddinovchilar”, “Botir gapchilar”, “Qosimovchilar”, “Inog‘omovchilik”ga qarshi kurash olib borish bahonasida O‘zbekistonda aholining turli qatlamlariga, milliy arboblariga, xodimlarga qarshi qatag‘on qo‘llanildi. Aksilinqilobiy tashkilotlar qatog‘on tuzumi buyurtmasi asosida Markaz va uning jazo organlari tomonidan atayin to‘qib chiqarildi va hayotga izchil ravishda tadbiq etildi. Buning orqasidan ming-minglab begunoh insonlar shavqatsiz jazolandi. XX asrning 40-yillarigacha 450 ming vatandoshlarimizga nisbatan “jinoiy ish” ochildi. Faqat 1937-1938-yillarda O‘zbekistonda hammasi bo‘lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olindi. Ulardan 6920 nafari esa otib tashlandi, 37 ming nafari esa turli muddatga qamoq va surgun jazosi qo‘llandi. [2. B. 699] Ziyoli kadrlarni qatag‘on chig‘irig‘idan o‘tkazish, saflarini “yaganalab” turish ular uchun odatiy hol bo‘lib qoldi. Masalan, butun hayoti ijodini millat baxt-saodati, yurt istiqboli uchun bag‘ishlagan Munavvar qori shu davrda avj olgan sovetlar ig‘vosi va bo‘htonining aybsiz qurboni bo‘ldi. Uning rahnamoligida millat ravnaqi va istiqloli yo‘lida faoliyat yuritgan, xalqqa ziyo tarqatib kelgan “Milliy istiqlol” tashkilotining 87 a’zosi ustidan sud uyushtirildi. Ularning 49 nafari “Xalq dushmani”, “burjua millatchisi” degan ayblar bilan qoralandi va og‘ir jazoga hukm qilindi. Respublikada birinchi qatag‘on qurboni respublika Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo‘jayev edi. [3] U 1896-yili Buxoroda savdogar oilasida dunyoga kelgan. Fayzulla Xo‘jayev 1922-1924-yillarda Buxoro respublikasi Mehnat va Mudofaa Sovetining raisi bo‘lgan. 1920-yil 11-sentyabrdan VKP safiga kirgan. So‘ngra Buxoro Komunistik Partiyasi MK tarkibiga ham kiritilgan. 1920-yil oktyabridan

boshlab Buxoro Xalq nozirlar soveti raisi qilib saylangan. 1938-yilning 2-13-martida Moskvadagi Soyuzlar uyining katta zalida Fayzulla Xo‘jayev va bir guruh partiya sovet xodimlari sud qilindi. Ularga sovetlarga qarshi, millatchi degan aybnoma qo‘yildi va otib tashlandi. Keyinchalik Fayzulla Xo‘jayev o‘limidan so‘ng oqlandi. 1937-yilgi qatag‘on Akmal Ikromovni ham chetlab o‘tmadi. U 1898-yil 14-noyabrda Toshkentdagi O‘hchi mahallasida yashovchi Ikrom domla oilasida dunyoga keladi. Ular uyida ochilgan maktablarda bolalarni o‘qitar edilar. Ularga qo‘shilib Akmal Ikromov savodini chiqargan, diniy va dunyoviy darsliklarni kitoblarni o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgan. 1918-yil 18-fevralda Eski shahar tashkiloti Akmal Ikromovni bolsheviklar safiga qabul qiladi. 1926-yilda “Hujum” tadbiri bo‘yicha partiya a’zosi sifatida Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Qarshi, Termiz va boshqa shaharlarda faol xotin-qizlar bilan uchrashdi. [3] 1926-yilda Mehnat Qizil Bayroq, 1935-yil dekabrda Lelin ordeni bilan taqdirlandi. 1937-yil 2-13-mart kunlari Moskvadagi Soyuzlarning katta zalida F. Xo‘jayev, A. Ikromov va boshqalar sud qilinadi va 15-mart kuni shoshilinch ravishda qamoqxonada otib tashlanadi. Toshkentdagi qamoqxonada ushlab turilgan Zelkina[1] ham 1938-yilning 7-oktyabrida otib tashlanadi. 1953-yil iyul Plenum qarorlari asosida tuzilgan maxsus komissiya ishi asosida 1957-yil 31-iyuldagi qaroriga asosan A. Ikromov oqlanadi va partiya safiga qayta tiklandi. Yana bir markaz tomonidan nohaq qoralanganlardan biri bu Sharof Rashidov[2] edi. Sh. Rashidov respublikaga rahbarlik qilgan yillarda qator bunyodkorlik ishlari bilan birga qishloq xo‘jaligi yerlaridan ekstensiv foydalanish oqibatida ekologik vaziyatning buzilishi, paxta yakkahokimligining qaror topishi kabi noxush holatlar ham yuz berdi. Sh. Rashidov vafotidan so‘ng Markaz tomonidan totalitar tuzumning barcha kirdikorlari unga yuklanib, 80-yillar qatog‘onida nohaq qoralandi. O‘zbekiston Mustaqillikka erishgach, Rashidovning nomi oqlandi. Prizident Islom Karimovning tashabbusi bilan Rashidov tavalludining 75 yilligi 1992-yilda nishonlandi. Rashidov Toshkentdagi Xalqlar Do‘stligi saroyi me’moriy majmuasi uchun qurilish g‘oyasining muallifi va ijodiy rahbari sifatida vafotidan so‘ng 1994-yilda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti bilan taqdirlanadi. [4] Sirdaryo viloyatidagi tuman, Toshkent, va Jizzax shaxridagi ko‘chalar, maktablar, mahallarga uning nomi beriladi. Jizzaxda Rashidov haykali va muzeyi bor. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 27-martda “Atoqli davlat arbobi Sharof Rashidovning 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan 2017- yil 6-noyabrda Sharof Rashidov tug‘ilgan kuni Jizzax shahrida tantanali tadbir bo‘lib o‘tadi. Jizzaxdagi tadbirda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib nutq so‘zladi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi ochildi. [5. B. 85] U mustabid sovet rejimi davrida qatag‘on qilingan shahidlar xotirasiga bag‘ishlab o‘rnatilgan bo‘lib, millat fidoyilarining aksariyati shu yerda otib tashlangan edi. O‘zbekiston Respublikasida 2001-yildan boshlab har yili 31-avgust mustaqillik e’lon qilingan kun “Qatag‘on qurbonlarni yod etish” kuni sifatida o‘tkaziladigan bo‘ldi. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida 2002-yil 31-avgustda “Qatag‘on qurbonlarni xotirasi” muzeyi ochildi. [5:86] Muzey Rossiya imperiyasi va sovet hokimyati davrida vatan ozodligi yo‘lidagi faoliyati uchun qatag‘on etilgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil qilingan. Va shuningdek “Shahidlar xotirasi” jamoat

[1] Izoh-zelkina- Akmal Ikromovning turmush o’rtog’i

[2] Izoh-Sharof Rashidov-1917-yil 7-noyabrda Jizzaxda tavallud topgan.195-1959-yillarda O’zbekiston SSR oliy soveti Prezdiumi raisi, 1950-1983-yillarda O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari kabi lavozimlarda ishlagan. 1983-yilda vafot etgan.

fondi tashkil qilindi. [5. B. 86] Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Ishoqhon Ibrat, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ ma’rifatparvar ajdodlarimiz xotirasiga bag‘ishlab muhtasham haykallar, muzeylar bunyod etildi, ijod maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Siyosiy qatag‘on yillarida nohaq qurbon bo‘lgan yurtdoshlarimizning nomlari aniqlash, ular qoldirgan merosni o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy va hujjatli asarlar yaratilmoqda. Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o‘zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag‘on qilingan davlat va san’at, adabiyot nomoyondalarining, oddiy kasb egasi bo‘lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodlarimiz Vatanimiz va xalqimizga muhabbat ruhida tarbiyalash dolzarb masaladir. Bu borada tarixiy ma’lumotlarni xolis va haqqoniy o‘rganish mamlakatimiz mustaqilligi qanday og‘ir va mashaqqatli kurashlar bilan qo‘lga kiritilganini, bugungi erkin, ozod va obod hayotimizni asrab-avaylab, qadrlab yashash kerakligini yana-da chuqur anglashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22. 11. 2017-yidagi 936-son qaroriga muvofiq. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi qatag‘on qurbonlarni xotirasini davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’im muassasalari tuzilmasida qatag‘on qurbonlar xotirasi muzeyini tashkil etish tadbiri to‘g‘risidagi qaror e’lon qilinadi. [6] U 5 ilova va boblardan iborat. 1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining tuzilmasi haqida bo‘lib, bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon viloyati, Buxoro viloyati, Jizzax viloyati, Navoiy viloyati, Namangan viloyati, Samarqand viloyati, Sirdaryo viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati, Farg‘ona viloyati, Xorazm viloyati, Qashqadaryo viloyati hududlarida oliy ta’lim muassasalari tomonidan muzeylar tashkil etildi. 2-ilova “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeylari tashkil etiladigan hududlardagi oliy ta’lim muassasalarining ro‘yxatini o‘z ichiga oladi. 3-ilova Hududlardagi oliy ta’lim muassasalarining tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarining na’munaviy tuzilmasini, 4-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining Ustavi bo‘lib undagi 1-bob Umumiy qoidalar, 2-bob, muzeyning asosiy vazifalari va funksiyalari 3-bob, Muzeyning huquqlari va majburiyatlari 4-bob, muzeyning faoliyatini tashkil etish 5-bob va yakunlovchi qoidadan iborat. 5-ilova Hududlardagi oliy ta’lim muasasasalarining tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarining Na’munaviy Nizomidan iborat .

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlar xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’im muassasalari tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori tasdiqlandi. Hujjat O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi orqali e’lon qilingan. Mazkur qaror bilan fanlar akademiyasining Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlar muzeyi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi qatag‘on qurbonlar xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi tashkil etilmoqda. Muzeyning asosiy vazifasi mustabid tuzum davrida qatag‘on siyosatining sabablari va fojiali oqibatlarini chuqur o‘rganish hamda ularni haqqoniy yoritish maqsadida muzey ekspozitsiyasini tashkil etish hisoblanadi. [7]

Qatag‘on qurbonlar muzeyi ekspozitsiyasini boyitishda Navoiy viloyatining “Do‘stlik bayrog‘i” gazetasida 2 ta (2018-yil 17-aprel №31-son; 4-may №37-son), Qiziltepa tumanining

“Qiziltepa tongi”, Karmana tumanining “Karmana ovozi” (2018-yil 5-may №14 son), Xatirchi tumanining “Xatirchi hayoti”(2018-yil 20-aprel 16), Nurota tumanining “Nurnoma” (2018-yil 20-aprel 11) gazetalarida turkum maqolalar e’lon qilingan. Navoiy viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan NDPI tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi” haqida 2018-yil aprel oyida “Qatag‘on”(13 daqiqa, 2 marta), ”Moziy ko‘zgusi” (23 daqiqa, 2 marta), O‘zbekiston 24 kanalining “Zamon” informatsion ko‘rsatuvida 2018-yil 6-may (20 daqiqa) studiyalarida ko‘rsatuvlar olinib, televideniya orqali har biri ikki martadan namoyish etildi. O‘zbekiston radiosi orqali eshittirish berildi. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabr dagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzurida Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 936-son qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Navoiy davlat pedagogika instituti tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi faoliyatini yo‘lga qo‘yish borasida amalga oshirildi [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2020-yil 8-oktyabrdagi F-5598-son faromoyishida “Qatag‘on qurbonlarning merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” so‘z boradi. [9] Unda Qatag‘on qurbonlarning merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, Qatag‘on qurbonlarning merosini yanada chuqur o‘rganish, ularni xotirasini abadiylashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika ishchi guruhining tarkibi, Qatag‘on qurbonlarning nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish boyicha “YO‘L XARITASI”ni tuzishni tashkil etadi.

25. 09. 2023-yilda 240 nafar qatag‘on qurbonining nomi oqlandi. Oliy sud 5ta jinoyat ishi bo‘yicha 240 nafar qatag‘on qurbonining nomini oqladi. [10] Ular hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida yashagan. Surgun qilinganlar ichida bir necha o‘nlab Qozog‘iston SSR fuqarolari ham bo‘lgan. 24-avgust kuni O‘zbekiston Oliy sudida 240 nafar shaxsga oid 5 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqildi. Bu haqida “Gazeta. uz” muxbir xabar beradi. Uning ta’kidlashicha, Uchlik kengashining maxsus yig‘ilish qarorlariga ko‘ra, 1929-1931-yillarda hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida bosmachilik harakatlari a’zolari bo‘la turib, qurolli to‘da tuzib, sovet hukumatiga qarshi qurolli qo‘zg‘olon yoki aksinqilobiy harakatlarni amalga oshirganlikda bir necha yuzlab O‘zbekiston SSRva Qozog‘istonSSR fuqorolari ayblangan. Sudda bosh prokuror o‘rinbosari tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan jinoyat ishlari yuzasidan Oliy sudning Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga apellatsiya protestini berish muddatini tiklash haqidagi iltimosnomalar hamda apellatsiya tartibida protestlar keltiriladi. Jinoyat ishlari doirasida sudya Nishonmurod Mirzaolimov raisligida o‘tkazillgan ochiq sud majlisida iltimosnoma va protestlar qanoatlantirilgan. Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan jami 5 ta jinoyat ishi bo‘yicha 240 nafar shaxsga nisbatan Oliy sud apellatsiya instansiyasining oqlov hukmi chiqarildi.

2024-yil 6-may kuni Oliy sud jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan 1930-1938-yillarda sud hukmi bilan nohaq jazoga tortilgan 198 nafar shaxsga doir 11 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqildi[11]. Nohaq jazoga tortilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri, Xorazm, Buxoro, Jizzax va Namangan viloyatlari hududlarida aksinqilobiy maqsadlarda harakatlar va qurolli qo‘zg‘alonlar, terrorchilik, banditizm va shpionaj sodir etish, Farg‘ona

viloyati hududida bosmachilik harakatida qatnashish, partiya tashkilotlarida aksishoro faoliyatini amalga oshirish kabi jinoyatlarda ayblangan. Bosh prokuror o‘rinbosari tomonidan 11 ta jinoyat ishi bo‘yicha Oliy sudning jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga kassatsiya tartibida protestlar keltirildi. Ochiq sud majlisida ushbu protestlar ko‘rib chiqilib, qanoatlantirilgan hamda Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan 198 nafar shaxsga nisbatan Oliy sud jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati kassatsiya instansiyasining oqlov hukumlari chiqarilgan.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni takidlash lozimki, Sovet Rossiyasi tomonidan O‘rta Osiyo hududida yuritgan qatag‘on siyosati natijasida minglab insonlar yurt mustaqilligi, farovonligi va kelajak yosh avlodni farovon hayotini ta’minlash uchun fidokorona kurash olib borganligi va mustabid tuzum davrida nohaq qatag‘on qilingan ajdodlarimiz nomini oqlash, ularni xotirasini abadiylashtirish va shu bilan birgalikda biz uchun qoldirgan me’roslarni yanada chuqur o‘rganish juda katta o‘rin egallaydi.

Qatag‘on siyosati O‘rta Osiyo xalqini boshiga mislsiz kulfatlar yog‘dirdi, ularni qiynoqqa solindi, qo’rqitdi, ularni nohaq ayblab bosim o‘tkazildi;

Qatag‘on siyosati Jadidchilik, Turkiston Muxtoriyati, “Bosmachilik” deb nomlangan milliy harakatni bostirishda, yer-suv islohotini o‘tkazishda, kollektivlashtirish davrida qatag‘on siyosati keng qo‘llanildi;

Mustabid tuzum tomonidan “O‘nglar”, “Milliy ittihodchilar”, “O‘n sakkizlar”, “Badriddinovchilar”, “Botir gapchilar”, “Qosimovchilar”, “Inog‘omovchilik” ga qarshi kurash olib borish bahonasida aholining turli qatlamlariga, madaniyat arboblariga qarshi qatag‘on siyosati qo‘llanildi;

Mustaqillik davriga kelib, mamlakatimizda Qatag‘on qurbonlar xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha hamda ularning merosini yanada chuqur o‘rganish borasida amaliy tadbirlar olib borildi;

Bundan tashqari, 2023-yilda 240 nafar qatag‘on qurbonlarning nomi oqlandi; 2024-yilda Oliy sud tomonidan 1930-1938-yillarda sud hukmi bilan nohaq jazoga tortilgan198 nafar shaxsga oid 11 ta jinoiy ish ko‘rib chiqildi va ular Oliy sud hukmiga binoan oqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шамсудинов Р. Катағон қурбонлари. “Шарқ”, 2007. – Б. 4

2. Xujanova L. R. Sovet hokimyatining O‘zbekistonda yuritgan qatag‘on siyosati va uning oqibatlari. // SCIENTIFIC PROGRESS. – Volume 2 , ISsue 6, 2021. – B. 696-701 .

3. Sovet tuzumining qatag‘onliksiyosati va uning o‘zbekistondagi og‘ir oqibatlari. Sovetlar davrida O‘zbekistonning iqtisodiy va ma’naviy qaramligi, uning oqibatlari // https://arxiv.uz/documents/referatlar/tarix/sovet-tuzumining-qatag-onlik-siyosati-va-uning-o-zbekistondagi-og-ir-oqibatlari-sovetlar-davrida-o-zbekistonning-iqtisodiy-va-ma-naviy-qaramligi-uning-oqibtlari [Murojaat qilingan sana: 20. 05. 2024]

4. Sharof Rashidov // https://uz. m. wikipedia. org/wiki/Sharof_Rashidov [Murojaat qilingan sana: 07. 05. 2024]

5. Rajabov Q. , Zamonov A. “O‘zbekiston tarixi” (darslik). – T. : “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2002. – B. 85-86

6 . O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 22. 11. 2017 yildagi 936-sonli qarori. // https://lex. uz/uz/docs/-3422637?ONDATE=10. 06. 2021 [Murojaat qilingan sana: 07. 05. 2024]

7. Andijon davlat universiteti “ Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil etiladi”. // https://adu. uz/uz/news/article91[Murojaat etilgan sana:07. 05. 2024]

8. Navoiy davlat pedagogika instituti “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi. // https://nspi. uz?portfolio=qatagon-qurbonlari-xotirasi-muzeyi [Murojaat qilingan sana: 07. 05. 2024]

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 08. 10. 2020 yildagi F-5598-sonli farmoyishi. // https://lex. uz/ru/docs/-5041012 [Murojaat qilingan sana: 07. 05. 2024]

10. 240 nafar qatog‘onning nomi oqlandi // https://www. gazeta. uz/oz/2023/08/25/repression/ [Murojaat qilingan sana: 16. 05. 2024]

11. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi. // https://m. facebook. com/museumRepression [Murojaat qilingan sana: 07. 05. 2024]

INSON QADRIDA ZAMONAVIYLIK VA TARIXIYLIK

Axmadjanova Muazzam Islomjanovna

Namangan davlat pedagogika institute gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.

Tursunboyev Doniyorbek Toxirjon o`g`li

Pedagogika yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.

Tel: +998 50 713 02 24

E-mail: doniyortursunboyev1724@gmail.com

Annotatsiya: *Maqola O‘zbekiston Respublikasi ma’naviy-huquqiy merosining tarixiy tarixi va o‘zining joriy holati haqida ma’lumotlar beradi. Maqola milliy davlatchilik, huquqiy taraqqiyot, va inson huquqlari mavzulariga e'tibor qaratadi. U o‘zbek xalqining tarixiy rivojlanish jarayonini, milliy identitet va qadriyatlarni, inson qadri va huquqlarining e'tiroflarini o‘rgatib beradi. Maqolada, O‘zbekistonning milliy huquqiy tizimini va inson huquqlarini himoya qilish borasida o‘zining yo‘l harakatlarini va yondoshmalarni ham korsatadi. Bu maqola milliy va jahonaviy huquqiy madaniyat, demokratiya, va inson huquqlari muhitida O‘zbekistonning o‘rni va roli haqida tushuncha beradi.*

Kalit so'zlar*: O'zbekiston, Konstitutsiya, Milliy g'oya, e'tiqod, adolat, urf-odatlar, huquqiy tizim, umuminsoniy tsivilizatsiya, tarix, davlatchilik, turklar, arablar istilosi, Ahamoniylar, Salavkolar, yunonlar, Salavkiylar davlati, Kushana, eftalitlar, turk xoqonligi, arablar hukmronligi, somonidlar, gorxonidlar, Saljuqiylar sultonliklari, Temur, Shayboniylar.*

Аннотация: *В статье представлена историческая история духовно-правового наследия Республики Узбекистан и его современное состояние. В статье основное внимание уделяется темам национальной государственности, правового развития, и прав человека. Он учит процессу исторического развития узбекского народа, национальной идентичности и ценностям, признанию человеческих ценностей и прав. В статье также показаны его действия и подходы к защите национальной правовой системы и прав человека Узбекистана. Данная статья дает представление о месте и роли Узбекистана в национальной и мировой правовой культуре, демократии и правозащитной среде.*

Ключевые слова*: Узбекистан, Конституция, национальная идея, вера, справедливость, традиции, правовая система, общечеловеческая цивилизация права, история, государственность, тюрки, арабские завоевания, Ахемениды, Селевкос, греки, государство Салавкии, Кушана, эфталиты, турецкое каганство, арабское правление, сомониды, горхониды, сельджукийские султанаты, Темур, Шайбаниды.*

Annotation*: The article presents the historical history of the spiritual and legal heritage of the Republic of Uzbekistan and its current state. The article focuses on the topics of national statehood, legal development, and human rights. It teaches the process of historical development of the Uzbek people, national identity and values, recognition of human values and rights. The article also shows his actions and approaches to protecting the national legal system and human rights of Uzbekistan. This article gives an idea of the place and role of Uzbekistan in the national and world legal culture, democracy and human rights environment.*

Key words*: Uzbekistan, Constitution, national idea, faith, justice, traditions, legal system, universal civilization of law, history, statehood, Turks, Arab conquests, Achaemenids, Seleukos, Greeks, state of Salavkia, Kushana, Hephthalites, Turkish Kaganate, Arab rule, Somonids, Gorkhonids, Seljuk Sultanates, Temur, Shaybanids.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurishga azmu qaror qilgan ekan, yuksak huquqiy madaniyat, Konstitutsiya va qonunga hurmat, itoatgo‘ylik, milliy istiqlol mafkurasida, muhim o‘rin egallamoqda. U o‘zida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari-iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, hayo, uyat va andisha, or-nomus, eliga va yurtiga sodiqlik va vatanparvarlik kabi qadriyatlar va g‘oyalarni mujassamlashtirishga qaratilgan. O‘zbek xalqi asrlar mobayinida avaylab saqlab, sayqallab kelgan o‘z milliy urf odatlari, rasm-rusumlari, udum va an’analari, g‘ururi, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, huquqiy ongi va madaniyati, e’tiqodi, bir so‘z bilan aytganda madaniy va ma’naviy dunyosi bilan ajralib turadi. Buyuk allomalarimiz umumbashariyat ma’rifatparvarligini yaratishda bevosita ishtirok etganlar, ular jahon huquqiy sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shganlar. Ularning boy madaniy-huquqiy merosi hozirgi mustaqil huquqiy taraqqiyotimizning mustaqil poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Inson qadri va huquqlari umumbashariy, milliy davlat va huquq tushunchalarini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘zbekiston o‘zining boy va ko‘p ming yillik ma’naviy-huquqiy merosiga asoslanib inson qadri va huquqlarining umuminsoniy qadriyatlari va hamma e’tirof etgan xalqaro huquq talablarini ta’minlash borasida muntazam ish olib bormoqda.

Inson qadri va huquqlari aniq tarixiy va milliy o‘ziga xos sharoitda tabiiy ravishda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham o‘zbek ma’naviy-huquqiy merosining ildizlarini chuqur bilish va idrok etish, O‘zbekistonda inson huquqlarini o‘ziga xos tushunishni va holatini talqin qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston inson qadri va huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish borasida butun dunyoda ish boshlagan va ish olib borayotgan barcha kishilarni va barcha davlatlarni e’zozlaydi. O‘zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatining teng huquqlari a’zosi sifatida ma’rifatparvar demokratik adolatli davlat bo‘lishga harakat qiladi, inson huquqlarini himoya qilishga va mustahkamlashga qat’iy kafolat beradi.

O‘zbek ma’naviy-huquqiy merosining ildizlari qanday?

Bizning ko‘hna zaminimizda davlatchilik va inson huquqlari o‘zining chuqur ildizlariga ega bo‘lib, qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. O‘zbek milliy davlatchiligi va huquqi paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi tarixiy solnomasi quyidagicha.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda hozirgi Markaziy Osiyo hududida yigirmaga yaqin qabilalar bo‘lib, ular bir necha qabilalar ittifoqiga birlashgan edi. Bular orasida bir necha qabilalarni birlashtiruvchi massagetlar alohida mavqei bilan boshqalardan ajralib turgan. Turkiy xalqlar jumladan o‘zbek xalqining chuqur ildizlari ana shu massagetlarga borib taqaladi.

Eramizdan avvalgi XV-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududining asosiy qismi Ossuriya davlati tarkibida bo‘lgan, shu bilan birga bu davrda mustaqil Xorazm davlati ham mavjud edi. Eramizdan avvalgi VI asrning o‘rtalarida Markaziy Osiyoda Ahmoniy podshohlarning hukmronligi o‘rnatilgan. Eramizdan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida Xorazmliklar, keyinchalik sak qabilalari mustaqillikka erishgan. Eramizdan avvalgi IV asrning oxirgi choragida Xorazm davlatidan tashqari butun Markaziy Osiyo makedoniyaliklar tomonidan bosib olingan. Iskandar Zulqarnayn vafotidan so‘ng Markaziy Osiyo hududi Salavkiylar davlati tarkibiga kiritilgan. Eramizdan avvalgi III asr o‘rtalariga kelib Grekbaqtriya podsholigi tashkil topib, uning tarkibiga Baqtriya, Marg‘iyona va Parkana (Farg‘ona) kirgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo hududida Xorazm davlati bilan chegaradosh bo‘lgan Toxariston davlati tashkil topgan. Ko‘p o‘tmay u kichik-kichik davlatlarga bo‘linib ketgan. Eramizning I-IV asrlarida Markaziy Osiyo hududi Kushon podsholigi tarkibida bo‘lgan. IV asrning oxirgi choragida Markaziy Osiyoda kichik-kichik davlatlar tashkil topgan.

V asrning o‘rtalarida Markaziy Osiyo Eftalitlar tomonidan bosib olingan. VI asrning oxirgi choragida arablar bosib olgunga qadar Markaziy Osiyo G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan. VIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda arablar hukmronligi o‘rnatilgan. Arablar o‘lkamizni Movarounnaxr deb ataganlar. IX asr oxiri X asr boshlaridan ikkinchi yarmigacha O‘zbekiston hududida Somoniylar, X asrning ikkinchi yarmidan Qoraxoniylar, XI asr boshlaridan Saljuqiylar saltanatlari mavjud bo‘lgan. XII asrning o‘rtalarida Movarounnaxrni qoraxitoylar o‘ziga bo‘ysundirgan. XII asrda Xorazm yana mustaqillikka erishgan. XIII asr boshlaridan XIV asrning 60 yillari o‘rtalarigacha Movarounnaxrda mo‘g‘ullar, XV asr oxirlarigacha Amir Temur va temuriylar, XVI asrdan Shayboniylar hukmronlik qilgan. XVI asr oxirida O‘zbekiston hududida Buxoro, Xiva, XVIII asr boshlarida Qo‘qon xonligi tashkil topgan.

Markaziy Osiyo XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olingan. Qo‘qon xonligi tugatilgan. Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilingan. Buxoro va Xiva xonliklari ustidan Rossiya protektorati o‘rnatilgan. Hududimiz Turkiston o‘lkasi deb atala boshlangan.

1917 yilda Qizil imperiya hukmronligi o‘rnatilib, O‘zbek Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganidan boshlab O‘rta Osiyo iborasi qo‘llanila boshlandi.

1991 yil 31 avgustda O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan.

Demak, bizning yosh mustaqil o‘zbek davlatimiz o‘zida ko‘hna So‘g‘diyona va Xorazmdan boshlab Somoniylar, Xorazmshoxlar, Amir Temur va Temuriylar davlatlarining davlat boshqaruv yutuqlarini, xalqimizning butun davlat huquqiy tarixi tajribasini hamda uning o‘z milliy davlatiga va huquqiga ega bo‘lish kabi asriy orzularini mujassamlashtirgan. Ya’ni hozirgi o‘zbek davlati umumjahon va milliy davlatchilik va huquqiy taraqqiyot qonuniyatlarini o‘zida uzviy ravishda uyg‘unlashtiradi. O‘zbek davlati va huquqi o‘zining salkam uch ming yillik tarixiga ega.

O‘zbekiston Ovrupa va Osiyo ma’rifatparvarlar dunyosini, sivilizatsiyalarini birlashtiruvchi buyuk xalqaro yo‘llar kesishgan zaminda joylashgan. Ma’rifatparvarchilik davridagi ma’naviyatimiz shakllana boshlanganiga kamida 2, 5 ming yil bo‘lgan.

Yigirma asrdan ko‘proq davrlardan beri Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda bizning avlod - ajdodlarimiz bilan birga yahudiylar ham yashagan va yashab kelmoqda. X asrdan XV asrgacha Movarounnaxr shaharlarida talaygina nosarolar ham yashagan, boz ustiga mug‘ul hukmdorlari islom dinini qabul qilgunga qadar ommaviy ravishda ularga homiylik qilganlar.

XX asr oxirlaridan e’tiboran Turkiston xalqlari orasiga ruslar va rus madaniyatidagi kishilar qo‘shildi. Ularning hammasi aniq tarixiy va milliy o‘ziga xoslik sharoitida milliy davlatchilikni va huquqiy tizimning tabiiy bo‘lishi va rivojlanishi guvohidir.

O‘lkamizning mug‘ullargacha bo‘lgan va Temuriylar davridagi nomi-Movarounnaxr uyg‘onishi haqida alohida to‘xtalib o‘tish darkor. Islom sivilizatsiyasi xalqimizning dunyoqarashini to‘ldirdi va boyitdi, bu xalq jahonga taniqli va umumbashariyat tomonidan tan olingan buyuk mutafakkirlarni yetkazib berdi. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining butun asosi bo‘lmish milliy davlatchiligi, huquqiy tizimini qayta yaratmoqda. Xalqimizning ma’naviyati kamol topmoqda, inson qadri oshmoqda.

Inson huquqlari aniq tarixiy va milliy o‘ziga xos sharoitda tabiiy ravishda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham o‘zbek ma’naviy-huquqiy merosining ildizlarini chuqur bilish va idrok etish, O‘zbekistonda inson huquqlarini o‘ziga xos tushunishni va holatini talqin qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Inson baxti va kelajagining asosi mehnatda ekanligini ta’kidlab, agar inson taqdirga ishonib ishlamasa, u yanglishadi, bunday odam aqlsizdir, deydi. Shu bilan birga u odam o‘z g‘ayrati va harakati bilan maqsadiga erisha oladi, deb aytgan edi. Agar inson o‘z hayoti uchun zarur bo‘lgan narsalarni topishga yalqovlik qilsa, taqdirda menga kerakli narsalar, jumladan, uy-joy, kiyim-kechak va oziq-ovqat yozilgan bo‘lsa, men mehnat qilmasam ham, o‘z-o‘zidan davlat kelaveradi, degan fikrda bo‘lsa, “bunday odam o‘z yo‘lini bilmagan dunyodagi eng tuban darajadagi ahmoqlardan hisoblanadi”, chunki tiriklik uchun zarur bo‘lgan bu narsalarni topish o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqmaydi. Buning uchun, avval, uning sabablarini aniqlash zarurdir.

ZAMONAVIY ILM FAN RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY FANLARNING AHAMIYATI

Madaminova Sevinch Kamoliddin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti,
Kimyo yo‘nalish talabasi
madaminovasevinch411@gmail. com
+998991910905
Ilmiy rahbar: Namangan davlat pedagogika instituti,
Gumanitar fanlar kafedrasi, stajyor-o‘qituvchisi
Ja’farov Ibrohim

Annotatsiya: *ushbu maqolada hozirgi davrda ijtimoiy fanlarning rivojlanishdagi ahamyati, yutuqlari, kamchiliklari, o’rni, ijtimoiy fanlar tarixdan qanday rivojlanib kelganligi, qanday sohalari mavjudligi asnosida bayon qilinadi. Ijtimoiy fanlarning hozirgi zamonda qaysi sohalarida jadal rivoj topayotganligi va qanday muammolarga duch kelayotganligi, ular qanday bartaraf etilayotgani shuningdek qaysi sohalariga katta e’tibor berilayotganligi haqida fikr mulohazalar kiritamiz va xulosalarimizni bayon etamiz.*

Kalit so’zlar: *Ijtimoiy fan sohalari, huquq, psixalogiya, iqtisodiyot, tilshunoslik, madaniyat, arxeologiya, siyosat, yutuqlari, kamchiliklari, rivoj, muammolar, xulosa.*

Abstract: *this article describes the significance, achievements, shortcomings, role of social sciences in the current period, how social sciences have developed from history, and what areas exist. We will present our opinions on which areas of social sciences are rapidly developing and*

what problems they are facing, how they are being solved, and which areas are receiving great attention, and we will state our conclusions.

Key words: *Social science fields, law, psychology, economy, linguistics, culture, archeology, politics, achievements, shortcomings, development, problems, conclusion.*

Аннотация: *в данной статье описывается значение, достижения, недостатки, роль социальных наук в современный период, как развивались социальные науки из истории и какие направления существуют. Мы изложим свое мнение о том, какие направления социальных наук бурно развиваются, с какими проблемами они сталкиваются, как решаются и каким направлениям уделяется большое внимание, и изложим свои выводы.*

Ключевые слова: *Области социальных наук, право, психология, экономика, лингвистика, культура, археология, политика, достижения, недостатки, развитие, проблемы, вывод.*

Ijtimoiy fanlarning kelib chiqish tarixiga e’tibor qiladigan bo’lsak bu uzoq yillar ilgariga boqib taqaladi. Inson yaratilibdiki hayoti yaxshi bo’lishi uchun o’ziga qulayliklar yaratib hayot kechiradi. Bizga tarixdan ma’lumki ibtidoiy davrda odamlari har tarflama qoloq ongsiz huddiki hayvonlardek hayot kechirgan, asta sekinlik bilan o’z hayotini yaxshilash uchun o’zi kabi boshqa odamlar bilan yashash uchun muloqot o’rnatishga harakat qilgan u davrda odamlar so’zlashishni bilishmagan avvaliga har xil ovozlar bilan muloqot o’rnatishgan bora bora yillar o’tib gapirishni boshlashgan, shu tariqa ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining boshlang’ich sabablari vujudga kelgan. Odamlar har qaysi davlatda har xil tilda so’zlashishlarini sababi odamlar ibtidoiy davrda bir joyda yashashmagan va muloqot o’rnatish shakli turli xil bo’lgan, va ijtimoiy fanlarning yana bir sohasi tilshunoslik kelib chiqishiga sababchi bo’lgan.

Ijtimoiy soha har qaysi davrda har qaysi davlatda xullas har yerda mavjud.

“IJTIMOIY FANLAR – jamiyat va odam hulqi bilan bog’liq fanlar majmui. Ular qatoriga quyidagi fanlar kiradi:

1. Huquqshunoslika
2. Psixologiya
3. Iqtisodiyot
4. Tilshunoslik
5. Arxeologiya
6. Siyosat
7. Tarix
8. Antropologiya[1]

1. HUQUQSHUNOSLIK-(yurisprudensiya)-huquqiy ijtimoiy normalarning alohida tizimi sifatida, huquqning asosiy tarmoqlarini, davlat va huquq tarixini, davlat va umumiy tizimning faoliyatini o’rganuvchi fan. Huquqshunoslik –eng qadimgi ijtimoiy fanlardan hisoblanadi.

2. PSIXOLOGIYA-inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi , ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to’g’risidagi fan.

3. IQTISODIYOT-bu ishlab chiqarish, taqsimlash va savdo, shuningdek, tovarlar va xizmatlarni iste’mol qilish sohasini o’rganadigan soha.

4. TILSHUNOSLIK yoki LINGVISTIKA – tillarni o’rganuvchi fandir

5. ARXEOLOGIYA-Qadimshunoslik- qadimgi moddiy madaniyat yodgorlilariga asoslanib kishilik jamiyati o’tmishini o’rganuvchi fan.

6. SIYOSAT-bu qarorlar qabul qilish va yaxshi natijalarga erishish maqsadida ishlab chiqilgan ko’rsatmalar majmuidir.

7. TARIX- (arabcha: o’tmish, davr, vaqt, era, sana)- o’tmish voqealar haqida axborot yig’ish tartiblash va namoyish etish bilan shug’ullanuvchi fan.

8. ANTROPOLOGIYA-(antropo va. . . logiknow)-odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamning irqlarining paydo bo’lishi, odamning tuzilishidagi normal farq-tafovut, o’zgaruvchanlik haqidagi fan.

Bular ijtimoiy fanlarning asosiy sohalari hisoblanadi.

Ijtimoiy fanlarning yutuqlari bu davlat yutuqlari demakdir, bu soha rivojlanar ekan jamiyat ham o'z o'rnida rivojlanadi. Shunday ekan ijtimoiy soha vakillari yelkasida katta mas'uliyat borligini his qilgan holda yo'nalishlariga astoydiy e'tibor qaratadilar.

Mamlakatimizda ijtimoiy fanlarni rivojlanishi uchun o'zi hissalarini qo'shgan kadrlar kam emas, ular mas'uliyatni o'z qo'llariga olgan holda o'zgarishlar olib kirmoqdalar.

Har sohada kamchiliklar bo'lganidek ijtimoiy sohada ham kamchilik yo'q emas uning eng global muammosi faqatgina bizning yurtimizda emas butun dunyo miqyosda ketmoqda, internet jurnalistikasi yangi sohasi blogerlik - bu bir tomondan ijobiy bo'lsa bir tomondan salbiy ta'sir o'tkazmoqda odamlarga, ijobiy taraflari shundaki ong salohiyati joyida bo'lgan saviyali kishilar internet tarmog'ida odamlar uchun foydali va kerakli bo'lgan materiallarni o'z bloglariga joylamoqdalar va o'z ustilarida ishlamoqdalar bu yaxshi lekin uning salbiy tomoni har qanday internet tarmog'idan foydalanadigan odam ham o'z bloglarini tashkil eta olishidir u kattami kichkinami yoki ong jihatdan saviyasi past odammi tarmoq buni inobatga ololmaydi hamma bu huquqdan foydalana oladi bu esa har xil keraksiz odob axloqga to'g'ri kelmaydigan materiallar ijtimoiy tarmoqlarda aylana oladi degani va bu ommalshib bormoqda borgan sari, odamlar vaqtini shu keraksiz ko'ngilni hushlatuvchi materiallarni ko'p ko'rmoqdalar vaholangki qimmatli vaqtini bekorga o'tkazmoqdalar ayniqsa Instagram, Facebook, YouTube da bunday holatlar juda ko'p uchramoqda, bunday yomon holatlarni oldini olish borasida mening fikrim shundan iboratki ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchi shaxslar o'z bloglarini yaratishi uchun litsenziya olishlari shundan keyingina o'z faoliyatlarini olib borishiga ruxsat berilishi kerak deb o'ylayman.

Xulosa qilib ayta olamanki, ijtimoiy soha bu inson hayotida muhim ahamyatga egadir, uning har bir yo'nalishi har bir kichik detallari mamalakat rivoji uchun suv va havodek zarurdir shunday ekan bu soha vakillariga ulkan zafarlar va omad tilab qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T. : “O‘zbekiston”, 2020. – 40 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29. 04. 2019 y. , 06/19/5712/3034-son).

4. https://www. wikiwand. com/uz/Ijtimoiy_fanlar

5. https://tsuull. uz/uz/content/ijtimoiy-gumanitar-fanlar-kafedrasi-yutuqlari

6. http://www. ziyonet. uz/

7. http://www. istedod. uz/

ANTISTSIENTIZM FALSAFASIDA GUMANIZM G‘OYALARI

Ja’farov Ibrohimjon Xolmuhammad o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti, Gumanitar fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi,
E – mail: ibrohimjafarov@gmail. com
Tel : +998-90-740-94-94

Annotatsiya: *ushbu maqolada insonparvarlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlayotgan falsafiy qarashlardan biri - antistsientizmning hozirgi gumanizmga qaratilgan muhim nazariyalari to‘g‘risida muloxaza yuritilgan. Fan taraqqiyotidagi muammolar atroflicha yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *insonparvarlik, antigumanizm, qurollanish poygasi, globallashuv, kasalliklar, genotsidlar, fitna nazariyalari, ekologik inqiroz.*

Abstract: *this article discusses the important theories of anti-scientism, one of the philosophical views that support the ideas of humanism, aimed at modern humanism. Problems in the development of science are covered in detail.*

Key words: *humanitarianism, antihumanism, arms race, globalization, diseases, genocides, conspiracy theories, ecological crisis.*

Аннотация: *в данной статье рассматриваются важные теории антисциентизма, одного из философских взглядов, поддерживающих идеи гуманизма, направленного на современный гуманизм. Подробно освещены проблемы развития науки.*

Ключевые слова: *гуманизм, антигуманизм, гонка вооружений, глобализация, болезни, геноциды, теории заговора, экологический кризис.*

Kirish

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab 8 milliarddan ziyod insonlar turli yashash sharoitlarida va hududlarda istiqomad qilmoqdalar. Til, madaniyat, milliylik, irq, jins kabi ularni ajratib turuvchi tafovutlar mavjud bo‘lsada ularni insoniy xususiyat hisoblangan mushtarak jihatlari, umuminsoniy qadriyatlari birlashtirib turadi. Inson doimo o‘z hayotini bilimlarni takomillashtirib kelgan bo‘lsada bugun ushbu ilmiy rivojlanishlar uning o‘ziga foydagina emas, zarar ham keltira boshladi. Bunga qarshi tegishli choralarni ishlab chiqishni yoqlovchi ba’zi gumanistlar antistsientizm falsafasida uchraydi.

Tahlillar va natijalar.

Falsafa taraqqiyotida nisbatan yangi davr yo‘nalishlaridan biri - antistsientizmning paydo bo‘lishi bilan insonga va uning kelajagi borasidagi nazariyalari baxsli bo‘lib qolmoqda. Antistsientizm ilm-fan taraqqiyotining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat hayotini xavf ostiga qo‘ymaslik talabi bilan bog‘liqdir. [1] Ushbu nazariya ilm-fanning ayrim jabhalardagi taraqqiyotida cheklovlar kiritilishini qo‘llab quvvatlaydi va buning istiqbolini bir necha jiddiy nutayi nazarlarni ilgari surish bilan ko‘rsatadi.

Avvalambor, global miqyosda ilmiy yangiliklardan ommaviy qirg‘in qurollari ixtiro qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni cheklash va bu soxada tadqiqot olib boruvchi olimlar va ushbu ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlayotgan mutasaddilarni xalqaro miqyosdagi qonunchilik bilan jazolashning zarurligini e’tirof etadi. Bugungi kunda davlatlar manfaatlari raqobatida keskinlashuv shu darajaga yetmoqdaki, urush maqasadida davlatlar butun dunyoga havf tug‘diruvchi bunday qurollardan havfsirab yashamoqda.

Bugungi kunda Yer yuzida mustahkam tinchlikning o‘rnatilishi, yangi qirg‘inbarot urushlarning ro‘y bermasligi uchun barcha davlatlar (birinchi navbatda, buyuk davlatlar) hamda jahon jamoatchiligi mas’uldir. [2] Sobiq Ittifoq merosxo‘ri bo‘lmish Rosiya Federatsiyasi va AQSH davlati o‘rtasida bo‘layotgan qurollanish poygasi jahon davlatlarini hozirgacha tashvishga solib kelmoqda. Yana bir havfli jihati hozirgi davrda ishlab chiqarilgan bunday qurollar yovuz kuchlar nazoratiga o‘tishi ehtimoli insoniyatni jiddiy o‘ylantirishi lozim. Bunday qirg‘in qurollarining amaliyotda qo‘llanish oqibatlarini hatto hisobga olib bo‘lmaydi. Ana shunday qurollarning ba’zilari bosqichma-bosqich insonlarda sinab ko‘rilayotgani bugun gumanistlarni o‘ylantirib qo‘ymoqda.

Ikkinchidan, insonlar ustida bajarilayotgan bir qator havfli ilmiy tajribalar tadqiqotlarining zararli oqibatlari misolida ko‘rilsa, odamlarning hilqatini o‘zgartirish va yangi kasalliklarni yaratish maqsadida vayronkor g‘oya qatnashchilari tomonidan qilinayotgan harakatlar ma’lum bo‘ladi. Dunyo ilm-fanining manzarasi haddan tashqari o‘zgardi. [3] Insonlarning qanchalik darajada bunday choralar oldida ojizlanib qolishi mumkinligini yaqin davrlarda paydo bo‘lgan “Ebola”, “Cho‘chqa gripi”, “Koronavirus” singari kasalliklar misolida kuzatdi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarning keltirib chiqarayotgan zararlari har doim ham qasddan qilinmasada, zamonaviy davrda bunday holatlar ko‘paymoqda. Ba’zi ilmiy yangiliklar natijasida yuzaga kelgan kasalliklar va muammolar bunga misol bo‘la oladi.

Uchinchidan, insonlar o‘z yashash muhitlarini qulaylashtirish va o‘zlariga moslashtirish yo‘lida zamonaviylashuvni rag‘batlantirish orqali ekologik falokatning kelib chiqishini ham muqarrar qilib qo‘ymoqdalar. Korxona va zavodlardan hamda transport vositalarining chiqarayotgan zararli chiqindilari natijasida qimmatli tabiiy resurslarga borgan sari salbiy ta’sir oshib bormoqda. Jumladan, Ukraina hududida bo‘lgan Chernobil elektrostansiyasi fojeasi daxshatlari haligacha asoratlarini butunlay yo‘qotgani yo‘q. Suv, havo, tuproq, tabiatning so‘nggi bir necha asrda qanchalik dunyo bo‘ylab zamonaviylashuv natijasida kamayayotgani yoki xususiyatlarida o‘zgarishlar uchrayotgani insoniyatning kelajakdagi yashash istiqbolini hatarga qo‘yadi va natijada insonlar o‘rtasida qarama-qarshilikni oshiradi.

Atrof-muhitni ifloslanishidan saqlash, aholini ichimlik suvi, ekologik toza oziq maxsulotlari bilan ta’minlash, biologik hilmahillikni asrash, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish dolzarb muammolar hisoblanadi va ularni ijobiy hal qilish insoniyatning kelgusi taraqqiyotini belgilaydi. [4] Bu muammolarning oldini olish uchun tadqiqotlarning ushbu yo‘nalishlarida qilinayotgan izlanishlarni ekologik sof energiya resurslaridan foydalanishga va zarali korxonalarning faoliyatlariga muayyan cheklovlar kiritilishi lozim.

To‘rtinchidan, antistsientizmning e’tibor qaratayotgan masalalaridan yana biri hayotning turli sohalarida robot texnologiyalarining ko‘payib borayotgani bo‘ldi. Xizmat ko‘rsatish-u qurilishdan tortib pedagogikgacha bo‘lgan keng tarmoqlarda robotlar inson hodimlar o‘rnini egallamoqda. Ta’limda robotlar - bu ta’lim sohasida to‘liq tatbiq etilmagan, ammo dunyoning aksariyat qismlarida hali tajriba bosqichida bo‘lgan g‘oya. [5] Koreya, Hindiston Xitoy kabi davlatlarda ta’limni robotlashtirish qisman qo‘llanmoqda. Rivojlangan davlatlarda avj olib borayotgan bu jarayonda insonlarga nisabatan munosabat qanday bo‘lishi kerakligi haqida munozarali holat yuzaga kelmoqda. Ayrim sohalarda insonlar o‘rnini robotlar egallab ham ulgurgani ishsizlikka ayrim insonlarning qo‘lida ulkan moddiy resurslarning to‘planib, qolganlarida esa inqirozga olib kelishi mumkinligi o‘ylantirmoqda.

Beshinchidan, dunyo aholisi ko‘payib borar ekan insonlarga qarshi antigumanistik qarashlar ilgari surilmoqda. Ijtimoiy nazariya va falsafada antigumanizm an’anaviy insonparvarlik, insoniyat va inson holati haqidagi an’anaviy g‘oyalarni tanqid qiluvchi nazariyadir. [6] Gumanitar fanlarning insonni anglash va uning bunyodkorlik qarashlarini yuzaga chiqarishishga urinuvchi sog‘lom dunyoqarash egalari bilan birga insonlarning sonini va dunyo hayotidagi mavqeyini past sanovchi bir qator insonlar ham sabab bo‘lmoqda.

Bunda antigumanist nazariyachilar bir qator sabablarni ilgari suradilar:

- hayot uchun zarur ne’matlar kamayib bormoqda;
- insonlarning ma’lum bir qismi butunlay qirib yuborilishi dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlaydi;
- insonlarning faqatgina jamiyat uchun foyda berishga qodir bo‘lgan qismigina yashashga haqli;
- boshqa mavjudotlarga nisbatan dominant tarzda munosabat bildirib kelayotgan inson endi o‘z turiga qarshi kurash boshlashi tabiiy jarayon.

Xolisona aytganda bunday jirkanch qarashlarga insonlarning juda oz qismigina ergashadilar. Biroq vayronkor g‘oyalarni qo‘llab quvvatlovchi va ma’naviy qiyofasini yo‘qotgan insonlar ham uchrab turibdi.

Oltinchidan, bugungi kunda sun’iy intellekt natijasida insonlarga manfaatli bo‘la oluvchi ilmiy yangiliklar paydo bo‘lgani barobarida sun’iy intellektni rivojlantirish natijasida insonlar ongi va ruhiy xususiyatlariga ta’sir o‘tkaza olish imkonining paydo bo‘layotgani kabi neytral xususiyatlar falsafada gnoseologiya borasida jiddiy burilishlarga sabab bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt inson nazoratidan chiqib ketishi va unda tashabbuskorlik qobiliyatlarining yo‘qolishiga sabab bo‘lishini hisobga olib ham antistsientizm vakillari ba’zi sohalarga sun’iy intellektning kirib kelishini to‘xtatishni yoqlaydilar.

Xulosa

Falsafadagi yangi qarashlardan biri bo‘lgan antistsientizm to‘laqonli o‘zini oqlaydigan qarash bo‘la olmaydi. Biroq gumanizmning taraqqiyotida va oqilona qo‘llanadigan ayrim o‘rinlarda dolzarb masalalarni ko‘rib chiqadi. Insonlarga bo‘layotgan ilm fan taraqqiyoti natijasidagi ta’sirlarni o‘rganib kerakli xulosalarni beradi. Bundan kelib chiqadiki, ba’zi sohalarda ilm-fan taraqqiyotida erishilayotgan yutuqlarni jilovlash va insoniyatga zararlarining oldini oluvchi tizginga soluvchi ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Falsafa asoslari: o‘quv qo‘llanma / Q. Nazarov [va boshq.]. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - B. 81

2. Jahon tarixi: Akad. litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ M. Lafasov; Mas’ul muharrir E. Z. Nuriddinov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. — T. : «Turon-Iqbol», 2010. - B. 140

3. Абдураззақова М. А XX аср иккинчи ярми жаҳон тарихи; Маърузалар тўплами. - Т. : "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2000. - б. 262

4. Tursunov X. . T. , Raximova T. U. Ekologiya. /O’quv qo’llanma /Toshkent:”NIF MSH”, 2020. - B. 150

5. https://proshare. c o/articles/advantages-and-disadvantages-of-robot-teachers?menu=Finance&classification=Read&category=Education%20Knowledge

6. J. Childers/G. Hentzi eds. , The Columbia Dictionary of Modern Literary and Cultural Criticism (1995) p. 140-1

SOVET ITTIFOQI PARCHALANISHI NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAFKURAVIY BO‘SHLIQ

B. B. Ibraximov
NamDPI katta o’qituvchisi
A. Jo‘rayev
NamDPI katta talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asr oxirlarida Sovet ittifoqining parchalanishi natijasida mafkuraviy bo‘shliqning vujudga kelishi, xalqga diniy erkinlik berilishi va buning oqibatida din, milliy g‘oya, milliy mafkura haqida tushunchasi bo‘lmagan xalqning ba’zi bir yovuz niyyatli kimsalarning mafkuraviy tuzog‘iga tushishi xaqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Suvernitet, milliy g‘oya, mafkura, din, xalifalik, demokratiya*

Abstract: *This article will focus on the emergence of an ideological vacuum as a result of the collapse of the Soviet Union at the end of the 20th century, the granting of freedom of religion to the people and, as a result, falling into an ideological trap of some malicious intent of the people who have no idea about religion, national idea, national ideology.*

Key words: *Sovereignty, national idea, ideology, religion, caliphate, democracy*

Аннотация*: В данной статье речь пойдет о возникновении идеологического вакуума в результате распада Советского Союза в конце XX века, о предоставлении народу свободы вероисповедания и, как следствие, о попадании в идеологическую ловушку некоего злого умысла народа, не имеющего понятия о религии, национальной идее, национальной идеологии.*

Ключевые слова: *Суверенитет, национальная идея, идеология, религия, халифат, демократия*

Kirish

Sovet Ittifoqi tobora zaiflashib borayotgan bir paytda, Gorbachyov [11] 1986-yil Qayta qurish rejasni e’lon qilishi ittifoqning parchalanishini yanada tezlashtirib yubordi. Ittifoqdan birinchi bo‘lib, 1989-yil kuzda Gruziya aholisining ko‘pchiligi uning mustaqilligini tiklash uchun ovoz berdi va 1991-yil apreldagi referendumdan so‘ng mamlakat mustaqil deb e’lon qilindi, Moldaviya respublikasi 1989-yilda o‘zining suverenitetini, 1990-yilda mustaqilligini e’lon qildi. 1990-yil bahorida Litva va Latviya o‘z suverenitet va mustaqalliklarini tiklab olishdi. 1990- yil yozida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, O‘zbekiston va Turkmanistonning suverenitetlari e’lon qilindi. 1990-yil oktyabrda Qozog‘iston, dekabrida Qirg‘iziston o‘z suverenitetlarini e’lon qildilar. 1990- yilda ittifoqdosh respublikalardan tashqari Tog‘li Qorabog‘, Abxaziya, Janubiy Osetiya, Gagauzlar respublikasi o‘z suverenitetini e’lon qildi[4].

SSSR qariyb 70 yil davomida Leninning “Din afyun”dir degan mafkurasiga amal qilib keldi. Sovet ittifoqi davlatlarining ko‘pi avval islomiy davlat bo‘lgan. Oradagi 70 yil davomida ular dinsiz bilan yashadi. Endi ularda o‘zlarining dinlariga amal qilish va milliy mafkura yaratish imkoniyati vujudga keldi[7]. Xususan vatanimiz O‘zbekistonda xam islom diniga erkinlik berildi. Ammo bu salbiy oqibatlarga olib keldi. Chunki din borasida tushunchasi bo`lmagan insonlarda turli-xil fikrlar vujudga keldi, dinga unday amal qilish kerak, bunday amal qilish kerak va hokazolar. Bularning barchasi mafkuraviy bo‘shliqdan dalolat beradi. Terroristlar esa bundan

foydalanib qoldi. Ulardan biri mustaqillik yillarida O‘zbekistonni islomiy davlat ya’ni xalifalik qilishga urungan Tohir Yo‘ldosh va Juma Namongoniy edi. 1992-yil Tohir Yo‘ldosh Namanganda miting o‘tkazadi va birinchi prezident Islom Karimov bilan shu yerda uchrashib O‘zbekistonni islomiy davlat qilishini so‘raydi. 1999-yil fevralda Toshkentda ham islomiy davlat qurishga urinish bo‘ldi. Bunday harakatlar 2000-yil avgust oyida Sariosiyada ham bo‘lib o‘tdi. Keyinroq xuddi shunday xolat, aniq sanalar bilan aytganda 2005-yil may oyida Andijonda ro‘y berdi. Bu safar Akrom Yo‘lashev boshchiligidagi Akromiylar O‘zbekistonni xalifalikka aylantirishga urinadi

O‘zbekiston musulmonlari bu oqimni islomga yod oqim deb baholadi. Oqim xalqning keskin qarshiligiga uchradi va faoliyati barham topdi.

Bundan ko‘rinib turibtiki mustaqillik yillarida xalqimizning mafkurasi sustligidan foydalanib ularni turli yo‘llar bilan aldab o‘zlarining g‘oyalariga ishontirgan Tohir Yo‘ldosh, Juma Namonganiy, Akrom Yo‘ldashev kabi kishilar yurtimizda demokratik tuzimni ag‘darib islomiy davlat ya’ni xalifalik tuzishga urinadi. Ammo ularning barcha urinishlari zoye ketadi. Ularning maqsadlari nega amalga oshmadi?.

Buning 2 ta sababi bor

Birinchisi: Payg‘ambarimiz Muhammad (S. A. V) shunday deganlar: Safina roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam “Mendan so‘ng xalifalik o‘ttiz yildir. Undan keyin podshohliklar bo‘ladi”, deb aytganlar. Darhaqiqat Payg‘ambarimiz(S. A. V)ning bu gaplarini tarix isbotladi. Ulardan keyin 4 ta xalifa 30 yil davomida xalifalikni boshqargan. Bular **Abu Bakr Siddiq** xalifaligi ikki yil (632-634), Hazrati **Umarning** xalifaligi o‘n yil (634-644), Hazrati **Usmon** roziyallohu anhuning xalifaligi o‘n ikki yil (644-656) va Hazrati **Ali** roziyallohu anhuning xalifaligi olti yil (656-661) davom etdi, dedi. Ulardan keyin kelganlar xam o‘zlaini xalifa deb e’lon qildilar ammo ular xalifa, davlatlari xalifalik emas, balki, Ummaviy sultonlar va Ummaviylar davlati edi.

Endi xalifalik va podshohlik orasidagi farqni tushunib olaylik.

Xalifalik [5]– din manfaatlari asosida fuqarolar manfaatini himoya qilishdir. Ya’ni, xalifalik davlati o‘zida islom dini ahkomlarini jamiyatga tadbiq etgan holda fuqarolarining huquqiy ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladi. Boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatish zamirida eng birinchi maqsad ularga islom dinini yetkazish, taklif qilish yotadi. Dunyoviy ishlarda boshqa davlatlar bilan turli siyosiy va tijoriy, ijtimoiy bitimlar tuzishda ham, garchi o‘z zarariga bo‘lsa ham Islom dini ahkomlariga qat'iy ravishda amal qiladi.

Podshohlik – har bir davlat o‘z manfaatlari asosida avvalo fuqarolari manfaatini himoya qilishiga aytilib, uning ko‘rinishlari podshohlik, sultonlik, qirollik, prezidentlik boshqaruvi shakllarida bo‘ladi. Ya’ni, har bir davlatning hukumat rahbari ma'lum bir shaxslarni (qirollik va uning oilasini), yoki o‘sha davlat fuqarolarini huquqiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish asosida ish yuritadi. Atrofdagi davlatlar bilan har qanday holatda ham o‘z xalqi manfaatini ko‘zlab diplomatik aloqalarni o‘rnatadi. Undagi hukumat hech qachon o‘z davlati va fuqarolari manfaatiga zid ravishda tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘ymaydi. Hukumat rahbarligiga kelish meros sababli, omma tomonidan saylanish yoki zo‘rlik bilan hukumat tepasiga kelish orqali yuz berishi mumkin.

Ikkinchisi: xalifalikni xozirgi zamon odamlar qabul qilishi qiyin, balki imkonsiz narsadir. Chunki hozirgi zamonda to‘liq diniy qoida va qonunlar bilan yashashni tasavvur qilib bolmaydi. Insonlar allaqachon demokratiyani[8], so‘z erkinligini va gender tengligini[9] ko‘rib bo‘ldi. Bu tushunchalar bilan xalifalik va islomiy davlat tushunchasi bir-biriga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

Ammo shuncha bo‘lib o‘tgan voqealardan keyin ham yurtimizda islom dini ta’qiqlab qo‘yilmadi. 1999-yilda Toshkentda , , Ko‘kaldosh” islom universtiteti, 2018-yilda esa “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” o‘z faoliyatini boshladi[3].

Milliy g‘oya va Milliy mafkurani shakillantirish masalasida O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I. A. Karimov 1992 yil 2-iyulda so‘zlagan nutqida shunday degan edi: “Dinga, diniy tashkilotlarga keng yo‘l ochib berildi. Buyuk hajga ilgari nari borsa besh-olti kishi borardi. Endi har yili minglab odamlar muqaddas joylariga emin-erkin ziyoratga borishyapti. Din odamzodni hech qachon yomon yo‘lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o‘tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo‘lishga, harom yo‘llardan uzoq yurishga, yaxshi bo‘lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi. Biz dinga bundan keyin ham barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz. Diniy rasm-rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta’limga doimo jiddiy e’tibor beriladi”. Xalqni milliy manfaatlar himoyasi yo‘lida birlashtirish uchun xalqning mafkuraviy konsepsiyasini ishlab chiqishi lozim edi. Bu hayotiy zaruriyatni chuqur anglagan I. A. Karimov o‘zining asarlar to‘plamining 1-jildini “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura” deb atadi. Bu kitobda O‘zbekistonning barcha sohalardagi milliy manfaatlari o‘z ifodasini topgan edi[6].

Milliy mafkura-milliy g‘oyaga asoslanadi. Milliy g‘oya esa millatni birlashtiruvchi ulug‘ bir bayroq bo‘lishi lozim. Shunday ulug‘vor g‘oyani ishlab chiqaylikki, xalqimiz bu g‘oya atrofida bir butun kuch bo‘lib birlashsin.

Shu borada “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tashkil qilish va ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan 1994-yil 23-apreldagi Prezident farmonida shunday deyilgan edi: “O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda, istiqlol yo‘lida buyuk davlat barpo etishda ma’naviyat va ma’rifat omillarini hisobga olgan holda, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan fuqarolik jamiyati qurish borasidagi fikr-mulohazalarni va takliflarni e’tiborga olib respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi tashkil etilsin”[2].

Prezidentning undan keyingi farmonlari ham Respublikada ma’naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yilning 2-iyunidagi Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi yangi farmoni mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim dastur bo‘ldi. Birinchi Prezidentning ma’naviyatga bosh homiy bo‘layotgani, viloyat hokimlarining ma’naviy va ma’rifiy Kengashlariga shaxsan o‘zlari raislik qilganlari mamlakatimizda ma’naviy qadriyatlarni tiklash, har tomonlama kamol topgan insonni tarbiyalashga qanchalik katta e’tibor berilganlikni ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagi “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-451-son qaroriga ko‘ra Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi negizida Respublika Ma’naviyat targ‘iboti markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi alohida tashkilot sifatida ish boshladi[1].

1997-yil, 29-avgustda Respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida I. A. Karimovning “Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” ma’ruzasi asosida yangi tahrirda “Ta’lim to‘g‘risida” qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi.

Bundan tashqari mamlakatimizda milliy mafkurani yaratish o‘zligimizni angalsh tarixiy shaxslarimiz nomlarini abadiylashtirish yo‘lida katta ishlar olib borildi. Shuning uchun xam 1991-

yil Alisher Navoiy, 1992-yil Hamshiralar, 1993-yil Ahmad Yassaviy, 1994-yil Mirzo Ulug‘bek, 1995-yil Ibn Sino, 1996 yil esa Sohibqiron nomiga Amir Temur yili deb e’lon qilindi.

1992-yil Prezident farmoni bilan **Ramazon va Qurbon hayit** kunlari umumxalq bayrami deb e’lon qilindi. Xalqimiz asrlar davomida nishonlab kelgan bayramlaridan biri **“Navro‘z”** umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi. **Umumxalq bayrami — Navro‘zni** katta tantanalar bilan nishonlash mustaqil mamlakatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotida an’anaga aylanib borayotganligini, uning xalqimiz milliy g‘ururini shakllantirish, ona tuproqni sevish, anglash ma’naviyatini yuksaltirish, insonlarni hayotni qadrlashga, yurtimizda yashovchi barcha millatlar o‘rtasida do‘stlik, tinchlik, osoyishtalikni yanada mustahkamlashdagi ulug‘vor ahamiyatini e’tiborga olib, 1994-yilda Navro‘z umumxalq bayramini keng nishonlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

Xulosa

Bu maqolani yozishan maqsad shuki, agarda xalqning, millatning o‘z milliy mafkurasi, dunyoqarashi, diniy va milliy urf-odatlari bo‘lmasa yoki bo‘lsayu ularni bilmasa o‘sha xalq yoki millat yo‘q bo‘lishga mahkumdir. Bunga yaqqol misol SSSR. U qariyb 70-yil davomida diniy va milliy urf-odatlar, qadryatlarsiz yashadi va buning oqibatida parchalanib ketdi. SSSRning bu siyosati o‘z mustaqilligini e’lon qilgan davlatlarda ham ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Shuning uchun ham xar bir millat elat va qavmlar, o‘zining milliy g‘oyasi milliy mafkurasini bilishi zarur. Mustaqillik yillarida bo‘lgan ishlar qaytarilmasligi uchun mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldirishimiz kerak edi, shunday bo‘ldi ham. Agar bizda mafkurviy bo‘shliq bo‘lsa mafkura haqida tushuncha bo‘lmasa yovuz niyyatli kimsalar u bo‘shliqni o‘z g‘oyalari bilan to‘ldirishadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda milliy g‘oyani shakillantirish mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldrish va milliy mafkuramizni yaratish uchun maktablarda milliy g‘oya darslari o‘rgatilmoqda oliy ta’lim muassasalarida milliy g‘oya yo‘nalishlari ochildi. Bularning hammasi mafkuraviy bo‘shliqni yo‘q qilish uchun amalga oshirilgan islohotlardir. Bugun biz bitta mafkura nitta g‘oya ya’ni mamlakatimizni rivojlantiruvhi go‘ya yo‘lida birlashishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://lex. uz/docs/-1354503 Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish
2. https://uz. wikipedia. org/wiki/O‘zbekiston_Ma’naviyat_va_ma’rifat_markazi
3. https://uz. wikipedia. org/wiki/O‘zbekiston_xalqaro_islom_akademiyasi
4. https://uz. wikipedia. org/wiki/SSSRning_qulashi
5. https://uz. wikipedia. org/wiki/Xalifalik
6. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch
7. https://uz. wikipedia. org/wiki/Mafkura
8. https://uz. wikipedia. org/wiki/Demokratiya
9. https://www. undp. org/uz/uzbekistan/projects/gender-tenglik
10. 25. 08. 2006-yildagi PQ-451 sonli qarori“Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”
11. https://en. wikipedia. org/wiki/Mikhail_Gorbachev

XVI ASR ADABIY MUHITIDA INSON QADRINING O‘RNI

B. B. Ibraximov
NamDPI katta o’qituvchisi

M. Mahkamov
NamDPI 2-bosqich talabasi

Anotatsiya: *Inson qadri shunday tamoyilni u har bir davrda , mintaqada ma’lum ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki inson borki qadrlanishga, e’zozlanishga loyiq bo‘lgan oliy mavjudotdir. Shu sababli ham Inson qadrlashga Insonlar o‘rtasida o‘zaro ahillik va hamjihatlikni taminlashga davlat etuvchi manbalar mavjud bo‘lgan. Xususan XVI asrda yaratilgan badiiy adabiyot namunalarida ham bu kabi holatlar aks etganini ko‘rishimiz mumkun.*

Kalit so‘zlar: *Inson qadri, komil inson, “Nazm ul-javohir”*

Kirish. XVI asrda O’rta Osiyo xalqlari adabiyoti adabiy muhiti uslub jihatidan rivojlandi, yangi pog’onaga ko’tarildi. Nasrda ham, nazmda ham ko’plab nodir badiiy va lirik asarlar yaratildi. O’rta Osiyo xalqlari, xususan, o’zbek hamda tojik adabiyoti o’rtasida o’zaro aloqa va hamkorlik kengaydi va mustahkamlandi. Tarjima adabiyot vujudga keldi. Badiiy adabiyotning ravnaqi bilan uzviy bog’langan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, nodir asarlar yaratildi. Bu mavzuni yoritishda xususan bobomiz Alisher Navoiy asarlariga tayanishimiz mumkin. Chunki uning asarlarida inson qadrini ulug‘lash va komil inson g‘oyalari ilgari surilganligi barchamizga ma’lum. Mavzuning dolzarblik jihati shundaki hozirgi zamonaviy dunyoda yoshlarimiz inson qadri tushunchasini faqatgina hozirda chiqarilayotgan qonun, qarorlarga rioya etish orqali emas, adabiyot, yaratilgan asarlarni o‘qish orqali tushunib yetishlari zarur. Aynan XVI asr adabiy muhitida yaratilgan asarlar mohiyati jihatdan yuqoridagi masalaga yechim bo‘ladi.

Asosiy qism: “Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. ’’[1]

Inson qadriga oid qarashlar XVI asr adabiy muhitida, xususan Alisher Navoiy asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

“Alisher Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini, qalbi va shuurini, umuman, ongli hayotini insonga, uning baxtu saodati uchun kurashga, el-ulus osoyishtaligi va farovonligiga, mamlakat va mamlakatlar tinchligi va taraqqiyotiga, o‘zaro qirg‘in-barot jangu jadallarning oldini olishga, shuningdek, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san’at va adabiyotning, alalxusus, madaniyat-ma’rifat va ma’naviyatning rivojlanishiga bag‘ishladi.

Navoiy buyuk insonparvar, donishmand, davlat arbobi, o‘zbek adabiy tiliga asos solgan va milliy adabiyotimizni yuksaklikka ko‘targan tengsiz so‘z san’atkori, qomusiy bilim sohibi bo‘lib yetishdi, umrboqiy asarlar yaratdi, davrining madaniy hayotiga rahbar, ilm-fan, san’at va madaniyat ahlining yaqin maslahatchisi, homiysi va ko‘plab is’tedodli shogirdlar yetishtirgan murabbiy-ustoz bo‘ldi, cheksiz e’zoz va e’tirof topdi. Bular, albatta, katta mehnat va kuch-quvvatni, bilim va mashaqqatni, shu bilan birga, matonat va toqatni talab etar edi. Buyuk bobokalonimiz Navoiy timsolida, biz, ayni fazilatlarning to‘la mujassam topganligini ko‘ramiz.

“Ma’lumki, Navoiy hayoti va faoliyatini, merosini o‘rganish uzoq tarixga ega. Bu tarix bevosita XVI asrdan, Navoiy davridan Navoiyning o‘z asarlari va uning zamondoshlari musannifotlaridan boshlanadi. Aytish lozimki, 560 yildan ortiq vaqt mobaynida Navoiy faoliyati va merosini o‘rganish tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini kechib o‘tdi va takomil topdi. Shubhasiz bizning asrimizda navoiyshunoslik juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. ’’[2] Alisher Navoiy o’z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo’luvchi ma’naviy-axloqiy sifatlari ulug’lagan bo’lsa, Ta’limiy-axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o’ziga xos jihatlari, yo’llari, shakl va

usullari borasidagi mulohazalarini bayon etadi.

Alloma tomonidan yaratilgan asarlar mazmunidan anglashiladiki, Ularda ilgari surilgan qarashlarining markazida inson va uning kamolotini ta’minlash g’oyasi turadi. Bu haqida navoiyshunos olim V. Zohidov quyidagi fikrni bildiradi: «Navoiy ijodi ham da am aliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo'nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uningyaxshi yashashi, buning uchun zarur jamiyat masalalaridir». Allomaning tasavvuridagi komil inson o'z qiyofasida eng yuksak insoniy fazilatlarni mujassam eta olishi lozim. Chunonchi, u ijodkor, qobiliyatli, shu bilan birga, ilm -fanga muhabbatli bo'lmog'i zarur. Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra, ana shunday sifatlarning sohibi bo'la olgan insongina o'z kuchi ham da aqlu zakovatiga ishonadi. O'z kuchi va aqlu zakovatiga qattiq ishongan insongina turli qiyinchiliklarga bardosh bera oladi, u o'ta murakkab muammolarni ham hal qila olishga qodir. Ilm-fan sirlaridan xabardor bo'lishning inson uchun ahamiyatini yoritar ekan, alloma ayni o'rinda ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko’rsata oluvchi omil sifatida ta’riflaydi. Ushbu fikr mutafakkir tomonidan Yaratilgan «Nazm ul-javohir» asarida quyidagicha bayon etiladi:

Kim olim esa, nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar, bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki, yo’q ilm anda ahmaq de oni,
Majlisdaki ilm boisa uchmaq de oni

Mazkur baytlarning nazm unida ilm li, oqil odam o’z maqsadiga erishish yo‘lida uchraydigan har qanday qiyinchilikni yengib o’tadi, kim Ilm ni o’ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilm aydi, zero, ilm Insonning baxt-saodatini ta’m inlashga xizmat qiladi degan g’oya o’z aksini topgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, Navoiy hayoti va faoliyatini o‘rganishda birinchi manba uning o‘z asarlaridir. Navoiyning deyarli barcha asarlarida, jumladan, uning «Munshaot», «Vaqfiya», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Hutbai-davovin», «Majolis un-nafois», «Muhokamatul-lug‘atayn», «Holati Said Hasan Ardasher», «Holati Pahlovon Muhammad» kabi asarlarida shoir shaxsiyati va faoliyatiga doir ko‘plab qimmatli ma’lumotlar mavjud. ’’[3] Bu asarlarning barchasida turli obrazlar orqali inson qadrining ulug‘lanishi yaqqol namoyon bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. XVI asr adabiyotini xususan Alisher Navoiy asarlarini o‘qir ekanmiz Inson oliy mavjudot ekanligini, uni doimo e’zozlash, qadrlash kerak ekanligini sezib boraveramiz.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nafaqat XVI asr adabiyotida , balki har qaysi davrda, har qaysi sohada xalqni inson qadrini ulug‘lashga chaqirilgan. Bu aynan Alisher Navoiy bobomizning asarlarida o‘z aksini topganligi bizni yanada ushbu insonni qadrlash g‘oyasiga chuqurroq yondoshgan holda uni o‘z hayotimizga tatbiq etishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://yuz. uz/uz/news/inson-qadri-biz-uchun-qandaydir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas-prezident

2. O‘quv-uslubiy majmua. I. Saymuratova, O. Fayzullayeva (4-mavzu) Guliston – 2020

3. Komiljon HASHIMOV, Sanobar NISHONOVA PEDAGOGIKA TARIXI (159-160-betlar) Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent — 2005

QO`QON XONLIGIDA MADANIY HAYOT TARAQQIYOTI

B. B. Ibraximov

NamDPI katta o’qituvchisi
A. A. Xuvaydullayev
NamDPI I bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Qo`qon xonligidagi shoir va shoiralarning Qo`qon xonligidagi madaniy hayotiga qo`shgan hissasi haqida.*

Kalit so`zlar: *Shoirlar, “Majmuat ush-shuaro”, “Amiriy”, Nodira, maktab, madrasa, aljabr qorixonalar, Zarbulmasal.*

Аннотация: *Данная статья посвящена вкладу поэтов и поэтесс Кокандского ханства в культурную жизнь Кокандского ханства.*

Ключевые слова: *Поэты, «Маджмуат уш-шуаро», Амири, Надира, школа, медресе, алгебраические корихона, зарбулмасал.*

Annotation: *This article is about the contribution of poets and poetesses of the Kokand Khanate to the cultural life of the Kokand Khanate.*

Key word: *Poets, ``Majmuat ush-shuaro'', Amiriy, Nodira, school, madrasa, algebra qorixona, zarbulmasal.*

Qo`qon xonligida o`ziga xos adabiy muhit vujudga kelganligini o`sha davrda yaratilgan ko`pgina asarlardan bilib olishimiz mumkin. Xonlik mavjud bo`lga davrda uning hududida qator muarrixlar, shoirlar va boshqa ijodkorlar yashagan va o`z faoliyatini olib borgan. Qo`qon shahri xonlik poytaxti bo`lish bilan birga madaniy markaz ham hisoblangan. Bu yerda bir qancha iste’dodli tarixnavis, shoir va shoiralar yashab, ijod qilganlar. Ularning aksariyati qo`qonliklar edi. Bular o`zlariga xos adabiy muhit yaratgan. Xonlikda yashagan ijodkorlarni asosan ikki guruhga bo`lish mumkin. Birinchisi saroy shoirlari bo`lib, ular xon va uning atrofidagilarni maqtab asarlar yaratganlar. Ikkinchi guruhga mansub ijodkorlar esa barchani xalqparvarlikka chaqirib, oddiy aholining turmushi og`irligini, o`zaro urushlarni, xudbinlikni, yolg`on va yomonlikni qoralab asarlar yozganlar.

Ammo shuni e’tiborga olish kerakki, ikkala oqimda ham qobiliyatli shoir va shoiralar ko`p edi. Qo`qon xonligida yashagan va ijod qilgan shoir hamda shoiralardan Akmal, Amiriy (Amir Umarxon), Boqixonto`ra, Gulxaniy, Yoriy Ho`qandiy, Zavqiy, Zoriy, Maxjub, Maxmur, Muqimiy, Muxtazib, Mushrif, Muhayir, Muhammad Yunus Toyyib, Muhiy, Muhsiniy, Nasimiy, Nizomiy, Ho`qandiy, Nodir, Nozil, Pisandiy, Rojiy, Sadoiy, Umidiy, Furqat, Shuhrat, Anbar otin, Bahri otin, Dilshod, Zebuniso, Zinnat, Karomatoy, Nodira, Saidabonu, To`ti qiz, Uvaysiy, Fazilatbonu, Fidoiya, Hafiza otin, Xayriniso kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Qo`qon xonligida ijod qilgan shoirlardan biri Akmal Domullo Shermuhammaddir. U o`z davrining ilg`or fikrli kishisi bo`lgan. Fazliy Namangoniy – Majmuat ush-shuaro tazkirasida Akmal she’riyatiga yuqori baho beradi. Vozex esa Akmalning adabiyot ahllari orasida ancha obro`ga ega bo`lganligini yozadi. Akmal o`zbek tilida yozgan she’rlarini bir devonga, tojik tilida yozgan she’rlarini boshqa bir devonga to`plagan. U o`z asarlarida xalqning og`ir hayotini achinish bilan yozgan, qoloq turmush tarzini tanqid qilgan hamda xalqni ma`rifatga undagan.

Qo`qon ijodkorlari ichida eng ko`zga ko`ringanlaridan biri Amiriy (1787-1822 yy) hisoblanadi. Amiriy tahallusi bilan ijod qilgan Umarxon o`zining falsafiy va lirik g`azallari bilan boshqalardan ajralib turgan. Uning g`azallariga zamondoshlari juda yuqori baho berganlar. Amiriy o`zbek va fors (tojik) tillarida ijod qilgan. Umarxon davrida Qo`qon adabiy muhiti shakllandi. Arab va fors tillardagi kitoblar o`zbek tiliga tarjima qilindi, Qur’on, diniy va mumtoz asarlar iste`dodli xattotlar tomonidan bezatilib ko`chiriladi. Amiriyning she`rlari devonga to`plangan,

ayrim asarlari esa ko`plab bayozlarga kirgan. Umarxonning topshirig`i bilan Fazliy va Mushrif tomonidan -Majmuat ush-shuaro to`plami tuziladi, bu to`plam Toshkentda 1902-yilda bosilgan.

Gulxaniy Muhammad Sharifning hayoti va ijodi haqida Fazliy Namangoniyning - Majmuat ush-shuaro, Qori Rahmatullo Vozex Buxoriynning -Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob, Avaz Muhammad Attorning -Tarixi jahonnomoyi asarida, muallifi noma`lum bo`lgan -Tarixi Xo`qand kabi asarlarda ma’lumot berilgan[1, 45].

Gulxaniy Namangan va Qo`qon shaharlarida yashab, go`laxlik qilgan, she’r va masallar yozgan. U Qo`qon xoni Olimxon (1800-1810) saroyida navkar bo`lgan va urushlarda botirlik namunasini ko`rsatgan. Uning qahramonliklari xon tomonidan taqdirlanmaganligi uchun qashshoqlikda kun kechirgan. U o`zi mustaqil mutoala yo`li bilan mumtoz asarlarni o`rganadi. Umarxon davrida saroy shoirlari davrasiga jalb qilinadi. Garchi saroyda xizmat qilsada, u mehnatkash omma ruhini ifodalovchi she’rlar yozgan. O`zbek va tojik tallarida Gulxaniy, Jur‘at taxalluslari bilan ijod qilgan. Uning bizgacha bir necha g`azal, hajviyalari hamda ―Zarbulmasal (Yapaloqqush hikoyasi) nasriy asari yetib kelgan. Gulxaniy o`zining zo`r iste`dodi, tajribasi, turmushga haqqoniy qaray bilishi tufayli xalq yozuvchisi sifatida ko`ringan. Uning adabiy ijodiyoti xon va feodallarni maqtagan saroy shoirlarining serhasham, jimjimador, - usti yaltiroq, ichi qaltiroq poeziyasidan farq qilgan. Shuning uchun uni saroy shoirlari yoqtirmaganlar, she`rlarini kamsitganlar. Ammo Gulxaniyning Umarxonga payrov qilib yozgan g`azallari saroy ahliga ma`qul bo`lsa-da, uning qashshoqlikni, real hayotni, ezuvchi guruhlarning fosh qilinishi yoqmagan. Gulxaniy hayotni sevgan, o`zini boshqalardan past bilmagan, insoniy fazilatini yerga urmagan, hukmdorlarga xushomadgo`ylik qilmagan. Uning yirik hajmli mashhur asari - Zarbulmasaldir. Unda xalq maqollari, qisman shoirning o`zi yaratgan maqolasimon hikmatli so`zlar, qisman masal va rivoyatlar to`plangan. Ular tematik va epik jihatdan birbiriga bog`lanib, yagona bir syujetni tashkil etgan. XVIII- asrning oxiri va XIX-asrning boshidagi o`zbek she`riyatining ko`zga ko`ringan namoyandalaridan qo`qonlik ajoyib shoir G`oziyni ko`rsatib o`tish kerak. Juda ko`p g`azallar yozgan bu shoir o`zining asarlarida feodallarni fosh qilib tashladi, insonni va insonning qadr-qimmatini yuksak darajada baholadi.

Maxmur - shoir Shermuhammad Akmalning o`g`li. U (XVIII-asr oxiri tug`ilgan – 1844-yildsa vafot etgan) Qo`qondagi -Madrasai Mirda tahsil ko`rgan. Umarxon qo`shinida sipohiylik qilgan. Maxmur yoshligidan Sa`diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy merosini chuqur o`rgangan. Iqtisodiy muhtojlikda kun kechirgan Maxmur oilasining ochligi, hatto bolalarining ba`zan yeyishga noni yo`qligini alam bilan yozadi. Maxmur o`z asarlarida xalqning g`oyatda ayanchli turmushini, mamlakatdagi vayronagarchilikni kuylaydi. Shoir zamonani qoralab, zulmga nisbatan keskin norozilik bildirsa ham, lekin undan qutulish yo`lini topolmaydi. Hapalak, Tahrifi viloyati Qurama kabi she`rlarida shu nomdagi qishloqning vayrona manzarasi, undagi aholining ayanchli turmushi tasvirlangan. Maxmurning hajviy she`rlar devoni saqlangan, unda 69 asar to`plangan, lirik asarlari esa bayozlarda uchraydi. Iste`dodli shoir Maxmur o`zining hajviy asarlarida feodal tuzumining adolatsizligiga qarshi xalq ommasining noroziligini ifodaladi, amaldorlarning yomonliklarini va ta`magirliklarini fosh qilib tashladi. Maxmur asarlarida shoirning mehnatkash xalqqa bo`lgan chuqur muhabbati, mazlumlarga mehribonligi va xayrixohligi yaqqol ifodalagan.

XVII-asr oxiri – XIX-asr boshida Qo`qon xonligida Nizomiy Ho`qandiy, (uning Majmu-at ul-maqosid (Maqsadlar majmuayui) nomli kitob, 300 ga yaqin gazal va muxammaslardan iborat she’rlari yetib kelgan), Nodir (Uning Nodiraga bag`ishlangan, 7 mustaqil she`riy hikoyadan tashkil topgan ―Haft gulshan dostoni yetib kelgan), Nozil Avaz Muhammad (1788-1876-yillarda

yashagan. Uning asarlarida zamon illatlari, hukmdorlardan shikoyat ifodalangan), Pisandiy Avazmuhammad Yormuhammad o`g`li (1816-1918- yillarda yashagan. Uning Muhammasi Pisandiy, Muhit haqida hajv, Sahdixon qozi hajvi va boshqa asarlari ma’lum), Rojiy Sulaymonqul usta Suyarqul o`g`li (1871-1924 yillar. Shoirning insoniylik va didaktik qarashlari, davrning ijtimoiy masalalariga munosabati uning 880 misradan iborat she’r, 400 dan ortiq maqol va hikmatli so`zlarini o`z ichiga olgani Zarb ul-masal asarida ifodasini topgan. Rojiy xattot sifatida Alisher Navoiyning Majolis un-nafois va Hamsat ul-mutahayyirin asarlarini ko`chirgan) kabi qator shoirlar ham yashab ijod qilganlarki, ularning adabiy mehrosi hozirgi kunda ham o`z qadrini yo`qotgani yo`q[2, 68].

Nodira Qo`qon adabiy muhitining yirik nomyondalaridan biri. Nodira faqat o`zbek tilidagina emas, balki fors-tojik tilida, ham Maknuna, Komila taxallusida she’rlar, gazallar bitgan. 1822-yilda Umarxon to`satdan vafot etgach, mamlakatni boshqarish tashvishlari Nodirabegimga qoladi. Chunki o`g`li Muhammad Alixon yosh edi. Nodira mamlakat xo`jaligini yaxshilash, madaniy hayotni jonlashtirish bo`yicha muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Davlat poytaxti Qo`qonda madrasalar qurdirdi, karvonsaroylar soldirdi, rastalar, yo`llar, ko`priklar barpo ettirdi. Bu xayrli ishlar xalq o`rtasida Nodirabegimning obro- e’tiborini yanada oshirdi. Nodirabegimning eng oliyjanob va e`tiborga loyiq tadbirlaridan biri shu bo`ldiki, u o`z atrofiga zamonasining qobiliyatli va ijod egalari bo`lmish shoirlarini to`pladi va ularga homiylik qildi. Uvaysiy, Maxzuna, Mushtariy va boshqalar uning eng yaqin maslakdoshi va maslahatgo`ylari edilar. Nodira o`zi yashagan feodal tuzumining qattiq la`natlaydi va bu jamiyatdan o`zbek xotin-qizlarning og`ir qimmatli hayotiga dardkash bir siymo sifatida talqin qiladi. O`zi saroyda yashasa ham o`zini baxtiyor hisoblamadi. Nodira insoniylikni, ezgulikni ulug`laydi, hayotbaxsh orzu-umidlarni tarannum etdi.

1842-yilda Nodira hayotida katta fojea yuz berdi. Buxoro amiri Nasrulloxon Qo`qonni bosib oldi va Nodirabegimni, shariatni buzganlikda ayblab, uni qatl qildi. Nodira feodal jaholatning qurboni bo`ldi. Bizning zamonda Nodirabegim nomida bir qancha maktab va ko`chalar mavjud. Asarlari boshqa tillarga tarjima etilib, chop qilinmoqda. Turob To`la Quvvat, Qahqaha poesasini, K. Yormatov Odamlar orasida (Nodirabegim) filmini yaratdi.

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, Qo`qon xonligida Nodirbegimdan tashqari yana Anbar otin, Dilshodi Barno, Zebuniso, Zinnat, Mohzoda Begim, Mahzuna, Mushtariy, Nozuk Xonim, Uvaysiy kabi progressiv ruhda ijod qilgan shoiralar ham yashab o`tgan. Ular o`z asarlarida sof muhabbatni, sadoqat, mehr-shafqat, muruvvat, insoniylik, mazlumlar xayrixohlik kabi ilg`or g`oyalarni targ`ib qildilar, insoniy qadr-qimmatni ulug`ladilar. Yuqoridagi ijodkorlar haqida Dilshodning quyidagi gaplarini keltirib o`tish maqsadga muvofiq bo`lar edi: ``Qo`qon shoirlar shahridir. . . . Bu katta shaharda 440 mahalla bor deydilar va har birida shoirlar bor. . . . Xo`ja Kalon To`ra mahallasida mendan tashqari yana Mahzani, Turobi va Bahori taxallusli shoirlar va Fidoiy ismli shoira yashardilar.

Qo`qon adabiy muhitida maqtasa arzigulik ijodkorlarni yetishib chiqqan. Ularning adabiy merosi hozirgi kun yoshlari uchun ulkan ma’naviyat gulshani, she’riyat bo`stoni vazifasini o`tasishi shubhasizdir. Xonlikdagi hamma maktablar diniy maktablar edi. Tabiiy, gumanitar fanlar unchalik o`rgatilmas edi. Lekin shunday bo`lsa-da, xonlikda ta’lim-tarbiya ishlari yaxshi yo`lga qo`yilgan. Madrsalarda diniy ilmlar, grammatika, mantiq, aljabr, xandasa hamda hisob amallari o`rgatilgan. Bu davrda o`z davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti tasvirlangan ko`plab asarlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. R. Akbarov, “Qo`qon xonligi tarixi”, F. , 2015.
2. H. Bobobekov, “Qo‘qon tarixi”, – T. , 1996.

ADOLAT – AMIR TEMUR DAVLATCHILIGINING MEZONI

Valijonova Oydin Rasuljan qizi
Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 1-bosqich talabasi.
Tel: +998 88 105 04 02
Email: rasuljanovaoydin@gmail. com
Ilmiy rahbar: Umarov Jumaboy Abduvaliyevich
Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning davlatni adolat bilan boshqarish asosiy tamoyillaridan biri ekanligi, uni o’ziga asosiy shior qilib olgan. Bir so’z bilan aytganda davlatni qanday qilib boshqarish kerak ekanligini avlodlarga o’z asarlarida bayon etib ketgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati maqolaning oxirida keltirilgan bo’lib, mavzuga oid qo’shimcha ma’lumot olish imkonini beradi.*

Kalit so’zlar: *Muarrix, renessans, mafkura, davlat siyosati, mazlum, adolat mash’alasi, o’rta asrlar, ilm-fan va madaniyat, harbiy qudrat, soliq tizimi.*

Аннотация: *В этой статье мы можем увидеть отношение, самоотверженность и патриотизм Амира Темура к своим воинам в управлении государством. Справедливое управление государством является одним из главных принципов Темура, и он сделал это своим главным девизом. Одним словом, показал пример, как справедливо управлять государством для будущего поколения. Список использованной литературы приведен в конце статьи, что позволяет получить дополнительную информацию по теме.*

Ключевые слова*: историк, Возрождение, идеология, государственная политика, угнетенные, факел справедливости, средневековье, наука и культура, военная мощь, налоговая система.*

Abstract: *In this article, we can see Amir Temur’s attitude, selflessness, and patriotism to his soldiers in managing the state. Governing the state with justice is one of the main principles of Temur, and he made it his main motto. In a word, how to run the state The list of used literature is given at the end of the article, which allows you to get additional information on the topic.*

Key words*: Historian, renaissance, ideology, state policy, oppressed, torch of justice, middle ages, science and culture, military power, tax system.*

Ma’lumki Sharqda “odil podsho” tushunchasi qadim-qadimdan mavjud va xalq ana shunday podshoni hamisha orzu qilib kelgan. Sohibqiron Amir Temur ana shunday podsho bo’lishga intildi. „Kuch- adolatda“so’zlari Amir Temur uzugiga o’yib yozilgan va davlat muhrida ham aks etgan edi.

Barcha buyuk sarkardalar singari Amir Temur ham o’z askarlarining mashaqqat va zafarlarini baham ko’rardi. Ulardan qat’iy intizom talab qilar, shaxsiy tashabbus ko’rsatib o’zi ham ularga bosh bo’lib jang qilar edi. Hech vaqt o’z jangchilarini yolg’iz qoldirmas edi. U lavozimi, boyligi, irqi, dinidan qat’iy nazar, barcha uchun adolat bir bo’lishini nihoyatda sinchkovlik bilan kuzatib borar edi. Bunday hukm chiqarish odati, o’z davri eng yaxshi sarkardasining jasorati va

shuhrati singari , uning jangchilar o’rtasidagi e’tibori va ta’sirini oshirar, hayoti, harakatlari va qarorlari bilan shahsiy na’muna timsoli edi.

Amir Temur Tuzuklarida: „Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini ozimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib , haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko’nglidan joy oldim”- deydi. U har qadamda, xoh o’zining farzandlari bo’lsin, xoh boshqa fuqaro- barchaga birday adolat ko’zi bilan qarar edi. Safarlardan qaytib kelganda, shaxsan o’zi bozorni tekshirar, agar qassobu baqqol, novvoylar va hokazolar foyda topaman deb narx-navoni oshirib yuborgan bo’lsalar, el oldida ayovsiz o’sha gunohkorning jazosini berar edi.

Sohibqiron Amir Temur “Kuch adolatdadir” degan shioriga, eng avvalo, o’zi amal qilganiga shubha yo’q, chunki “Temur tuzuklari”ni o’qisak, bu fikrga yana bir bor amin bo’lamiz. Ulug’ sarkarda o’z tuzuklaridan birida shunday deydi: “Yana hukm qildimki, qaysi bir sipohiy haddidan oshib, qo’l ostidagi kishiga zulm o’tkazar ekan, uni tutib, mazlum qo’liga topshirsinlar, toki uning jazosini zulm ko’rganlar bersin.”

Adolatning kuchi shunchalar yuksak ediki, agar mamlakatda biror odam bir tovoq oltin yo kumushni boshiga qo’yib, mag’ribdan mashriqqacha borsa, hech kim unga qo’l cho’zmas, oltin yo kumushdan bittasi ham kamaymasdi.

«Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil yetilgach, hosilni uchga bo’lib olsinlar. Agar raiyat soliq to’lovchi yubormasdan, soliqni o’zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to’plovchi yubormasinlar. Agarda soliq oluvchini yuborishga majbur bo’lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so’z bilan olsinlar, kaltak, arqon ishlatish, ishni urish-so’kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasinlar. Yana buyurdimki, xirojni raiyatdan kaltaklash va savalash yo’li bilan emas, balki ogohlantirish, qo’rqitish va tushuntirish yo’li bilan undirsinlar. Qaysi hokim hukmining ta’siri cho’p va kaltaklash ta’siridan kamroq bo’lsa, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdur»-deydi Amir Temur.

Amir Temur soliq siyosatining asosiy yo’nalishlari uning farzandlariga siyosiy vasiyati bo’lmish «Temur tuzuklari» da ifodalangan bo’lib, uning soliq siyosati xususiyatlarini quyidagi fikrlari orqali ifodalashimiz mumkin: “Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig’ishda ularnı og’ir ahvolga solib qo’yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo’yishdan saqlanish kerak”.

Muarrix Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asarida Amir Temurning 1366-yilda, hali davlat taxtiga chiqmasidan to’rt yil avval aytgan shunday so’zlarini keltiradi: “Qaysi bir podshoh o’z ishini g’addorlik va bevafolik asosiga qursa, kishilarga ozor berish va halok qilishga oshiqsa, uning davlati chayqalib, qarorsizlikka yuz tutadi. Biz o’z saltanatimizni odamlarga e’tibor berish va ularni himoya qilish asosiga qurayotganligimiz sababli ularni yupantirib, xotirjam qilamiz. . . ”

Odamlarga, demak xalqqa e’tibor berish va himoya qilish- Sohibqiron adolati, demakki, insonparvar ligining bosh o’zagini tashkil qilar edi.

Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yo’naltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham katta kuchga aylandi. U chet davlatlar bilan aloqani kengroq yo’lga soldi. U davr shart-sharoitlaridan kelib chiqib, tashqi siyosatda qat’iy faol harakat qilib, o’z saltanati dovrug’ini jahon miqyosiga olib chiqa oldi. Amir Temur hayotida uch mo’tabar asos-diyonat, adolat va qat’iyat bilan amalga oshirilgan siyosatga tayangan.

Azaldan adolat bo’lgan joy gullab-yashnagan, xalq erkin bo’lgan. Adolat oyoqosti qilingan joyda esa, razolat hukm surib, jamiyat tubanlikka yuz tutgan. Sohibqiron o’z faoliyati davomida

har bir mojaro va muammoli ishlarni diqqat bilan tekshirib ko’rgan. Barcha ishlarida haqqoniyat va adolat bilan ish tutgan. O’z fuqarolariga rahm-shafqatli bo’lgan. Kambag’allarga ko’p xayru ehson qilib turgan. Buning natijasida uning qudrati oshib borgan.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, Sohibqiron o’ziga to’rt nafar adolatli vazir tayinlagan. Ulardan ikkitasiga doimo uni kuzatib turishlarini va agar adolatsizlik qiladigan bo’lsa, to’xtatishlarini, kimningdir yolg’on so’zlariga ishonsa yoki begona kimsa mulkiga xiyonat qiladigan bo’lsa, darhol ogohlantirishlarini ta’kidlab qo’ygan.

Adolatparvar odamning axloqiy xislatlari esa, bemalol qonun o’rnini bosa oladi. Qonun-qonun bo’lganligi uchun emas, balki unda adolat aks etganligi uchungina qimmatlidir. Amir Temur qonunlariga rioya qilish masalasini shu qadar jiddiy qo’yganki, qonunni buzganligi uchun yuqori lavozimdagi mansabdorlar, hatto o’zining eng yaqin qarindoshlari va farzandlarini ham jazolashga buyurgan.

Amir Temurning hikmatlariga amal qilgan xalqimiz adolat mash’alasini baland ko’tarib, Vatan bog’ini obod qilib, tinch va osoyishta hayot kechirmoqda. Adolat-yuraklarga malham, kelajakka ishonch demakdir. Adolat faqat shiorlarda emas, amalda bo’lsagina yuksak natijaga erishish mumkin. Bugun buyuk bobokalonimizning insonparvarlik va adolatparvarlik siyosatini o’zida mujassamlashtirgan Bosh Qomusimiz va qonunlarimizga egamiz. Bu esa, bizni albatta, nurli manzillarga, buyuk kelajakka eltadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Soliq nazariyasi: O’quv qo’llanma/Mual. : A. Jo’rayev, O. Meyliyev, G’. Safarov. T. : Toshkent moliya instituti, 2004. - B. 10.

2. Темур тузуклари. Т. : Чўлпон, 1991. – Б. 89.

3. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошкарув тарихи. – Т. : Янги аср авлоди, 2012. - Б. 292.

4. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. Б. 65.

ACTIVITIES OF INTERNATIONAL NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE SCIENTIFIC FIELD

Mavlanova Sitora Sheraliyevna

1st year basic doctoral student at the Faculty of History, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract: *This article discusses the development of society as one of the most pressing issues in today's globalized world, which is directly related to the participation of young women with high scientific potential, the importance of the role of young women in science. Supporting their aspirations, strengthening the mechanism for the protection and implementation of their rights in this area, and the challenges facing the education of young women around the world are highlighted as much as possible. The author also mentions the work of the United Nations and UNESCO in support of women and the special programs adopted by women and girls to promote their education.*

Keywords: *Current issues of science, globalization, discrimination, society, UN, UNESCO, inclusive education, special programs, exact sciences, science, scientific worldview, intellectual potential, STEM program.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается развитие общества как один из самых актуальных вопросов в современном глобализированном мире, который напрямую связан с участием молодых женщин с высоким научным потенциалом, важностью роли молодых женщин в науке, поддержкой их стремлений, укреплением максимально освещается механизм защиты и реализации их прав в этой сфере, а также задачи, стоящие перед образованием молодых женщин во всем мире. Автор также цитирует работу Организация объединенных наций и ЮНЕСКО в поддержку женщин и специальные программы, принятые женщинами и девочками для содействия их образованию.*

Ключевые слова: *Актуальные вопросы науки, глобализация, дискриминация, общество, ООН, ЮНЕСКО, гендерное равенство, инклюзивное образование, специальные программы, точные науки, наука, научное мировоззрение, интеллектуальный потенциал, программа STEM.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi globallashuv nodavlat notijorat tshkilotlarning jamiyat rivojidagi ahamiyati, xalqaro maydondagi o’rni, ta’lim va ilmiy faoliyat sohasidagi maxsus dasturlari, bu boradagi huquqlarini muhofaza qilish va amalga oshirish mexanizimini mustahkamlash borasida yuzaga kelayotgan muammolar imkon qadar yoritib berilgan. Shuningdek, muallif maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti va YUNESKO tashkilotlarining ma’naviy qadriyatlarni qo’llab-quvvatlash borasida amalga oshirayotgan ishlari va ushbu maqsadida qabul qilgan maxsus dasturlari ham keltirib o'tgan.*

Kalit so'zlar: *Fanning dolzarb masalalari, globallashuv, xalqaro NNTlarning ta’lim sohasidagi faoliyati, BMT, YUNESKO, gender tengligi, inklyuziv ta’lim, ma’naviy, madaniy qadriyatlar, maxsus dasturlar, aniq fanlar, ilm-fan, ilmiy dunyoqarash, intellektual salohiyat, STEM dasturi.*

We mainly consider processes ranging from climate change to technological disruptions as major challenges of the 21st century. But the neglect of our women and girls in society, in the field of education, is also becoming one of the most pressing issues that need to be addressed today. This is also the case with ordinary learning. That is why the world should not be deprived of the potential, intelligence or creativity of thousands of our women and young girls who are victims of deep inequality and superstition. The situation of discrimination[3] against our young women and girls in education and science also has a direct negative impact on the development of society. Because education is a process aimed at expanding the opportunities for a person to make a competent choice of life path and self-development of the individual, it is a process and result of goal-setting, pedagogically organized and systematic socialization of the person. Through education, a person creates an image of the world by taking an active position in the world of objective, social and spiritual culture. Education is also a mechanism for mastering culture. By expanding the education of our women and girls, we will also help them find their place in society as cultured individuals. Because education and culture are closely intertwined. A civilized person is an educated person. Education is the basic cultural form of human existence as it is teaching, educating, shaping. It is impossible to imagine human life without the realization of cultural

[3] Discrimination (lot. discriminatio - differentiation) - restriction of the rights of the state, legal entity or individual (in relation to the rights of another state, legal entity or individual). Domestic laws of democracies and international law prohibit all forms of discrimination, including the practical or legal discrimination of citizens' rights on the basis of nationality, race, sex or religion.

patterns and human interactions with the world in the educational space. Education is not only a means of transmitting culture, but it also forms a new culture, develops society and leads to higher goals.

The activities of young women play an important role in the development of society. The need for pedagogical and communication technologies to ensure the active participation of women in all spheres of society and their interaction is becoming one of the most pressing issues in science today. That is, it is necessary to use pedagogical and information and communication technologies in the modernization of their activities. Today, in many countries around the world, women make up half of the population, but the percentage of participation in science is very low. I would like to emphasize that the task of creating a more just and inclusive world lies not only with women, but also with men, who must take responsibility and actively work to end discriminatory systems.

For example, more girls are in school today than ever before, but they do not always have the opportunity to complete and benefit from the education of their choice like boys. Many young girls and women are held back or hindered by misconceptions, social norms, and expectations that affect the quality of education they study and the sciences they study. They are particularly rare in science, technology, engineering and mathematics (STEM) education and similar STEM[4] careers. To put an end to such negative situations, the United Nations General Assembly declared February 11, 2015 as the International Day of Women and Girls in Science, which calls for the full and equal use of science by women and girls. As well as gender equality and empowerment of women. Every year on February 11, International Women's Day is celebrated. One of the reasons for celebrating this day internationally is to encourage women and girls to participate fully and equally in science.

On December 22, 2015, the UN General Assembly resolution decided to mark International Day every year to recognize the important role of women and girls in science and technology. The International Day of Women and Girls in Science, celebrated on 11 February, is organized by UNESCO and UN-Women (link is external) through cooperation institutions and civil society partners to encourage women and girls in science. This day is an opportunity to encourage full and equal access and participation of women and girls in science. Gender equality is a global priority of UNESCO, and the ability to support young girls, educate them and fully express their ideas is a support for development and peace.

If we look at the statistics, women accounted for one in three surveyors (33%) in 2018. They have achieved equality in the sciences of life in many countries, and in some cases even dominate the field. However, they account for a quarter (28%) of graduates in engineering and 40% in computer science. Only 22 percent of Al[5]professionals are women. Surprisingly, these industries are leading the fourth industrial revolution. Women and girls still make up only 28 percent of engineering graduates and 40 percent of computer science graduates, according to experts from UNESCO’s Department of Gender Science. Women are also a minority in technical and leadership roles in technology companies. In the United States, for example, the main reason women leave their jobs in the world of technology is a lack of appreciation. Such situations are a major obstacle to the development of science in society today.

According to UNESCO, less than one in four researchers in the business world are women, and women have difficulty accessing finance when they start their own businesses. In 2019, only

[4] STEM - Science, Technology, Engineering, Mathematics
[5] Artificial intelligence

2% of capital in large sectors will go to women-based startups. There are countries that have taken steps to support women entrepreneurs. For example, in 2018, the Chilean government introduced the “Human Capital for Innovation in Women in Enterprises” scheme. She plans to co-finance up to 30 million pesos (about $ 40,000) for technology-based startups founded by women.

Supporting the participation of women and young girls in science, focusing on their research, further strengthening the right to education is one of the pressing issues of today. Violation of their right to education can lead to gender inequality in society and exacerbation of current problems in science.

It is true that today women around the world have reached parity[6] (45-55%). They continue their studies at the bachelor’s and master’s levels and at the PhD level (44%), but the gender gap tends to widen as they continue their careers. To prevent this, we need to create as many opportunities for women and girls as possible to be educated. As a result, we will help our young girls and women to become educated, intellectually gifted, open-minded, independent-minded people and to have their own place in society.

Turning to the statistics again, in 2013, female researchers in 107 countries accounted for 28.4 percent, and in 2018, 33.3 percent of all researchers. In 2018, the share of female doctoral graduates worldwide was 44%, and the share of female researchers worldwide was 33%. In the same 2018, the share of women professionals was 22% worldwide. In 2019, 2% of the capital directed to start-ups was contributed by women. Analyzing nearly 3 million computer science articles published in the U.S. between 1970 and 2018, experts concluded that women remain a minority in digital information technology, computing, physics, math, and engineering, and that gender equality will not be achieved until 2100.

Gender equality is not only a human right, but gender equality in general is one of the building blocks of a peaceful, prosperous and stable world. Today, in education in science, technology, engineering and mathematics, UNESCO prioritizes STEM and science education for girls. According to a new UNESCO report, only 35% of STEM students in higher education worldwide are women and young girls, but there are differences in STEM subjects. For example, only 3% of female students in higher education choose information and communication technologies (ICT). This gender disparity is also a cause for concern, especially since STEM careers are often referred to as future jobs that promote innovation, social well-being, inclusive growth and sustainable development. To reduce gender disparities in STEM occupations, it is important to encourage girls and women to continue their STEM education and training. To do this, take into account the following:

• Giving girls and women the opportunity to take the next step in their future university or career by educating them more about science;;

• Raising awareness of the relevance and importance of science in the daily lives of girls and women;

• The involvement and participation of women in STEMs needs to be further enhanced by reducing gender gaps by eliminating discrimination, misconceptions and stereotypes.

The attention paid to women and gender equality in Uzbekistan, the conditions created, and the normative and legal acts adopted to support women's education are also noteworthy.

Our President Sh.M. The following remarks by Mirziyoyev at the International Women's Day 2020 are noteworthy: "If we want to bring up future Khorezmians, Fergana people, Berunis,

[6] Parity lot.paritas means equality, equal rights, equal representation

Bukhara people, Ulugbeks, Navoi people, first of all, we need to bring up healthy, well-educated and spiritual mothers".

The legal framework for the support of women and girls has been created in our country, and 30 normative documents have been adopted. Currently, the number of women studying in higher education institutions of the country has reached about 365 thousand, which is 47% of the total number of students. There is a single electronic system for coordinating postgraduate education (phd.mininnovation.uz) with 2,483 women engaged in research in postgraduate education. In 2021, the number of women with a PhD degree reached 707 and the number of women with a PhD degree reached 2,861.

In conclusion, if we want to bring up our youth and children as healthy and harmonious people, loyal to the Motherland, we must first of all open the way to science and career for women and young girls.

List of used literature:

1. Information and communication technologies in education: UNESCO Institute for information technologies in education, 2013.

2. Connell R.W. Gender and Power: Society, the person and Politics. Cambridge, 2009. -A.: -P. 184.

3. Spike P.V. Women’s rights and society. Lynne Rienner Publishers, 1992. –A.: -P. 225.

4. Bendas T.V. Gender psychology. Peter, 2006. -M.: - P. 26-28.

5. Spike P.V. Women’s rights and society. Lynne Rienner Publishers, 2005. –A.: -P. 225.

6. Heline Julien. Is There a Humane Right to Safe Motherhood with in the United Nations Legal System? // World Health Organization. 2014. – USA.: -P. 124

SOMONIYLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI

To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan Davlat Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
mirazamtohktasinov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda IX - X asrlarda hukm surgan Somoniylar sulolasining kelib chiqishi va ularning huquqiy maqomi haqida olib borilgan yangi ilmiy tadqiqotlar natijalari haqida ma'lumotlar berildi.*

Kalit so‘zlar: *Balx, Toxariston, Yabg‘ular sulolasi, Ismoil Somoniy, Xuroson va Movarounnahr, "Tarixiy Tojikiston", "Somoniylar davlati", Buxoro, Somonxudot.*

Аннотация: *В статье представлена информация о результатах новых научных исследований о происхождении и правовом статусе династии Сомани, правившей в Средней Азии в IX – X веках.*

Ключевые слова: *Балх, Тохаристан, династия Ябгуляров, Исмаил Самани, Хорасан и Моварунnахр, «Исторический Таджикистан», «Государство саманистов», Бухара, Сомонхудот.*

Abstract: *This article provides information on the results of new scientific research on the origin and legal status of the Somani dynasty, which ruled in Central Asia in the 9th - 10th centuries.*

Key words: *Balkh, Tokharistan, Yabgular dynasty, Ismail Samani, Khorasan and Movarunnahr, "Historical Tajikistan", "State of Samanis", Bukhara, Somonkhudot.*

Yozma manbalarda Somoniylar sulolasining turli vakillari, ular hukm surgan davrdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol haqida batafsil ma'lumotlar mavjud. Lekin Somoniylar sulolasining kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar juda ham kam va bir-biriga ziddir. Shuning uchun bu masala shu paytgacha hali aniq yechimini topmagan. Somoniylarning asl kelib chiqishi noma'lum bo‘lsa ham, ko‘pchilik mutaxassislar orasida ularning kelib chiqishi fors va Sosoniylar sulolasi bilan bog‘liq degan xato fikr hukm surib kelmoqda. Bu esa boshqa mutaxassis bo‘lmagan olimlarning tadqiqotlarida va deyarli barcha ensiklopedik nashrlarda o‘z ifodasini topgan. Tojikistonda esa Somoniylarning hukmronlik davri "tojik davlatchiligi" deb ta'riflanadi va Tojikiston Respublikasining davlat ramzlarida ham aks etdirilgan. Dushanbeda Ismoil Somoniyning bahaybat haykali o‘rnatilgan, pul birligi “somoniy” deb ataladi. “Tarixiy Tojikiston” deganda ham tojik olimlari Somoniylar davlatining hududlarini nazarda tutadilar va bu Tojikiston Respublikasining davlat ramzlarida ham o‘z ifodasini topgan. 2000-yilda muomalaga kiritilgan Tojikiston milliy pul birligi “somoniy” deb nomlangan. Somoniylaning nomini abadiylas htirish davlat miqyosida olib boriladi. Ismoil Somoniy nomi ko‘chalarga, aholi turar joylariga, geografik mavzelarga berildi. Ismoil Somoniy yodgorliklari va boshqalar Dushanbeda Ismoil Somoniyning bahaybat haykali, shuningdek, Ko‘lob, Isfara, Tursunzoda va Qo‘rg‘on-Tepa shaharlarida ham uning haykallari o‘rnatildi. Bularga qarab, tarixiy mazkur shaxsning yangi qiyofasining vujudga kelgani va mustahkamlanganini ko‘rish mumkin. “Tarixiy Tojikiston” deganda ham tojik olimlari Somoniylar davlatining hududlarini nazarda tutadilar. Buxoro va Samarqand shaharlariga bo‘lgan da’volar ham shunga asoslangan. E.Rahmon o‘zining barcha nutqlarida albatta Somoniylarni eslab o‘tadi va ularning “tojik xalqiga” qilgan “xizmatlari” ni aytib o‘tadi. Uning ilmiy asoslanmagan fikriga ko‘ra, Somoniylar xizmatlaridani biri shundan iborat ediki, arablarning kirib kelishi va islom dinining tarqalishiga qaramasdan ularning hukmronligi davrida “tojik tili” ya’ni fors va doriy davlat tili sifatida saqlanib qoldi. Bu so‘zlardan kelib chiqadiki, “tojik tili”, ya’ni fors tili Markaziy Osiyoda arablar istilosiga qadar ham ishlatilgan, bu ham u yoqda tursin, hatto davlat tili bo‘lgan.

Har bir tarixchi va sharqshunosga ma'lumki, Markaziy Osiyoda arablar bosqiniga qadar sug‘d, boxtar, xorazm va turk tillari ishlatilgan. Yangi fors tili arablar bosqinidan keyin IX - X asrlarda shakllana boshlagan. Yangi fors tilidagi she'riyat dastlab Safforiylar saroyida qo‘llab-quvvatlandi, ulardan keyin esa fors tilida ijod qiluvchi shoirlar Somoniylar saroyida boshpana topdilar. Somoniylarning kelib chiqishi turk bo‘lsa ham ular yangi fors tiliga homiylik qildilar. Ammo Somoniylar davrida ham yangi fors tili faqat saroy ichida tor doirada ishlatilgan. Davlat tili sifatida arab tili ishlatishda davom etgan. Somoniylar saroyida shoirlarning ko‘pchiligi arab tilida ijod qilganlar, faqat bir nechta shoir ikki tilda - arab va yangi fors tillarida she'r yozganlar. Somoniylarga tobe bo‘lgan aholining aksariyatini turklar va ular bilan qo‘shilib ketgan sug‘dlar tashkil etgan, ular esa turk va sug‘d tillarida so‘zlashishda davom etganlar. Yangi fors tili Buxoro va Samarqand aholisi orasida ham ishlatilgan, chunki arab va fors bosqinchilari mahalli aholi, ya'ni sug‘dlar va turklarni shahardan haydab chuqarib, ularning uylarini egallagan edilar.Somoniylarning qilgan yana bir xizmati, E.Rahmon fikriga ko‘ra, shundan iboratki, “ular oriylar yashagan keng hududlarni, ya’ni Movarounnahr va Xuroson o‘z hukmronligi ostida birlashtirishga muvaffaq bo‘ldilar va u yerlarda markazlashgan hokimiyat o‘rnatdilar. Birinchidan, o‘sha davrda Movarounnahr va Xuroson aholisi juda turli xil edi va uning katta qismini turklar

tashkil etgan edi, chunki arablar va forslar bosqiniga qadar Movarounnahr va Toxoriston Turk xonligining tarkibiga kirgan. Xurosonga ham turklar xiyoniylar va eftaliylar davri (IV-V asrlarda) dan boshlab ko‘plab kirib borganlar. Ikkinchidan, hech qanday “Somoniylar davlati” yo‘q edi. Rasman ular Abbosiylar xalifalarining voliylari bo‘lib, ularga itoat qilganlar va ularning barcha buyruqlarini so‘zsiz bajarganlar. Somoniylarning mahalliy ma’muriyati Abbosiylarning boshqaruv tizimi bilan bir xil edi. Ismoil Somoniy hech qachon mustaqillikka intilmagan, aksincha, u bir necha marta Bag‘doddagi boshliqlaridan xalifaning shaxsiy soqchilari qatorida xizmat qilishni so‘ragan. Ammo har safar uning iltimosi rad etilib, u amir unvonli oddiy voliy lavozimi bilan qanoatlanishga majbur bo‘lgan. Albatta, E.Rahmon, bu davr bo‘yicha mutaxassis emas, hatto tarixchi ham emas, Somoniylar tarixi bo‘yicha chet ellik olimlarining yangi tadqiqotlarni bilmaydi. Lekin Tojikistonlik olimlar biladilar, ammo o‘zlarini bilmaslikka olib, o‘z xalqini va prezidentini aldashda davom etmoqdalar. Chunki ularda bu yangi tadqiqotlarga javob berishga yaraydigan hech narsa yo‘q, bu yangi tadqiqotlar esa Tojikistonning yolg‘onga asoslangan milliy davlatchilik konsepsiyasini butunlay bekor qiladi. Ammo haqiqatni faqat ma’lum vaqtgacha yashirish mumkin, shunday vaqt keladiki, haqiqat baribir yuzaga chiqadi va g‘alaba qozonadi. Somoniy davlatini “tojiklarning birinchi milliy davlati” deb ataydi, ammo tojiklar davlatchiligining boshlanishi afsonaviy Kayoniylar va Peshdodiydlar davriga to‘g‘ri kelishiga ishora qiladi. Shu bilan birga u Tojikiston davlatchiligining tarixiga nafaqat Ahamoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar sulolalarining hukmronligi davrini, balki Kushonlar va Eftaliylarni ham kiritadi. Demak, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo tarixida “tojiklar” bo‘lgan, ularning tarkibiga esa barcha eroniy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar kirgan. Bu haqiqiy paneroniy milliy shovinizmdan boshqa narsa emas, shunga o‘xshash qarashlarni qirg‘izlarning “milliy mafkurasi” kuzatish mumkin, faqat ularda panturkchilikka asoslangan millatchilik da’volari ilgari surilgan. Balki bu sun’iy ravishda tuzilgan mayda “millat”larga xos jihat bo‘lsa kerak. Ular orasidagi farq shundan iboratki, qirg‘izlar yaqin o‘tmishda ham ko‘chmanchi qabila hisoblangan, “tojiklar” esa - bu Markaziy Osiyoda turkiy tilli aholi orasida yashovchi turli eroniy tillarda so‘zlashuvchi va kelib chiqishi har xil bo‘lgan guruhlardan “qizil ruslar” tomonidan sun'iy ravishda tuzilgan odamlar to‘plamidir.

Xulosa o‘rnida shuni alohida takidlash joizki, XIV - XV asrlarda Samarqand Amir Temur va Temuriylarning poytaxti bo‘lganda, Buxoro va Samarqandda katta qurilish ishlari olib borildi, shunda bu yerga Erondan minglab me’morlar, hunarmandlar va quruvchilar taklif etildi, chunki Eron Temuriylarga qarashli yer edi. XVI-XVIII asrlarda, Shayboniylar Safaviylar bilan uzoq vaqt olib borgan urushlar davomida asir qilib olingan barcha eronliklar qulga aylantirilib, Buxoro va Samarqandda qoldirilgan. 1810-yilda Marvdan Turkistonga taxminan 40 ming eroniy oilalari ko‘chirilgan va asosan Samarqand va Buxoro atroflariga joylashtirilgan edi. Ularning bir qismi turk, lekin asosiy qismi fors edi. XIX-XX asr boshlarida qul savdosi bilan asosan hindlar va turkmanlar shug‘ullanganlar, ular Turkistonning qul bozorlariga Erondan minglab qullarni keltirganlar. Buxoroda ham katta qul bozori bor edi. Fors qullari eng arzon edi - bir rus qulining narxiga 6 ta fors qullarini sotib olish mumkin edi. XIX asr o‘rtalarida Buxoro aholisining chorak qismini o‘zbeklar, to‘rtdan uch qismi esa fors qullari tashkil qilar edi. Erondan odamlarni ko‘chishlar 1917-yildagi rus inqilobiga qadar davom etgan. Shi’a mazhabiga e’tiqod qiluvchi aholining ko‘pligi sababli 1910-yilda Buxoro xonligida sunniylar va shi’alar o‘rtasida katta to‘qnashuv sodir bo‘ldi. Buxoro va Samarqand shaharlarining aholisi ana shunday shakllangan,

lekin ulardagi hokimiyat Turk xoqonligi davridan boshlab rus istilosiga qadar har doim turklarning qo'lida bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т:. Фан. 1996. Б. 120.
2. Неьматов Н. Давлати Сомониён. –Ирфон. 1999. Б. 328.
3. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит тарих. – Т:. Цюрих. 2005. Б. 604.
4. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –T.: Sharq. 2010. B. 511
5. Homidiy H. Daholar davrasi. –T:. O‘qituvchi. 2011. B. 352.
6. Эшов Б.ва Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
7. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
8. https://buxoroisharif.uz/5115/?amp=1
9. https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-abdulloh-xorazmiy/
10. http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/320

YOSHLARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING O‘RNI

Abduvaliyeva Mahliyo Baxtiyor qizi
NamDPI Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Abdullayeva Asila Abdulxodiyevna
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Annotasiya*. Maqolada yoshlarni barkamol qilib tayyorlashda, ularni ijtimoiy va ijodiy faollikka undashda ijtimoiy – gumanitar fanlar, jumladan O’zbekiston tarixi fanining o‘rni ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: yosh avlod, globallashuv, qadriyat, O‘zbekiston tarixi, diniy bag‘rikenglik, axloq, internet, yuridik savodxonlik, korrupsiya.*

Jahonda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlari Vatanimiz tarixini, uning rivojlanish istiqbollarini, shuningdek, har bir xalq va millatning yuksalishi uchun qayg‘urgan olim hamda mutafakkirlarlarning faoliyatini o‘rganishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonlarni obyektiv va to‘laqonli yoritish dolzarbligi bilan bir qatorda muayyan xalqning tarixiy qadriyatlari va ajdodlari merosini umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltiradi.

Hozirgi davrda O‘zbekistonda O’zbekiston tarixi fanini har tomonlama xolis va ilmiy asosda o‘rganish va yoritish, ayniqsa, o‘zbek davlatchiligi tarixini, undagi tarixiy shaxslar va ularning jahon sivilizasiyasi taraqqiyotida tutgan o‘rni va ta'sirini yosh avlod ongiga singdirishga katta e'tibor berilmoqda. Har bir xalqning o‘zligini va nimalarga qodirligini ko‘rsatadigan birdan bir kuch – bu, uning tarixidir. Zero, biz xalqni nomini emas, balki iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti qanday kechganligini anglashimiz, chuqur his etishimiz lozim.

Vatanimiz tarixiga oid asarlarni o‘rganish - yoshlar ijtimoiy ongi hamda tafakkurini shakllantirishda muhim manba sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai-nazardan, ularni ta'lim muassasida ko‘proq o‘qitish lozimdir.

2021-yilning 19-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma'naviy – ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan selektor uchrashuvda: “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy

tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”, - deya tarixning jamiyat hayotida hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidladi [1]. Milliy g‘oya, milliy ruh, milliy o‘zlik hamisha tarixga xolisona munosabat orqali shakllanadi. Negaki, haqqoniy tarix hayot saboqlarini beruvchi, jamiyat va xalqning rivoji, taraqqiyot bosqichlari,tarixiy jarayondagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatuvchi, har bir yangi avlod qalbida Vatan va xalqqa mehr-muhabbat hissiyotini uyg‘otuvchi ilm sohasidir.

O‘zbekiston tarixi fanini yoshlarga o‘qitishdan maqsad - yosh avlod ongida insoniyat uchun eng muhim bo‘lgan ma'naviyatni shakllantirish hamda yanada yuksaltirish, ular ongida yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish jarayonida milliy ong va sog‘lom fikrni uyg‘otish, tarixiy xotiraning yoshlarimizni Vatanga sadoqat hamda millatparvarlik ruhida tarbiyalashdagi mislsiz ahamiyatini ifoda etish, o‘z taqdiri va kelajagini barpo etadigan yosh avlodni yangi jamiyatni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan g‘oyalar asosida tarbiyalashga qaratilgan.[2]

O‘zbekiston tarixi fanini yosh avlodga o‘qitish va o‘rgatishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e'tibor qaratish lozimdir:

- ❖ Vatanimiz hududlarida eng qadimgi davrlardan boshlab bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni xolisona hamda manbalarga tayangan holda tahlil qilish, o‘rganish, ularning sabablari va mohiyatini ochib berish;
- ❖ tarixning turli davrlarida mamlakat iqtisodiy va madaniy ravnaqi uchun fidoyilik qilgan davlat arboblari, ulug‘ sarkardalar, ilm-fan hamda madaniyat namoyandalari, milliy qahramonlar faoliyatini xolisona baholash asosida yoshlarimizni millatparvarlik ruhida tarbiyalash;
- ❖ tarixiy xotira asosida yoshlarimizni “Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo‘lmaymiz” g‘oyasi ruhida tarbiyalash; – hozirgi kunda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar va juda ko‘plab bo‘layotgan zamonaviy o‘zgarishlar mohiyatini, huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi yangiliklarni, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatga integratsiyalashuvi jarayonlarini yoshlarga yetkazish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarixiy tafakkur va tarixiy xotira orqali yosh avlod dunyoqarashini rivojlantirish, uning mazmun-mohiyatini singdirish – jamiyatning keyingi taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2021-yilning 19-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma'naviy – ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan selektor uchrashuvi. https://xs.uz/uzkr/post.

2. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2010. –Б.512

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Jo‘rayeva Barno Alisher qizi

Namangan davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Tel: +998917598205

barnojurayeva2005@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada buyuk Amir Temur hamda temuriylar davridagi yoshlarning, yurt, millat uchun fidoyiligi, harbiylardagi vatanparvarlik, ona yurt mehri kabi hissiyotlarning o'rni, yuqoriligi hamda Temurning qo'shin tuzilmasidagi navkarlarga bo'lgan munosabati, ta'siri haqida aytib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, aholi farovonligi, sipohiy jangchilar, "tuzuklar", mardlik, harbiy tuzilmalar, milliy ruhning yuksakligi, ong, ona yurt.*

Annotation: *this article talks about the great Timur and the youth during the Timurid period, about the role and superiority of emotions such as sacrifice for the country and nation, patriotism in the military, love for the motherland, and about the attitude and influence of Timur on the servicemen in the army structure. .*

Key words: *patriotism, welfare of the population, soldiers, "tuzuks", bravery, military formations, the height of the national spirit, consciousness, motherland.*

Аннотация: *в данной статье говорится о великом Тимуре и молодежи в период Тимуридов, о роли и превосходстве таких эмоций, как жертвенность ради страны и нации, патриотизм в армии, любовь к Родине, а также об отношении и влиянии Тимур о военнослужащих в составе армии.*

Ключевые слова*: патриотизм, благосостояние населения, воины, «тузуки», храбрость, воинские формирования, высота национального духа, сознание, Родина.*

Kirish: Tarixdan ma'lumki, Amir Temur shaxsi buyuk markazlashgan davlat tuzgan hukmdor hisoblanadi. Temurning kitobi bo'lmish "Temur tuzuklar"i necha davrlardan buyun podsholar va davlat boshqaruvchilari uchun muhim dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Amir Temur tug'ilgan davr ham uning o'ziga xos sarkarda ekanligiga bir ishoradir.Amir Temurning davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishdagi o'ziga xos maktabi adolatli, insonparvar jamiyatni qaror toptirish kerakligini uqtirdi. Bunda qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash tamoyillari muhim o'rinda turadi. Shuningdek, Sohibqiron Temur saltanati yuksak ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'rilgan saltanat edi. Xalqning, yoshlarning milliy g'ururini, milliy ongini yuksaltirish, ona yurtga muhabbatni kuchaytirish uchun buyuk temur qo'shini tarkibidagilar, nafaqat ular uchun bugungi kundagi yurt fidoyilari harbiylar, yoshlar uchun nasihat, mardlikka irodani kuchaytirishga undovchi so'zlarini inson qalb tubida hamisha saqlamog'i lozimdir.

Asosiy qism: Sohibqironning davlat ishlarini idora etishdagi dono o'gitlari ham teran ma'nolar kasb etadi:

"Barcha ishlarimning to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim." Deydi. Hamda Temurning har bir g'alabaga erishishida ham uning avvalo aql bilan ish tutishi muvaffaqiyatlar keltiradi.Milliy ruhni shakllantirish va yuksaltirishda milliy his-tuyg'u zarur o'rin tutadi. Bunda milliy tuyg'u tabiiy tuyg'ulardan bo'lib, ayni paytda milliy ruhiy hayotning juda ham nozik elementlaridir. Milliy tuyg'ular asosiy milliy iftoxor, milliy xarakterning, demakki, milliy psixologiyaning belgilaridan biri, ajralmas qismidir.Amir Temur o‘zini xo‘jayiniga bag‘ishlagan, unga sadoqat bilan xizmat qilgan askarning boyligi, davlati, rohati kundan-kunga ortib borishiga ishongan. Fikrini davom ettirib, shunday yozadi: “Agar navkar ish vaqtida o‘z vazifasi va burchini unutib, ishdan qaytsa, undan yuz o‘girish kerak”. Ish vaqtida bahona izlab, urush-janjal paytida qochib ketishga ruxsat so‘rab, bugungi ishni ertaga qoldiradigan bunday ishchilarning nomini tilga olish o‘rinli emas. Amir Temurning harbiy jasoratini tahlil qilish

asosida shuni aytishimiz mumkinki, u tuzgan qudratli va intizomli qo‘shin o‘sha davrda dunyodagi eng ilg‘or qo‘shin bo‘lib, keyinchalik u buyuk sarkardalar, harbiy mutaxassislar, tarixchilar tomonidan e’tirof etilgan va bu qo‘shinning o‘zi ham shunday bo‘lgan. bir necha asrlar davomida namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Uning armiya haqidagi ta’limoti hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, uni davlat boshqaruvi va harbiy ta’lim muassasalarida chuqur o‘rganish va amaliyotda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Ulug' bobokalonimiz Temurning "Kuch-adolatda" degan gaplari bugun O'zbekistonda yangi davlat qurilishiga asos qilib olindi. Huquqiy demokratik, adolatli davlatni barpo etish, insonparvar fuqarolik jamiyatini shakllantirish tamoyillari avvalo Amir Temur mamlakatdorlik maktabining ilg'or jahoniy tajribalar bilan uyg'unlashgan mahsulidir. Sohibqironning "Davlatu saltanat uch narsa bilan:mulk(davlat hududi), xazina va lashkar bilan tikdir degan fikrining davomini prezident davlat suverenteti, uning xududiy yaxlitligi, milliy xavfsizlik, xazinaning baquvvatligi, qurolli kuchlar jangovar holatiga alohida e'tibor berayotganligidan anglash ham qiyin emas.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki Amir Temur qo'shini harbiy qism va bo'linmalar o'zaro kiyim kechagi, ko'targan bayrog'i orqali ham ajralib turgan. Bunday farqlanish jang chog'i qo'shinni operativ boshqarish imkoniyatini bera olishi bilan birga qo'shinning ruhiy tetikligiga ham ajralib turish instinkti alohida ta'sir o'tkazgan. Ta’kidlash joizki, milliy o‘zlikni anglash millatning ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqt birliklari o‘rinli bo‘lgan va pirovard natijada ongsizlik holatidagi tafakkurining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadigan millat ruhiyatini saqlab qolishning muhim omili hisoblanadi. Bu yoshlarning milliy ma’naviyatini yuksaltirish, ularning irodasi va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Amir Temurning jangovarligi xususida birqancha olimlar yozibqoldirishgan, shulardan biri F. Shlosser o'zining "Jahon tarixi"asarida "Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq sharqda qononshunos bo'lish bilan birga o'zida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi" deb yozadi.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, milliy o‘zlikni anglash har bir xalq hayotida g‘oyat muhim o‘rin tutadi, chunki u o‘z o‘tmishini chuqur anglash asosida bugungi kunni to‘g‘ri va har tomonlama idrok etishga erishadi. ayni paytda o‘z kelajagini aniq belgilab, taraqqiyot yo‘liga o‘tishi mumkin. Yoshlarning milliy ma’naviyatini yuksaltirishda fuqarolik, vatan uchun o'z hissasini qo'sha oluvchi shaxs bo'lishida muhimdir.Temuriylar davrida yurish yoki jangdan oldin lashkarni ko‘rikdan o‘tkazib, uning jangovar ruhi va holatini aniklash izchillikka aylangan. Qo'shinning jangovar holatini nazardan o‘tkazish imtihon qilish usuli sifatida e’tirof etilgan ovgarta (ov uyushtirish)dan unumli foydalanilgan.

Temuriylar harbiy yurishlarga ko‘proq ko'klam, yoz va kuz mavsumlarida otlanishni ma’qul bilganlar. Safar qoidasiga ko‘ra, har bir sarkarda o‘z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo‘linmalari bilan yasol - jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo‘shin janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalar bilan to‘silgan, xandaqdar bilan ihota qilingan, soqchi bo‘linmalar tomonidan qo‘riqlab turilgan. Bu kabi ko'plab Temuriylar davridagi yoshlarga o'rnak bo'la olguvchi harakatlar yurtni idora etishda juda ham muhim hisoblanadi. Davlat taraqqiyoti, islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan xalqning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liq. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz jamiyatimizda shunday madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish, o‘zgalarning huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish kundalik qoida va odatga aylansin”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."Harbiy xizmatchilarda milliy ruhni yuksaltirish omillari." Shohakimov Akromjon Raxmonovich. Toshkent 2022

2."Ma'naviyat yulduzlari"- davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 150-160-betlar.

3. Yunus Ulug'ning "Amir Temur" kitobi Toshkent nashriyoti 2015

4."Buyuk siymolar, allomalar" Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti. Toshkent 1996 10-15-betlar

5.Tarixdan saboqlar. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1994

6."Vatan Tuyg'usi" Abduqahhor Ibrohimov, Xayriddin Sultonov, Narzulla Jo'rayev. Toshkent. "O'zbekiston" 1996

7. B.Ahmedov, A.Aminov "Temur"

“QULOQ QILISH” SIYOSATI VA UNING NAMANGAN VILOYATI HUDUDLARIDAGI OQIBATLARI

Abdujabbarov Mirzohid Abdug‘affor o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

Tel: +998 88 651 80 80

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizdagi yashab o’tgan mahalliy ziyolilarning sovetlar tomonidan nohaq ayblab o’zga yurtlarga surgun qilinib, otib tashlab, qatag’onlik siyosatini amalga oshirilishi haqida fikrlar yuritilgan. Mustaqillik yillaridan boshlab, ularning nomlari hozirgacha tiklanishda davom etmoqda.*

Аннотация: *В данной статье излагаются мысли о реализации политики репрессий в отношении местной интеллигенции, проживавшей в нашей стране и депортированной Советским Союзом в другие страны по несправедливым обвинениям. Начиная с лет независимости, их имена продолжают возрождаться.*

Annotation: *In this article, there are thoughts about the implementation of the repression policy of the local intellectuals who lived in our country and were deported to other countries by the Soviets on unjust charges. Since the years of independence, their names continue to be revived.*

Kalit so‘zlar: *Qatag‘onlik siyosati, Quloqlashtirish, Sobiq quloqlar, Surgun qilinganlar, Xerson, Odessa.*

Ключевые слова: *Политика репрессий, Подслушивание, Бывшие уши, Депортированные, Херсон, Одесса.*

Key words: *Politics of repression, Eavesdropping, Former ears, Deportees, Kherson, Odessa.*

Mustaqillik yillarida respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotining barcha sohalarida tub o‘zgarishlar yuz berib, uning barcha yo‘nalishlarida yangilanish, poklanish jarayoni boshlandi. 70 yildan uzoq vaqt hukmronlik qilgan mustabid sovet davlati qulab, hukmron kommunistik mafkura o‘rnini milliy istiqlol mafkurasi egallay boshladi. Eng muhimi, xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan mustaqillikka erishib, o‘z tarixi va milliy an’analarini har tomonlama o‘rganish, unga egalik qilish huquqini qo‘lga kiritdi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqi va uning ko‘p ming yillik tarixi tamoman qaytadan yozilmoqda, uning sovetlar davrida soxtalashtirilgan, qoralangan sahifalari haqqoniylik bilan o‘rganilmoqda. Avvalo, ilgari yopiq bo‘lgan arxiv hujjatlarini, ilmiy jamoatchilik uchun ma’lum

bo‘lmagan materiallarni o‘rganish uchun imkoniyat yaratildi. Bu borada sobiq Ittifoq respublikalari va chet ellardagi arxiv tashkilotlari, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaytirildi. Shuningdek, o‘sha davrda “quloq” sifatida boshqa o‘lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgani ma’lum bo‘ldi”. **(“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning buyuk G‘alabaning 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan).**

1929-yil oxirlaridan e’tiboran sovet davlati qishloq xo‘jaligini yoppasiga kollektivlashtirish siyosati va amaliyotini keng ko‘lamda boshlab yubordi. Kompartiya oliy organlari va sovet hukumati tomonidan e’lon qilingan qaror va ko‘rsatmalarda kollektivlashtirish sur’atlarini kuchaytirish, unga ommaviy tus berish, «quloq» xo‘jaliklarini sinf sifatida tugatish shiori o‘rtaga tashlandi. Mahalliy hokimiyat organlari markaz ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarish uchun kollektivlashtirishning boshida turib ko‘proq majburlash, zo‘ravonlik usullariga e’tiborni kuchaytirdi. Qatag‘onlik sovet tuzumi va jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi, uning tabiiy yo‘ldoshi sifatida namoyon bo‘lgandi. 1930-yillarning o‘rtalariga kelib bu mudxish siyosat o‘zining kulminatsion nuqtasiga ko‘tarildi. S.M. Kirovning 1934-yil 1-dekabrda otib o‘ldirilishidan keyin butun mamlakatda ommaviy qatag‘onlar avj olib ketdi. O‘sha kunning o‘zida SSSR MIKning dahshatli qarori chiqdi. Endi «terrorchilik harakati»da ishtirok etishda ayblanganlar, siyosiy ishlar bo‘yicha qamoqqa olinganlar ishi shoshilinch, tezkor ko‘rilib, o‘n kun ichida yakunlanishi, ayblov xulosasi sudda ko‘rilishiga bir kun qolganida aybdorga berilishi, ish tarafdorlar ishtirokisiz ko‘rilishi, hukm ustidan shikoyat arizasi va avf haqidagi iltimosnoma berishga yo‘l qo‘ymaslik, darhol otuv jazosini qo‘llash, hukmni o‘sha zahoti ijro etish huquqi NKVD tergovchilari qo‘liga berib qo‘yildi. Shu kundan katta terror zilzilasi butun mamlakatni o‘z domiga tortdi, millionlab sovet kishilarini jismonan yo‘q qilish, qamoqqa olishdan iborat mudxish jarayon boshlandi. 1937-yilning may-iyun, ayniqsa so‘nggi bir yarim oyi davrida «xarbiyfashistik isyonchilar» otilganidan so‘ng bo‘lajak ommaviy qatag‘on kompaniyasini intensiv rivojlantirish amalga oshiriladi. Iyul oyining boshlarida bo‘lajak terrorning yuz minglab qurbonlari taqdirini belgilovchi qarorlar qabul qilingan. Ulardan eng muhimi siyosiy byuroning 1937-yil 2-iyuldagi «Sovetlarga qarshi unsurlar to‘g‘risida»gi qarori bo‘lib, u «Katta terror» davrining eng ko‘lamli qatag‘on operatsiyasini o‘tkazish uchun o‘ziga xos yo’l edi.

Yuqoridagi qaror asosida NKVDning 00447-sonli buyrug‘i («Quloqlar to‘g‘risidagi buyruq») tayyorlangan. Unga ko‘ra, 1937-yil 5-avgustdan 1938-yil noyabr o‘rtalarigacha maxsus tashkil etilgan «uchlik»lar kamida 800 ming kishini tergov qilib, ulardan yarmini otuvga hukm qilganlar. 1937-yil avgustidan NKVD milliy respublikalarda ham qatag‘on operatsiyalarini o‘tkazish bo‘yicha bir necha buyruqlar chiqaradi. Bu bilan 1937-1938-yillardagi terror qurbonlari soni deyarli 350 ming kishiga ko‘paytirib yuboriladi. 1937-yil 30-iyuldagi 00447-sonli «sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarni qatag‘on qilish bo‘yicha operatsiya to‘g‘risida»gi operativ buyruqda avvalida qatag‘on qilingan, qatag‘on bo‘lishdan yashirinib yurgan, lagerlardan, surgundan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan sobiq quloqlarning katta qismi qishloqlarda va shaharlarda o‘rnashib olgani qayd qilingan.[1]

Boshqa joylarda bo‘lgani kabi Namangan viloyatida ham kollektivlashtirish jarayonida ming yillar davomida shakllangan dehqonchilik bilan bog‘liq qadriyatlar va an’analar qo‘pollik bilan toptaldi. Qishloq aholisining badavlat, o‘ziga to‘q qatlamlariga qarshi quvg‘in uyushtirildi, dehqonlar majburan kolxozlarga kiritila boshladilar. Kollektivlashtirish bilan bir paytda «quloq» qilish kompaniyasi ham keskin ravishda amalga oshirildi. Eng achinarlisi, bu tadbirni o‘tkazishda qonunsizliklar yuz berib, zo‘ravonlik usullari qo‘llanildi. «Quloq»larga qarshi kurash shiori ostida

asosan tadbirkor, ishbilarmon xo‘jaliklarga qarshi yalpi hujum boshlandi. Xatto oddiy dehqonlar dindorligi uchun yoki mahalliy ma’muriyatdan norozi bo‘lgani uchun ham quloqqa tortildi. Dindor ulamolar esa «Sho‘roga haqsiz» deb e’lon qilindi, fuqarolik huquqidan mahrum qilindi. Huquqni poymol qilish va zo‘ravonliklar faqat «quloq» xo‘jaliklarigagina emas, balki qishloqning barcha qatlamlariga nisbatan ham qo‘llandi.

Olib borilgan tadqiqotlar va arxiv manblaridagi ma’lumotlarga asosan Namangan viloyatida qatag‘on qurbonlari va uning oqibatlarini juda ayanchli bo‘lgan. Viloyatda ham qatag‘on qurbonlarini o‘rganish orqali quyidagi ma’lumotlarni keltirish mumkin. Qatag‘onlik siyosati natijasida 10 yil ozodlikdan mahrum qilinganlar:

1. Asqaraliyev Otavali-1867-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, “quloq” sifatida surgun qilingan, qamoqqa olingunga qadar u ham 1-Paxtachilik sovxozida yashab, ishlagan.

2. Olimboyev Hoshim-1916-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, “quloq” sifatida surgun qilingan, qamoqqa olingunga qadar u ham o‘sha sovxozda yashab, ishlagan.

3. Qambaraliyev Sherxon-1886-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, “quloq” sifatida surgun qilingan, qamoqqa olingunga qadar u ham mazkur sovxozda yashab, ishlagan.[2]

Quyidagilar 8 yil ozodlikdan mahrum qilinganlar:

1. Matnazarov Ibrohim-1867-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, “quloq” sifatida surgun qilingan. Qamoqqa olingunga qadar ushbu paxtachilik sovxozida yashab, ishlagan.

2. Boboxo‘jayev Abduraim-1872-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, “quloq” sifatida surgun qilingan, qamoqqa olingunga qadar u ham mazkur sovxozda yashab, ishlagan. 1979-yil 19-noyabrda Xerson viloyati sudi hay’ati Odessa viloyati NKVD boshqarmasi “uchlig”ining 1937-yil 16-sentyabrdagi qarorini asossiz deb topib, bekor qildi. Yuqorida nomlari tilga olingan, otuvga, qamoq jazosiga hukm etilganlarni oqladi (o‘sha arxiv, o‘sha ro‘yxat, 20-ish, 311, 312-varaqlar)[3]

Quyidagilar Nikolayev viloyati NKVD boshqarmasi “uchlig”ining 1937 yil 15 noyabridagi qarori bilan Ukraina Respublikasi Jinoyat kodeksining 54—10 va 54— 11-moddalariga ko‘ra otuvga hukm etilgan:

1. Abduxo‘jayev Jumaboy-1876-yilda Namangan viloyati Norin tumani, Boyavul qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, dehqon, “quloq”, ma’lumotsiz, oilali, sudlanmagan.

2. Ro‘zmatov Madumar-1872-yilda Namangan viloyati Norin tumani To‘da qishlog‘ida tug‘ilgan. Xerson viloyati Kaxovka tumanidagi paxtachilik sovxoziga “quloq” sifatida surgun qilingan. Millati o‘zbek, dehqon, o‘rta ma’lumotli, oilali, sudlanmagan.

3. Shermatov Hojimat-1912-yilda Namangan viloyati Norin tumani, Kulitej qishlog‘ida tug‘ilgan. Xerson viloyati, Kaxovka tumanidagi paxtachilik sovxoziga “quloq” sifatida surgun qilingan. Millati: o‘zbek, dehqon, quyi ma’lumotli, oilali, sudlanmagan.

Shuningdek qatag‘on qilingan o‘zbekistonliklar ichida ikkinchi jahon urushida Namangan viloyatidan qatag‘on qilinganlarini ko‘rishimiz mumkin:

Boyto‘rayev Hamid-1906-yilda Namangan viloyati Namangan tumanida tug‘ilgan. 24-gvardiyachi o‘qchi diviziya, 70-gvardiyachi polk jangchisi. **Boyto‘rayev Hamid** 1944-yilning 1-yanvarida jangda halok bo‘lgan. Xerson viloyati Gornostayev tumani Solomki xutoridagi Birodarlik qabristoniga dafn qilingan.

Nazarmatov Xoris-1925-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. 87-gvardiyachi o‘qchi diviziya, 262-gvardiyachi o‘qchi polk askari bo’lib xizmat qilgan. **Nazarmatov Xoris** 1943-yilning 25-noyabrida halok bo‘lgan. Xerson viloyati Syurupin tumani markazidagi Birodarlik qabristoniga dafn qilingan.

Rahmonqulov Ahmadjon-1923-yilda Namangan viloyati Norin tumani Boyovul qishlog‘ida tug’ilgan. 120-alohida tank brigadasining pulyemotchisi bo’lib xizmat qilgan. **Rahmonqulov Ahmadjon** 1944-yilning 23-fevralida halok bo‘lgan. Vitebsk viloyati Lioznen tumani Krinki qishlog‘ida dafn qilingan. 7

Toshboyev Abdujalil-1913-yilda Namangan viloyati Boyovul qishlog‘ida tug‘ilgan. Qizil armiyachi sifatida xizmat qilgan. **Toshboyev Abdujalil**-1943-yilning 19-dekabrda halok bo‘lgan.

Ko‘pchilik qatag‘onga uchraganlar urushning dastlabki davrida mudofaa janglarida omon qolib, keyinchalik 4-Ukraina fronti tarkibida jang qilganlar. Bu jangchilar 1943—1945-yillar davomida turli hududlarda jang qilib halok bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan. Ularning ism-shariflarini quyida keltiramiz:

Isaboyev Mahkam- 1918-yilda Namangan viloyatida tug‘ilgan. 84-o‘qchi diviziya, 243-o‘qchi polk jangchisi bo’lib xizmat qilgan. **Isaboyev Mahkam** 1944-yilning 23-yanvarida halok bo‘lgan. Vitebsk viloyati Dubrovo tumani Buda qishlog‘ida dafn qilingan.

Isaboyev To‘lanboy-1926-yilda Namangan viloyatida tug‘ilgan. 40-Qizil bayroqli gvardiyachi o‘qchi polk jangchisi sifatida xizmat olib borgan. **Isaboyev To‘lanboy** 1944-yilning 16-oktyabrda halok bo‘lgan. Minsk viloyati Viney tumani Shiolbole qishlog‘ida dafn qilingan. [4]

Axmad Tursunqulov Tartip-1897-yilda Namangan viloyatining Uchqo’rg’on tumani Yashik qishlog’ida tugilgan. 1930-yili 3 yil qamoqqa hukm etilgan, qamoqdan qochgan) otuvga hukm qilingan. Aholi orasida aksilinqilobiy, mag’lubiyatchilik targ’iboti olib borganlikda, sovet hokimiyati va uning tadbirlari haqida ig’vogarlik, mish-mishlar tarqatganlikda, monarxik tuzumni maqtaganlikda, yaqin orada bo’ladigan urush va unda Sovet ittifoqining yengilajagini tashviqot qilganlikda ayblangan.

Qodirov Odilxasan-1877-yilda Namangan viloyati Uchqo’rg’on tumanida tug’ilgan. Sobiq quloq, savdogar, 1932-yili qo’lga olingan va chayqovchiligi uchun 5 yil qamoqqa hukm etilgan, jazoni o’tamay qochgan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg’uloti bo’lmagan) otuvga hukm xilingan. Aholi orasida targ’ibot olib borganlikda, sovet hokimiyati va uning tadbirlari xaqida mish-mishlar tarqatganlikda, monarxik tuzumni maqtaganlikda ayblangan.

Boybuvaxojiyev Yusupjon-1903-yilda Namangan viloyatining Uchqo’rg’on tumanida tug’ilgan. 1930-yilda siyosiy to’da tashkilotini tuzishga uringanligi uchun 5 yil muddatga qamoqqa olingan va otuvga hukm xilingan. Kolxozchilar orasida partiya va hukumat tadbirlarini buzishga qaratilgan aksilinkilobiy tashviqot olib borganlikda, sovet hokimiyati sha’niga ig’vogorona so’zlarni tarqatganlikda, chet eldagi hayotni maqtaganlikda, kolxoz tuzumiga qarshi chiqishlar qilganlikda ayblangan.[5]

Usmonov Xaydarali-1874-yilda Namangan viloyatining Qumqo’rg’on qishlog’ida tugilgan. sobiq quloq, bosmachilik ishtirokchisi, hibsga olingan vaqtda kolxoz a’zosi otuvga hukm

qilingan. Kolxozchilar orasida aksilinqilobiy, kolxozga qarshi targ’ibot olib borganlikda, zayomga yozilishga qarshi chiqqanlikda ayblangan.

Xo’janazarov Isoqboy-1864-yida Namangan viloyatining Qurama qishlog’ida tug’ilgan. Sobiq starshina, quloqqa tortilgan va 1929-yilda Ukrainaga jo’natilgan, u yerdan 1934-yilda qochib kelgan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg’uloti bo’lmagan, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan, jazo mud- dati 1937-yil 25-sentyabrdan hisoblangan. Kolxozchilar orasida aksilinqilobiy, kolxozga qarshi mag’lubiyatchilik targ’iboti olib borganlikda ayblangan.

Normirzayev Mamatqul-1894-yilda Namangan viloyatining Sho’rqo’rg’on qishlog’ida tug’ilgan. Sobiq savdogar, quloqqa tortilgan, 1925-yilda aksilinqilobiy faoliyati uchun 2 yilga qamalgan. 1929-yili tumandan tashqariga chiqarilgan, hibsga olingan vaqtda aniq mashg’uloti bulmagan. 10 yil mexnat tuzatuv lageriga hukm etilgan, jazo muddati 1937-yil 24-sentyabrdan hisoblangan. Kolxozchilar orasida aksilinxilobiy, kolxozga kdrshi targibot olib borganlikda ayblangan.[6]

Azimboyev Xoliqboy — 1886-yilda Namangan viloyatining Yangiqo’rg’on tumani Xazratsho qishlog’ida tug’ilgan. **Azimboyev Xoliqboy** quloqqa tortilib 5 yilga surgun qilingan, hibsga olingan paytda aniq mashg’uloti bo’lmagan.Aksilinqilobiy isyonchi guruh a’zosi bo’lgan, kolxozga zarar keltirish rejalarini bergan, qurolli qo’zg’alon ko’tarish rejalarini tuzishda ishtirok etgan degan ayb qo’yilgan.

Rustamov Ahmadjon — 1909-yilda Namangan viloyatining Yangiqo’rg’on tumani Xazratsho qishlog’ida tug’ilgan. Sobiq quloq, targ’iboti va zarar keltirgani uchun kolxozdan chiqarilgan, hibsga olingan paytda aniq mashg’uloti bo’lmagan. Aksilinqilobiy isyonchi guruh a’zosi bo’lgan, faol ravishda partiya va hukumat tadbirlariga qarshi targ’ibot olib borganlikda ayblangan. **Rustamov Ahmadjonga** Sovet hukumatiga qarshi qo’zg’alonga odamlarni tayyorlab berishga va’da bergan degan ayblovlar qo’yilgan.

Mullaxo’jayev Riyosiddin — 1888-yil turilgan, Namangan viloyatining Yangiqo’rg’on tumani Xazratsho qishlog’ida tug’ilgan. Sobiq quloq, targ’iboti va zarar keltirgani uchun kolxozdan chiqarilgan, 3 yilga sudlangan, hibsga olingan paytda aniq mashg’uloti bo’lmagan. **Mullaxo’jayev Riyosiddin** Sovet hukumatiga qarshi qo’zg’alonga tayyorgarlik ko’rishni faol tashkil etganlardan biri, kolxozga zarar keltirish haqida tashviqot olib borgan degan ayblov qo’yilgan.

Abdullayev Bahriddin — 1901 yilda Namangan viloyatining shahrida tug’ilgan. Hibsga olingan paytda «Osaoveoxim» nazoratchisi. **Abdullayev Bahriddin** aksilinkilobiy isyonchi tashkilot a’zosi bo’lgan, doimiy ravishda partiya va hukumat tadbirlariga qarshi targ’ibot olib borgan, o’z oldiga hukumatni ag’darib tashlashni maqsad qilgan Yangiqo’rgon tumanidagi aksilinkilobiy isyonchi guruhning tashkilotchisi, kapitalistik tuzumni maqtagan degan ayblov qo’yilgan.

Boymirzayev O’rmon — 1887-yilda Namangan viloyatining Namangan tumani Gaiston qishlog’ida tug’ilgan. Sobiq quloq, hibsga olingan paytda aniq mashg’uloti bo’lmagan. **Boymirzayev O’rmon** doimiy ravishda hukumatga qarshi dushmanlik harakatini ko’rsatgan va xalq dushmanlarining himoyasi uchun targ’ibot olib borganlikda, sovet hukumatini ag’darish va musulmonlar boshqaruvini tiklash uchun xalqni birlashishga chaqirganlikda ayblangan.

Do’stmatov Abduaziz — 1908-yilda turilgan, Namangan viloyatining Yangiqo’rg’on tumani Navkent qishlogida tug’ilgan. **Do’stmatov Abduaziz** Sobiq quloq, ilgari Madumar boshchiligidagi bosmachilik to’dasining faol a’zosi, hibsga olingan paytda kolxoz a’zosi

hisoblangan. Doimiy ravishda hukumatga qarshi targ’ibot olib borgan, kolxozchilarni xo’jalikdan chiqib, kolxozga zarar keltiruvchi ishlar bilan shug’ullanishga chaqirgan. Sovet hukumati yaqin kunlarda ag’darilishi va kapitalistik tuzum tiklanishi haqidagi uydirmalarni gapirgan degan ayblov qo’yilgan.[8]

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak Sobirjon Yusupov o‘z esdaligida bejiz aytmagan edi: “Oramizdan “xalq dushmanlarini izlay boshlashdi. Yuzdan ziyod “eskicha” o‘qigan ziyolilar, dinga e’tiqod qo‘yganlar, hatto farzandlarini yashirincha sunnat qildirganlar “xalq dushmani”ga chiqarilib, qamoqqa olindi. Ming afsuski, o‘sha yerlarda ularning ko‘pchiligi vafot etishdi” **(“Xalq so‘zi”, 1991 yil 29 may).**

Umuman olganda bugungi kunda tarixshunoslar oldida ushbu jarayonlarni o‘rganishdek va ularni kelajak avlodlarga yetkazishdek buyuk maqsad borki bunga jiddiy e’tibor berishni talab etadi. Bu jarayonlarni o‘rganish yana davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Shamsutdinov R.T. O‘zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. Toshkent, «Sharq», 2001. 57-bet.

2. Shamsutdinov R.T. Istiqlol yo‘lida shahid ketganlar. T.: «Sharq», 2001. 10-11-betlar

3. Mirzaboyev M., Abdumajidov R. Norin. T.: “Fan”, 2006. 38-bet.

4. Трагедия среднеазиацкого кишлака: коллективизация, раскулачиванийе, ссылка. Том.1. 216-Б.

5. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб - Т.: Шарқ, 2007. 170 бет.

6. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб - Т.: Шарқ, 2007. 274 бет.

7. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари (1937-йил феврал, сентябрь).

5-китоб. Масъул муҳаррир: Н. Каримов.-Т.: Шарқ, 2009 Б. 109-110

8. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари (1937-йил феврал, сентябрь). 5-китоб. Масъул муҳаррир: Н.Каримов.-Т.: Шарқ, 2009 Б. 112

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДАГИ ЁРДАМ МАСАЛАСИ

(Наманган вилояти мисолида)

Хасанов Бунёд

НамДУ таянч докторанти

Тел.: 93. 408-88-85

Аннотация*: Ушбу мақолада Иккинчи жаҳон уруши йилларида Наманган вилояти аҳолисининг фронтдаги жангчилар ва фронтортидаги жангчиларнинг оила аъзоларига иссиқ кийимлар, озиқ-овқат етказиб бериши, вилоят аҳолисининг ҳарбий заёмларга ёзилиши ва унинг иккинчи жаҳон урушидаги аҳамияти ҳақида сўз боради.*

Аннотация: *В годы Великой Отечественной войны в данной статье рассказывается об обеспечении теплой одеждой и продуктами питания жителей Наманганской области воинов на фронте и членов семей воинов на фронте, подписании воинских облигаций. народами региона и его значение во Второй мировой войне.*

Abstract*: In the years of the Second World War, this article talks about the provision of warm clothes and food by the people of Namangan region to the soldiers at the front and the family members of the soldiers at the front, the signing of military bonds by the people of the region and its importance in the Second World War.*

Калит сўзлар: *Иккинчи жаҳон уруши, Наманган вилоятининг ғалабага қўшган ҳиссаси, мудофаа жамғармаси, ҳарбий заёмлар, жангчи оиласига ёрдам, жангчиларга иссиқ кийимлар.*

Ключевые слова*: Великая Отечественная война, вклад Наманганской области в победу, фонд обороны, военные облигации, поддержка семей бойцов, теплая одежда для бойцов.*

Key words: *World War II, Namangan region's contribution to victory, defense fund, military bonds, support to families of fighters, warm clothes for fighters.*

Ўзбекистон аҳолисини иккинчи жаҳон уруши йилларидаги анъанавий ватанпарварлигининг ажойиб намуналаридан бири фронтга умумхалқ ёрдам кўрсатиши эди. Ўзбекистонликлар, жумладан, Наманган вилояти аҳолиси ҳам бошқа вилоятлар каби урушнинг дастлабки кунлариданоқ мудофаа жамғармасини ташкил этиш ҳаракатида фаол иштирок этдилар. Вилоят аҳолисининг ташаббуси билан бундай жамғарма яратишда тобора янги шакллари вужудга келтирилди. Мудофаа жамғармасига ишчилар, колхозчилар, зиёлилар бир кунлик иш ҳақлари, коммунистик шанбаликларда ишлаб топилган пуллари, фуқароларнинг шахсий жамғармалари, қимматбаҳо бойликлари, давлат заёмлари, буюмлар, озиқ-овқат маҳсулотлари топшириларди.

Фашистларни мағлуб этиш учун курашаётган барча совет халқлари қатори Ўзбек ҳалқининг иродаси мустаҳкам ва букулмасдир. Ватанпарварларнинг бутун диққати қандай бўлмасин тезроқ буюк жасорат билан душман устидан ғалаба қозониш эди. Бунинг учун фронтларда душман билан қаҳрамонларча жанг қилаётган аскарларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш зарур бўлган. Натижада мудофаа фондини ташкил этиш ҳақидаги фидокорона ташаббус пайдо бўлди. Бу ватанпарварлик халқ ташаббусидир.

Республикамизнинг бошқа вилоятлари қатори Наманган вилоятининг фидоий меҳнаткашлари ҳам таклиф қилинган мудофаа фондини тузиш ҳақидаги фикрни маъқулладилар. Наманган области бўйича эса 1941 йилнинг 4 августигача заём бўйнча тўланган маблағлар 15 миллион 461 минг сўмни ташкил қилди, қишлоқ меҳнаткашларининг бу оташин ватанпарварлигини алоҳида районлар ва колхозчилар мисолида кўрсатиш янада характерлидир [1]. Мамлакат мудофааси учун ўз бойликларини, керак бўлса ўз жонларини беришга тайёр эканликларини билдирдилар. Дастлабки кунлардан Наманган шаҳар “Янги Турмуш” артель аъзолари ўз митингларида ўзаро ёрдам кассасида бўлган 12 минг сўмни мудофаа фондига беришга қарор қилдилар [2]. Бундан ташқари Наманган шаҳар меҳнаткашлари давлат мудофаа фондига 1941 йил 4 ноябргача 565865 сўмлик заём облигациялари ва 5 минг 416 сўм нақд пул ҳам топширдилар [3].

Уруш бошланган дастлабки икки ой ичида танк колоннаси қурилиши учун Янгиқўрғон туман Бирлашган қишлоғи колхозчилари 209 минг сўм, Бекободлик колхозчилар 200 минг сўм, Ғовазонлик колхозчилар 80 минг сўм маблағ тўплаб топширдилар. “Сталин ҳақиқати” номли вилоят газетасининг 1941 йил 21 август ва 13 октябр сонларида хабар қилинишича Бирлашган қишлоқ советидаги Фрунзе номли, “Большевик”, “Ғайрат” колхозлари мудофаа фонди учун 14,2 минг сўм пул, 2200 килограмм ўрик, 200 килограмм ғалла тўплаб, 19,9 минг сўмлик заёмга ёзилишди. Бундан ташқари колхозчилар 86 яшикда 3378 килограмм қуруқ мева, 258 килограмм асал, 870 килограмм олма, 600 килограмм нок, 447 килограмм анор, 312 килограмм жийда, 312 килограмм гуруч,

1124 килограмм сабзи, 3924 килограмм пиёз, 1022 килограмм қизилча, 82 бош қўй-эчки 157 та товуқ тўплаб берганлар [4].

Шунингдек мамалакатни мудофаа қилиш учун Наманган аҳолиси ўз ёрдамини аямасдан бериб, давлат мудофаа фондини яратди. Жумладан Наманган туманининг колхозларида митинглар ўтказилди. Митингда сўзлаган колхоз аъзолари мамлакат мудофаасини мустаҳкамлаш учун барча ёрдамларни беришга тайёр эканликларини билдирдилар. Туманнинг Қумқўрғон қишлоқ советидаги Киров номли колхоз аъзолари мудофаа фондига 625 меҳнат куни ажратиб бердилар. Ворошилов номли колхоз аъзолари эса мудофаа фондига 195 меҳнат куни ва 4 минг 750 сўмлик облигацияни тақдим қилдилар.

Бундан ташқари Наманган консерва заводининг коллективи мудофаа фондига ишчи, инженер-техник ходимлар уруш якунига қадар ҳар ойда бир кунлик иш ҳақи бериб туришга қарор қилдилар.

Наманган шаҳрининг ватанпарварлари мудофаа фонди учун омонат кассасига 1941 йил август ойида шаҳар меҳнаткашлари 22930 сўмлик заём облигациялари, 2775 сўмлик нақд пул топширди. Вилоят омонат кассанинг жамоаси 1675 сўм ва фуқаролар 15745 сўмлик заём ва 770 сўм нақд пул топширдилар [5].

Уруш орти билан фронтни боғлаб турган воситаларидан яна бири Ўзбекистон меҳнаткашларининг уруш ногиронлари ва жангчиларнинг оилалари ҳақида қилинаётган доимий ғамхўрликда кўринди. 1943 йили ҳарбий хизматчилар оилаларини моддий-маиший жиҳатдан қўллаб-қувватлаш ҳақида маҳсус қарор қабул қилинди [6]. Ўзбекистонда ҳаракатдаги армия сафларида хизмат қилаётган жангчиларнинг оилалари рўйхатга олинди. Муҳтож оилаларнинг уйлари таъмирланди, ўтин-кўмир жамлаш, ишга жойлаштириш ишида амалий ёрдам берилди. Урушга кетганларнинг болалари боғча ва яслиларга жойлаштирилди.

Наманган вилоятининг колхозлари ҳам ҳарбий хизматчиларининг оилаларига жуда катта ёрдам кўрсатдилар. Бунинг учун Наманган туманидаги Киров номли колхоз энг яхши мисол бўла олади. Колхознинг фаол хотин-қизлари ҳарбий хизматчиларнинг оилалари яшаётган барча уйларни айланиб чиқиб, нималарга мухтож эканликлари аниқланган.

Жангчиларнинг кексайиб қолган ота-оналарига ёрдам бериб келдилар. Жумладан, кексайиб қолган фронтчининг отаси Бектемир Юлдашев мактабда ишлайди. Колхоз унга янги уй бериб, қишки ёқилғи билан таъминлади. Бундан ташқари Бектемир отага 40 килограмм буғдой, 52 килограмм сабзавот берди. Фронтчининг отаси Акбарали Хомидов ҳам янги уй билан таъминланди [7].

Наманган туман Тошбулоқ қишлоқ советидаги Ворошилов номли колхозда ҳам ҳарбий хизматчиларнинг оилаларига юксак меҳрибонлик билан қарадилар. Бу ерда партия ташкилотининг ташаббуси билан хотинлар совети тузилган. Ташкилотга Умухон Холматова раҳбарлик қилган. Хотинлар советининг аъзолари асосий вазифалари жангчиларнинг ота-оналари, фарзандлари ва рафиқаларининг нималарга муҳтож эканликларини аниқлаш, шундан кейин бу масала партия мажлисида муҳокама қилиниб, зарур ёрдамлар кўрсатардилар. Болалик колхозчи аёллар дала ишларида фаол қатнашишлари учун, колхозда болалар яслиси ва кечаю-кундуз ишлайдиган болалар майдончалари ташкил қилинди.

Вилоятнинг корхона ва артелларидаги партия ва профсоюз ташкилотлари ҳам фронтчиларнинг оилалари ҳақида катта ғамхўрлик кўрсатганлар. Масалан, 20071 нафар

ҳарбий хизматчининг оила аъзолари иш билан таъминланди [8]. Шунингдек ҳарбий хизматчилар оилаларининг маиший турмушларини яхшилаш, уларни ишга жойлаштириш юзасидан ҳам кўплаб ишлар амалга оширилди. Ҳарбий хизматчи оилаларидан 20 минг 71 киши ишга жойлаштирилди. 6 мингдан ошиқ харбий хизматчи болалари болалар ясли, боғча ва майдончаларга жойлаштирилди.

1942 йил давомида 12947 оилага уй-жой берилди, улар учун 5528 та уй-жой таъмирлаб берилди. Шунингдек, фронтчиларнинг оилаларига 26 минг 635 центнер ёқилғи берилди. 7036 оилага томорқа уучасткаларида ишлашларига ёрдам берилди.

Ҳарбий хизматчиларнинг оилаларига 133 минг 559 килограмм озиқ-овқат маҳсулотлари, 45 минг 514 килограмм сабзавотлар берилди [9].

Фронтга ёрдам масаласида мактаб ўқувчилари ҳам жонбозлик кўрсатдилар. 1943 yil 25 fevral Namangan shahar o’quvchilari “O’zbekiston o’quvchisi” degan tank va jangovar aeroplanlar quramiz degan murojaat bilan chiqadilar. Murojaatda shunday satrlar bor edi: “Biz namanganlik o’quvchilar yozda dalalarda ishlab, frontga yordam ko’rsatganimiz uchun faxrlanamiz. Biz yoz paytida mehnat qilib ishlagan pullarimizni “O’zbekiston o’quvchisi” degan tank va aeroplanlar qurilishiga berishga qaror qildik”. Bundan tashqari mablag’ yig’ilishini kengaytirib qo’shimcha ravishda yana 30 ming so’mdan ortiqroq pul to’plandi. Tank va aeroplanlar qurilishi uchun bu mablag’larni topshirib va bu orqali O’zbekistondagi barcha o’quvchilar ulardan namuna olishga – ishlagan kunlariga tegishli mablag’larini jangovar mashinalar qurilishiga berishga chaqirgan edilar. Bu sovet o’quvchilarining to’plamlari dushmani tezroq tor-mor keltirish ishiga yordami edi [10].

Хулоса қилиб айтганда Уруш бошлангандан сўнг Наманган аҳолиси фронтда жанг қилаётган жангчилар учун озиқ-овқат, кийим-кечак ва кундалик эҳтиёжлар учун зарур бўлган маҳсулотларни жўнатдилар.

Вилоятда ҳарбий хизматчиларнинг оилаларига ёрдам бериш юзасидан кўплаб ишлар амалга оширилган. Ҳарбий хизматчиларнинг оилалари ва уларнинг моддий-маиший эҳтиёжлари ҳақида ғамхўрлик қилиш катта ҳарбий сиёсий аҳамиятга эга эди. Чунки жангчиларнинг оилаларига ғамхўрлик қилиш – жангчиларимиз учун ғамхўрликнинг ярмидир. Уруш ногиронлари, урушда ҳалок бўлган жангчилар оиласининг уй-жой шароити, маиший турмуши яхшиланди.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Пўлатов И. Буюк ғалабада Ўзбекистон ҳиссаси. –Т.:Ўзбекистон, 1974. –Б.18.
2. Сталин ҳақиқати. 1941 йил 6 август.
3. Сталин ҳақиқати. 1941 йил 7 ноябрь.
4. Наманган ВДА, Р-796-жамғарма, 1-рўйҳат, 91-иш, 48-варақ.
5. Сталин ҳақиқати. 1941 йил 5 август.
6. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. –Т.: Фан, 1995/4 сон. –Б.54.
7. Наманган ВДА, Р-796-жамғарма, 1-рўйҳат, 131-иш, 48-варақ.
8. Наманган ВДА, 275-жамғарма, 1-рўйхат, 131-иш, 34-варақ.
9. Наманган ВДА, 796-жамғарма, 1-рўйхат, 185-иш, 73-варақ.
10. Наманган ВДА, 796-жамғарма, 1-рўйхат, 116-иш, 16-варақ.

THE GREAT CONTRIBUTION OF SCIENTIST V. P. NALIVKIN TO THE STUDY OF THE LIFESTYLE OF THE WOMEN OF CENTRAL ASIAN PEOPLE

Ismoilova Nigorakhon Usmondjanovna,

Teacher of Namangan state universite
Email: nigoraismoilova@gmail.com
Тел: + 998 94 177 71 84

Аннотация: *Статья посвящается большому кругу читателей. В статье раскрывается жизнь и деятельность одного из знатоков истории, который возложил большой вклад при изучении жизни и быта народов Центральной Азии и сумел оставить большой след в истории, как туркестановед Наливкин Владимир Петрович. Его исторические, этнографические и многие труды дают возможность читателям изучить и ближе познакомиться с бытом коренного населения Туркестана. Одним из ценных трудов в статье указан «Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы».*

Ключевые слова и выражения: *население, главный, герой, научный, публикация, очерк, тарнсформация, быт, народ, история, сведения, биография, этнография, женщина.*

Annotation: *The article is dedicated to a large circle of readers. The article reveals the life and work of one of the connoisseurs of history, who made a great contribution to the study of the life and way of life of the peoples of Central Asia and managed to leave a big mark on history, as a Turkestan scholar Vladimir Petrovich Nalivkin. His historical, ethnographic and many works enable readers to study and get to know the life of the indigenous population of Turkestan. One of the valuable works in the article is "Essay on the life of a woman of the settled native population of Fergana".*

Key words and expressions: *population, main character, scientific, publication, essay, transformation, way of life, people, history, information, biography, ethnography, women.*

Annotatsiya: *Maqola o'quvchilarning katta doirasiga bag'ishlangan. Maqolada O‘rta Osiyo xalqlari hayoti va turmush tarzini o‘rganishga ulkan hissa qo‘shgan, tarixda katta iz qoldirishga muvaffaq bo‘lgan tarix bilimdonlaridan birining hayoti va faoliyati ochib berilgan. Turkistonlik olim Vladimir Petrovich Nalivkinning tarixiy, etnografik va ko‘plab asarlari kitobxonlarga Turkistonning tub aholisi hayotini o‘rganish va bilish imkonini beradi. Maqolada keltirilgan noyob asarlardan biri “Farg‘onaning o‘troq tub aholisi ayoli hayoti haqidagi esse”dir.*

Kalit so'zlar va atamalar: *aholi, bosh qahramon, ilmiy, nashr, o'zgarish, turmush tarzi, odamlar, tarix, ma'lumot, biografiya, etnografiya, ayol.*

The role of personality in history, especially in the fateful periods of mankind, inevitably arouses great interest. Moreover, the future has many alternatives and can change as a result of the activities of not only great political and government figures. As life shows, sometimes mediocre individuals who find themselves at the helm of life by chance can influence the course of historical events and processes. This is evidenced by history, including that of Turkestan. Numerous studies have been devoted to this topic, since it remains relevant for every generation. I believe that any historical figure is a leading figure who is now important for us to understand and discuss. Thanks to them, it is possible to draw parallels and draw certain conclusions.

One of the best experts on history is Nalivkin, who wrote historical information about the life and way of life of the peoples of Central Asia. He left a noticeable mark on history and ethnography. You can learn about Nalivkin’s biography and works in the book “Half a Century in Turkestan. V.P. Nalivkin: biography, documents, works” it introduces the reader to the history and

ethnography of Central Asia [1; C.688.], in it you can find special information about the life of the population of Turkestan, as well as the customs and morals of its population, about the social transformations that Central Asian society experienced at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries. Nalivkin, a man who lived for almost half a century in Turkestan, from the early 1870s to 1917, left behind many scientific and journalistic works. He was born on February 25 (according to other sources on July 15 [2; P.3.],) (1852-1918) in Kaluga into an old noble family associated with the tradition of military service in Russia. “My maternal grandfather was in Paris in 1814,” Nalivkin wrote in his memoirs. – My other ancestor, also on my mother’s side, founded the Oryol Cadet Corps. My father served in military service all his life. All uncles were military men. One of them was killed in Sevastopol. My father returned from the Caucasus, from the Turkish campaign of 1853–1855, with his hat and cloak shot through, which were kept for a long time at the bottom of a red tin-bound chest as a family shrine. Many years later, with his Caucasian saber, I went on the Khiva campaign.” He graduated from the Pavlovsk Military School in St. Petersburg (1873). As an officer he took part in campaigns in Kokand and Khiva (1873-1875). After finishing his military service (1878), he settled near Namangan.

He studied Arabic and Persian languages, the life and language of the Sarts (the urban population of the Fergana, Syrdarya and Samarkand regions - an ethnic group in the emerging Uzbek nation). Since December 1884, he was a teacher in the first Russian-native school in Tashkent. Compiled the first Russian-Sartov and Sartov-Russian dictionary with a brief outline of the grammar of the Sartov language (together with his wife, M.V. Nalivkina; published in Kazan in 1884), “The ABC for Russian-Muslim schools...” (1886.), "Sartovian-Persian anthology..." (1887). These books by Nalivkin were closely related to everyday realities and local folklore. They laid the foundation for school literature for the study of Uzbek by Russians and Russian by Uzbeks. He taught (until 1890) at the Turkestan Teachers' Seminary; for her he wrote a “Guide to the practical study of the Sartov language” (published in 1898, 1911), a Sartov anthology (1896). Author of "A Brief History of the Kokand Khanate" (Kazan, 1886).

In 1890-1895 inspector of Muslim schools in Fergana, Syrdarya and Samarkand regions. According to the recollections of his daughter Natalia Vladimirovna and daughter-in-law Natalia Vasilievna in Samarkand (1897-1900), Vladimir Petrovich worked as an inspector of Russian-native schools. At this time, the chief inspector of public schools in Turkestan was F. Kerensky (father of A.F. Kerensky), with whom Vladimir Petrovich had very strained relations (in particular, there was a case when Kerensky published V.P.’s work under his own name) and for this reason, he was forced to leave the public education system [3; C.3.].

In 1887, Nalivkin compiled a program of “Uzbek language lessons for willing Russians, mainly employees, both military and civilian,” and according to this program he taught courses for those working in the building of the men’s gymnasium [4; C.11.]. He was an assistant to the governor of the Fergana region. Pedagogical activities and publications on issues of public education in local newspapers brought Nalivkin fame in Turkestan.

In 1907 he was elected to the 2nd State Duma. In March 1917, he spoke on behalf of its Social Democratic faction, demanding the abolition of field courts. In July 1917 he became chairman of the Turkestan Committee of the Provisional Government. He sought recognition of the power of the Provisional Government by all political forces of Turkestan represented in the administrative center - Tashkent [5; C.18.].

In 1908, he wrote his work “My Worldview”; in 1917, Nalivkin’s article “We must simplify ourselves” was published. Particularly noteworthy and integral to scientific work, recent years have confirmed his reputation as an energetic and erudite Turkestan scholar, the author of many publications on the history, archeology, ethnography, and economics of Central Asia.

In terms of ethnography, valuable ones include “The Kirghiz of Namangan District”, “Essay on Agriculture in Namangan District”, “Types of Fuel among the Population of Turkestan”, “About a Trip to Mountainous Bukhara and the Western Pamirs” and others. His publications on history: “Schools among the natives of Central Asia”, “On the state of the native madras of the Syrdarya region”, “Native proletariat”, “Natives before and now”. And he also owns the work “History of the Kokand Khanate” [4; P.215.]. All reviewers stated that “The History of the Kokand Khanate” is undoubtedly a useful acquisition for the history of Central Asia. “Orientalist V.A. Romodin emphasized (1873) that this work of Nalivkin V.P. although outdated, it has not yet completely lost its scientific significance,” writes B.V. in his article. Lunin “Vladimir Nalivkin (life, activity, fate)” [6; C.10.].

Also in Lunin’s articles you can get acquainted in detail with the scientific heritage of V.B. Nalivkina. Nalivkin’s talent as an ethnographer was fully demonstrated in his other work, written in collaboration with his wife and published in the same 1886 in Kazan - in the book “Essay on the life of a woman of the settled native population of Fergana.” This joint work of the Nalivkins was appreciated by contemporaries. Veselovsky immediately emphasized that the book introduces the reader “in general terms to the life of the entire settled population of Muslims in Central Asia” (and not just women, as one might think from the title) and has not only scientific, but also practical significance. He also highly appreciated the great contribution of Nalivkina, who for the first time managed to penetrate the female half, which was forbidden to prying eyes [8; P.216.]. “Essay” was awarded the Big Gold Medal of the Russian Geographical Society. Bartold also spoke highly of this book and many years after its publication he wrote that “in the study of the life of settled Uzbeks...the work of the late Nalivkins, who directly studied the life of Uzbeks living in a village and in no way different in their way of life, still stands alone from them". Even later N.A. Kislyakov called the Nalivkins’ work a real encyclopedia on the life of Uzbeks in the last quarter of the 19th century. Today, this essay is also relevant; the very names of the sections of the “Essay” speak of the richness and diversity of its content, for example: A brief sketch of the Fergana Valley; Religion and Clergy; Housing and utensils; The appearance of a woman and her clothing; Activities and food; The character of a woman, her habits, occupation and behavior towards others; Pregnancy and childbirth. Girl; Girl, matchmaking and marriage; Polygamy. Divorce. Widowhood and death of a woman. As can be seen from the table of contents, the “Essay” shows the most intimate, intimate aspects of the life of a Muslim woman. Much space is devoted to characterizing her superstitions and entertainment, family and marriage relations, and the rituals and ceremonies associated with them. The following conclusion of the authors was completely unusual for its time, in no way consistent with the widespread opinion about the oppression and downtroddenness of Eastern women.

In 2015, in Moscow, at the Marjani Publishing House, a collection of his works, “Half a Century in Turkestan,” was published. The book, published in an edition of 300 copies, contains a biographical note about V.P. Nalivkin, his works - “Essay on the life of a woman of the settled native population of Fergana”, “Natives before and now”, “The situation of the waqf business in the Turkestan region”, “My memories about Skobelev”, “Note on possible relationships between

recent events in China and the strengthening of the pan-Islamic movement”, as well as articles by Sergei Abashin and Tatyana Kotyukova [9; C.20.]. In general, it can be argued that, while standing out sharply from the circle of contemporaries in terms of the keenness of their penetration into a foreign culture and the methods they used to study it, the Nalivkins, in their worldview, still remained people of their time. Their work, left over from ancient times, is always relevant and very valuable for the history of many nations, and today it does not lose its significance.

Список литературы:

1. Half a Century in Turkestan. Vladimir Petrovich Nalivkin: Biography, Documents and Works: [сборник] / [ред.-сост.: С.Н. Абашин и др.]. – М.: Изд. дом Марджани, 2015. – С.688
2. https://ru.wikipedia.org/wiki_Октябрьская_революция_1917_года/ See also: IN RUz R-2409, Inventory 1, preface.
3. IN RUz. Fund R-2409. Inventory 1, file 7. Sheet-3.
4. Turkestan Gazette, 1887, No. 8.// See also: IN RUz. Fund R-2409. Inventory 1, file 13. Sheet-11.
5. 5. Lunin B.V., Historiography of social sciences in Uzbekistan. Bibliographical essays, book. 1-2, Tashkent, 1974; Lunin B.V., Miller V.I., Nalivkin, in the book: Political figures of Russia. 1917. Biographical Dictionary, M., 1993. Source: Russian Pedagogical Encyclopedia: in 2 vols. / ch. ed. V.V. Davydov. - M.: “Big Russian Encyclopedia”, T. 2, 1999. -P.18-19.
6. Nalivkin V.P. History of the Kokand Khanate. – Kazan: 1886. –P.215.
7. IN RUz R-2409, Inventory 1, file 13. Sheet-10.
8. Lukashova N.V.P. Nalivkin: another wonderful life. https://cyber.ru/article/n/v-p-nalivkin-esche-odna-zamechatelnaya-zhizn/viewer./ See also: Veselovsky N.I. Report of the commission of the Ethnography Department of the Russian Geographical Society on the award of the Big Gold Medal. A separate review by N.I. Veselovsky about the work of V.P. Nalivkin and M.V. Nalivkina “Essay on the life of a woman of the settled native population of Fergana” // Turkestan collection. T.406. -WITH. 217-218.// Semenov P.P. History of half a century of activity of IRGO. 1845-1895. St. Petersburg, 1896. Part 3. –P.998.
9. The Khan Tengri magazine publishes an excerpt from Vladimir Nalivkin’s essay “The Age of Our Conquests” - invaluable evidence of the first steps in the administration of the Turkestan region. January 12, 2020.
10. 26739/2181-9599 - Тошкент: 2022. 10. Ismoilova N.U. History and socio-psychological functions of the family in the participation of women. Ethnopsychological and ethnocultural characteristics of the population of Uzbekistan: problems and ways to solve them. May 18, 2022.
11. Ismoilova N.U. XX asrning daslabki ўttiz yilligida zhamiyatning izhtimoiy stratificationsida ayollar fermenti: ananaviylik va uzgarishlar. Otmishga nazar 5 zhild, 8 son ISSN 2181-9599 Doi Journal 10.26739/2181-9599 - Tashkent: 2022.

TARIX DARSLARINI O‘QITISHDA MAHALLIY MANBALARDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHILARDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

J.A. Yuldashev

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD)
I.O. Odilbayev
NamDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (Tarix) mutaxasisligi magistri

Annotatsiya: ***Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida tarix darslarini o’tishda mahalliy manbalardan foydalanish metodikasi haqida so’z boradi. Ayniqsa, maktab o’quvchilariga Ikkinchi jahon urushi va g’alabaga O’zbekistonnining qo’shgan hissasini o’qitish sohasida Namangan viloyatida urush yillarida va undan keyingi yillarda nashr qilingan gazetalardan foydalanish haqida metodik ko’rsatmalar ishlab chiqilgan.***

Аннотация: В данной статье говорится о методике использования местных источников на уроках истории в общеобразовательных школах. В частности, в области обучения школьников вопросам Второй мировой войны и вкладу Узбекистана в Победу разработаны методические указания по использованию газет, издававшихся в годы войны и последующие годы в Наманганской области.

Abstract: This article talks about the methodology of using local sources in history lessons in secondary schools. In particular, in the field of teaching schoolchildren about the Second World War and Uzbekistan's contribution to the victory, methodical instructions have been developed on the use of newspapers published in the war years and subsequent years in Namangan region.

Kalit so‘zlar: ***umumta’lim maktablarida tarix fanini o’qitish, Ikkinchi jahon urushi tarixini o’qitish, tarix o’qitish metodikasi, kognitiv qiziqish.***

Ключевые слова: преподавание истории в средней школе, преподавание истории Второй мировой войны, методика преподавания истории, познавательный интерес.

Key words: teaching history in secondary schools, teaching the history of the Second World War, methods of teaching history, cognitive interest.

Mamlakatimizda umumta’lim maktablarida tarix darslarini o‘qitishda ikkinchi jahon urushiga oid mahalliy manbalardan foydalanish metodikasi uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida qaror toptirish, tarix darslari mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘quvchilarning tarix faniga bo‘lgan qiziqishni oshirishda turli metodik usullarni keng targ’ib qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun, yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishdek buyuk maqsad yo‘lida harakat qilar ekanmiz, bu tariximizni chuqurroq, yot mafkuralardan holi o‘rganish zaruriyatini shart qilib qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “**Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak**”[1], – degan so‘zlarida juda katta ma’no mujjasam.

O‘quv faoliyatini to‘g’ri tashkil qilish ta’lim mazmunining nazariy jihatlari, hajmini kengaytirish, chuqurlashtirish va bunda ilmiy tushunchalar salmog’ini oshirish bilan bevosita bog’liqdir. Ushbu yondashuvning amalga oshirilishi ta’limda ilmiylik tamoyilini kuchaytirib, o‘quvchilarda onglilik, faollik va mustaqil fikrlashni rag’batlantiradi, tevarak–atrofdagi har bir narsa, hodisa–voqealarning tub mohiyatiga ijodiy va tahliliy ko‘z bilan qaraydigan bo‘ladilar.

Buning uchun “O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat” bo‘lishiga erishmoq kerak bo‘ladi. Tarixiy tafakkur va

uning shakllanishini o‘rganishni “Falsafa”, “Psixologiya”, “Tarix”, “Pedagogika” fanlari hamkorligida o‘rganishni amalga oshirish ushbu jarayonning samarasini ta’minlaydi. Bunda individlarning aqliy faoliyatini tashkil qilish masalasi katta ahamiyatga ega.

O‘quvchining tarixiy tafakkuri bu – maktab o‘quvchisining o‘z xalqi, milliy davlatchiligi, qolaversa, o‘z mintaqasi tarixini bilish ehtiyojidan kelib chiquvchi (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, analogiya, tushuncha, misol, faktlardan foydalanish) fikrlash ko‘nikma va masalalari majmuidir. Ushbu ta’rif O‘zbekiston maktablaridagi tarix ta’limining bevosita maqsadi tarixiy tafakkurni shakllantirish orqali tarixiy jarayonga yagona hodisa sifatida qarab (o‘tmish–bugun–kelajak), ularda tarixiy bilimlar vositasida ijodiy yondashuv malakalarini hosil qilish, o‘quvchilar qalbi va ongiga milliy g’oyani singdirish bilan uyg’un kichadi [2]. Ijtimoiy-tarixiy nuqtai nazardan olib qaralganda, inson tushunchalarning aksariyatini meros tariqasida o‘zidan avvalgi avloddan tayyor holda oladi. Avlodlar vorisligi hukm surishi tufayli bir avlod yaratgan tushunchalarni keying avlod egallab oladi, ularga yangicha mazmun va yangi shakl beradi.

Oldingi avlodning merosiga asoslanib, ular o‘rganib ulgurmagan voqelik xususiyatini ochishga intiladilar, ushbu kashfiyot natijasida yangi tushunchalarni ijod qiladi. Binobarin, tushunchalarning mana shunday yo‘l bilan avloddan avlodga o‘tib borishi va egallanishi ularning rivojlanishiga ilk hamda keyingi avlodlarning tarixiy tafakkuri orasiga qo‘yilgan bir ma’rifiy ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Maktab tarixi kursidagi o‘lkashunoslik materiali, o‘qitishda muhim aniqlik vositasi sifatida e’tirof etilgan. K. D. Ushinskiy ta’kidlaganidek, visual ta’lim mavhum g’oyalar va so‘zlardan emas, balki o‘quvchilar tomonidan bevosita idrok etiladigan aniq tasvirlardan iborat bo‘ladi: “Bola shakllar, ranglar, tovushlar va hislarda fikr yuritadi. Bolalar tabiati vizuallikni talab qiladi”[3].

O‘qituvchi o‘quvchi ongida allaqachon tayyor tasvirlarni topadi, u o‘qitishda unga tayanadi, o‘quvchilarning kuzatish, fikrlash va tilini rivojlantirish, o‘quvchilarning o‘z ona yurtining tarixiy o‘tmishi haqida o‘z tajribasi, mustaqil kuzatishlari va mulohazalarini jalb qilishdir. Shuni ta’kidlash kerakki, mahalliy materiallar “Tarix” fanini o‘qitishda vizualizatsiya vositasi sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘qituvchi darsda o‘lka tarixidan moddiy yodgorliklarni ko‘rsatganda, u, qoida tariqasida, asl yodgorliklar bilan shug’ullanadi. Bunday ko‘rgazmali material oddiy bosma ko‘rgazmali qurollarga qaraganda emotsional jihatdan to‘yingan bo‘ladi, avvalambor, u asl, “haqiqiy” (o‘quvchilar odatda qayerda, qachon va kim tomonidan topilgani va ilmiy qayta ishlangani haqida bilishadi). Tarixchi uchun dastlabki ma’lumot manbai hujjatlar va manbalardir, shuning uchun biz ularni tarix darslarida ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismi deb hisoblaymiz. Zamonaviy maktab amaliyotida o‘lkashunoslik xarakteridagi tarixiy hujjatlardan foydalanishga maktabda ishlashga moslashtirilgan o‘lka tarixi bo‘yicha hujjatlar to‘plamining yetishmasligi va darsda vaqt chegarasi to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, hujjatlardan “O‘zbekiston tarixi” kursining eng muhim mavzularini o‘rganishda darslikda tasvirlangan ijtimoiy hayotning u yoki bu hodisalarini tushunish o‘lkashunoslik hujjatini tahlil qilish o‘quvchilar uchun qulaylik tug’diradigan hollarda foydalanish tavsiya etiladi. Tarix darslarida o‘lkashunoslik materialidan foydalanish mumkin:dars mavzusiga kirish sifatida, unda muhokama qilingan masalalardan biriga yoki dastur mavzusini umumiy fanga kirish darsining asosi sifatida foydalanish.

Bu usul kognitiv qiziqishni faollashtirish, o‘quvchilarni tarixni o‘rganishga undash, faktlar, raqamlar, jarayonlar, voqea joylarini “vizuallashtirish”ga, tanish va ma’lum bo‘lganlarga murojaat qilgan holda o‘quvchilarni darsda muhokama qilinadigan masalalarga olib kelish imkonini beradi.

O‘lkashunoslik materiali haqida o‘qituvchi yo o‘zi xabar beradi, yoki o‘quvchilar uni darslikdan topadilar. Keyinchalik, ushbu ma’lumotlar asosida mavzuni o‘rganish bo‘yicha ish olib boriladi.

Shaxsni rivojlantirish uchun kognitiv qiziqishning ahamiyati shundaki, ma’lum bir mavzudagi bilim faoliyati unga bo‘lgan qiziqish ta’sirida shaxsning aqliy jarayonlarini faollashtiradi, unga chuqur intellektual qoniqish beradi, bu esa, hissiy yuksalishga yordam beradi. kognitiv qiziqish shaxs faoliyatining, uning bilish faoliyatining muhim motivi sifatida harakat qila boshlashiga olib keladi. Kognitiv yo‘nalishning elementi har qanday qiziqishda namoyon bo‘ladi, chunki odam biron bir hodisa yoki mavzuga qiziqib, tabiiy ravishda u haqida ko‘proq bilishni xohlaydi. O‘quvchi tarixiy voqealar, atrof–muhitdagi ob’yekt (predmet, jarayon va hodisa)larning mohiyatini bilish jarayonida ularni o‘zaro bir–biri bilan taqqoslaydi, natijada ulardagi o‘xshashlik va farqni aniqlaydi. Tarixiy tafakkur jarayonida tahlil va sintez yo‘li bilan tarixiy faktlarning tub mohiyati ochiladi, ularning muhim alomatlari yoki belgilari aniqlanadi.

Maktabda bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida kuzatuvchanlik, xotira va hayol o‘sib borishi bilan o‘quvchi tafakkuriga material bo‘ladigan narsalar doirasi kengaya borib, ularda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o‘sib boradi. O‘lkashunoslik materiali milliy tarix bo‘yicha bilimlar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida umumiy tarixiy voqealarni konkretlashtirish vositasi va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘lka tarixiga oid mavzular mazmuni o‘qituvchiga quyidagilarga imkon beradi:

– mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini ko‘rsatish uchun mintaqa tarixi misolidan foydalanish;

– mintaqaning aniq voqealari, hodisalari, tarixiy shaxslarining tarixiy faktlari asosida o‘lka tarixining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning rivojlanish xususiyatlari va xarakterli xususiyatlarini ochib beradi;– o‘lkaga oid voqea va hodisalarni butun mamlakat hududi bilan qiyosiy tahlilqiladi;

– o‘quvchilarning turli axborot manbalari bilan mustaqil tizimli va tahliliy faoliyati qobiliyatini shakllantiradi;

– o‘quvchilarning ilmiy va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

– milliy tarix darslarida faol o‘qitishning turli modellarini joriy etish;

– maktab o‘quvchilarida davlatchilik va vatanparvarlik tuyg’ularini tarbiyalash hamda milliy ongni rivojlantirishga ko‘maklashadi. O‘lkashunoslik materialidan mamlakat tarixi darslarida o‘rganishning ta’lim, tarbiyaviy va rivojlanish funktsiyalari kontekstida juda samarali foydalanish mumkin.

O‘lka tarixini o‘rganishni o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarning o‘zlari bajarishlari mumkin. Demak, dars boshida o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha oldindan tayyorlangan o‘lkaga oid manbalarni hikoya qilishni taklif qiladi va shu asosda yangi materialni taqdim etishga kirishadi. Yana bir variant suhbat davomida o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘lka tarixiga oid faktlarni eslab qolish va keltirishni taklif qiladi, bundan darsdan keyingi ish uchun boshlang’ich nuqta sifatida foydalanish mumkin. Eng keng tarqalgan usul – o‘qituvchining hikoyasiga mahalliy materialni kiritish hisoblanadi. Bu kam samarali bo‘lsa-da, eng sodda usul. O‘qituvchining o‘zi tanlagan o‘lkashunoslik faktlarini ma’lum qiladi, ulardan darsning asosiy savollarini o‘lkashunoslik materiali bilan aniqlashtirish va ko‘rsatish uchun foydalanadi (aniq faktlar tarixning umumiy, hodisalari va jarayonlarini bevosita ochib beradi). Bunda o‘quvchilar qo‘shimcha bilimlarni tayyor shaklda oladilar. Hikoya jarayonida o‘quvchilar e’tiborini faollashtiradigan, o‘ylantiruvchi, milliy tarix faktlari bilan o‘z ona yurti tarixi faktlarini solishtirish va xulosa chiqarishga o‘rgatish imkonini beradigan savollar bilan murojaat qilish muhim

ahamiyatga ega. O‘z hikoyasini jonli va hayajonli, hikoya qilish davomida o‘quvchilarni o‘ylashga majburlash o‘qituvchining mahoratiga bog’liq. Mahalliy materialning kiritilishi o‘qituvchining hikoyasini jonlantirish va o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish vositalaridan biridir.

“O‘zbekiston tarixi” fani tizimini buzmaslik uchun mintaqa tarixiga oid ma’lumotlarni taqdim etish orqali o‘qituvchi birinchi navbatda o‘quvchilarni dars materiali bilan tanishtirishi, so‘ngra mahalliy tarix haqida ma’lumot berishi mumkin. Bunday holda, texnikalar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

– o‘qituvchi dars mavzusini tushuntirish paytida, dars yoki suhbat oxirida bilimlarni mustahkamlash yoki tekshirish tartibida o‘quvchilarga mahalliy misollar keltirishni taklif qiladi;

– o‘qituvchi o‘quvchilarga taqdim etilgan material yoki darslikdan mustaqil ravishda o‘rganilgan material asosida mahalliy misollarga murojaat qilishni, ularni tanlab olishni, tushunishni va keyingi darsda suhbat mavzusiga aylantirishni taklif qiladi;

– o‘quvchilar sinfda mahalliy materiallar bo‘yicha o‘quv mavzusiga oid amaliy ishlarni bajaradilar. O‘qituvchi, masalan, mahalliy gazetada chop etilgan maqolani tahlil qilishni taklif qiladi.

Ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan to‘plangan tarixiy va o‘lkashunoslik materialining yuqori didaktik imkoniyatlarini alohida ta’kidlash kerak. O‘lkashunoslik jarayonida o‘quvchilar ijodiy va me’yordan tashqari fikrlashni, o‘z fikrini shakllantirishni, muayyan masalalarni tizimli o‘rganishni, yangi faktlar, dalillar, ma’lumotlarni kashf etish, allaqachon ma’lum bo‘lgan hodisa va hodisalarning tafsilotlarini oydinlashtirishni o‘rganadilar. Darslarning tarbiyaviy funksiyasi doirasida, izlanish jarayonida maktab o‘quvchilarida insonparvarlik, jamoaviylik, fuqarolik mas’uliyati, tarixiy o‘tmishga nisbatan hurmat tuyg’ulari shakllanadi. Izlanishga ishtiyoqli o‘quvchi o‘rganganlarini shunchaki takrorlamaydi, aksincha, bilim ob’yektiga, o‘z faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi tufayli o‘qituvchi bilan birgalikda ijodiy faoliyatga ishtiyoq asosida o‘zini rivojlantiradi.

O‘lkashunoslik va ilmiy–tadqiqot faoliyati – ta’limdan o‘z–o‘zini tarbiyalashga o‘tish chegarasi bo‘lib, u sub’yektning ichki zaxiralarini safarbar etishida, qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirishida, rivojlanishida ilgarilab borishida namoyon bo‘ladi.

Belgilangan ma’lumotlarga ko‘ra, tarix darslarida o‘quvchilar qiyosiy va statistik jadvallar, voqea va hodisalarning grafiklari, diagrammalar, mintaqaning arxeologik topilmalari xaritalari, o‘lkashunoslik atlaslari, foto hujjatlar bilan albomlar, kundaliklar tuzishlari mumkin. Voqea guvohlari, toponimik lug’atlar, tegishli mavzu bo‘yicha ma’lumot yo‘riqnomalari, mahalliy matbuotning
bog’lovchilari va boshqalar bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilar o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirishlari mumkin: mahalliy mintaqaning yilnomasi, “Xotira” kitobi, viloyat yoki aholi punktining taniqli shaxslari almanaxini yaratish; etnografik, folklor, san’atshunoslik fanlarini o‘tkazish;

o‘z oilasi hamda taniqli vatandoshlar sulolalari bo‘yicha geneologik qidiruvlar o‘tkazish.

Maktabda o‘lkashunoslik ishining ahamiyati shundaki, u ona o‘lka taraqqiyotining ijtimoiy–tarixiy sharoitlarini har tomonlama o‘rganishga xizmat qiladi, o‘qituvchiga o‘quvchilarning psixologik–pedagogik xususiyatlari va qiziqishlarini aniqlash imkoniyatini beradi, ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish, o‘lkashunoslik mazmunining individual topshiriqlarini bajarish maktab o‘quvchilarida o‘lkashunoslik bilimiga, ular orqali esa, tarixga bo‘lgan kognitiv qiziqishni shakllantiradi. O‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishning

keng tarqalgan shakli dars ekan, shu o‘rinda “Qanday qilib tarix darslari jarayonida o‘quvchilar mustaqil faoliyatlarini ta’minlash mumkin?”, - degan savol tug’iladi.

Tarix darslarida o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishda o‘quvchilarni darsga jalb qilish, tarixga bo‘lgan qiziqishini uyg’otish o‘quvchilar faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada o‘quv materialini bayon qilishdagi qiziqarlilik elementlari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, qiziqarlilik elementlarini darsda qo‘llab borish o‘rganilayotgan tarixiy materialning eng qiziq, ehtirosli, nozik joylarini eslab qolish, o‘quvchilarda xotira, diqqat, hissiylik kabi sifatlarini shakllantirishga katta yordam beradi. Darsda biror tarixiy voqeaga qisqa vaqtga mo‘ljallangan qiziqish kengaytirib qo‘llanilishi mumkin.

“Tarix” fani o‘qituvchisi faoliyatidagi yana muhim jihatlardan biri o‘qituvchining o‘quvchilarga yaqinligi, ya’ni uning “pedagogik takt”ni to‘g’ri tashkil qila olishidir. Yuqoridagilarni inobatga olib, tarix darslarida o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishda o‘quv mashg’ulotlari mazmunida mahalliy materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni darsga jalb qilish va ularni yangi material mazmuniga qiziqtirish maqsadida didaktikaning asosiy tamoyili — tarix ta’limining tarbiyalovchilik tamoyiliga amal qilgan holda o‘quv mashg’ulotlar mazmunida mahalliy materiallardan foydalanishning uslubiy imkoniyatini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quv mashg’ulotlar mazmunida mahalliy materiallardan foydalanish, o‘rganilayotgan tarixiy materialning xususiyati, o‘quvchilarning yoshi, ularning aqliy rivojlanish darajalari, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi hamda qiziqishlari va nihoyat, o‘qituvchining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasi, uning o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishga doir tayyorgarligi, pedagogik mahorati kabi omillarga bevosita bog’liq.

O‘lkashunoslik materialini milliy tarix kontekstida ochib berish o‘quvchilarda tarixiy jarayonga yaxlit tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv bilan mintaqa tarixi ikkinchi darajali deb hisoblanmaydi, aksincha, u orqali butun Vatanga xos bo‘lgan individual hodisalarni, voqealarni idrok etish va tushunishga imkon beradi.

“Tarix” fani darslarida o‘lkashunoslik komponentidan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonining borishi, balki o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholash, o‘lkashunoslik tadqiqotlari jarayonida tahlil qilish, umumlashtirish va tajriba orttirish, tarixiy jarayonlarning sabab–oqibat munosabatlarini o‘rnatish mexanizmlarini ham optimallashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://yuz.uz/uz/news/milliy-tarixni-milliy-ruh-bilan-yozish-kerak

2. Abdullayev M.E. “Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish tizimi”, 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari). Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Andijon davlat universiteti, 2020.

3. Ушинский К. Д., Собрание сочинений К. Д. Ушинского под ред. проф. А. М. Еголина, Е. Н. Медынского, В. Я. Струминского. Изд-во Академии педагогических наук РСФСР. (Собрание рассчитано на 10 томов, вышли тт. I и II)

4. Bozorova N.M “Umumta’lim maktablarida tarix darslarini o‘qitishda ikkinchi jahon urushiga oid mahalliy manbalardan foydalanish metodikasi” 13.00.02 – ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari). falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.termiz davlat universiteti, 2023.

5. Yuldashev, J. A. "Content of development of axiological position in future teachers in the process of history education." current research journal of pedagogics 4.06 (2023): 82-88.

6. Юлдашев, Дж "Взаимосвязь развития исторического сознания и аксиологического мировоззрения в восприятии студентов." Общество и инновации 2.3/S (2021): 53-58.

7. Yuldashev J. Leveloping axiological world view in students in teaching history //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – S. 281-283.

8. Юлдашев Ж. Аксиологический Подход В Обучении Истории: Содержательный Компонент //"ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 185-187.

9. Yuldashev J. Bo‘lajak tarix o ‘qituvchilarini aksiologik pozisiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati //Scientific-theoretical journal of International education research. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 76-78.

10. Юлдашев Д. Талабаларда тарихий онг ва аксиологик дунёқарашни ривожлантиришнинг ўзаро алоқадорлиги //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 53-58.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA INSON QADRI FENOMENI

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALASI

Fayzullayev Tursunboy
Namangan davlat universiteti professori, siyosiy fanlar doktori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada demokratik tamoyillar asosida inson qadr-qimmati, farovonligini ta‘minlash yo‘lida tizimli islohotlar amalga oshirilayotgan O‘zbekistonda insonga e’tibor va insonparvarlik g‘oyalari to‘g‘risida muayyan mulohazalar bildirilgan. Inson qadrini ta’minlashda ustuvor vazifalar va ularning istiqbollari tahlil qilingan. Mustaqillik yillarida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni ta’minlash, millatlararo totuvlikni ta’minlashdagi murakkabliklar va ularning yechimlari borasida yondashuvlar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *gumanizm, inson huquqlari, farovonlik jamiyati, umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya, xalqaro hamkorlik, ijtimoiy himoya, fuqarolik jamiyati.*

Abstract: *In this article, on the basis of democratic principles, systematic reforms are being carried out to ensure human dignity and well-being in Uzbekistan, and some comments are made about the ideas of humanism and attention to people. Priority tasks and their prospects in ensuring human dignity are analyzed. In the years of independence, the approaches to ensuring universal and national values, difficulties in ensuring inter-ethnic harmony and their solutions were presented.*

Key words: *humanism, human rights, welfare society, universal human values, democracy, international cooperation, social protection, civil society.*

Аннотация: *В данной статье на основе демократических принципов проводятся системные реформы по обеспечению человеческого достоинства и благополучия в Узбекистане, а также даются некоторые комментарии по поводу идей гуманизма и внимания к людям. Анализируются приоритетные задачи и их перспективы в обеспечении человеческого достоинства. В годы независимости были представлены подходы к обеспечению общечеловеческих и национальных ценностей, трудности обеспечения межэтнического согласия и пути их решения.*

Ключевые слова: *гуманизм, права человека, общество всеобщего благоденствия, общечеловеческие ценности, демократия, международное сотрудничество, социальная защита, гражданское общество.*

Kirish. Har bir mamlakatda davlat hokimiyati faoliyatining asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning, ya’ni insonlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, bu yo‘lda jamiyatning har tomonlama farovon darajaga yetishi uchun muhim iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirish hisoblanadi. Har qaysi mamlakatda insonparvarlik g‘oyalari mavjud bo‘lsada, barcha jamiyatlarni qamrab oluvchi mukammal rivojlantirilgan yo‘l mavjud emas. Chunki globallashuv natijasida turli jamiyatlarda inson huquqlarini ta’minlashga nisbatan qarashlar xilma-xilligi mavjud bo‘lganidan yagona bir me’yor mavjud emas. Binobarin gumanizmga munosabatda barcha jamiyatlar tan oladigan mushtarak jixatlar mavjud bo‘lsada, o‘ziga xos farqli xususiyatlar bilan rivojlanib boradi. Yangilanayotgan O‘zbekistonning insonparvarlik siyosatida demokratiya normalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asos vazifani bajarib, mamlakatda inson qadriga bo‘lgan munosabatni belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillar va natijalar. Davlatning qay darajada rivojlanganini belgilovchi muhim belgilardan biri - farovonlik jamiyatini barpo eta olishdir. Bunday jamiyatlarning G‘arb mamlakatlarida vujudga kelishi va uning samaralari rivojlanayotgan davlatlar tomonidan munosib baholangan. O‘zbekiston ham bunday erkin va farovon jamiyat qurish yo‘lida tarixan qisqa davrda ulkan islohotlarni amalga oshirdi va bu yo‘lda ildam olg‘a intilmoqda. Yangicha dunyoqarash qaror topib, inson qadri va huquqlarini ta’minlanish yuzasidan mustabid Sovet davlati yuritgan “G‘olib sotsializm” mafkurasi o‘rniga demokratiya va mafkuralar xilma-xilligi qaror topmoqda. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi qo‘lga kiritilishi bilanoq boshlangan inson qadr-qimmatini ta‘minlash, erkin va farovon jamiyat barpo etishni ko‘zlovchi davlat siyosati dunyo mamlakatlarida avj olgan ilg‘or va tajriba sinovdan o‘tgan ijtimoiy-siyosiy qarashlarni jamiyat hayotiga tadbiq eta boshladi.

Sobiq SSSR tuzumi davrida qonun va balandparoz shiorlarda belgilangan, biroq jamiyat hayotiga tadbiq etilmagan inson manfaatlariga e’tibor yangicha ruxda qayta ko‘rib chiqilishi zaruratga aylangan edi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining 1-Konstitutsiyasida O‘zbekistonning demokratik yo‘l orqali inson manfaatlarini himoya qilishi belgilandi. Barcha sohalarda inson huquq va manfaatlarini himoyalash uchun mustahkam huquqiy asos ishlab chiqilib, jamiyat ehtiyojlariga monand ravishda muntazam takomillashtirilib borildi. Bunda xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilishi zarur edi. Respublikamizda odamlar o‘z qobiliyat va ehtiyojlarini to‘la namoyon qilish va amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmni yaratishga katta e‘tibor berildi. Negaki, busiz adolatli jamiyat qurib bomaydi.

Ana shunday imkoniyatlar yaratilgandan keyingina, har bir insonning taqdiri, turmushi o‘ziga bog‘liq bo‘lib qoladi. Insonning jamiyatdagi o‘rni uning salohiyatiga, mehnat qilish istagi, oqil-u uddaburonligiga bog‘liq bo‘ladi.[1] Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq BMT, YUNESKO, YUNISEF kabi butunjahon davlatlarida inson qadrini ta‘minlash va insoniyat oldida turgan muammolarga qarshi kurashishda nufuzli o‘ringa ega tashkilotlarga a’zo bo‘lishi bilan inson qadriga bo‘lgan ijobiy munosabatini ifodaladi. O‘zbekiston “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, “Fuqarolik va siyosiy huqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt” va boshqa butunjahon davlatlari qo‘shilgan inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan xalqaro huquqiy normalarni qabul qildi. 1995 - yildan beri O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) lavozimi ta’sis etilib, mamlakatimizda inson huquqlari buzilmasligida muhim vazifalarni amalga oshirib kelmoqda. Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning “O‘zbek modeli”da inson qadrini ta’minlash bo‘yicha muhim islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan davom ettirilmoqda.

Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlik faoliyati davomida ushbu islohotlar yangi bosqichga ko‘tarilib jahon jamoatchiligi tomonidan yuqori baholanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 - yil 28 - dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-4904-sonli farmoni bilan hududlarda xalq qabulxonalari tashkil etilib, fuqarolarni qiynayotgan muammolar yuzasidan shikoyat, taklif va mulohazalar o‘rganilib kelinmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga e‘tibor qaratish, aholi bandligini ta‘minlash hamda fuqarolar huquqlarini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilishida bu islohotning natijasi jamiyat hayotida sezila boshladi. “Barchamizga ayonki, O‘zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy

salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir”, degan edi Shavkat Mirziyoyev.[2]

Xalq qabulxonalari davlat hokimiyati idoralari va fuqarolarga muloqot o‘rnatish vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda. Qabulxonalarga kelib tushgan murojaatlarni o‘rganib, statistik malumotlar olinganda, inson manfaatlarini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ustuvor vazifalar yanada aniqroq belgilab olinishi mumkin bo‘ladi. Ijtimoiy himoya sohasiga yo‘naltiriladigan davlat budjeti mablag‘larini ajratishda birlamchi muammolarga e‘tibor qaratilib, kamchiliklar sabablari va ularning yechimlari yuzasidan fuqarolar bilan muloqot almashinuvi bo‘ladi. Misol tariqasida xalq qabulxonalariga kelib tushgan yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlarida davlat idoralarida ayrim hollarda byurokratiyaga yo‘l qo‘yilishi, rasmiyatchilik bilan bog‘liq muammolar ko‘paygani inobatga olinib “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyili ilgari surilib, fuqarolarning davlat idoralari bilan bo‘lgan faoliyatini qulaylashtirish maqsadida hududlarda davlat xizmatlari markazlari tashkil qilinib, "Fuqarolar emas, hujjatlar xarakatlanadi" degan shior bilan aholi murojaatlari ko‘rib chiqilishi yo‘lga qo‘yildi. Mahallabay ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilishidan tortib, kambag‘allikni qisqartirish bilan shug‘ullanuvchi idoralar faoliyatigacha amalga oshirilgan islohotlar insonlarning hayoti farovonligini ta’minlashga qaratilgan. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarning muammolarini o‘rganib, ularga aniq yo‘nalishlar (kasb-hunarga o‘qitish, ish bilan ta’minlash, tadbirkorlikka jalb etish, moddiy yordam berish) bo‘yicha manzilli ko‘maklashish maqsad qilingan[3]

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilingani natijasida inson huquqlari va burchlari zamon ruhiga mos gumanizm g‘oyalari huquqiy jihatdan yanada mustahkamlab qo‘yildi. Ushbu Konstitutsiyaning 13 - moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.” deb belgilangan. [4]

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasida yurtimizning ijtimoiy davlat ekanligi belgilandi. Buning mohiyati davlatning fuqarolarni muntazam ravishda daromadlarini oshirib borishlari va moddiy yordam olishlari mumkin ekanligini anglatadi. Davlat tomonidan fuqarolarga berilayotgan ijtimoiy yordamlar orqali boquvchisini yo‘qotgan, nogironligi mavjud va moddiy qiyinchiliklarga uchragan fuqarolarga maqsadli mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Yangicha ishlash tizimi asosida yo‘lga qo‘yilayotgan bunday islohotlarning yutug‘i shundaki, yordamga muhtoj aholiga shunchaki moddiy yordam berish bilangina emas, zamonaviy va talabgir kasb-hunarlar bilan shug‘ullanishlari uchun amaliy ko‘mak berilmoqda. Natijada esa muntazam ravishda daromad keltiruvchi manbaga ega bo‘lgan aholi nisbati oshib borib, ijtimoiy himoyaning muhim sohalari bo‘lgan sog‘liqni saqlash, ta’limga yanada jiddiy e‘tibor berish mumkin bo‘lmoqda.

Global hayot sur’atlari natijasida jahonda inson qadrini ta’minlashda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ishsizlikka qarshi kurashish, munosib mehnat sharoitlarini ta’minlash, insoniyatga qarshi qaratilgan vayronkor g‘oyalarni qo‘llab quvvatlovchi millatchilik va diniy adovatlarni qo‘zg‘ashga intiluvchi tahdidlarning oldini olish har bir davlatda bo‘lganidek O‘zbekistonni ham tashvishga solmoqda. Inson qadrini ta‘minlashda yuzaga kelayotgan

muammolarning hal etilishida O‘zbekiston demokratik dunyoviy yo‘lni tanlagan va rivojlangan davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni faol qo‘llash bilan hal etib bormoqda.

Biroq ushbu yangiliklarni ko‘r-ko‘rona tarzda emas, chuqur tahlil etgan holda saralay olish va amaliyotga joriy etish yurtimizda inson qadrini ishonchli ta‘minlaydi. Yuzdan ziyod millat va elat vakillari istiqomad qilayotgan yurtimizda barcha insonlarning manfaatlarini mujassamlashtirgan holda millatlararo totuvlikni ta‘minlash va ijtimoiy muammolarning yuzaga kelmasligi uchun barcha fuqarolarning o‘z huquqlari bilan birga davlat va jamiyat oldidagi mas‘uliyat va burchlari ham yetarlicha anglatib borilishi bunda hayotiy zaruratga aylanib ulgurdi. Qaysi jamiyatda insonlarning dunyoqarashi o‘sib qonun va tartiblarga ongli rioya qila olish darajasiga chiqar ekan, o‘z huquqlari va erkinliklarini talab qilish bilan birga boshqa insonlarning ham huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lar ekan, insonlarning farovon jamiyat qurish uchun intilishlari samara beradi deb hisoblash mumkin. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lini belgilashda barcha islohotlar muayyan millat yoki ijtimoiy gurux uchun xizmat qilmasdan barchaga birdek mos keladigan bo‘lmog‘i lozimligi belgilangan.

Xulosa. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan kelib chiqib inson qadrining ta‘minlanishiga baho berilar ekan, muntazam ravishda ushbu sohada xalqaro hamkorlik aloqalarining jadallashib borayotgani va kuchli huquqiy tizim orqali insonlarning huquq va erkinliklari ta‘minlanayotganini kuzatish mumkin. Yangi O‘zbekistonda insonga e‘tibor kuchayib borar ekan, bunda muxim ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab masalalar paydo bo‘ladi. Davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida hamkorlik muhitini mustahkamlash, rivojlangan mamlakatlarda insonlarga farovonlik jamiyatini qurish borasida amalga oshirilgan islohotlarni o‘rganib hayotga tadbiq etish, inson huquqlarini ta‘minlashda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar umuminsoniy qadriyatlarga tayangani holda xalqimizning asrlar davomida saqlanib kelgan gumanistik qadriyatlariga asoslanishi bunda e‘tiborga olinishi lozim. Buning sababi barcha jamiyatlar ham uzoq vaqtlar davomida o‘z jamiyatlarida shakllangan qarashlariga ega. Umuminsoniy qadriyatlardan farqli o‘laroq, bunday muayyan jamiyatga xos prinsiplar e‘tiborsiz qoldirilishi mumkin emas. Aks holda, jamiyatda ziddiyatlarga yo‘l ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbckiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun (tarix yo‘nalishidan tashqari) darslik/Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; OkzR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.- Г.: "IQTlSOD-MOLIYA”, 2006, 409 - b.

2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2016.-Б. 13.

3. https://lex.uz/docs/-5353246 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “mahallabay” ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori, 19.03.2021 yildagi 152-son

4. https://lex.uz/docs/-6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

YANGI O’ZBEKISTON SHAROITIDA INSON QADRIGA E’TIBOR

Valiyev Elyorbek Saidaxror o’g’li
University of Business and Science Tarix yo’nalishi I bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson qadrini ulug'lash va bugungi kunda mamlakatimizda inson qadri uchun olib borilayotgan turli xil isloxotlar va ularning samralari haqida ma'lumotlar keltirib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, Inson qadri, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, "Inson qadri uchun" tamoyili, qonun, farmon, qadriyat, tarbiya.*

Аннотация: *В данной статье была дана информация о героизации человеческого достоинства и различных реформах, проводимых сегодня в нашей стране во имя человеческого достоинства, и их результатах.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, Человеческие ценности, Стратегия действий, Стратегия развития, Принцип «За человеческие ценности», закон, указ, ценности, образование.*

Abstract: *In this article, information was given about the glorification of human dignity and the various reforms being carried out for human dignity in our country today and their results.*

Key words: *New Uzbekistan, Human value, Action strategy, Development strategy, "For human value" principle, law, decree, value, education.*

Bugungi davrda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. Xususan, 2022- yilga "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb nom berilishi bunga yorqin misoldir. Yangi 2022 yilda mamlakatimizda Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari say-harakatlarimiz ko'lami yanada avj oldi. Bunda aynan inson qadri uchun ezgu g'oyasi muhim vazifani o'tab kelmoqda. Keyingi ikki yil davomida mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekston taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar tufayli barcha javhada tub o'zgarishlar ro'y bermoqda, xalqimizning dunyoqarashi, ong-u tafakkuri yuksalmoqda. Jamiyatimizda yangicha qadriyat va an'analar shakllanmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston xalqparvar, insonparvar davlat sifatida tilga tusha boshladi. Bunga yurtimizda kam ta'minlangan, nochor oilalarni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni misol qilib ko'rsatsak, o'rinli bo'ladi. Yangi yil arafasida Mehribonlik uylarida tarbiyalangan bolalar davlat tomonidan yangi uylar bilan ta'minlandi. Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Ta'kidlash joizki, 73 yil avval qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi dunyoda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo'lida yangi imkoniyatlar ochdi. Mamlakatimizda inson huquqi va erkinliklari demokratik jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida namoyon bo'lishi uchun barcha choralarni ko'rilmoqda. Inson qadri - odam zotining Allohning eng buyuk mo‘jizasi sifatida ulug‘lanishi, har tomonlama munosib qadr-qimmat topishini anglatadigan tushuncha. Inson uchun qadriyatlar mezonini anglashda dastlab oila muhiti, ota-ona, qarindosh-urug‘, o‘qituvchilar muhim o‘rin tutadi. Aynan ana shu omillar negizida inson kamol topib boradi. Insonning butun umri o‘zida shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o‘z qadrini kamolga yetkazish, jamiyat, zamonda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar qadrini anglashga intilishdan iboratdir.

O‘zi va boshqaning qadrini anglab yetish uchun insonning ma’naviy dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishi, uning o‘zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to‘g‘ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bo‘lmog‘i lozim. Bu ma’noda, Suqrotning "O‘z-o‘zingni anglab yet!" - degan da’vati g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. O‘z qadrini anglashning obyektiv, subyektiv, ijtimoiy va shaxsiy jihatlari mavjud bo‘lib, doimiy ravishda o‘zaro aloqadorlikda yashaydi, inson tabiatining turli jihatlarini aks ettiradi. Har qaysi shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ko‘zgusida namoyon bo‘ladi. Muhit va davrning talablari shaxsning qadrini shakllantirib, yuksaltirib boradi. Uning o‘zi ijtimoiy munosabatlar sub’yekti sifatida, o‘z qadrining shaxsiy talablari, ehtiyoj va maqsadlari bilan naqadar bog‘liq ekanini tobora ko‘proq anglab boradi. Inson va uning qadri muammosi - falsafaning azaliy mavzularidan biri. Odam naslining dunyoga kelishi, boshqa jonzotlardan farqi, tabiat va jamiyatdagi o‘rni, insoniy fazilatlari, shaxsiy xususiyati to‘g‘risidagi masalalar hamma davr faylasuflarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ma’lumki, odamning jismoniy tuzilishi, tabiiy-biologik xususiyatlarini o‘rganish ilmfan olamida hamon davom etmoqda. Ijtimoiy fanlarda esa shaxs kamoloti, uning ijtimoiy, ma’naviy qiyofasi bilan bog‘liq masalalari tadqiq qilinmoqda. Xullas, odamzod uchun o‘ziga o‘xshagan boshqa kishilar, ularning xususiyatlari, jamiyatdagi o‘rni, qadri, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq muammolar qadimdan eng asosiy tadqiqot va kuzatish obyekti bo‘lib kelgan. Inson manfatlari - ijtimoiy manfaat shakllaridan biri, jamiyatdagi o‘zgarishlar va taraqqiyotning asosiy maqsadini insonga yo‘naltirish, inson haq huquqlari ustuvorligini ta’minlashni anglatadigan tushuncha. Inson manfaatlari inson ehtiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklarining ustuvorligi, uning eng katta boylik sifatida jamiyatdagi alohida o‘rni va ahamiyatini ta’minlash, jamiyat, davlat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni oqilona yo‘lga qo‘yish tamoyillariga tayanadi. Ma’lumki, 1997 yil yurtimizda inson manfaatlari yili deb e’lon qilindi. Inson manfaatlari yilida inson omiliga yanada ulkan ahamiyat berildi. Keyingi yillarga nom berish va mamlakatimiz uchun ustuvor yo‘nalishni belgilab olishda ham, avvalo, inson manfaatlari ustuvor masala sifatida e’tiborga olinmoqda. Inson dunyoda umid bilan yashaydi. “Orzularimga yetay, shinam uy-joyim bo‘lsa, yon-atrofimda qulay sharoit, bekamu ko‘st muhit hukm sursa, jamiyatga, raiyatga, davlatga, oilamga, ota-onamga, do‘stu yorlarga, mahalla-ko‘yga, qishlog‘imga, yurtimga foydam tegsa, murodu maqsadim ushalsa”, deydi. Keksalar “Odam bolasi hayotdan rozi bo‘lsa, tog‘ni tolqon qiladi” deyishadi. Kim buni tushunar, kim buni anglamas. Prezidentimiz har bir inson umid bilan yashar ekan, ertaga, indin yoki undan keyin emas, hozir, shu bugun niyatiga yetishini, umridan, hayotidan, har bir kunidan rozi, mamnun bo‘lishini istaydi. Bu - ulug‘vor maqsad, ezgu amal, abadiyatga daxldor fikrat. Zero, bugun odamlarni rozi qilish - kelajagimizni go‘zal, betakror, ulkan salohiyat va qudrat kasb etishini ta’minlaydi. Bu - inkor qilib bo‘lmas haqiqat. Chunonchi, baxtli odamlargina dunyoni yangilashga, o‘zgartirishga qodir. Mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda jo‘shqin hamda jadal islohotlar davriga kirdi. Shu islohotlarning eng ustuvorlaridan, muhimlaridan biri “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlaridir. insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko‘ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-u saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g‘amxo‘rlik qilish. ikkinchi jahon urishi yillarda (o‘zbek xalqining turli millat xalqiga insonparvarligi, bolajonligi, xalq farvarligi hamda mehr oqibatliligi misoldir). Tarbiyaning

markazida shaxs turar ekan har bir ison komil inson bo‘lishga intilishi kerak, shundagina biz kutgan natijaga erishimiz mumkin. Prezidentimiz tomonidan 2023 yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nom berilishi ham “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oya kelgusi yilda ham davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolishidan dalolatdir. Bu haqda Prezidentimiz shunday dedilar:

«Inson qadri degan g‘oyani hech qachon unutmasligimiz kerak. Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili deb e’lon qilishimiz, agar [buni] chuqur tahlil qilsak, juda ko‘p o‘ylandik, nimalar qo‘yish mumkin deb . Albatta, kechagi qilgan ishimiz bilan bugungisining davomiyligi, bardavomligi bo‘lishi kerak. Bardavomlik nuqtai nazardan, yana va yana Inson qadri degan g‘oya yillarga qo‘shilib davom etishi kerak. Shuning uchun „Insonga e’tibor va sifatli ta’lim“ deb nom qo‘ydik” «Nima uchun yilga bunday nom beryapmiz? Biz O’zbekistonda olib borayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlashni ustuvor vazifa etib belgilaganmiz. Aslida ham bizning eng bebaho boyligimiz bu - bunyodkor xalqimiz, duogo‘y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratish uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz», - dedi davlat rahbari. Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo‘lgan mahalla institutining katta imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo‘g‘iniga aylantirish vazifasini o‘z oldimizga qo‘yishimiz lozim. Biz O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo‘lishi barchamizga ayon. Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz!Xalq - davlat mavjudligining birdan-bir manbai. O‘z fuqarolari xohish-istaklarini amalga oshirish va ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi davlat qudratli bo‘ladi hamda jahon miqyosida hurmat qozonadi. Navoiy hazratlari tomonidan jamiki mavjudotlarning sharifi deya ulug‘langan Inson qadri bugun Yangi O‘zbekistonda tobora yuksalib bormoqda. Biz O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz! Xalq - davlat mavjudligining birdan-bir manbai. O‘z fuqarolari xohish-istaklarini amalga oshirish va ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi davlat qudratli bo‘ladi hamda jahon miqyosida hurmat qozonadi. Navoiy hazratlari tomonidan jamiki mavjudotlarning sharifi deya ulug‘langan Inson qadri bugun Yangi O‘zbekistonda tobora yuksalib bormoqda. Hujjatda "Inson qadri uchun" degan tamoyilni hayotda to'la ro'yobga chiqarish vazifasi yaqqol aks etgan. Aytish kerakki, bu qadriyat balandparvoz gaplardan xoli tushuncha bo'lib, uning

zamirida har bir insonning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishdek ustuvor maqsad va vazifalar mujassam. Biz O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bunda asosiy e’tibor qadryatlarning shaxsiy (alohida, yakka) darajada namoyon bo’lish shakillari va xususyatlariga qaratiladi. Hozrgi davrda har qaysi odamning qadri -avvalo , uning tabiatiga, Tashqi olamda ro’y berayotan jarayonlari belilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda barcha ishlab chiqilayotgan qonun, farmon va boshqa huquqiy hujjatlar negizida inson qandrini ulug'lashga qaratilgan eng oliy maqsad ko'zlanganligini ko'rishimiz mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar

1) Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent 2021. "O'zbekiston" nashriyoti. 22. b.

2) Sh. M. Mirziyoyev. 2020-yil 2-dekabr kuni bo'lib o'tgan aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturi ijrosini samarali tashkil etish, ipoteka kreditlashni kengaytirish va qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselektoridan keltirilgan

3) Xalq so'zi gazetasi №50 10. 03. 22 yilgi soni.

4) Xolmo'minov M. , A. Qolqanatov. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobi va madaniy-marifiy ishlar//jur. O'zDSMI Xabarlari. 2021. №4. Toshkent. Donishmand ziyosi.

5) Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478.

СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАМИЯТИНИ ЯРАТИШДАГИ ОЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН БИРИДИР

Т. Куйлиев

ТошДАУ “Гуманитар фанлари ва ҳуқуқ” кафедраси доценти

А. Позилов

ТошДАУ “Гуманитар фанлари ва ҳуқуқ” кафедраси ассистенти

Аннотация: *Мақолада мамлакатимизда мустақиллик йиллари давомида вужудга келган янги турмуш тарзини мустаҳкамлашга хизмат қилувчи ижтимоий ҳаётимизнинг энг муҳим натижаси тинчлик ва осойишталик, соғлом турмуш тарзи қадрининг ўрни ва роли ҳақидаги фикрлар ўз аксини топган.*

Таянч иборалар: *мустақиллик, ижтимоий-иқтисодий тараққиёт, тинчлик ва осойишталик, соғлом турмуш тарзи, инсон саломатлиги, жисмоний тарбия ва спорт*

Аннотация: *В статье отражён важнейший результат нашей общественной жизни, служащий укреплению нового образа жизни, сложившегося в нашей стране в годы независимости, отражен в размышлениях о месте и роли ценности мира и спокойствие, здоровый образ жизни.*

Ключевые слова: *независимость, социально-экономическое развитие, мир и спокойствие, здоровый образ жизни, здоровье человека, физическое воспитание и спорт*

Abstract: *In the article, the most important result of our social life, which serves to strengthen the new way of life that has emerged in our country during the years of independence,*

is reflected in the thoughts about the place and role of the value of peace and tranquility, a healthy way of life.

Key words: *independence, socio-economic development, peace and tranquility, healthy lifestyle, human health, physical education and sports.*

Бугунги кунда юртимизда барпо этилаётган Янги Ўзбекистон пойдеворини барпо этиш борасида амалга оширилаётган улкан яратувчилик ишларининг кўламли, улуғвор натижалари шубҳасиз улар учун яратилаётган ижтимоийянги таҳрирда қабул қилинган Конституциянинг “Муқаддима” қисмидаёқ катта умидлар билан “инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва қадр-қиммати олий қадрият ҳисобланадиган инсонпарвар демократик давлатни, очиқ ва адолатли жамиятни барпо этиш борасида ҳозирги ва келажак авлодлар олдидаги юксак масъулиятимизни англаган ҳолда”[1]-дунё ҳамжамияти эътроф этадиган турмуш тарзига эга бўлган жамият барпо этиш вазифаси белгилаб олинган.

Инсон саломатлигини сақлаш ҳамда мустаҳкамлашда, кишиларнинг узоқ ва бахтли умр кўришларида энг муҳим тадбир, бу соғлом турмуш тарзи ва уни шакллантириш эканлиги ҳам илмий, ҳам амалий томондан исбот талаб қилмайдиган ҳақиқат эканлиги аллақачон мутахассислар томонидан эътироф этилган. Ўз аҳолисининг соғлигини муҳофаза қилиш – ҳар қайси давлат ва жамият учун ҳамиша ҳал қилувчи долзарб вазифа бўлиб келган.

Мамалакатимиздаги туб янгиланишлар энг аввало ижтимоий ҳаётимизнинг энг муҳим йўналишлари бўлмиш тинчлик ва осойишталикни сақлаш ҳамда аҳоли соғлигини муҳофаза қилиш учун муносиб турмуш тарзи яратишдан бошлангани сир эмас.

Шуни назарда тутиб Республикамиз Президенти Ш. Мирзиёев “Сиҳат-саломатлик ҳар бир инсон, бутун аҳолимиз учун ҳеч нарса билан ўлчаб, баҳолаб бўлмайдиган буюк неъматдир. Фақат соғлом инсон ва соғлом халқ мислсиз ишларга қодирлигини ҳаммамиз яхши англаймиз”[2]-деган эдилар.

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг энг муҳим йўналишларидан бири аҳоли саломатлигини ва шунга муносиб турмуш тарзин вужудга келтиришдан иборатдир. Албатта, ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг турли босқичларида соғлом турмуш тарзи билан боғлиқ масалалар ҳамиша ҳам турли объектив ва субъектив омиллар натижасида мавжуд бўлган муаммоларни кутилган даражада ижобий ҳал қила олмаган. Чунки жамиятнинг тарихий ривожланиши даврий равишда “Машҳур юнон табиби Гиппократнинг “Табобат илми барча илму санъатлар ичида энг буюк илм ва санъатдир” деган фикрига ҳар доим ҳам мос келавермаган. Жамиятлар ривожланиш тарихида содир бўлиб турган жиддий иқтисодий ва маънавий инқирозлар тўлақонли соғлом турмуш тарзи вужудга келишига замин ярата олмаган.

Яқин яқингача соғлом ва узоқ умр кўриш инсониятнинг азалий орзуси бўлиб келган. Аммо уни реал воқеликка айлантириш ўта қийин ва мураккаб масаладир. Шу нуқтаи назардан ҳар қандай жамиятнинг олдида турган асосий вазифа инсониятнинг анашу орзусини руёбга чиқаришдан, яъни кишилар соғлиги ва узоқ умр кўришлари учун шарт-шароитлар яратишдан иборатдир.

Халқимиз саломатлигини мустаҳкамлаш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш учун давлатимиз жамиятимиз фуқароларига айниқса мустақиллик йилларидан бошлаб алоҳида ғамхўрлик қилиб кела бошлади. Ўтган йилларнинг катта қисмида соғлом турмуш

тарзининг асослари бош шиор бўлиб марказга чиққанини йилларнинг номланишида ҳам кўришимиз мумкин. Ҳеч қандай шубҳа йўққи, жамиятда вужудга келган тинчлик ва соғликни таъминлашда эришилаётган ютуқлар орқали қолган барча нарсаларга эришилади.

Бугунги кунда вужудга келган имкониятларни ҳисобга олган ҳолда мамлакатимиз Ш. Мирзиёев қуйидагиларни алоҳида таъкидлаган эдилар: “Бизни доимо қийнайдиган, тинчлик бермайдиган орзу-ниятимиз, Яратгандан сўрайдиган энг катта тилак-илтижомиз шуки, бетакрор, гўзал, саховатли Янги Ўзбекистонимизда, албатта, ҳар томонлама соғлом, ўзининг куч-қудрати, баркамоллиги билан ўзгаларнинг ҳавасини уйғотадиган авлодлар яшаши керак” [3]. Ҳеч қандай шубҳа йўққи, жамиятда вужудга келган тинчлик ва соғликни таъминлаш, жисмоний тарбия ва спортда эришилаётган ютуқлар орқали қолган барча нарсаларга эришилади.

29 декабрь 2020 йилда Президентимиз Ш. Мирзиёев Олий Мажлисга ва халқимизга йўллаган Мурожаатномасида эса буюк аждодимиз Имом Мотрудий ҳазратларининг “Тириклик ҳикматини соғликда, деб билгин”, деган чуқур маъноли сўзлари нақадар тўғри эканини ҳаётнинг ўзи бугун қайта-қайта исботлаётгани ҳақида гапириб, “Шу боис мавжуд имконият ва салоҳиятимиз, пандемия шароитида орттирган тажрибамиз ҳамда хориждаги илғор ютуқлардан фойдаланиб, аҳоли саломатлигини асраш ва мустаҳкамлаш борасидаги туб ислоҳатларимизни янги босқичга кўтаришимиз зарур”[4]- деган эдилар.

Демак, инсон соғлиги давлат бойлиги ҳисобланади. Шунинг учун ҳам инсоннинг биосоциал саломатлигини асраш йўли орқали ижтимоий муҳит ҳолатини таъминлашга интилиш давлат аҳамиятига молик вазифалардан бири ҳисобланади. Биологик нуқтаи назардан соғлом турмуш тарзини шакллантиришда қуйидагиларга эътибор бериш зарурлиги мутахассислар томонидан тавсия этилган:

1) Организмнинг ёшига боғлиқ хусусиятларига ва саломатлик ҳолатига мос келиши;

2) Организмнинг энергия таъминотига бўлган талабини истеъмол қилинаётган озиқ-овқат маҳсулотлар ҳисобига тўла қондирилиши;

3) Организмнинг мустаҳкам ва жисмоний фаол бўлиши;

4) Белгиланган кун тартибига риоя қилиш, меҳнат қилиш ва дам олишни мутаносиб ташкил қилишга асосланиши;

5) Ҳаёт ритмларига мос келишини назоратда бўлишига эътибор қаратиш лозимлигини уқтириб келадилар.

Ижтимоий ва маънавий нуқтаи назардан эса қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга муофиқдир деб биладилар:

1) Ахлоқий ва жисмоний жиҳатдан соғлом бўлиш;

2) Иродани мустаҳкамлаш;

3) Ташқи ва ички гузалликка аҳамият бериш;

4) Маданиятли ва маънавиятли бўлиш.

Жамиятни соғломлаштириш соғлом ижтимоий муҳитни қарор топтириш, демократик ва ҳуқуқий давлат қриш, фуқаролик жамиятини ривожлантириш даврида ахлоқий қадриятларни тиклаш, шу асосда баркамол шахс қиёфасини шакллантиришдаги муҳим омиллардандир. Чунки жамиятимизнинг ҳар бир аъзоси ижтимоий индивид сифатида унинг мукаммал камолати учун зарур ижтимоий муҳитда яшайди, фаолият кўрсатади ва камол топади.

Демак, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш ўз ўзидан содир бўладиган ҳодиса эмас. У жамият фуқароларини биологик ва ижтимоий- маънавий соғломлаштириш тамойиллари асосида олиб бориладиган кўп қиррали ҳодиса бўлиб, соғлом турмуш тарзи шахснинг муайян ижтимоий-ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий, жисмоний-руҳий, маданий шароитларда шаклланган индивидуал ҳаётий фаолият услуби, турмуши, умр мазмуни, жисмоний саломатлиги, ўзаро муносабат маданияти, хулқ-атвори, дунёқараши, хатти-ҳаракати тарзида номоён бўлишидир деб ҳисоблаш мумкин.

Мамлакатимиз Президенти Ш. Мирзиёев алоҳида таъкидлаганларидек “Биз жамиятимиз тараққиётида муҳим аҳамиятга эга бўлган долзарб масалалар ва ўз ечимини кутиб турган муаммоларни ҳал этиш учун кенг кўламли фаолиятимизни изчиллик билан қатъий давом эттирамиз. Кейинги йилларда ҳам бизнинг уствор вазифамиз дунёдаги энг ривожланган мамлакатлар қаторига кириш, халқимизнинг эркин ва фаровон ҳаётини таъминлашдан иборат бўлиб қолади”[5].

Янги тарихий шароитда Ўзбекистонимизда инсон саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш ҳаётий муҳим масаладир. Тинчлик ва соғлик таъминланса қолган ҳамма нарсага эришиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. (Матн). Расмий нашр. – Тошкент: “O’zbekiston” нашриёти, 2023. 3-бет.
2. Ш. Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. Т: “O’zbekiston” нашриёти, 2022, 210-бет.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 29 декабр 2020 йилда Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Hurriyat. 2020 – yil, 30 – dekabr, chorshanba. №51-52.
4. Ш. Мирзиёев. Нияти улуғ ҳалқнинг иши ҳам ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Тошкент: “Ўзбекистон ” НМИУ, 3-жилд. 2019. 32- бет.
5. Ф. Халдибекова. Соғлом турмуш тарзи жамиятимиз тараққиётининг асосий омили. Т, “O`zbekiston”- 2013.

YANGI O‘ZBEKISTONDA – INSON SHA’NI VA QADR-QIMMATI USTUVORLIGI HOZIRGI JAMIYAT YOSHLARINING DOLZARB MAVZUSI SIFATIDA

Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti,
Informatsion texnologiyalar kafedrasi katta o‘qituvchi
Asrorova Hulkarxon Abrorovna
Namangan muhandislik-texnologiya instituti,
Avtomatika va energetika fakulteti 1-bosqich talaba
Tel: 99-870-58-68, e-mail: sayidovnozimjon@gmail. com

Abstract: *The article analyzes the reforms in creating the foundations of the third renaissance in New Uzbekistan, its national, cultural, historical, philosophical foundations, the traditions of succession in ensuring the connection between the renaissances, the contribution of our great ancestors to the world civilization and its use today.*

Key words: *new Uzbekistan, Third Renaissance, society, public interest, "Strategy of New Uzbekistan", system, succession, heritage, education.*

Аннотация: *В статье анализируются реформы в создании основ третьего ренессанса в Новом Узбекистане, его национальные, культурные, исторические, философские основы, традиции преемственности в обеспечении связи ренессансов, вклад наших великих предков в мировую цивилизацию и его использование сегодня.*

Ключевые слова: *новый Узбекистан, Третье Возрождение, общество, общественный интерес, «Стратегия Нового Узбекистана», система, преемственность, наследие, образование.*

Annotatsiya: *Maqolada Yangi O’zbekistonda uchinchi renessansning poydevorini yaratishdagi islohotlar, uning milliy, madaniy, tarixiy, falsafiy asoslari, renesanslararo bog’lanishni ta’minlashda vorisiylik ana’analari, buyuk ajdodlarimizning jaxon sivilizitsiyasiga qo’shgan hissasi va undan bugungi kunda foydalanishi tahlili qilingan.*

Kalit so’zlar: *yangi O’zbekiston, Uchinchi Renessans, jamiyat, xalq manfaati, “Yangi O’zbekiston strategiyasi”, tizimlilik, vorisiylik, meros, ta’lim.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston” tushunchasini zamonaviy dunyo siyosati lug‘atiga kiritgani beqiyos ahamiyatga ega bo‘ldi. Yangi O‘zbekiston – bu ibora Yurtboshimiz ilgari surgan va bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan ezgu g‘oyadir.

Bu g‘oya zamirida: bir tomondan, bugungi va ertangi avlodlarimizning “Uchinchi Renessans” poydevorini qo‘yishdek ezgu maqsad-muddaolari; ikkinchi tomondan, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davrlariga asos solgan ulug‘ ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari; uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o‘qish va izlanishga da’vat o‘z mujassamini topgan. “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”.

Ushbu fikrlarni Prezidentimiz ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha 2021 yil 19-yanvar kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bildirgandi. Davlatimiz rahbari mazkur yig‘ilishda so‘zlagan nutqning mazmun-mohiyati va ahamiyati keyinchalik Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida o‘z aksini yanada yaqqol topdi: Taraqqiyot strategiyasining yetti yo‘nalishidan biri ma’naviyat sohasida amalga oshiriladigan islohotlarga bag‘ishlandi. Shu yil 24-26 mart kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida Yurtboshimiz iqtisodiyot va ma’naviyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligi haqida yana bir bor batafsil to‘xtaldi. Zero, O‘zbekiston zamini ko‘p asrlar davomida dunyoning turli mintaqalaridagi savdogar, ishbilarmon va tadbirkorlar e’tiborini o‘ziga tortib kelgan.

Buyuk ipak yo‘lining markazida joylashgan yurtimiz qadimdan Osiyo, Yevropa va Afrika qit’alarining karvon yo‘llari tutashgan hudud sifatida mashhur bo‘lgan. Xitoy, Hindiston, Eron, Vizantiya, Misr kabi mamlakatlarda shakllangan sivilizatsiya va madaniyat namunalari aynan qadimgi Movarounnahr, hozirgi O‘zbekiston hududida uchrashib, bir-birini o‘zaro boyitgan.

Shuni takidlash joizki, birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi ishtirokchilari ushbu jahoniy anjumanni kelgusida an’anaviy forumga aylantirish fikrini bildirdilar. Bu bejiz emas. Chunki Toshkent Forumi biznes dunyosida ulkan tarixiy ahamiyatga ega voqea bo‘ldi. Buning bir qator sabablari bor.

Birinchidan, tadbir 2 ming nafardan ortiq ishtirokchi – jahonning 56 mamlakatidan yirik investorlar va yuqori martabali xorijiy mehmonlar uchun ochiq fikr almashish, muloqot va istiqbolli tashabbuslar maydoniga aylandi.

Ikkinchidan, eng muhimi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqida Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda amalga oshirilgan shiddatli islohotlar natijalari to‘g‘risida so‘z yuritildi hamda galdagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi.

Uchinchidan, Forumda 7, 8 mlrd dollarlik aniq shartnomalar va investitsiyaviy bitimlar paketi imzolandi.

To‘rtinchidan, qiymati 3, 5 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi.

Harakatlar strategiyasining mohiyati va ahamiyati nimada? Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Biz, birinchi navbatda, ilgari investorlarning O‘zbekiston bozoriga kirishi va erkin faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilgan barcha omillarni bartaraf etib, tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yarata boshladik”.

Bularning barchasi yurtimizda inson sha’ni va qadr-qimmatini ulug‘lashga qaratilgan ezgu sa’y-harakatlardir. Joriy yil boshidan amalga oshirishga kirishilgan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun 2022 yilga – «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili» deb nom berilgani ham bejiz emas.

Davlatimiz rahbari ta’riflaganidek, “Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”.

Inson huquqlari himoyasini kafolatlash, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta’minlash, sud-huquq sohasidagi moddiy va protsessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlari oshishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, mamlakatimiz keyingi besh yilda:

- ✓ Ekologiya samaradorligi indeksida – 29 pog‘ona;
- ✓ Farovonlik indeksida – 9 pog‘ona;
- ✓ Statistik salohiyat indeksida – 16 pog‘ona;
- ✓ Global innovatsiyalar indeksida – 29 pog‘ona;
- ✓ Global tinchlik indeksida – 19 pog‘ona;
- ✓ Ochiq ma’lumotlar reytingida – 124 pog‘ona;
- ✓ Oziq-ovqat xavfsizligi indeksida – 9 pog‘ona;
- ✓ Internet tezligi reytingida – 25 pog‘ona;
- ✓ Iqtisodiy erkinlik indeksida – 52 pog‘ona;
- ✓ Biznes yuritish indeksida – 18 pog‘ona;

- ✓ Bolalar hayoti sifati reytingida – 16 pog‘ona yuqorilagan.
- ✓ Shuningdek, Siyosatdagi ayollar reytingida – 2021 yilda 45-o‘rinni egallagan.

Bugungi kunda O‘zbekistonning jahonda nufuzi o‘sib borayotgani — bu nafaqat davlatning har tomonlama puxta o‘ylangan, qat’iy va mustaqil ichki va tashqi siyosati natijasi, balki mamlakatda demokratik va bozor islohotlarini amalga oshirishda erishilayotgan yutuqlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi hamdir.

Eng muhim maqsadga erishish yo‘lida inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, O‘zbekistonning 2030 yilga kelib “Global innovatsion indeks” reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirish strategik rejasi qabul qilindi.

Ikkinchi muhim natija: mamlakatimizda ochiqlik siyosatini ta’minlash uchun 90 ta xorijiy davlat fuqarolari uchun O‘zbekistonga vizasiz kirish imkoniyati yaratildi. Yana 60 ga yaqin mamlakat fuqarolariga esa yengillashtirilgan tartibda viza olish imkoniyati berildi. Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng ochiq davlat maqomini qo‘lga kiritdi.

Yangi O‘zbekiston me’mori va tashabbuskori bo‘lmish Prezidentimiz qayd etganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub’ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob’ektiv zaruratdir”.

Uchinchi muhim natija: korrupsiyaga qarshi kurashish O‘zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu maqsadda Senat raisi rahbarligida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi.

Ilk bor Prezidentimizning 2020 yil 29 iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga asosan korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas’ul bo‘lgan alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha parlament qo‘mitalari tuzildi. Bu amaliy qadamlar barcha darajadagi davlat muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashni tubdan kuchaytirishga yordam beradi. Sohaga oid bir qator konseptual normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi shular jumlasidandir.

To‘rtinchi muhim natija: mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning huquq va erkinliklarini kafolatlash va to‘liq himoya qilish ham eng ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Inson huquqlari madaniyatini shakllantirish – ustuvor ahamiyatga ega. Bugungi kunda inson huquqlari va erkinliklari sohasida O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq xalqaro hujjatdagi holatlar milliy qonunchilikda o‘z ifodasini topgan.

Beshinchi muhim natija: mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va so‘z erkinligini ta’minlash, demokratik media makon yaratish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Avvalo mavjud normativ-huquqiy bazani kuchaytirish maqsadida keyingi besh yilda 12 ta qonun hujjati qabul qilindi. Media sohasi, axborot xizmatlari tizimi tubdan yangilandi.

Elektron ommaviy axborot vositalari, xususan, Internet jurnalistikasi hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 1 ming 893 ta ommaviy axborot vositasidan 638 tasi yoki 33, 7 foizi Internet nashrlari – veb-saytlar sifatida ro‘yxatdan o‘tgan.

Oltinchi muhim natija: ko‘p yillar davomida mamlakatimiz turli “qora ro‘yxat”larga kiritilishi uchun sabab bo‘lgan majburiy mehnat, jumladan, bolalar mehnatiga to‘liq barham berildi.

Yettinchi muhim natija: Prezident Shavkat Mirziyoev joriy etgan shiddatli islohotlarning birinchi kunidan boshlab yurtimizda ta’lim va inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

Sakkizinchi muhim natija: mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq siyosati ham biznes sohasini rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda soliqlarning umumiy soni 13 tadan 9 taga tushirildi. Mol-mulk, shaxsiy daromad va ijtimoiy soliq stavkalari ikki barobar pasaytirildi.

To‘qqizinchi muhim natija: O‘zbekistonda “yagona darcha” tamoyili asosida xorijiy investorlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim joriy etildi. Xususan, sarmoyadorlarga har tomonlama ko‘mak beradigan, barcha hudud va tarmoqlarni qamrab olgan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘ninchi muhim natija: ikki yil avval mamlakatimiz tarixida birinchi marta kambag‘allikni bartaraf etish Hukumat siyosatining asosiy maqsadlaridan biriga aylantirildi.

Ko‘plab xalqaro tashkilotlar va yetakchi xorijiy ekspertlarning baholashicha, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev mintaqadagi taraqqiyot “lokomotivi” hisoblanadi. Dunyodagi hech bir mamlakatda so‘nggi yillarda O‘zbekistondagi kabi keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmagan. Toshkentning yaxshi qo‘shnichilik siyosati tufayli Markaziy Osiyo davlatlari ilk bor bugungi kunda dolzarb bo‘lgan mintaqaviy masalalarni bu qadar ochiq va samimiy muhokama qila boshladi.

O‘zbekiston jahon minbarlaridan ilgari surgan xalqaro, mintaqaviy va milliy tashabbuslar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta’minlashga, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgani uchun xalqaro hamjamiyatning e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

Bularning barchasi Yangi O‘zbekistonning islohotlar yo‘li to‘g‘ri tanlanganidan dalolat beradi. Binobarin, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, "Islohotlar ortga qaytmaydigan muqarrar tus olgani real haqiqatdir".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 31-oktyabr 1996-yildagi (Inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markazini tashkil qilish tug‘risida)gi PF-1611-son farmoni.

2. A. X. Saidov-akademik yuridik fanlari doktori professor –—Inson huquqlarini ta‘minlash-bosh maqsadimiz‖. (Turkiston press ro_znomasining muxbiri bilan savol–javobi.

3. Muhiddinov Nodir - TDYU iqtisoslashtirilgan filiali Davlat huquqiy kafedrasi o‘qituvchisi – —Inson qadri uchun‖ tamoyilining huquqiy asosi —Yangi O’zbekiston‖ ro’znomasi 06. 07. 2022 yildagi №244-sonli maqolasi

4. Erkaboev U. I. , Rakhimov R. G. , Mirzaev J. I. , Negmatov U. M. , Sayidov N. A. Influence of a magnetic field and temperature on the oscillations of the combined density of states in two-dimensional semiconductor materials // Indian Journal of Physics. 2024. Vol. 98, pp. 189-197. (https://www. scopus. com/sourceid/145208)

ЖАМИЯТНИНГ ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТИ БОСҚИЧИДА ШАХС КАМОЛОТИНИ ГУМАНИЗАЦИЯЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Юлдашев Фаррух Абдураҳманович

Фарғона давлат университети фалсафа ва миллий ғоя кафедраси катта ўқитувчиси, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (phd)

Email: farruxy911@gmail. com

91-680 85 12

Аннотация: *Ушбу мақолада Янги Ўзбекистонда, ахборотлашган жамият шароитида ёшларнинг эҳтиёж ва манфаатларини гуманизациялаш (инсонийлаштириш), аксиологик (қадриятли) ёндашув доирасида ривожлантиришнинг муҳим жиҳатлари ва ўзига хос хусусиятлари ёритилган.*

Аннотация: *В данной статье освещаются важные аспекты и особенности развития потребностей и интересов молодежи Нового Узбекистана, в условиях информационного общества, в рамках гуманизировать, аксиологического (ценностного), подхода.*

Abstract*: This article highlights important aspects and features of the development of the needs and interests of the youth of New Uzbekistan, in the conditions of the information society, within the framework of a humanizing, axiological (value) approach.*

Калит сўзлар*: жамият, ахборот, гуманизация, эҳтиёж, манфаат, муаммо, ёшлар фаолияти, тараққиёт, дунёқараш, инсон қадри.*

Ключевые слова*: общество, информация, гуманизация, потребность, интерес, проблема, молодежная активность, развитие, мировоззрение, человеческие ценности.*

Key words*: society, information, humanization, need, interest, problem, youth activity, development, worldview, human values.*

Жаҳонда юз бераётган глобаллашув жараёнлари ахборот ва билимнинг асоси бўлган ахборотлашган жамиятни шакллантириб, инсон фаолиятида моддий манфаат ва эҳтиёжларни қондиришга интиладиган, миллий қиёфасини йўқотган, ўз мақсади йўлида ҳар қандай ғояни қўллашга тайёр авлодни пайдо бўлишини юзага келтирмоқда. Жамиятда эҳтиёж ва манфаатлар уйғунлигини таъминлаш, кишиларда муайян эҳтиёжларни қондириш билан боғлиқ бўлган манфаатлар ҳамда маънавий манфаатларнинг сиёсий, гуруҳий, ахлоқий каби шаклларини тадқиқ этиш долзарблашиб бормоқда. XXI асрдаги турли ижтимоий сиёсий муаммоларнинг кескинлашуви, дунё мафкуравий манзарасининг ўзгаришлари глобал тараққиётга хос бўлган хусусиятларни эҳтиборга олиб, ижтимоий фаолиятда эҳтиёж ва манфаатларнинг фалсафий жиҳатларини тадқиқ этиш заруратини келтириб чиқармоқда. Жамиятнинг янги тараққиёт босқичи Ўзбекистонда барқарор фуқаролик жамиятини барпо этишнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий ва илмий-маърифий асослари олиб борилаётган ислоҳотлар ва модернизациялашув жараёнлари бўйича «Инсон қадри учун» тамойили асосида фаровон ҳаёт, инсон ҳуқуқлари ва манфаатларини таъминлашга қаратилган устувор йўналишлар белгиланди[1. Б-4]. Ахборотлашган жамият ва ахборотлашув жараёнининг мазмун моҳиятини, унинг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этиш, бугунги кунда ахборот ресурслари давлатлараро тўқнашув, геосиёсий мақсадларни амалга ошириш билан бевосита боғлиқ бўлиб, ушбу жараёнда миллий манфаатларни ҳимоя қилиш, асраб-авайлаш долзарб аҳамият касб этмоқда. Ёшлар фаолиятида эҳтиёж ва манфаатларнинг қондирилиши бугунги ахборотлашган жамият

билан боғлиқ равишда намоён бўлиб, ушбу масалага қаратилган кўплаб муаммоларнинг мавжудлиги ушбу масалаларни тадқиқ этишни талаб этади.

Жамият тараққиётининг бугунги босқичида ёшларни замонавий билим ва тажрибалар, қадриятлар асосида мустақил ва мантиқий фикрлайдиган, эзгу фазилатлар соҳиби бўлган, инсонийлик хислатларини ўзида намоён этадиган комил инсонни шакллантириш бош мақсадимиз хисобланади. Инсон тарбиясининг шаклланиши, муайян аҳлоқий меъёрлар, билим, фан, меҳнат ва тажрибаларнинг ортишига туртки бўлади. Зеро, “ўз ватанини, она халқини равнақ топтириш учун ўзини аямасдан меҳнат қилиш: бу – жасорат ва мардлик, бу – она юртга муҳаббат ва садоқат, бу – тўғри тарбия ва амалий намуна демакдир”[2. Б-354]. Шунингдек, бугунги ахборотлашган жамиятда ёшларнинг эҳтиёж ва манфаатлари муштараклигини таъминлашдаги муаммоларни тадқиқ этиш ҳам муҳим вазифалардан бирига айланмоқда.

Жамият ахборотлашуви шароитида эҳтиёж ва манфаатлар уйғунлигини таъминлашнинг гуманизациялаш, яъни инсонийлаштириш, ахборотларга инсонийлик нуқтаи назардан ёндошиш масалаларига эътибор қаратилган. Шу билан бирга шахс, жамият, давлат эҳтиёжлари зарурий, ўзаро диалектик алоқада эканлигини ижтимоий-фалсафий жиҳатдан таҳлил этишга, жамият шароитидан келиб чиққан ҳолда, эҳтиёжларнинг аҳамияти ва моҳияти ўрганилди. Шу асосда Ўзбекистоннинг демократик тараққиёти шароитида жамият ва инсон, хусусан ёшлар фаолиятида эҳтиёж ва манфаатлар, уларнинг шаклланиши, намоён бўлиши ўрганиш, уларнинг моҳияти, таркиби ва тизимини ижтимоий - фалсафий таҳлил этиш муҳим аҳамиятга эга. Инсоннинг ҳаётий фаолияти инсон жамиятига хос бўлган ўз қонуниятларига эга бўлган муҳитда амалга ошади. Ахборот муҳитида шахс хавфсизлиги масаласи замонавий жамиятда обьектив равишда юзага келган цивилизациялар ўзгариши ва шароит туфайли эҳтиёжларни келтириб чиқарадиган, жамият ва давлат тизимидаги эҳтиёжларига мос равишда, унинг ўз-ўзини ҳимоя қилиши ва ўзини қадрлаши, мақсадларини амалга ошириши билан белгиланиши зарур. Инсон ва жамиятнинг ҳаётий манфаатларини ҳимоя қилишда ўз навбатида ахборот таҳдидларидан ҳимояланиш муҳим аҳамиятга эга. Ахборот бугунги кунга келиб инсон тафаккурига таъсир ўтказувчи, инсоният ҳаёти ва тақдирини яхши ёки ёмон томонга буриб юборувчи “гоҳ салбий, гоҳ ижобий моҳият касб этувчи воситага айланди”[3. Б-206]. Кишиларнинг жамиятдаги ахлоқий хатти-харкатлари, юриш туришлари, яшаш коидалари, ғоялар ва хиссиётлари, ва уларни инсон онгида акс этиши бевосита ахлокий онг, ахлокий маданиятга боғлиқ. Ахлоқий онг инсон характерига, табиатига сингиб, амалий фаолиятда одоб, билим, эътиқод, ихлос, виждон ва иймон каби хислатлар асосида шаклланади. Таъкидлаш керакки ахлоқ ва одоб маънавиятнинг мазмунини ташкил этади. “Бугун уларни фундаментал тарзда ўрганиш, таҳлил қилиш, умумлаштириш, янги ғояларни илгари суриш миллий тараққиётимиз ва унинг истиқболи учун амалий аҳамиятга эга бўлишни назарий жиҳатдан асослашга ҳаракат қиламиз”[4. Б-206]. Мазкур масалалар ҳам тезкорлик билан бартараф этилиши ахборотлашган жамиятда эҳтиёж ва манфаатлар муштараклигини таъминлашга асос бўлади.

Инсон ва социал синфларнинг ўзаро алоқадорлиги, муносабатлари натижасида шуни кўриш мумкинки, шахс манфаати билан жамият манфаатининг мос келиши инсон омилининг ўсишига, фуқароларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини юксалишига олиб келади. Бу борада уйғунликнинг бўлиши ривожланиш гаровидир. Манфаатлар

мундарижасида номутаносибликларнинг мавжудлиги, манфаатларнинг келишмовчиликлар ва низолар асосида пайдо бўлиши, ишлаб чиқарувчи кучлар билан ишлаб чиқариш муносабатлари ўртасидаги уйғунликни бузади. Бунинг оқибатида иқтисодий парокандалик, ижтимоий инжиқлик, маънавий таназзул вазияти вужудга келади. Баъзан шахс томонидан амалдаги ижтимоий манфаат инкор қилиниш ҳолати ҳам учрайди. Шунинг учун ҳам манфаатлар муштараклиги муаммоси ҳар қайси жамият учун аҳамиятлидир. Ижтимоий ва шахсий манфаатлар ўртасидаги объектив уйғунликнинг бўлиши - демократик жамиятнинг муҳим белгиларидан ҳисобланади. Бундай уйғунлик ўз-ўзидан шаклланиб қолмайди. Ижтимоий жараён, шахс билан жамият ўртасидаги муносабатлар тартибга солиниши ва идора қилиниши лозим. Ҳар қандай идеал тузумда ҳам шахс ва жамият манфаатлари ўртасида номувофиқлик, зиддиятлар пайдо бўлиши мумкин. Одамларнинг шахсий эҳтиёжи ва манфаатларидаги шаклланиш ҳолати, ҳаётий мўлжали, тажрибаси, руҳиятининг йўналиши, табиийки, бир-бирларидан фарқланади. Бунинг таъсирида жамият ва шахс муносабатларида низоли ҳолатларнинг вужудга келиши шароити ва сабаблари ҳам турли бўлади.

Фуқаролик жамияти барпо этиш жараёнида ёшлар эркинлик ва ташаббусларини, мамлакатимиз ижтимоий ҳаётидаги иштирокини кенгайтириш долзарбдир. Ўз навбатида борлиқ ва оламдаги воқеа, ходисаларга нисбатан лоқайдликка чек қўйиш, огоҳлик, хушёрлик, шахсий позиция, дахлдорлик кўникмаларини ошириш давр талабидир. Сабаби, ҳозирги кунда экстремизм, терроризм, миллатчилик, шовинизм, маънавий қашшоқлик, ахлоқсизликни тарғиб қилиш жиддий мафкуравий хавф сифатида намоён бўлмоқда. Сўнги йилларда бу борада интеллектуал ва оммавий ахборот воситаларидан ҳам фойдаланилмоқда. Муайян мафкуравий полигонларнинг муттасил тарқатаётган ахборотларидаги ёвуз ва зарарли ғоялар оқими, жангари фильмлар, болаларга мўлжалланган бузғунчи ғоялар асосида ишланган ўйинлар бунга мисол бўла олади. Ёшлар эҳтиёж ва манфаатлари қонунларни хурмат қилиш, ислоҳотларнинг ижобийлигини таъминлаш, ижтимоий турмушни ўстириш, хурфикрлилик ва барқарорликни таъминлаш каби масалалар билан боғлиқдир. Ўз навбатида жамиятда кузатилаётган турли салбий иллатлар, коррупция, жиноятчилик, хуқуқбузарликларни олдини олиш, бу жараёнда ёшларнинг ўрни масаласига ҳам катта эътибор бериш, ёшлар ўртасида ҳуқуқий тарбияни кенг йўлга қўйиш зарур. Жамиятда хуқуқий онг ва хуқуқий маданиятнинг шаклланиши тарбия ва муҳитга бевосита боғлиқ. Ёшларни қонунга, қонун устуворлигини таъминлашга ўргатиш алоҳида эътибор қаратиш лозим. Жамиятда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш билан қонунларга амал қилиш, бошқаларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилишни ёшлар кундалик одатига айлантириш муҳим аҳамиятга эга. Фуқароларнинг мустақил ҳаётий қарашларини ташкил топишида бугунги тараққиёт билан боғлаш, жамият ижтимоий-сиёсий ҳаётида фаоллигига эришишга эътибор қаратиш зарур. Ёшларнинг мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги иштироки сезиларли даражада ўсиб боришини давлат хокимияти бўғинлари, сиёсий партия ва харакатлар, ижтимоий ташкилотлар, ўзини-ўзи бошқариш идоралари, фуқаролик жамияти институтларида уларнинг фаоллиги орқали кузатиш мумкин. Ёшларнинг сиёсий сохадаги билим, тажриба ва маданияти узлуксиз ўсиб борувчи жараёндир. Бугунги кунда ёшларнинг таълим олиш хуқуқини таъминлаш, жамиятда соводсизлик ва жаҳолатга барҳам бериш энг муҳим вазифадир. Янги Ўзбекистонда ёшларга эътибор кучайтирилиб, эндигина ҳаётга қадам

қўяётган ёшларни асраб авайлаш, онги эндигина шаклланиб келаётган ёшларни бегона ёт ғоялар ортидан эргашиб кетишларини олдини олиш ва келажак учун комил инсон қилиб тарбиялаш долзарбдир. Таъкидлаш керакки, бугунги кунда жамиятимизнинг ижтимоий, сиёсий ҳаётида ҳам катта ўзгаришлар кузатилмоқда. Хукуматимиз демократик хуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этишни ўз олдига мақсад қилиб, Ўзбекистонда ривожланган давлатларнинг тажрибасидан келиб чиққан ҳолда давлатимиз раҳбари томонидан эркин фуқаролик жамияти барпо этиш, халқимиз фаровонлиги ошириш ва ислоҳотлар замирида аҳоли ижтимоий ҳаётини янада ривожлантиришга қаратилган “Ҳаракатлар стратегияси” ишлаб чиқилди. Таъкидлаш керакки, янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида барпо этилаётган фуқаролик жамияти ўзининг замонавий кўриниши билан биринчи навбатда яшаш энг олий қадрият эканлиги, инсон ҳаёти ва тинчлигининг устуворлиги, ёзилган қоидалар (конституция)ни билишга, уни англашга қаратилганлиги, ахлоққа асосланган холда инсон эҳтиёж ва манфаатларини барча нарсадан устун кўриш билан изоҳланади.

Хулоса қилиб айтганда, Ёш авлодни ахлоқи, таълим-тарбиясини юксалтириш билан Ватани ва ўз шахсий манфаатларини таъминлаш, асраб-авайлаш, уларни келажакда бахтли ҳаёт сари йўналтириш долзарбдир. Қолаверса жамиятимиз ёш авлоди ўз келажаги ва ҳаётдан кўзланган мақсадини аниқ тушуниши, тасаввур этиши, жамият, оила, махалла ва халқи учун эзгулик қиладиган инсон бўлиб етишига алохида эътибор бериш талаб этилади. Ёшлик одобларидан бири келажакка умид билан қараш ва етук инсон бўлиш учун харакат қилишдир. Демак ёшларни етук инсон этиб шаклланишида ижтимоий фалсафий билимларнинг имкониятларидан фойдаланиш, фалсафий мушоҳада қилишга ўргатиш, тўғри фикрлаш маҳоратларини ўстиришга эришиш, билим, кўникма ва малакаларини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар

1. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Адолат миллий хуқуқий ахборот маркази. 2022. –Б. 4.

2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 354.

3. Муҳаммад Амин Яхё. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. –Тошкент: “Мовараунаҳр”, 2016. – Б. 206.

4. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –Б. 265.

O‘ZBEKISTON - INSON QADRI ULUG‘ DAVLAT

Habiyaliyeva Madina Xolmurod qizi
Namangan davlat pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1- bosqich talabasi.
Tel: +998 94 201-21-43
E-mail: madinahabiyaliyeva0@gmail. com

Insonparvarlik – umumhuquqiy tamoyil sifatida
Ezgulik — ilm emas, u faoliyatdir.
R. Rollan

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda taraqqiyot sari ildam odimlayotgan mustaqil O‘zbekistonda inson qadrining nechog‘lik ulug‘ hamda davlat siyosati darajasida ekanligidan dalolat beradi. Maqola davomida inson omilining qadr topish jarayoni, uning tomon bosilgan odim qadamlar haqida ma’lumotlar bayon etilgan. Inson omili va insonparvarlik g‘oyasining faoliyati va uning turli xillari yoritilgan.*

Kalit so’zlar*: Xalqaro gumanitar huquq (IHL), Jeneva konventsiyasi, tafakkur, mantiq, geosiyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, nutq, bilish jarayonlari, fikrlash faoliyati, fenomen.*

Аннотация: *Данная статья свидетельствует о том, насколько высока ценность человека в независимом Узбекистане, идущем сегодня по пути развития, причем на уровне государственной политики. В статье рассмотрено процесс поиска ценности человеческого фактора и шаги развития, предпринятые в этом направлении. Освещена деятельность человеческого фактора и идея человечества, и разные ее виды.*

Ключевые слова: *Международное гуманитарное право (МГП), Женевская конвенция, мышление, логика, геополитические, социальные, экономические, речь, познавательные процессы, мыслительная деятельность, феномен.*

Abstract: *This article demonstrates how high the value of a person is in independent Uzbekistan, which is today following the path of development, and at the level of state policy. The article discusses the process of searching for the value of the human factor and the development steps taken in this direction. The activity of the human factor and the idea of humanity, and its different types are covered.*

Key words: *International Humanitarian Law (IHL), Geneva Convention, thinking, logic, geopolitical, social, economic, speech, cognitive processes, mental activity, phenomenon.*

Bugungi kunda ona yurtimiz O‘zbekistonda rivojlanish sari ildam odimlar ekanmiz “Insonparvarlik” tushunchasiga aslo to‘xtalmay imkoni yo‘q. Bu tushuncha, umumiy huquqiy tamoyil sifatida shaxslar va guruhlarga, ularning millati, etnik mansubligi, dini va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, ularga bo‘lgan munosabatni muayyan fundamental qadriyatlar va me’yoriy huquqiy tartiblarlarga solinishi kerakligi haqidagi g‘oyani o‘z ichiga oladi. Bu har bir insonning ajralmas qadr-qimmati va qadr-qimmatini e‘tirof etish, shuningdek, uning asosiy huquqlarini himoya qilish va inson qadr-qimmatining qo'pol tarzda buzilishining oldini olish majburiyatiga asoslanadi. Insonparvarlik tamoyili nafaqat bugungi kunda balki tarixda ham, o‘z ifodasiga ega bo‘lgan. Xususan, tarixan insoniy qadriyat ko‘pincha diniy, axloqiy yoki falsafiy ta’limotlar bilan bog‘langan. Mesopotamiya, Misr va Yunoniston kabi qadimgi sivilizatsiyalarda inson qadr-qimmati ko'pincha jamiyatdagi o‘rni, nasl-nasabi yoki diniy tamoyillarga rioya qilish bilan bog‘liq holda belgilangan. Inson qadr-qimmati tushunchasi diniy va falsafiy an’analarda paydo bo‘lib, odamlar o‘zlarining aql-idroki, ongi yoki ilohiy ijodi tufayli o‘ziga xos qiymatga ega ekanligini ta’kidlaydilar.

Yevropada ma’rifatparvarlik davrida insoniy qadriyatga nisbatan dunyoviy va ratsionalistik qarashlarga o‘tish yuz berdi. Immanuil Kant kabi mutafakkirlar, avtonom axloqiy fikr yuritishga qodir bo'lgan aql-idrok agentlari sifatida shaxslarning o‘ziga xos qadr-qimmatini ta’kidladilar. Bu davr ijtimoiy mavqei va madaniy kelib chiqishidan qat’i nazar, barcha shaxslar o‘zlarining insoniyligi tufayli ma’lum ajralmas huquqlarga ega ekanligini ta’kidlagan inson huquqlari nutqining paydo bo’lishini namoyon etdi. Bugungi kunda nafaqat bizning

mamlakatimizda balki dunyoning turli me’yoriy-huquqiy hujjatlari va tuzilmalarida ham o‘z ifodasini topgan, jumladan:

Xalqaro gumanitar huquq (IHL): Insonparvarlik IHLning asosiy printsipi bo‘lib, urush qonunlari yoki qurolli to‘qnashuv qonuni sifatida ham tanilgan. U mojaro ishtirokchilaridan jangchilar va jangovar ishtirokchilarni farqlashi va tinch aholini nishonga olishdan yoki jangovar (jangdan tashqari) shaxslarga keraksiz azob-uqubatlar keltirmasliknihuquqiy jihatdan taqazo etadi. Jeneva konventsiyalari va ularning qo‘shimcha protokollari ushbu tamoyillarni kodlashtirgan va qurolli mojaro qurbonlarini himoya qilishni ta’minlaydigan asosiy shartnomalardir. [1]

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq: Insoniyat barcha insonlarga xos bo‘lgan huquq va erkinliklarning keng doirasini o‘z ichiga olgan IHRL uchun asosiy hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kabi shartnomalar insonparvarlik tamoyilini yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini, shuningdek, qiynoqlarga qarshi taqiqlarni tan oladi, qullik va diskriminatsiya.

Xalqaro jinoiy huquq (ICL): Insonparvarlik ICLning asosiy printsipi bo'lib, u xalqaro huquq doirasidagi eng og‘ir jinoyatlar, jumladan genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va tajovuz uchun shaxslarni javobgarlikka tortishga qaratilgan. [2] Bu jinoyatlar asosiy insoniy qadriyatlarga tajovuz deb hisoblanadi va umuminsoniy yurisdiksiyaga tegishlidir, ya’ni ular qayerda sodir bo‘lganligidan yoki jinoyatchining fuqaroligidan qat’i nazar, har qanday davlat tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Xalqaro odat huquqi: Insonparvarlik tamoyili xalqaro hamjamiyat tomonidan huquq sifatida qabul qilingan umumiy amaliyotlardan tashkil topgan xalqaro odat huquqida ham o‘z ifodasini topgan. Shafqatsiz, g‘ayri insoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalani, shuningdek, haddan tashqari kuch ishlatish yoki beg‘araz zo‘ravonlikni taqiqlovchi odat normalari insonparvarlik tamoyiliga asoslanadi va barcha davlatlar uchun majburiydir.

Hozirgi zamonda ilm-fan taraqqiyoti va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot inson qadriyati talqiniga yanada ta’sir ko‘rsatdi. Darvin evolyutsiyasi insonni tabiiy dunyoning bir qismi sifatida tushunish, inson tabiati va xatti-harakatlari haqidagi g'oyalarni shakllantirish uchun biologik asos yaratdi. Sanoatlashtirish, kapitalizm va globallashuvning yuksalishi inson hayotining tovarga aylanishi haqida munozaralarga olib keldi, ba’zi tanqidchilar bozor kuchlari va texnologik taraqqiyot an’anaviy qadr-qimmat va birdamlik tushunchalarini yo‘q qildi, deb ta’kidlaydilar. [3]

Insonparvarlik umumiy huquqiy tamoyil sifatida xalqaro huquqning axloqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi, tinchlik va nizolar davrida davlatning xulq-atvori va individual xatti-harakatlarini boshqaradi. U barcha insonlarning ajralmas qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilish va hurmat qilish, qiyinchiliklarga duch kelganda odoblilik va rahm-shafqatning asosiy me’yorlarini qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi. Insoniy qadriyat tushunchasi u idrok etiladigan va talqin qilinadigan tarixiy va zamonaviy kontekstlar bilan chuqur bog‘langan. Turli davrlar, madaniyatlar va falsafiy doiralarda inson qadriyatini tashkil etuvchi narsaga oid turli ilmiy va nazariy talqinlar mavjud.

Insoniy qadriyat ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u tarix, madaniyat va axloqqa oid rivojlanish tushunchalarini aks ettiradi. Ilmiy va nazariy talqinlar tarixiy va zamonaviy kontekstlarda shaxslar va jamoalarning qadr-qimmatini qanday idrok etishimiz va baholashimizni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “Yangi O‘zbekiston” kontekstida insoniy qadriyat tushunchasi 2016-yilda uzoq yillik rahbar Islom vafotidan so‘ng prezidentlik faoliyatini boshlagan Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy landshaft va madaniy

uyg‘onish jarayonini nazarda tutadi. Islom Abdug‘aniyevich Karimov. [4] “Yangi O‘zbekiston” mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquqlarini yaxshilash, iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirishga qaratilgan muhim islohotlar davrini bildiradi. Shu nuqtai nazardan, insoniy qadriyat atrofidagi munozaralar turli o‘lchamlarni o‘z ichiga oladi:

Siyosiy islohotlar: “Yangi O‘zbekiston” o‘tmishdagi avtoritar siyosatdan ko‘proq siyosiy ochiqlik va plyuralizm sari chekindi. Institutlarni demokratlashtirish, siyosiy ishtirokni kengaytirish, so‘z va yig‘ilishlar erkinligini rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlar amalga oshirildi. Bu islohotlar demokratik jamiyatda shaxs huquq va erkinliklarining ajralmas qadriyatini e’tirof etishni aks ettiradi.

Iqtisodiy rivojlanish: “Yangi O‘zbekiston” qarashlarining markazida iqtisodiy o‘sish va farovonlikka ko‘maklashishdir. Iqtisodiyotni liberallashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish borasidagi islohotlar aholi turmush darajasini yuksaltirish, keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Inson kapitalining qiymati ta'lim, sog'liqni saqlash va ko'nikmalarni o'rgatish sohalariga investitsiyalar orqali odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularning iqtisodiyotga qo'shgan hissasini oshirish orqali ta'kidlanadi.

Madaniy tiklanish: O‘zbekiston boy madaniy merosga ega, an’anaviy san’at, adabiyot va urf-odatlarni tiklash va asrab-avaylash bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlar uning xalqining o‘ziga xosligi va daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Madaniy tashabbuslar xilma-xillik, bunyodkorlik va merosni asrab-avaylash qadriyatini targ‘ib qiladi, aholi o‘rtasida g‘urur va birdamlik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Ijtimoiy farovonlik: “Yangi O‘zbekiston” qashshoqlikni kamaytirish, tibbiy xizmatlarni yaxshilash va ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan tashabbuslar bilan ijtimoiy farovonlik va inklyuzivlikka ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Asosiy ehtiyojlar va ijtimoiy himoya dasturlari bilan ta’minlash har bir fuqaroning farovonligi va qadr-qimmatiga qanchalik qadrli ekanligini ta’kidlaydi. [5]

Xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning “yangi O‘zbekiston” davrida xalqaro hamjamiyatga yo‘nalishi diplomatik aloqalarni mustahkamlash, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va ko‘p tomonlama tashabbuslarda ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston o‘zini mas’uliyatli global aktyor sifatida ko‘rsatib, tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo‘shishga intiladi, shu bilan birga o‘z manfaatlarini ilgari suradi va xalqaro mavqeini oshiradi. Kabi fikrlarini o‘zining yozgan asarlarida handa tegishli qonun va farmonlarida keng tarannum etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonparvarlik umumiy huquqiy tamoyil sifatida xalqaro huquqning axloqiy asosi bo'lib xizmat qiladi, tinchlik va nizolar davrida davlatning xulq-atvori va individual xatti-harakatlarini boshqaradi. U barcha insonlarning ajralmas qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilish va hurmat qilish, qiyinchiliklarga duch kelganda odoblilik va rahm-shafqatning asosiy me'yorlarini qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Insoniy qadriyat tushunchasi u idrok etiladigan va talqin qilinadigan tarixiy va zamonaviy kontekstlar bilan chuqur bog‘langan. Turli davrlar, madaniyatlar va falsafiy doiralarda inson qadriyatini tashkil etuvchi narsaga oid turli ilmiy va nazariy talqinlar mavjud.

“Yangi O‘zbekiston” sharoitida insoniy qadriyat fenomeni shaxs huquqlari, iqtisodiy farovonlik, madaniy meros, ijtimoiy farovonlik, xalqaro hamkorlikni ustuvor deb hisoblaydigan boshqaruvga yaxlit yondashuvni aks ettiradi. U har bir shaxsning o‘ziga xos qadriyati va salohiyati e’tirof etiladigan va rivojlantiriladigan zamonaviy, inklyuziv jamiyat haqidagi tasavvurni o‘zida mujassam etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. Avliyoqulov N. X. , Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
2. Avliyoqulov N. X. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
3. Azizxo’jaev N. N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil
4. Mirziyoev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent. : O‘zbekiston. 2021. –B. 150. 2. Abduvoxidova M. A. Uchinchi renessans yoshlarining kuchli salohiyati va keng imkoniyatlari. «Институт управления и социально-экономического развития» 2021
5. Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch» asari hamda internet manbaalari.

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Inatullayev Baxromjon Boqijonovich

Namangan davlat universiteti Musiqa ta’limi va madaniyatshunoslik kafedrasi professori vazifasini bajaruvchi

E-mail: atribut_85@mail. ru,

Tel: +998934050085

Annotatsiya. *Maqolada yangi O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish, kamsonli millat vakillarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar atroflicha tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *taraqiyot strategiyasi, millatlararo munosabatlar, bag‘rikenglik, milliy madaniyat markazi, emigrasiya, migrasiya, etnomadaniyat, madaniy meros, milliy qadriyat*

Абстрактный. *В статье подробно анализируются реформы, проводимые в новом Узбекистане по развитию межэтнических отношений, социально-политической и экономической поддержке представителей малообеспеченных национальностей.*

Ключевые слова: *стратегия развития, межнациональные отношения, толерантность, национально-культурный центр, эмиграция, миграция, этнокультура, культурное наследие, национальная ценность.*

Abstract. *In the article, the reforms carried out in the new Uzbekistan regarding the development of inter-ethnic relations and the socio-political and economic support of the representatives of disadvantaged nationalities are analyzed in detail.*

Key words: *development strategy, interethnic relations, tolerance, national cultural center, emigration, migration, ethnoculture, cultural heritage, national value*

XX asrning so‘ngi choragida Sobiq ittifoqni qulashi munosabati bilan dunyo xaritasida 15 ta mustaqil davlat paydo bo‘ldi. Siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan mustaqil davlatlarning barpo bo‘lishi hamda rivojlanishida bir qator qiyinchiliklar ro‘y berdi.

XXI asrda jahonda turli sohalarda ro‘y bergan globallashuv, ya’ni siyosiy buhronlar va tabiiy ofatlar tufayli yuzaga kelgan, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy qiyinchiliklar sabab, emigrasiya va migrasiya jarayoni avj oldi. Mazkur hodislar natijasida dunyo xalqlarining etnik xususiyatlarni saqlab qolish va milliy-etnik an’analarini tadqiq etish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. YUNESKOning bosh konferensiyasi 28-sessiyasida qabul qilingan

“Bag‘rikeng(tolerant)lik tamoyillari deklarasiyasi”da millatlararo milliy munosabatlarda barqarorlik masalalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Er sharining turli mintaqalarida yashayotgan kamsonli millatlar va diasporalarga xos lokal madaniyatlarni ilmiy jihatdan o‘rganishni dolzarb vazifa sifatida qo‘ymoqda. “Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining kamsonli millatlar bo‘yicha Oliy Komissarligi, Evropa tahlil markazi va yana ko‘plab xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida millatlararo munosabatlar, milliy va diniy qadriyatlar, bag‘rikeng (tolerant)lik masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. [4.]

2018-yil aprel oyida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining kamsonli millatlar va diasporalarga xos lokal madaniyatlar masalalari bo‘yicha Oliy komissari Lamberto Zaner yurtimizga tashrif buyurdi. Oliy komissarni Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatiga safari uyushtirilib, joylarda uchrashuvlar tashkil etildi. Yurtimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik kam sonli millatlar va diasporalarga xos lokal madaniyatlar dunyo miqyosida tan olindi. 14-15 iyul 2018 yilda Italiyaning Udin shahrida YeXHTning Bolsan tavsiyalarining 10 yilligiga bag‘ishlab, xalqaro konferensiya tashkil etildi. Lamberto Zaner konferensiyada so‘zlagan nutqida O‘zbekiston tajribasiga yuqori baho berib, EXHT uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5046-sonli farmonini qabul qilinishi millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Millatlararo munosabatlarda O‘zbekistonda nafaqat titul etnos, balki Respublikada yashovchi kamsonli elat, millat va diasporalarning lokal etnomadaniyatlarga xos xususiyatlar: etnomadaniyat, madaniy meros, milliy qadriyat va an’analariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublika baynalmilal madaniyat markazining 25 yillik yubiley tantanalarida Prezident SH. M. Mirziyoyev “Fanlar akademiyasi institutlari bilan hamkorlikda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni tashkil etish yana bir dolzarb vazifasi ekanligi alohida” [2.] ko‘rsatib o‘tildi. Jahondagi har bir elat, millat va xalq tarixiy o‘tmishi, etnogenezi hamda etnomadaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Odatda, biror bir millat, xalqning etnogenezi, etnik qatlamlari tarkibini aniqlamay turib, u xalq haqida, u tarkib topgan hudud hamda davlatchiligi to‘g‘risida ilmiy tasavvur yaratish mumkin emas.

Jumladan, ko‘p millatlik yurtmizda bag‘rikeng(tolerant)likni yanada rivojlantirish uchun Respublika baynalmilal madaniyat markazi tarkibida Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil qilindi. [5.]

Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan respublika xalqlari tarixiy o‘tmishi, etnogenezi va etnomadaniyatini o‘rganish tarixiy haqiqatga asoslanib emas, balki, mustamlakachilik siyosati ta’siri ostida talqin qilingan edi. Ko‘p millatlik O‘zbekistonda asrlarosha istiqomat qilib kelgan nafaqat qirg‘iz, qozoq, tojik, turkman va qoraqalpoq xalqlari balki, tub aholi bo‘lgan o‘zbek xalqining etnogenezi, etnomadaniyati va tarixi ham sobiq ittifoq mafkurasiga ko‘ra talqin etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida millatlararo munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan qator normalarni keltirish mumkin. Konstitutsiyaning birgina 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit

yaratadi. ”[1.]-deya belgilab qo‘yilishi O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan barcha millat vakillarini milliy madaniyatlarini rivojlantirishi uchun zarur shart-sharoit yaratib beradi.

O‘zbekiston, xususan, Farg‘ona vodiysi nafaqat o‘zining tabiiy-geografik xususiyatlari balki, boshqa hududlardan etnomadaniy xodisalari bilan ajralib turadi. Ayni shu xususiyati bilan ham Farg‘ona vodiysi turli millat va madaniyatlarning tutashgan chorrahasi deyish mumkin.

Qadim, azaldan yurtimizda turli qabila va din vakillari bag‘rikeng (tolerant)lik tamoyiliga asoslanib, turmush kechirgan. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham ushbu masalaga e’tibor qaratildi. Jumladan, mazkur taraqqiyot strategiyasining 74-maqsadi jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash deb belgilangan. Bunda milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta’minlash, turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish, xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do‘stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish ustuvor masala sifatida belgilangan. [3.]

Aholi, ayniqsa, yoshlar ongida ko‘p millatlik aholi vakillari bilan insonparvarlik, qadriyat va o‘zaro hamjihatlik, yaqin qo‘shnilar o‘rtasida do‘stona aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ezgu ishlar amalga oshirilmoqda.

Ko‘p asrlar mobaynida mintaqada yashovchi etnoslararo munosabatlarni vujudga kelishi natijasida vodiyni o‘zbek, tojik, uyg‘ur va qoraqalpoq xalqlari qatorida qirg‘izlar ham makon tutgan. Farg‘ona vodiysida yashovchi qirg‘izlar ko‘p asrlar davomida mahalliy o‘zbeklar bilan yaqin qon-qarindoshlik rishtalari bilan mustahkam bog‘langan. Farg‘ona vodiysi aholisiga xos lokal madaniyatni shakllanishida ishtirok etganlar. Shu sababdan Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarining mintaqada kechgan etnomadaniy jarayonlardagi ishtirokida muhim xususiyat: etnomadaniy identiklik, an’anaviylik va etnomadaniyatga hos transformasiya jarayonini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Etnomadaniy (identiklik) o‘ziga xosligini o‘rganishning murakkabligi shundaki, ushbu hodisa murakkab tahlillarni talab etuvchi juda ko‘plab madaniy-sotsial hodisalar bilan bog‘liqlgidir. Shu boisdan ushbu etnomadaniy o‘ziga xoslik, integrasiya va transformasiya jarayonlarini mavjud nazariy tushunchalarini yanada chuqurroq tahlil qilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2023. -B. 4.

2. Mirziyoyev Sh. M. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir // Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 25 yanvar (№ 18).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28. 01. 2022-yildagi PF-60-son farmoni//https://lex. uz/ docs/5841063

4. Valixonova G. K. Farg‘ona vodiysi uyg‘urlarida an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. 07. 00. 07 - etnografiya, Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori DhP. Dissertatsiya. Toshkent:-2018, -B. -3

5. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiyasi. –Toshkent: 2019 yil 15 noyabr.

INSON QADRI AYOL TIMSOLIDA

Ro‘zimatova Xusnida Abdusattor qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: *xusnidarozimatova@gmail. com*
Tel:+998 93 051 46 09
Ilmiy rahbar: A. N. Asraqulova (PhD)

Annotatsiya*: Ushbu maqolada inson qadri va shu ma’noda jamiyatimizda ayollarga bo’layotgan zo’ravonlik hatti-harakatlari hamda ularning huquqlarining poymol bo’lmasligi uchun respublikamizda qabul qilingan qonun va qarorlar haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar*: inson, zo’ravonlik, ayol, ruhiy zo’ravonlik, jismoniy zo’ravonlik, psixologik zo’ravonlik, iqtisodiy, huquqbuzarlik, misoginiya, gender tengligi.*

Аннотация: *В этой статье рассказывается о человеческом достоинстве и в этом смысле о насильственных действиях, совершаемых в отношении женщин в нашем обществе, а также о законах и решениях, принятых в нашей республике, чтобы их права не были нарушены.*

Ключевые слова*: человек, насилие, женщина, психологическое насилие, физическое насилие, психологическое насилие, экономическое насилие, правонарушение, женоненавистничество, гендерное равенство.*

Annotation: *this article discusses human value and, in this sense, the acts of violence that are happening to women in our society and the laws and decisions adopted in our republic so that their rights are not violated.*

Keywords: *human, violent, female, mental abuse, physical abuse, psychological abuse, economic, delinquency, misogyny, gender equality.*

Inson qadri-odam zotining Allohning eng buyuk mo’jiza sifatida ulug’lanishi, har tomonlama qadr-qimmat topishini anglatadigan tushunchadir. Har qaysi shaxsning qadri u yashyotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy-tarixiy shart –sharoitlar ko’zgusida namoyon bo’ladi. Inson uchun qadriyatlar mezonini anglashda dastlab oila, ota-ona , qarindosh –urug’ do’stlar, yoru-birodarlar muhim o’rin tutadi. Aynan mana shu omillar negizida inson kamol topadi. Insonning butun umri o’zida shaxsiy qadriyatlatlarni takomillashtirish, o’z qadrini kamol toptirishi hamda jamiyat va zamonda yuz berayotgan o’zgarishlar qadrini anglashga intilishdan iboratdir. Lekin shunday insonlar borki, ular o’z huzur -halovatlaridan kechib tunlarni bedor o’tkazib , farzandlarini kamol topishiga ulkan hissa qo‘shadilar. Bunday insonlar Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk shaxslarni dunyoga keltirgan ayollardir. Ming afsuski, jamiyatimizdagi ayrim insonlarning ayollarga bo’lgan munosabatini havas qiladigan daraja emas. Aynan ana shunday munosabatlar hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo’lib kelmoqda. Bunday munosabat esa bu ayolarga bo’lgan zo’ravonlikdir . Aslida ayollarga nisbatan zo’ravonlik holatlari juda uzoq tarixga ega. Bunday zo’ravonlik hodisalari va ularning intensivligi vaqt o’tishi bilan o’zgarib borgan hamda bugungi kunda ham jamiyatlar orasida farqlanadi. Ushbu holatlarga, ko’pincha, jamiyatda yoki shaxslararo munosabatlarda ayollarni bo’ysundirish mexanizmi sifatida qaraladi. Bu kabi jinoyatlar huquqbuzarlik, ustunlik, misoginiya yoki shunga o’xshash munosabatlarda jinoyatching ayollarga nisbatan zo’ravonlik tabiatini yuzaga keltiradi.

Ming afsuski bu mavzu juda og’riqli mavzudir, chunki sir emaski jamiyatimizda bunday holatlar ko’p kuzatilmoqda. Ayollar ruxiy, jismoniy , jinsiy, iqtisodiy , zo’ravonliklarga duch kelmoqdalar. Bu esa juda achinarli. Bizning jamiyatimiz hamda millatimiz uchun achinarli holdir. Ana shunday holatlarni oldini olish maqsadida respublikamizda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida 2019-yilning 2-sentabr sanasida O‘RQ-561-sonli , , Xotin –qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish“ to‘ g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni rasman e’lon qilindi. [1]

Ushbu qonunning maqsadi xotin- qizlarni tazyiq va zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Qonun 35 moddadan iborat. Qonunning 3-moddasida zo’ravonlikning turlari va qonunda qo;llaniladigan tushunchalarga izoh berilgan. 5-moddasida esa xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari belgilangan.

O’zbekistonda 2021-yilning birinchi yarmi davomida qariyb 18 ming nafar ayol tazyiqqa uchragan. Ulardan 9 ming nafari ruhiy zo’ravonlik qurboni bo’lgan. Ushbu ko’rsatgich 2020-yilga nisbatan 2, 5 barobar yoki 5 ming nafarga ko’p miqdorni keltirib chiqaradi. Ushbu masala yuzasidan O’zbekiston Respublikasi xotin-qizlar jamoatchilik kengashi hamda Gender tengligi masalalari bo’yicha komissiyaning kengaytirilgan yig’ilishida Senat raisi Tanzila Norboyeva alohida ta’kidlab o’tgan. Ularning ushbu chiqishlari davomidagi shunday bir fikr aytadilar “Bunday holatlarga ba’zi oilalar “bu tazyiq emas” yoki bu zo’ravonlik emas”deydi. Ular shunchaki urushib qoldi, deya o’zini oqlaydi. Hatto , ichki ishlar xodimlari “bo’ladi-da oilada , ketavering, yarashib olasizlar”, deb qaytarib yuborish holatalri ham kuzatilyapti”degan fikrlarini aytib o’tganlar . Aslida ushbu gaplar to’g’ri, chunki bu so’zlar bizga begona emas . Hattoki bunday gaplarga har kuni ham duch kelamiz. Ushbu qonun orqali mamlakatimiz ayollarini haq-huquqlarini himoyalashga ko‘maklashib kelmoqda.

Ayollarni himoya qilish ishlari shu bilan to’xtagani yoq. Aksincha , ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlariga yechim topish maqsadida bosh vazir Abdulla Aripov tomonidan 2020-yilning 4-yanvar sanasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining , , Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori imzoladi. [2] Ushbu qarorda tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni himoyalash borasida mahaliy ichki ishlar organlari tomonidan ayol-qizlarga , , Himoya orderi” berish belgilandi.

Himoya orderi mazmunida quyidagilar ko’rasatiladi: u rasmiylashtirilgan joy va sana ; uni rasmiylashtirish uchun asos bo’lib hizmat qilgan holatlar; tazyiq va zo’ravonlikdan jaburlanuvchining handa tazyiq o’tkazgan yoki zo’ravonlik sodir etgan shaxsning familyasi, ismi va oatsining ismi, tug’ilgan sanasi va joyi, kasbi va yashash joyi; himoya orderida tazyiq va zo’ravonlikdan jabrlanuvchining sudga murojaat qilish huquqi to’g’risidagi tazyiq o’tkazgan va zo’ravonlik sodir etgan shaxsning himoya orderi talablarini bajarmaganlik uchun ma’muriy javobgarligi haqidagi ma’lumot ko’rsatiladi. Alohida ta’kidlash joizki, himoya orderi oilada eridan jabrlangan yo uchinchi shaxslarning zulmiga uchragan ayollarga, ota-onasi yoki boshqa shaxslarning zulmiga duch kelgan (voyaga yetmagan) qizlarga, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarda jabr ko‘rgan, ko‘chada, ishda, o‘qishda tazyiq yoki shilqimlikka uchragan, huquqbuzarlik yo jinoyat qurboni bo‘lgan xotin-qizlarga beriladi. Tazyiq va zo‘ravonlik fakti yoki ularni sodir etish xavfi aniqlansa, 24 soat ichida rasmiylashtiriladi va o‘sha vaqtdan e’tiboran kuchga kiradi. Himoya orderi 30 kunga beriladi. Agar shu vaqt ichida holat o‘zgarmasa, hujjatning

amal qilish muddati jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra, ko‘pi bilan 30 kungacha cho‘ziladi. Ayollarga bo’lgan e’tibor yildan –yilga oshib bormoqda. Xususan bu boradagi o’zgarishlarning bosh islohotchisi bu -- davlat raxbaridir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022- yilning 1-mart kuni xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda davlatimiz rahbari ayollarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. 2022-yil 1-sentabrdan xususiy sektorda rasmiy ishlayotgan ayollarga homiladorlik nafaqasini davlat tomonidan to‘lash tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ko‘rsatma berildi. Bu maqsadlar uchun joriy yilda byudjetdan 200 milliard so‘m, 2023-yilda esa 1 trillion 700 milliard so‘m yo‘naltirilishi qayd etildi. 2022-2024-yillar uchun “Biznes ayollar” dasturi qabul qilinishi belgilandi. Uning ijrosiga jami 8 trillion so‘m yo‘naltirildi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etildi, imtiyozli kreditlar berildi. Hozrgi kunga ayollar ham kichik bizneslar bilan shug’illanmoqdalar.

2024-yil 7-mart kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin qizlar kuniga bagishlangan tantanali marosimidagi nutqida mamlahatimiz xoyin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish ularga munosib shart- sharoitlar yaratish va qo’llab quvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli ishlarga e’tibor qaratdilar , , So’ngi 5 yil ichida O’zbekistonda ishbilarmon ayollar safi 2 barobar kengayib, o’z biznesini yo’lga qo’ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi . Birgina 2023 yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalariga 13 trilion so’mdan ortiq kredit, qariyb 57mimg nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so, m subsidiya ajratildi. Shuningdek , 200 mingga yaqin ayollar kasb- hunar va tadbirkorlikka o’qitildi. Eng asosiysi – 400 mingdan ortiq opa-singillarimiz ish bilan ta’minlandi” [3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2019-yilning 2-sentabr sanasida O‘RQ-561-sonli , , Xotin –qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish“ to‘ g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni rasman e’lon qilindi.

2. , Xotin –qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Lex. uz. Qaraldi: 26-may 2024-yil.

3. “Sanoat tarmoqlari klasterlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo’llari” A. N. Asraqulova Академия Google Qaraldi: 29-may 2024-yil.

YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY HIMOYASI MASALASI

Axmadjanova Muazam

Namangan davlat pedagogika instituti gumanitar fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish masalasida Yangi O'zbekiston Respublikasida so'nggi davrlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning jamiyat va davlat rivojlanishidagi ishtiroki 3-renesans poydevorini shakllantirishga qo’shayotgan xissasi haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *xotin-qizlar, renesans, hukumat, huquq, ijtimoiy hayot, qo'mita, imtiyoz, gender, tazyiq, zo'ravonlik, ijtimoiy himoya, teng huquq va erkinlik, vazirlik, ayollar daftari ;*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены реформы, реализуемые в Республике Новый Узбекистан за последние годы в вопросе повышения активности женщин во всех аспектах экономической, политической и социальной жизни страны, их участия в*

развитии общества и государства. , и выделен вклад в формирование основ 3-го Возрождения.

Ключевые слова: *женщины, ренессанс, правительство, закон, общественная жизнь, комитет, привилегии, пол, угнетение, насилие, социальная защита, равные права и свободы, министерство, женская тетрадь;*

Abstract: *In this article, the reforms implemented in the Republic of New Uzbekistan in recent years in the issue of increasing the activity of women in all aspects of the country's economic, political and social life, their participation in the development of society and the state, and the contribution to the formation of the foundations of the 3rd renaissance are highlighted.*

Key words: *women, renaissance, government, law, social life, committee, privilege, gender, oppression, violence, social protection, equal rights and freedom, ministry, women's notebook;*

Mamlakatimizda azal-azaldan xotin-qizlar masalasiga ijoboy yondashib kelingan. Oila tinchligida, jamiyat taraqqiyotida ularning mehnatlari e’tirof etilgan. Zotan sharq hukmdorlari ham o’z shahzodalarini ta’lim va tarbiyasini buvilarga ishonib topshirganlar.

Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida “Yer yuzida ongli hayot paydo bo'libdiki, odamzod muqaddas Ona siymosini, ayol zotini ulug'lab, sharaflab keladi. Onalarimiz sharofati bilan Vatanimiz tuprog'i jannat bog'laridek go'zal va mo'tabardir. Onalar duosidan yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, ishimizda unum, hayotimizda baraka bor. Ma'lumki, muqaddas Qur'oni karimning eng katta suralaridan biri - "Niso", ya'ni "Ayollar" deb ataladi. Alloh taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etadi va bu ilohiy so'zlar zamirida, albatta, teran hikmat mujassam. ” – deya ayollarni qadri va martabasini e’tirof etgan. [4]

Yangi O’zbekiston siyosatining zamirida ham xotin-qizlarni qo’llab quvvatlash va ularni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish yotadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlardan biri xotin - qizlarga yaratilayotgan keng imkoniyat va e'tibordir. Bu islohotlarnning huquqiy asoslari asosiy qomusimizning 19-moddasida “O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar”-deb belgilangan. Qolaversa 58–moddada, “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi. ”, deb belgilangan [1].

Xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyat va ga’mxo’rlik tufayli, «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi» sari tamoyili asosida ulug' maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida jonko’yar , fidoyi, shijoatli opa-singillarimiz faol ishtirok etib, Yurtimiz ravnaqi va taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shib kelishmoqda. Statistika agentligi bergan ma’lumotiga ko‘ra 2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda doimiy aholi soni **36 799 800** kishini tashkil etib , shundan erkaklar soni 18 525 000 kishini, ayollar soni 18 274 800 kishini tashkil etadi. [8] Ularning manfaatlarini ta'minlash, jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishidir. Uchinchi renesans davrida ayniqsa ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamga aloxida imtiyozlar berildi. Jumladan, xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha vaqtinchalik tartib belgilandi. Oxirgi yillardagi isloxotlar davrida xotin-qizlar

huquqlarini kafolatlar, ularga imtiyozlar berish borasida ko‘plab qonun, Prezidentning bir qator farmon va qarori qabul qilindi.

Xususan, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi va “Erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining asosiy mazmun va mohiyati ham xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni tazyiq hamda zo'ravonlikning har qanday shakllaridan himoya qilish, xotin-qizlarga nisbatan bo'ladigan turli xil kamsitishlarni oldini olish, gender tengligi tizimini va huquqiy asoslarini yaratishdan iboratdir. Ushbu uyg'onish davrida Senatda Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Berilayotgan imkoniyalar asosida bugungi kunga qadar Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga mamlakatda ayol rahbarlar boshqaruvidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 39 078 tani tashkil etgan. Ayol rahbarlar boshqaruvidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 2 606 taga oshgan. Ayollarning tadbirkorligi, tashabbuslari qo'llabquvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajrtilib, mamlakatda mingga yaqin xotin-qizlarning bandligi ta'minlanmoqda. Mingdan ziyod ayollar kasb xunarga o'qitilishi yo’lga qo’yilib ayollarning jamiyatda o‘z o’rnini topishiga ko’maklashilmoqda .

2022-yil 1-martda Shavkat Mirziyoyev raisligida xotinqizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish hamda mustahkamlashga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazilganligi ayollarni qo'llab quvvatlash borasidagi siyosatning yangi bosqichga olib chiqdi. «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida bejizga belgilamadik. Ushbu muhim vazifalar ijrosini tizimli tarzda har bir mahalla kesimida amalga oshirishni ta'minlash maqsadida bugun Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasini tashkil etish bo'yicha farmonni imzoladim», — dedi Shavkat Mirziyoev[4]

Ayollarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab xususiy sektorda rasmiy ishlayotgan ayollarga homiladorlik nafaqasini davlat tomonidan to'lash tizimini yo'lga qo'yilishi ma'lum qilindi. Buning uchun esa, 2022- yilda byudjetdan 200 milliard so'm, 2023 yilda esa 1 trillion 700 milliard so'm mablag' ajratildi. [3]

Mamlakatdagi ilm olib, jamiyatda munosib o’rinlarga ega bo’lishni maqsad qilgan xotin-qizlarni ijtimoiy hamda ta’lim olishlarini qo’llab quvvatlash maqsadidagi islohotlardan biri 2023-o'quv yilidan boshlab, magistraturada o'qiyotgan xoti-qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab berilishi hamda ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tizimining joriy etilishi bo'ldi. Ushbu tashabbus minglab xotin-qizlarning ko'ngliga quvonch va yorug'lik olib kirdi. Shu kabi islohotlar sabab o'qib ta'lim olish hamda o'zi qiziqqan sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishni istagan har bir xotin-qiz ta'lim olib o'z kelajagini qurish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Birgina 2021-yilning o’zida bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Savdosanoat palatasi tomonidan tadbirkor bo'lish istagini bildirgan “ayollar daftari”dagi 7 mingga yaqin xotin-qizlarni biznes va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitishlariga imkoniyatlar yaratildi. [6]

Davlatimizning 2021-yil 8-yanvardagi “Xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Hukumat qarori qabul qilindi. Qaror bilan Xotin-

qizlar muammolarini “Ayollar daftari”ni yuritish orqali tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha vatinchalik tartib tasdiqlandi.

Hukumat qaroriga ko’ra “Ayollar daftari” ga 30 yoshdan oshgan quyidagi toifadagi xotin-qizlar kiritildi:

1. **ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar** — bandligi Ta’minlanmagan, ishlash istagida bo‘lgan va daromad manbaiga ega bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar;
2. **tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlar** — bandligi ta’minlanmagan, tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlar;
3. **boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar** — boquvchisi vafot etgan, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan, ruhiy kasallikka chalingan, I-II guruh nogironligi bo‘lgan hamda doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan, bedarak yo‘qolgan (sud qaroriga asosan) ehtiyojmand xotin-qizlar, shuningdek, nikohi bekor qilingan ehtiyojmand xotin-qizlar va ehtiyojmand yolg‘iz onalar (FHDYo organlarining ma’lumotnomasi asosida);
4. **ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar** — mehnatga layoqatsiz, o‘zgalar parvarishiga, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar;
5. **uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar** — noturar joylarda istiqomat qilayotgan, doimiy yashash uchun turar joyi bo‘lmagan, bir xonadonda (kichik hovlida) uch va undan ortiq oila yashayotgan (uy-joy maydoni belgilangan ijtimoiy normadan kam bo‘lgan), biroq o‘zining yoki birgalikda yashovchi oila a’zolarining nomida turar joy mavjud bo‘lmagan, xususiy uy-joy fondida ijara huquqi asosida istiqomat qilayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar;
6. **qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar** — nogironligi bo‘lgan voyaga etmagan (I guruh nogironligi bo‘lgan farzandi yoshidan qat’iy nazar) farzandini bevosita parvarishlayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar.

Bu islohot ijtimoiy himoyaga muxtoj ayollar qatlamiga ko'rsatilayotgan imtiyozlarning yorqin namunasi hisoblanadi. [2]

Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ayollarimizning bilim va dunyoqarashi keng shaxs sifatida tarbiyalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayollarimizning o'rni beqiyos bo'lgan jabxalar juda ko'p. Jumladan, ertangi kunimizning egalari bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, mamlakat axolisini buyuk millat etib shakllantirish, davlat va jamiyat qurilishi va boshqa sohalarda faol ishtirok etishda ularning qo’shgan xissalari beqiyosdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. , T:O'zbekiston. 2023 yil.
2. O'zbekisto Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori. 31. 03. 2022 yil. 145-сон
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01. 03. 2022 yildagi PQ-146-son
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 26 fevral` kuni xotin-qizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi materiallari.
5. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. Yangi O‘zbekisto taraqqiyot strategiyasi. T: O'zbekiston. 2023 yil. 233-sahifa.
6. https://advice. uz/oz/document/2289?keyword=Mehnat%20ta%CA%BCtili
7. https://advice. uz/oz/document/2289?keyword=Mehnat%20ta%CA%BCtili
8. https://www. gazeta. uz/oz/2024/01/27/demographics/

2017-YILDAN MAMLAKATIMIZDA STRATEGIK DASTURLARNING QABUL QILINISHI VA UNING O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.

Ataxanov Baxtiyor
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
Karimova Odinaxon
Namangan davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi aholi hayoti farovonligini oshirish uchun qabul qilingan strategik dasturlar va ularning ahamiyati haqida, amaldagi ijrosi, aholiga foydalari haqida aytib o'tiladi.*

Kalit so'zlar*: strategiya, rivojlanish, davlat, qishloq xo'jaligi, normativ, huquqiy hujjatlar, demokratiya.*

Abstract: *This article describes the strategic programs adopted to improve the well-being of the population in our country, their importance, their actual implementation, and their benefits to the population.*

Key words*: strategy, development, state, agriculture, normative, legal documents, democracy.*

Аннотация*: В данной статье описаны стратегические программы, принятые для повышения благосостояния населения в нашей стране, их значение, их фактическая реализация и их польза для населения.*

Ключевые слова: *стратегия, развитие, государство, сельское хозяйство, нормативно-правовые документы, демократия.*

Kirish: Mamlakatimizda 2017-2021-yil tuzilgan strategik dastur O‘zbekistonning milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi:

O‘zbekiston Prezidenti 7-fevral kungi farmoni bilan 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi.

Farmon bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Milliy komissiya, shuningdek ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish bo‘yicha komissiyalar tashkil etildi. Milliy komissiyaga Prezidentning o‘zi boshchilik qiladi.

Farmonda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda byurokratik to‘siq va g‘ovlar yaratilishiga, aholi bilan muloqot jarayonini kampaniyabozlikka aylanishiga yo‘l qo‘ymasligi qayd etildi. Bundan tashqari, davlat dasturi doirasida o‘tkazilayotgan tadbirlarning ochiqligi, ularda fuqarolar, barcha darajadagi davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nuroniylar, xotin-qizlar, yoshlar, ijodiy va ilmiy muassasalar vakillarining keng ishtirok etishini ta’minlash belgilandi.

Adabiyotlar tahlili: Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, 2017 yil - Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb e’lon qilindi.

Hozirgi kunda Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan 15 ta qonun va 700 dan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishining O‘zbekistonning taraqqiyotidagi o‘rni haqida quyida — yanada batafsil aytib o‘taman.

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish.

Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasida zamonaviy talablar hamda ustuvor yo‘nalishlarni inobatga olgan holda 16 ta vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tuzilmasi, vazifa va funksiyalari qayta ko‘rib chiqildi, 20 ta davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi. Mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirildi. . Xalq bilan samarali muloqot mexanizmlarini joriy etildi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirildi, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirildi, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirildi, mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyati samaradorligini oshirildi, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirildi va jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilindi.

II. Qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish. Qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqildi. Sud hokimiyatining yagona oliy organi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma’muriy nizolarni, shuningdek, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan ma’muriy sudlar tashkil etildi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilandi.

Ichki ishlar organlari tizimi isloh qilinib, ularning asosiy faoliyati fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga –"Xalq manfaatlariga xizmat qilish"ga yo‘naltirildi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirildi,

advokatura institutini rivojlantirildi, jinoyat, fuqarolik, ma’muriy va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqishda advokatlaring o‘rni va nufuzi oshirildi,

notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilindi.

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida soliq tizimi isloh qilindi, halol soliq to‘lovchilar – xo‘jalik yurituvchi subyektlarga soliq ta’tillari berilishi nazarda tutildi. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish,

milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etildi. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirildi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirildi, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlandi, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirildi, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirildi.

Paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekildi, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirildi. Fermer xo‘jaliklar, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirildi va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlandi, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyalar asosida asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurildi, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini tarmoqlarini yanada kengaytirildi. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilanib, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirildi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etildi va unumdorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanildi. Yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirildi. Global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi halokatining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rildi.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida 13 339 ta loyiha amalga oshirildi, 2, 1 trln. so‘m kredit o‘zlashtirildi, 10 ta erkin iqtisodiy zona, 5 ta kichik sanoat zonasi tashkil etildi, “Peugeot” va “Citroyon” brendi bilan yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqarish bo‘yicha zavod barpo etildi.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirildi, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirildi. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirib, kam ta’minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirildi. Budjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur’atlaridan

yuqori miqdorda bosqichma-bosqich oshirildi. Yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta’minlab, ishsizlik darajasini kamaytirildi. Mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirishi uchun sharoitlar yaratib, ishchi kuchi sifatini yuksaltirib, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlab, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirildi. Aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratib hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilandi.

Aholiga transport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilab, yo‘lovchi tashish xavfsizligini oshirildi va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirildi, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olinib, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilindi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirib, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilab, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirib va uning qulayligini ta’minlandi, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirildi.

Umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirib, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganildi.

Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda amalga oshirib, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etildi.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilib, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratildi.

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat.

Axborot xavfsizligini ta’minlandi va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirib, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o‘z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etildi.

Millatlararo totuvlikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi. O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlaydi. Evropa Ittifoqi va 21 ta xorijiy mamlakat bilan savdo-iqtisodiy, investitsiya, texnologiya va moliyaviy-texnik sohalarda 22 ta “yo‘l xarita”lari tasdiqlandi.

Xulosa: “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning borishi haqida aholi, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro jamoatchilikni keng xabardor qilish ishlari amalga oshirildi. Joylarda 6 mingga yaqin uchrashuvlar, ommaviy axborot vositalarida teleko‘rsatuv va chiqishlar tashkil etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekistonning eng yangi tarixi o'quv qo'llanmasi Guluston-2020
106-112-bet
2. R. E. Xoliqova “O'zbekistonning eng yangi tarixi”. Toshkent-2021

65-71-bet

3. Nazrulla Jo'rayev, Akbar Zamonov , , O'zbekiston tarixi" 11-sinf darslik G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2018

30-35-bet

4. https://daryo. uz/2017/02/07/ozbekiston-prezidenti-2017-2021-yillarga-moljallangan-harakat-strategiyasi-haqidagi-farmonni-imzoladi

ХОТИН-ҚИЗЛАРНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ТИЗИМИ ЯНГИ БОСҚИЧДА

Рахимбоева Д. А

Наманган давлат университети доценти ф. ф. н

E-mail: raximboyeva@gmail. com

Tel: +998 93 949 00 55

Аннотация: *Ушбу мақолада ҳар бир мураббий, комиллик тарғиботчиси таълим-тарбия жараёнини тўғри ташкил қилишга, соғлом ижтимоий муҳитни яратиб беришга, масъулиятли вазифаларни виждонан бажариши лозимлиги ҳақида маълумот берилади.*

Калит сўзлар: *Серфарзандлик, болажонлик, оилапарварлик, меҳнатсеварлик, саҳийлик, меҳмондўстлик, олий қадрият, тадбирли, зийрак ота-она, ибратли ҳулқ, чиройли муомала, меҳрибонлик, камтарлик, яхши насихат, тўғри йўл кўрсатиш.*

Аннотация: *В данной статье сообщается о том, что каждый тренер, пропагандист передового опыта должен правильно организовать учебный процесс, создать здоровую социальную среду, добросовестно выполнять ответственные задания.*

Ключевые слова: *родительство, детство, семейная жизнь, трудолюбие, великодушие, гостеприимство, высокая ценность, разумное воспитание, примерное поведение, хорошие манеры, доброта, смирение, хороший совет, руководство.*

Abstract: *This article informs about the fact that every trainer, propagator of excellence should properly organize the educational process, create a healthy social environment, and conscientiously perform responsible task.*

Key words: *Parenthood, childhood, family, hard work, generosity, hospitality, high value, disciplined, intelligent parenting, exemplary behavior, good manners, kindness, humility, good advice, guidance.*

Кейинги йилларда давлатимизда хотин-қизларнинг ҳуқуқ-манфаатларини қонуний ҳимоя қилиш, гендер тенгликни таъминлаш, улар учун янги иш ўринлари яратиш, касб-ҳунарга ўргатиш, хотин-қизлар тадбиркорлигини ривожлантириш, турмуш шароитларини яхшилаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди.

“Ўзбекистон – 2030” стратегиясини “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони лойиҳаси ҳамда амалий тадбирлар режаси лойиҳалари ишлаб чиқилиб, жамоатчилик муҳокамаси учун www. uzbekistan2030. uz веб-сайтига жойлаштирилди. Ушбу лойиҳалар жорий йилнинг 9 февраль кунига қадар кенг жамоатчилик ва экспертлик муҳокамаларидан ўтказилади.

Бу йилги фармон ҳамда амалий тадбирлар режаси лойиҳаларига кўра, хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизимини янада кучайтириш мақсадида 2024 йил 1 мартдан бошлаб хотин-қизлар бандлигини таъминлашга кўмаклашиш, улар ўртасида

тадбиркорликни ривожлантириш, касб-ҳунарга ўқитиш ва ўзини ўзи банд қилиш вазифалари белгиланган. Ушбу вазифаларни амалга ошириш учун қуйидаги амалий чора-тадбирлар кўзда тутилган:

Биринчидан, хотин-қизлар бандлик дастурини тасдиқлаш ҳамда дастур доирасида хотин-қизларнинг кичик бизнес лойиҳаларига имтиёзли кредитлар ажратиш белгиланган. Бунда хотин-қизлар бандлигини таъминлашнинг замонавий ташкилий-ҳуқуқий механизмларини етарлича жорий қилиш, ишсиз хотин-қизларни касбга тайёрлаш ва уларнинг касб малакасини ошириш хотин-қизларнинг ишсизлик даражасини пасайишига олиб келувчи чора-тадбирларни белгилаб берадиган бандлик дастурини тасдиқлаш назарда тутилган. Ушбу бандлик дастурдан асосий мақсад хотин-қизларнинг кичик бизнес лойиҳаларига имтиёзли кредитлар ажратиш орқали уларнинг тадбиркорлигини ривожлантириш кўзланган.

Бу орқали хотин-қизларнинг турмуш тарзини яхшилаш ва уларни иқтисодий мустақилликка эришишларига, ўзини ўзи банд қилишларига эътибор қаратилган. Шу билан бирга, оила бюджети даромадларини ошириш, уй меҳнатидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқаришни янада кенгайтириш орқали ҳозирги кундаги долзарб муаммолардан бири бўлган ишсизликни камайтириш кўзланган.

Иккинчидан, ҳар бир ҳудудда хотин-қизлар ҳунармандчилик марказлари ва кластерларини ташкил қилиш кўрсатилган. Бунда хотин-қизлар ўзларининг яшаш шароити, муҳити ҳамда яшаётган ҳудудининг ўзига хослигидан келиб чиққан ҳолда ҳунармандчиликни ўрганишади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05. 03. 2021 йилдаги ПҚ-5020-сон “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида 2021 йил мобайнида ҳар бир ҳудудда асосан хотин-қизлар фаолият юритадиган ҳунармандчилик турларига ихтисослашган кластерлар фаолияти тажриба сифатида жорий этилган эди. Ушбу кластерлар қатор ҳудудларда тажриба сифатида фаолият юритгани ҳамда самарали натижалар берганини кўришимиз мумкин. Уларнинг афзал жиҳати шундаки, кластерлар ҳунарманд аёлларни хомашё билан таъминлайди ҳамда уларнинг қўл меҳнати билан яратган маҳсулотларини бозор нархида сотиб олади.

Ҳозирги кунда қўл меҳнати асосида ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг нафақат ички бозорда, балки ташқи бозорда ҳам талабгорлигини эътиборга оладиган бўлсак, ҳунармандчилик орқали хотин-қизлар уйдан чиқмаган ҳолда, ортиқча сарсонгарчиликларсиз барқарор даромадга эга бўлишларини алоҳида таъкидлаш лозим. Шу билан бир қаторда, аёлларимиз фарзандлари тарбияси билан шуғуллана оладилар ҳамда уларни ҳам ушбу фаолиятга жалб қилиб бўш вақтларини самарали ўтказишларига ёрдам беради.

Учинчидан, хорижий мамлакатларда оғир вазиятга тушиб қолаётган ўзбекистонлик аёлларга ҳар томонлама кўмак кўрсатиш, хорижий дипломатик ташкилотлар билан ҳамкорликда ишлаш ва сайёр қабуллар ташкил этиш ҳамда муаммоларни бартараф этиш вазифаси назарда тутилган. Бу вазифани амалга ошириш учун чет элда юрган хотин-қизлар меҳнат муҳожирлари географияси ва рўйхатларини аниқлаш, аёллар билан онлайн давра суҳбатларини ўтказиб, муаммоларини аниқлаш, уларга хорижда ишлашнинг қонуний асослари ҳамда одам савдосига қарши курашишнинг мазмун-моҳиятини тушунтириш каби амалий чора тадбирлар кўрсатилган.

Бу билан ҳозирги пайтда долзарб муаммолардан бири бўлган аёллар ноқонуний меҳнат миграцияси натижасида келиб чиқаётган оғир оқибатларни олдини олиш ҳамда бартараф этиш имконияти вужудга келади. Хотин-қизларимизнинг ҳуқуқий онг ҳамда ҳуқуий маданиятини ривожлантириш, уларни ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳорижда ҳам қўллаб-қувватлаш ҳамда давлат муҳофазасига олиш ушбу вазифанинг асосий мақсадларидан бири ҳисобланади.

Jamiyatdagi barcha shahslarni tarbiyalab kelayotgan, hayotimiz komakchisi bolgan, pedagoglar jamiyat hayotida muhim o’rin tutgani bejizga emas. Biz shaxsning jamiyatda o’z o’rnini topishida, uning xalqga hizmat ko’rsatuvchi vatanparvar shaxs bo’lishini taminlovchi pedagoglarning Yangi O’zbekiston hayotidagi ahmiyatini atroflicha o’rganamiz.

Madaniyat homiylari

Pedagoglar o‘z jamiyatiga xos bo‘lgan an’analar, tillar va urf-odatlarning boy me’roslarini asrab-avaylash va yetkazishda madaniyat posbonlari bo‘lib hizmat qiladilar. O'quv dasturlarini madaniy jihatdan mos keladigan mazmun va istiqbollar bilan to'ldirish orqali o'qituvchilar o'z o'quvchilarining shaxsiyatlarini shakllantirishda va vatan tuyg'usini rivojlantiradilar. Adabiyot, san'at yoki tarixiy rivoyatlar orqali, ular o'quvchilarda o'zlarining aksini ko'rishlari mumkin bo'lgan ko'zgu bo'lib, ularga o'z merosini g'urur bilan qabul qilish imkoniyatini beradilar. [1]

Hikmat egalari:

Har bir madaniyatda donolik ma’naviy yuksalish va jamiyat totuvligining tamal toshi sifatida e’zozlanadi. Pedagoglar bilim beruvchilar sifatida nafaqat akademik saboqlarni, balki odamlarga hayot yo'llarida yo'l ko'rsatadigan abadiy haqiqatlarni ham berishda katta mas'uliyatni o’zlariga yuklaydi. Ular o‘z so‘zlari va xatti-harakatlari bilan rahm-shafqat, to‘g‘rilik, matonat kabi fazilatlarni singdirib, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy mezonlarini tarbiyalaydilar.

O’quvchilarni ilhomlantiruvchi mayoq:

Darsliklar va sinf xonalari doirasidan tashqarida o'qituvchilar o'z o'quvchilari qalbida yetuklik va muvaffaqiyat alangasini yoqib, ilhom mayoqlari bo'lib xizmat qiladilar. Qiyinchiliklar ustidan g'alaba qozonish, mukammallikka intilish va jamiyatga mazmunli hissa qo'shish haqidagi o'zlarining hikoyalarini baham ko'rish orqali ular shaxsiy va jamoaviy amalga oshirish yo'li sifatida ta'limning o'zgartiruvchi kuchini namoyish etadilar. Ular har bir o‘quvchining salohiyatiga cheksiz ishonchi bilan umid va matonat urug‘ini sepib, yorqin kelajakni shakllantirishga shay bo‘lgan o‘zgaruvchilar avlodini yetishtirmoqda.

Vatanparvar shaxsni yetishtiruvchi me’mor

Pedagog vazifasining o‘zagida vakolatlarni kengaytirish yotadi, chunki ular o‘z qaramog‘idagi har bir shaxsning imkoniyatlarini to‘liq ochishga intiladi. Turli nuqtai nazar va

qobiliyatlarni inobatga olgan inklyuziv ta'lim muhitini yaratish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga o'zlarining o'ziga xosligini qabul qilish va kuchli tomonlarini ishga solish imkonini beradi. [2] Murabbiylik, yo‘l-yo‘riq va shaxsiy qo‘llab-quvvatlash orqali ular o‘z-o‘ziga ishonch va o‘zini-o‘zi samaradorligi urug‘larini yetishtiradi, bu esa o‘quvchilarga hayot qiyinchiliklarini chidamlilik va nazokat bilan engish imkonini beradi.

Ijtimoiy o'zgarishlarning asosi

Ta'lim uzoq vaqtdan beri ijtimoiy o'zgarishlarning kuchli katalizatori sifatida e'tirof etilgan va o'qituvchilar jamiyatning jamoaviy ongini shakllantirishda ulkan ta'sirga ega. Adolatsizlikka qarshi kurashish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hamdardlik va hamdardlikni tarbiyalash orqali o'qituvchilar yanada adolatli va adolatli dunyo yaratishga intilgan global fuqarolar avlodini tarbiyalaydilar. Ular o'zlarining targ'ibotlari, faolligi va adolatga sodiqliklari orqali munosabatlarda, siyosatlarda va tizimlarda tubdan o'zgarishlarga yo'l ochadilar, marginal va huquqdan mahrum bo'lganlarning ovozini kuchaytiradilar. [3]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pedagoglar o‘zlari xizmat qilayotgan xalqning ma’naviy qiyofasi sifatida muqaddas o‘rin tutib, madaniyat, hikmat, ilhom, kuch-quvvat, ijtimoiy o‘zgarishlar iplarini ta’lim-tarbiya to‘qimalariga to‘qadilar. O'zlarining fidoyiliklari, ishtiyoqlari va o'rganishning o'zgartiruvchi kuchiga cheksiz ishonchlari orqali ular hamma uchun yorqinroq, yanada qamrab oluvchi kelajak sari yo'lni yoritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T. : “O‘zbekiston”, 2020. – 40 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29. 04. 2019 y. , 06/19/5712/3034-son).

4. J. Tolipova Pedagogik kvalimetriya. TDPU bosmaxonasi. 2015y. 10 b.

5. Tolipova J. O. Biologiya o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirishning nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. -T. : Fan. 2005. -14 b.

6. http://www. ziyonet. uz/

7. http://www. istedod. uz/

GLOBAL JARAYONLARNI YOSHLARNING MA’NAVIY KAMOLOTIGA TA’SIRI

Xakimbekova Muslima Otabek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Biologiya yo’nalishi 1-kurs talabasi

Tel: +99893 683 06 81

E-mail: xakimjonovamuslima05@gmail. com

Annotatsiya*: Ushbu maqolada global jarayonlar va global jarayonlarning yoshlarni ongiga ta’siri, yurtimizda bo’layotgan global jarayonlarga yoshlar qo’shayotgan hissalari.*

Аннотация: *В этой статье рассматриваются глобальные процессы и глобальные процессы. влияние на сознание молодежи, Молодежь на глобальные процессы, происходящие в нашей стране вкладов*

Annotation: *this article covers global processes and global processes the impact of youth on consciousness, youth on the global processes taking place in our country*

Kalit so’zlar*: Globallashuv, mafkuraviy g’oyalar, terrorizm, ekstremizm, shovinizim*

Ключевые слова*: глобализация, идеологические идеи, терроризм, экстремизм, шовинизм.*

Keywords: *globalization, ideological ideas, terrorism, extremism, shovinizim*

KIRISH. Insoyat XXI asrga qadam qo’yar ekan, uning oldida juda murakkab muammolar vujudga keldi, ularning asosiy qismi ta’sir doirasining miqyosi va ahamyatiga ko’ra global muammolar nomini oldi. Butun insonyatni qamrab olgan bugungi kuni va kelajagiga xavf soluvchi, yechimni topishga barcha davlatlar va xalqlarning birgalikda harakatini talab qiluvchi muammolar global muammolar deyiladi. Global muammolar –aholi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va atrof –muhit o’rtasidagi o’zaro munosabatlar naijasidir. Global muammolar jamiki insonyatga, barcha mamlakatlar, xalqlarga ta’sir ko’rsatadi: ijtimoiy va iqtisodiy sohlarda katta talofatlar, inqirozlar keltirib chiqadi, jahon silivizatsiyaning mavjudlgiga ham havf solidi. [1]

GLOBAL JARAYON VA YOSHLAR. Global jarayon –hozirgi kunda yoshlar va butun insonyatni qamrab olgan turli xil global muammolarni o’z ichiga oladi. Bugungi kunda borayotgan bu global jarayonlar ya’ni internet tarmog’ining keng ko’lamda rivojlanishi va inson ongini turli xil ziddiyatlarga olib keluvchi o’yinlarning rivojlanganligi, yoshlarni ma’naviy kamolotiga juda katta ta’sir ko’rsatmoqda. Yer kurrasida oldindan mavjud bo’lib kelayotgan global muammolarni biz yoshlar bartaraf etishga kurashishimiz zarur hisoblanadi. Butun jahonda bo’lib kelayotgan global muammo: sayyora aholisining soni har yili barqaror sur'atda o'sib bormoqda, bu muqarrar ravishda tabiiy potentsialga bosimga, tabiiy muhitning salbiy antropogen rivojlanishiga olib keladi, lekin oziq-ovqat bazasining ko'payishi bilan birga kelmaydi. Shunday qilib, aholi sonining ko'payishi, qoida tariqasida, madaniy va iqtisodiy darajasi eng past bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Bizning zamonamizning global muammolarini o'zaro bog'lashni keyingi "bog'lanish" - kosmosning rivojlanishi bilan davom ettirishingiz mumkin. bo'sh joy. Sanoatning naqadar yosh ekanligini hisobga olsak, u yarim asr davomida sezilarli yutuqlarga erishdi. Qanday bo'lmasin, insoniyat yer zaxiralari tanqisligini qoplash uchun begona resurslarni qazib olish istiqbollari tomon barqaror yo'lni tutadi. Biroq, muammo kosmosni o'rganishning moliyaviy imkoniyati yo'qligidadir. Bugungi kunga kelib, bu sohadagi tadqiqotlarga pul sarflash aksariyat shtatlarning imkoni yo'q. Shuning uchun bu muammolarni bartaraf etish biz yoshlar qo’lida va elementi – rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloqligini bartaraf etishni eslatib o’z imkonyatlarimizdan foydalangan holda buni amalga oshiramiz.

Global muammolarning o‘zaro bog‘liqligi zanjirining yana bir o‘tmaslik mumkin emas. Hech kimga sir emas: yer yuzining har beshinchi aholisi ochlikdan aziyat chekmoqda. Yana yo'qolib borayotgan resurslar muammosiga qaytamiz, ular har yili ortib borayotgan yer aholisi tomonidan iste'mol qilinadi. Qoidaga ko'ra, tug'ilishning o'sishi iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda sodir bo'ladi. Bu holatni biroz boshqacha tasavvur qilish kifoya. Agar zamonaviy insoniyatning barcha vakillari yuqori turmush darajasiga ega bo'lsa, nima bo'ladi? Afsuski, bizning sayyoramiz uzoq vaqt oldin omon qolmagan bo'lar edi. Muammoni hal qilish yo'llaridan biri

tug'ilish darajasini cheklash, o'lim darajasini pasaytirish, hayot sifatini oshirish bilan birga bo'lishi kerak. Albatta bu muammo ham usha yerda och qolgan yoshlarning ma’naviy kamolotiga juda katta ta’sir ko’rsatadi. Ular ongida ilm o’rganishni emas qanday qilib och qolmaslikni , bir kunlik ovqatini qanday topishni o’ylaydi.

Globallashuv jarayonlari inson salohivatini oshirishda ham qulay sharoitlar yaratib bermoqda. izlanish va tadqiqotlar, ta’iim va tajriba sohasida xalqaro malaka oshirish, qo‘shma loyihalar va xorijda tajriba natijasida o'zini milliy iqtisodiyotning muhim innovatsion omili sifatida namoyish etmoqda. Internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xo'jalik subyektlarining faoliyat doirasini kengaytinnoqda. Xo'jalik yurituvchilar uning yordamida nisbatan kam xarajatlar evaziga zarur axborotlarga ega boimoqdalar. Shuningdek, ular boshqaruv jarayonida yangi sifat darajalariga erishish, xo'jalik yuritish salohiyatining oshishi, talab va taklif o‘zgarishlariga xos qarorlami o‘z vaqtida qabul qilish imkoniyatga ega bo'lmoqdalar. [2].

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARDGI MAFKURAVIY G’OYALLAR.

Hozirgi kunda yoshlarda ong ta’sirida mafkuraviy g’oyalar jaddal tarzda rivojlanib kelmoqda. Bu jarayon ham hozirgi zamon global muammolari hisoblanadi.

Bugungi kunda jiddiy mafkuraviy xavf sifatida diniy ekstremizim, millatchillik, shovinizm, ma’naviy qashoqqlik, axloqsizlikni targ’ib qilishga asoslangan g’oyaviy qarashlar tizimi va amalyotini ko’rsatish mumkin. Ijtimoiy tarkibning xilma-xilligi uni tashkil qilgan unsurlar manfaatlarining, intilishlarining rang-barangligiga asos bo‘ladi. G‘oyaviymafkuraviy qarashlar bu manfaatlar va intilishlarning o‘ziga xos ifodasi bo‘lib, turli kuchlarning maqsadlari, faoliyat yo‘nalishlarini ko‘rsatuvchi mantiqiy asoslangan qarashlar tizimiga aylana boradi. Shunga ko‘ra, har qanday davlatda bunyodkor g‘oyalar, mafkuraviy faoliyat ustuvor bo‘lganda, milliy taraqqiyot imkoniyatlari kengayadi. «yer planetasi» deb atalgan ijtimoiy siyosiy makonda: huquqiy tenglik, iroda erkinligi, xalqaro miqyosda tinchlik qaror topadi, millatlararo, dinlararo do‘stona munosabatlar mustahkamlanadi.

Ekstremizm (lotincha: – o‘ta, keskin degan ma'nolarni anglatadi) — siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. ning siyosiy va diniy ko‘rinishlari yaqqol ajralib turadi. zo'rlik yoki zo'rlik ishlatishga davat qilih. Siyosiy. namoyandalari o‘zlarining g‘arazli maqsadiga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalanib, mavjud siyosiy tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yo‘qotishga harakat qiladi. Bu yo‘lda ekstremistlar va ekstremistik tashkilotlar "demokratiya" niqobi ostida balandparvoz shiorlar, chaqiriqlar bilan chiqib, terrorchilik va partizanlik harakatlarini qo‘llabquvvatlaydilar, qonunga rioya etmaslik, ish tashlashlar, tartibsizliklar chiqarishga urinadilar, odamlarni gijgijlaydilar, terror qilish usulidan foydalanadilar (qarang Terrorizm). Ekstremistik tashkilotlarning rahbarlari har qanday murosa va kelishuvni rad etadilar. Bu g’oyallar yoshlarning ma’naviy kamolotiga katta ta’sir ko’rsatmoqda. [3].

XULOSA. Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki bugungi kundagi global jarayonlar yoshlarning ma’naviy kamolotiga ta’siri ularda ongida turli xil mafkuraviy g’oyalarni tug’dirmoqa. Biz yoshlar bu g’oylar qurboni bo’lmasligimmiz va global muammolarni bartaraf etishga yordam berishimiz zarur deb o’ylayman. Hozirda

biz yoshlar ongni buzayotgan internet tarmog’idan to’g’ri foydalanishimiz, turli kitoblar o’qib fikrlash doiramizni kengaytirishimiz zaruz deb bilaman. Insonyat hayotda yashar ekan bu global muammolar tugamaydi, ammo bu muammolarni

o’z ongimmizga, ma’naviy kamolotimizga ta’sir etmasligiga harakat qilishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I. A. , O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T. , 1997.
2. Zagritdinova F. , Nekotorne problem biomeditsinskoy etiki, Toshkent, 2005.
3. O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000 yil

YANGI O’ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Botirjonov Muhammadzoxid Muxammadmansur o‘g‘li
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Abdullayev Akmal Nasriddinovich
NamDPI dotsenti, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Maqsadimiz – Yangi O‘zbekiston yoshlarini
barkamol shaxslar sifatida voyaga yetkazish
Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonni ertangi kunini belgilashda – asosiy rol o‘ynovchi kuch yoshlar ekanligi bayon etilgan. Yangi O’zbekiston yoshlari ongida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularni jamiyatni ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirokini ta'minlash mexanizmlari aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mexanizm, konstitusiya, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g’oyasi, strategiya, murojaatnoma, fuqarolik institutlari, demokratiya, modernizatsiya, shaxs.*

Аннотация: *В данной статье утверждается, что молодежь является основной ролевой силой в определении будущего Узбекистана. Отражены механизмы формирования активной гражданской позиции в сознании молодых людей нового Узбекистана, обеспечивающие их активное участие в общественно-политической жизни общества.*

Ключевые слова: *общество, общественно-политические процессы, механизм, конституция, идея от национального возрождения к национальному подъему, стратегия, петиция, гражданские институты, демократия, модернизация, личность.*

Abstract: *This article argues that youth are the main role force in determining the future of Uzbekistan. The mechanisms for the formation of an active civic position in the minds of young people of the new Uzbekistan are reflected, ensuring their active participation in the socio-political life of society.*

Key words: *society, socio-political processes, mechanism, constitution, idea from national revival to national upsurge, strategy, petition, civil institutions, democracy, modernization, personality.*

So’nggi yillarda O’zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda keng miqyosli islohotlar amalga oshirilmoqda. Vatan taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida ta'lim-tarbiya tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

O‘zbekistonda 2021-yilni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholini salomatligini mustahkamlash yili”, 2024-yilni esa “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” deb e'lon

qilinganligi mamlakatda yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish xamda jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilanganidan dalolat beradi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri, yangilanayotgan jamiyatning samarali natijalar berishi va istiqboli yoshlarning bilimi, intellektual salohiyati, islohotlarga munosabati, bir so‘z bilan aytganda ijtimoiy-siyosiy jarayondagi ishtirokiga har jihatdan bog‘liqdir. Chunki davlatning ijtimoiy-siyosiy saloxiyatini belgilovchi omillardan biri, mamlakat yoshlarining o‘z burchiga sodiqligi, aql zakovati va fidoiyligi bilan belgilanadi. Yangi O’zbekistonda demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi asosiy maqsad qilib qo‘yilgan ekan, demokratiyaning ko‘p jihatdan taqdiri ham, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayondagi samarali ishtirokiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Shunday ekan, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish uchun yoshlarning demokratik jarayonlarning chinakam ishtirokchisiga, milliy qadriyatlarning faol himoyachisiga aylanishiga erishish zarur. Bu jarayonni qat’iyat bilan uzluksiz rivojlantirib borishni hayotni o‘zi toqazo etmoqda.

Yoshlarning yangilanayotgan jamiyatni rivojlantirishdagi ishtirok etish holati ko‘p jihatdan jamiyatdagi ma'naviy muhitga, davlat boshqaruv tizimiga, inson omiliga bog‘liqdir. Shaxsning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirok eitish holatlari turli shakllarda namoyon bo‘lishi tabiiy holdir. Inson ongida milliy qadriyatlarni qay darajada shakllanganligi, o‘zining konstitusiyaviy burchini tushunish va shaxsiy xuquqlarini amalga oshirishga bo‘lgan munosabati, ma'naviy-ma'rifiy soxalarda qay darajadagi saviyaga ega bo‘lganligi, umuman, hayotimizda sodir bo‘layotgan voqealarni mukammal taxlil qilish imkoniyatlari bilan ham ifodalanadi.

Shuni ham qayd etib o‘tish joizki, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki fuqarolik institutlar, siyosiy partiyalar, mahalla instituti, jamoat birlashmalarining qay darajadagi ishtirokiga ko‘p jixatdan ham bog‘liqdir.

Aynan fuqarolik instituti, jumladan mahalla, jamoat tashkilotlari yoshlarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni erkin baholash, o‘z fuqarolik pozisiyasiga ega bo‘lish, yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlariga e'tiborli bo‘lish, ularda faol ishtirok etish, insonning shaxsiy kamolotini shakllantiruvchi qadriyatlarni inson ongidan o‘rin olishga alohida e'tibor berish ko‘nikmalarini shakllantirib borishda muhim vosita hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ilgari surilgan milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g‘oyasi yuqoridagi vazifalarni bajarishda muhim va samarali vosita hisoblanadi.

Mamlakat taraqqiyoti ko‘p jihatdan iqtidorli yoshlarga bog‘liq ekanligi barchaga ma'lum. Shuning uchun, davlatimiz rahbari 2019-yil 26-noyabrda “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu xujjatga muvofiq, 2021-yilgacha maktablarning kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi, 2030-yilga qadar esa 50 foizini zamonaviy maktablarga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi. Ushbu belgilangan vazifalar kelajagimiz uchun intellektual yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishga qaratilgan yangilanish strategiyasidir.

O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, jamiyatni modernizasiyalash va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini oshirish quydagi holatlarda namoyon bo‘lishi e'tiborga loyiqdir.

- Maktabgacha ta'lim va o‘rta ta'lim tizimini yuksaltirishning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshira borish;
- Jamiyatni modernizasiya qilish va yangilash jarayonida yoshlarning xuquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish;
- Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini ta'minlashda konstitusiyaviy xuquqlardan to‘la foydalanishni ta'minlash;
- Yoshlarning o‘zini-o‘zi boshqarishda fuqarolik institutlarini tashabbuskorligini yanada kuchaytira borishning samarali usullaridan foydalanish;
- Yoshlar ongida milliy qadriyatlarni yanada mustaxkamlash va samaradorligini ta'minlash;
- Yoshlar ongida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarga daxldorlik xissini shakllantira borish;
- Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada yuksaltira borish;
- Yoshlarda tadbirkorlik, mehnatga muhabbat xissini yanada kuchaytira borishining o‘ziga xos usullaridan foydalanish;
- Yoshlar ongida Vatanga muhabbat, millat ravnaqi, burchga sadoqat tuyg‘ularini yanada mustaxkamlash;

Xullas O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 29-dekabrda mamlakatimiz Parlamenti – Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida aytib o‘tilgan: “Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga etishi xal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama zamonaviy bilim va hunarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarga tayanamiz”, degan fikri barcha yoshlar uchun yangilanayotgan O‘zbekistonni asosiy dasturi bo‘lib qolishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёев томонидан 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.

2. Мамлакатни демократик янгилаш жараёнида фуқаролик жамият институтларининг ролини тубдан ошириш чора–тадбирлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ–5430–сонли Фармони Т.: 2018 йил 4 май.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маъросимдаги маърузаси. Т.:2019 йил 7 декабрь.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан мамлакатимиз Парламенти-Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2021 йил 29 декабрь.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH

Egamberganova Iqbolxon Azamat qizi
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Abdullayev Akmal Nasriddinovich
NamDPI dotsenti, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya: *Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi islohotlar va huquqiy fanlarni o‘qitilishini samaradorligini oshirish bo‘yicha nazariyalar, tahliliy natijalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Davlat, demoqratiya, fuqaro, huquq, islohot, natija, qonun.*

Annotatsiya: *V dannoy statye opisanы teorii i analiticheskiye rezultatы po povыsheniyu effektivnosti reform v sisteme obrazovaniya i prepodavaniya yuridicheskix nauk.*

Klyuchevыye slova: *Gosudarstvo, demokratiya, grajdanin, zakon, reforma, rezultat, zakon.*

Abstract: *This article describes theories and analytical results to improve the effectiveness of reforms in the education system and teaching of legal sciences.*

Key words: *State, democracy, citizen, law, reform, result, law.*

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishning muhim shartlaridan biri shaxsning asosiy huquq va erkinliklari himoyasini va jamiyatdagi har bir inson huquqlari ta'minlanishining amaliy kafolatlari tizimini yaratishdir. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Konstitutsiyamizda oliy qadriyat sifatida belgilab qo‘yilgan inson huquqlarini ta'minlash masalasi bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo‘ladi. Buning uchun sud hokimiyatining chinakam mustaqilligiga erishish naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini albatta barchamiz yaxshi tushunamiz”. Asosiy qonun hujjatimiz hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 2-bo‘limi – “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanishi zamirida ham inson huquqlariga masalasiga katta e'tibor berilganligi va inson huquqlari ta'minlanishining huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi. Bugungi kungacha O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro xujjatlarga, jumladan BMT ning 6 ta asosiy shartnomasiga va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMT ning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy mar'ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

So‘nggi yillarda inson xuquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-xuquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 22.06.2020-yildagi PF-6012-sonli farmoni qabul qilinishi inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yo‘lida muhim islohot bo‘lib xizmat qildi. 2020-yil 11-13-avgustlarda Yoshlar – 2020: “Global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari” bo‘yicha Samarqand forumi bo‘lib o‘tdi. BMT bosh kotibi chaqirig‘iga binoan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan inson xuquqlari Samarqand forumi – BMT 75 yoshda: “Kelajakka nigoh” dasturi doirasida bevosita yoshlar masalasiga bag‘ishlab o‘tkazildi. Yoshlarning xuquqlari va salohiyati tinchliksevar va demokratik jamiyat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etishni hisobga olgan holda, Samarqand forumi aynan Yoshlar – 2020: “Global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari” deb nomlandi. Forum davomida biz inson huquqlari sohasida yoshlar bilan bog‘liq qanday muammolar mavjudligini aniqlashga va ularni hal etishning eng maqbul yo‘llarini belgilashga harakat qilamiz. O‘zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklariga oid asosiy hujjatlarga qo‘shilishi bilan, xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari bosqichma-bosqich milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilib borilmoqda. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlar implementatsiyasida BMT konvensiyaviy hujjatlari bo‘yicha hisobotlar

mexanizmi muhim o‘ringa ega. Tabiiyki, u yoki bu sohada rejalarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi emas, balki strategik ustuvorlikni aniqlab olish va qo‘yilgan vazifalarning to‘liq hal etilishi muammoning yechimidir. O‘zbekiston mustaqil rivojlanish yillarida inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha inson huquqlari himoyasi mexanizmini kengaytirishga yo‘naltirilgan yangi milliy institutlar tashkil qilinmoqda. Davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ko‘plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuksak huquqiy madaniyatga asoslangan demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e’tirof etilgan prinsiplari bor. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do‘stlik, insonning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat asosiy idoralarining saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustunligi, tayinlash yo‘li bilan shakllanadigan davlat idoralarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Inson huquqlariga doir jahon andozalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948-yil 10-dekabrdagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi,” 1966-yilgi “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt,” “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” va unga qo‘shimcha Fakultativ protokol hamda boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning barcha asosiy g‘oya va qoidalarini o‘ziga singdirgan. Asosiy qonunimiz tarixda sinalgan umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning huquqiy tajribasiga tayangan. O‘zbekiston Respublikasi demokratik-huquqiy davlat qurishga azmu qaror qilgan ekan, yuksak huquqiy madaniyat, Konstitutsiya va qonunga hurmat, itoatkorlik muhim o‘rin egallamoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgan barcha say-harakatlar har bir yoshning to‘la ma’noda ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lishini taqazo qilmoqda. Bunday keng ko‘lamdagi o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini yaxshi anglamay turib faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish murakkab masaladir. Buning uchun avvalo, yoshlarning huquqiy ongi, savodxonligi va madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish davlatimizning yoshlar siyosatidagi eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. 2018 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. -B.108.
3. Qonun xujjatlari milliy bazasi, 23.06.2020 y., 06/20/6012/0953-son
4. https://yuz.uz/uz/news/inson-huquqlari-boyicha-samarqand-forumi-yoshlar-huquqlari-togrisdagi-xalqarokontvensiya-loyihasi-muhokamada
5. Dunyo siyosat jamiyati 10-nashr.
6. Konstitutsiyaviy huquq asoslari

TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHI

Abdullayeva Asila Abdulxodiyevna

NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XVI asrlarda ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko‘rsatgan. Sharq Uyg‘onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutqida alohida e'tirof etganidek, jadidlarimiz o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo‘l bermagan. Ular o‘sha davr turli kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo‘ldilar. Dastlab Rus podshohligi, keyinchalik sho‘rolar hukumati ularni ayovsiz quvg‘in va qatag‘on qilgan. Oqibatda milliy uyg‘onish va taraqqiyot harakati Vatanimiz uchun yorqin xotira sifatida qoldi.

Yurtimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi hozirgi davrda ham katta ahamiyatga egadir.

XX asr 90-yillari boshlarida O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, Renessansning uchinchi yangi bosqichi uchun qulay sharoit vujudga keldi. 2014-yil 14-15 may kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy anjumanda yurtimiz uchinchi Uyg‘onish davri bo‘sag‘asida turganligi alohida ta'kidlangandi. Binobarin, qariyb 30 yil davomida, ayniqsa, asrlarga tatigulik keyingi uch-to‘rt yillik qisqa davrda beqiyos va keng qamrovli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda biz uchinchi Uyg‘onish davri ostonasida turibmiz. Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi to‘rt yilda ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag‘zini to‘la chaqib ko‘rsak, navbatdagi Ma'rifat Renessansining markazi O‘zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Prezidentimiz 2020-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganidek, “Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda, “Yangi O‘zbekiston” iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvarli yutuqlarimizning e'tirofidir. Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi”. [1]

Chindan ham, biz ana shunday bebaho merosga ko‘pincha faqat tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo‘lib kelmoqdamiz. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e'tiborsizlikka yo‘l qo‘ymoqdamiz. Vaholanki, bunday noyob meros jahondagi sanoqli xalqlarga nasib etgan.

Masalan, birgina O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan 100 mingdan ortiq nodir qo‘lyozmalarga jahon ahli havas qiladi. Allomalarimizning noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha barchamizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlaydi.

Albatta, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh-o‘n yil davom etmay, ancha katta va mashaqqatli davrni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, minglab iste'dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar nihoyatda zarur.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida davlatimizda ulug‘ niyatlar bilan poydevori qo‘yilayotgan yangi Uyg‘onish davrining yorqin sahifalarga boy buyuk tarixi yaratilmoqda.

Eng asosiysi, farzandlarimizning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham O‘zbekistonda davlat va jamiyatning bosh maqsadi bo‘lib qoladi.

Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”. [2]

Adabiyotlar ro‘xati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://uza.uz/oz/posts/prezident-shavkat-mirziyoyevning-o-zbekiston-respublikasi-mu-31-08-2020

2. Bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas — Mirziyoyev O‘zbekistonda uchinchi Renessans davri yaratilayotganini ta’kidladi. https://xs.uz/uz/post/bugungi-ozbekiston-kechagi-ozbekiston-emas-mirziyoev-ozbekistonda-uchinchi-renessans-davri-yaratilayotganini-takidladi

3. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

“DAVLAT – XALQ UCHUN” TAMOYILI YANGI O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLARNING IFODASI EKANLIGI

To‘xtasinov Bobomurod Tulkinboy o‘g‘li
Namangan davlat universiteti Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
E-mail: bobomurod.tukhtasinov@bk.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “Davlat – xalq uchun” g‘oyasi bugungi Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning umumxalq safarbarlik ifodasi ekanligi. Shuningdek, insonparvarlik g‘oyasi, uning davlat hayoti va faoliyatida namoyon bo‘lishi, Sharqda, xususan,*

mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy davlat g‘oyasi belgilari va xususiyatlari borasidagi yondashuvlarining qiyosiy tahlili ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *“Inson-jamiyat-davlat” zanjiri, ijtimoiy davlat, “Harakatlar strategiyasi”, “Taraqqiyot strategiyasi”, Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat.*

Аннотация: *В данной статье утверждается, что идея “государство для народа” является общенародным мобилизационным выражением реформ в современном новом Узбекистане. Раскрывается также сравнительный анализ идей гуманизма, его проявления в жизни и деятельности государства, его подходов по признакам и особенностям идеи социального государства, выдвинутой на Востоке, в частности, нашими предками-мыслителями.*

Ключевые слова: *цепочка “человек-общество-государство”, социальное государство, “стратегия действий”, “стратегия прогресса”, новый Узбекистан – просвещенное общество.*

Annotation: *in this article, the idea of “State – for the people” is an expression of universal mobilization of reforms in today's New Uzbekistan. It also reveals the idea of humanism, its manifestation in the life and activities of the state, a comparative analysis of its approaches to the signs and features of the idea of a social State, advanced in the East, in particular, by our thinker ancestors.*

Keywords: *chain” Man-society-state“, social state,” strategy of Action“,” Strategy of Development", New Uzbekistan – enlightened society.*

Inson o‘zini anglaganidan buyon moddiy farovonlik hamda ma’naviy yuksalish uning pirovard orzularidan biri bo‘lib kelgan. Unga yakka-yolg‘iz tarqoq holda erishib bo‘lmasligini insonning anglab yetishi esa, buyuk ma’naviy tranformatsiya edi. Bir tomondan – davlat va ikkinchi tomondan – jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarda azaldan shunday umumiy qoidalar mavjudki, ularga munosabat davlatning sifatiy tomonini belgilaydi. Shulardan biri – xalq davlat uchunmi yoki davlat xalq uchunmi, degan masala. Zero, “inson-jamiyat-davlat” zanjiri harakat maydonida allaqachon yechimini topib ulgurgan: jamiyatning mushkulini oson qilish, muammolar yechimiga erishish uchun davlatni yaratdi. Birgina davlat so‘zsiz xalq uchun xizmat qilishi lozim va mas’ulligini anglatadi. Ammo nazariyada shunday, amaliyotda esa boshqacha va bu besamar tortishuvlarni yuzaga chiqardi.

Darhaqiqat, mustaqillikning bugungi bosqichida (bu yerda O‘zbekistonda oliy siyosiy rahbariyatda avlodlar almashinuvini nazarda tutayapmiz) tabiiy holda, davlat tushunchasiga ham yangicha qarash, uning tub mohiyati va vazifasi bilan bog‘liq tomonlarni chuqurroq idrok etish imkoniyati kengaydi. Xususan, Prezidentning “Davlat – xalq uchun” g‘oya va tashabbusi ilm ahlida muammoga noa’anaviy yondashuv istagini yaqqol kuchaytirdi. Nima sababdan aynan bugun ushbu g‘oya paydo bo‘ldi, uning ildizi qaysi davrlarga borib taqaladi kabi muammolar yoritilsa, davlatimiz istiqbolda qanday shakl hamda ma’no-mazmun kasb etishi mumkin, singari qator umidbaxsh savollar e’tiborimizdan joy oldi. Shunday ekan, uni bu g‘oya va ijtimoiy loyiha, shunchaki qamrovsiz bir abstraksiyami yoki zamirida bardavomlikka yo‘naltirilgan qadriyatlarga ega reallikmi, degan masalalar yechimida ilm ahli o‘z salohiyatini bugun namoyish etishi lozim bo‘ladi.

Umuman olganda insonparvarlik g‘oyasi, uning davlat hayoti va faoliyatida namoyon bo‘lishi XVI asrda Yevropaning sharqiy qismi Italiyada ildiz otgan bo‘lsa-da, aslida u insoniyatga uning ijtimoiy, madaniy va intellektual ravnaq yo‘lida xizmat qiladi. E’tiborli joyi shuki,

gumanizm g‘oyasi ildiz otgan mintaqalar orasida Markaziy Osiyo, xususan o‘zbek yurti borligi, taraqqiyotning ma’lum bir burilish asnolariga kelib u o‘zining nimaga qodirligini tasdiqlaganligi muhim [1]. Bundan chiqadiki, bugun Prezident Sh.Mirziyoyev ilgari surayotgan “Davlat – xalq uchun” g‘oyasining tomiri qadimiy davrlarga borib taqalar ekan.

Ulug‘ bobomiz Abu Nasr Forobiyning ezgulik, insoniylik, muruvvatni ulug‘lagan shahar/davlat abadiy baxt-saodat sohibidir, azaliy buyuk tamoyillarga, qadriyatlarga sodiq qolgan xalq – dono xalq, degan xulosasini ham shu kontekstda idrok etsak durust bo‘ladi [2]. Afsuski, bu kabi xulosalarni G‘arbda yaratilgan davlat va jamiyatga doir ta’limotlarda deyarli uchratmaymiz. G‘arb dunyoqarashida quyidan yuqori tomon “mutlaq chiziqli harakat” ta’limoti ta’siri ostida hatto fundamental qadriyatlar ham e’tibordan tushib qolishi tabiiy va bu ob’yektiv qonuniyat, degan fikr ustuvorlikka ega. Ammo zamon ta’siri ostida G‘arb mamlakatlari ilmiy jamoatchiligi tafakkurida ham Sharqda ulug‘langan azaliy tamoyillar, qadriyatlarga “qaytish” alomatlarini bugun kuzatish mumkin.

Davlat va fuqarolar hamjihatligi g‘oyalarini biz ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan “Avesto”da, “Qutadg‘u bilig”da, eronliklarning benazir adabiy merosi “Shohnoma”da bot-bot uchratamiz. Ularning barchasida davlatning xalqparvarligi, insoniyligi eng buyuk qadriyat tarzida talqin va ta’rif qilingan. “Eng avvalo xalq – keyin davlat”, “To‘rt ulug‘ fazilat: odob, adolat, rostgo‘ylik va nihoyat, sharm-u hayo. Mabodo shulardan birortasi mavjud bo‘lmasa, u holda davlatda jiddiy silkinishlar sodir bo‘ladi. Agarki ularning barchasi umuman barham topsa, unda davlatning o‘zi halokatga yuz tutadi” [3], degan tamoyillar Sharq olamida ildiz otib, boshqalarga yoyilgan. Shulardan buyuk ajdodlar nidosida asrlardan joy olib, bugungi kunlarga etib kelgan fozil shahar, ya’ni davlat g‘oyasi, O‘zbekistonimiz oliy siyosiy rahbariyatining amaliy ishlarida bugun o‘z ifodasini topmoqda. Yuqoridagi mulohazalar garchand uzoq va yaqin tarixga oid bo‘lsa-da, ular Yangi O‘zbekiston realligini chuqurroq idrok etishga beminnat xizmat qilishini hisobga olgan holda keltirilgan.

Ma’lumki, davlat bilan omma/fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik asosiga qurilgan muloqot/munosabat, davlatning xalq xizmatida bo‘lishi, vakolatli davlat organlarining fuqarolar bilan bamaslahat faoliyat olib borish g‘oyasi va amaliyoti turli mamlakatlarda o‘ziga xos va mos tarzda shakllanadi. Albatta, bu u yoki bu o‘zgarish uchun ijtimoiy ehtiyoj hamda shart-sharoit pishib yetilishi, unga nisban bir tomondan xalqning xohish-irodasi va boshqa tomondan esa, davlatning imkoniyat ko‘lami o‘rtasidagi monandlikning mavjudligiga borib taqaladi.

Yurtimizdagi bugungi kun vazifalari xususida so‘z yuritar ekan, Prezident Sh.Mirziyoyev “Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya bu boradagi faoliyatimiz mezoniga”[4] aylanayotganligiga alohida urg‘u berib kelmoqda. Xalq xohish-irodasi, buyuk ijtimoiy safarbarligining mahsuli davlat o‘zining xalq oldidagi mas’uliyatini chuqur his etishi butun dunyo ahliga o‘zini namoyish etmoqda.

Bu umumiy qonuniyat g‘oya balki boshqa mintaqalar, sivilizatsion maskanlarda boshqacha bir ko‘rinishda o‘zini namoyish yetar. Bu ob’yektiv qonuniyat, lekin O‘zbekistonda, xususan oliy siyosiy rahbariyatda avlodlar almashinuvi tufayli aynan “davlat – xalq uchun” ko‘rinishida xalqimiz hayotiga kirib keldi va amaliyotda ifodasini topmoqda. Xolisona aytadigan bo‘lsak, Prezident g‘oyasining ro‘yobi xalqimiz ongi va qalb to‘ridan joy olib, o‘z vaqti-soatini kutayotgan edi. Davlat hokimiyati hech qachon hatto mustaqillikdan keyin ham xalqi oldida javobgarligi

hamda mas’uliyatini bu qadar ochiqchasiga xalqimizga aytmagan edi. Shunday ekan, uni zamonaviy o‘zbek davlatining o‘z xalqi oldidagi azaliy tavallosi, demokratiya g‘oyasining “o‘zbek andozasi”, demokratiyaning o‘zbek zaminidagi yangicha ko‘rinishi, deb hisoblash asosli bo‘lar edi.

Darhaqiqat, zamonaviy o‘zbek davlatiga Konstitutsiyamizda ijtimoiy huquqiy davlat deb ta’rif berilgan. Shu bilan O‘zbekiston suveren davlat sifatida ushbu umumbashariy platformadan munosib o‘rin egalladi. Ammo o‘zbek zaminida turli davrlarda asos solingan davlatlar silsilasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, davlat bu o‘lkada bugungidek sotsial xarakterga ega bo‘lganligi, ya’ni xalqimizning ongi va tafakkuri, mentalitetiga moslikka erishganligini, oddiy insonlar intilishlaridan o‘zini olib qochmaganligini eslash qiyin. Gap uning qandaydir sivilizatsiya bilan bog‘liqligida ham emas, balki o‘zbek dunyoqarashi, siyosiy madaniyati natijasi bo‘lmish davlat xalq orzu umidlari bilan hamohang bo‘lishga majbur edi.

Ushbu hududda tarixning turli bosqichlarida umrguzaronligi kechgan ajdodlarimiz ongi va tafakkuridan joy olgan faqat ijtimoiy farovonlikka intilish, barcha badavlat bo‘lishligi, fuqaroviy hamjihatlik g‘oyasi bugun “davlat – xalq uchun” ijtimoiy amaliyotida tom ma’noda yangicha ifodasini topdi. Shunday ekan, Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida, xususan arzon uy-joylar qurish, joriy etilgan yangi soliq konsepsiyasidan o‘rin olgan soliq yukini kamaytirib borish strategiyasi, tadbirkorlik yuritish uchun barchaga qulay imkoniyat yaratishga qaratilgan davlat siyosati va boshqalarni ana shu “Davlat – xalq uchun” ijtimoiy dasturi doirasida idrok etish to‘g‘ri bo‘ladi.

Bugun davlat o‘zini yuzaga keltirgan, og‘ir sinovlardan xalos etib, bugungi avlodga yetkazgan xalqqa nisbatan innovatsion tashabbuslar bilan chiqishi lozim bo‘ladi. Undan xalqni rozi qilish maqsadida yangi imkoniyatlar, resurslar yaratishning yo‘llarini izlash talab etiladi. Davlat organlari endilikda shunchaki boshqaruv, hokimiyatni legitimlashtirish vositasi bo‘lishi bilan bir qatorda, “xalq xohish-irodasining siyosiy shakli”[5] ekanligini amalda isbotlashi kerak bo‘ladi.

Bugungilar uzoq ajdodlaridan farq qilib, barcha parametrlari nuqtayi nazaridan dunyo miqyosida ro‘y berayotgan turli-tuman – yaxshi va yomon o‘zgarishlarga nisbatan nihoyatda sergak. Prezidentimiz aytganidek, hayotiy muhim “muammolarni bir oy yoki bir yildan keyin emas, balki shu bugun, hozirning o‘zida yechish”[6] zaruratidan kelib chiqish talab qilinmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Davlat – xalq uchun” g‘oyasi, uning amaliyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng avvalo, bu tashabbus shunchaki o‘tkinchi voqea-hodisalarga davlat boshlig‘ining e’tibori natijasi emas. Shunday ekan, jahon hamjamiyati va ayniqsa, umumiy tarixiy kechmishga ega yaqin qo‘shni mamlakatlarda jiddiy qiziqish uyg‘otgan ushbu innovatsion ijtimoiy-siyosiy loyihada o‘zbek xalqi, o‘zbekistonliklar bir necha ming yillar mobaynida ongi va shu’urida asrab kelgan muruvvatli saltanat, mavjud resurslar va imkoniyatlardan aholining barcha tabaqa va qatlamlarining teng foydalanishi, hokimiyat vakillari bilan xalq o‘rtasida doimiy va tenglikka asolangan muloqot singari milliy qadriyatlar, tamoyillar o‘z aksini topdi. Inson, fuqaro orzu qilishi mumkin bo‘lgan eng oliy tilak – davlatning xalq xizmatkoriga aylanishi Prezident tashabbusida kundalik amaliyotga aylandi.

Uning tasdig‘ini biz 2017-yil joriy qilingan mamlakatimiz ravnaqiga yo‘naltirilgan “Harakatlar strategiyasi” hamda “Taraqqiyot strategiyasi”da ko‘rayapmiz. Agar ushbu hujjatlarni diqqat bilan ko‘zdan kechirganimizda, u yerdagi strategiyani bosqichma-bosqich emas, balki faol suratda kompleks amalga oshirish shart bo‘lgan vazifalarning barchasi xalqimizning kundalik

